Kundalikni qo'ldan o'tkazmang

N.G. Chernishevskiy

Nima qilmoq kerak?

Kitob shu erda ko'rsatilgan muddatdan kechiktirilmagan holda topshirilishi shart

Ilgarigi berilmalar miqdori _____	

821
Ch 43

б.о.

Rus adabiyoti durdonalari

NIKOLAY GAVRILOVICH
CHERNISHEVSKIY

Nima qilmoq kerak?

T.27

Roman

TOSHKENT
«O'ZBEKISTON»
2021

UO'K 821.161.1-32
KBK 84(2Ros=Rus)
Ch 43

Rus tilidan **Sharif Tolib** tarjimasi

Chernishevskiy, Nikolay Gavrilovich T-27
Ch 43 Nima qilmoq kerak? roman/N.G. Chernishevskiy. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2021. – 496 b.

ISBN 978-9943-6584-9-3

N.G. Chernishevskiyning «Nima qilmoq kerak?» romani ma'naviy asorat kishanlarini parchalab, nurafshon istiqbol va pok muhabbat uchun kurashgan matonatli qalb egalarini tarannum etguvchi asardir.

Romanda inson ma'naviy dunyosi chuqur tahlil etilib, ijtimoiy axloq qonunlarining mag'zi chaqib berilgan.

UO'K 821.161.1-32
KBK 84(2Ros=Rus)

ISBN 978-9943-6584-9-3

© Sh. Tolib (tarj.), 2021
© «O'zbekiston» NMIU, 2021

TOSHKENT SHAHRI YASHNOBOD TUMANI AXBOROT GAZETASI
№2022/ME-24

Do'stim O. S. Ch.ga[1] bag'ishlanadi

I
AHMOQ

1850-yilning 2-iyul kuni ertalab Peterburgda – Moskva temiryo'li bekati yonidagi katta musofirxonalardan birida xizmatkorlar hayron bo'lib, hatto biroz tashvishga ham tushib qolishdi. Kecha, oqshom soat sakkizdan oshganda bir janob chamadon ko'tarib kelib xona olgan, pasportini qayd ettirishga topshirib, choy va kotlet keltirishni so'ragan, kechqurun bezovta qilmanglar, charchaganman, uxlamoqchiman, lekin ertaga soat sakkizda, albatta uyg'otib qo'yinglar, shoshilinch ishlarim bor, deb tayinlagan, keyin xonasining eshigini qulflab olib, pichoq-sanchqi va choynak-piyolalarni shaqirlatib, biroz fursat o'tgach, jimib qolgan – uxlagan bo'lsa kerak. Tong otdi; soat sakkizda xizmatkor borib kechagi musofirning eshigini taqillatdi – u ovoz bermadi; xizmatkor qattiqroq taqillatdi, keyin yanada qattiqroq taqillatdi – mehmon shunda ham ovoz bermadi. Qattiq charchagan bo'lsa kerak-da. Xizmatkor chorak soatcha kutib, yana taqillatdi, yana uyg'otolmadi. Boshqa xizmatkorlar bilan, bufetchi bilan maslahatlashib ko'rdi. «Biror korhol yuz bergan bo'lmasin tag'in?» – «Eshikni buzish kerak». – «Yo'q, mumkinmas: eshikni politsiya bilan buzish kerak». Yana bir marta qattiqroq taqillatadigan, o'shanda ham uyg'onmasa, politsiyaga odam yuboradigan bo'lishdi. Oxirgi marotaba urinib ko'rishdi, uyg'otisholmadi; politsiyaga odam yuborishdi, nima gapligini ko'rib-bilish uchun kutib turishdi.

Ertalab soat o'nlarga yaqin politsiya amaldori yetib keldi, o'zi taqillatib ko'rdi, xizmatkorlarga, taqillatinglar, deb buyurdi, lekin

[1] O. S. Ch. yozuvchining raqifasi Olga Sokratovna Chernishevskaya (1833–1918).

natija o‘sha-o‘sha ilgarigidek bo‘ldi. «Boshqa iloji yo‘q, yigitlar, eshikni buzinglar», dedi.

Eshikni buzishdi. Qarasalar, xonada hech kim yo‘q. «Karavotning tagini qarang-chi», – musofir karavotning tagida ham yo‘q. Mirshab stol yoniga keldi, stolda bir varaq qog‘oz yotar, unga katta-katta harflar bilan: «Tun soat o‘n birda ketganimcha qaytmayman. Daragimni Liteyniy ko‘prigida, tungi soat ikki bilan uchlar o‘rtasida eshitishar. Hech kimdan shubha qilinmasin», deb yozilgan edi.

– E, gap bu yoqda ekan-ku, bizlar bo‘lsak o‘ylab-o‘ylab tagiga yetolmay o‘tiribmiz-a, – dedi mirshab.

– Nima gap o‘zi, Ivan Afanasyevich? – deb so‘radi bufetchi.

– Choy bersangiz, nima gapligini aytaman.

Politsiya amaldorining hikoyasi musofirxonada allamahalgacha qizg‘in muhokamalar, tortishuvlarga sabab bo‘ldi. Voqea bunday bo‘lgan edi.

Kechasi soat ikki yarimlarda havo bulut, qorong‘i edi. Liteyniy ko‘prigining o‘rtasida yalt etgan olov ko‘ringan-u, pistoletdan uzilgan o‘q ovozi eshitilgan. O‘q ovozini eshitib, soqchilar yugurib kelishgan, ancha-muncha yo‘lovchilar to‘plangan, – o‘q ovozi chiqqan joydan hech kim va hech vaqo topilmagan. Demak, birovni birov otgan emas, kimdir o‘zini o‘zi otgan. Suvga sho‘ng‘ib qidirishga ishqibozlar ham chiqib qoldi, birozdan keyin uzun dastali changak, baliq tutadigan allaqanday to‘r olib kelishdi, sho‘ng‘ib, suv taglarini timirskilab qidirib ko‘rishgandi, ellikka yaqin katta-kichik payraha, yog‘och-pog‘och topib chiqishdi, lekin odam o‘ligi topilmadi va tutilmadi. Zim-ziyo qorong‘i kechada qanday qilib ham topilsin? Shu ikki soat ichida o‘lik dengizga yetib qolgan bo‘lsa kerak, endi borib, o‘sha yerdan qidiraver. Shu sababdan ilgarigi taxminni rad qilgan progressistlar chiqib qoldi: «Balki hech qanday o‘lik-po‘likning o‘zi yo‘qdir? Balki bironta mast yoki shum jinnilik qilgandir, – o‘q uzib qochib qolgandir, balki uning o‘zi ham shu jonsarak kishilar orasida turib, rosa vahima ko‘tardimmi, deb kulayotgandir».

Lekin hamisha farosat bilan muhokama qiluvchi ko‘pchilik bu gal ham shunday, konservativligicha qoldi va: «Jinniligi nimasi – miyasidan o‘q uzgan, vassalom», degan eski taxminni yoqlab turaverdi. Progressistlar yengildi, lekin yenggan partiya, hamma vaqtdagiday, yengganidan keyin darhol ikkiga bo‘lindi.

Ha, mayli, o‘zini o‘zi otgan bo‘lsin; lekin nega otgan? Bir xil konservatorlarning fikricha, «mastlikdan» shunday qilgan; boshqa konservatorlar, «bor-yo‘g‘ini sovurib kafangado bo‘lgan», deyishdi; allakim «ahmoq-da», deb qo‘ya qoldi. Hamma, o‘zini o‘zi otdi, degan fikrni rad qilgan kishilar ham shu «ahmoq-da», degan fikrga qo‘shildi. Darhaqiqat, o‘zini o‘zi otgan odam mastmi, bor-yo‘g‘ini sovurib kafangado bo‘lganmi yoki bironta shum o‘zini o‘zi otmay, shunchaki jinnilik qilganmi, – nima bo‘lganda ham bu bir ahmoqona hazil.

Kechasi ko‘prikda yuz bergan voqea shu bilan tamom bo‘ldi. Erta bilan Moskva temiryo‘li yonidagi musofirxonada ahmoq jinnilik qilmaganligi, balki o‘zini o‘zi otganligi ma’lum bo‘ldi. Lekin bu voqeadan shunday bir fikr tug‘ilib qoldiki, yengilganlar ham shu fikrga, ya’ni, agar sho‘xlik qilmagan, o‘zini o‘zi otgan bo‘lsa ham baribir ahmoq, degan fikrga qo‘shilishdi. Barchaga ma’qul tushgan bu fikrning mustahkam o‘rnashib qolganiga sabab konservatorlarning tantanasi edi: darhaqiqat, agar ko‘prik ustida o‘q uzib sho‘xlik qilgan bo‘lsa ham, aslida uning ahmoqligi yoki shunchaki shumligi hali dargumon edi. Lekin, har holda, o‘zini o‘zi ko‘prik ustida otdi-ku, axir kim o‘zini o‘zi ko‘prik ustida otadi? Bu nima degan gap, ko‘prik ustida otgani nimasi? Nega ko‘prik ustida otadi? Ko‘prik ustida otishi tentaklik-ku! Ha, u odam shubhasiz tentak.

Ba’zi kishilarda yana: o‘zini o‘zi ko‘prik ustida otganmikin, hech kim ko‘prik ustida o‘zini otmaydi-ku, demak, o‘zini o‘zi otmagan, degan shubha paydo bo‘ldi. Lekin kechqurun musofirxona xizmatkorlari suv tagidan topilgan, o‘q teshib o‘tgan furajkani ko‘rib guvohlik berish uchun mahkamaga chaqirilganida, bu o‘sha musofirniki, deb hammalari iqror bo‘lishdi. Demak, o‘zini o‘zi otganligi shubhasiz, shu bilan inkor va progress ruhi uzil-kesil yengildi.

«Ahmoq» degan fikrga hamma qo‘shildi, to‘satdan hamma: ko‘prik ustida-ya, quvligini qaranglar, deb shov-shuv ko‘tardi. Yaxshi otolmasam qiynalib o‘tirmay, deb shunday qilgan, o‘ylab topganini qarang-ku! Har qanday yarador ham suvga yiqildimi, tamom, o‘ziga kelmayoq suv tiqilib o‘ladi, – qarang-a, ko‘prik ustida... qoyil, aqli joyida ekan!

Mana endi hech narsaga tushunib bo‘lmay qoldi – ham ahmoq, ham aqlli.

II

AHMOQONA ISH YUZASIDAN BIRINCHI TERGOV

Shu kuni erta bilan, soat o'n ikkilarda Kamenniy Ostrov chorbog'idagi uch xonadan birida yosh xonim ish tikib, quvnoq va mardonavor fransuzcha bir qo'shiqni xirgoyi qilib o'tirardi.

Qo'shiqda bunday deyilardi: «Biz qashshoq-g'aribmiz, lekin ishchilarmiz, qo'llarimiz baquvvat, biz zulmatda qolganmiz, lekin tentak emasmiz, nurga tashnamiz. Biz o'qiymiz – bilim bizga erk beradi; mehnat qilamiz – mehnat bizni badavlat qiladi, ishimiz o'ngidan keladi, omon bo'lsak ko'ramiz –

Ca ira
Qui vivra, verra.

Biz nodonmiz, lekin nodonligimizning kasriga o'zimiz qolamiz. Biz xurofotga botganmiz, buning azobini o'zimiz tortamiz, buni sezib turibmiz. Baxt-saodat izlaymiz, muruvvat topamiz, bizga olijanoblik nasib bo'lmadi, – ishimiz o'ngidan keladi, – omon bo'lsak ko'rarmiz.

Bilimsiz mehnat unumsizdir, boshqalar baxt-saodatga erishmasa, bizning baxtli bo'lishimiz mumkin emas. Ong-bilim olamiz – ma'naviy boyiymiz; baxt qushi qo'nar boshimizga – hammamiz og'a-ini va opa-singil bo'lamiz, ishimiz o'ngidan keladi, omon bo'lsak ko'rarmiz.

O'qiymiz, mehnat qilamiz, o'ynab-kulamiz, dunyoda jannat yaratamiz. Hayot zavqin suraylik, – ishimiz o'ngidan kelar, hademay shunday zamon kelar, yetgaymiz hammamiz shunday kunlarga, –

Donc, vivons,
Ca bien vite ira,
Ca viendra,
Nous lons le verrons[1].

---

[1] Ishlar yurishib ketar,
Omon bo'lgan ko'radi.
Xullas, yashayveramiz,
U, albatta, keladi.

«Ca ira» 1789–1794-yillar fransuz revolutsiyasi davridagi milliy qo'shiq. Bu qo'shiq 1792-yilning may-iyun oylarida keng tarqalgan edi.

Quvnoq va mardonavor qo‘shiq edi, kuyi ham sho‘x edi, unda ikki-uch mungli joyi bor edi, ammo butun kuyining yangroqligi bu mungli o‘rinlarni bosib ketar, naqoratida, so‘nggi bandlarida sezilmay qolar edi, – har holda xonimning kayfiyat boshqacharoq bo‘lganda bular bosilib, sezilmay ketishi lozim edi, lekin hozir shu biroz mungli joylari shiddatliroq eshitilardi, xonim buni sezganda bir seskanganday bo‘lardi, shu joyga yetganda ovozini pasaytirardi-da, quvnoq joylarini kuchliroq aytardi, xayoli qo‘shiqdan yana o‘ylab turgan narsasiga ko‘chsa, mungli joylari yana kuchliroq eshitilardi. Aftidan, bu yosh xonim g‘am-g‘ussaga berilishni yoqtirmasdi; lekin u g‘am-g‘ussadan nariroq bo‘lishga urinmasin, g‘am-g‘ussa ham undan ajralgisi kelmasdi. Ammo bu quvnoq qo‘shiqmi, munglimi, aslida qanday bo‘lsa, shunday quvnoq chiqyaptimi, ishqilib, xonim kun bo‘yi ish tikardi. O‘zi durustgina chevar edi.

Xonaga yoshgina oqsoch qiz kirib keldi.

– Masha, chevarligimga qarasang-chi! Yenglarini bitkazayozdim, to‘yingizga atab o‘zim uchun tikyapman.

– Ha-ya, bularning gullari ilgari mening ko‘ylagimga tikkaningizga qaraganda kamroq-ku!

– Bo‘lmasa-chi! Kelin degan to‘yda hammadan chiroyli kiyinadi-da!

– Vera Pavlovna, sizga xat olib keldim.

Vera Pavlovna xatni ocharkan, hayron bo‘lib qoldi; konvertga shahar pochtasining tamg‘asi bosilgan. «Bu nimasi? Moskvadan ekan-ku?» Vera Pavlovna xatni shoshib ochdi-yu, rangi o‘chib ketdi; xat ushlagan qo‘llari shalvirab qoldi. «Yo‘q, undaymas, xatni o‘qib tamomlaganim yo‘q, xatda aslo bunday gap yo‘q!» Vera Pavlovna xat tutgan qo‘llarini yana ko‘tardi. Oradan bor-yo‘g‘i ikki soniya vaqt o‘tdi. Lekin bu gal ko‘zlari uzoq vaqt xatdagi bir necha satrga tikilib qoldi. Nurafshon ko‘zlari tinib, tobora xiralashib, xat shalviragan qo‘llaridan ish stoli ustiga tushdi. Shunda Vera Pavlovna yuzini qo‘llari bilan bekitib, ho‘ngrab yubordi. «Nima qilib qo‘ydim! Nima balo qilib qo‘ydim!» – yana ho‘ng-ho‘ng yig‘ladi.

– Verochka, senga nima bo‘ldi? Yig‘loqi emasding-ku? Sira bunday qilmasding-ku? Senga nima bo‘ldi?

Xonaga bir yosh yigit tez, lekin yengil va ohista qadamlar bilan kirib keldi.

– O‘qi... stol ustida...

Vera Pavlovna yig‘idan to‘xtab, bilinar-bilinmas nafas olgancha qimirlamay o‘tirardi.

Yigit xatni oldi; uning ham rangi o‘chib, qo‘llari titrab ketdi, xat qisqagina, bor-yo‘g‘i yigirmatacha so‘zdan iborat bo‘lsa ham u xatga uzoq tikilib qoldi:

«Men tinchligingizni buzdim. Endi ko‘zdan yo‘qolaman. Menga achinmang; ikkovingizni juda yaxshi ko‘raman, bunday qarorga kelganimdan baxtiyorman. Alvido».

Yigit anchagacha peshonasini ishqab turdi-da, keyin mo‘ylovini burab qo‘yib, paltosining yenglariga qaradi; nihoyat, bir fikrga keldi. Yosh juvon tomonga bir qadam qo‘ydi, u esa hamon bilinar-bilinmas nafas olib, qattiq uyquga ketganday harakatsiz o‘tirardi. Yigit xonimning qo‘lidan ushladi:

– Verochka!

Yigitning qo‘li tekkan hamon juvon xuddi elektr toki urganday dahshatli baqirib, shartta o‘rnidan turdi-da, yigitdan o‘zini chetga ola, titroq aralash uni itarib yubordi.

– Yo‘qol! Menga tega ko‘rma! Qo‘ling qonga bo‘yalgan! Sen uning xunxo‘risan! Seni ko‘rgani ko‘zim yo‘q! Sendan ajralaman! Ketaman! Yo‘qol, nari tur! – Vera Pavlovna ana shu zayl bo‘shliqni o‘zidan nari surar, zo‘r berib nari surar ekan, bir vaqt gandiraklab kresloga yiqilib, yuzini qo‘llari bilan bekitib oldi.

– Men ham uning xunxo‘riman! Xunxo‘riman! Senda gunoh yo‘q, hamma gunoh menda... bir o‘zim gunohkorman! Nima qilib qo‘ydim? Nima qilib qo‘ydim!

Vera Pavlovna ho‘ngrayverib nafasi bo‘g‘ildi.

– Verochka, – dedi yigit ohista, qo‘rqa-pisa, – do‘stim!..

Juvon xo‘rsindi-da, osoyishta, lekin hamon titroq tovush bilan zo‘rg‘a:

– Azizim, hozir meni yolg‘iz qoldir! Bir soatdan keyin qaytib kirsang, tinchib qolaman. Menga suv ber-da, chiqib ket! – dedi.

Yigit indamay itoat etdi. O‘z xonasiga kirdi, yana yozuv stoli yoniga borib o‘tirdi, bundan chorak soatcha ilgari bu stol oldida xotirjam va mamnum o‘tirgandi, yana qo‘liga qalam oldi...

«Shunday daqiqalarda o‘zingni tuta bilishing ham kerak, men irodali kishiman, – hammasi o‘tib ketadi... o‘tib ketadi...» Uning qalami, ixtiyoridan tashqari, qandaydir maqola misralari orasiga «bardosh bera olarmikin? Qanday dahshat, – baxtiqaro bo‘ldim...» deb yozdi.

– Jonginam, o‘zimga keldim, kel endi gaplashaylik! – degan tovush eshitildi yondagi xonadan. Yosh juvonning ovozi bo‘g‘iq, lekin tetik edi.

– Jonginam, biz ajralishimiz kerak. Men shu qarorga keldim. Bu juda mushkul ish, lekin bir-birimizni ko‘rib turishimiz bundan ham og‘irroq bo‘lishi mumkin. Men uning qotiliman. Uni seni deb o‘ldirdim.

– Verochka, senda nima gunoh?

– Jim bo‘l, gapirma, meni oqqa chiqarma, yo‘qsa seni yomon ko‘rib qolaman. Men, hammasiga men gunohkorman. Azizim, meni kechir, seni bunchalar qiynaydigan qarorga kelganim uchun meni afv et, jonginam, bu men uchun ham qattiq azob! Lekin boshqa ilojim yo‘q, biroz fursat o‘tgach shunday qilish lozimligini o‘zing ham payqab olasan. Azizim, boshqa hech bir iloji yo‘q. Gapimga quloq sol. Men Peterburgdan ketyapman. O‘tmishni eslatib turish mumkin bo‘lgan joylardan uzoqda yashash yengilroq. Buyumlarimni sotaman; puliga birmuncha vaqt yashashim mumkin, qayerda, deysanmi? Tverda, Nijniyda, yana bilmayman-ku, lekin qayerda bo‘lsa ham menga baribir. Ashula darsi berish uchun joy qidiraman; topsam kerak, chunki biron katta shaharga borib joylashaman. Topolmasam, murabbiyalik qilaman. Hech narsaga muhtoj bo‘lmasam kerak, deb o‘ylayman, lekin muhtoj bo‘lib qolsam, senga murojaat qilaman; har ehtimolga qarshi menga atab biroz pul jamg‘arib qo‘y; juda tejab-tergab sarf qilsam ham menga ko‘p narsa kerak bo‘lishini, ancha chiqimdor bo‘lishimni bilasan-ku, busiz yashashim mumkin emas. Eshityapsanmi? Sening yordamingni hech vaqt rad qilmayman! Do‘stim, bu seni bundan keyin ham qadrdonim deb bilishim shohidi bo‘ladi... Endi, kel, umrbod vidolashaylik! Sen shaharga jo‘na... hozir, shu ondayoq! Men yolg‘iz qolsam, ancha yengil tortaman. Men ertaga jo‘nab ketaman, – shunda qaytib kelarsan. Men Moskvaga ketaman, u yoq-bu yoqni surishtirib, kichik shaharlardan qaysi birida dars beradigan joy topish

mumkinligini aniqlayman. Meni kuzatish uchun stansiyaga chiqma, kerak emas. Alvido, jonginam, qo'lingni ber, so'nggi marta qisib xayrlashay.

Yigit juvonni quchmoqchi bo'lgandi, juvon harakati ishora bilan uni to'xtatdi.

– Yo'q, kerak emas, mumkinmas! Uni haqorat qilgan bo'lamiz. Qo'lingni ber. Qo'lingni qisay – ko'rdingmi qanday qattiq qisyapman! Xo'p, kechir!

Yigit juvonning qo'lini qo'yvormadi.

– Bas, yetar, endi bor. – Juvon qo'lini tortib oldi, yigit qarshilik qilishga jur'at etolmadi. – Kechir meni!

Juvon yigitga nazokatli tikilgan ko'yi shaxdam-shaxdam qadam tashlab, o'z xonasiga borarkan, qayta unga qayrilib ham qaramadi.

Yigit anchagacha shlapasini qidirdi; uni besh martacha qo'liga olsa ham nimani olayotganligini ko'rmadi. U xuddi mast odamga o'xshardi, nihoyat, qo'lidagi narsa qidirilayotgan shlapasi ekanligini tushungach, dahlizga chiqib paltosini kiydi; darvozaga yaqinlashdi. «Ketimdan yugurib kelayotgan kim? Ha, Masha-ku... u o'zini yomon sezayotgan bo'lsa kerak!» Qayrilib orqasiga qaradi – Vera Pavlovna uning bo'yniga osilib, quchoqlab, qattiq-qattiq o'pdi.

– Jonginam, sabrim chidamadi! Endi umrbod alvido!

Juvon yugurgancha uyga kirib o'zini o'ringa otdi va shuncha vaqtdan beri tiyib turgan ko'z yoshlari duv-duv to'kildi.

III
SO'ZBOSHI

«Hikoyaning mazmuni – muhabbat, asosiy qahramoni – ayol kishi, hikoyaning o'zi yomon bo'lsa ham bu jihati yaxshi», deydi ayol kitobxon.

– Bu gap to'g'ri, – deyman men.

Erkak kitobxon bunday yengil-yelpi xulosa bilan kifoyalanmaydi, axir, erkaklarning fikrlash qobiliyati xotinlarnikiga qaraganda tabiatan kuchliroq, ko'proq rivoj topgan; erkak kitobxon bunday deydi, – ehtimol ayol kitobxon ham shunday deb o'ylar-u, lekin buni gapirib o'tirishni lozim topmasa kerak, binobarin, u bilan

tortishib o'tirish uchun menda asos yo'q, – erkak kitobxon bunday deydi: «O'zini o'zi otgan janob o'zini o'zi otmaganini bilaman». Men shu «bilaman», degan so'zga yopishib olaman-da, sen buni bilmaysan, negaki bu hali senga aytilgani yo'q, sen bo'lsang, o'zinggagina aytiladigan narsalarni bilasan xolos; o'zing hech narsa bilmaysan, hatto men hikoyani shu xilda boshlab seni haqorat qilganimni, yerga urganimni ham bilmaysan. Axir, buni bilmasdingku, to'g'rimi? Bo'lmasa, bilib qo'y, – deyman.

Ko'rdingmi, hikoyaning dastlabki sahifalaridan ma'lum bo'ldiki, xaloyiq to'g'risidagi fikrim juda yomon ekan. Men romanchilarning oddiy hiylasini ishlatdim: hikoyani o'rtasidan yoki oxiridan uzib olingan ta'sirchan joyidan boshladim, qandaydir sir borday qilib qo'ydim. Sen, xaloyiq, soddasan, juda soddasan, shuning uchun ham u yoq-bu yoqni surishtirib o'tirmaysan, fahming yetmaydi. Senga ishonch yo'q, hikoyaning mazmuni o'qishga arzigudaymi-yo'qmi – buni birinchi sahifalardanoq farqlab ololmaysan, idroking o'tkir emas, unga madad kerak, bunday madadning esa ikki xili bor: yo muallifning nomi, yoki yozish uslubining ta'sirchanligidir. Men senga hozir birinchi hikoyamni hikoya qilyapman, sen hali muallifning san'atkorlik iste'dodi bor-yo'qligi to'g'risida muhokama yuritishni bilmaysan (axir, sening san'atkorlik iste'doding bor, deb bilgan yozuvchilaring juda ko'p!), mening nomim hali seni tuzoqqa ilintirolmaydi, shu vajdan jozibali xo'rak ilib qarmoq tashlashga majbur bo'ldim. Buning uchun meni gunohkor qilma, ayb o'zingda: sening soddaliging meni maza-bemaza gap qilishga majbur etdi. Lekin endi sen qo'limga tushding, endi men hikoyani hech qanday nayrangsiz, bemalol, o'z bilganimcha davom ettiraman. Endi hech qanday sirga o'rin qolmaydi, har bir voqeaning yechimi nima bo'lishini doim yigirma sahifa oldindan bilib turasan, dastlab butun hikoyaning pirovard yechimini ham aytib qo'ya qolay: butun voqea zo'r quvonch bilan, qadah ko'tarishlar, qo'shiqlar bilan tugaydi; tuzoqqa ilintirishlar ham, hech qanday pardoz-andozlar ham bo'lmaydi. Ko'ngilchan xaloyiq, muallifning pardoz-andozga vaqti yo'q, chunki butun fikr-zikri miyangni qotirgan narsalarda, tushunchalaring juda chuvalashib ketganligi tufayli har bir kimsaning qanchadan qancha ortiqcha azob-uqubat chekayotganidadir. Ahvolingni ko'rib ham

achinaman, ham kulaman: miyang juda bema'ni gaplarga to'lib-toshgan, shuning kasriga sen ham ojizsan, ham darg'azabsan.

Odamlardan bunday darg'azabliging uchun sendan xafaman, chunki odamlar degani sening o'zingsan-ku! Shunday ekan, nega endi o'zingdan darg'azab bo'lasan? Seni koyishimning boisi shu. Lekin darg'azabliging aqling zaifligidan, shu sababli seni koyish bilan birga, senga yordam ham berishim kerak. Yordamni nimadan boshlamoq kerak? Aqalli, sen hozir o'ylab turgan narsangdan boshlasa ham bo'ladi: men bilan bundan yuzsizlarcha gaplashayotgan yozuvchi qanaqa yozuvchi ekan, deb o'ylayapsanmi? Qanday yozuvchiligimni aytaman.

Menda badiiy iste'doddan zarracha ham yo'q. Hatto tilim ham uncha ravon emas. Lekin har holda buning ahamiyati yo'q: beozor xaloyiq, o'qishingni qo'yma! O'qisang nafi tegadi. Haqiqat yaxshi narsa: haqiqat shu yo'lda xizmat qiluvchi yozuvchining nuqsonlariga malham bo'ladi. Shuning uchun senga aytib qo'yay: agar seni ogohlantirmaganimda edi, senga ehtimol hikoya badiiy pishiq-puxta asarday, muallifning ancha-muncha san'atkorlik iste'dodi borday ko'rinadi. Lekin menda iste'dod yo'q deb o'zim ogohlantirib qo'ydim, – sen ham endi hikoyamning butun fazilati uning faqat haqqoniyligida ekan, deb bilasan.

Aytgancha, ey marhamatli aziz xaloyiq, sen bilan suh-batlashganda hamma narsani oxirigacha, ochiq-oydin aytish kerak; axir sen aytilmay qolgan gaplarni fahmlab olishga ishqiboz bo'lsang ham, lekin fahmlab olish qo'lingdan kelmaydi. Menda zarracha ham san'atkorona iste'dod yo'q va hikoyam juda zaif yozilgan desam, bundan, bu yozuvchi buyuk yozuvchi deb hisoblaydigan yozuvchilarimdan yomon ekan, uning romani ham ularning asarlaridan yomon ekan, degan xulosa chiqarib o'tirma. Men bunday deyayotganim yo'q. Hikoyam uslub jihatidan haqiqatan iste'dodli kishilarning asarlaridan ancha zaif, deyapman; mening hikoyamning yozilish fazilati jihatidan mashhur yozuvchilaringning shuhrat qozongan asarlari bilan bir qatorga dadil qo'ya ber, hatto ulardan yuqori qo'y, yanglishmaysan! Bu hikoyada badiiylik ularning asarlaridagiga qaraganda har holda ko'proq; bu jihatdan ko'ngling to'q bo'laversin.

Menga tashakkur ayt: axir, sen nazariga ilmaydiganlarga ta'zim qilishni yaxshi ko'rasan-ku, bas, shunday ekan, menga ham ta'zim bajo keltir.

Lekin, xaloyiq, orangda hurmatimga sazovor bo'lgan birmuncha kishilar bor, ular hozir ancha ko'paygan. Sen bilan, juda ko'pchilik bilan muomalada men surbetman – lekin shu damgacha ana shu ko'pchilik bilan, faqat ular bilan suhbatlashib keldim. Hozir men tilga olgan odamlar bilan suhbat qursam, kamtarlik bilan, hatto hadiksirab gaplashardim. Lekin ular bilan gaplashib o'tirishimning keragi yo'q edi. Ularning fikridan faxrlanaman, lekin bu odamlarning fikri men tomondaligini ham oldindan bilaman. Siz marhamatli, matonatli, sofdil va bilimdon kishilar, oramizda yaqindagina paydo bo'ldingiz, lekin siz hozir ozmuncha emassiz va juda tez ko'payib boryapsiz. Agar siz xaloyiq bo'lganingizda edi, mening yozishimning keragi ham bo'lmas edi, – siz bo'lmasangiz yozishimga hali imkon ham bo'lmas edi. Lekin siz hali xaloyiq emassiz, balki xaloyiq orasidagi kishilarsiz, – shuning uchun men hali yozishim kerak va endi yozsam bo'ladi.

BIRINCHI BOB

VERA PAVLOVNANING OTA-ONA QO'LIDA KECHIRGAN HAYOTI

I

Vera Pavlovna juda oddiy tarbiya olgan. Tibbiyot talabasi Lopuxov bilan tanishganiga qadar uning hayotida ba'zi bir qiziq jihatlari bo'lgani bilan, bular ham juda maqtagulik emas. Yurish-turishlarida esa o'sha vaqtdayoq ba'zi bir o'ziga xos jihatlari bor edi.

Vera Pavlovna Sadovaya ko'chasi bilan Semyonov ko'prigi o'rtasida joylashgan Goroxovaya ko'chasidagi ko'p qavatli uyda o'sib ulg'aygan. Endi bu uyning tartib raqami bor, ammo 1852-yilda, hali raqam qo'yish rasm bo'lmagan vaqtlarda, uyning tepasiga «Haqiqiy harbiy maslahatchi Ivan Zaxarovich Storeshnikovning uyi» deb yozib qo'yilgan edi. Shunday yozib qo'yilgani bilan Ivan Zaxarovich Storeshnikov 1837-yildayoq vafot etgan, o'shandan beri uy xo'jayini uning o'g'li Mixail Ivanovich edi, – hujjatlarda shunday deb ko'rsatilgandi. Lekin uyda turuvchilar Mixail Ivanovich xo'jayinning o'g'li-yu, uy bekasi Anna Petrovna ekanini bilishardi.

Uy o'sha vaqtda ham hozirgiday katta edi, ikki darvozasi, to'rtta ko'cha eshigi va uchta ichkari hovlisi bor edi. Ko'cha tomondagi zina tepasiga joylashgan boloxonada 1852-yilda ham, hozir ham uy bekasi o'g'li bilan turardi. Anna Petrovna ilgari qanday bo'lsa, hozir ham shunday mo'tabar xonimlardan hisoblanadi. Mixail Ivanovich ilgarilari qanday bo'lsa, hozir ham ko'zga ko'ringan, xushsurat ofitserlardan.

Orqa tomondan kiriladigan birinchi hovlidagi ko'pdan ko'p iflos zinalardan chiqilguncha to'rtinchi qavatning o'ng tomon xonadonida

hozir kim turishini bilmayman; 1852-yilda esa bu uyda ancha basavlat, miqtidan kelgan uy boshqaruvchi Pavel Konstantinovich Rozalskiy, ozg'in bo'lsa ham pishiq, baland bo'yli xotini Marya Aleksevna, bo'yi yetgan qizi, ya'ni ana shu Vera Pavlovna va to'qqiz yashar o'g'li Fedya turishardi.

Pavel Konstantinich uy boshqaruvchi vazifasidan tashqari, qandaydir bir departamentda bo'lim boshlig'ining yordamchisi bo'lib ham xizmat qilardi. Xizmat joyidan hech qanday daromadi yo'q edi; faqat ana shu uydan oz-moz daromad unib turardi; uning o'rnida boshqa odam bo'lsa ko'proq daromad olardi, lekin Pavel Konstantinich, o'z so'zi bilan aytganda, insofli odam edi; shuning uchun ham uy bekasi undan juda rozi, o'zi ham o'n to'rt yillik xizmati davomida o'n ming so'mga yaqin sarmoya jamg'arib olgan edi. Lekin bundan ko'p deganda faqat uch ming so'mchasi uy bekasining puli; qolgani uy bekasiga zarar keltirmagan holda aylanmadan tushgan foyda edi: Pavel Konstantinich garovga pul qarz berib turar edi.

Marya Aleksevnaning ham biroz jamg'argan puli bo'lib, dugonalariga besh ming so'mcha desa ham, aslida ko'proq edi. Bu sarmoyasiga o'n besh yilcha ilgari Marya Aleksevnaning amaldor inisi vafot etganda meros qolgan yonut po'stin, ba'zi bir kiyim-kechak va mebellarni sotib jamg'argan puli asos bo'lgan edi. Marya Aleksevna shu tariqa yuz ellik so'm jamg'arib olgandan keyin, u ham garovga pul qarz berib aylanma qiladigan bo'ldi, eriga qaraganda ancha dadilroq ish tutdi va bir necha marta tuzoqqa ham ilinib qoldi; qandaydir bir muttaham pasportini garovga qo'yib, undan besh so'm qarz olgan, pasport soxta pasport ekan, shu bilan Marya Aleksevna bu tuzoqdan qutulib chiqish uchun yonidan yana o'n besh so'mcha sarf qildi; yana bir muttaham yigirma so'mga oltin soatini garovga qo'ygan, soat bir o'lgan odamning qo'lidan yechib olingan ekan, bu ishkaldan qutulish uchun ham Marya Aleksevna ancha chiqimdor bo'ldi. Marya Aleksevna garov olishda u yoq-bu yoqni yaxshilab surishtiruvchi eriday ish ko'rmay, shu xilda ko'pincha chuv tushib tursa ham, lekin oladigan foydasi tez ko'payib bordi. Pul chiqadigan tasodifiy hollar ham uchrab turdi. Bir vaqt, – Vera Pavlovna u kezlar hali norasida edi: qizi kattaroq bo'lganda, Marya Aleksevna bu yo'lga kirmas edi-ku, lekin qizi

norasidaligida shunday qilsa nima bo‘pti? – go‘dak nimani tushunadi! – chindan ham Verochkaning o‘zi tushunmas edi-ku, lekin oshpaz xotinga rahmat, yaxshilab tushuntirdi; oshpaz xotin ham tushuntirib o‘tirmasdi, chunki bu gap yosh bolaning qulog‘iga yetishi kerak emasdi, lekin shunday bo‘ldiki, oshpaz xotin o‘ynashi bilan yurib kelib Marya Aleksevnadan qattiq kaltak yegandan keyin, u alamiga chidolmasdan aytib qo‘ydi (aytmoqchi, Matryonaning qovoqlari doim ko‘karib yurardi, Marya Aleksevna emas, o‘ynashi urib ko‘kartirardi, – shunday bo‘lgani ham yaxshi, chunki qovog‘i ko‘karib yuradigan oshpaz xotin arzonroqqa ishlardi!). Xullas, bir kun Marya Aleksevnaning uyiga juda ketvorgan, yasan-tusani joyida, chiroyli bir tanish xonim kelib, mehmon bo‘lib qoldi. Bir haftagacha tinchgina mehmon bo‘lib turdi, lekin bu xonimning oldiga allaqandan bir statskiy vazifasidagi odam kelib turardi, u ham chiroyli edi. Verochkaga konfetlar olib kelardi, yaxshi-yaxshi qo‘g‘irchoqlar, ikkita kitobcha hadya qildi, ikkalasi ham suratli kitob; kitoblardan birida yaxshi suratlari bor edi – har xil hayvonlar, shaharlarning surati ishlangan edi; ikkinchi kitobchani Marya Aleksevna mehmon ketgandan keyin Verochkaning qo‘lidan tortib oldi, suratlarni u faqat bir marta, haligi mehmon borida ko‘rdi, ularni mehmonning o‘zi ko‘rsatgan edi. Shunday qilib, haligi tanish xonim bir haftacha mehmon bo‘ldi, uy ham tinch edi: Marya Aleksevna bir haftagacha shkafcha yoniga kelmadi (bu shkafchada araq solingan grafin turardi), shkafchaning kalitini hech kimga bermasdi; shu hafta Marya Aleksevna Matryonani ham, Verochkani ham urmadi, qattiq qarg‘agani ham yo‘q. Keyin bir kun kechasi Verochka mehmonning dahshatli baqirgan ovozi, gurs-gurs oyoq tovushi tapir-tupurlaridan cho‘chib uyg‘ondi. Erta bilan Marya Aleksevna shkafcha yonida odatdagidan ko‘proq turib qoldi va yakkash: «Xudoga shukur, ishim o‘ngidan keldi, xudoga shukur» derdi, hatto Matryonani shkafcha yoniga chaqirib, «salomat bo‘l, Matryonajon, sening ham ko‘p mehnating singgan», dedi, shundan keyin ilgarigidan shkafcha yoniga kelib ketgach, hammani urush va qarg‘ash o‘rniga, Verochkani o‘pdi-da, yotib uxladi. Keyin yana bir hafta uyda tinchlik hukm surdi, mehmonning baqirgan tovushi ham eshitilmadi, uyidan ham chiqmadi, keyin jo‘nab ketdi. Xonim ketgandan keyin oradan ikki kun o‘tgach, yana bir statskiy

vazifasidagi boshqa odam paydo bo'ldi, bunisi politsiya boshlab keldi va Marya Aleksevnani juda ko'p so'kdi, Marya Aleksevna ham unga bo'sh kelmay: «Hech qanday ish-pishingizni bilmaymay. Kim mehmon bo'lib turganini uy daftaridan bilib ola bering! – kelgan mehmon tanishim pskovlik savdogar xotin Savastyanova edi, vassalom!» – deb turib oldi. Kelgan kishi so'kinib-so'kinib oxiri chiqib ketdi, shu-shu qaytib kelmadi. Verochka bu voqeani sakkiz yashar vaqtida ko'rgan edi, nima voqea bo'lganini Matryona unga to'qqizga kirganida tushuntirib berdi. Aytmoqchi, o'zi ham faqat bir marta shunday voqea yuz bergan edi; boshqa yana birmuncha har xil voqealar ham bo'lgan edi.

Verochka o'n yoshga to'lganda, onasi bilan birga chayqov bozoriga borayotib Goroxovaya ko'chasidan Sadovaya ko'chasiga burilganida to'satdan bir kishi kelib qizning yelkasiga bir urib: «Esi past, butxonaga angrayib qaraysan-u, nega cho'qinmaysan?! Hamma diyonatli kishilar cho'qinishyapti, ko'rmayapsanmi!» – deb tanbeh bergan edi.

Verochka o'n ikki yoshga to'lganida pansionga qatnaydigan bo'ldi, fortepyano muallimi unga qatnab dars bera boshladi, – u hamma vaqt mast yursa ham, lekin juda rahmdil nemis edi, juda yaxshi muallim edi. Araqxo'r bo'lgani uchun juda arzonga dars berardi.

Verochka o'n to'rt yoshga kirganida uydagilarining hammasiga o'zi kiyim tikadigan bo'ldi, aytmoqchi, oilalari ham unchalik katta emasdi.

Verochka o'n olti yoshga qadam qo'yay deganda, onasi unga: «Yuzingni yuvib yursang-chi, nima balo, qachon qarasang lo'lilarga o'xshab yurasan! Yuvganing bilan ham baribir oqarmas, biram tasqarasan-ey, bilmadim, kimga tortding», deb baqiradigan bo'ldi. Verochka qorachadan kelganidan hadeb dakki yeyaverib, o'zini xunukka chiqarib qo'ydi. Ilgari onasi eski-tuski kiyimda olib yurardi, endi yasantiradigan bo'lib qoldi. Verochka yasan-tusan qilib onasi bilan birga butxonaga borarkan: «Bu kiyimlar boshqalarga yarashadi, men nima kiysam ham baribir lo'liga o'xshayman – chit ko'ylakda ham, shoyi ko'ylakda ham olabo'jiman. Chiroyli bo'lishga nima yetsin! Men ham ko'hlik bo'lgim keladi!» – deb o'ylardi.

Verochka o'n oltiga to'lganida fortepyano muallimidan dars olishni ham, pansionga qatnashni ham to'xtatdi, o'sha pansionda

2022 / №2-24

o‘zi dars bera boshladi; keyin opasi unga boshqa joylardan ham dars topdi.

Oradan yarim yil o‘tgandan keyin onasi Verochkani lo‘li olabo‘ji deyishni bas qildi, uni yana ham yaxshiroq kiyintiradigan bo‘ldi. Matryona esa, – bu avvalgi Matryonadan keyingi uchinchi Matryona edi: unisining hamma vaqt chap qovog‘i ko‘karib yursa, bunisining chap yuzi yorilib yurardi (lekin hamma vaqt bunday yurmasdi), – shu Matryona Verochkaga, Pavel Konstantinichning boshlig‘i va yana qandaydir bo‘yniga orden osib olgan katta bir boshliq senga sovchi yubormoqchi emish, dedi. Darhaqiqat, departamentdagi kichik amaldorlar, Pavel Konstantinich xizmat qilib turgan bo‘lim boshlig‘i. U bilan xushmuomala bo‘lib qoldi, deb gapirib yurishardi, bo‘lim boshlig‘i esa tengdoshlari orasida, sepsiz bo‘lsa ham chiroyli qizga uylanmoqchiman, Pavel Konstantinich o‘zi ham juda yaxshi chinovnik, deydigan bo‘lib qoldi.

Bu gapning nima bilan tugashi noma’lum, lekin bo‘lim boshlig‘i o‘y o‘ylashni juda cho‘zib yubordi, shu orada boshqa bir voqea yuz berdi.

Uy bekasining o‘g‘li uy boshqaruvchining oldiga kirib, oyim Pavel Konstantinich har xil gulqog‘ozlardan namuna keltirsin, deb iltimos qildilar, ular o‘zlari turgan xonani yangidan bezatmoqchilar, dedi. Ilgarilari bunday buyruqlar eshik og‘asi orqali berilardi. Albatta, Marya Aleksevna va uning eri singari ko‘pni ko‘rgan kishilar u yoqda tursin, boshqalar uchun ham bu gap tushunarli edi. Bekaning o‘g‘li yarim soatdan mo‘lroq o‘tirib qoldi va iltifot qilib ular bilan birga choy ichdi (eng a’lo navli choydan). Marya Aleksevna ertasiga qiziga garovdan qolib ketgan marjon tortiq qildi, qiziga yangi, juda yaxshi ikki ko‘ylak buyurtirdi – materialining o‘zi bir kiyimligi qirq so‘m va boshqasining bir kiyimligi ellik ikki so‘mlik edi, burma etaklari, tasmalari, fasonlari bilan ikkala ko‘ylak bir yuz yetmish to‘rt so‘mga tushdi; har holda Marya Aleksevna eriga shunday dedi, Verochka esa bu ko‘ylaklarga jami bo‘lib yuz so‘m ham sarf bo‘lmaganligini bilardi, chunki bu materiallarni onasi bilan birga sotib olishgan edi, holbuki yuz so‘mga ikkita yaxshi ko‘ylak tiktirsa ham bo‘lardi. Verochka ko‘ylaklardan, marjondan xursand, lekin onasi Korolyovdan botinka sotvolishga axiyri rozi bo‘lganiga boshi osmonga yetdi: chunki chayqov bozordagi botinkalar juda beo‘xshov, Korolyovniki esa bejirim, oyoqqa yopishib turadi.

Ko'ylaklar zoye ketmadi: uy bekasining o'g'li boshqaruvchining oldiga tez-tez keladigan bo'lib qoldi, albatta, u qizi bilan boshqaruvchining o'zi va xotiniga qaraganda ko'proq gaplashardi, yigit kelganda er-xotin xursand bo'lganidan o'tqazgani joy topolmay qolishardi. Albatta, onasi ham qiziga nasihat qilib, qulog'iga gap quya boshladi, – buni tasvirlab o'tirishning keragi yo'q, shunday ham tushunarli.

Bir kuni tushlik ovqatdan keyin onasi shunday dedi:

– Qizim Verochka, qani, kiyinib, yaxshilab yasanib ol-chi. Senga bir xushxabar topib qo'ydim – operaga boramiz, generallarning xotinlari o'tiradigan ikkinchi yarusdan bilet oldim. Tentakkinam, bu tashvishlarim hammasi sen uchun. Sendan so'nggi chaqamni ham ayamayman. Senga sarf qilgan pullarimni ko'rib otang ichidan zil ketyapti. Pansion hokimining o'ziga oz-muncha pul ketdimi, fortepyano muallimiga-chi! Sen uchun o'lib-tirilayotganimni sezmaysan ham, noshukur, senda o'zi qalb degan narsa yo'qqa o'xshaydi, juda toshbag'ir ekansan!

Marya Aleksevnaning aytganlari shu bo'ldi, qizini ortiq koyimadi, shu ham koyish bo'ldimi? Marya Aleksevna Verochka bilan shu yo'sinda gaplashadigan bo'lib qoldi, koyishlarni allaqachon bas qildi, bo'lim boshlig'i to'g'risidagi mishmish gaplar yetib kelgandan buyon biron marta urgani ham yo'q.

Operaga borishdi. Birinchi pardadan keyin bekaning o'g'li ikki oshnasi bilan lojaga kirib keldi – biri oddiy kiyingan, ozg'in, juda xushbichim yigit, ikkinchisi to'ladan kelgan, soddaroq harbiy odam. O'tirishdi, bir-birlari bilan juda ko'p shivirlashishdi, bekaning o'g'li ko'proq oddiy kiyimdagisi bilan gaplashdi, harbiy kishi kam gaplashdi. Marya Aleksevna gapga quloq solib, ularning har bir so'zini ilg'ab olish payidan bo'ldi, lekin unchalik tushunolmadi, chunki hammalari fransuzcha so'zlashardi... Marya Aleksevna ularning: belle, charmante, amour bonheur[1] degan so'zlarinigina bilardi, – lekin bilgani bilan na foyda? Velle, charmante, – Marya Aleksevna qoramag'iz qizining belle va charmante ekanligini allaqachondan buyon eshitib keladi; amour uning jigar-bag'ridan urganini – amour bo'lganini Marya Aleksevna o'zi ham ko'rib

[1] Chiroyli, go'zal, muhabbat, baxt-saodat (frans.).

turibdi; amour bo'lgach, albatta, bonheur ham bo'ladi, bu so'zlardan nima foyda? Qachon sovchi yuborisharkin? – hamma gap shunda.

– Verochka, ko'rnamakligingcha qolibsan, – deb shivirlaydi Marya Aleksevna qiziga, – nega basharangni ulardan teskari o'girasan? Yoki bu yerga kirib kelib xafa qilishdimi? Tentak qiz, seni izzat qilib kelishdi-ku! Verochka, fransuzcha maryaj degani to'y deganimi? Kuyov bilan kelinni nima deyishadi, nikohni fransuzcha nima deyishadi? Verochka javob berdi.

– Yo'q, bunaqa gap gapirishayotgani yo'q shekilli...

– Vera, menga so'zlarni boshqacha aytgan ko'rinasan. Shoshmay tur hali, senimi!

– Yo'q, shunday; lekin siz bulardan bu kabi so'zlarni eshitmaysiz. Yuring, ketamiz, bu yerda ortiq o'tirishga toqatim qolmadi.

– Nima? Nima deding, yaramas? – Marya Aleksevnaning ko'zlariga qon quyuldi.

– Yuring, ketamiz. Keyin meni nima qilsangiz qiling, lekin men bu yerda qolmayman, sababini keyin aytib beraman. Oyijon, – bu so'zni u baland ovozda aytdi, – boshim juda og'rib ketdi. Bu yerda o'tirolmayman. Yura qoling, jon oyi!

Verochka o'rnidan turdi.

Yigitlar besaranjom bo'lib qolishdi.

– Bosh og'rig'ing o'tib ketadi, Verochka, – dedi Marya Aleksevna jiddiy, lekin sipolik bilan, – Mixail Ivanich bilan yo'lakka chiqib biroz aylanib kelsang, bosiladi.

– Yo'q, bosilmaydi, juda ko'nglim behuzur bo'lib ketyapti. Tezroq yuring, oyijon!

Yigitlar eshikni ochib, Verochkani qo'ltiqlab chiqmoqchi bo'lishgandi, – yaramas qiz ko'nmadi! Kiyimini yigitlar o'zlari kiydirib, o'zlari karetaga o'tkazib qo'yishdi. Marya Aleksevna malaylarga kibr bilan qarab turardi: «Hoy, surbetlar, mana, yigit deb bularni aytadi, – bunisi menga kuyov bo'ladi! O'zimning ham sizdaqa beor xizmatkorlarim bo'ladi. Sen yaramas qiz, hadeb noz qilaver-chi – bir adabingni berib qo'yay!» – Bu nimasi, kuyovi yaramas qizni karetaga o'tqazarkan, unga allanima deyaptimi? Sante – salomatlik degani bo'lsa kerak, savoiz – bilib olarman, Visive – bizning tilimizda ham shunday-ku, permetter – ijozat bersangiz, degani bo'lsa kerak. Bu so'zlarni eshitgandan keyin ham

Marya Aleksevnaning g'azab o'ti pasaymadi; bu so'zlarni eslab qolish kerak. Kareta qo'zg'aldi.

– Karetaga o'tqazayotganda u senga nima dedi?

– Ertalab sog'lig'ingizdan xabar olarman, dedi.

– Rostdanmi, ertagami?

Verochka indamadi.

– Baxting bor ekan! – dedi Marya Aleksevna o'zini tutolmasdan, qizining sochidan yulqib – bir martagina, o'shanda ham sekingina tortib qo'ydi. – Xo'p, mayli, chertmayman ham, lekin ertaga chiroyingni ochib o'tirsang bo'lgani! Kechasi uxla, tentak qiz! Yig'lay ko'rma. Bilib qo'y, ertaga ranging siniqqanini yoki ko'zlaringda nam ko'rguday bo'lsam, adabingni berib qo'yaman! Shu vaqtgacha ha mayli, deb keldim... endi kuningni ko'rsataman. Husningni ham ayab o'tirmayman, bo'lganicha bo'lar, hech bo'lmasa kimligimni ko'rsatib qo'yaman!

– Ko'pdan buyon yig'lamay qo'yganimni o'zingiz ham bilasiz-ku.

– Bo'lmasam-chi, kelganda u bilan ochilib gaplashib o'tir!

– Xo'p, ertaga u bilan gaplashib o'tiraman.

– Ha, balli, aqlingni yig'ib ol. Xudodan qo'rq, onangga achin, uyatsiz!

Oradan o'n daqiqacha vaqt o'tdi.

– Verochka, mendan jahling chiqmasin, qizim. Seni yaxshi ko'rganimdan koyiyman, senga yaxshilikni ravo ko'raman. Ona deganga bola qanchalik shirinligini hali bilmaysan. Seni to'qqiz oy qornimda ko'tarib yurganman-a! Verochka, meni rozi qil, gapim qulog'ingda bo'lsin, hammasi sening foydangni ko'zlab qilinayotganini o'zing ham ko'rarsan. Men aytganday qil, – shunda ertagayoq u senga og'iz soladi!

– Oyijon, yanglishyapsiz. U mutlaqo menga og'iz solmoqchi emas. Oyijon! Ularning gapini eshitganingizda edi!

– Bilaman, to'y to'g'risida gaplashishmaganda ham, nimani gaplashishi ma'lum. Bizni anoyi deb bilmasin. Xuddi shoxini sindirib qo'yamiz-a! Qopga solib cherkovga oboraman, daryoga eltib, suv ichirmasdan olib kelaman, ko'rasan hali, shunga ham shukur qiladi. Ha-ya, sen bilan ko'p gaplashishning ham xosiyati yo'q, shunday ham ko'p gaplarni aytib yubordim: qizlar bunday gaplar bilan ishi bo'lmasligi kerak, bu onaning ishi. Qiz degan gapga

quloq solishi kerak, qiz bolaning nimaga ham aqli yetardi? U bilan men aytganday gaplashasanmi, yo‘qmi?

– Xo‘p, gaplashaman.

– Siz, Pavel Konstantinich, nega to‘nkaday miq etmay o‘tiribsiz? Siz ham bo‘ydoq ota bo‘lib gapirsangiz-chi, onangning gapiga quloq sol, deb buyuring, onang seni yomon yo‘lga boshlamaydi, deb ayting.

– Marya Aleksevna, o‘zing aql-hushi joyida xotinsan, lekin bu ishing xavfli, juda ham qaltis ishga qo‘l uryapsan!

– Ahmoq! Verochka oldida aytgan gapingni qara-yu! Senga qayoqdan ham gapira qoldim! Kovlamasang, hidi chiqmaydi, degan maqol to‘g‘ri ekan! Sasish ham evida-da! Sen adi-badi deb o‘tirma, qiz onasiga quloq solishi kerakmi, yo‘qmi, shuni ayt!

– Albatta quloq solishi kerak, nimasini aytasan, Marya Aleksevna!

– U holda, otalardek buyur.

– Verochka, qizim, onangning gaplariga quloq sol. Onang aqlli, ko‘pni ko‘rgan xotin. U seni yomon yo‘lga boshlamaydi. Senga otalik yo‘rig‘im shu.

Darvoza yoniga kareta kelib to‘xtadi.

– Bo‘ldi endi, onajon. Gaplashaman, dedim-ku, sizga. Juda charchadim. Borib dam olishim kerak.

– Kirib yot, uxla. Bezovta qilmayman. Bu gaplar ertaga kerak. Tiniqib uxlab ol.

Darhaqiqat, zinapoyadan ko‘tarilayotganlarida Marya Aleksevna hech narsa demay, jim bordi, – bu oson gap emasdi! Keyin, Verochka choy ichkim yo‘q, deb to‘ppa-to‘g‘ri o‘z xonasiga qarab ketayotganida, Marya Aleksevna juda muloyim bir tovushda:

– Verochka, beri kel! – dedi. Qiz onasining yoniga keldi. – Uyqing oldidan seni bir duo qilay, Verochka! Boshingni eg! – Qizi boshini egdi. – Duo qilsam, xudo senga yor bo‘ladi.

Onasi qizini uch marta duo qildi-da, o‘pgani qiziga qo‘lini tutdi.

– Yo‘q, oyijon. Qo‘lingizni o‘pmayman, deb sizga allaqachon aytganman-ku. Qo‘ying endi, men ketay. Rostdan ham o‘zimni yomon sezyapman.

Marya Aleksevnaning ko‘zlari yana bejo bo‘layozdi-yu, lekin o‘zini bosib muloyimgina:

– Kirib damingni ola qol, – dedi.

Verochka yechinib, kiyimlarini yig'ishtirib qo'ygan ham ediki, aytgancha, bunga ham xiyla vaqt ketdi, chunki u hamon xayol surardi: bilaguzugini chiqarib, uzoq vaqt qo'lida ushlab o'tirdi, keyin ziragini chiqardi, – yana xayol surdi, juda charchagani esiga tushib, hushini bir joyga yig'ib olguncha, oyna oldida turishga ham madori yetmay, holdan ketib stulga o'tirganini, o'z xonasiga qanday yetganini, tezroq yechinib yotishi lozimligini xotirlaguncha oradan yana ancha vaqt o'tdi, – Verochka endi o'rniga kirib yotgan ediki, Marya Aleksevna patnisda otasining katta chashkasi bilan bir talay qotgan non ko'tarib kirdi.

– Verochka, bolam! Mana buni yeb olgin! Ataylab senga olib keldim: ko'rdingmi, onangning es-hushi senda! O'tirgan joyimda, Verochka choy ichmay qanday yotdi ekan, deb o'ylab qoldim. Choy ichib o'tiribman-u, xayolim senda. Senga ham choy keltirdim. Ol, yeb-ichib olgin, oppoq qizim!

Onasining tovushlari Verochkaga juda g'alati tuyuldi: haqiqatan muloyim va shirinso'z bo'lib qolibdi, – avvallari bundaymasdi. Verochka ajablanib onasiga qaradi. Marya Aleksevnaning yonoqlari lovullar, ko'zlari besaranjomroq edi.

– E, bolam, yoningda senga qarab o'tiraman. Ichib bo'lsang, yana keltiraman.

Quyuq, mazali qaymoq solingan choy ishtahani ochdi. Verochka qaddini ko'tarib, tirsagiga suyanib oldi-da, choy icha boshladi. «Yangi damlangan, ko'p qand va qaymoq solingan choyga nima yetsin!.. Biram shirinki! Bir chaqmoqqina qand tushgan, suyuq, aynagan choyga sira o'xshamaydi. O'zim pul topadigan bo'lganimda, nuqul shunaqa choy ichganim bo'lsin...»

– Rahmat, oyijon!

– Uxlama, yana olib kelaman. – Onasi yana shunday mazali choy keltirdi. – Ich, bolam, men yana yoningda o'tiraman.

Bir daqiqacha jim o'tirdi, keyin birdaniga g'alati qilib, dam sharillatib, dam salmoqlanib gapira boshladi.

– Verochka, qizim, menga minnatdorchilik bildirding. Ko'p vaqtlardan beri sendan minnatdorchilik eshitmagandim. Meni badjahl deb o'ylaysan! Ha, men badjahlman, lekin badjahl bo'lmay ilojim yo'q! Verochka, mazam ketib qolyapti! Shu yoshimdayoq

uch punsh ichkilik ham mazamni qochirib qo‘yyapti! Sen ham, Verochka, ranjitding, juda xafa qilding. Mana endi kuch-quvvatdan qoldim. Verochka, mening ko‘rgan kunim qursin. Qizim, bunday hayotni senga ravo ko‘rmayman. Sen boyvuchchalarcha yasha. Ozmuncha azob chekdimmi, Verochka, e-ha, qanday kunlar tushmadi boshimga. Otang boshqaruvchi bo‘lmasdan oldin ne-ne kunlarni ko‘rmadik, ular sening esingda yo‘q! Biz juda kambag‘al, e-e-e, nimasini aytasan, juda qashshoq edik u kezlarda, Verochka, men halol xotin edim! Hozir halol xotin emasman, yo‘q, gunohkor bo‘lgim yo‘q, senga yolg‘on gapirmayman, hozir halolman, deyolmayman! Qayoqda, u davrlar allaqachon o‘tib ketdi. Sen, Verochka, o‘qigansan, men o‘qimaganman, lekin kitoblaringizda yozilgan narsalarning hammasini bilaman; bu kunlarni men ko‘rdim, boshqalar ko‘rmasin, bu ham o‘sha kitoblarda yozilgan. «Sen, benomussan, deyishadi!» Otang ham, – u senga ota, Nadenkaga esa u ota emasdi, – qip-qizil ahmoq odam, u ham yuzimga solib, haqorat qilardi! Shundan keyin alamimga chidolmay, sizlar shunday deganingizdan keyin, bo‘pti, benomus bo‘la qolay, dedim! Nadenka tug‘ildi. Xo‘sh, tug‘ilgan bo‘lsa nima bo‘pti? Meni bunga kim o‘rgatdi? Bundan kim mansabga mindi? Bunda mendan ko‘ra uning gunohi ko‘proq. Qizimni tortib olib yetimxonaga berishdi, qayerdaligini bilish ham mumkin bo‘lmadi, shu-shu uni ko‘rganim yo‘q, o‘lik-tirikligini ham bilmayman... O‘lib ketgan bo‘lsa kerak! Hozir bo‘lganda ko‘p g‘am chekmasdimku-ya, lekin u vaqtlarda oson emasdi. Yana ham badjahl bo‘lib qoldim! Shu-shu badjahlman. Lekin ishim yurishib ketdi. Ahmoq otangga ish topib bergan kim deb o‘ylaysan? Men. Uni boshliq lavozimiga ko‘targan kim? Men bo‘laman. Ana shundan keyin tirikchiligimiz yaxshilanib ketdi. Nima sababli, deysanmi? Chunki men benomus va badjahl bo‘lib qoldim. Verochka, kitoblaringizda, dunyoda benomus, badjahl kishilar yaxshi yashaydilar, deb yozilganligini ham bilaman. Bu haq gap, Verochka! Hozir otang ham puldor odam bo‘lib qolgan, mening orqamdan puldor bo‘lib oldi; mening ham pulim bor, balki unikidan ko‘proqdir, – hammasini o‘zim topganman, qarigan chog‘imda bir kunimga yarab qolar, deb asrab qo‘yibman. Ahmoq otang ham meni hurmat qiladigan bo‘lib qoldi, gah desam qo‘limga qo‘nadigan qilib oldim, uni odam qatoriga qo‘shdim! Ilgari bo‘lsa meni haydagani

haydagan edi, haqorat qilardi. Nega? U vaqtlarda bekordan bekorga haqorat qilardi, sababi, Verochka, shu ediki, men badjahl emasdim. Sizlarning kitobingizda, Verochka, bunday yashash yaramaydi, deb yozilgan, meni bularni bilmaydi, deysanmi? Kitobingizda, agar tuzukkina yashash mumkin bo'lmasa, hamma narsani yangicha olib borish kerak, deb yozilgan, hozirgi tartiblar shundayki, o'sha kitoblarda yozilganday yashash mumkin emas, – shunday ekan, nima uchun ular yangi tartib o'rnatishmaydi? E-e, Verochka qizim, kitoblaringizda qanday yangi tartib to'g'risida yozilganini meni bilmaydi, deb o'ylaysanmi? Bilaman: yaxshi tartiblar to'g'risida yozilgan. Afsuski, sen bilan men unday tartib o'rnatiladigan zamongacha ko'karib chiqamiz, xalq juda tentak, farosatsiz bunday xalq bilan yaxshi tartib o'rnatib bo'psan! Bas, shunday ekan, eskichasiga yashayveraylik. Sen ham eskichasiga yashayver. Eski tartibning o'zi qanday? Sizlarning kitobingizda: eski tartib talash va aldashdan iborat, deb yozilgan. Bu haq gap, Verochka. Demak, yangi tartib yo'q ekan, eski tartib bilan yashayverish kerak: talon-taroj qiladi; seni yaxshi ko'rganimdan gapir... xrr-xrr...

Marya Aleksevna xurrak tortib, yoniga ag'anab tushdi.

II

Marya Aleksevna teatrda bo'lgan gaplardan xabardor edi-yu, lekin bu gaplarning oqibati nima bo'lishini hali bilmasdi.

Qizidan achchiqlanganidan parishonxotirlik bilan punshiga ko'proq rom quyib yuborib, allaqachon xurrak tortib uxlab qolgandi, xuddi shu payt Mixail Ivanovich Storeshnikov boya lojada birga bo'lgan oshnalari bilan juda gavjum bir restoranda ovqatlanib o'tirardi. Bu ulfatlar orasida to'rtinchi bir kishi – ofitser bilan birga kelgan fransuz xonim ham bor edi. O'tirishlari oxirlab qolgandi.

– Msyo Storeshnik! – Storeshnikov o'zida yo'q quvonib ketdi: unga fransuz xonimning ovqat vaqtida uchinchi marta murojaat qilishi edi, – Msyo Storeshnik! Sizni shunday atashimga ruxsat bersangiz, eshitilishi ham yoqimli, talaffuzi ham oson, ulfatingizda xonimlardan yolg'iz o'zim bo'larman, deb o'ylamagan edim; bu yerda Adelni ham ko'rarman, deb umid qilgandim, kelganda, juda ko'ngildagiday ish bo'lardi, Adelni juda kam ko'raman.

– Afsuski, Adel mendan arazlagan.

Ofitser yana nimadir demoqchi bo‘ldi-yu, indamay qo‘ya qoldi.

– Uning gapiga ishonmang, m-lle Jyulli, – dedi statskiy, – sizga to‘g‘risini aytishdan qo‘rqyapti, rus xonimni deb fransuz xonimdan kechib yuborganini eshitsangiz, jahlingiz chiqar, deb o‘ylaydi.

– Biz ham bu yerga nega kelganimizni bilolmayapman! – dedi ofitser.

– Serj, nega unday deysiz, Jan iltimos qilgan-ku! Msyo Storeshnik bilan tanishganimdan juda mamnunman. Eh-he, msyo Storeshnik, didingiz namuncha past ekan! Agar siz haligi ular ikkalasining lojasida birga o‘tirgan gruzin qizni deb Adeldan voz kechsangiz, men hech narsa demasdim; lekin fransuz xonimini rus xotinga alishish... tasavvur ham qilolmayman! Ko‘zlari nursiz, sochlari siyrak, rangpar, chehrasi ma’nosiz boquvchi... kechirasiz, rangpar emas, sizning iborangiz bilan aytganda, qonga qaymoq aralashtirilgandan, ya’ni faqat eskimoslaringizga manzur bo‘ladigan taomday! Jan, nazokatdan yuz o‘girmish bu gunohkorga kuldonni olib bering, jinoyatchi boshiga kul sepib olsin!

– Jyuli, sen shuncha behuda gap gapirdingki, u emas, sen o‘zing boshingga kul sepib olishing lozim bo‘lib qoldi, – dedi ofitser, – sen gruzin qiz deganing xuddi shu rus qizining o‘zginasi-ku.

– Meni mayna qilyapsanmi?

– Rus qizining xuddi o‘zginasi, – dedi ofitser.

– Yo‘g‘-e!

– Azizim Jyuli, bizning millatimizda ham sizdagiday faqat bitta-yu bitta go‘zallik nusxasi bor, deb o‘ylab yanglishasan. Aytmoqchi, sizda ham malla sochlilar juda ko‘p bo‘ladi. Biz bo‘lsak, Jyuli, malla soch finlar bilan («Ha, ha, finlar», deb qo‘ydi o‘zicha fransuz xonim) italyanlardan ham qoraroq qabilalar quramasimiz, – bular tatarlar, mo‘g‘ullar («Ha, mo‘g‘ullar, bilaman», deb qo‘ydi o‘zicha fransuz xonim), – qonimizga shular hammasining qoni ko‘p qo‘shilgan! Sen yomon ko‘radigan malla sochlilar bizda jaydari nusxalardan biri xolos, eng ko‘p tarqalgan nusxa bo‘lsa-da, lekin hukmron nusxa emas.

– Juda qiziq! Lekin u g‘oyat go‘zal qiz! Nega u teatrga ishga kirmaydi? Aytgancha, janoblar, men faqat ko‘rgan narsam

to‘g‘risida gapiryapman. Boshqa juda muhim bir masala ham bor: uning oyog‘i-chi? Aytishlariga qaraganda, sizning buyuk shoiringiz Karasen butun Rossiyani axtarsang ham besh juft jajji, kelishgan oyoq topolmaysan, degan ekan.

– Jyuli, buni aytgan kishi Karasen emas, yaxshisi, uni Karamzin, deb gapir, – Karamzin tarixchi edi, shunda ham rus tarixchisi emas, tatar tarixchisi edi, – bu ham nusxalarimizning xilma-xilligini isbotlab beruvchi yangi bir dalil. Chiroyli oyoqlar to‘g‘risida Pushkin gapirgan; uning she’rlari o‘z zamonasi uchun yaxshi she’rlar edi, lekin hozir ularning ko‘pi o‘z qiymatini yo‘qotgan. Aytgancha, eskimoslar Amerikada yashaydi, bizning kiyik qonini ichadigan vahshiylarimiz esa samoyedlar deb ataladi.

– Rahmat senga, Serj. Karamzin – tarixchi; Pushkin – uni bilaman; eskimoslar Amerikada; ruslar – samoyedlar, ha, samoyedlar; lekin juda yaxshi jaranglarkan: samo-yed-lar! Endi esimda qoladi. Janoblar, siz Serj bilan yolg‘iz o‘zimiz o‘tirganimizda yoki siz bilan birga bo‘lmagan vaqtlarimizda unga shu so‘zlarni takrorlattiraman. Bu gaplar suhbat uchun juda foydali. Shunisini ham aytay, jon-tanim – ilm; janoblar, men m-me Stal bo‘lishga tug‘ilganman. Lekin bu boshqa gap. Asl masalamizga: uning oyog‘i masalasiga qaytamiz.

– M-11e Jyuli, agar ertaga yoningizga kirishga ijozat bersangiz, jon deb sizga uning boshmoqlarini keltirardim.

– Olib keling, kiyib ko‘raman. Bu meni juda qiziqtirib qo‘ydi.

Storeshnikovning xursandligi ichiga sig‘may ketdi: bo‘lmasachi?! U zo‘rg‘a Janning etagiga yopishib olgan, Jan zo‘rg‘a Serjning etagiga yopishib olgan, Jyuli bo‘lsa Serj uchrashib turadigan fransuz xonimlar ichida birinchi xonimlardan, baxt deb shuni aytadilar, yana qanday baxt deng!

– Oyog‘i yomon emas, – deb tasdiqladi Jan, – lekin men ko‘pni ko‘rgan odamman, bas, undan muhimroq narsalar bilan qiziqaman. Men uning ko‘kragini tomosha qilib o‘tirdim.

– Ko‘kragi joyida, – dedi Storeshnikov, o‘z didiga yoqqan qiz to‘g‘risidagi yaxshi gaplardan dadil tortib, shu bilan Jyuliga xushomadgo‘ylik ham qilish niyatida edi, holbuki bunga qadar yuragi dov bermay turgandi: garchi bu yerda boshqa bir xonimni tilga olib, uning ko‘kragini maqtash mensimaslik esa-da, lekin ko‘kragi juda kelishgan, dedi.

– Ha, ha, ha! Bu janob mening ko‘kragimga xushomad qilmoqchi! Msyo Storeshnik, men riyokor emasman, aldamchi ham emasman: men maqtanmayman, boshqalar nuqsonini ko‘rib turib maqtasalar, bunga ham yo‘l qo‘ymayman. Xudoga shukur, hali rostdan maqtansam arziydigan ancha-muncha jihatlarim bor. Lekin ko‘kragim – ha, ha, ha! Jan, siz ko‘kragimni ko‘rgansiz-ku – bu kishiga aytib bera qoling! Jan, nega indamay qoldingiz? Msyo Storeshnik, qo‘lingizni bering, – Jyuli uning qo‘lini ushladi, – bu nima, sezyapsizmi? Nima, bu badan emasmi? Mana bu yerimni ham ushlab ko‘ring, mana bu yerni ham, endi bildingizmi? Men qanaqa ko‘ylak, yubka, ichko‘ylak kiysam xuddi shunday yasama ko‘krak taqib yuraman, menga yoqqanidan shunday qilmayman, menimcha, bu ipokritlar bo‘lmagani yaxshiroq, ko‘krak taqib yurishimga sabab shuki, bu narsa hammaga rasm bo‘lgan. Lekin, Msyo Storeshnik, menchalik umr ko‘rgan va ko‘pni ko‘rgan xotin! – men hozir juda avliyo bo‘lib, quyulib qolganman, – bunday xotin ko‘krakni yoshligiday saqlab qololmaydi. – Shunday dedi-yu, u birdaniga yig‘lab yubordi. – Oh, mening ko‘kraklarim! Mening ko‘kraklarim! Qani mening pokizaligim! Ey xudo, men shunga yaratilganmidim! – Janoblar, sizlar munofiqsizlar, – deb qichqirib yubordi u. Keyin shartta o‘rnidan turdi-da, stolga bir musht urdi, – tuhmat qilyapsizlar! Sizlar razil odamlarsiz! U qiz buning o‘ynashi emas! Uni pulga sotib olmoqchi! Qizning undan yuz o‘girganini, g‘azab va nafrat o‘tida yonganini o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim. Qanchalar razillik!

– Ha, – deb qo‘ydi statskiy erinchoqlik bilan kerishib, – Storeshnikov, juda maqtanib yubording, deyman-ov: ishlaring hali bir yoqlik bo‘lgani yo‘q-ku, sen esa u bilan birga turibman, deysan, hatto bizni juda ishontirish niyatida Adel bilan ajralishib ketdik, deysan. To‘g‘ri, juda chiroyli qilib gapirib berding, lekin hali o‘zing ko‘rmagan narsani gapirding: aytgancha, bugungi kundan bir hafta ilgari nima-yu, bir hafta keyin nima, baribir emasmi? Sen xayolingda tasvirlab bergan narsalaringdan hafsalang pir bo‘lmaydi; hatto o‘ylaganingdan ham ziyoda, mana ko‘rarsan. Men ham razm solib o‘tirdim, xursand bo‘lasan.

Storeshnikovning g‘azabi qaynab ketdi.

– Yo‘q, m-lle Jyuli, menga ishonsangiz, shunday deb o‘ylab xato qildingiz; gap qaytarganim uchun kechirasiz, lekin Verochka

mening o'ynashim. Gaplaringiz rashk tufayli paydo bo'luvchi shunchaki sevgi mojarosi; men birinchi pardada m-lle Matilda lojasida o'tirganimni qiz ko'rgan edi, – bor gap shu!

– Yolg'on gapiryapsan, azizim, yolg'on gapiryapsan, – dedi Jan va esnab qo'ydi.

– Yolg'on gapirayotganim yo'q, yolg'on emas.

– Isbotlab ber. Men ko'pni ko'rgan odamman, isbotlab bermasang, ishonmayman.

– Senga qanday isbot qilib berishim mumkin?

– Ana, ko'rdingmi, ketingga tisarilyapsan. Yolg'on gapirib, o'zingni tutib beryapsan. Qanday dalil, emish. Dalil topish qiyinmi? Ishingni men oson qilay: ertaga biz yana shu yerda ovqatlanmoqchimiz. Jyuli lutfan Serjni o'zi bilan birga olib keladi, men yoqimtoy Bertani, sen u qizni olib kelasan. Olib kelsang – men yutqizganim, ziyofat mening bo'ynimga; olib kelolmasang – sharmandang chiqib ulfatimizdan quvilasan! – Jan qo'ng'iroq ipini tortdi; xizmatkor kirdi. Simon, sizga xizmat bor: ertaga olti kishilik ovqat buyurib qo'yasiz, bu yerda Berta bilan men nikoh qilingan kunimiz qanday dasturxon yozdirgan bo'lsangiz, xuddi shunday bo'lsin, – esingizda bormi, rojdestvo arafasida edi? Ziyofat yana o'sha xonada tayyorlansin.

– Msyo, bunday ziyofat esdan chiqadi, deysizmi! Bosh ustiga.

Xizmatkor chiqib ketdi.

– Iflos kishilar! Razil kishilar! Men Parijda ikki yil fohishalik qilgan xotinman, yarim yil nuqul o'g'rilar orasida yashaganman, o'sha yerda ham bunday uch nafar razilning bir joyga to'planganini ko'rganim yo'q! Yo rabbiy, meni kimlarga ulfat qilib qo'yding. Yo rabbiy, nima uchun bunday sharmandalikni ravo ko'rding? – Jyuli tiz cho'kdi. – Ey xudo! Men bir ojiza banda bo'lsam! Men ochlikka chidab o'rganib qolganman, lekin Parijda qish juda sovuq bo'ladi! Qahraton sovuq, shayton vasvasasi! Yashagim kelardi, sevgim kelardi – yo rabbiy! Axir, bu gunoh emas-ku, nechun meni bunchalar azob-uqubatlarga duchor qilmasang? Meni bulardan xalos et, bu botqoqlikdan qutqar! Menga kuch-quvvat ato qil, yana Parij ko'chalarida sarson-sargardon bo'lay, sendan boshqa iltimosim yo'q, boshqa hech narsaga arzimayman ham, lekin bulardan xalos qil, bu razillardan qutqar meni! – Jyuli sakrab o'rnidan turdi-da, yugurib ofitserning yoniga keldi. – Serj, sen ham shundaymisan?

Yo‘q, sen ulardan yaxshisan! («Yaxshi», deb qo‘ydi ofitser pinagini buzmay.) Bu razolat emasmi?

– Razolat, Jyuli.

– Bo‘lmasa nega jim turibsan? Nega indamaysan? Nega ularning fikriga qo‘shilasan? Nega ularga sherik bo‘lasan?

– Jonim Jyuli, kel, tizzamga o‘tir. – Serj Jyulini erkalata boshladi. Jyulining jazavasi bosildi. – Shunday paytlari seni juda ham yaxshi ko‘rib ketaman. Juda ajoyib xotinsan. Xo‘sh, nega men bilan nikohdan o‘tishga rozi bo‘lmaysan-a? Sendan necha marta iltimos qildim! Xo‘p de.

– Nikoh? Bo‘yinturuq? Taassub? Hech qachon! Men senga, bunday behuda gaplarni gapirma, deganman. Jahlimni chiqarma. Lekin... Serj, jonim Serj! Bu ishga yo‘l qo‘yma! U sendan hayiqadi, qiz sho‘rlikni qutqarib qol!

– Jyuli, og‘irroq bo‘l. Mumkin emas. Agar bu bo‘lmasa, boshqasi shunday qiladi, baribir emasmi? Ana, ko‘rdingmi, Jan qizni hozirdanoq undan tortib olmoqchi, bunday Janlar minglab topiladi, buni bilasan. Onasi o‘z qizini bozorga solmoqchi bo‘lgandan keyin hech kimdan omon saqlab qololmaysan. Biz ruslarda «kalla urib devorda rahna ocholmaysan», degan maqol bor. Jyuli, biz dono xalqmiz. Ko‘rdingmi, men ana shu rus naqliga amal qilib, xotirjam yashayapman.

– Bekorginani aytibsan! Sen qulsan, fransuz xonim esa erkin. Fransuz xonim kurashyapti, – u yiqilsa ham kurashyapti! Men bunga qo‘l qo‘ymayman! U kim? U qayerda turadi? Sen bilasanmi?

– Bilaman.

– Yur, uyiga boramiz. Uni ogohlantirib qo‘yaman.

– Kechasi soat birda-ya! Yaxshisi, yur, borib uxlaylik. Xayr, Jan, xayr Storeshnikov! Jyuli bilan meni ertaga ziyofatingizga kutmassiz: Jyulining jazavasini ko‘ryapsiz-ku. To‘g‘risini aytsam, bu ishlar menga ham yoqmaydi. Albatta, mening fikrim bilan sizning nima ishingiz bor. Xayr.

– Bu jinni fransuz xonimni qara-ya, – dedi statskiy, ofitser bilan Jyuli chiqib ketgandan keyin kerishib esnab. – Juda tannoz xotin, lekin haddan oshirib yubordi. Chiroyli xotinning jazavasini ko‘rish ham juda maza-da, lekin u bilan men to‘rt yil tugul to‘rt soat ham birga turolmas edim. Storeshnikov, uning injiqligi deb ziyofatimizni yig‘ishtirmaymiz. Albatta, ularning o‘rniga men

Pol bilan Matildani olib kelaman. Endi uy-uyiga, tepa to‘yiga. Hali Bertalarnikiga ham kirib o‘tishim kerak, undan keyin jajji Lotxenlarnikiga ham kirib chiqaman, o‘zi ham juda yoqimtoy-da.

III

– Qani, menga qara, Vera, ha, durust. Ko‘z yoshi qilmabsan. Onang haq gapni gapirganini tushunibsan shekilli, yo‘qsa hadeb hurpayganing hurpaygan, – Verochka betoqatlanib qimirlab qo‘ydi, – xo‘p, xo‘p, gapirmayman, jahling chiqmay qo‘ya qolsin. Kecha xonangda ko‘zim uyquga ketibdimi deyman, og‘zimdan biron chakki gap chiqqani yo‘qmi? Kecha avzoyim buzuq edi. Mastlik bilan biron narsa deb yuborgan bo‘lsam, e’tibor berma, eshityapsanmi? U gapimga ishonma.

Verochka Marya Aleksevnani yana ilgarigi holatda ko‘rdi. Kecha unga yirtqich terisini yopingan odam basharasi ko‘ringanday edi, hozir yana o‘sha yirtqichning o‘zi! Verochka g‘azab-nafratini bosishga urinib ko‘rdi, lekin uddasidan chiqolmadi. Ilgari u onasini faqat yomon ko‘rardi, kecha, onamga yomon ko‘z bilan qarashimni endi bas qilaman, unga shafqat qilaman, deb o‘ylagan edi, hozir unga yana nafrat bilan qaradi, ammo shafqatini ham undan darig‘ tutmadi.

– Verochka, kiyin! Hozir kelib qolsa ajabmas. – Onasi qizining kiyimiga mehribonlarcha tikildi. Do‘ndirib suhbatlashsang, senga katta zumrad ko‘zli to‘g‘nag‘ichimni beraman, fasoni eskicha bo‘lsa ham tuzatsa yaxshi to‘g‘nag‘ich bo‘ladi. Yuz ellik so‘mlik garovga qolib ketgan, foizi bilan ikki yuz ellik so‘m, o‘zini to‘rt yuzdan oshiqqa oladi. Eshityapsanmi, shuni senga sovg‘a qilaman.

Storeshnikov kirib keldi. Kecha boshiga balo qilib zimmasiga olgan vazifasini qanday bajarish ustida uzoq vaqt bosh qotirdi: restorandan uyiga piyoda qaytib, yo‘l bo‘yi o‘ylab keldi. Uyga xotirjam bir ahvolda yetib keldi – yo‘lda o‘ylab-o‘ylab ilojini topgan, shuning uchun ham hozir o‘zidan mamnun edi.

U Vera Pavlovnaning sog‘lig‘ini so‘radi – «sog‘-salomatman», dedi qiz; juda xursandman, kishi o‘z salomatligidan foydalanishi kerak, deb gapni shu tomonga burdi – «albatta, foydalanish kerak», Marya Aleksevnaning fikricha, «yoshligidan ham foydalanish

kerak»; men bu fikringizga tamomila qo'shilaman, bugun kechqurun shahar tashqarisiga chiqib sayr qilib kelsak, deyman; havo sovuq, yo'llar juda ajoyib. – Kim bilan bormoqchisiz? «Faqat uchovimiz: siz Marya Aleksevna, Vera Pavlovna va men». Unday bo'lsa Marya Aleksevna, butunlay rozi; lekin u hozir kirib qahva bilan yegulik hozirlaydi, Verochka bo'lsa bironta qo'shiq aytib bersin. «Verochka, sen bironta qo'shiq aytib berasanmi?!» – e'tirozga o'rin qoldirmaydigan ohangda qo'shib qo'ydi. «Aytib beraman».

Verochka fortepyano oldiga o'tirib, «Troyka»[1] qo'shig'ini aytishga tushdi, – bu qo'shiq o'sha vaqtlari endigina musiqaga solingan edi, – eshik orqasida quloq solib turgan Marya Aleksevnaning fikricha, juda yaxshi qo'shiq edi: qiz ofitserga mahliyo bo'lib qoldi. Verochka o'zi xohlagan paytlari aqlli, balo qiz! Birozdan keyin Verochka qo'shiqni to'xtatdi; bunisi ham joyida. Marya Aleksevna o'zi shunday qil, biroz qo'shiq ayt, keyin gapga sol, degan. Verochka gap boshladi, biroq Marya Aleksevnani dog'da qoldirib, fransuzcha gaplashmoqda, «men ahmoqni qaraya, ruscha gaplashish, deb tayinlash esimdan chiqibdi; lekin Vera ohista gapiryapti... Iljayib qo'ydi – demak, chakki emas, ish joyida. Nega yigit ko'zlarini chaqchaytiryapti? E, ahmoq degancha bor, anqayishdan boshqani bilmaydi. Lekin bizga xuddi shunaqasi kerak. Verochka unga qo'lini uzatdi. Verochkaga aql kirib qopti, balli.

– Msyo Storeshnikov, siz bilan jiddiy gaplashib olishim kerak. Siz kecha tanishlaringizga meni jazmanim deb ko'rsatish niyatida loja olgan ekansiz. Bu odobdan emasligini sizga gapirib o'tirmayman: agar aqlingiz yetganda, bunday qilmasdingiz. Biroq sizga bir narsani aytib qo'yay: bordi-yu teatrda, ko'chada, biron-bir boshqa joyda yonimga kelishga jazm etadigan bo'lsangiz shapaloq yeysiz. Onam meni qiyin-qistovga olar (Verochka shu gapni aytganida kulib qo'ydi), lekin nima bo'lsa bo'lar, menga endi baribir! Bugun kechqurun onamdan bir xat olasiz, xatda tobim kelishmay turibdi, chavandozlik sayrimiz qoldirildi, deb yozilgan.

Storeshnikov anqayib, bo'zrayib qoldi, Marya Aleksevna uni bu ahvolda ilgari ham ko'rgan edi.

---

[1] N.A. Nekrasovning «Troyka» («Muncha intizor bo'lib qaraysan yo'lga») she'ri o'sha vaqtda demokratik yoshlar orasida juda mashhur edi.

– Siz bilan zarracha ham nomusi yo‘q kishi bilan gaplashganday gaplashaman. Balki siz butunlay buzilgan emasdirsiz. Shunday bo‘lsa, iltimos, biznikiga kelishni bas qiling. O‘shanda menga qilgan tuhmatingizdan kechaman. Xo‘p desangiz qo‘lingizni bering, – Vera unga qo‘lini uzatdi; u nima qilayotganini bilmay uning qo‘lini oldi.

– Rahmat. Endi jo‘nang. Sayrimiz uchun otlarni hozirlashim kerak, deb qo‘ya qoling.

Storeshnikov yana anqayib qoldi. Verochka esa notaga qarab «Troyka»ni davom ettirdi. Afsuski, musiqadan yaxshi xabardor kishilar yo‘q edi; undaylar eshitsa juda maza qilardi-da, xabardor odamlar ham bunday zavq-shavq bilan aytilgan qo‘shiqni kamdan kam eshitishsa kerak; qiz qo‘shiqni artistlardek emas, chinakamiga zavq-shavq bilan aytdi.

Bir daqiqadan keyin Marya Aleksevna kirdi, ketidan oshpaz xotin patnisda qahva va yegulik ko‘tarib kirdi. Mixail Ivanich o‘tirib qahva ichish o‘rniga eshikka tomon tisarilib borardi.

– Mixail Ivanich, qayoqqa ketyapsiz?

– Marya Aleksevna, shoshib turibman, borib aytay, otlarni tayyorlab qo‘yishsin.

– Mixail Ivanovich, hali vaqt erta, ulgurasiz... – Ammo Mixail Ivanich tashqariga chiqib bo‘lgan edi.

Marya Aleksevna zarda bilan musht ko‘tarib dahlizdan zalga kirdi.

– La’nati Verka, nima qilib qo‘yding? A? – Biroq la’nati Verka zaldan chiqib bo‘lgandi: onasi uni qidirib xonasiga yugurdi, qarasa, xona eshigi berk; shunda eshikni buzish niyatida zarb bilan o‘zini eshikka uraverdi, eshik bo‘sh kelmadi, la’nati Verka bo‘lsa:

– Agar eshikni buzadigan bo‘lsangiz, derazani sindirib dodlayman, odamlarni chaqiraman. Tiriklayin qo‘lingizga tushmayman, – dedi.

Marya Aleksevna anchagacha jig‘ibiyroni chiqib eshikka tarmashgani bilan uni buzolmadi; nihoyat, baqira-baqira charchadi. Shundan keyin Verochka:

– Onajon, ilgari men sizni faqat yomon ko‘rardim, endi kechadan buyon sizga yuragim achiydigan bo‘lib qoldim, – dedi. – Siz g‘am chekaverib shunaqa bo‘lib qolgansiz. Men ilgari

bu haqda sizga gapirmasdim, endi gapirmoqchiman, lekin jahlingiz chiqmasa gapiraman. Ana o'shanda yaxshilab gaplashib olamiz, ilgarilari sira bunday gaplashmasdik.

Albatta, Marya Aleksevna bu so'zlarga unchalik e'tibor bermadi; ammo charchagan asablari dam olgisi kelib turardi, shu vajdan unda bir fikr tug'ildi: bu qiz o'lgur juda bebosh bo'lib ketyapti, chindan ham u bilan yaxshilikcha gaplashish ma'qulmikin? Axir, usiz nima ham qila olarding, rozi bo'lmasa Mishka ovsarni unga uylantirib bo'larmidi! Hali Veraning unga nima degani ham noma'lum, lekin bir-birining qo'lini qisib qo'ydi-ku – bunisi nima bo'ldiykin?

Marya Aleksevna qo'ng'iroq jiringlaganda goh jazavasi tutib, goh ayyorlik bilan horg'in o'ylab o'tirgan edi, Jyuli bilan Serj kirib keldi.

IV

– Serj, uning onasi fransuzcha biladimi? – Jyulining uyqudan turganda aytgan birinchi gapi shu bo'ldi.

– Bilmadim: bu fikrni hali ham miyangdan chiqarib tashlamadingmi?

Yo'q, chiqarib tashlagani yo'q. Teatrdagi yurish-turishlarini mulohaza qilib, qizning onasi fransuzcha bilmasa kerak, degan qarorga kelganlaridan keyin, Jyuli Serjni tarjimonlikka olib kelgandi. O'zi asli peshonasiga bitilgani shu, Verochkaning onasi kardinal Metssofanti bo'lganda ham uning borishi turgan gap edi; shu sababdan u taqdiriga tan berib, Kornel qahramonining mahrami singari, Jyulining yonidan jilmasdi. Jyuli kech uyg'ondi, yo'ldan Vixmanning uyiga kirib chiqdi, so'ngra yo'l-yo'lakay emas, balki zaruratdan yana to'rt do'konga kirib o'tdi. Shu tariqa, Jyuli bilan Serj Liteynayadan Goroxovaya ko'chasiga borib yetguncha, Mixail Ivanich muhabbat izhor qilib ulgurdi, Marya Aleksevna jazavasidan tushib ancha hordiq chiqarib oldi.

– Biz nima ish bilan keldik o'zi? Fu, zinapoya bo'lmay o'l! Bunaqa rasvo zinapoyani Parijda ham ko'rgan emasman.

– Tilga kelganini aytarmiz. Onasi garovga pul berib turadi. To'g'nag'ichingni qo'lingga ovol. Yoki yaxshisi: u fortepyanodan dars beradi. Sening jiyaning bor, dermiz.

Serjning mundirini, ayniqsa, Jyulining ko'rkam qaddi-qomatini ko'rib Matryona umrida birinchi marta o'zining ta'viyaligidan uyalib ketdi: u hech vaqt bunday basavlat xonimga duch kelmagandi. Matryona kirib, polkovnik NN rafiqalari bilan tashrif buyurdilar, deganida, Marya Aleksevna ham hurmatini bajo keltirib, nima qilarini bilmay qoldi. Ayniqsa «rafiqalari bilan!» deganini aytmaysizmi. Mayda-chuyda fisq-fasodlari Marya Aleksevnagacha yetib keladigan tabaqa odamlari jamiyatning fisq-fasodlari haqiqiy statskiy tabaqasigacha ko'tarilib borardi, asl aristokratlar ustidagi fisq-fasod gaplar esa Marya Aleksevnaga yetib kelgunchayoq bosilib qoladi; shuning uchun ham Jyuli bilan Serjning Parij urf-odatiga ko'ra bir-birini «Er va xotin» deb atashini tamomila qonuniy ma'noda tushungan edi. Marya Aleksevna shosha-pisha u yoq-bu yoqlarini tuzatib, yugura tashqariga chiqdi.

Serj, kechagi voqeadan juda xursandman va hokazo dedi, xotinimning bir jiyani bor, xotinim ruschani bilmaydi, shu vajdan men tarjimon bo'lib keldim, dedi.

– Xudoga shukur, – dedi Marya Aleksevna, – Verochkaning fortepyanodan dars berishga iste'dodi zo'r, poyi qadami bu dargohga yetadigan bo'lsa, men o'zimni baxtiyor hisoblayman, ammo muallimamizning biroz toblari qochib turibdi, – Verochka eshitsin va yarash-yarash bo'pti deb tushunsin, deb Marya Aleksevna ovozini barala qo'yib gapirdi, o'zi bo'lsa shuncha izzat-hurmat ustiga yana mehmonlardan ko'zini uzolmay qoldi, – bilmadim, fortepyanoda chalishni sizga namoyish qilishga madori yetarmikin. Verochka, jonim, chiqasanmi yo chiqolmaysanmi?

Qandaydir begona kishilar kelganga o'xshaydi, – janjal bo'lmaydi, nega chiqmas ekanman? Verochka eshikni ochdi, Serjni ko'rib, uyalganidan va achchig'i chiqqanidan yuzlari lovullab ketdi.

Buni xira ko'zlar ham ko'rmasligi mumkin emasdi, Jyulining ko'zlari esa Marya Aleksevna ko'zlaridan ham o'tkirroq desa bo'lardi. Fransuz xonim gapni dangal boshlab yubordi.

– Qo'zichog'im, bu kishini ko'rib taajjublanyapsiz va xijolat tortyapsiz, kecha sizni shu kishi huzurida haqorat qilishgan ekan, ehtimol, bu kishi ham qo'shilib haqorat qilgandir. Erim yengiltakroq kishi, lekin u har holda boshqa beboshlarga qaraganda ancha durust. Men uchun uning gunohidan o'ting, oldingizga yaxshi

niyat bilan keldim. Jiyanimning dars olishi – bir bahona; lekin shuni bahona qilib turish kerak. Siz qisqaroq biror narsa chaling, keyin xonangizga kirib, gaplashib olamiz. Aytganimni qiling, qo'zichog'im.

Bu xonim Peterburgdagi jamiki yosh, zodagonlar biladigan Jyulimikin? Aytgan qochiriq gaplari ba'zi bir sho'x yigitlarni ham qizartirib yuboradigan Jyuli shumikin? Yo'q, bu umrida yomon gap eshitmagan knyagina-ku.

Verochka fortepyano chalmoqchi bo'lib o'tirdi. Jyuli uning yoniga keldi, Serj Marya Aleksevnaning Storeshnikov bilan munosabatini bilish niyatida uni gapga soldi. Bir necha daqiqadan so'ng Jyuli Verochkani to'xtatdi, belidan ushlab, birgalikda zalda biroz aylanib yurgandan keyin, xonasiga boshlab kirdi. Serj, Verochkaning fortepyano chalishi xotinimga yoqdi, lekin u bilan gaplashib ko'rmoqchi, nega desangiz, muallimaning fe'lini ham bilishi kerak, kabilarni aytib, gapni yana Storeshnikovga burdi. Bular hammasi juda yaxshiku-ya, lekin Marya Aleksevna tobora hushyor tortib, shubhasi ortib borardi.

– Yaxshi qiz, – dedi Jyuli Verochkaning xonasiga kirgandan keyin, – onangiz juda ahmoq xotin. Lekin siz bilan qanday gaplashuvim lozimligini bilib olishim uchun, iltimos, kecha teatrga qanday va nega borganingizni aytib bersangiz. Hammasini erimdan bilib olganman, lekin sizning gapingizni eshitib, fe'l-atvoringizni ham bilib olmoqchiman. Mendan xavotirlanmay gapiravering. – Verochkaning gapini eshitganidan keyin: – Siz bilan gaplashsa bo'lar ekan, irodali odam ekansiz, – dedi-yu, juda ehtiyot bo'lib, adab bilan unga kechagi bas boylashuvni gapirib berdi; Verochka unga javoban chavandozlik sayri to'g'risidagi taklifni aytib berdi.

– Nima deb o'ylaysiz, u onangizni aldamoqchi bo'lganmi yoki ularning sizga qarshi tili bormi? – Verochka achchig'i chiqib, onam menga qarshi birov bilan til biriktiradigan darajada ahmoq xotin emas, dedi. – Hozir ko'ramiz, – dedi Jyuli. – Siz shu yerda qoling, u yerda keragingiz yo'q, – Jyuli zalga chiqib ketdi.

– Serj, bu xotin bilan qizini bugun kechqurun sayrga taklif etibdi. Unga kechagi kechki ovqat vaqtidagi gaplarni gapirib ber.

– Qizingiz xotinimga yoqibdi, endi xizmat haqi xususida gaplashib olsak bo'lgani, bu masalada kelishib olarmiz, deb

o‘ylayman. Lekin ruxsat bersangiz, ikkalamizga ma’lum odam haqidagi gapimizni oxiriga yetkazsam. Siz uni juda maqtayapsiz. Ammo sizning oilangizga munosabati to‘g‘risida nimalar deganini bilasizmi, masalan, kecha bizni nima maqsadda lojangizga taklif qildi?

Marya Aleksevnaning sinovchan tikilib turgan ko‘zlarida: «O‘zim bilganday», degan ifoda paydo bo‘ldi.

– Men g‘iybatchi emasman, – deb istar-istamas javob berdi u, – o‘zim mishmish gaplarni yomon ko‘raman, bunday gaplarga uncha quloq ham solmayman! – Mehmonning hurmatini joyiga qo‘yib turganiga qaramay, bu so‘zlarni bir qadar achitib gapirdi. – Yoshlar bir-birlariga nimalar demaydi, deysiz; bu gaplarga e’tibor berishning nima keragi bor?

– Juda yaxshi, siz buni g‘iybat deb bilasizmi? – U ziyofat mojarosini hikoya qilib berdi. Marya Aleksevna unga so‘zini tamomlashga qo‘ymadi: u bas boylashganliklarini gapira boshlagan ham ediki, sakrab o‘rnidan turdi-da, mehmonlarning kazo-kazo odamlar ekanligini ham unutib, jazavasi tutgancha baqira boshladi:

– Hali gap shunaqa deng! Voy muttaham-ey! Voy ablah-ey! Sayri-havo deganining ma’nosi shu ekan-da! U meni shahar chetiga olib borib juvonmarg qilmoqchi, bechora qizimning nomusiga tegmoqchi ekan-da! Voy iflos maxluq-ey! – va hokazo shu kabi gaplar bilan haqorat qilib ketdi. Shundan keyin, u o‘zini o‘limdan, qizini sharmisorlikdan saqlab qolganlari uchun mehmonlarga minnatdorchilik bildira boshladi. – Buni qarang-a, o‘zim ham aytuvdim-a, bular bekorga kelmagan, dars o‘z yo‘li bilan, bularning boshqa bir niyati bor, deb o‘ylovdim, lekin o‘ylagan narsam boshqa edi; bular yigitga boshqa qalliq topishgan, uni bizdan aynitishmoqchi, degan xayolda edim, men la’nati, siz to‘g‘ringizda shunday xayolga boribman-a, uzr so‘rayman. Bu yaxshiligingizni o‘la-o‘lgunimcha yodimdan chiqarmayman, – va hokazo. Shu ko‘yi ancha vaqtgacha goh qarg‘adi, goh rahmat aytdi, goh uzr so‘rayverdi.

Jyuli bu uzundan uzoq gaplarga unchalik quloq solib o‘tirmadi. Ularning ma’nosi ovoz ohangi va qo‘l harakatlaridan aniq edi; Marya Aleksevnaning dastlabki so‘zlarini eshitiboq Jyuli o‘rnidan turib, yana Verochkaning xonasiga kirib ketdi.

– Onangizning u bilan tili bir emas ekan, hozir onangiz undan juda darg‘azab. Lekin men onangizga o‘xshagan odamlarni yaxshi bilaman. Pul masalasi aralashganda bunday odamlar izzat-nafsiga ham quloq solmaydi; onangiz tezdan yana kuyov qidirib qoladi, oqibati nima bo‘lishini yolg‘iz xudoning o‘zi biladi; har holda hamma og‘irlik sizning boshingizga tushadi. Birmuncha vaqt sizni tinch qo‘yadi; lekin menga ishonavering, bu narsa uzoqqa bormaydi. Siz hozir nima qilishingiz kerak? Peterburgda qarindosh-urug‘laringiz bormi?

– Yo‘q.

– Afsus. Yaxshi ko‘radigan jazmaningiz bormi? – Verochka bunga nima deb javob berishini bilmadi, u hayron bo‘lib ko‘zlarini baqraytirib turaverdi. – Kechiring, meni kechiring, bildim, ammo o‘zingizga yomon. Demak, u yerda boshpanangiz yo‘q. Nima qildik endi? Quloq soling. Men siz o‘ylagan odam emasman, uning xotini ham emasman, shunchaki qaramog‘idaman. Peterburgda juda buzuq xotin degan nom chiqarganman, aslida halol xotinman. Menikiga borsangiz, yomonotliq bo‘lasiz; mening bu xonadonga shu bir marta kelishim ham siz uchun ancha xavfli, agar ikkinchi marta kelsam, nomingizga dog‘ tushirishim turgan gap. Holbuki, siz bilan yana uchrashish, ehtimol, yana bir necha marta ko‘rishishim kerak bo‘lar, ya’ni agar menga ishonsangiz. Ishonasizmi? Unday bo‘lsa, ertaga qay vaqtda fursatingiz bo‘ladi?

– Soat o‘n ikkilarda, – dedi Verochka. Jyuli uchun bu ancha barvaqtlik qiladi, lekin, mayli, u ertaroq uyg‘otib qo‘yinglar, deb buyuradi-da, Gostinniy dvorning Nevskiy prospekti ro‘parasidagi ko‘chada Verochka bilan uchrashadi; u ko‘cha boshqa hamma ko‘chalarga qaraganda kalta, unda birov birovni darrov topsa bo‘ladi, bu ko‘chada Jyulini hech kim tanimaydi ham.

– Ha, aytgancha, xayolimga bir ajoyib fikr kelib qoldi: menga qog‘oz bering, men u ablahni qo‘lga olish uchun xat yozaman. – Jyuli xat yoza boshladi: «Msyo Storeshnikov, siz hozir juda qiyin ahvolda bo‘lsangiz kerak, shu qiyin ahvoldan qutulay desangiz, menikiga soat 7 da keling. J. Le-Telle». Xayr, omon bo‘ling!

Jyuli xayrlashish uchun qo‘lini uzatgan edi, Verochka uning bo‘ynidan quchoqlab yig‘lab o‘paverdi. Jyuli bo‘lsa o‘zini tutolmay qoldi, u ham ko‘z yoshi qilishda Verochkadan

qolishmasdi, bu qilayotgan yaxshiligidan, xursandligi va g'ururi ichiga sig'may ketgan edi; u o'zini tutolmay yig'lab, o'pib, oxiri xitob qilib dedi:

– Do'stim, qo'zichog'im! Xudo saqlasin, seni aslo mening kunimga solmasin, ko'p yillardan buyon lablarim pokiza lablarga birinchi bor tegdi. O'lsang ham zinhor-bazinhor sevmasdan bo'sa berma!

Storeshnikovning tuzgan rejasi Marya Aleksevna o'ylaganchalik badxoh emasdi. Marya Aleksevna, o'z fe'l-atvoriga ko'ra, buni juda xunuk qilib ko'rsatgani bilan gap nimadaligini o'zi yaxshi tushunib olgan edi. Storeshnikov o'z xonimlarini restoranga ziyofatga kechroq olib bormoqchi, hammamiz sovuq qotdik, qorin ham ochdi, sal isinib, choy-poy ichib olish kerak, demoqchi edi; Marya Aleksevnaning chashkasiga yoki ryumkasiga afyun solib qo'ymoqchi edi. Verochka esa onasining hushdan ketganini ko'rib, o'zini yo'qotib qo'yadi; Storeshnikov shunda Verochkani ziyofat bo'lib turgan xonaga olib kiradi – shu bilan yutib chiqadi; keyin nima bo'lsa bo'laveradi. Ehtimol, Verochka nima qilarini bilmay begona odamlar ichida o'tirishga rozi bo'lar, bordi-yu, o'tirmay chiqib ketsa, unda ham zarari yo'q, uni kechirishadi, chunki Verochka avantyuristlik yo'liga endigina qadam qo'ymoqda, albatta, avvaliga uyalishi turgan gap. Keyin pul bilan Marya Aleksevnani ko'ndiraman, ko'nmay ham iloji qancha. Lekin hozir nima qilish kerak? U oshna-og'aynilari oldida o'zining maqtanchoqligi, Verochka to'satdan qarshilik ko'rsatganida noiloj qolganligi uchun o'zidan juda xafa, bu kunimdan ko'ra, yer yorilsa-yu, yerga kirib ketsam, derdi. U ruhan tushkunlikka uchrab boshi qotib turganda, Jyulidan kelgan xat jarohatiga malham, zulmat qo'ynidagi najot nuri, tubsiz botqoqqa botib ketayotgan kishining oyog'i ostidan chiqqan katta yo'lday bo'ldi. Ha, Jyuli yordam beradi, u juda aqlli xotin! Bilmagan ishi yo'q. Juda olijanob ayol! U o'n daqiqasi kam yettida Jyulining eshigi tagida turardi – «Kutsin, qabul etinglar, deb buyurdilar».

Savlat to'kib o'tirishini, tikilishini! Bergan salomiga javoban ikki bukilib boshini sal egib qo'ydi. «Kelganingizga juda xursandman, marhamat, o'tiring». Yuzida biron mushagi qimirlagani yo'q. Toza koyiydiganga o'xshaydi, mayli, koyisa koyisin-u, ammo mushkulimni oson qilsin.

– Msyo Storeshnikov, – deb sovuqqina gap boshladi Jyuli, – siz bilan gaplashmoqchi bo'lgan ish to'g'risidagi fikrimni bilasiz, demak, uni yana bayon qilishimning hojati yo'q. Kechagi gaplarga sabab bo'lgan yosh xonimni ko'rdim, sizning ham bugun borganingizni eshitdim, demak, hammasidan xabardorman va bundan juda xursandman, chunki bu narsa meni sizdan biron narsa so'rab o'tirish kabi og'ir zaruratdan qutqaradi. Ahvolingiz menga ham, o'zingizga ham bab-baravar ayon («E xudo, bundan ko'ra urishgani, qarg'agani yaxshi edi», deb o'yladi javob berayotgan kishi). Menimcha, biron kishi yordam bermasa, bu ahvoldan qutula olmaysiz va bunda sizga mendan boshqa hech kim tuzukroq yordam qilolmaydi. Biron e'tiroz bildirmoqchi bo'lsangiz, ayting, qulog'im sizda. Demak (sukutdan keyin), o'zingiz ham men aytganday, boshqa biron kishi bu ishda yordam berolmaydi, deb o'ylaysiz, shunday bo'lgach, quloq berib, siz uchun nima qilishim mumkinligini va niyatim nimaligini eshiting; agar men aytgan yordam sizga kifoya qiladiganday bo'lsa, men ham shartimni aytaman.

Shu bilan uzundan uzoq rasmiy bayon usuli bilan u men Janga xat yozishim mumkin, unda: o'ylab ko'rib kechagi jahlimdan tushdim, ziyofatda bo'lsam deyman, lekin bugun kechqurun bandman, shuning uchun Jandan iltimos qilaman, Storeshnikovni ziyofatni boshqa kunga qoldirishga unatsin. Ziyofat qachon bo'lishi to'g'risida Jan bilan keyin kelishib olamiz, deb aytaman, dedi. Bu xatni o'qib berdi, – xatdan Storeshnikovning yutishi turgan gap, tantana fursati keyinga surilsa, alam qilib yurardi, deb ishonch bilan yozilganligi sezilib turardi. Shu xat kifoyami? Albatta. Unday bo'lsa, – deb davom etdi Jyuli o'sha uzundan uzun rasmiy xat ohangi bilan, – men xatni ikki shart bilan yuboraman – «siz bu shartni qabul qilishingiz ham mumkin, qabul qilmasligingiz ham mumkin, agar qabul qilsangiz xatni jo'nataman; qabul qilmasangiz, xatni kuydirib tashlayman» va hokazo, xullas, najot istovchi kishining jonini sug'urib olguday uzundan uzoq rasmiy gaplar. Nihoyat, navbat shartlarga keldi. Shart ikkita: «Birinchisi: siz bu yosh xonimni har qanday ta'qib etishlarni bas qilasiz; ikkinchisi: suhbatlaringizda nomini tilga olishingizni yo'q qilasiz». «Bo'lgani shumi! – deb o'yladi najotkor. – Men bu xonim hali nima-

nimalarni talab qilar ekan, deb o‘ylagan edim. Shuning uchun nima desa ham hammasiga jon deb rozi bo‘lgan bo‘lardim». Men roziman, dedi, shartning yengilligidan xursandligi yuzlaridan ko‘rinib turardi, ammo Jyuli sira bo‘sh kelmadi, u gapni cho‘zib, tushuntirish bilan ovora... «birinchisi – qiz uchun kerak, ikkinchisi ham uning uchun, lekin ko‘proq siz uchun kerak: men ziyofatni bir hafta keyinga qoldiraman, keyin yana bir haftaga qoldiraman, shu bilan bo‘lgan gap-so‘zlar esdan chiqib ketadi, biroq siz yosh xonim to‘g‘risida biron og‘iz ham gapirmay, uning nomini tilga olishni to‘xtatganingizdagina boshqalar bu gaplarni esdan chiqarib yuborishadi, siz buni tushunarsiz» va hokazo. Shu taxlitda qayta-qayta tushuntirishlar, isbotlashlar, hatto xatni Janning o‘z vaqtida olishini aytishlar davom etaverdi. – «Men surishtirdim, tushki ovqatda Bertanikida bo‘lar ekan» va hokazo, – «sigarasini chekib bo‘lgandan keyin sizning oldingizga boradi» va hokazo, hamon shu taxlitda va, masalan, mana bu taxlitda ham. Demak, xatni jo‘natamiz, juda xursandman. Marhamat qilib, yana bir o‘qib chiqing, menga ishonmaysiz, ishoning deb talab ham qilmayman. O‘qib chiqqan bo‘lsangiz, – konvertga o‘zingiz soling, – mana konvert. Odam chaqiraman. Polina, siz bu xatni falonchiga yetkazing» va hokazo. «Polina, «siz bugun msyo Storeshnikov bilan ko‘rishganim yo‘q, bu yerga kelgani ham yo‘q, tushunyapsizmi?» – Bu mashaqqatli najot voqeasi salkam bir soatga cho‘zildi. Nihoyat, xat jo‘natildi va najot topgan zot erkin nafas oldi, lekin a’zoyi badanidan ter quyib ketdi, Jyuli esa hamon davom etardi:

– Siz chorak soatdan keyin darrov uyingizga ketishingiz kerak, Jan kelganda uyingizda bo‘lishingiz lozim. Lekin yana chorak soat vaqtingiz bor, shundan foydalanib sizga bir-ikki og‘iz gap aytmoqchiman; bu nasihatlarimga quloq solasizmi, yo‘qmi, lekin yaxshilab o‘ylab ko‘rasiz. Qizning sha’niga dog‘ tushirgan halol kishining zimmasida qizga nisbatan qandan vazifalar turishi haqida gapirib o‘tirmayman: men aristokrat yoshlarni juda yaxshi bilaman, bas, masalaning bu tomonini qarab chiqishdan na foyda! Lekin biz tilga olayotgan yosh xonimga uylansangiz, siz uchun yaxshi bo‘lardi, deb o‘ylayman. Men ro‘yi-rost gapni yaxshi ko‘radigan xotinman, shu sababdan fikrimni aniq-tiniq aytib qo‘ya qolaman,

garchi ba'zi bir dalillarim qulog'ingizga qaltis eshitilsa ham ochiq aytib qo'ya qolaman, – shuni ham aytib qo'yay, bir og'iz gapingiz bilan so'zimni to'xtatishim mumkin. Siz ko'ngli bo'sh odamsiz, biroq yomon xotinning qo'liga tushib qolsangiz, qiynab qo'yadi, o'yinchoq qilib oladi. Bu oqko'ngil, olijanob qiz, sizni ranjitadigan odam emas. Nasl-nasabi past, sizdan kambag'al bo'lsa ham unga uylansangiz, martabangiz ancha baland ko'tarilardi: bu qiz zodagonlar orasiga olib kirilsa, sizning pulingiz, uning chiroyi, aqli va irodasi bilan ular jamiyatida obro' qozonardi; bundan qanday naf kelishini har qanday erkak ham yaxshi biladi. Bunday xotindan har qanday erkakka ham tegishi mumkin bo'lgan boshqa hamma nafni aytmaganda ham, bunday yordamchiga, to'g'risini aytsam, rahnamoga siz o'z tabiatingiz tufayli boshqalardan ko'ra ko'proq muhtojsiz. Men har bir so'zimni yaxshilab o'ylab, xonimni kuzatib yurib gapirdim. Menga ishonavering, demoqchi emasman, lekin nasihatimni yaxshilab o'ylab ko'ring. Uylanish haqidagi taklifingizni qabul qilishiga qattiq shubhalanaman: lekin agar u qabul qilsa, siz uchun juda foydali ish bo'lardi. Endi sizni ortiq ushlab turmayman, tezroq uyingizga borishingiz lozim.

VI

Marya Aleksevna Mishka-tentakning o'zi o'ylaganchalik tentak emasligini, hatto bularni laqillatib ketishiga sal qolganini ko'rganidan keyin, albatta, Verochkaning sayr qilib kelishdan bosh tortishiga ortiqcha ranjimay qo'ydi. Verochkani tinch qo'yishdi, ertasiga ertalab u Gostinniy dvorga ketdi, hech kim uning yo'lini to'sgani ham yo'q.

– Bu yer sovuq ekan, sovuqqa tobim yo'q, – dedi Jyuli, – biror joyga borsak. Qayoqqa borsak ekan? Biroz kutib turing, g'izillab do'konga borib kelaman. – Jyuli Verochka uchun qalin to'r sotib oldi. – Yuzingizga tutib oling, keyin uyimga bemalol boraverasiz. O'zimiz yolg'iz qolmaguncha to'rni yuzingizdan olmang. Polina juda kamtar xotin, lekin u ham sizni ko'rmay qo'ya qolsin, deyman. Qo'zichog'im, sizni juda ehtiyot qilyapman! – Haqiqatan, uning o'zi ham xizmatchisining mursagini va shlapasini kiyib, yuziga qalin to'r tutib olgan edi. Jyuli isinib, Verochka topib kelgan yangi

gaplarni eshitganidan keyin, Storeshnikov bilan uchrashganini aytib berdi. – Qo'zichog'im, endi sizga og'iz solishiga hech qanday shubha yo'q. Bunday odamlar shilqimlik qilib niyatiga yetolmasa, oshig'-u shaydo bo'lib qolishadi. Qo'zichog'im, unga xuddi ko'pni ko'rgan tannoz xonimday muomala qilganingizni bilasizmi? Tannozlik deyapman, men bachkana, beo'xshov tannozlikni emas, balki asl nazokatni aytyapman: asliga o'xshatib yasalgan har qanday yasama narsa ham baribir xunuk bo'lganidek, bu kabi beo'xshov tannozlik ham shunday jirkanch, holbuki chinakam nazokat, – agar uni ayol bilan erkak o'rtasidagi munosabatlarga tatbiq qilinadigan bo'lsa, – aql va odob demakdir. Shu sababdan, butunlay soddadil qizlar ham, agar ular aqli raso va odobli bo'lsalar, muomalalari beg'araz, juda nazokatli bo'ladi. Ehtimol, men keltirgan dalillar ham unga ta'sir qilar-ku, lekin eng muhimi – sizning qattiq turishingizga bog'liq. Xullas, u sizga og'iz soladi, gapimga kirsangiz, taklifimni qaytarmay, xo'p deng.

– Axir siz kecha menga, sevmasdan o'pish bergandan ko'ra o'lganing yaxshiroq, degan edingiz-ku?

– Qo'zichog'im, men qiziq ustida shunday degan edim; kishi qizishib ketganda shunday deyishi to'g'ri va yaxshi! Lekin hayot oddiy narsa bo'lgani bilan unda hamma narsa hisob-kitobli.

– Yo'q, aslo rozi bo'lmayman. U ablah odam! Bunday qilish esa qabohat! Yo'q, men bunday qabohatga ko'nmayman, meni chavoqlab tashlasinlar, o'zimni derazadan tashlasam tashlayman, ko'cha-ko'ylarda tilanchilik qilsam qilarmanki... lekin iflos, qabih kishiga tegishga rozilik bermayman... bunga rozi bo'lganimdan o'lganim yaxshiroq!

Jyuli bu ishdan keladigan naflarni tushuntira boshladi; «Onangizning ta'qibidan qutulasiz, sizni sotishmoqchi, tahlika ostida turibsiz, u bo'lsa yomon odammas, faqat befarosatroq; irodali, aqlli xotin uchun befarosatroq va yumshoqko'ngil erkak har qanday erkakdan ziyoda bo'ladi, siz uy bekasi bo'lasiz». Jyuli sevgida erkaklarga bo'ysunmay, ularga hukmdorlik qiluvchi aktrisa, raqqosalarning ahvolini ming xil bo'yoqlar bilan tasvirlab berdi: «Xotin-qizlar uchun bu – jamiyatdagi eng yaxshi mavqe hisoblanib, san'atkorlarning mustaqilligi va hukmdorligidan tashqari, ijtimoiy tuzum ham ularning bunday holatini rasman tan

oladi, ya'ni aktrisaning muxlisi aktrisaga qanday ko'z bilan qarasa, erining ham xotiniga xuddi shunday qarashini qonuniy deb rasmiy tan oladi». Jyuli ko'p gapirdi, Verochka ham ko'p gapirdi, ikkovlari juda qizishib ketishdi, nihoyat, Verochka jo'shib ketdi:

– Siz meni xayolparastsan, deysiz, yashashdan maqsading nima, deb so'raysiz. Men hukmronlik qilmoqchi ham, bo'ysunmoqchi ham emasman, birovni aldamoqchi ham, ayyorlik qilmoqchi ham emasman, birovlarning fikriga ham qo'shilmayman, ko'nglimga narsa yoqmasa, boshqalar menga qanday maslahat berarkin, deb ularning og'ziga qarab o'tirmayman. Boylikka ham o'rgangan emasman, – uning menga keragi ham yo'q, – odamlar mol-davlat kimga ham yoqmaydi, deb o'ylasa, mening ham ortiqchalik qilmas, deb boylik orttirish payiga tushishimdan na foyda? Men zodagonlar orasida bo'lgan emasman, shukuhning nimaligini bilmayman, aslini aytsam, bunga hali ra'yim ham yo'q – bas, boshqalar dong chiqarishga nima yetsin, desa shuni deb o'zimni qurbon qilib o'tirarkanmanmi? Keragi yo'q narsa uchun o'zimni qurbon qilamanmi? Qurbon qilish u yoqda tursin, zarracha injiqligimdan ham kechmayman. Erkin, o'z bilgim bilan kun ko'rmoqchiman: o'zimga kerak bo'lsa har narsaga tayyorman; o'zimga kerak bo'lmagan narsani nima qilaman? Menga nimalar kerakligini hali bilmayman; siz: hali yoshsan, hech narsani bilmaysan, vaqti kelib aqling ham kirib qoladi, deysiz, nima bo'libdi, aqlim kirganda bir gap bo'lar, hozir esa, o'zimga keragi yo'q narsani nima qilaman! Keragi yo'q! Hozir ko'nglingda nima darding bor, deb so'rayapsiz. Ha, buni o'zim ham bilmayman. Erkakka ko'ngil qo'ygim bormi? Bilmayman, men kecha ertalab uyqudan turganimda sizga ko'ngil qo'ygim kelishini bilmasdim-ku; sizga ko'ngil qo'yishimdan bir necha soat ilgari sizni yaxshi ko'rib qolishimni bilmasdim, sizni yaxshi ko'rib qolganimda, o'zimni qanday his qilishimni ham bilmasdim. Bundan tashqari, agar men biron erkakni yaxshi ko'rib qolsam, o'zimni qanday his qilishimni ham bilmayman, lekin shuni bilamanki, hech kimga berilmayman, erkin yurmoqchiman, birovga qaram bo'lmoqchi emasman, shunday qilmoqchimanki, birov menga unday qil, bunday qil, deyolmaydigan bo'lsin! Men faqat ko'nglimga yoqqan ishni qilmoqchiman, boshqalar ham shunday qilsin: men hech kimdan hech narsa talab qilmoqchi emasman,

birovning erkiga ko‘z olaytirmoqchi emasman, o‘zim ham erkin bo‘lmoqchiman.

Jyuli bu so‘zlarni eshitib o‘tirar ekan, o‘ylana-o‘ylana qizarib ketdi, – olovning yonida turganidan keyin qizarmay iloji qancha, – sapchib o‘rnidan turdi-da, tutila-tutila gap boshladi:

– Shundaylikka shundayku-ya, qo‘zichog‘im! Yanglish yo‘lga kirib ketmaganimda men ham o‘zimni xuddi shunday his qilardim. Mening razolatim adoyi tamom bo‘lgan xotin deb atashlarida, kechirgan kunlarim, tortgan azob-uqubatlarimda, tanim harom bo‘lganida emas, razolatim shundanki, men bekorchilikka, zeb-ziynatga o‘rganib qoldim, o‘zim kun ko‘rolmaydigan, boshqalarga muhtoj bo‘lib, ko‘nglim tortmaydigan ishlarni ham qiladigan bo‘lib qoldim – razolat deb shuni aytadilar! Qo‘zichog‘im, mening gapimga quloq solma. Men seni yo‘ldan ozdirayotgan edim – evoh, qanchalar azob bu! Men halol, beg‘ubor narsaga qo‘l tegizolmayman; menga yaqinlashma, oppog‘im, men iflos xotinman, zodagonlar to‘g‘risida aslo o‘ylama! U yerdagilar hammasi iflos, mendan beshbattar; bekorchilik bor joyda razolat bor, zeb-ziynat bor joyda qabohat bor! Qoch, qoch! Bularga yaqinlashma!

VII

Storeshnikov: «Shu qizga shartta uylanib qo‘ya qolsam nima qiladi?» – deb tez-tez o‘ylaydigan bo‘lib qoldi. U o‘ziga o‘xshagan o‘z boshiga ish tutishni bilmaydiganlar uchun emas, hatto o‘ziga mustaqil kimsalar uchun ham juda oddiy hisoblanmish bir hodisaga duch kelib qoldi. Hattoki Yum, Gibbon, Ranke va Terri asarlaridan iborat xalqlar tarixida ham bunday hodisalar to‘lib-toshib yotibdi: kishilar, «hoy og‘aynilar, qani, boshqa yoqqa ham bir yurib ko‘ringlar-chi», degan gapni eshitmaganlari uchun ham doimo bir tomonga, bir tomonga qarab yuradilar – agar quloq solsalar bormi, o‘ngga burilib boshqa tomonga ketadilar. Storeshnikov, boyvachchalarning chiroyli kambag‘al qizlardan jazmanlari bo‘larkan, deb eshitgan va o‘zi ham ko‘rgan – shu sababdan u ham Verochkani o‘ziga jazman qilib olgisi keldi: uning xayoliga boshqa fikr kelgan ham emasdi; u «uylanish ham mumkin», degan boshqa bir so‘zni eshitgan edi, ilgari «jazman»

degan so‘z ustida bosh qotirib yurgan bo‘lsa, endi «xotin» degan so‘z ustida o‘ylanib qoldi.

Bu hammada bor shunday bir xislatki, Storeshnikov insoniyat tarixining o‘ndan to‘qqizini shu xislati bilan o‘z shaxsi misolida juda boplab tasvirlab berdi. Lekin tarixchilar va psixologlarning aytishlaricha, har bir xususiy voqea umumiy sabab: mahalliy, muvaqqat, qabilaviy va shaxsiy elementlarda (ularning iborasi bilan aytganda) «individuallashadi», muhimi ham mana shu o‘ziga xos elementlardir, ya’ni hamma qoshiq bir qoshiq bo‘lsa, har bir kishi karam sho‘rvani o‘z qoshig‘i bilan, o‘z qo‘lidagi qoshig‘i bilan ichadi, shuning uchun mana shu qoshiqni tekshirib ko‘rmoq kerak, deydilar. Nega tekshirib ko‘rmas ekanmiz.

Gapning eng muhimini Jyuli aytib qo‘ydi (hammasida shu to‘g‘rida gap boruvchi barcha rus romanlarini o‘qib chiqqanday): qancha tarang qilsang, istak shuncha kuchayaveradi. Storeshnikov Verochkaga ega chiqish haqida xayol surishga o‘rganib qolgan edi. Jyuli singari, men ham har bir narsani, hammamiz deyarli doimo xayol qiladigan va gapirib yuradigan qo‘pol va buzuq tilda, o‘z nomi bilan atashni yaxshi ko‘raman. Bir necha haftagacha Storeshnikovning ishi shu bo‘ldiki, u Verochkani xayolida ming maqomga solib ko‘rdi, xayollarim haqiqatga aylansaydi, degan orzuda yurdi. Uning bu xayollarini Verochka jazmanlik nomi bilan ro‘yobga chiqarmasligi ma’lum bo‘lgan ediki, mayli, u holda xotinlik nomi bilan ro‘yobga chiqara qolsin, deydigan bo‘lib qoldi; baribir emasmi, gap nomda emas, qaddi-qomatda, ya’ni ega chiqishda. Shunchalar ifloslik! «Ega chiqish» – insonga ega chiqishga kim jur’at qiladi? Choponga ega chiqadilar, tufliga ega chiqadilar. Bekor gap: biz erkaklar deyarli har birimiz opa-singillarning birontasiga ega chiqib olamiz; bu ham bekor gap: sizlar qanaqasiga bizga opa-singillar bo‘larkansiz? Bizlarning cho‘rilarimizsiz! Ba’zi birlaringiz, – ko‘plaringiz, – bizga hukmronlik qilasiz – bu ham hech gapmas: axir, ko‘pgina xizmatkorlar ham o‘z mayxonalariga egalik qiladilar-ku.

Teatrdan keyin Storeshnikovning butun fikr-zikri qaddi-qomatda bo‘lib qoldi. Oshna-og‘aynilariga xayolidagi jazmanini ko‘rsatganidan keyin, bu qiz uning o‘ylab yurganidan ming chandon yaxshiligini tushundi. Axir, boshqa har qanday fazilat singari

go‘zallikka ham ko‘pchilik odamlar xuddi aqlga baho bergan kabi umum fikriga qarab aniq baho beradi. Yuz-ko‘zi chiroylining haqiqatan chiroyli ekanini hamma ham ko‘rib turadi, lekin chiroyli darajasi diplom bilan belgilab berilgungacha, uning chiroyi qay darajaligini qayoqdan bilsin? Verochka galereyada yoki keyingi qatordagi kreslolardan birida o‘tirganida unga, albatta, hech kim e’tibor bermagan edi; lekin u 2-yarus lojasida ko‘rinishi bilan ko‘pgina durbinlar u tomonga qaratildi; Storeshnikov uni kuzatib qo‘yib, foyega qaytib kelganida u to‘g‘rida eshitgan maqtovlarni aytmaysizmi! Serj-chi? Bu juda ham didi o‘tkir odam-ku! Jyuli-chi? Nimasini aytasiz, boshingga shunday baxt qushi qo‘nish ehtimoli bor ekan, unga qanday yo‘sinda «ega chiqish»ni surishtirib o‘tirishning nima keragi bor?

Shahvatparastlik bilan birga izzat-nafsi ham bezovta bo‘lib qoldi. Lekin izzat-nafsi boshqa tomondan ham ozor chekdi: «Sizga erga chiqishi mahol!» – bu nima degani? Shunday xonadonga mansub, shu qadar izzat-hurmatli kishiga rozi bo‘lmay iloji qancha? Bekor aytibsan, fransuz xonim, rozi bo‘lmay bo‘pti! Mana ko‘rasan!

Xuddi shunga o‘xshash bir monelik bor edi: Storeshnikovning onasi uning uylanishiga, albatta, ko‘nmaydi, – onasi zodagonlar-dan, – Storeshnikov bo‘lsa haligacha onasidan hayiqardi, onasining qo‘liga qaramligi ham, albatta, uning ko‘nglini g‘ash qilib turardi. «Hech nimadan qo‘rqmayman, menda ham izzat-nafs bor», degan fikr irodasiz kishilarga maydek yoqadi.

Albatta, xotini orqasidan yuqoriroq mansabga ega bo‘lib olgisi ham yo‘q emasdi.

Ustiga-ustak, Verochka ilgarigi jazmanlik rolida ko‘rinishga Storeshnikovning yuragi dov bermas, holbuki uni juda-juda ko‘rgisi kelardi.

Xullas, Storeshnikovning uylanish xayoli kundan kunga mustah-kamlanib, oradan bir hafta o‘tgach, Marya Aleksevna yakshanba kuni kechki ibodatdan qaytib, uni qanday tuzoqqa ilintirsam, deb o‘ylab o‘tirganida, o‘zi eshikdan kirib kelib, Verochkaga og‘iz soldi. Verochka xonasidan chiqmadi, Storeshnikov faqat Marya Aleksevna bilan gaplasha oldi. Marya Aleksevna, albatta, buni o‘zim uchun juda katta sharaf deb bilaman, lekin har qanday mehribon ona

singari qizimning roziligini ham so‘rashim kerak, ertaga erta bilan marhamat qilsangiz, javobini eshitarsiz, dedi.

– Qizim Verochka durust, – dedi ishning bunday tez yurishib ketganidan hayron bo‘lgan Marya Aleksevna eriga, – qurmag‘ur qizingizning yigitni qo‘lga olganini qarang-a! Men bo‘lsam, o‘ylay-o‘ylay, nima qilishga ham aqlim yetmay turgandi! Uni yana tuzoqqa yaqinlashtirish qiyin, ish rasvo bo‘ldi, deb yurgandim, qo‘zichog‘im ishni buzmay, oxirini baxayr qilibdi, – qadamini bilib bosibdi. Qizi tushmagurning ayyorligini qarang-a. – Go‘dakning ishini xudoning o‘zi o‘nglabdi, – deb qo‘ydi Pavel Konstantinich.

Oila hayotiga u onda-sonda aralashardi. Marya Aleksevna yaxshi urf-odatlarga qattiq rioya qiluvchilardan edi. Shuning uchun ham qiziga og‘iz solishgani to‘g‘risidagi xushxabarni farzandiga yetkazish kabi sharafli vazifani qonunan oila boshlig‘i va hokimi bo‘lgan erining zimmasiga yukladi. Pavel Konstantinich bilan Marya Aleksevna zo‘r tantanagohda o‘tirganday divanga joylashib olishdi-da, Matryonani yuborib, qizlarini huzurlariga chaqirtirishdi.

– Vera, – deb gap boshladi Pavel Konstantinich, – Mixail Ivanich izzat-hurmatimizni qilib, seni jufti halollikka so‘rabdi. Biz mehribon ota-onalardan bo‘lganimiz uchun seni majbur qilmasligimizni, lekin bir jihatdan juda xursandligimizni aytdik. Sen mehribon va itoatli qizsan. Sendan hamisha rozi bo‘lib keldik, bizga ishonsang, parvardigordan bunday kuyov so‘rashga tilimiz ham bormasdi, rozimisan, Vera?

– Yo‘q, – dedi Vera.

– Vera, nimalar deyapsan o‘zi? – deb qichqirib yubordi Pavel Konstantinich: masala ravshanligidan nima qilish to‘g‘risida xotini bilan maslahatlashib olmagan, endi qichqirishdan boshqa iloji qolmagan edi.

– Jinni-pinni bo‘ldingmi, tentak? Qani, yana bir qaytar-chi, yaramas oqpadar! – deya Marya Aleksevna baqirib qizga musht ko‘targancha o‘rnidan turdi.

– Oyi, bilib qo‘ying, – dedi Vera o‘rnidan turar ekan, – agar qo‘l tegizsangiz, uydan ketib qolaman, qamab qo‘ysangiz, oynadan o‘zimni tashlayman. Yo‘q, desam nima deyishingizni bilardim,

shuning uchun keyin nima qilishimni ham o‘ylab qo‘yganman. Joyingizda o‘tiring, bo‘lmasa chiqib ketaman.

Marya Aleksevna qayta joyiga o‘tirdi. «Men ahmoqni qaraya, yo‘lak eshigini qulflab qo‘ymagan ekanman! Eshik lo‘kidonini surishdan oson narsa bormi, – ushlab qolmasak ketadi! Hozir quturgan payti!»

– Unga tegmayman. Rozilik bermasam, hech kim meni nikoh qilolmaydi.

– Vera, aqlingni yeb qo‘ydingmi? – dedi Marya Aleksevna bo‘g‘ilib.

– Bu nima degan gap? Ertaga unga nima deb javob beramiz? – dedi otasi.

– Men rozi bo‘lmasam, sizni ular gunohkor qilmaydi.

Bu mojaro chamasi ikki soatga cho‘zildi. Marya Aleksevnaning jig‘ibiyroni chiqib, yigirma martacha baqirib, mushtini ishga solmoqchi bo‘ldi, lekin Verochka: «O‘rningizdan turmang, bo‘lmasa chiqib ketaman», deyaverdi. Qancha dag‘daga qilishsa ham ko‘ndirisholmadi. Oxiri shu bo‘ldiki, Matryona kirib, ovqatni olib kiraymi, deb so‘radi, pirog sovib qolyapti.

– Vera, kechgacha o‘ylab ko‘r, jinni o‘lgur, aqlingni yig‘! – Marya Aleksevna shunday dedi-yu, Matryonaning qulog‘iga allanimalarni shivirladi.

– Oyijon, siz bir nima qilmoqchiga o‘xshaysiz, uyning kalitini yashirmoqchi yoki biron balo qilmoqchisiz. Bunday qilmang, qaytaga yomon bo‘ladi.

Marya Aleksevna oshpaz xotinga: «Yo‘q, kerak emas», dedi. «Verka hayvondan battar! Yigit buning husniga uchmagan bo‘lsa, qip-qizil qoniga bo‘yardim-ku, lekin endi bunga tegib bo‘ladi deysizmi? O‘zi aft-basharasini rasvo qilib qo‘ymasin yana bu la’nati!»

Ovqatlangani chiqishdi. Jim o‘tirib ovqatlanishdi. Ovqatdan keyin Verochka o‘z xonasiga chiqib ketdi. Pavel Konstantinich odaticha, uyquga yotdi. Lekin uxlayolmadi, endi ko‘zi uyquga ketgan edi, Matryona kirib, uy bekasidan odam keldi, uy bekasi, Pavel Konstantinich darrov yetib kelsin debdi, dedi. Matryona terak bargiday dag‘-dag‘ titrardi; unga nima dahli bor, nega titraydi?

VIII

Bu mojaroning hammasiga Matryona sababchi bo‘lgandan keyin titramay iloji qancha? Verochkani otasi bilan onasining yoniga chorlaganidan keyin, darrov beka oshpazining xotini yoniga yugurdi, «sizning boyvachchangiz bizning boyvuchchamizga sovchi yubordi», dedi; bekaning kichik oqsochini chaqirtirib, yetti yot begonadaysan, shu vaqtgacha bir og‘iz ham aytmabsan, deb koyishdi; kichik oqsoch qaysi qilmishi uchun koyishayotganiga aqli yetmadi – uning sir yashiradigan odati yo‘q edi; u «o‘zim ham hech narsa eshitganim yo‘q», dedi, chakki gina qilibmiz, deb undan uzr so‘rashdi; u yugurib borib bu yangilikni katta oqsoch xotinga aytdi, katta oqsoch xotin: «Agar men hech narsa eshitmagan bo‘lsam, yigitning o‘zi bu ishni onasidan yashirin qilibdi, Anna Petrovna bilgan gaplarning hammasi menga ham ayon bo‘lishi lozim edi», deb boyvuchchaga xabar yetkazdi. Ko‘rdingizmi, bu g‘avg‘oning asl sababchisi Matryona edi! «Tilim qurg‘ur boshimga balo bo‘ldi! – deb xayolidan kechirdi Matryona. – Marya Aleksevna, bu gapni kim tashqariga olib chiqdi ekan, deb surishtirib bilib olishi turgan gap». Lekin shunday bo‘ldiki, bu gapni kim tashqariga olib chiqdi ekan, deb surishtirish Marya Aleksevnaning xayolidan ko‘tarilib ketdi.

Anna Petrovna oh dedi, voh dedi, ikki marta hushidan ketib qoldi, lekin bularni faqat katta oqsoch xotin bildi, xolos; binobarin, qattiq xafa bo‘ldi, keyin o‘g‘liga odam yubordi. O‘g‘li keldi.

– Mishel, men eshitgan gaplar to‘g‘rimi (g‘azab va alam-la so‘radi)?

– Nima gap eshitdingiz, maman?

– Sen anavi... anavi... anu... uy boshqaruvchining qiziga og‘iz soldingmi?

– Ha, og‘iz soldim, maman.

– Onangdan beijozat-a?

– Uning roziligini olib, keyin sizdan rozilik so‘ramoqchi edim.

– Mening roziligimdan ko‘ra uning roziligiga ko‘ngling to‘q bo‘lsa bo‘laverardi, deb o‘ylayman.

– Maman, hozir shunday qilish rasm bo‘lgan, avval qizning roziligini oladilar-da, so‘ngra ota-onalariga bildiradilar.

– Hozir shu rasm deb o‘ylaysanmi? Balki seningcha, oliynasab yigitlarning kim ko‘ringanga uylanib, onalarning bunga rozilik bildirishi ham rasmdir?

– Maman, u kim ko‘ringanlardan emas, qanaqa qizligini bilganingizdan keyin, didimga qoyil qolasiz.

– «Bilganimdan keyin»! Aslo bilmaganim bo‘lsin! «Didingga qoyil qolarmish»man! Bu qiz haqida o‘ylashingni ham man qilaman! Eshitdingmi, man qilaman!

– Maman, hozir zamon boshqacha; men endi kichkina bola emasmanki, qo‘limdan yetaklab yursangiz. Qanday qadam bosishni o‘zim ham bilaman.

– Oh! – dedi-yu, Anna Petrovna ko‘zini yumib oldi.

Mixail Ivanichning Marya Aleksevna, Jyuli, Verochkaga bo‘sh kelganining sababi shu ediki, ular aqlli va mustahkam irodali kishilar edi; bunda aqliy jihatdan jang qiluvchi tarafaynlarning kuchi birday edi. Irodaga kelganda, onasi biroz kuchliroq bo‘lsa ham, lekin bolasining zamini nihoyatda mustahkam edi; uning shu vaqtgacha onasidan qo‘rqib kelishi odatdan bo‘lsa, lekin beka aslida beka bo‘lmay, balki bor-yo‘g‘i xo‘jayinning onasi ekanligini, bekaning o‘g‘li esa bekaning o‘g‘li emas, balki xo‘jayinligini ikkovlari ham juda yaxshi bilardi. Shu sababdan beka «man qilaman», degan qat’iy so‘z bilan gapni cho‘zib, chinakam jang boshlanmasdanoq o‘g‘lini gangitib, holdan toydirmoqchi bo‘lgan edi. Lekin o‘g‘li cho‘rt kesib qo‘ydi, binobarin, endi gapida qattiq turishi zarur edi.

– Maman, menga ishoning, qiz qilib olaman, deganingizda ham undan yaxshisini topolmaysiz.

– Mal’un! Qotil! Onasini o‘ldirmoqchi!

– Maman, qizishmang, o‘zingizni bosing. Ertami, kechmi, baribir uylanishim kerak, xotinlik bo‘lganingdan keyin chiqiming ham ko‘payadi. Uydan tushadigan daromadning hammasini sovuradigan xotinga uylanishim ham mumkin edi. Lekin u o‘z qizingizday bo‘ladi, izzat-hurmatingizni bajo keltiradi, shunda ilgarigiday birgalikda yashayverishimiz mumkin bo‘ladi.

– Mal’un! Qotil! Yo‘qol ko‘zimdan!

– Maman, jahlingiz chiqmasin: menda gunoh yo‘q.

– Qandaydir bir bedavoga uylanarmish-u, yana gunohi yo‘qmish.

– Maman, unday bo‘lsa, endi men o‘zim chiqib ketaman. Ko‘z oldimda uni badnom qilishingizga chidolmayman.

– Qotil! – Anna Petrovna hushidan ketdi, Mishel bo‘lsa, eng muhim birinchi jangga bardosh berganidan o‘zida yo‘q xursand bo‘lib xonani tark etdi.

O‘g‘li chiqib ketganini fahmlagach, Anna Petrovna behushligini bas qildi. O‘g‘ilning qo‘ldan dadil chiqib ketayotganligi aniq ko‘rinib turardi! «Man qilaman», degan so‘zga u, uy meniki, deb javob qaytaradi! Anna Petrovna o‘ylab-o‘ylab qayg‘u-hasratini katta oqsoch xotinga to‘kib soldi, bu oqsoch uy boshqaruvchisining qizidan nafratlanishida bekaning tuyg‘ularini to‘la-to‘kis ma’qullab kelardi, shu vajdan Anna Petrovna u bilan maslahatlashib, boshqaruvchiga odam yubordi.

– Pavel Konstantinich, men shu damgacha sizdan juda rozi edim; lekin endilikda bu mojarolar oramizni buzib qo‘yishi mumkin, balki bu ishlarda sizning qo‘lingiz yo‘qdir.

– Bekam, bu ishda mening hech bir gunohim yo‘q, xudo shohid.

– Mishelning qizingiz orqasidan ergashib yurganini alla-qachondan buyon bilardim-u, lekin qarshilik ko‘rsatmay kelardim, chunki yosh yigitning ko‘ngli vaqtixushlikni tusamasligi mumkin emas. Men yoshlarning sho‘xligiga iltifot bilan qarayman. Lekin nasl-nasabimning isnodga qolishiga yo‘l qo‘ymayman. Qizingiz qaysi yuragi bilan bunday xayol ko‘chasiga kiribdi?

– Bekam, qizim sira bunday xayol ko‘chasiga kirganmas. Qizimiz izzat-hurmat nimaligini biladi, biz uni odobli qilib tarbiyalaganmiz.

– Xo‘sh, bu nima deganingiz?

– Bekam, xohishingiz bo‘lmasa, qizimiz o‘z ixtiyori bilan hech bir ish qilmaydi.

Anna Petrovna o‘z quloqlariga o‘zi ishonmay qoldi. Hali nojo‘ya biron ish bo‘lmagan ekan-da?

– Mening istak-xohishim sizga ma’lum bo‘lsa kerak... Bunday nojo‘ya, nomunosib nikohga rozilik berolmayman.

– Bekam, biz buni o‘zimiz ham sezib turibmiz, Verochka ham buni biladi. U, bekaning g‘azabiga duchor bo‘lishdan xudo saqlasin, dedi.

– Yo‘qsa, nega bunday bo‘ldi?

– Bekam, gap bunday. Mixail Ivanovich niyatlarini xotinimga izhor qilgan ekanlar, xotinim ularga, Mixail Ivanovich, men sizga ertaga ertalabgacha hech narsa deyolmayman, depti, biz xotinim bilan huzuri oliylariga kelib, hamma gapdan sizni xabardor qilmoqchi edik, lekin bemahal sizni bezovta qilishga jur'at etmadik. Mixail Ivanovich ketganlaridan keyin biz bu gapni Verochkaga aytgan edik, qizimiz, otajon, onajon, fikringizga butunlay roziman, bu haqda bizlarning bosh qotirib o'tirishimizning keragi yo'q, deb javob berdi.

– U shunday aqlli va vijdonli qizmi?

– Bo'lmasam-chi, bekam, juda odobli qiz!

– Xo'p, bo'lmasa, do'stligimiz iplari uzilmay qolganiga xursandman. Xizmatingiz uchun mukofotlayman. Hoziroq mukofotlab qo'ya qolay. Mashinachi turadigan ko'cha eshik zinasidan chiqaverishda, ikkinchi qavatdagi xonadon bo'sh shekilli?

– Bekam, uch kundan keyin bo'shaydi.

– O'sha xonadonni o'zingizga ola qoling. U yoq-bu yoqlarni tuzatishga yuz so'mcha sarf qilsangiz ham mayli. Yillik moyanangizga ham yana ikki yuz qirq so'm qo'shaman.

– Bekam, ruxsat etsangiz, muborak qo'llaringizdan bir o'psam!

– Yaxshi, yaxshi. Tatyana! – Katta oqsoch xotin kirib keldi. – Ko'k duxoba paltomni topib kel-chi. Buni xotiningizga hadya qilaman. Bahosi bir yuz ellik so'm (sakson besh so'm), ikki marta kiyganman xolos (yigirma martadan ko'proq kiygan). Mana bunisi qizingizga sovg'a, – Anna Petrovna uy boshqaruvchiga ayollarning kichkina soatini uzatdi, – buni uch yuz so'mga olganman (bir yuz yigirma so'm). Men odamning qadriga yetaman. Bundan buyon ham yodimdan chiqarmayman. Men yoshlarning sho'xligiga iltifot bilan qarayman.

Anna Petrovna uy boshqaruvchini chiqarib yuborganidan keyin, yana Tatyanani chaqirdi.

– Mixail Ivanichni chaqiring, yoki, qo'ying, yaxshisi o'zim bora qolay. – Anna Petrovna, oqsoch xotin uy boshqaruvchining aytgan gaplarini o'g'limning xizmatkoriga aytadi, xizmatkori o'g'limga aytadi, shu bilan gapning tapti ketib qoladi, qizning so'zlari o'g'limga uncha kor qilmaydi, deb qo'rqqan edi.

Mixail Ivanich dimog'i chog' bo'lib, o'rnida mo'ylovini burab yotgan edi. «Yana qanday shamol uchirdi ekan? Yonimda hushiga

keltiradigan spirt dori yo‘q-ku», deb ko‘nglidan o‘tqazib qo‘ydi onasini ko‘rgani hamon. Lekin onasining yuzida nafratomuz tantana alomatlarini ko‘rdi.

Onasi o‘tirib, gap boshladi:

– Mixail Ivanich, qani, o‘tiring-chi, bir gaplashib olaylik, – deb anchagacha iljayib qarab turdi, nihoyat, gap boshladi:

– Mixail Ivanich, men juda xursandman; nimadan xursandligimni toping-chi?

– Maman, nima deyishimni ham bilmayman, siz juda g‘alati...

– Hech qanday g‘alati narsa yo‘qligini hozir ko‘rasiz: qani, bir o‘ylab ko‘ring-chi, balki toparsiz ham.

Yana uzoq vaqt jimlik hukm surdi. Yigit hayron, onasi bo‘lsa o‘zida yo‘q xursand.

– Topolmadingizmi? Bo‘lmasa ayta qolay. Juda oson va tabiiy bir narsa; agar sizda zarracha olijanoblik tuyg‘usi bo‘lsa edi, darrov topardingiz. Sizning jazmaningiz, – Anna Petrovna ilgari hiyla ishlatgan edi, endi unga ehtiyoj qolmadi: dushman hujum qurolidan mahrum qilingan, – ma’shuqangiz, e’tiroz bildirmang, Mixail Ivanich, uni jazman, deb hamma yoqqa o‘zingiz dovrug‘ solgansiz, tagi past, tarbiya ko‘rmagan, odob degan narsadan mahrum bir zot – hatto shu la’nati zot ham...

– Maman, menga xotin bo‘lmish qiz haqida bunday so‘zlarni eshitgim yo‘q!

– Agar uni sizga xotin bo‘ladi, deb o‘ylaganimda edi, men ham bunday so‘zlarni ishlatmasdim... Shunday gap boshlashimdan maqsad, bu niyatingizga yetolmasligingizni va sababini tushuntirishdir. Shoshmang, gapimni tamom qilay, keyin, agar gapim sizning fikringizcha noo‘rin bo‘lsa, shu so‘zlarim uchun meni xohlaganingizcha koyishingiz mumkin bo‘ladi, lekin endi shoshilmang, gapimni tamomlay. Men demoqchimanki, ma’shuqangiz zoti past, tarbiya ko‘rmagan, odob degan narsani bilmaydigan, his-tuyg‘u degan narsadan bexabar bir shaxs, hatto o‘sha ham sizni uyaltiribdi, hatto o‘sha ham sizning muddaoyingiz odobsizlik ekanligini tushunibdi...

– Nima? Nima deyapsiz, maman? Tezroq aytsangiz-chi!

– Siz o‘zingiz aytgani qo‘ymayapsiz-ku. Men aytmoqchimanki, hatto o‘sha ham, – tushunyapsizmi, hatto o‘sha ham! – mening

his-tuyg'ularimni tushunibdi, qadrlabdi, hatto o'sha ham sizning qilgan taklifingizni onasidan eshitganidan keyin, otasini yuborib, mening istak-xohishimga qarshi chiqmasligini va jirkanch nomi bilan bizning sha'nimizga isnod keltirmasligini aytibdi.

– Maman, yolg'on gapiryapsiz.

– Sizning ham, mening ham baxtimizga yolg'on gapirayotganim yo'q. Qizning aytishicha...

Bu payt Mixail Ivanich xonadan chiqib, shinelini kiya boshlagan edi.

– Ushla uni, Pyotr, ushla uni! – deb baqirdi Anna Petrovna. To'satdan bunday buyruq berilganini ko'rib, Pyotr angrayib qoldi. Mixail Ivanich bo'lsa, bu payt zinadan shoshib tushib ketayotgan edi.

IX

– Xo'sh, nima gap? – deb so'radi Marya Aleksevna eshikdan kirib kelgan eridan.

– Ish joyida, onasi, bekam xabardor ekan, qanday jur'at etdingiz, degandi, bekam, bu to'g'rida o'ylashga ham haqimiz yo'q. Verochka ham rad etdi, dedim.

– Nima, nima deyapsan? Ahmoqligingdan shunday degandirsan-da, eshak?

– Marya Aleksevna...

– Eshak! Mal'un! Meni adoyi tamom qilding! Mana senga! – u erining yuziga tarsaki tushirdi. – Mana senga! – yana bir tarsaki tushdi. – Sen ahmoqqa shunday ta'lim berish kerak! – Marya Aleksevna erining sochidan tutib u yoqdan bu yoqqa sudradi. Ta'zirini berish anchaga cho'zildi, chunki Storeshnikov onasining dam tinib, dam tilga kirib uzundan uzoq o'git-nasihatlaridan keyin bu xonaga yugurib kirganida Marya Aleksevna hali ham jazavasi tutib erining ta'zirini berayotgan edi.

– Eshak, eshikni ham bekitmagan ekansan, ko'rgan odamlar nima deydi! Uyat, nomus, voy cho'chqa-ye! – Marya Aleksevnaning topgan gapi shu bo'ldi.

– Vera Pavlovna qani? Men hoziroq Vera Pavlovnani ko'rishim kerak! Nahotki u rad etayotgan bo'lsa?

Vaziyat shunday ediki, Marya Aleksevnaning qo'l siltashdan boshqa iloji qolmadi. Vaterlo jangidan keyin marshal Grushinning Pavel Konstantinich singari ahmoqligi ma'lum bo'lib, Lafayet Verochka singari g'alva ko'targanda Napoleon ham shu ahvolga tushib qolgan edi: Napoleon ham o'zini ming yoqqa urib, mahorat mo'jizalari ko'rsatgan edi, lekin shunday bo'lsa ham hech bir natija chiqarolmay, yakkash qo'l siltab: hamma narsadan kechganim bo'lsin, istagan odam o'zini ham, meni ham bilganini qilsin, deyishdan boshqa iloji qolmagan edi.

– Vera Pavlovna! Taklifimni rad qildingizmi?

– O'zingiz o'ylab ko'ring, rad qilmay ilojim qancha!

– Vera Pavlovna! Men sizni qattiq haqorat qildim, aybdorman, meni o'ldirsangiz ham arziydi, lekin iltimosimni rad qilishingizga aslo chiday olmayman... – va hokazo, va hokazo.

Verochka uning gapiga bir necha daqiqa quloq solib turdi. Nihoyat, endi bas qilsa ham bo'lar – odamga og'ir botadi-ku, deb o'yladi.

– Mixail Ivanich, bo'ldi; bas qiling endi, men rozilik berolmayman.

– Xo'p, bo'lmasa, sizdan bir o'tinchim bor: sizni haqorat qilganim alami hali ham ko'nglingizdan ketgani yo'q... menga hozir javob bermang, gunohimni yuvaman, muhlat bering! Men ko'zingizga razil, ablah odamday ko'rinaman, lekin sinab ko'ring, ehtimol tuzalib qolarman, bor kuchimni ayamay tuzalishga harakat qilaman! Menga yordam bering, ko'kragimdan itarmang, muhlat bering, aytgan gapingiz, chizgan chizig'ingizdan chiqmayman! Qanchalik itoatkorligimni bilib olarsiz; ehtimol, yaxshi xislatlarim ham borligini ko'rarsiz, muhlat bersangiz bo'lgani.

– Sizga yuragim achiydi, – dedi Verochka, – sevgingiz samimiyligini ko'rib turibman (Verochka, bu hali sevgi emas, bu allaqanday qabohatlar bilan allanima balolar omixtasi xolos, sevgi degani bunday bo'lmaydi; ayol kishini undan rad javobi olish ko'ngilli bo'lmagan har qanday odam ham yaxshi ko'ravermaydi, – sevgi degani butunlay boshqa narsa, – lekin Verochkaning bundan hali xabari yo'q, shu tufayli qattiq hayajonda, – siz hozir mening javob bermasligimni istaysiz, marhamat. Lekin sizni ogohlantirib shuni aytib qo'yayki, muhlat

berishdan naf yo‘q, sizga hech qachon bugungi javobimdan bo‘lak javob bermayman.

– Boshqacha javobingizga loyiq bo‘lishga harakat qilaman, siz meni qutqarib qolasiz! – dedi-yu, u Vera Pavlovnaning qo‘lidan ushlab o‘pa boshladi.

Shu orada Marya Aleksevna kirdi, xursandligi ichiga sig‘may, rasm-rusmsiz, ya’ni Pavel Konstantinichsiz bu aziz bolalarga oq fotiha bermoqchi, keyin erini chaqirtirib tantanali suratda duo olmoqchi edi. Storeshnikov, uning qo‘llaridan o‘pib, Vera Pavlovna rozilik bermasa ham, lekin yo‘q demadi, keyinroq javob bermoqchi, deb xursandligining beliga tepdi. Bu yomon-u, har holda ilgarigidan yaxshi.

Storeshnikov uyiga kayfi chog‘ bo‘lib qaytdi. Yana uy masalasi o‘rtaga tushdi, yana Anna Petrovnaning hushdan ketishlari boshlandi.

Marya Aleksevna Verochka haqida qanday qarorga kelishini ham bilmay qoldi. Qizi gapirdi ham shekilli, uning niyatiga qattiq qarshi chiqdi ham shekilli. Lekin pirovardida shunday bo‘ldiki, Marya Aleksevna uddalay olmagan hamma mushkul savdolarda qizi yengib chiqqanday bo‘ldi. Mojaroga razm solib qaralganda, uning, ya’ni Marya Aleksevnaning niyati nima bo‘lsa, Verochkaning ham muddaosi shu ekanligi, lekin bilimdon va ziyrak Verochka ipni boshqacharoq eshayotgani ma’lum bo‘ldi. Lekin u holda nega u Marya Aleksevnaga: opajon, ikkalamizning ham niyatimiz bitta, ko‘nglingiz to‘q bo‘lsin, demadi? Yoki onasidan shunchalik xafaki, hamjihatlik bilan tadbir ko‘rishlari lozim bo‘lgan bu ishga uni tortgisi yo‘qmi? Verochkaning javobni orqaga surganligini Marya Aleksevna tushunib turibdi: qizning muddaosi kuyovni o‘ziga qaram qilib, «gah» desa qo‘liga qo‘nadigan qilib olmoqchi, Anna Petrovnani ham bo‘ysunishga majbur etmoqchi. Aftidan, Verochka Marya Aleksevnadan ham ayyorroq bo‘lsa kerak. Marya Aleksevna o‘ylab-o‘ylab shu fikrga keldi. Lekin ko‘rgan ko‘zlari, eshitgan quloqlari hamisha bu fikrning aksini aytib turdi. Bordi-yu, bu fikr xato bo‘lib, qizi rostdan ham Storeshnikovga tegishni xohlamasa, unda nima bo‘ladi? Shunday qiyinki, qanday tiyib olishingni ham bilmaysan kishi. Yaramas Verkaning erga chiqqisi yo‘qligi ochiq ko‘rinib turibdi, – bunga shubhalanmasa ham bo‘ladi, – Marya

Aleksevna Verochkani o‘ta ayyor degan xayollarga borgan bo‘lsa ham, lekin shunday fikr-xayollarga uchib ish qiladiganlardan emas, u juda ziyrak xotin; lekin bu shaddod shu qadar ustalik bilan tuzoq qo‘yyaptiki, agar erga chiqsa (miyasidagi xayolini kim bilsin, balki chiqqisi ham bordir!), eriga ham, qaynonasiga ham, uyiga ham xo‘jayin bo‘lib olishi turgan gap, – boshqa qanday ham iloji bor? Kutish va xabardor bo‘lib turish kerak, xolos, boshqa iloji yo‘q. Hozircha Veraning ra’yi yo‘q, ko‘nikib qolganidan keyin o‘zi ham jon deydi, keyin biroz po‘pisaga navbat kelar... lekin xonasini topish kerak! Hozir xonasi kelguncha kutishdan boshqa iloji yo‘q. Shu bilan Marya Aleksevna kuta boshladi. Marya Aleksevna ziyrak xotin bo‘lgani uchun ham Verochkaning niyati to‘yni bo‘ldirish ekanini sezib, yuragida vasvasaday bir holat paydo bo‘ldi. Verochkaning so‘zlari va harakatlaridan boshqa hamma voqea shu fikrni tasdiqlab turardi: kuyov ipakday muloyimlashgan. Kuyovning onasi uch haftagacha qarshilik ko‘rsatdi-da, o‘g‘li uy masalasini o‘rtaga qo‘ygandan keyin jim bo‘lib, Verochka bilan tanishgisi kelib qoldi, Verochka uning oldiga bormadi. Dastlab Marya Aleksevna: Verochkaning o‘rnida men bo‘lsam, aql bilan ish qilardim, chaqirgandan keyin borardim, deb o‘yladi, lekin o‘ylab-o‘ylab, bormagani yaxshiroq ekanini tushundi. Qanchalik ayyorlik bu! Xuddi aytganiday: oradan ikki hafta o‘tgach, yangi pardoz berilgan yangi xonadonni ko‘rish bahonasi bilan Anna Petrovnaning o‘zi kirib keldi, piching aralash sovuqqina gaplashib o‘tirdi; ikki-uch achchiq gapidan keyin Verochka o‘z xonasiga chiqib ketdi; Verochka shu yerdaligida, Marya Aleksevna, bularni xoli qoldiray, deb emas, achchiq gapiga yarasha javob qaytarishim kerak, deb o‘ylagandi, Verochka ketgandan keyin Marya Aleksevna: shunisi ma’qul ko‘rinadi, – yaxshisi o‘g‘li adabini berib qo‘ysin! – deb o‘yladi. Oradan ikki haftacha o‘tgandan keyin Anna Petrovna yana keldi, bu gal hech nimani bahona qilmay, bir ko‘rgim keldi, dedi, Verochkaga achchiq-tiziq gap ham qilmadi.

Shu zaylda kunlar o‘taverdi. Kuyov Verochkani sovg‘alar bilan yo‘qlab turdi; sovg‘alar Marya Aleksevna orqali topshirilardi, albatta. Anna Petrovnaning soati singari, ba’zi sovg‘alar Marya Aleksevnaning qo‘lida qolib ketardi; arzonroqlarini Marya Aleksevna garovda qolib ketgan mol, deb Verochkaga berib

turardi. Axir, kuyov o‘zi sovg‘a qilgan narsalardan ba’zi birlarini qallig‘ida ko‘rishi kerak-da. O‘z sovg‘alarini Verochkada ko‘rib, endi ko‘nibdi, bo‘lmasa sovg‘amni olmasdi, deb o‘ziga tasalli berib yurardi; shunday ekan, nega paysalga solyapti? Sababini o‘zi ham tushunardi, Marya Aleksevna ham aytib turardi: Anna Petrovnaning bu ishdan obdan sovushini kutib turibdi, derdi... Shu bilan u ham onasini obdan sovutish uchun zo‘r berib yo‘rttirgani yo‘rttirgan edi, bu ishidan rosa zavqlanardi ham.

Shu bilan Verochkani tinch qo‘yishdi, uning aytganini qilib turishdi. It singari ko‘ziga javdirab tikilishlar Verochkaning nafratini qo‘zg‘atardi, shu sababdan u onasining yonida kamroq bo‘lishga harakat qilardi. Onasi uning xonasiga bo‘lar-bo‘lmasga kiraverishini bas qildi, shundoq bo‘ldiki, Verochka xonasida o‘tirganida, ya’ni kun bo‘yi deyarli uni bezovta qilmay qo‘yishdi. Ba’zan Verochka Mixail Ivanichga xonasiga kirishga ruxsat berardi. Mixail Ivanich Verochkaning gapiga go‘dak boladay quloq solardi; Verochka unga kitob o‘qirdi, u ham imtihonga tayyorlanayotganday zo‘r berib kitob o‘qirdi; Mixail Ivanich kitobdan oz bo‘lsa ham, har holda, bahra olardi; Verochka unga suhbati bilan yordam berishga urinib ko‘rardi – kitobdan ko‘ra gapga ko‘proq tushunardi, natijada sekin-sekin, oz-ozdan ba’zi bir narsalarga aqli yetib qoldi. Mishel onasiga ilgarigiga qaraganda tuzukroq muomala qiladigan, ot sovutishlarda yo‘rttirish o‘rniga, tizginni bo‘shroq qo‘yib qo‘yishni ma’qul ko‘radigan bo‘ldi.

Uch-to‘rt oy shu taxlitda o‘tdi. Yarash-yarash bo‘lganday, oraga osoyishtalik cho‘kdi, lekin biron dahshat yuz berishi ham hech gapmasdi, bu og‘ir intiqlikdan Verochkaning yuragi siqilardi, bugunmi, ertami yo Mixail Ivanich, yoki Marya Aleksevna roziligingni ayt, deb turib olishadi, – axir, hadeb kutaverishmaydi-ku. Agar ta’sirchan to‘qnashuvlar o‘ylab topish niyatim bo‘lganda, bu voqeaning oqibatini zo‘r mubolag‘a bilan tamomlardim: lekin aslida unday bo‘lgan emas; agar voqeani sir tutib, shu bilan kishilarni qiziqtirgim kelsa, hozirdanoq bunday voqea umuman yuz bergani yo‘q, deb qo‘ya qolmasdim; lekin hech qanday ayyorlik ishlatmay yozayotganim uchun, oldindan aytarlik zo‘r to‘qnashuvlar bo‘lmaydi, voqea to‘polonsiz, shovqin-suronsiz tugaydi, deb qo‘ya qolaman.

IKKINCHI BOB

BIRINCHI MUHABBAT VA NIKOH

I

Ilgarigi zamonlarda bunday mojarolarning oqibati nima bo‘lganini hamma biladi: yaramas bir oilada ajoyib qiz yetishgan; uni majburan berishmoqchi bo‘lgan kuyov razil bir kishi, qiz uni yoqtirmaydi, kuyov rasvo bir odam, shu ketishda yana ham rasvolashib ketardi-ku, lekin shilqimlik bilan qizning atrofida o‘ralashib, uning izmidan chiqmaydigan bo‘ladi, bora-bora yaxshi ham emas, yomon ham emas, har holda odambashara bo‘lib qoladi. Qiz o‘z tadbirini unga erga chiqmaslikdan boshlaydi, yigitni amriga bo‘ysundirishi odat tusiga kiradi, nihoyat, ikki balodan biri – bunday er va oiladan er balosi durustligiga ko‘zi yetgach, jazmanini baxtiyor qiladi; dastlab sevgisiz yorini baxtiyor qilish nimaligini sinab ko‘rgach, qizning ko‘ngli g‘ash bo‘lib yuradi; lekin eri chizgan chizig‘idan chiqmasdi; sabr qilish kerak – ko‘ngil qo‘yib qolarman, derdi-da, tuzukkina xonimlarga o‘xshab qolardi, ya’ni o‘zi tuppa-tuzuk bo‘lsa ham razillikka ko‘nikib, amal-taqal kun ko‘rib yuraverardi. Ilgarigi zamonlarda yaxshi qizlarning ko‘rgiligi shu edi, keyinchalik durust kishilar bo‘lib yetishuvchi yaxshi yigitlarning taqdiri ham shu bo‘lardi, ular ham dunyodan behuda yashab o‘tishardi. Ilgari shunday edi, chunki durust kishilar juda oz edi: ilgarigi zamonlarda bunaqalar kam hosil bo‘lgan bo‘lsa kerakki, «yakkam-dukkam o‘sib ovozlari ham chiqmay qolar ekan». Lekin dunyoda yolg‘iz yashashing mumkin emas, siqilib sil bo‘lasan.

Ammo hozir boshqacha voqealar ko‘plab bo‘lib turadi. Bir-birining qadr-qimmatini bilgan, vijdonli, andishali kishilar endilikda tez-tez uchrashadigan bo‘lib qolishdi. Andishali, tuzuk kishilar yil

sayin ko‘payib borgandan keyin, ularning tez-tez uchrashmasligi mumkinmi axir? Shunday zamonlar keladiki, bu narsa juda oddiy gap bo‘lib qoladi, yana vaqti kelib shunday bo‘ladiki, bundan boshqacha hodisalarga o‘rni qolmaydi, chunki hamma insofli, andishali bo‘ladi. Ana shunda juda ajoyib bo‘ladi. Verochkaga hozir ham yaxshi. Uning turmushini (o‘z roziligi bilan) hikoya qilishimga sabab shuki, bilishimcha, u turmushi yaxshi o‘tgan dastlabki xotinlardan biri bo‘lsa kerak. Dastlabki hodisalar tarixiy ahamiyatga molik bo‘ladi. Birinchi qaldirg‘ochni ko‘rganda shimol xalqi juda suyunadi.

Verochkaning turmushi yaxshilanib ketishiga sabab bo‘lgan voqea bunday kechgandi. Verochkaning ukasini gimnaziyaga tayyorlash lozim edi. Otasi hamkasblaridan arzonroq o‘qituvchi yo‘qmikin, deb surishtirib yurgandi. Hamkasabalaridan biri unga tibbiyot talabasi Lopuxovni tavsiya qildi.

Verochka bilan Lopuxovning ko‘zi bir-biriga tushguncha Lopuxov besh-olti marta dars berib ketgandi. Lopuxov Fedya bilan uyning bir chekkasidagi xonada, Verochka esa ikkinchi chekkasidagi o‘z xonasida o‘tirardi. Akademiya imtihonlariga tayyorlanish payti yetib kelgandi: u darsini kechga ko‘chirdi, chunki ertalab o‘zi dars tayyorlashi lozim, kechqurun dars bergani kelganda esa butun oila a’zolari choyxo‘rlik qilib o‘tirgandi.

Divanda tanish kishilar: shogirdining otasi, onasi, uning yonida stulda shogirdi o‘tirardi, undan sal nariroqda notanish bir ayol sarvqomat, qorachadan kelgan, sochlari timqora – «sochlari munchayam qalin ekan», qora ko‘z – «ko‘zlari yaxshi, juda ham yaxshi ekan», yuzi janubliklarga o‘xshovchi bir qiz o‘tirardi, – «xuddi malorossiyalikka o‘xshaydi; kavkazliklarga o‘xshaydi, desa yana ham to‘g‘riroq bo‘ladi; ammo istarasi issiq bo‘lgani bilan, o‘zi shafqatsiz ekan, bu jihatdan janubliklarga sira ham o‘xshamaydi; sog‘lom ko‘rinadi: agar xalq shunday sog‘lom bo‘lsa, biz shifokorlar soni kamayib ketardi! Yuzlari qip-qizil mag‘izday, ko‘kraklari ham bo‘liq, lorsillagan – stetoskopga ishi tushmaydi. O‘z tengqurlari, ko‘pchilik orasida ko‘zga tez tashlanadi. Darvoqe, bunaqa gaplar meni qiziqtirmaydi».

Eshikdan kirgan o‘qituvchiga Verochka ham bir qarab qo‘ydi. Talaba yosh emasdi, o‘rta bo‘yli yoki o‘rtadan sal balandroq,

sochlari timqo‘ng‘ir, yuzlari ko‘hlikkina, chiroyli desa bo‘ladigan, dadil va mag‘rur bir kishi edi. «Chakki emas, ko‘ngli ochiq bo‘lsa kerak, lekin juda ham jiddiy odam ko‘rinadi».

Verochkaning xayoliga: «Darvoqe, bunaqa gaplar meni qiziqtirmaydi», degan fikr kelgani yo‘q, chunki bu kishi meni qiziqtirib qolarmikin, deb o‘ylamagandi ham. Fedya bu odam haqida gapira berib, opasining quloq-miyasini yemaganmidi? «Opa, o‘zi juda yaxshi odam, lekin kamgap, opa, unga opam juda chiroyli, degandim, u menga: «Xo‘sh, nima bo‘pti?» – dedi, men: chiroyli ayollarni hamma yaxshi ko‘radi, dedim, u: «Hamma tentaklar oshiq bo‘ladi», dedi, men unga: siz ularni yomon ko‘rasizmi, degandim, «vaqtim yo‘q», dedi. Opa, Verochka bilan tanishishni xohlaysanmi, degandim, u: «Usiz ham bir talay tanishlarim bor», dedi». Fedya bularni birinchi darsdan keyinoq darrov oqizmay-tomizmay gapirib berdi, keyin ham har safar shunga o‘xshash gaplar topib kelaverdi. Har safar bular yoniga yangi-yangi gaplar qo‘shaverdi: «Opa, bugun bunga men opamga hamma qaragani qaragan degandim, «juda yaxshi», dedi; men unga Verochkani ko‘rishni istamaysizmi, degandim, «ko‘rib qolarman», dedi. Yoki keyinroq, opa, men unga opamning qo‘llari jajjigina, degandim, u bo‘lsa: «Gap sotgingiz kelayotgan bo‘lsa, boshqa gap qurib qoldimi?» – dedi».

Shu bilan o‘qituvchi Verochka to‘g‘risida bilishi kerak bo‘lgan narsalarning hammasini Fedyadan bilib oldi: Fedya oiladagi mojarolar haqida gap boshladi deguncha uni to‘xtatib qo‘yadi; agar to‘qqiz yashar bolani biron narsa deb qo‘rqitmasangiz, uni hamma gaplarni gapirib berishdan qanday qilib ham tiya olasiz? U gap boshlashi bilan bidirlab ketaveradi, to‘xtatganingiz bilan foydasi yo‘q, chunki bolalar gapning u yoq-bu yog‘ini surishtirib o‘tirmay, po‘skallasini aytadi-qo‘yadi; xullas, o‘qituvchi oiladagi har xil boshqa mojarolar bilan birga gap orasida mana bunday so‘zlarni ham eshitdi: «Opam unashtirilgan, kuyovi boy odam! Oyim bo‘lsa kuyovimiz ahmoqroq, deydi. Oyimning kuyovga xushomad qilishlarini ko‘rsangiz edi. Oyim: «Opang kuyovni xo‘p boplab tuzoqqa ilintirdi-da», deydi. Oyim aytadiki: «Men o‘zimni ayyorman, desam Verochka mendan ham o‘tkazib yubordi!» Oyim: «Kuyovning onasini uydan haydaymiz», dedi» va hokazo.

Tabiiyki, yoshlar bir-biri haqida shunday ma'lumot olgandan keyin tanishgilari ham kelmaydi. Darvoqe, biz hozircha bilganimiz shuki, Verochkaning shunday qilishi tabiiy edi; u hali «yovvoyilarni yengish» va «bu ayiqni qo'lga o'rgatish»ga urinib ko'radigan darajada voyaga yetgan emasdi, – busiz ham tashvishi boshidan oshib yotardi; uni o'z holiga qo'yib qo'yganlariga ham xursand edi; u shikastlanib, azobini tortayotgan bir odam, u toleyi yor bo'lib, yonboshlab olgan, singan qo'lining zirqillashi to'xtagan, biqinidagi og'riq ham bosilgan, yana a'zoyi badanimdagi og'riq tutib qolmasmi, deb qimir etishdan qo'rqib yotgan bir kishiday edi. Yangi kishilar bilan, yana yosh yigitlar bilan tanishish unga yo'l bo'lsin!

Verochkaning ahvoli-ku shunday; yigit-chi? Fedyaning gapiga qaraganda yovvoyi, uning butun fikr-zikri kitob va anatomiya preparatlarida, tuppa-tuzuk tibbiyot talabasining jon-tani, eng lazzatli taomi shular edi. Yo Fedya u haqda yolg'on-yashiq gap aytganmikan?

II

Yo'q, Fedya u haqda yolg'on gapirgani yo'q; Lopuxov o'zi shunday, fikr-zikri kitob bo'lib qolgan, – qanaqa kitoblar, buni Marya Aleksevnaning bibliografik tekshirishlaridan bilib olamiz, – miyasi anatomiya preparatlari bilan to'lgan talaba: miyangni preparatlar bilan to'ldirmasang, professor bo'lolmaysan, Lopuxov esa professorlikni da'vo qilyapti. Lekin Fedyaning Verochka to'g'risidagi gaplaridan qizning qandayligini Lopuxov uncha yaxshi bilolmadi, binobarin, Lopuxovni ham yaxshi bilib olish uchun Fedyaning gaplarini to'ldirish lozim bo'lardi.

Hamyoniga qarab hukm qiladigan bo'lsak, Lopuxov erkin dars tinglovchi, ya'ni davlat hisobiga yashaydigan, och ham, yalang'och ham qolmaydigan juda kamyob tibbiyot talabalaridan. Bundaylarning ko'pchiligi qanday va nima bilan kun ko'rishi, albatta, bir xudoning o'ziga ma'lum, lekin bandasining bunga aqli yetmaydi. Ammo biz hikoyamizda och-nahor kishilar bilan shug'ullanmoqchi emasmiz; shu sababdan hikoyada Lopuxovning og'ir ahvolga tushgan vaqti ikki-uch og'iz gap bilan eslatib o'tiladi, xolos.

Bunday og‘ir ahvolda ko‘p ham yurgani yo‘q, uch yil, chamasi, hatto undan ham oz. Tibbiyot akademiyasigacha uning qorni to‘q edi. Yigitning otasi, Ryazan meshchanlaridan bo‘lib, meshchan unvoniga ko‘ra ancha to‘q turmush kechirardi, ya’ni faqat yakshanba kunlari emas, boshqa kunlari ham go‘shtli karam sho‘rva, hatto har kuni choy ichishar edi. O‘g‘li gimnaziyada o‘qib yurganida uni bir amallab boqib turdi; aytgancha, o‘g‘li o‘n besh yoshidan o‘zi dars beradigan bo‘lib, bu og‘ir ahvolini ancha tuzatib olgandi. O‘g‘lini Peterburgda ta’minlab turishga otasining qurbi yetmay qoldi; shunda ham dastlabki ikki yil mobaynida Lopuxovga uyidan yiliga o‘ttiz besh so‘mdan pul yuborib turishdi. Viborg tomondagi bir kvartalda mirzalik ishiga yollanib ham shunchadan pul ishlardi, – lekin hozir boshiga muhtojlik tushib qiynalib qolgan payti edi. Bunga ham o‘zi aybdor edi: uni davlat ta’minotiga olmoqchi bo‘lib turishganda, nimadandir janjal chiqarib, yana o‘z tirikchiligini o‘zi o‘tkazishga majbur bo‘ldi. Uchinchi kursda ishlari yurishib ketdi; kvartal nazoratchisining o‘rinbosari unga, dars bergin, deb taklif qildi, keyin yana boshqa joylardan ham dars oldi, shu bilan ikki yildan buyon muhtojlikdan qutulib, bir yildan ko‘proq vaqtdan buyon bir xonalik emas, ikki xonalik xonadonda yashab keladi, alohida-alohida ikki xonalik xonadonda, – demak, turmushi yomon emas, – xuddi o‘ziga o‘xshagan baxtiyor Kirsanov bilan birga turadi. Ikkalasi juda qalin do‘st. Ikkalasi ham yoshlik chog‘ida hech bir suyanadigan kishilari bo‘lmay, o‘z yo‘llarini o‘zlari topib yurishga o‘rgangan oshnalar; umuman aytganda, ularning bir-biriga o‘xshash tomonlari ham juda ko‘p edi, agar ularni bo‘lak-bo‘lak uchratadigan bo‘lsangiz, ikkalasi ham bir xil xarakterdagi odamday ko‘rinardi. Ularni birga ko‘rsangiz, ikkalasi ham juda vazmin va ochiq kishilar-u, lekin Lopuxov birmuncha o‘zini bosib olgan, vazminroq, o‘rtog‘ining esa yengiltakroqligini payqasa bo‘ladi. Hozir biz faqat Lopuxov bilan tanishamiz. Kirsanov ancha keyin paydo bo‘ladi. Kirsanovsiz Lopuxovning o‘zi to‘g‘risida biladigan narsalaringizni Kirsanov haqida ham takrorlasa bo‘ladi. Masalan, hozir Lopuxovning boshini hamma narsadan ko‘ra ko‘proq qotirgan narsa kursni tamomlagandan keyin qanday turmush qursam ekan, degan masala, kursning tamom bo‘lishiga faqat bir necha oy qolgan, Kirsanovniki ham shunday, har ikkalasining kelajak to‘g‘risidagi rejalari bir xil.

Lopuxov Peterburg harbiy gospitallaridan birida ordinator (shifokor) bo'lishini, – bu katta bir baxt hisoblanardi, – va tez kunlarda Akademiyada kafedra boshlig'i bo'lishini juda yaxshi bilardi. Uning amaliyot bilan shug'ullanishiga tobi yo'q. Bu qiziq bir xislat, keyingi o'n yil ichida tibbiyot talabalarining eng yaxshilari kursni tamomlagandan keyin amaliyot bilan shug'ullanmaslikka qaror qiladigan bo'lib qolishdi, holbuki amaliyot medikning bemalolroq hayot kechirishiga va fursat kelishi bilan tibbiyotning biron yordamchi fani bilan – fiziologiya, kimyo yoki shunga o'xshagan biron fan bilan shug'ullanish niyatida tibbiyotni tashlab ketishiga imkon berardi. Bu kishilarning har biri amaliyot bilan shug'ullansa o'ttiz yoshida topilishini, o'ttiz besh yoshida bir umrga o'zini ta'minlab, qirq besh yoshidan boshlab boylik jamg'ara boshlashini ham bilardi. Lekin ular boshqacha mulohaza qilardi: tibbiyot hozir shunday go'daklik holatida turibdiki, hali davolash emas, balki bo'lg'usi shifokorlarning davolashga usta bo'lishi uchun material tayyorlash lozim, deyishardi. Shuning uchun ular o'zlari yaxshi ko'radigan fanni deb, – tibbiyotni har qancha yomonotliq qilsalar ham, lekin shu tibbiyot fani uchun jon fido qiladiganlar ham faqat shular, – bular boylikdan kechadilar, hatto huzur-halovatlaridan kechib gospitallarda o'tiradilar. Ko'rdingizmi, fan uchun muhim tekshirishlar o'tkazib, qurbaqalarni so'yadilar, har yili yuzlab murdaning ichini yorib, imkon topgan zamon kimyo laboratoriyalari tashkil qiladilar. Ularning ishga bunday qat'iyat bilan kirishishlari, albatta, uy hayotlariga bog'liq: agar ularning ota-ona va qavm-qarindoshlariga kerak bo'lmasa, amaliyot bilan shug'ullanishni boshlamaydilar, ya'ni deyarli muhtojlikda bo'lsa ham amaliyotsiz yashayveradilar; lekin oilaviy zarurat majbur qilsa, uni ta'minlash uchun qancha amaliyot lozim bo'lsa, shuncha, ya'ni biroz shug'ullanadilar-da, haqiqatan kasal kishilarni, ya'ni fanning hozirgi ayanch ahvolida davolash mumkin bo'lgan, nafi tegmaydigan kasallarnigina davolaydilar. Lopuxov bilan Kirsanov mana shunday kishilar jumlasidan edi. Ular shu yil kursni tamom qilishlari kerak, shu bilan to'g'ridan to'g'ri tibbiyot doktori unvoni olish uchun imtihon topshiramiz (yoki Akademiyadagilar aytganday, imtihon beramiz), deydilar; hozir ikkovi ham doktorlik dissertatsiyasi ustida ishlab, qanchadan qancha qurbaqalarni so'yib tashlashdi; ikkovi ham asab tizimidan mutaxassis bo'lmoqchi va,

aslini aytganda, birga ishlashadi, lekin dissertatsiya shakli uchun ishni o'rtada taqsimlashgan; biri o'z dissertatsiyasi uchun bir masalada ikkovining aniqlagan fikrlarini, ikkinchisi boshqa bir masalada aniqlagan faktlarni yozib beradi.

Lekin endi Lopuxovning bir o'zi haqida gapirish kezi ham keldi. Shunday vaqtlar ham bo'lgan ediki, bu paytlari u ichkilikka ancha berilgan edi; uning choyga ham puli bo'lmas, ba'zan oyoq yalang qolar edi. Shunday paytlarda kishi hech balodan qaytmaydi, shu bilan birga boshqa narsalarga ham imkon bo'ladi: ovqatlanish va kiyinishdan ko'ra ichkilik ichish arzonga tushadi. Lekin ichkilikbozlik sababi yo'qchilik, muhtojlikdan boshqa narsa emas. Ichkilik jihatidangina emas, boshqa jihatlardan ham bama'niroq hayot kechiradigan odam zoti qolmaganiga ancha bo'ldi. Ilgari Lopuxov ancha-muncha sevgi mojarolarini ham boshidan kechirgan. Masalan, bir paytlari, u yurtma-yurt kezib yuradigan sayyor bir raqqosaga oshiq bo'lib qolgandi. Endi nima qilish kerak? O'ylab-o'ylab, oxiri raqqosaning uyiga bordi. «Xo'sh, xizmat?» – «Falon graf xat berib yubordi». Talabalik kiyimi xizmatkor ko'ziga mirza kiyimi yoki biron maxsus mulozim kiyimi bo'lib ko'rindi. «Qani xat? Javobini kutasizmi?» – «Graf javobini kutgin, degan». Xizmatkor hayron bo'lib qaytib chiqdi. «Xonim kirsin, deb buyurdi». – «E, o'zlari ekanlar-ku! Hamisha menga shunday baqirib gapiradiki, hatto xonamda turib ham ovozini taniyman. Meni deb qilgan xarxashalaringiz uchun sizni necha marta politsiyaga olib borishdi?» – «Ikki marta». – «Oz bo'pti. Xo'sh, xizmat?» – «Sizni ko'rgani keldim». – «Juda yaxshi. Xo'sh, yana qanday xizmatlari bor?» – «Bilmadim. Nima desangiz shu». – «Men-ku nima qilmoqchiligimni bilaman. Nonushta qilmoqchiman. Stoldagi choynak-piyolalarni ko'rmayapsizmi? Qani, siz ham o'tiring bo'lmasa». Yana bir kishilik idish-oyoqlar qo'yishdi. Xonim undan kuldi. U o'z-o'zidan kuldi. O'zi yosh, husni ham bor, ahmoq ham emas – o'zi qiziq ishda, biroz sho'xlik qilsa nima bo'pti? Yigit bilan ikki haftacha shunday sho'xlik qilgandan keyin: «Endi tuyog'ingizni shiqillating!» – dedi. «O'zim ham o'ylovdim-u, lekin uyalib turgandim!» – «Demak, do'stlardan ajralishar ekanmiz-da? Yana bir marta quchoqlashib, shu bilan ishq mojarosi tamom bo'ldi. Bu allaqachon, uch yilcha ilgari bo'lgan voqea. Hozir hamma sho'xligini tark etganiga ikki yilcha bo'ldi.

Lopuxov keyingi paytlar o'rtoqlari va uni juda yaxshi fan arbobi bo'ladi, deb umid qilib yurgan ikki-uch professordan boshqa o'zi dars beradigan oilalardagilar bilangina ko'rishib turadi, xolos. Lekin oiladagilar bilan shunchaki ko'rishib turardi: u betakalluf muomaladan o'tdan qo'rqqandek qo'rqar va bu oilalarda shogirdbachchalardan boshqa hamma kishilar bilan juda quruq, loqayd muomala qilardi.

III

Shunday qilib, Lopuxov uyga kirganida choy ichib o'tirganlarni, jumladan, Verochkani ham ko'rdi; albatta, bu payti o'tirganlar ham, jumladan, Verochka ham, o'qituvchining kirib kelganini ko'rishdi.

– Marhamat, o'tiring, – dedi Marya Aleksevna. – Matryona, stakan olib kel.

– Men uchun bo'lsa, rahmat. Choy ichmayman.

– Matryona, stakan kerakmas. (Tarbiya ko'rgan yigit ekan!) Nega ichmaysiz? Ichsangiz bo'lardi.

Lopuxov Aleksevnaga qaradi, lekin shu orada, xuddi atayin qilganday, Verochkaga qarab qo'ydi, – balki rostdan ham ataylab qaragandir? Ehtimol, Verochkaning yelkasini sal qisib qo'yganini payqagandir? «U qizarib ketganimni ko'rib qoldi-ku».

– Rahmat, men choyni faqat uyda ichaman.

«Lekin, ko'rinishdan yovvoyiga o'xshamaydi, kirib kelganida bemalol sal engashib salom berdi-ku», deb ko'nglidan kechirdi stolning bir yonida o'tirgan odam. «Axloqi buzuq qiz bo'lsa ham onasining behayoligidan uyalyapti-ku», deb ko'nglidan o'tkazdi stolning narigi tomonidagi boshqa bir odam.

Fedya choyini nari-beri ichib darsga chiqib ketdi. Shunday qilib, bu kechaning eng muhim natijasi shu bo'ldiki, Marya Aleksevna bolasining darsi ertalabdan kechqurunga ko'chirilgani sababli qanddoniga zarar yetmasligini bildi, o'qituvchi haqida unda yaxshi bir fikr tug'ildi.

Ikki kundan keyin o'qituvchi kelganda oila a'zolari yana choy ichib o'tirgandi, u ichmadi, shu bilan Marya Aleksevna butunlay xotirjam bo'ldi. Lekin bu gal stol yonida yana bir kishi bor edi – bu Marya Aleksevna xushomad qilib o'tirgan ofitser edi. «E! Kuyovi-ku!»

Kuyov bo‘lsa mundiriga va nasl-nasabiga yarasha, o‘qituvchiga shunchaki qarab qo‘ymasdan, zodagonlar rasmini qilib uning boshidan oyog‘igacha shoshmasdan, iltifotsizlik bilan nazar tashladi. U shu ko‘yi andaza olmoqchi bo‘lib turgandi, o‘qituvchining qo‘lidan andaza olishdan battarrog‘i ham kelishini payqab qoldi: o‘qituvchining zavq bilan tikilib turganini ko‘rgan kuyovi andaza olishini bas qilib so‘z boshladi:

– Sizning ishingiz ham qiyin bo‘lsa kerak, msye Lopuxov, men doktorlik vazifangizni aytyapman.

– Ha, qiyin, – shunday deb javob qaytardi-yu, ko‘ziga tik qarab tura berdi.

Kuyov chap qo‘li bilan nimagadir vitsmundirining yuqoridan ikkinchi va uchinchi tugmasini dam-badam ushlayotganini sezdi, gap shunaqa tugma sanashga kelib taqalgan bo‘lsa, demak, choyni tezroq ichib, Marya Aleksevnadan yana choy so‘rashdan boshqa iloji yo‘q.

– Yanglishmasam, ustingizdagi falon polkning mundirimi?

– Ha, falon polkda xizmat qilaman, – javob berdi Mixail Ivanich.

– Ko‘pdan beri xizmat qilasizmi?

– To‘qqiz yil bo‘ldi.

– To‘g‘ri shu polkka xizmatga kirganmisiz?

– Ha, to‘g‘ri shu polkka.

– Rota komandirimisiz yoki hali yo‘qmi?

– Yo‘q, hali komandir emasman. (Men unga ordinarets[1] bo‘lib xizmatga kirganday, so‘roq qilyapti-ku.)

– Tez orada komandirlik qilasizmi?

– Hali-beri emas.

– Hm. – U tasavvuridagi ordinaretsning ko‘ziga yana bir tikilib qarab qo‘ydi-da, shu ham kifoya qilar, deb unga savol berishini bas qildi.

«Lekin, lekin, – deb o‘ylab qoldi Verochka, – «lekin» degani nimasi?» Nihoyat, bu «lekin»ning nimaligini topdi. «Lekin, qarab tursam, bu o‘qituvchi o‘zini xuddi mehribon Jyuli bilan kelgan Serjday tutarkan. Buning nimasi yovvoyi? Bo‘lmasa nega qizlar haqida juda g‘alati gaplar gapiradi, nega chiroyli qizlarni ahmoqlar yaxshi ko‘radi, deydi, yana, «yana»si nima bo‘ldi, – «yana»ning

[1] Qo‘mondon huzuridagi turli topshiriqlarni bajaruvchi ofitser.

ham nimaligini topdi, – yana nega men to‘g‘rimda hech qanday gap eshitgisi kelmaydi, bu gapning qiziq joyi yo‘q, deb aytibdi?»

– Verochka, fortepyanoda biror narsa chalsang-chi, biz Mixail Ivanich bilan eshitib o‘tirardik! – dedi Marya Aleksevna. Verochka stolga yana bir stakan choy keltirib qo‘ygandan keyin.

– Chalishim mumkin, – dedi.

– Vera Pavlovna, biror ashula ham aytsangiz-chi, – deb qo‘shib qo‘ydi Mixail Ivanich xushomad bilan muloyimgina qilib:

– Xo‘p bo‘ladi.

Lekin bu «xo‘p bo‘ladi» xuddi «sizlardan qutulish uchun jon deb aytaman», deganday eshitiladi-ya, deb o‘ylab qo‘ydi o‘qituvchi. Axir u besh daqiqadan buyon shu yerda, Verochkaga nazar tashlamasa ham, lekin Verochka hozirgi javobi paytidagidan boshqa vaqt kuyovga biron marta qaramaganini bilib o‘tiribdi. Hozir Verochka otasi bilan onasiga qarashi singari, Lopuxovga ham iltifotsiz, sovuqqina nigoh tashlab qo‘ydi. Fedyaning hikoyasida biron illat borga o‘xshaydi. Darvoqe, bu qizni rostdan ham zodagonlar orasiga kirib, hukmron bo‘lib olishni, dong chiqarishni orzu qiluvchi takabbur, sovuq, yoqimsiz desa to‘g‘riroq bo‘ladi; muddaosiga yetish uchun tuzukroq kuyov topilmaganidan ko‘ngli g‘ash xolos; kuyovdan nafratlansa ham, lekin unga tegishga rozilik bergan, chunki uni murodiga yetkaza oladigan boshqa kishi yo‘q. Aytmoqchi, bu gap biroz qiziq.

– Fedya, sen choyingni tezroq icha qol, – deb qo‘ydi onasi.

– Marya Aleksevna, shoshiltirmasangiz ham bo‘ladi, agar Vera Pavlovna ruxsat bersalar, men ham eshitmoqchiman.

Verochka qo‘liga ilingan notalardan birini oldi, nimaligiga qaramay, to‘g‘ri kelgan betini ochib, beixtiyor chala boshladi. Nimani chalsa ham baribir emasmi, ishqilib tezroq qutulsa bo‘lgani. Lekin bu allaqanday durustgina operadan bama’nigina pyesa ekan, birozdan so‘ng zavq bilan chala boshladi. Kuyni tamomlagach, o‘rnidan turmoqchi bo‘ldi.

– Vera Pavlovna, qo‘shiq ham aytib beraman, degan edingiz-ku; agar haddim sig‘sa, iltimos, Rigolettodan bironta qo‘shiq aytsangiz (shu qish kezlari «La donna e mobile»[1] ariyasi juda rasm bo‘lgan edi).

---

[1] «Ayollar bevafodir» *(italyancha)*. D. Verdining «Rigoletto» operasidan ariya.

IV

Marya Aleksevna Verochkaning tug'ilgan kuniga atab katta kecha qilib bermoqchi edi, lekin Verochka yalinib, hech qanday mehmon chaqirmanglar, dedi; biri kuyovini bozorga solmoqchi bo'ldi, ikkinchisiga bu ko'z-ko'z qilish og'ir tuyuldi. Oxiri kichkinagina kecha o'tkazishga, ya'ni tanishlardan bir necha kishini chaqirishga kelishishdi. Pavel Konstantinichning hamkasabalarini (albatta, yuqoriroq mansabda va yuqoriroq vazifada turadiganlarini), Marya Aleksevnaning do'stlaridan ikkitasini, Verochkaning yaqin dugonalaridan uch qizni taklif etishdi.

Lopuxov mehmonlarni ko'zdan kechirib, yigitlar kamchil emasligini payqadi: har bir qizning yonida bittadan yigiti bor, bular yo bo'lajak kuyovlar, yoki kuyovlarning o'zlari. Demak, Lopuxovni kavalerlikka taklif etishganmas. Bo'lmasa nega chaqirishdi? O'ylab-o'ylab taklifdan avval fortepyano chaldirib ko'rganlari esiga tushdi. Demak, uni sozanda chaqirmaslik, chiqimni kamaytirish niyatida taklif etishgan ekan. «Juda soz, Marya Aleksevna, meni kechirasiz», deb o'ylab qo'ydi-da, Pavel Konstantinichning yoniga bordi.

– Pavel Konstantinich, vist[1] fursati ham keldimi, deyman, qarang, qariyalar zerikib qolishdi, chamasi.

– Siz qanaqasini o'ynaysiz?

– Har qanaqasini.

Shu zahoti o'yinga talabgorlar to'planib, Lopuxov ham ular davrasiga qo'shildi. Viborg tomondagi Akademiya qarta o'yinida dovrug'i ketgan. Undagi biron numerda (ya'ni davlat hisobidan o'qiydigan talabalar xonasida) boshlangan o'yin ko'pincha bir yarim kecha-kunduzlab davom etardi. Albatta, qarta stoliga tushgan pul Ingliz klubidagidan ancha kam bo'lsa-da, o'yinchilar mahorati zo'r bo'lardi. Lopuxov ham o'z vaqtida, ya'ni pulsiz kezlarida juda usta qartaboz edi.

– Mesdames, nima qilsak ekan? Navbatma-navbat tushamiz, turgan gap, lekin biz faqat yetti kishi qolyapmiz, kadrilga bir yigit yoki bir xonim kamlik qiladi.

Sho'x qizlardan biri yugurib Lopuxovning yoniga kelganida bir robber tugagan edi.

---

[1] Vist – qarta o'yini.

– Msye Lopuxov, siz raqs tushishingiz kerak.

– Lekin bir shartim bor, – dedi u o‘rnidan turarkan ta’zim bilan.

– Qanday shart?

– Birinchi kadrilga men bilan tushsangiz.

– Voy sho‘rim qursin, birinchisiga taklif qilingan edim-ku; ikkinchiga marhamat.

Lopuxov yana ta’zim bajo keltirdi. Kavalerlardan ikkitasi qartani navbatma-navbat o‘ynab turdi. Lopuxov uchinchi kadrilga Verochkani taklif qildi; Verochka birinchisiga Mixail Ivanich bilan tushdi, ikkinchisiga Lopuxov haligi sho‘x qiz bilan tushdi.

Lopuxov Verochkaga razm solib o‘tirar ekan, u haqdagi ilgarigi fikri, nafratlanadigan kishisiga ma’lum muddao bilan erga chiqayotgan loqayd qiz, degan fikri xato ekanligiga uzil-kesil ishonch hosil qildi: uning ko‘z oldida turgan bu qiz bajonidil raqs tushib, zavq-shavq bilan kuluvchi oddiy, yoshgina bir qiz ekan; Verochkaning bir aybi shu ediki, u raqs tushishni yaxshi ko‘radigan oddiy qizlardan edi. Verochka kecha o‘tkazishning hech bir keragi yo‘q, deb oyoq tirab turib olgan edi, lekin kichkina, behashamgina kecha uyushtirildi, demak, unga og‘ir botmaydigan kecha bo‘ldi, u esa, – kutilmaganda, – o‘z g‘am-g‘ussasini unutdi: shu yoshda kishining g‘am-g‘ussa bilan hech bir ishi bo‘lmaydi, shu qadar yelib-yugurgisi, qahqah urib kulgisi, vaqtixushlik qilgisi keladi, g‘am-g‘ussani zarracha bo‘lsa-da, ularni birmuncha vaqt unut qilishga, esdan chiqarishga undaydi. Lopuxov endi Verochkaga ko‘ngil qo‘ygandi-yu, lekin hali ko‘p narsalar unga ravshan emasdi.

U Verochkaning qiziq ahvoliga tushganini ko‘rib, juda qiziqib qoldi.

– Msye Lopuxov, men sizni raqs tushar, deb o‘ylamagandim, – deya gap boshladi Verochka.

– Nega endi? Raqs tushish qiyin ish ekanmi?

– Umuman qiyin emas, lekin siz uchun, albatta, qiyin.

– Nima sababdan men uchun qiyin ish ekan?

– Chunki men sizning siringizdan – siz bilan Fedyaning siridan xabardorman: siz xotin-qizlarni nazarga ilmaysiz.

– Fedya mening sirimni uncha to‘g‘ri tushunmabdi: men ularni nazarga ilmayman emas, balki ulardan nariroq yuraman, – buning

sababini o‘zingiz ham bilarsiz? Mening qallig‘im bor, juda ham rashkchi, ana shu qiz meni qizlardan uzoqroq yursin, deb ularning sirini aytib bergan.

– Unashib qo‘ygan qizingiz bormi?

– Ha.

– Bunday deb o‘ylamagan edim! O‘zi talaba-ku, unashib qo‘yilgani qiziq! Qizingiz chiroylidir, yaxshi ko‘rarsiz?

– Ha, juda chiroyli qiz, uni juda yaxshi ko‘raman.

– U qora sochmi yoki malla sochmi?

– Bunisini sizga aytolmayman. Bunisi sir.

– Mayli, sir bo‘lsa bo‘la qolsin. U qiz sizni xotin-qizlardan uzoqroq yurishingiz uchun, ularning qanday sirini aytib berdi ekan?

– U qiz xafagarchilikka tob-toqatim yo‘qligini payqab, menga xotin-qizlarning shunday bir sirini aytdiki, ularni ko‘rganda kayfim buziladigan bo‘lib qoldim, – shu sababdan men o‘zimni ulardan uzoqroq olib yuraman.

– Xotin-qizlarni ko‘rganda kayfingiz buziladigan bo‘lib qoldimi? Lekin siz xushomad gaplarga uncha mohir emasga o‘xshaysiz.

– Bo‘lmasa, nima deyish kerak? Achinish – kayfiyatning buzilishi demakdir.

– Nahotki bizlar shunchalik ayanch ahvolga tushib qolgan bo‘lsak?

– Ajabo, siz ayol emasmisiz? Men ko‘nglingizdagi bir gapni aytdim deguncha, fikrimga qo‘shilasiz-qo‘yasiz. Barcha xotin-qizlarning xohishi shunday.

– Ayting bo‘lmasa, ayting.

– Aytsam ayta qolay: «Qani endi erkak bo‘lsam!» – dilida shunday orzuni sir saqlab yurmagan bironta ayolni ko‘rganim yo‘q. Ko‘p hollarda uni bilib olish payidan bo‘lishning ham keragi yo‘q – ularning izzat-nafsiga tegmasang ham ko‘nglidagini ochiq ayta qoladi, xotin kishi biron narsadan xafa bo‘ladimi, darhol: «Biz ayollarning taqdirimiz shu – sho‘rpeshonamiz», yoki «xotinning yo‘rig‘i boshqa, erkakning yo‘rig‘i boshqa», yoki hatto ochiqdan ochiq: «Nega men erkak bo‘lib yaratilmaganman?» – degan gaplarni eshitasan kishi.

Verochka iljayib qo‘ydi: to‘g‘ri aytasiz, har qanday ayolning og‘zidan shunday gapni eshitish mumkin.

– Ko‘rdingizmi, xotin-qizlar ana shunday ayanch zotlardir, har birining dilida tugib yurgan orzusi ushalsa bormi, dunyoda bironta ham ayol zoti qolmaydi.

– To‘g‘ri, shunday bo‘lsa kerak, – deb qo‘ydi Verochka.

– Har bir kambag‘alning ko‘ngliga tugib yurgan orzusi ro‘yobga chiqsa, dunyoda bironta ham kambag‘al qolmaganday, bunda ham xuddi shunday bo‘ladi. Shundan keyin qanday qilib xotin-qizlarga achinmaysan kishi. Kambag‘allarning holiga qancha achinsang, xotin-qizlarning ahvoliga ham shuncha achinasan. Kambag‘allarni ko‘rishga kimning yuragi bor, deysiz? Men ham xotin-qizlarning siridan xabardor bo‘lganimdan buyon, ularni ko‘rishga yuragim qolmadi. Bu sirni menga qallig‘im unashilgan kunimiz aytib, ko‘zimni ochib qo‘ydi. Bungacha men xotin-qizlar davrasida bo‘lishni juda yaxshi ko‘rardim; shundan keyin dard ko‘rmagandek bo‘ldim-qoldim. Qallig‘im dardimga malham bo‘ldi.

– Qallig‘ingiz marhamatli, dono qiz ekan; biz xotin-qizlar – sho‘rpeshona bechoralarmiz! – dedi Verochka. – Lekin qallig‘ingiz kimligini aytsangiz. Shunday sirli qilib gapirasizki!

– Bu mening sirim, Fedya buni sizga aytmaydi. Kambag‘allarning aslo qashshoqlar bo‘lmasin, degan orzulariga men ham to‘la-to‘kis qo‘shilaman va bir kun kelib bu orzu haqiqatga aylanadi: axir, biz bir kun emas-bir kun shunday turmush quramizki, unda kambag‘allar bo‘lmaydi, lekin...

– Bo‘lmaydi, deysizmi? – deb uning so‘zini bo‘ldi Verochka. – Men o‘zim ham qashshoqlar bo‘lmaydigan kun keladi, deb o‘ylab yurardim; lekin qanday qilsa qashshoqlar bo‘lmasligini o‘ylab topolmay yuraman, qani siz ayting-chi?

– Men yolg‘iz o‘zim aytolmayman; buni hikoya qilishni qallig‘im biladi, xolos; men bu masalada usiz yolg‘izman, faqat bir narsani aytishim mumkin: qallig‘im bu to‘g‘rida jonbozlik ko‘rsatyapti, u juda kuchli – uning qo‘lidan hamma ish keladi, u dunyoda hammadan zo‘r. Lekin biz u haqda emas, ayollar haqida gapirayotibmiz. Men kambag‘allarning, dunyoda kambag‘al qolmasin, degan orzulariga butunlay qo‘shilaman, chunki bu orzuni qallig‘im amalga oshiradi. Lekin men ayollarning, dunyoda xotin zoti qolmasin, degan orzusiga qo‘shilmayman, chunki bu orzuning ro‘yobga chiqishi mumkin emas; men mumkin bo‘lmagan narsaga

qo‘shilolmayman. Lekin mening boshqa bir tilagim bor: xotin-qizlar mening qallig‘im bilan do‘stlashib olishsin, qallig‘im boshqa ko‘p narsalar ustida jonbozlik ko‘rsatish bilan birga ayollar haqida ham g‘amxo‘rlik qilyapti. Agar xotin-qizlar qallig‘im bilan topishib olishsa, men ham ularning holiga achinishimni bas qilardim, ular ham: «Nega men erkak bo‘lib tug‘ilmaganman!» – degan orzularini ham bas qilishardi. Qallig‘im bilan tanishsalar ayollarning ahvoli ham erkaklarning ahvolidan yomon bo‘lmasdi.

– Msye Lopuxov! Yana bir kadrilga tushamiz! Albatta tushamiz!

– Sizga ofarinlar bo‘lsin! – o‘z do‘sti yoki o‘rtog‘i kabi bamaylixotir jiddiy bir qiyofada uning qo‘lini qisib qo‘ydi.

– Qaysi kadrilga tushamiz?

– So‘nggisiga.

– Yaxshi.

Kadril vaqtida Marya Aleksevna ularning yonidan bir necha marta lipillab o‘tib ketdi.

Agar Marya Aleksevna Lopuxovning gapiga quloq solgan bo‘lsa, nima deb o‘yladiykin? Biz bu gaplarning boshidan oxirigacha xabardor bo‘lganimizdan, kadril vaqtida shunday gap bo‘lishi juda qiziq deymiz.

So‘nggi kadril vaqti yetib keldi.

– Faqat men to‘g‘rimda gaplashdik, – deb boshladi Lopuxov, – nuqul o‘zim to‘g‘rimda gapirganim odobdan emas. Endi men odobli bo‘lib, Vera Pavlovna, siz haqingizda gapirmoqchiman. Siz to‘g‘ringizdagi fikrim, sizning men to‘g‘rimdagi fikringizdan ham yomon edi. Hozir bo‘lsa... mayli, bu haqda keyin gaplasharmiz. Lekin bir savolga sira javob topolmayapman. Siz javob bering, to‘yingiz qachon?

– Hech qachon.

– O‘zim ham shunday deb o‘ylagandim, keyingi uch soat ichida, qarta stolidan turib bu yoqqa chiqqanimdan beri shunday deb o‘ylayotgan edim. Bo‘lmasa, nega u sizga kuyov hisoblanadi?

– Nega u kuyovingiz hisoblanadi, deysizmi? Nega, buning sabablaridan birini sizga aytolmayman, menga qiyin. Ikkinchisini aytishim mumkin: unga rahmim keladi: meni u shunchalik yaxshi ko‘radiki! Siz, to‘y to‘g‘risidagi fikringizni unga ochiq aytishingiz kerak, demoqchisiz, aytganman ham; aytsam, unday demang, jonimga zomin bo‘lasiz, og‘zingizni ocha ko‘rmang, deydi.

– Bu ikkinchi sabab, aytolmayman, degan birinchi sababingizni esa, sizga men aytishim mumkin: oiladagi ahvolingiz nihoyatda og‘ir.

– Hozir ancha tuzuk, endi meni hech kim qiynayotgani yo‘q, kutishyapti, o‘z holimga qo‘yishgan, yolg‘iz qo‘yib qo‘yishgan, desa bo‘ladi.

– Bu ahvol uzoq davom etishi mumkin emas-ku, axir. Hali qistab hol-joningizga qo‘yishmaydi. Unda nima qilasiz?

– Hechqisi yo‘q. O‘ylab bir qarorga kelib qo‘yganman. Qistashadigan bo‘lsa, bu yerdan ketib qolaman. Aktrisa bo‘lishim mumkin. Aktrisalik qanday yaxshi! O‘z bilging bilan ish qilasan! Ixtiyoring o‘zingda bo‘ladi!

– Qarsaklarni aytmaysizmi?

– Bunisi ham yoqimli. Eng muhimi – o‘z erking o‘zingda bo‘ladi! Birovdan ijozat so‘rab o‘tirmay, hech kimdan hech narsa talab etmay, xohlaganingni qilasan, ko‘nglingga yoqqancha yashaysan, hech kimga muhtoj bo‘lmaysan! Men shunday yashashni istayman!

– Juda soz, juda yaxshi! Sizdan endi bir iltimosim bor: nima qilish kerakligini, kimga murojaat etish lozimligini bilib beraman, xo‘pmi?

– Minnatdorman. – Verochka uning qo‘lini qisdi. – Tezroq bilib bersangiz, bu la’nati, yaramas, xo‘rlik ahvolimdan tezroq xalos bo‘lib olsam, deyman! «Tinchman, ahvolim yomon emas, deyman-u, lekin aslida shunday deb o‘ylaysizmi? Mening nomimdan nima ishlar qilishmayapti, meni ko‘rmaydi, deb o‘ylaysizmi? Yerdagilarning hammasi men to‘g‘rimda nimalar o‘ylashini bilmaydi, deb o‘ylaysizmi? Dog‘uli, ayyor qiz, boyvachcha bo‘lgisi kelib qolibdi, zodagonlar orasiga kirib olmoqchi, dong chiqarib, erini gah desa qo‘liga qo‘nadigan, o‘yinchoq qilib olmoqchi, har qadamda aldamoqchi, deb o‘ylashlarini bilmaydi, deysizmi? Menga bunday hayotning keragi yo‘q, kerak emas! – U birdan xayol surib qoldi. – Unga rahmim keladi, meni u juda yaxshi ko‘radi, deganimdan kulmang!

– Sizni yaxshi ko‘radimi? Uni sizga qarashi mening qarashimdaymi yoki boshqachami? Uning ko‘z qarashi shundaymi?

– Siz beg‘araz, to‘g‘ri qaraysiz. Sizning qarashingiz menga og‘ir botmaydi.

– Ko‘rdingizmi, Vera Pavlovna, buning sababi shuki... Lekin baribir emasmi. Qarashi shunaqa, deysizmi?

Verochka qizarib, jim bo‘lib qoldi.

– Demak, u sizni yaxshi ko‘rmaydi. Bu sevgi emas, Vera Pavlovna.

– Bo‘lmasa... – Verochka so‘zini tamomlamay, to‘xtab qoldi.

– Siz: agar bu sevgi bo‘lmasa, nima, demoqchi edingiz. Nima bo‘lsa bo‘laversin. Lekin o‘zingiz ham: bu – sevgi emas, deysiz. Siz hammadan ko‘proq kimni yaxshi ko‘rasiz? – men unaqa sevgi haqida gapirayotganim yo‘q, – ota-onangiz, dugonalaringizdan qaysi birini ko‘proq yaxshi ko‘rasiz?

– Aytarlik hech kimni yaxshi ko‘rmasam kerak. Ular orasida men juda yaxshi ko‘radigan odam yo‘q. Yo‘q, unday emas, yaqinda men juda g‘alati bir ayolni uchratdim. U xotin o‘zini juda yomonotliq qilib gapirdi. Men bilan tanishganingni bas qil, dedi, – biz butunlay alohida bir ish munosabati bilan uchrashib qolgandik, – boshingga juda og‘ir musibat tushib, o‘limdan bo‘lak ilojing qolmagandagina menga murojaat qil, bo‘lmasa menga yaqinlashma, dedi. Men o‘sha xotinni juda yaxshi ko‘rib qoldim.

– Ko‘ngliga yoqmasa yoki o‘ziga zarar bo‘lsa ham siz uchun biron ish qilsinmi?

Verochka iljaydi.

– Shunaqasi ham bo‘larkanmi?

– Yo‘q, unisini qo‘ya bering, faraz qilingki, u xotinning siz uchun biron ish qilishi sizga juda zarur bo‘lsa-ya; u: «Bunday ish meni azobga solib qo‘yadi», desa ham talabingizni takrorlab, oyoq tirab turaverarmidingiz?

– O‘lsam ham bunday demasdim.

– Mana, siz o‘zingiz buni sevgi deb aytyapsiz. Lekin bu sevgi emas – shunchaki bir tuyg‘u, xolos, lekin otashin muhabbat emas. Sevgining o‘zi nima – otashin muhabbatmi? Otashin muhabbatning oddiy tuyg‘udan farqi nimada? Farqi kuchida. Demak, oddiy tuyg‘u bo‘lganda, otashin muhabbatga nisbatan zaif, juda ham zaif tuyg‘u bo‘lganda muhabbat sizni insonga munosabatda shunday ahvolga solib qo‘yadiki, oxiri siz: «Uni azobga qo‘yganimdan ko‘ra o‘lganim yaxshi», deysiz; oddiy tuyg‘uki shunday desa, ming karra kuchliroq otashin muhabbat nima deydi? Otashin

muhabbat bunday deydi: «Talab qilishim, iltimos qilishim u yoqda tursin, bu kishining o'ziga yoqadigan narsadan boshqa biror narsa qilishga yo'l qo'yishdan ko'ra, meni deb o'zini biror narsaga majbur qilishga, biror narsada o'zini kamsitishga yo'l qo'yishdan ko'ra o'lganim yaxshiroq», deydi. Shunday deyuvchi otashin muhabbatni – muhabbat desa bo'ladi. Agar otashin muhabbat bunday bo'lmasa, u qanchalik otashin bo'lmasin, lekin muhabbat emas. Endi men ketaman, Vera Pavlovna, aytadigan gaplarimni aytib bo'ldim.

Verochka uning qo'lini qisdi.

– Ko'rishguncha xayr. Nega meni tabriklamayapsiz? Bugun tug'ilgan kunim-ku!

Lopuxov qizga qarab qo'ydi.

– Ehtimol... ehtimol! Agar yanglishmagan bo'lsangiz, menga bu ishingiz yaxshi bo'ldi.

V

«Nega bu ish shunchalik tez, kutilmaganda ro'y berdi, – Verochka kecha tamom bo'lgandan keyin o'z xonasida yolg'iz xayol surib o'tirardi, – bir marta gaplashdig-u, bir-birimizga shunchalik yaqin bo'lib qoldik! Yarim soat burun bir-biringni butunlay bilmaysan-da, bir soatdan keyin qarasang, qalin bo'lib qolasan. Qiziq!»

Buning hech qanday qiziq yeri yo'q, Verochka. Lopuxov singari kishilarning gapi sehrli bo'ladi, ular hasrat-nadomatda ezilib yurgan har qanday kishilarni ham o'ziga rom qila biladi. Ularning qulog'iga bunday gaplarni quyib turadigan qalliqlari bor. Aslida, Verochka, sening beparvoliging qiziq, – lekin qiziq bo'lganda ham sen bilan menga emas. Odamlar, muhabbat kishini bezovta qiluvchi tuyg'u, deb o'ylaydilar. Sen bo'lsang go'daklardek qotib uxlab qolasan. Seni hech qanday tush bezovta qilmaydi, hayajonga ham solmaydi – tushingga bolalarning quvnoq o'yinlari, topishmachoq, bekinmachoqlar kirar, unda ehtimol raqsni ham ko'rasan, – o'shanda ham xushchaqchaq, quvnoq, rohatijon raqslarni ko'rsang kerak. Bular boshqalarga g'aroyib tuyuladi, sen buning g'aroyibligini bilmaysan, men esam bunda hech qanday g'aroyiblik yo'qligini bilaman. Sevgidagi tashvish, – sevgining

o‘zi emas, – sevgidagi tashvish biron bejo narsa to‘g‘risidagi behalovatlikdir, uning o‘zi xushchaqchaq va betashvish bo‘ladi.

«Juda qiziq, – deb o‘ylaydi Verochka, – axir, uning kambag‘allar to‘g‘risidagi, xotin-qizlar to‘g‘risidagi gaplarini ham, qanday sevish lozimligini ham – bularning hammasini o‘zim ming bor xayolimdan kechirib, qayta-qayta his qilib yurgan edim-ku, – men bularni qayerdan oldim? Yoki o‘qigan kitoblarimda shunday yozilganmidi? Yo‘q, u kitoblarda boshqacha: kitoblarda bular hammasi yo shubha bilan aytilgan, yoki shunday izohlar berilganki, hammasi xuddi g‘ayrioddiy, ehtimoldan uzoq bir narsaday. O‘zi yaxshi-yu, lekin amalga oshmaydigan xom xayolday tuyuladi! Menga bular hammasi oson narsaday, juda osonday, juda oddiy bir narsaday, bularsiz mumkin emasday, shundayligi to‘g‘riday, juda ham to‘g‘riday ko‘ringandi! Axir, men bular eng yaxshi kitoblar, deb o‘ylagan edim-ku. Jorj Zand o‘zi juda ezgu niyatli, mehribon ayol, – lekin yozganlarining hammasi faqat xomxayol! Bizning yozuvchilarimizda-chi, yo‘q, bizning yozuvchilarimizda aslo bunday narsa yo‘q. Dikkensda-chi, unda bor, lekin uning bunga ishonchi yo‘qqa o‘xshaydi; o‘zi ezgu niyatli odam bo‘lgani uchun shunday bo‘lsin deydi-yu, lekin bularning amalga oshmasligini o‘zi ham biladi. Busiz mumkin emasligini, haqiqatan shunday bo‘lishi lozimligini va albatta shunday bo‘lishini, hech kimning kambag‘al ham bo‘lmasligi, baxtsiz ham bo‘lmasligi lozimligini ularning bilmasligi mumkinmi, axir? Ajabo, ular buni gapirishmayaptimi? Yo‘q, ular bunga faqat achinishadi xolos, ular haqiqatan ham shunday va shundayligicha qola beradi, biroz yaxshi bo‘lsa bo‘lar-u, lekin baribir aslicha qolaveradi, deb o‘ylashadi. Men o‘ylagan narsa haqida ular og‘iz ham ochmaydi. Agar ular *bu haqda* gapirsa edi, men dono va ezgu niyatli kishilar shunday deb o‘ylasharkan, degan xayolga borardim; men bo‘lsam, faqat men shunday deb o‘ylayman, deb yuribman, chunki men tentak bir qizman, mendek tentakdan boshqa hech kim bunday deb o‘ylamaydi, haqiqatan ham shunday bo‘ladi, deb hech kim kutmaydi ham. Uning gapiga qaraganda, qallig‘i unga mehr qo‘yganlarning hammasiga, men o‘ylagan narsalarni bari shunday bo‘ladi, deb tushuntiribdi, shunday lo‘nda qilib tushuntiribdiki, hammalari tezroq shunday bo‘lsin, deb jon fido qiladigan bo‘lib qolishibdi. Qallig‘i

juda ham dono ekan-da! U kim bo‘ldi ekan? Bilib olaman, bu turgan gap. Kambag‘allik yo‘q bo‘lib ketganda juda yaxshi bo‘ladi-da, hech kimga hech kim zo‘rlik qilmaydi, hamma xushvaqt, olijanob, baxtli bo‘ladi...»

Shu bilan Verochka uyquga ketib, qattiq uxlab qoldi, hech qanday tush ko‘rmadi.

Yo‘q, Verochka, shunday ta’lim berib kelgan, shunday bo‘lishi lozim, albatta shunday bo‘ladi, shunday bo‘lmasligi mumkin emas, deb o‘rgatgan va isbotlagan kishilarning hatto familiyalarini ham eshitmagan sen kabi sodda-bayov qizning bular to‘g‘risida ko‘p o‘ylab, shularni dilingga tugib olganing g‘alati emas; o‘qigan kitoblaring miyangda aniq va ravshan quyib qo‘yishi mumkin bo‘lmagan fikrlarni tushunib, dilingga jo qilganing g‘alati emas, sening kitoblaringni bu fikrlar hali shunchaki fikr holatida bo‘lganda o‘qib-o‘rgangan kishilar yozgan; bu fikrlar umrga juda ajoyib, juda g‘aroyib fikr bo‘lib ko‘ringan edi xolos. Hozir, Verochka, bu fikrlar hayotda aniq va ravshan ko‘rinib turibdi, bundan tashqari boshqa kishilar yana boshqa kitoblar ham yozgan; bunday kishilar: ular yaxshi fikrlar, lekin hech qanday ajoyib-g‘aroyib yeri yo‘q, deb bilishadi; binobarin, Verochka, gul faslida hamma yoq xushbo‘y muattar hidlarga to‘lishi singari, bu fikrlar ham hozir havoda anqib turibdi; bu fikrlar hamma yoqqa kirib bormoqda, endi u fikrlarni hatto mast onangning og‘zidan, u senga yashamoq kerak, yashash uchun esa aldash va dog‘ulilik qilish kerak, deb gap uqtirganida ham eshitgansan; u sening fikrlaringga qarshi chiqmoqchi bo‘ldi-yu, lekin o‘zi sening fikrlaringni quvvatlab, yanada rivojlantirdi; sen bularni surbet, buzuq fransuz xonim, o‘ynashini oqsochiday orqasidan ergashtirib, istagan maqomga soluvchi, lekin yaxshilab o‘ylab qolgan paytlari irodasizligini, o‘zi uchun nihoyatda og‘ir deb bilsa ham odamlarning ko‘nglini topishni, o‘zini majbur qilishni o‘ziga ep biluvchi o‘sha surbet fransuz xonimdan ham eshitgansan, – bu notavon xonim yumshoqko‘ngil, boodob, muloyim Sergeyi bilan turmaydi (yana kim bilan turadi, deysan) – holbuki shu ayol ham: «Hatto men kabi nomussizga ham bunday munosabat yomon ko‘rinadi», deydi. Verochka, hozir sen kabi fikr egasi bo‘lish qiyin emas. Lekin boshqalar bularni diliga jo qilmaydi, sen bo‘lsang ko‘nglingga yaqin olibsan – bu juda yaxshi, lekin buning ham

qiziq yeri yo‘q, sen erkin va baxtiyor odam bo‘lishni ixtiyor qilgan ekansan, buning nimasi qiziq bo‘lardi! Axir, bu orzu – allaqanday katta bir yangilik emas, allaqanday katta bir qahramonlik ham emas.

Verochka, shunisi g‘alatiki, shunday dardsiz kishilar borki, ularda bunday istak-xohishning o‘zi yo‘q, ularning es-hushi butunlay boshqa narsada, sen sevgining birinchi tunini shunday orzu-xayollarga to‘ldirib yuborganing o‘z to‘g‘ringdagi, o‘z sevgiling, o‘z ishqing to‘g‘risidagi fikrlardan hamma odamlar baxtiyor bo‘lsin, shunday kunlarning tezroq kelishiga ko‘maklashish lozim, degan qarorga kelganliging ularga qiziq tuyuladi. Sen buning qiziq ekanligini bilmaysan, men esam qiziq emasligini bilaman, tabiiy insonlarga xos, shunchaki insoniy bir gapligini bilaman; «men quvonch va baxtni his etaman» – demak, «mening istagim shuki, hamma quvonchga to‘lsin, baxtiyor bo‘lsin», deyman – odamgarchilik nuqtayi nazaridan qaraganda, Verochka, bu ikkala fikr – bir narsa. Sen mehribon, esli-hushli qizsan; lekin men senda kishini hayron qoldiradigan biron fazilat borligini ko‘rganim yo‘q, desam mendan xafa bo‘lma; balkim men bilgan va biladigan qizlarning yarmi, balki yarmidan ham ko‘pi, – men ularni sanab ko‘rgan emasman, ular shu qadar ko‘pki, sanab o‘tirishning keragi ham yo‘q! – sendan yomon emasdir, ba’zilari hatto sendan yaxshidir, desam mendan xafa bo‘lma.

Lopuxovga sen juda ajoyib qizlarday ko‘rinding, shundaydir ham; lekin unga shunday ko‘ringan bo‘lsang, buning hech hayron qoladigan yeri yo‘q, chunki u seni yaxshi ko‘rib qoldi! Yaxshi ko‘rib qolgan ekan, buning taajjublanadigan yeri yo‘q: sen yaxshi ko‘rishga arziysan; yaxshi ko‘rib qolgandan keyin, unga shunday ko‘rinishing ham turgan gap.

VI

Marya Aleksevna qizi bilan o‘qituvchi birinchi kadrilga tushayotganida ularning yonidan tez-tez o‘tib turdi, lekin ikkinchi kadril vaqtida ular yaqinida ko‘rinmadi, kechki ovqat o‘rnini bosishi mumkin bo‘ladigan gazak tayyorlash bilan ovora bo‘ldi. Keyin o‘qituvchini surishtirgan edi – bilsa, o‘qituvchi ketib qolgan ekan.

Ikki kundan so‘ng o‘qituvchi dars bergani keldi. Xonaga samovar ko‘tarib kirishdi, – choy ichish hamma vaqt dars vaqtiga

to‘g‘ri kelardi. Marya Aleksevna o‘qituvchi Fedya bilan dars o‘tayotgan xonaga kirib keldi, Fedyani avval Matryona chaqirdi; o‘qituvchi joyidan qo‘zg‘almay. o‘tiravermoqchi bo‘ldi, chunki u choy ichmaydi, vaqtdan foydalanib Fedyaning daftarlarini tekshirmoqchi edi, Marya Aleksevna, biz bilan birga o‘tiring, sizda gapim bor, deb iltimos qildi. O‘qituvchi o‘rnidan turib, choy stoli yoniga borib o‘tirdi.

Marya Aleksevna, Fedyaning qobiliyati qalay, qaysi gimnaziya yaxshi, bolani gimnaziya pansioniga joylashtirsak tuzuk bo‘larmikin, deb surishtira boshladi, – bunday savollar berishi tabiiy, lekin biroz ertaroq emasmikin? Suhbat payti Marya Aleksevna o‘qituvchiga mehribonlik qilib, choy iching, deb qistab qo‘ymagandi, Lopuxov odatini tark etib, stakanni qo‘liga oldi. Verochkaning anchagacha daragi bo‘lmagandi, nihoyat, u ham kirib keldi; Verochka bilan o‘qituvchi xuddi oralarida hech gap o‘tmaganday, salomlashishdi, Marya Aleksevna bo‘lsa hali ham Fedya to‘g‘risidagi suhbatni davom ettirardi. Keyin birdaniga gapni o‘qituvchining o‘ziga burib, uning kimligini, qanaqa odamligini, qarindosh-urug‘larini, ularning mol-mulkini, turmushini, o‘zi qanday turmush qurmoqchiligini surishtirib ketdi; o‘qituvchi qisqa, lekin mujmal javob berib, qarindosh-urug‘larim bor, ular provinsiyada turishadi, boy odamlarmas, o‘zim dars berib kun ko‘rib kelyapman, Peterburgda mediklik xizmatida qolish niyatim bor, dedi; xullas, uning butun bergan javoblaridan biron ma’ni chiqmadi. O‘qituvchining o‘jarlik qilayotganiga ko‘zi yetganidan keyin, Marya Aleksevna gapni ochiqchasiga boshlab yubordi.

– Siz, bu yerda doktorlik vazifasida qolmoqchiman, deyapsiz; bu yerda doktorlik vazifasida qolib, xudoga shukur, bir kunini o‘tkazsa bo‘ladi; hali oila qurish niyatingiz yo‘qmi yo ko‘z tagiga olib qo‘ygan qizingiz bormi? – Bu nimasi? O‘qituvchi xayoliy qallig‘ini esidan chiqarib qo‘yayozgan, «ko‘z tagiga olib qo‘ygan qizim yo‘q», demoqchi bo‘lgan edi, lekin: «E, gaplashganimizda quloq solib turgan edi-ku!» – deb eslab qoldi. Kulgisi qistadi, o‘shanda qayoqdagi bema’ni gaplarni o‘ylab topgan ekanman o‘zim! Nega men bunday majozni to‘qib chiqargan ekanman, buning hech bir keragi yo‘q edi! Aytgancha, targ‘ibot zararli narsa, deyishadi – dili

pok, o'zi yomonlikni bilmagani uchun targ'ibot qattiq ta'sir qilibdi; quloq solib, tushunib olgan u bo'lsa, menga nima?

– Bo'lmasam-chi, ko'z tagiga olib qo'ygan qizim bor, – dedi Lopuxov.

– Unashib qo'yganmisizlar – yo hali unashganingiz yo'qmi?

– Unashib qo'yganmiz.

– Rasman unashtirilganmisiz yoki shunchaki bir-biringlar bilan gaplashib qo'ya qolganmisizlar?

– Rasman unashtirilganman.

Sho'ring qurg'ur Marya Aleksevna! «Qallig'im» – «qallig'ingiz» – «uni juda yaxshi ko'raman» – «juda chiroyli qiz», degan gaplarni eshitganidan keyin o'qituvchi qiziga shilqimlik qilmasligiga ishonch hosil qildi; shu sababdan, ikkinchi kadril vaqtida bamaylixotir kechki ovqat o'rnini bosadigan gazak tayyorlash bilan ovora bo'lgan edi. Lekin bu bamaylixotirligi masalasini yaxshilab, batafsil bilib qo'ymoqchi edi. Marya Aleksevna savol ustiga savol berdi; tasalli gap kimga yoqmaydi deysiz, har holda bunday gap hammaga ham qiziq ko'rinadi, – o'zi ham hammasi qiziq gaplar-da. O'qituvchi o'z odaticha qisqa-qisqa bo'lsa ham, lekin asosli javob berdi. «Qallig'ingiz tuzukkinami?» – «Bunday qiz kamdan kam uchraydi». – «Sepi bormi?» – «Hozircha yo'q, lekin katta meros oladi». – «Katta deysizmi?» – «Juda katta». – «Juda kattami?» – «Juda katta». – «Yuz mingga borarmikin?» – «Undan ham ko'proq». – «Qancha ekan?» – «Buni gapirib o'tirishning nima keragi bor, juda ko'p degandan keyin, bo'ldi-da». – «Pulmi?» – «Puli ham bor». – «Balki yer-suvlari ham bordir?» – «Ha, yer-suvlari ham bor». – «Yaqin qolganmi?» – «Yaqin qolgan». – «To'yingiz qachon?» – «Tez orada bo'lib qoladi». – «Dmitriy Sergeich, meros qo'liga tegmay turib ishni pishirish kerak, bo'lmasa kuyovlar ham juda ko'payib ketadi». – «Juda to'g'ri aytasiz». – «Xudodan bo'lib, boshiga baxt qushi qo'nibdi, boshqalar ilib ketmaganini aytmaysizmi?» – «Balli, unga meros tegishini hali hech kim bilmaydi». – «Siz bilib oldingizmi?» – «Bilib oldim». – «Qanday qilib?» – «To'g'risini aytsam, allaqachon bilardim, so'rab-surishtirib bilib olganman». – «Aniq bilib olganmisiz?» – «Bo'lmasa-chi, hujjatlarini o'zim tekshirib ko'rganman». –

«O‘zingizmi?» – «O‘zim. Ishni shundan boshladim». – «Shundan boshladingizmi?» – «Bo‘lmasa-chi, esli-hushli odam hujjatsiz bir qadam ham bosmaydi». – «To‘g‘ri aytasiz, Dmitriy Sergeich, bir qadam ham bosmaydi. Baxtingizni qarang! Ota-onangizning duosini olgan ekansiz!» – «Ehtimol».

Marya Aleksevna o‘qituvchining choyxo‘r emasligini ko‘rib, uni ilgari ham yoqtirib qolgan edi; tuzuk, bama’niligi butun yurish-turishlaridan ko‘rinib turibdi; o‘zi kamsuxan, bunisi ham yaxshi, yengiltabiat emas; gapirgan gaplari, ayniqsa, pul to‘g‘risidagi gaplari juda yaxshi; lekin kechadan buyon o‘tgan uch kun ichida Marya Aleksevna o‘qituvchining dars beradigan oilalarda qizlar bilan aylanishdan o‘zini butunlay tiyib yuradigan odam ekanligini ko‘rib bildi; bundan yosh yigitlar orasida qizlarga shilqimlik qilmaydiganlari juda kam uchraydi. Hozir bo‘lsa Marya Aleksevna o‘qituvchidan juda ham xursand. Chindan ham qandoq basavlat, bama’ni yigit! Qallig‘im juda boy, deb maqtanmadi ham: uni gapga solish qiyinligini aytmaysizmi! Topog‘irligini aytmaysizmi, boy qalliq qidirib topish payiga tushganiga ancha-muncha bo‘lganga o‘xshaydi, buni qarang, yelimday yopishib olibdi-ya! Uddaburon odamligi ko‘rinib turibdi. Dastlab hujjatlarini ko‘rishdan boshladim, deydi-ya, gaplarini qarang! «Aqli bor odamning shunday qilmasligi mumkin emas», deydi – juda kamdan kam uchraydigan bama’ni yigitlardan ekan.

Verochka dastlab barala kulib yuborishdan o‘zini zo‘rg‘a tutib turdi, lekin sekin-sekin fahmlab, – qayoqdan fahmlaydigan bo‘lib qoldi? – ichida, yo‘q undoqmas, bundoq, deb o‘tirdi, – Lopuxov Marya Aleksevnaning savollariga javob bersa ham u bilan gaplashmay, anavi, ya’ni Verochka bilan gaplashayotganini, Marya Aleksevnaga hazil-huzul qilayotganini, Verochka jiddiy va haq gapni, faqat haq gapni aytayotganini bilib oldi.

Verochkaga shunday tuyuldimi yoki aslida shundaymi, kim bilsin? Bu bir Lopuxovga-yu Verochkaga ayon edi; bizning bilishimizning keragi ham yo‘q; bizga fakt bo‘lsa bas. Fakt esa shundan iborat ediki, dastlab Lopuxovning gaplariga Verochka kulimsiragan bo‘lsa, keyin uning Marya Aleksevna bilan emas, balki o‘zi bilan, Verochka bilan gaplashayotganini, gaplashganda ham hazillashmasdan, haqiqatni gapirayotganini ko‘rib jiddiy tortdi,

suhbat boshidan Lopuxovning gaplariga jiddiy quloq solib o'tirgan Marya Aleksevna, Verochkaga qarab: «Do'stim, Verochka, nimaga o'qrayib o'tiribsan? Sen endi Dmitriy Sergeich bilan tanishsan, jo'r bo'lsangiz deb iltimos qil, ashula aytib ber!» – dedi; bu so'zlarning ma'nisi: «Dmitriy Sergeich, sizni juda hurmat qilamiz, marhamat qilib, oilamizning qadrdon kishisi bo'ling: sen qizim, Verochka, Dmitriy Sergeichdan tortinib yurmasang ham bo'ladi, Lopuxovning qallig'i bor ekan, deb Mixail Ivanichga o'zim aytib qo'yaman, shunda u seni rashk qilmaydi». Bu gap Verochkaga ham, Dmitriy Sergeichga ham tegishli edi. Dmitriy Sergeich, endi Marya Aleksevnaning fikrida ham «o'qituvchi»likdan chiqib, Dmitriy Sergeich bo'lib qolgandi; Marya Aleksevna gaplarining o'zi uchun uchinchi, eng tabiiy va haqiqiy ma'nosi bor edi: «uni silab-siypab turish kerak; bu uchar odam boyib olganida, tanishligimizning keyinchalik foydasi tegib qolar», degani edi; Marya Aleksevna gaplarining Marya Aleksevna uchun umumiy ma'nosi shu edi, umumiy ma'nosidan tashqari, uning uchun xususiy ma'nisi ham bor edi: «Silab-siypab, biz badavlat odamlardan emasmiz, har bir darsga bir so'lkavoydan to'lash bizga og'ir keladi, deyman». Marya Aleksevna gaplarining ana shuncha ma'nosi bor edi. Dmitriy Sergeich darsimni tamomlay, keyin bajonidil fortepyano chalib beraman, dedi.

Marya Aleksevnaning gaplari juda ma'nodor edi, natijalari ham oz emasdi. Bu gaplarning shaxsan o'ziga doir ma'nosiga, ya'ni dars pulini kamaytirishga kelganda, uning yutug'i kutganidan ham ziyoda bo'ldi: Lopuxov ikki marta kelib dars berganidan keyin, Marya Aleksevna, biz badavlat odamlardan emasmiz, deb gap ochgandi, Dmitriy Sergeich savdolashdi, qattiq savdolashdi, anchagacha ko'nmay uch so'mdan to'laysiz, deb turib oldi (u vaqtlarda uch so'mlik bo'lardi, ya'ni agar yodingizda bo'lsa, 75 tiyinlik tanga ham bo'lardi); dars narxini pasaytirishga Marya Aleksevnaning ko'zi yetmagandi, lekin tortisha-tortisha har bir dars bahosini oltmish tiyindanga tushirdi. Marya Aleksevna gaplarining xususiy ma'nisi – dars narxini kamaytirish niyati – Dmitriy Sergeich haqidagi (Lopuxov haqidagi emas, Dmitriy Sergeich haqidagi) fikriga, ochko'z, olg'ir degan fikriga zid edi shekilli: bu xarisning kambag'alligimiz bilan nima ishi bor? O'lsa ham haqini qo'ymas.

Agar Dmitriy Sergeich haqidan kechsa, Marya Aleksevnaning, aslida, undan ko'ngli qolishi kerak edi, uni yengiltak, demak, zararli odamga chiqarib qo'yardi. Bu boshqa biron kishi haqida bo'lsa, Marya Aleksevna, albatta, shunday muhokama qilardi. Lekin odamzod shunday yaratilganki, o'z ishiga odat bo'yicha, o'zi baho berolmaydi: o'z manfaatini ko'zlashni yaxshi ko'radi. Kollej kotibi Ivanov kollej maslahatchisi Ivan Ivanichga murojaat etib, sizga astoydil sodiqman, desa, Ivan Ivanich hech kimning astoydil sodiq bo'lishi mumkin emasligini, ayniqsa Ivanovning o'z otasini besh marta arzongarovga sotib, hatto undan, ya'ni otasini hali faqat uch marta sotgan Ivan Ivanichdan ham oshirib yuborganligini juda yaxshi biladi, lekin shunday bo'lsa ham Ivanovning sodiqligiga Ivan Ivanich ishonadi, ya'ni unga ishonmaydi ham, uning shu sadoqati uchun unga muruvvat qiladi, garchi ishonmasa ham, uni ahmoq qilishiga yo'l qo'yadi – demak, ishonmasa ham, har holda, ishonadi. Inson qalbi shunday xususiyatga ega bo'lgandan keyin ilojingiz qancha? Bu bema'ni, zararli narsa; lekin, afsuski, Marya Aleksevna bu nuqsondan, hamma xaris, ayyor va iflos kishilarga xos bu nuqsondan xoli emasdi. Bir-biriga qarama-qarshi ikki xil ma'naviy fazilat egalarigina bu nuqsondan xoli bo'lishi mumkin: Yevropa diplomatlarini va Jezzar singari Buyuk Napoleonning o'zini yosh boladay aldagan yaninlik Aliposhsho suriyalik Jezzarposhsho, misrlik Muhammad Ali singari transsendental[1] ablah, dog'ulilar olamining sakkizinchi mo'jizasi bo'lsa, ayyorlik qon-qoniga singib, hech nima kor qilmaydigan darajada terisi qalinlashib ketgan bo'lsa, bu teridan teshib o'tib na nafsi buzuqlikka, na nafsoniyatga, na amalparastlikka, na izzat-nafsga, boringki, hech narsaga kor qilmay qo'ygan bo'lsa, inson bu kasaldan shundagina qutulishi mumkin; lekin bunday muttahamlik qahramonlari o'zi aslida juda oz, ablahlikning cho'qqisiga chiqib olganlar insonlarga xos ko'p xil qusurlar tufayli buzilib borayotgan Yevropada u deyarli ko'rinmaydi. Shu sababdan, mabodo sizga biron ayyorni ko'rsatib: «Mana bu kishini hech kim laqillatolmaydi», desalar, siz ayyor bo'lmasangiz ham, agar hushimga kelsa, hash-pash deguncha aldab qo'yaman, deb dadil bir so'mga o'n so'm tikavering, o'zi ham biron

[1] Bu o'rinda g'ayritabiiy degan ma'noda.

ishda tumshug'idan ilinib qoladi, deb yana ham dadilroq bo'lib bir so'mga yuz so'm tikavering, chunki tumshug'idan ilinib berish hamma ayyorlarning tabiatida bor narsa. Chunonchi, Lui-Filipp va Metternix qanday usta odamlar edi, holbuki tumshuqlaridan ilinib, Parij va Venadan tinch va osoyishta ko'kalamzor manzaralarni ko'rib, rohat-farog'atda yashamoq niyatidan o'zlarini o'zlari badarg'a qildirishdi[1]. Napoleon I qanday ayyor odam edi, – ikkovidan ham o'tib tushardi, ayyorligi ustiga dohiyona aql egasi edi, deyishadi, – u ham Elbada o'zini o'zi boplab tumshug'idan ilintirdi, bu ham oz ko'rinib, undan ham nariga borgisi keldi shekilli, niyatiga yetib, o'zini o'zi tumshug'idan tutgancha to muqaddas Yelena oroligacha sudrab bordi! Sharrasning «1815-yil urushi tarixi»ni o'qib ko'rsangiz-chi, bunda o'zini qanday zo'r berib, mahorat bilan tumshug'idan sudrab borganini ko'rib, rahmingiz keladi! Afsuski, Marya Aleksevna ham shunday zararli mayllardan xoli emasdi.

Boshqalarga firib berishda uchiga chiqqan bo'lsa ham, shu firibgarligini vasvasaga qarshi qalqon qilib olgan odamlar oz. Ammo bu jihatdan ularga ishonch bilan, sadoqatli xizmat qiluvchi qalb egalari juda ko'p. Barcha Vidoklar[2] va Vanek-Kainlarning so'ziga qaraganda, agar biroz aql-farosati va hayotda orttirgan tajribasi bo'lsa, ayyorlikni bilmaydigan halol odamlarni aldashdan qiyini yo'q. Aqli raso, halol kishilar yakka-yolg'iz bo'lsalar ham yo'ldan ozmaydilar. Lekin ularning bu kamchiliklarida boshqa, xuddi shunday zararli illati ham bor; ular bir yo'ldan ozsa, birato'lasiga ozadi. Dog'uli bulardan birontasini ham tumshug'idan ilintirolmaydi; lekin ular hammasining tumshug'i xuddi bir to'da odam tumshug'iday, hamisha xizmatga hozir-u nozir. Yakka-yakka bo'lganda o'z tumshuqlarining mustaqilligi jihatidan zaifroq bo'lgan dog'ulilar yoppasiga tumshug'idan ilinmaydi. Dunyo tarixining butun siri ham shunda.

Lekin dunyo tarixi bilan alahsib ketishimiz ortiqcha bo'lsa kerak; ishing hikoya qilish bo'lgandan keyin, shu hikoyangdan qolma!

---

[1] Fransuz qiroli Lui-Filipp va Avstriya kansleri Metternixning 1848-yil revolutsiyasi vaqtida Angliyaga qochib ketganligiga ishora qilinyapti.

[2] V i d o k (1773–1850) – fransuz josusi va avantyuristi.

Marya Aleksevna gaplarining ilk natijasi shu bo'ldiki, darsni arzon qilib oldi. Yana bir natija shu bo'ldiki, o'qituvchining (ya'ni endi o'qituvchining emas, balki Dmitriy Sergeichning) xizmatini arzonga tushirib olgandan keyin, Marya Aleksevnaning u to'g'ridagi fikri – bama'ni odam ekan, degan fikri yana ham mustahkamlashdi, hatto uning gaplaridan Verochka naf ko'radi, gaplarini eshitib, Verochka Mixail Ivanichga erga chiqishga ham ko'ndi, deb o'ziga o'zi tasalli berdi, – bu xulosadan o'zi ham juda xursand, Marya Aleksevnaning bunday xulosa chiqarishga aqli kaltalik qilardi-yu, lekin juda aniq va ravshan bir dalilni ko'rar ekan, Dmitriy Sergeichning Verochkaga ta'siridan naf chiqishini sezmasligi mumkin emasdi. Bu dalilning qayoqdan paydo bo'lganini hozir ko'ramiz.

Marya Aleksevna gaplarining uchinchi natijasi shu ediki, Verochka bilan Dmitriy Sergeich, Marya Aleksevnaning ruxsati va rag'bati bilan ancha-ancha vaqt birga bo'ladigan bo'lib qolishdi.

Lopuxov soat sakkizlarda darsini tamomlab, Rozalskiylarnikida yana ikki-uch soat o'tirib, onasi bilan, otasi bilan, kuyov bilan qarta o'ynardi; ular bilan suhbatlashardi; fortepyano chalardi, Vera qo'shiq aytardi, yo Verochka fortepyano chalsa, u quloq solib o'tirardi; ba'zan Verochka bilan suhbatlashardi, Marya Aleksevna ularga xalaqit bermasa ham, o'qraymasa ham, lekin ko'z qirini tashlab turardi.

Albatta, ko'z qirini tashlamay qoldirmasdi, chunki Dmitriy Sergeich juda bama'ni yigit bo'lsa ham, lekin: «O'zingga ehtiyot bo'l, qo'shningni o'g'ri tutma», degan maqol bekorga aytilgan emas. Dmitriy Sergeichning salbiy ma'noda emas, ijobiy ma'noda o'g'riligiga hech qanday shubha yo'q edi-ku: yo'qsa uning nimasini hurmat qilish kerag-u, nimasiga uchib, inoq bo'lishi kerak? Ahmoq bilan ham inoqlashadimi kishi? Albatta, foydasi bo'lsa, ahmoq bilan ham inoq bo'lsa bo'ladi. Lekin Dmitriy Sergeichning hali hech vaqosi yo'q; demak, hozircha uning fazilatlari, ya'ni aql-xushi, bama'niligi, pulini tejab-tergashligi, uddaburonligi tufayli u bilan do'stlashish mumkin. Har kallada har xayol bo'lsa, bunday aqlli odamning kallasida qancha-qancha fikr-xayol bor ekan. Demak, Dmitriy Sergeichdan sira ko'z uzib bo'lmaydi. Shu tufayli Marya Aleksevna juda hushyorlik bilan kuzatib yurdi. Lekin hamma

ko‘z tashlash-u razm solishlar Dmitriy Sergeichning bama’ni va sofdilligini tasdiqladi xolos. Masalan, hozir oshiq-ma’shuqlikni nimadan payqab olish mumkin? Siynasiga ko‘z tashlashdan. Verochka fortepyano chalyapti, Dmitriy Sergeich bo‘lsa tik turganicha tinglayapti, Marya Aleksevna, qizimning siynasiga ko‘z tashlayaptimikin, deb qarab ko‘rgandi, – bu narsa uning xayolida ham yo‘q ekan! Ba’zan Verochka umuman qaramay, to‘g‘ri kelgan tomonga tikiladi, ba’zan esa Verochkaning yuziga shunchaki beozor, beparvo nazar tashlab qo‘yardiki, bundan xuddi: unga azbaroyi hurmat yuzasidan qarayapti, hozir fikr-xayoli qallig‘ining mol-mulkida, u qariganda, ko‘zlari Mixail Ivanich ko‘zlari singari yonmaydi, deb o‘ylaysan kishi. Oshiq-ma’shuqlikni yana nimadan sezsa bo‘ladi? Izhori sevgi so‘zlaridan; holbuki hech qanday izhori sevgi qilmaydi, bir-birlari bilan juda oz gaplashadi: Dmitriy Sergeich ko‘proq Marya Aleksevna bilan gaplashadi. Yoki bunisiga qarang: Dmitriy Sergeich Verochkaga kitob keltirib turadigan bo‘ldi. Bir safar Verochka bir o‘rtog‘inikiga ketgandi, Mixail Ivanich shu yerda o‘tirgandi. Marya Aleksevna qo‘liga kitob olib, Mixail Ivanichga tutqazdi.

– Buni qarang, Mixail Ivanich, fransuzchani-ku, o‘zim bir amallab tushunib oldim-a, «Mehmonxona» debdi, demak, zodagonlar odob muomalasidan qo‘llanma bo‘lsa kerak, nemischasini tushunmayman.

– Yo‘q, Marya Aleksevna, «Mehmonxona» emas, bu – taqdir degani.

– Bu qanday taqdir bo‘ldi? Romanning nomi shundaymi, yo bo‘lmasam qur’a andozlikmi, ta’bir kitobmi?

– Mana, hozir kitobning mazmunidan bilamiz, Marya Aleksevna, – dedi-da, Mixail Ivanich kitobdan bir necha betini varaqlab ko‘rdi. – Bunda ko‘proq turkumlar haqida gapirilgan, Marya Aleksevna, – ilmiy kitob ekan[1].

– Turkumlar haqida, deysizmi? Juda yaxshi; demak, pul aylanmasini qanday olib borish haqida ekan-da.

---

[1] Fransuz sotsialist-utopisti Viktor Konsideranning (1808–1893) – «Jamiyat taqdiri» degan kitobi ustida gap boryapti, bu kitobda bo‘lg‘usi sotsialistik jamiyatning negizi bo‘lgan erkin mehnat birlashmalari haqidagi ta’limot bayon qilingan. Mehnat birlashmalari mehnatning ma’lum bir turi bilan shug‘ullanadigan odamlar turkumiga bo‘linadi.

– Xa, shunday masalalar haqida, Marya Aleksevna.

– Nemischasi-chi?

Mixail Ivanich, sekin hijjalab o'qidi:

– «Din haqida, Lyudovik asari»[1] – Lyudovik o'n to'rtinchi asari, Marya Aleksevna, Lyudovik XIV asari, bu Fransiya qiroli, o'rniga hozirgi Napoleon o'tirgan, qirolning otasi.

– Demak, ilohiy narsalar haqida ekan-da?

– Ilohiy narsalar haqida, Marya Aleksevna.

– Unday bo'lsa, yaxshi, Mixail Ivanich; o'zim-ku Dmitriy Sergeichning bama'ni yigitligini bilaman-a, shunday bo'lsa-da, har qanday kishiga ham ko'z-quloq bo'lib turish lozim.

– Albatta, xayolida biron yomon fikri yo'q, Marya Aleksevna, shunday bo'lsa ham, Marya Aleksevna, ko'z-quloq bo'lib yurganingiz uchun sizdan juda minnatdorman.

– Shunday qilmasa bo'lmaydi, qarab yuraman, Mixail Ivanich; onaning vazifasi qizini sof, pokiza saqlashdir, bu jihatdan Verochkadan ko'nglim to'q. Lekin nimani o'ylayapsan, deng, Mixail Ivanich: fransuz qiroli qaysi dinda edi?

– Haqiqiy katolik.

– U papa dinini ko'zda tutmayotganmikin?

– Unday bo'lmasa kerak, deb o'ylayman, Marya Aleksevna. Agar katolik arxiyereyi yozganda papa diniga murojaat qilishi turgan gap edi. Qirol bunday ish bilan shug'ullanib o'tiradi deysizmi: u dono podshoh va siyosatchi bo'lganidan, to'g'ridan to'g'ri mo'min-qobillikka da'vat qiladi.

Bundan ortiq yana nima desin? Mixail Ivanich uncha aqlli odam bo'lmasa ham, tuzukkina fikr aytganligini Marya Aleksevna tushunmasligi mumkin emasdi; lekin bu gapni baribir oxirigacha yetkazmay qo'ymadi. Oradan ikki-uch kun o'tgach, Lopuxov Mixail Ivanich bilan preferans o'ynab o'tirganida, to'satdan Lopuxovga gap qotdi:

– Dmitriy Sergeich, sizdan bir narsani so'rasam nima deysiz? Ilgarigi fransuz qirolining otasi, o'rniga hozir Napoleon o'tirgan qirolning otasi papa diniga sig'ininglar, deb buyruq berganmidi?

---

[1] Nemis materialist faylasufi Lyudvig Feyerbaxning (1804–1872) «Dinning mohiyati haqida leksiyalar» degan kitobi nazarda tutiladi. U vaqtlarda chor senzurasi Feyerbax nomini matbuotda tilga olishni taqiqlab qo'ygan edi.

– Yo‘q, buyruq bergan emas, Marya Aleksevna.

– Dmitriy Sergeich, papaning dini yaxshi dinmi?

– Yo‘q, Marya Aleksevna, yaxshi din emas. Yettilik g‘ishtin bilan yuraman.

– Buni men, Dmitriy Sergeich, shunchaki qiziqqanimdan so‘radim, o‘zim ilmsiz bo‘lsam ham odam qiziqar ekan. Dmitriy Sergeich, o‘zingizga toza ham jarima yozib olgan bo‘lsangiz kerak-a!

– Bo‘lmasa mumkin emas, Marya Aleksevna, Akademiyada shunday ta’lim berishadi. Medikning qarta o‘ynashni bilmasligi mumkin emas.

Filippning Egalitega papa diniga cho‘qinishini buyurgan-buyurmaganini Marya Aleksevnaning nima sababdan bilmoqchi bo‘lgani Lopuxovga haligacha ham jumboq bo‘lib qolaverdi.

Shulardan keyin ham Marya Aleksevna ko‘z-quloq bo‘laverib holdan ketishini bas qilmasa uyatga qolardi. Na ko‘kragiga ko‘z tashlaydi, na yuzida biron oshiqlik alomati ko‘rinadi, o‘qish uchun bergan kitoblari ham ilohiy kitoblar, – shularning o‘zi kifoyadir. Lekin Marya Aleksevna xabardor bo‘lib turish bilan kifoyalanmasdan, men ham yod qilib olgan «Mantiq»ni o‘rganayotganday, sinov ham qilib ko‘rdi, unda: «O‘z-o‘zidan yuz beruvchi hodisalarni kuzatib borish uchun, shunday munosabatlarning sirini chuqur bilib olish maqsadida yaxshi o‘ylab tuzilgan rejaga suyanib o‘tkaziladigan tajribalar asosida tekshirib ko‘rilishi lozim», deyilgan edi, – u ham xuddi Sakson Grammatikning Gamletni o‘rmonda qiz bilan qanday sinaganlarini hikoya qiluvchi kitobini o‘qiganday sinov qilib ko‘rdi.

VIII

GAMLETONA SINOV

Bir kuni Marya Aleksevna choy vaqtida, boshimga og‘riq turdi, deb qoldi; choy qo‘yib, qanddonni oborib joyiga qo‘ydi-da, chiqib yotdi. Vera bilan Lopuxov choy ichiladigan xonada qolishdi, bu xona Marya Aleksevna chiqib ketgan yotoqxona bilan yonma-yon edi. Kasal bir necha daqiqadan keyin Fedyani yoniga chaqirib:

«Chiqib opangga, gaplaringizdan oyim uxlolmayotganmish, degin; menga xalaqit bermay, nariroqqa ketishsin. Dmitriy Sergeichga qattiq tegmaydigan qilib, muloyimgina gapirish: senga biram g'amxo'rlik qiladiki», dedi. Fedya kelib, oyim shunday deyapti deb aytdi. «Dmitriy Sergeich, mening xonamga kira qolaylik, – dedi Verochka. – Xonam xobgohdan ancha nari, gaplashsak xalaqit bermaymiz». Marya Aleksevnaning muddaosi, albatta, shu edi. Chorak soat o'tgach boshmoqlarini qoldirib, paypoqchan yurib Verochkaning eshigi orqasiga berkindi. Eshik qiya ochiq ekan; eshik bilan kesaki o'rtasida kattakon tirqish bor ekan, – Marya Aleksevna ko'zini shu tirqishga tikib, qulog'ini ding qildi.

Marya Aleksevna qarab shularni ko'rdi:

Verochkaning xonasi ikki derazalik bo'lib, derazalarning o'rtasiga yozuv stoli qo'yilgan. Bir deraza yonida – stolning bir tomonida Verochka, Marya Aleksevnaning buyrug'ini bajo keltirib, otasiga jundan nimcha to'qib o'tiribdi; ikkinchi deraza oldida, stolning naryog'ida Lopuxov o'tiribdi; bir tirsagini stolga tirab, qo'liga sigara ushlagan, ikkinchi qo'li cho'ntagida; u bilan Verochkaning oralig'i kam deganda ikki gaz keladi. Verochkaning ko'zi ko'proq to'qiyotgan nimchasida; Lopuxov esa ko'proq sigarasiga qaraydi. Demak, joylashishlari jihatidan tashvishlanmasa bo'ladi.

Marya Aleksevna quyidagilarni eshitdi:

– ...Turmushga shunday qarash kerakmi? – Marya Aleksevna gapni shu yeridan eshitdi.

– Ha, Vera Pavlovna, shunday.

– Demak, o'zini tutib olgan tajribali kishilarning, odam faqat o'z foydasini ko'zlab ish qiladi, degan gaplari to'g'ri ekan-da?

– Ular haq gapni gapiradilar. Olijanob tuyg'ular, yuksak orzular degan narsalarning hammasi hayotning umumiy jarayoni payti har bir kimsaning o'z foydasini ko'zlab intilishi oldida hech gapmas, bular ham aslida o'sha foydani ko'zlab intilishdan boshqa narsa emas.

– Mana siz, masalan, siz ham shundaymisiz?

– Bo'lmasa, qandayman, Vera Pavlovna! Yashashdan asosiy maqsadim nimaligiga quloq soling. Hayotim mazmuni hozirga qadar shu ediki, men o'qidim, mediklikka tayyorlandim. Juda

yaxshi. Otam nima uchun meni gimnaziyaga berdi? U doim: «O‘qi, Mitya, o‘qisang – amaldor bo‘lasan, men bilan onangni boqasan, o‘zingga ham yaxshi», deb qulog‘imga quyardi. Shuning uchun men o‘qidim; shu niyati bo‘lsa, otam meni gimnaziyaga bermasdi, axir, oilaga qarashadigan odam kerak edi. O‘zim ham o‘qishni yaxshi ko‘rsam, agar bir kun kelib mehnatim rohatini ko‘rishni o‘ylamasam, vaqtimni o‘qishga sarflab o‘tirarmidim? Gimnaziyada kursni tamomlay deb qolgandim; otamga meni amaldor qilishdan ko‘ra, Tibbiyot akademiyasida o‘qishimga ruxsat bering, deb yalinib-yolvorib, ko‘ndirdim. Qanday bo‘ldi deng, otam bilan bunday qarasak, mediklarning turmushi amaldorlar va boshqalarning turmushidan afzalroq ekan; men juda deganda idora boshlig‘i darajasiga ko‘tarilardim. Bilsangiz, Akademiyaga kirib qolishimga sabab shu – nonim butun bo‘lsin, dedim. Shu mo‘ljalim bo‘lmaganda, Akademiyaga ham kirmasdim, unda qolmasdim ham.

– O‘zingiz gimnaziyada o‘qishni yaxshi ko‘rib kirgan edingiz, keyin tibbiyot fanlarini yoqtirgan edingizmi?

– Shunday edi-ya, lekin bu – ziynatday bir narsa, ishing yurishib ketishiga ham foydasi bor; odatda ishingga bunday zeb bermasang ham bo‘ladi, lekin mo‘ljalsiz ish – ish ekanmi? Fanga ko‘ngil qo‘yish ishdan kelib chiqqan natija edi, xolos, lekin uning sababi emasdi; bitta sababi bor edi, u ham bo‘lsa – naf ko‘rish edi.

– Sizning gapingiz to‘g‘ri deb faraz qilaylik, – xo‘p, siz haqsiz. Men tekshirib ko‘ra oladigan hamma xatti-harakatlarning sababi naf ko‘rish bo‘lsin, lekin bu bir nazariya-ku.

– Nazariyaning o‘zi shunaqa oddiygina bo‘lishi kerak. Aql-idrok sovuqqonlik bilan hukm chiqarishi lozim.

– Lekin, u shafqatsiz nazariya.

– Puch va zararli xomxayollarga, shafqatsiz.

– Lekin bu oddiy, zavq-shavqsiz, jo‘n nazariya. Qofiyador nazm shakli fan uchun yaramaydi.

– Demak, men tan olmasligim mumkin bo‘lmagan bu nazariya kishilarini kundalik yoqimsiz, zavq-shavqsiz oddiy hayotga mahkum qilar ekan-da?

– Yo‘q, Vera Pavlovna: bu zavq-shavqsiz, oddiy nazariya bo‘lsa ham odamlarni harorat tomon yo‘llaydi. Gugurt sovuq, gugurt qutichaning chaqiladigan joyi sovuq, o‘tin sovuq, lekin

bulardan olov chiqadi, olov odamga issiq ovqat tayyorlab beradi va o'zini isitadi, bu nazariya shafqatsiz, lekin odamlar shu nazariyaga amal qilsalar, behuda rahm-shafqatga sabab bo'lgan ayanch ahvoldan qutuladilar. Nishtar bukilib ketmasligi kerak – aks holda bemorga achinib ketasiz, ammo siz achinganingiz bilan uning dardi yengillashmaydi. Bu – oddiy nazariya, lekin u hayotning asl mohiyatini ochib beradi, poeziya hayot haqiqatidir. Nima uchun Shekspir buyuk shoir? Sababi shuki, unda boshqa shoirlarga qaraganda haqiqati ko'proq, xom xayollar esa kamroq.

– Dmitriy Sergeich, u holda men ham shafqatsiz bo'laman, – dedi Verochka kulib, – siz ham meni o'z manfaatimni ko'zlayman, degan nazariyamga juda qarshi edi, endi uni bu nazariyaga muxlis qilib oldim, deb xom xayol surib yurmang. Siz bergan kitobdan o'qib, og'zingizdan eshitganimdan buyon o'zim ham allaqachondan buyon shunday deb o'ylab yurgandim. Lekin bular hammasi shaxsiy fikrim, aqlli va o'qimishli odamlar boshqacha o'ylasa kerak, deb o'ylab xayol qilib yurardim. Ikkilanib yurganim ham shundan edi.

Ba'zan o'qigan narsalaring hammasi o'zingda va boshqalarda ko'rgan narsalaringga zid kelardi, hamma narsa yomonga chiqarilib, nuqul kinoya-istehzolardan iborat bo'lardi. Qarasang, tabiat, hayot, aql-farosat bir tomonga qarab tortsa, kitoblar boshqa tomonga qarab tortardi: bu yomon, bu tubanlik, deyishardi. Bilsangiz, sizga bildirgan e'tirozlarim qisman o'zimga kulgili tuyulardi!

– To'g'ri, Vera Pavlovna, ular kulgili.

– Lekin, – dedi Vera Pavlovna kulib, – biz bir-birimizga juda xushomadgo'ylik qilib yubordik. Men sizga: Dmitriy Sergeich, xudo xayringizni bersin, juda ham dimog'ingiz shishib ketmasin, deyman, siz bo'lsangiz menga, Vera Pavlovna, sizning shubhalaringiz kulgili, deysiz!

– Nima bo'pti, – deb Lopuxov ham kulib qo'ydi. – Bir-birimizga xushomadgo'ylik qilishimizdan foyda yo'q, shuning uchun ham unday qilmaymiz.

– Juda yaxshi, Dmitriy Sergeich; odamlar – shaxsiyatparast, shundaymi? Siz o'z xususingizda gapirdingiz, men ham o'z to'g'rimda gapirmoqchiman.

– Turgan gap; har kim ko'proq o'zini o'ylaydi.

– Yaxshi. Ko‘rarmiz, sizni o‘z to‘g‘ringizda o‘ylayotganingizda qo‘lga tushirib qolarman.

– Xo‘p, ko‘rarmiz.

– Unashib qo‘yilgan boyvachcha kuyovim bor. Unga ko‘nglim yo‘q. Men uning iltimosiga xo‘p deyishim kerakmi?

– O‘zingizga qaysi biri foydaliroq bo‘lsa, shunisini mo‘ljallab ish tuting.

– Qaysi biri foydaliroq bo‘lsami! Mening boyvachcha emasligimni o‘zingiz bilasiz. Bir tomondan, u kishiga ko‘nglim yo‘q, ikkinchidan – unga xo‘jayin bo‘lib, odamlar orasida obro‘ orttiraman, dasta-dasta pul, har qadamingda son-sanoqsiz muxlislar.

– Hammasini taroziga solib ko‘ring, qaysi biri sizga foydaliroq bo‘lsa, shunisini tanlang.

– Agar erimning boyligi-yu, son-sanoqsiz muxlislarni tanlasamchi?

– Shunday qilsangiz, nazaringizda manfaatingizga mosroq kelganini tanladingiz, deyman.

– Unda men to‘g‘rimda nima deyish lozim bo‘ladi?

– Yaxshilab o‘ylab ko‘rib, aql bilan ish qilgan bo‘lsangiz, o‘ylab ish qildingiz, pushaymon qilmasangiz kerak, deyishga to‘g‘ri keladi.

– Lekin qilmishimga yarasha tanbeh ham olamanmi?

– Har xil behuda narsalarni gapirib yuruvchi kishilar og‘ziga kelganini valdirashi mumkin; hayotga to‘g‘ri munosabatda bo‘la oladigan kishilar nimani lozim topgan bo‘lsangiz shunday qilishingiz kerak edi, deyishadi; sizki shunday qilgan ekansiz, demak, to‘g‘ri qilgansiz, aslida shaxsingiz shunday ekan, bunday vaziyatlarda sizning boshqacha usul qo‘llashingiz mumkin emas edi, deyishadi, ular, siz zaruratga qarab ish qildingiz, aslini aytganda, boshqa ilojingiz ham yo‘q edi, deyishadi.

– Demak, qilmishim uchun hech bir koyishmaydimi?

– Fakt bor ekan, faktdan kelib chiqadigan xulosalarni noto‘g‘riga chiqarishga kimning haqi bor? Bu vaziyatda sizning shaxsingiz – fakt, qilmishlaringiz – bu faktdan muqarrar kelib chiqadigan tabiiy xulosalar. Bu xulosalar uchun siz javobgar emas, ularni noto‘g‘riga chiqarish esa ahmoqlikdir.

– Bunday qarasam, siz o‘z nazariyangizdan chetga chiqmayapsiz. Demak, agar men o‘ynashib qo‘ygan yigitimning taklifiga ko‘nsam, koyimaysizmi?

– Sizni koyib ahmoq emasman.

– Demak, o‘zim aytganday qilishimga ijozat berasiz, ehtimol, ma’qullarsiz, yoki maslahat berarsiz?

– Maslahat hamma vaqt bitta: o‘zingizga nafi tegadiganini tanlayvering; shu maslahatga amal qilsangiz, ma’qullash qochmaydi.

– Rahmat sizga. Mening shaxsiy ishim hal bo‘ldi. Endi birinchi, umumiy masalaga qaytamiz. Gapni shundan boshlagan edikki, inson zaruratga qarab ish tutadi, uning xatti-harakatlari atrofidagi muhitning ta’sir etishiga bog‘liq; kuchliroq ta’sirlar boshqalardan ustun chiqadi, degan edik; shu yerga yetganda inson xatti-harakatning kundalik hayotiga xos ahamiyati bo‘lsa, bu orzu-tilaklar naf deb ataladi, ularning odamdagi vasvasasi – naf mulohazalari deb ataladi; shuning uchun inson hamma vaqt o‘z foydasini ko‘zlab ish tutadi, deb muhokamamizni to‘xtatib qo‘ygan edik. Fikrlar munosabatini shunday bayon qilyapmanmi?

– Shunday.

– Ko‘rdingizmi, men juda yaxshi shogirdman. Endi kundalik hayotga xos ahamiyati bor xatti-harakat haqidagi juz’iy masala tamom. Lekin umumiy masaladagi qiyinchiliklar hali bartaraf bo‘lgani yo‘q. Sizning kitobingizda bunday deyilgan: inson zaruratga qarab ish tutadi, lekin shunday hollar ham bo‘ladiki, unday yoki bunday ish tutishim o‘z ixtiyorimda bo‘lganday tuyuladi. Masalan: men chalib turib, nota sahifalarini varaqlayman; bu ishni ba’zan o‘ng qo‘lim bilan, ba’zan chap qo‘lim bilan bajaraman. Hozir o‘ng qo‘lim bilan varaqladim, deb faraz qilaylik: chap qo‘lim bilan varaqlashim mumkin emasmidi? Bu o‘z ixtiyorimga bog‘liq emasmi?

– Yo‘q, Vera Pavlovna, siz qaysi qo‘l bilan varaqlashni o‘ylamay varaqlaydigan bo‘lsangiz, qaysi biri qulay bo‘lsa, shu qo‘lingiz bilan ag‘darasiz, bu beixtiyorlik emas; agar siz o‘ng qo‘lim bilan varaqlay qolay, deb o‘ylasangiz, – shu fikr ta’sirida varaqlaysiz, lekin bu fikr sizning ixtiyoringiz bilan paydo bo‘lgan fikr emas; bu fikr zarurat tariqasida boshqa fikrlardan kelib chiqdi...

Lekin shu yerga yetganda Marya Aleksevna gapga quloq solishni bas qildi: endi olimlikka berilib ketishdi, – bulariga tishim ham o‘tmaydi, menga keragi ham yo‘q. O‘zi juda ham aqlli, bama’ni, olijanob desa bo‘ladigan yigit ekan-da! Verochkaning

qulog'iga quyayotgan ajoyib gaplarini qarang-a! Bilimdon odam degani shu ekan-da: agar shu gaplarni Verochkaga men gapira boshlasam bormi – gapimga quloq solmaydi, xafa bo'ladi: unga gapimni o'tkazolmayman, chunki o'qimishli odamlarday gapirishni bilmayman. Dmitriy Sergeich olimona gaplar bilan uqtiryapti, Vera bo'lsa gapiga quloq solib o'tiribdi, gaplari haq ekanligiga tushunib, uning fikriga qo'shilyapti. Bilim – nurdir, bilimsizlik – zulmat, deb bekorga aytmaganlar. Nima bo'lganda ham men tarbiya ko'rgan xotin bo'lganimda, hozirgiday kunga qolib yurarmidim? Erimni generallikka ko'tarardim, uni oziq-ovqat tepasidan mutasaddi qilib qo'yardim yoki shunga o'xshash biron ish topib berardim. Albatta, uning o'rniga pudratchilar bilan o'zim ish olib borardim. U nimani ham bilardi, hech narsada yo'q! Qurganda ham, bunaqa uy qurmasdim. Ming-minglab krepostnoy dehqon sotib olardim. Endi qo'limdan kelmaydi. Avval generallar davrasida o'zimni ko'rsatishim kerak; na fransuzchani va na biron boshqa tilni bilmaganimdan keyin, qanday qilib o'zimni ko'rsata olardim? Yurish-turishni ham bilmas ekan, og'zidan bodi kirib shodi chiqadi, deyishadi. Ha, hech narsaga yaramayman. Ilmsizlik – zulmatdir. Juda to'g'ri aytganlar: «Bilim nurdir, ilmsizlik – zulmat».

Marya Aleksevna quloq solib bu gaplarni eshitar ekan, unda Verochkaning Dmitriy Sergeich bilan hamsuhbat bo'lishidan zarar yetmaydi, – Marya Aleksevna ilgari ham shunday o'ylab yurardi, – qaytaga foydasi tegadi, Verochkaning yoshlarga xos ahmoqona fikrlaridan qutulib, tezroq Mixail Ivanich bilan nikohlanishiga ham yordami tegadi, degan ishonch paydo bo'lgandi.

IX

Marya Aleksevnaning Lopuxovga munosabati bamisoli bir hajviya-yu, Marya Aleksevna unda kulgili bir ahvolga tushuvchi qahramon. Unisiga ham, bunisiga ham mening irodamga mutlaqo qarshi. Agar men bizda badiiyat deb ataladigan narsa to'g'risida jonbozlik ko'rsatishni niyat qilsam edi, Marya Aleksevnaning Lopuxovga munosabatini yashirib ketardim, chunki ular haqidagi hikoya romanning bu qismini vodevilga o'xshatib qo'yadi. Uni yashirib ketish hech gap emasdi. Busiz ham voqea mazmunini

bayon qilsa bo‘lardi. O‘qituvchi Marya Aleksevna bilan inoqlashmasdanoq, har zamon-har zamonda dars berayotgan oiladagi qizga bir-ikki og‘iz gap aytsa nima bo‘pti? Muhabbatni avj oldirish uchun ko‘p gap kerak, deysizmi? Verochkaning Lopuxov bilan uchrashuvlarining oqibati shunday bo‘lishi uchun Marya Aleksevnaning hech qanday yordami kerak emasdi. Lekin men bu voqeani badiiy shuhrat qozonadigan qilib emas, qanday bo‘lsa shunday bayon qilyapman. Bir necha sahifani vodevil darajasiga tushirib qo‘yadigan qilib yozganimdan romanist sifatida o‘zim ham juda xafaman.

Voqeani o‘zim uchun qulayroq bir ko‘rinishda hikoya qilmasdan, qanday bo‘lgan bo‘lsa shunday hikoya qilmoqchi bo‘lgan ekanman, buning men uchun yana bir ko‘ngilsiz tomoni bor: Marya Aleksevnani uning Lopuxov to‘qib chiqargan qallig‘i to‘g‘risida, Lopuxovning Verochkaga keltirgan kitoblariga ajoyib-g‘aroyib mazmun to‘qigani haqida, Filipp Egalite kishilarni papa diniga kiritganmi, Lyudovik XIV qanday asarlar yozgan, deganday qiziq-qiziq muhokamalar yuritadigan kulgili ayolday tasvirlaganim o‘zimga hech yoqmaydi. Har kim ham xato qilishi mumkin, agar kishi o‘zi bilmagan tushunchalar haqida muhokama yuritsa, hech bir aqlga to‘g‘ri kelmaydigan xatolar qilishi turgan gap; lekin Marya Aleksevnaning shu bema’ni gaplaridan uning Lopuxovni yoqtirib qolganiga sabab ham shu yanglish mulohazalari, degan xulosaga kelish insofdan emas: yo‘q, agar u Lopuxovning asli yurish-turishi va so‘zlarida biron shubhali narsa sezib qolguday bo‘lsa, boy qalliq va Filipp Egalitening taqvodorligi haqidagi har qanday xayollar ham Marya Aleksevnani g‘aflatda qoldirolmasdi. Lekin Marya Aleksevnaning fikricha, Lopuxov toifasidagi kishi o‘zini qanday tutishi lozim bo‘lsa, Lopuxov ham aslida o‘zini shunday tutardi; u yosh, sho‘x yigit bo‘lsa-da, do‘ndiq qizning siynasiga ko‘z tashlamadi, orqasidan ergashib yurmadi, har gal Marya Aleksevna bilan qarta o‘ynar ekan, qolishga biror bahona izlamadi, «Vera Pavlovna bilan o‘tirsam degandim», deb og‘iz ochmadi, biron masala haqida fikr bildirganida, Marya Aleksevnaning ko‘nglidagi gaplarni aytardi; Marya Aleksevnaday, dunyoda hamma o‘zim bo‘lay deydi, ayyor ayyorligini qilganda kuyib-pishib, bu dog‘uli or-nomusni bilmaydi, deb dod-voy ko‘tarishning keragi yo‘q,

dog‘ulining ayyorligi ham bejizmas, uning asli ahvoli-ruhiyasi shunday, uning dog‘ulilik qilmasligi, – bunga iloji yo‘qligini gapirmaganida ham, bema’nilik, ochiqdan ochiq ahmoqlik bo‘ladi, derdi. Marya Aleksevna, Lopuxovning ko‘p jihatlari o‘zimga o‘xshaydi, deb to‘g‘ri aytardi.

Lopuxov Marya Aleksevnaning fikrini quvvatlasa o‘qimishli xaloyiq nazarida obro‘si ancha tushib ketishini bilaman. Lekin, garchi men Lopuxovning Rozalskiylar oilasiga munosabatidagi yomon tomonlarini yashirishim ham mumkinligini isbotlagan bo‘lsam ham, birovni erkalamoqchi ham, Lopuxovning sha’niga dog‘ tushiradigan bu holni yashirmoqchi ham emasman, men hatto Lopuxov – Marya Aleksevnani o‘ziga iydirib olgani edi, deb buning sabablarini ham o‘zim ko‘rsatib bermoqchiman.

Darhaqiqat, Lopuxovning Verochka bilan suhbatlaridan shu narsa ma’lum bo‘lmoqdaki, Lopuxovning fikr tarzi har xil chiroyli g‘oyalarga tarafdor shirinso‘z partizanlardan[1] ko‘ra Marya Aleksevna singari kishilarga tezroq manzur bo‘larkan. Chiroyli g‘oya partizanlaridan boshqa, butun xaloyiq masalani qanday tasavvur qilsa, Lopuxov ham shunday tasavvur etardi. Agar Marya Aleksevna Storeshnikovning og‘iz solish masalasida Lopuxovning Verochka qulog‘iga quyayotgan gaplarini o‘z tili bilan jon deb takrorlay olganda edi, Lopuxov ham Marya Aleksevnaning mastligida Verochkaga qilgan tavba-tazarrularini ham bajonidil «haq gap» deb topardi. Ularning tushunchalari bir-biriga shu qadar o‘xshardiki, bunday ko‘rgan o‘qimishli va olijanob romanchilar, jurnalistlar va xaloyiqqa nasihatgo‘ylik qiluvchi boshqa zoti oliylar allaqachon: «Lopuxov singari kishilarning Marya Aleksevna singarilardan hech bir farqi yo‘q», deyishgandi. Shu darajada ma’rifatli va olijanob yozuvchilar Lopuxov singari odamlarni shunday tushunganlaridan keyin, eng yaxshi yozuvchilarimiz, mutafakkirlarimiz va nasihatgo‘ylarimiz Lopuxov singari odamlardan topgan illatlardan boshqa illat topolmagani uchun nahotki shunga Marya Aleksevnani yomonotliq qilib o‘tirsak?

Agar Marya Aleksevna bu yozuvchilar bilgan narsalarni yarmini bo‘lsa-da bilganda edi, Lopuxov tengim emas ekan, deb

---

[1] Bu o‘rinda xalqqa dushmanligini «chiroyli g‘oyalar» niqobi ostida yashiradigan liberallar nazarda tutiladi.

mulohaza qilishga aqli yetardi, albatta. Lekin, yana shunisi ham borki, Marya Aleksevna o‘qimagan xotin, xato qilsa, boshqa uzri ham bor: Lopuxov u bilan gapni chala qilardi. Lopuxov targ‘ibotchi edi, lekin targ‘ibotchi bo‘lganda ham, u o‘zlari mahliyo bo‘lgan olijanob tushunchalarni doimo Marya Aleksevna singarilarning miyasiga quyish payida yurgan chiroyli g‘oya qurbonlaridan emasdi. U ellik yashar daraxtni to‘g‘rilab bo‘lmasligini biladigan fahm-farosatli odam edi. U ham, Marya Aleksevna ham faktlarni bir xilda tushunishar, bir xilda tahlil qilishar edi. Lopuxov nazariy jihatdan savodxon odamlar kabi faktlardan xulosa chiqarishni bilardi, holbuki bu narsa Marya Aleksevna singari kishilarning qo‘lidan kelmasdi, bunday kishilar kundalik shaxsiy tashvishlardan va avom xalq o‘rtasidagi umuminsoniy donishmandliklarga xos siyqasi chiqqan aforizmlar, maqollar, matallar, shunga o‘xshagan hikmatli so‘zlardan boshqani bilmasdi. Lekin ularda xulosa chiqarish zarurati ham tug‘ilganmasdi. Masalan, agar Lopuxov Verochka bilan gaplashib, kelgan «naf» degan so‘zning nimaligini tushuntirmoqchi bo‘lsa, ehtimol, Marya Aleksevna bu nafdan chiqadigan nafning o‘zi bilan foydaga o‘xshash yeri yo‘qligini tushunib, labini jiyirishi mumkin, lekin Lopuxov tushuntirgani yo‘q. Verochka bilan gaplashganida ham bu tomonlarni tushuntirmagan, chunki Verochka bilan Lopuxov qaysi kitob ustida gaplashgan bo‘lsa, o‘sha kitoblarda bu so‘z qaysi ma’noda ishlatilganini Verochka bilardi. Albatta, Lopuxov Marya Aleksevnaning mastligida aytgan dard-anduhlarini «haq gap» deb topish bilan birga yoniga yana qo‘shib bunday degan bo‘lardi: «Marya Aleksevna, yangi tartiblarning eskilaridan yaxshiligiga o‘zingiz tan berganingiz uchun, men bu yangi tartiblarni yoqtiruvchi kishilarning bunday yangi tartib o‘rnatishlarini man qilmayman; lekin siz yangi tartib o‘rnatilishiga to‘sqinlik qilyapti, deb bilgan kishilarning betamizligiga kelsak, bu betamizlik haqiqatan ishga g‘ov bo‘lib turibdi; lekin Marya Aleksevna, odamlar aqlini yig‘ib olsa o‘zlariga yaxshi bo‘lishini, ilgari bunga ehtiyoj sezilmaganini payqalsa, ular tez kunlar ichida aqlini yig‘ib olishi ustida o‘zingiz ham bahslashib o‘tirmaysiz; ilgari ularning aql-farosatli bo‘lishga iloji ham yo‘q edi, ularga imkon berilsa, bu imkoniyatdan darhol foydalanishlari turgan gap, desam, bu fikrimga ham qo‘shilasiz, derdi. Lekin Marya Aleksevna bilan

suhbatlarida ham bular haqida gapirmagandi, juda ehtiyotkor odam bo'lsa ham, shu ehtiyotkorligi tufayli emas, balki shunchaki bama'ni va boodobligidan shunday qildi, u bilan lotincha gaplashmagani, tibbiyot sohasida eng so'nggi, o'zi uchun juda qiziq yangiliklar haqidagi muhokamalari bilan Marya Aleksevnaning miyasini qotirishni lozim ko'rmagani ham shundan: o'zi biron kishini tushunish qiyin bo'lgan deklamatsiyalar bilan qiynamaydigan bama'ni va boodob kishi edi.

Lekin bu gaplarni Lopuxovning kimligini o'z vaqtida payqab olmagan Marya Aleksevnaning befahm-befarosatligini ma'zur ko'rish uchun gapirayotibman, lekin aslo Lopuxovni oqlash niyatim yo'q. Lopuxovni oqlash yaxshi gap bo'lmasdi, nega yaxshi gap bo'lmasligini quyida ko'ramiz. Uni oqlamay odamgarchilik yuzasidan uning qilmishlarini ma'zur tutmoqchi bo'lgan kishilar ham ma'zur tutolmasdi. Masalan, ular ma'zur tutib, Lopuxov medik edi, tabiiyot fanlari bilan shug'ullanardi, bu esa uni masalaga materialistik asnoda qarashga moyillashtirardi, deyishadi. Lekin bunday uzr juda yomon edi. Masalaga bunday qarashga moyillashtiruvchi fan oz deymizmi? Matematika fanlari bor, tarix fanlari bor, ijtimoiy fanlar bor, yana boshqa fanlar ham bor. Ajabo, hamma geometriya olimlari, astronomlar, hamma tarixchilar, siyosiy iqtisodchilar, yuristlar, publitsistlar va boshqa har turli olimlarning hammasi ham materialist bo'lib ketavergan, deysizmi? Sira ham unday emas-da. Xullas, Lopuxovning gunohi kechirilmas gunoh. Uni oqlamasalar ham, lekin unga achinadigan kishilar, undan uzr so'rab, ba'zi bir maqtashga arziydigan xislatlaringiz ham yo'q emas, deb aytishlari mumkin: boshqalarning foydasini deb har qanday huzur-halovat va shon-sharafdan ko'ra-bila turib qat'iy voz kechishga qaror qilibsiz, shu ishingizdan ko'radigan rohatingizni har qanday foydadan afzal ko'rasiz, deb aytishlari mumkin; sevib qolgan ajoyib yoqimtoy qiziga shu qadar beg'ubor, pok nazar bilan qaradiki, singlisiga bunday qaraydigan akalar ham kamdan kam topiladi; lekin uning materializmidan uzr so'rashga qarshi shunday e'tiroz bildirish kerakki, dunyoda umuman bironta bo'lsa-da yaxshi xislatdan mahrum kishi topilmaydi, materialistlar qanday kishilar bo'lsa ham, baribir, materialistlardir, shuning o'ziyoq ular ma'zur ko'rishga arzimaydigan pastkash va axloqsiz kishilar, ularni

ma'zur ko'rish materializmga yo'l qo'yish demakdir, degan qarorga kelish va buni isbot qilishdir. Demak, Lopuxovni oqlamasdan turib uning gunohini kechirish mumkin emas, uni oqlash ham yaxshi emas, chunki chiroyli g'oyalarni yaxshi ko'radigan olijanob niyat homiylari, materialistlari pastkash va axloqsiz kishilarga chiqargan shu zotlar keyingi vaqtlarda aql jihatidan ham, fe'l-atvor jihatidan ham barcha bama'ni kishilarga, materialistlarga ham, materialist bo'lmaganlarga ham o'zlarini shu qadar yaxshi ko'rsatib qo'ydilarki, biron kishini ularning tanbehidan himoya qilish ortiqcha bir narsa bo'lib qoldi, ularning gapiga e'tibor berish hatto uyat hisoblanadi.

X

Verochka bilan Lopuxov suhbatlarining asosiy mazmuni, albatta, qaysi fikr tarzini to'g'ri deb hisoblamoq kerak, degan masala emasdi, ular umuman bir-birlari bilan juda kam gaplashishardi, ahyon-ahyon uzoq suhbatlashib qolishsa, gaplari faqat fikr tarzi va shu kabi mazmundagi boshqa masalalar ustida bo'lardi. Bir juft o'tkir ko'z ularni qattiq ta'qib etib turishni ham bilishardi, shuning uchun o'rtalaridagi asosiy masala bo'yicha odatda fortepyano chalish va qo'shiq aytish uchun nota qidirgan vaqtlarida bir-birlariga bir necha og'iz gap aytib olishardi. Kamdan kam bo'ladigan uzoq suhbatlarida juda oz, hatto qisqa suhbat payti ham birozgina vaqt oladigan bu asosiy masala bo'lsa, ularning bir-biriga bo'lgan tuyg'usi emasdi, – yo'q, ular bayram kechasidagi birinchi suhbatlarida bir-birlariga aytgan dastlabki noaniq gaplaridan keyin his-tuyg'ulari haqida og'iz ham ochganlari yo'q: ularning bu xususda gaplashishga vaqtlari ham bo'lgani yo'q; birov quloq solmayaptimikin, deb hadiksiramay bir-birlarining fikrlarini eshitish uchun g'animat ikki-uch daqiqalik vaqtda boshqa masala ustida zo'rg'a gaplashib olishardi, shu bilan o'z tuyg'ulari haqida gaplashishga vaqtlari ham qolmasdi, gaplashgilari ham kelmasdi, – bular Verochkani hozirgi og'ir va mudhish ahvoldan qachon va qanday qutqarish to'g'risidagi tashvish va xayollar edi.

Lopuxov Verochka bilan dastlabki gaplashganidan keyingi kun ertalabdanoq Verochkaning aktrisalikka kirish uchun ishni nimadan boshlash kerakligini surishtiradi! Aktrisalik yo'lida

ko'p xavf-xatarlarni bosib o'tish lozimligini Lopuxov bilardi. Verochka matonatli qiz, o'z yo'lini topib olish qo'lidan keladi, deb o'ylardi. Lekin u o'ylaganday emas ekan. Ikki kundan keyin u darsga kelganida Verochkaga: «Maslahatim shuki, aktrisa bo'lish niyatingizdan qayting», deyishga majbur bo'ldi. «Nima uchun?» – «Chunki, yaxshisi, unashgan kuyovingizga erga chiqqaningiz ma'qul», dedi. Shu bilan gap tamom bo'ldi. Bu gap Verochka bilan Lopuxov nota olayotganda, u fortepyano chalish, Verochka bo'lsa ashula aytish uchun nota tanlayotganda bo'lgan edi. Verochka nihoyatda tanish bir pyesani aytayotgan bo'lsa ham ruhan tushib, bir necha marta taktdan adashib ketdi. Pyesa tamom bo'lib, endi qanaqasini tanlasak ekan, deb gap boshlashgan edi, Verochka: «Menga shunisi eng yaxshiday ko'ringan edi, mumkin emasligini bilib ruhim tushib ketdi. Ha, mayli, qiynalib bo'lsa ham bir kunimni ko'rarman. Murabbiyalik qilarman», dedi.

Lopuxov yana ikki kundan keyin Verochkalarnikiga kelganda, qiz:

– Kimning yordami bilan murabbiyalikka kirishimni ham bilmay qoldim. Dmitriy Sergeich, siz jonkuyarlik qilmasangiz, boshqa hech kimim yo'q, – dedi.

– Afsuski, bu ishda foydasi tegadigan tanish-bilishlarim oz. Men bergan yoki hozir dars berayotgan odamlar boy-badavlat emas, ularning tanish-bilishlari ham shunaqa, lekin shunda ham bir harakat qilib ko'raman.

– Do'stim, vaqtingizni olaman, boshqa iloj yo'q.

– Vera Pavlovna, men do'stingiz bo'lganimdan keyin, vaqtim to'g'risida gapirib o'tish ortiqcha.

Verochka kulib, qizarib ketdi: «Dmitriy Sergeich» deyish o'rniga qanday qilib «do'stim» deb yuborganini o'zi ham bilmay qolgan edi.

Lopuxov ham iljayib qo'ydi.

– Vera Pavlovna, siz bunday demoqchi emasdingiz, shunday deb ataganingizga afsuslanadigan bo'lsangiz, qo'ygan nomingizni qaytarib ola qoling.

Verochka tabassum qildi.

– «Fursat o'tdi», – dedi-yu, qizarib ketdi, – afsus ham qilmayman, – deb battar qizarib ketdi. – Kerak bo'lsa sodiq do'stligimni ko'rib qolarsiz.

Bir-birlarining qo'llarini qisishdi.

O'sha kechadan keyingi dastlabki ikki suhbatda bo'lgan gaplar shular.

Oradan ikki kun o'tgach, «Politseyskiye vedomosti»da – «Fransuzchani, nemischani va hokazoni biladigan oliynasab qiz murabbiyalikka joy qidirib yuribdi, u haqda falon chinovnikdan, Kolomnada, ko'chadagi uydan so'rab bilish mumkin» degan e'lon bosilib chiqdi.

Endi Lopuxov chindan ham ko'p vaqtini Verochkaning ishiga sarflashi lozim bo'ldi. Har kuni erta bilan, ko'pincha piyoda Viborg tomondan Kolomnaga o'z tanishinikiga borib turdi. E'londa shu tanishining manzili ko'rsatilgan edi. Yo'l uzoq, lekin Viborg tomonda bundan yaqinroq boshqa tanishi yo'q; tanish bo'lgani bilan boshqa bir qancha shartlari ham to'g'ri kelishi lozim: kvartirasi yaxti bo'lishi, oila shart-sharoitlari ko'ngildagidek ko'rinishi, izzat-ikromli oila bo'lishi kerak edi. Oila kambag'al bo'lsa, oqibati shu bo'ladiki, murabbiyaga taklif etilgan shart-sharoit uncha tuzuk bo'lmaydi; tavsiya qiluvchi zot mo'tabar bo'lmasa va oila sharoiti yaxshiligi ochiq ko'rinib turmasa, tavsiya qilinayotgan qiz haqidagi fikr ham uncha tuzuk bo'lmaydi. Lopuxov e'londa o'z manzilini ko'rsatishi aslo mumkin emas: talabadan boshqa g'amxo'rlik qiladigan kishisi bo'lmagan qiz to'g'risida nima deb o'ylashlari mumkin, deysiz! Shu boisdan Lopuxov ancha-muncha yo'l bosardi, chinovnikdan murabbiya qidirib kelganlarning manzillarini olib, yana yo'lida davom etardi: chinovnik, bu qiz mening uzoq qarindoshim bo'ladi, men faqat vositachiman xolos, qizning jiyani bor, u o'zi ertaga izvoshda borib batafsilroq gaplashadi, derdi. Jiyan bo'lsa izvoshdamas, piyoda borardi, odamlarga razm solib ko'rardi-da, albatta, ko'pincha uy sharoitini yoqtirmasdi: bir oiladagilar juda dimog'dor bo'lsa, boshqa bir oilada – ona yaxshi bo'lsa ham ota ahmoq, uchinchisida, aksincha, va hokazo; ba'zi biri tursa bo'ladigan oila-ku, lekin shart-sharoiti Verochkaga to'g'ri kelmasdi: yo ingliz tilini bilishi kerak bo'lardi, Verochka bu tilni bilmasdi; yoki aslida murabbiya emas, enaga yollashmoqchi, yo bo'lmasa oiladagi kishilar har jihatdan yaxshi-ku, lekin kambag'al, xonadonda bolalar xonasidan boshqa murabbiya uchun xona yo'q; bolalar xonasida ikki katta bola, ikki go'dak, enaga va emizuvchi xotin

turarmish. «Politseyskiye vedomosti»da bo'lsa e'lon chiqaverdi, murabbiya izlab yurganlar ham kelib turdi, Lopuxov ham umidini uzmadi.

Ikki hafta ana shu taxlitda jon izlash bilan o'tdi. Lopuxov beshinchi kun Peterburg bo'ylab joy izlab kelib, kushetkasida uzala tushib yotgandi, Kirsanov gap qotdi:

– Dmitriy, ishda menga yomon o'rtoq bo'lib qolding-ku. Har kun ertalab ketganingcha kun bo'yi daraging bo'lmaydi. Kechqurunlari ham yarim kechada kelasan. Darsni ko'p oldingmi, deyman? Hozir ko'p dars oladigan vaqtmi? Men olgan darslarimni ham tashlamoqchi bo'lib turibman. Qirq so'mcha pulim bor – kurs tamom bo'lguncha – uch oyga yetadi. Sening jamg'argan puling bundan ham ko'proq, yuz so'mcha bor shekilli?

– Ko'proq, yuz ellik so'mcha. Dars berayotganim yo'q, hammasini tashladim, faqat bir yerda darsim bor. O'zim bir ish bilan yuribman. Shu ishimni bitirsam, mendan qolib ketyapsan, deb shikoyat qilmaysan.

– Qanaqa ish ekan?

– Haligi, bir yerda darsim qolgan, degan joydagi oila juda bemaza bir oila, shu oilada bir bama'ni qiz bor. Oilasidan chiqib ketib murabbiyalik qilmoqchi. O'sha qizga joy qidirib yuribman.

– Yaxshi qizmi?

– Yaxshi qiz.

– Unday bo'lsa, yaxshi. Qidiraver. – Shu bilan gap tugadi. Kirsanov va Lopuxov janoblar-e, o'qimishli odamlar bo'lsangiz ham, ayniqsa nimasi yaxshiligiga fahmingiz yetmadi-ya! Siz aytgan narsa ham yaxshi deb faraz qilaylik. Kirsanov qizning o'zi qalay, yaxshiginami, deb so'rashni xayoliga ham keltirgani yo'q, Lopuxov bo'lsa buni aytishni lozim ko'rmadi ham. Kirsanov: «Bu deyman, oshiq bo'lib qolgan bo'lmagin yana, harakating juda zo'r-ku», deb so'rashni esiga ham keltirmadi. Lopuxov bo'lsa: «Og'ayni, uni juda yaxshi ko'rib qoldim», deb aytishni o'ylamadi ham, yoki buni xayoliga keltirmagan bo'lsa, tag'in shunday deb o'ylab yurmasin, oldini olib qo'yay, deb: «Aleksandr, tag'in u qizni yaxshi ko'rib qolibdi, degan xayolga bormagin», deb qo'yishni ham lozim topmadi. Ko'rdingizmi, ikkalasi ham, gap biron kishini yomon ahvoldan qutqarish ustida borganda, u yosh qiz bo'lsa ham

chiroyli – chiroyli emasligining bu ishga hech qanday aloqasi yo'q, oshiqlik yoki oshiq emaslik haqida hech gap bo'lishi mumkin emas, deb o'ylashardi. Ular hatto shuni o'ylayapti, deb xayollariga ham keltirishmadi; buni o'ylayotganlarni payqamaganligi ham ularning eng yaxshi fazilatidir.

Aytgancha, farosatli kitobxonlar toifasi (o'taketgan adabiy sudyalarning ko'pchiligi – chunki ularning ko'pchiligi juda ham zehni o'tkir janoblar-ku) buni ko'rib, Kirsanov bilan Lopuxov estetik zavqi yo'q quruq odam ekan, deb o'ylamasmikan? Olijanob niyatli estetik adiblar o'rtasida «estetik zavq» degan ibora yaqinginalarda ham juda rasm edi, ehtimol, hozir ham ular o'rtasida rasmligicha qolgandir, – bunisini bilmayman, ularni ko'rmaganimga ancha vaqt bo'ldi. Yosh yigitlarda bir qatra bo'lsa-da did-farosat va ozgina dard degan narsa bo'lsa, qiz to'g'risida gapirganda uning chiroyiga qiziqmasligini tabiiy deb bilasizmi? Albatta, bunday kishilar badiiy tuyg'udan (estetik zavqdan) mahrumdirlar. Bizning estetik adiblarimiz toifasidan ko'ra estetik tuyg'uga boyroq doiralarga mansub odam tabiatini o'rganib chiqqan boshqa kishilarning fikriga qaraganda, yosh yigitlar bunday hollarda xotin zotining, albatta, eng nafis tomonlaridan gap ochadi. Avvallari shunday edi, janoblar, hozir bunday emas; hozir ham shunday-ku, lekin hozirgi yoshlar degan nomga bir o'zi sazovor bo'lgan yoshlar o'rtasidamas. Janoblar, bular g'alati yoshlar.

XI

– Xo'sh, do'stim, hali ham biron joy topilmadimi?

– Yo'q, Vera Pavlovna, hali topilgani yo'q; lekin tashvishlanmang, topiladi, har kun ikki-uch oilada bo'lyapman. Bir kun emas-bir kun tuzukroq, tursa bo'ladigan oila topilib qolar.

– Oh, do'stim. Men uchun bu yerda qolish naqadar og'irligini, qanchalar og'irligini bilsangiz edi. Men bu xo'rlikdan, bu g'urbatdan qutulish vaqti-soati yaqin qolganini bilmaganimda, murda singari hech nima sezmay o'zimni majbur qilib turgandim. Endilikda esa, do'stim, bu qo'lansa, dim havoda nafasim qisilib, bo'g'ilib ketyapman.

– Sabr qiling, sabr, Vera Pavlovna, topamiz!

Bir haftagacha shunday gaplar bo‘lib turdi.

Seshanba.

– Sabr qiling, sabr, Vera Pavlovna, topamiz!

– Do‘stim, sizni ham juda tashvishga qo‘ydim, qancha vaqtingiz bekor ketyapti! Qanday minnatdorchilik bildirishimni ham bilmayman!

– Do‘stim, jahlingiz chiqmasa, meni taqdirlaganingiz bo‘ladi.

Lopuxov shu so‘zlarni aytdi-yu, o‘zi uyalib ketdi. Verochka unga qarab qo‘ydi – yo‘q, gapni chala qoldirmadi, uni davom ettirish niyati ham yo‘q, Verochkadan javob kutyapti.

– Do‘stim, nega sizga jahl qilarkanman, nima yomon ish qildingizki!

Lopuxov battar uyalib, ma’yus tortdi.

– Nima bo‘ldi sizga, do‘stim?

– Payqamadingiz ham, – g‘amgin ko‘rinishda shunday dedi-yu, keyin xaxolab kulib yubordi. – Voy xudo-yey, men qanchalar tentakman-a! Do‘stim, meni kechiring!

– Xo‘sh, o‘zi nima gap?

– Hech narsa. Muzdimni to‘ladingiz.

– E, shunaqami! Juda qiziqsiz-da! Mayli, shunday deb atay qoling.

Payshanba kun Sakson Grammatik uslida gamletona sinov bo‘ldi. Shundan keyin Marya Aleksevna nazoratni to‘xtatib, o‘ziga biroz dam berdi.

Shanba. Choydan keyin Marya Aleksevna kirchi xotin yuvib kelgan narsalarni sanagani chiqdi.

– Do‘stim, ishimiz yurishib ketadigan ko‘rinadi.

– Rostdanmi? Qani endi... e, xudo, parvardigorim, tezroq ishimni o‘nglay qolsang-chi! Yana cho‘ziladigan bo‘lsa, tamom bo‘laman. Qachon, o‘zi qanday joy ekan?

– Ertaga hal bo‘ladi. Beshubha, bo‘ladigan ko‘rinadi.

– Qanday, qanaqa bo‘ladigan bo‘ldi?

– O‘zingizni mahkam tuting, do‘stim, bilib qolishadi! Xursand bo‘lganingizdan sal bo‘lmasa o‘ynab ketardingiz-a. Marya Aleksevna biron ish bilan kirib qolishi mumkin.

– O‘zingiz-chi! Eshikdan kirganingizda og‘zingiz qulog‘ingizda edi-ku, oyim sizga uzoq tikildi.

– Nima bo‘pti, men u kishiga nimadan xursandligimni aytdim, bir narsa deyish lozimligini sezib: «Juda yaxshi, bir joy topdim», deb qo‘ya qoldim.

– Ha, aldoqchi yigit, aldoqchi! Nuqul meni ogohlantirib yurasiz-u, shu damgacha biron narsa demadingiz, qani, endi gapiring, men ham eshitay axir.

– Bugun erta bilan Kirsanov, o‘rtog‘imning familiyasi Kirsanov ekanligini bilasiz-ku, do‘stim.

– Bilaman, aldoqchi yigit, bilaman! Nayrangbozlik qilmasdan tezroq ayting.

– Do‘stim, o‘zingiz gapirishga qo‘ymayapsiz-ku!

– Voy xudo-ye! Bor gapni aytish o‘rniga tanbeh berishini qarang-ku! Hozir xonasi emas, bo‘lmasa adabingizni berardim-a, – tiz cho‘ktirib qo‘yardim: bu yerda mumkin emas-da, uyingizga borganingizda tiz cho‘king, eshitdingizmi, buyrug‘im shu. Kirsanovingiz ko‘rsin-da, tiz cho‘kdi, deb menga maktub yozib yuborsin. Hali adabingizni berib qo‘yaman, eshityapsizmi?

– Xo‘p, tiz cho‘kaman. Endi gapirmayman. Jazomni tortib, gunohim kechirilgandan keyin tilga kiraman.

– Gunohingizni kechdim, aldoqchi yigit, tezroq gapira qoling.

– Rahmat sizga, Vera Pavlovna, o‘zingiz gunohkorsiz-u, yana birovning gunohidan o‘tasiz. Gapni bo‘lgan o‘zingiz.

– Yana Vera Pavlovnami? Bu nimasi? Do‘stingiz qayerda qoldi?

– Ha, do‘stim, bu ta’zir berish edi. Men sirkasi suv ko‘tarmaydigan, qahri qattiq odamman.

– Ta’zir berish, deysizmi? Hali ta’zirimni beradigan ham bo‘lib qoldingizmi? Gapingizni eshitgim yo‘q.

– Eshitgingiz yo‘qmi?

– Eshitgim yo‘q, albatta! Eshitmagan yana nimasini eshitishim kerak? Hammasini aytib bo‘ldingiz-ku; ishimiz bitay deb turibdi, ertaga hal bo‘ladi, dedingiz-ku, ko‘rdingizmi, do‘stim, siz o‘zingiz ham haligacha hech narsa bilmaysiz, yana nimasini eshitaman? Xayr, do‘stim!

– Gapimga quloq solsangiz-chi, do‘stim... Do‘stim, gapimga quloq solsangiz-chi!

– Quloq solmayman, bo‘ldi, ketdim. – Lekin qaytib keldi. – Qani, tezroq gapiring, gapingizni bo‘lmaganim bo‘lsin! E, xudo,

meni qanday xursand qilganingizni bilsangiz edi! Qani, qo'lingizni bering-chi. Qo'l qisishlarimni ko'ryapsizmi?

– Ko'z yoshiga nima bor?

– Rahmat sizga, minnatdorman.

– Bugun ertalab Kirsanov menga bir xonimning manzilini berdi, bu xonim meni ertaga kelib uchrashsin, debdi. O'zim uni tanimayman-u, lekin bu ishda vositachilik qilgan tanishimizdan u haqda juda ko'p eshitganman. Erini bilaman, haligi tanishimnikida u bilan juda ko'p ko'rishganman. Har jihatdan qaraganda ham shularning oilasida tursa bo'ladi, deb ishonaman. Xonim tanishimga manzilini berib, shart-sharoit masalasida kelisharmiz, deb o'ylayman, debdi. Demak, do'stim, ishimiz bitdi deb hisoblash mumkin.

– Juda yaxshi bo'lardi-da! Quvonchim ichimga sig'may ketyapti! – dedi Verochka. – Tezroq bilmoqchiman, mumkin qadar tezroq! U bilan uchrashganingizdan keyin to'g'ri biznikiga kelasizmi?

– Yo'q, do'stim, unday qilsam shubha tug'dirib qo'yaman. Axir, men sizlarnikiga faqat dars bergani kelaman-ku. Bo'lmasa bunday qilaylik. Men shahar pochtasidan Marya Aleksevnaga seshanba kuni darsga kelolmayman, darsni chorshanbaga ko'chiraman, deb xat yozib yuboray. Agar xatda: chorshanba kuni ertalabga, deb yozilgan bo'lsa, – ishimiz bitgan hisob; chorshanba kuni kechqurunga deyilgan bo'lsa, demak, bitmagan. Lekin «ertalabga» deb yozilishiga shubha qilmasa ham bo'ladi. Marya Aleksevna buni Fedyaga ham, sizga ham aytadi, Pavel Konstantinichga ham aytadi.

– Xat qachon keladi?

– Kechqurun.

– Shunchalik kech! Yo'q, ungacha sabr qilolmayman. Men xatdan «ha» degan narsani bilarmishman-u, shu bilan chorshanbagacha kutib o'tirarmishman! Bu azob-ku! Agar «ha» bo'lsa, tezroq o'sha xonimnikiga jo'nayman. O'sha zahoti bilmoqchiman. Buni qanday amalga oshirsa bo'larkin? O'sha xonimnikidan qaytishingizni ko'chada kutib o'tiraman.

– Do'stim, bu mening uylaringga kelishimdan ham battar ehtiyotsizlik bo'ladi-ku. Bo'lmasa, yaxshisi, o'zim kelib qo'ya qolay.

– Yo‘q, hali bu yerda gaplashishga iloj topolmay qolamizmi? Har holda oyimning ko‘nglida shubha tug‘iladi. Yaxshisi, men aytganday qilaylik. Yuzimga qalin to‘r tutaman. Hech kim tanimaydi.

– Ha-ya, darhaqiqat, shunday qilsa ham bo‘ladi, shoshmang, bir o‘ylab ko‘ray.

– O‘ylashga vaqt yo‘q. Hozir oyim kirib qolishi mumkin. U xonim qayerda turadi?

– Galernayada, ko‘prik yonida.

– Siz unikiga soat nechada borasiz?

– Soat o‘n ikkiga kelsin, debdi.

– Soat o‘n ikkida borib Konnogvardeyskiy xiyobonida, ko‘prikka yaqin yerda, eng chetdagi skameykada o‘tiraman. Yuzimga qalin to‘r tutib olaman, esingizda bo‘lsin. Bir dasta nota ushlab o‘tiraman. Agar u yerga vaqtida yetib bormasam, demak, biron ish bilan ushlanib qolishgan bo‘ladi... siz o‘sha skameykada kutib turing. Kechikishim mumkin, lekin, albatta, boraman. Yaxshi o‘ylab topibmanmi? Sizdan juda minnatdorman! Baxtim ochiladi! Dmitriy Sergeich, qallig‘ingizga nima bo‘ldi? Siz do‘stlikdan Dmitriy Sergeichga tushirildingiz. Mening qanchalar xursandligimni bilsangiz edi! – Verochka yugurib borib fortepyano chala boshladi.

– Do‘stim, bu san’atni yerga urish-ku! Didingiz juda pasayib ketibdi! Shataloq otaman, deb operani buzdingiz-ku!

– Buzildi, buzildi!

Bir necha daqiqadan keyin Marya Aleksevna kirib keldi. Dmitriy Sergeich bilan ikkovi preferans o‘ynashdi, avvaliga Dmitriy Sergeich yutdi, keyin ataylab yutqazdi, hatto o‘ttiz besh tiyin yonidan yutqazdi, – bu xonimning birinchi marta tantana tortiq qilishi edi, uni juda xursand qilib chiqib ketdi, pul bilan emas, balki tantana bilan xursand qilib chiqib ketdi: materializmga mukkasidan ketgan yuraklar ham sof, ideal quvonchga tashna bo‘ladi, buning isboti hayotni materialistik asosda ta’riflashning qoniqarli emasligidir.

XII

VEROCHKANING BIRINCHI TUSHI

Verochka tush ko'rganmish.

Tushida uni qop-qorong'i, zax zindonga qamab qo'yishganmish. Bir vaqt eshik ochilib, Verochka dalaga chiqib qolibdi, yugurib, o'ynoqlab yuribdi: «Qanday qilib zindonda tirik qolibman?» «Dalani ko'rmaganimdan bo'lsa kerak; dalani ko'rganimda zindonda o'lib ketardim», deb o'ylarmish-da, yana yugurib o'ynoqlarmish. Tushida falaj bo'lib yotganmish: «Nega falaj bo'lib qolibman? Keksa chollar, kampirlar shunaqa kasal bilan yotib qolishardi, yosh qizlar falaj bo'lmasdi-ku», deb o'ylarmish. «Bo'ladi, ko'p bo'lishadi, – dermish qandaydir notanish tovush, – sen endi sog'ayib ketasan, qo'lingdan tutsam sog'ayib ketasan, ko'rdingmi, sen sog'ayib qolding, tur o'rningdan», dermish. «Gapirayotgan kim? Juda yengil tortib ketdim-ku! Kasal ko'rgandek bo'lib qoldim», deb Verochka o'rnidan turib, yurib, yugurib ketganmish, yana dalada yurganmish, yana o'ynoqlab yurganmish... yana o'ylarmish: «Qanday qilib falajdan tuzaldim?» – «Sababi shuki, men falaj bo'lib tug'ilganman, qanday yurish, yugurishlarni bilmasdim; bilganimda falaj bo'lmasdim», dermish-da, yana o'ynoqlab yugurarmish. Bir vaqt qarasa, dalada bir qiz yurganmish, – qiziq! – yuzi ham, yurish-turishlari ham – hammasi o'zgararmish, beto'xtov o'zgarib turarmish; bir vaqt qarasa, u ingliz qizi, fransuz qizi, nemis qizi, polyak qizi, rus qizi, yana ingliz qizi, nemis qizi, yana rus qizi bo'lib qolarmish, ajab... nega hammasining yuzi bir taxlitda? Axir, ingliz qizi fransuz qiziga, nemis qizi rus qiziga o'xshamaydi-ku, uning yuzi o'zgarib tursa ham bir xildek tuyularmish, – juda qiziq! Yuz ifodasi ham tinimsiz o'zgararmish: munchayam ma'suma qiz ekan! Muncha ham badjahl ekan! Bir qarasang – xafa, bir qarasang – xursand, dam-badam o'zgarib turibdi! Lekin juda xushfe'l qiz, – jahli chiqqanida ham juda xushfe'l, bu qandoq bo'ldi? Lekin husnini tomosha qilsangiz-chi! Chehrasi o'zgargani sari tobora chiroyli bo'lib boryapti. Verochkaning yoniga kelibdi-yu: «Kimsan?» – debdi. «U ilgari meni Vera Pavlovna derdi, endi do'stim, deydi». «E,

meni yaxshi kurib qolgan Verochkamsan?» – «Ha, men sizni juda ham yaxshi ko'raman. Ammo siz o'zingiz kimsiz?» – «Men unashgan yigitingning qallig'i, bo'laman». – «Qaysi yigitimning?» – «Bilmadim. Men yigitlarimni bilmayman. Ular meni bilishadi-yu, lekin men ularni bilishim mumkin emas; yigitlarimning son-sanog'i yo'q. Sen birontasini o'zingga tanlab ol, lekin shulardan, mening yigitlarimdan tanla». «Men tanladim...» – «Ismining keragi yo'q, men ularni bilmayman. Lekin shulardan, mening yigitlarimdan tanla. Opa-singillarim va yigitlarim bir-birini tanlasin, deyman. Seni zindonga qamab qo'yishganmidi? Falaj bo'lib yotganmiding?» – «Ha». – «Endi qutuldingmi?» – «Ha». – «Seni men bo'shatib yubordim, men davoladim. Ozod bo'lmaganlar hali juda ko'pligini yodingdan chiqarma. Ularni ozod qil, davola. Shunday qilasanmi?» – «Ha, bo'shataman. Ismingiz nima? Biram bilgim kelyaptiki». – «Ismim ko'p. Har xil ismlarim bor. Kimki meni nima deb atamoqchi bo'lsa, unga ismim shunday deb ayta beraman. Sen meni insonlarga muhabbat, deb atay qol. Mening asli ismim shunday. Meni bunday ataydiganlar ko'p emas. Sen ham shunday deb atay qol». Bir vaqt, qarasa, Verochka shaharda yurganmish: zindonga ko'zi tushibdi, u yerga qizlarni qamab qo'yishganmish. Verochka qo'lini tegizishi bilan qulf uzilib tushibdi; «chiqinglar», debdi – qizlar chiqishibdi. Bir uymish, unda qizlar falaj bo'lib yotganmish; «turinglar», debdi, qizlar turib, yurib kelayotganmish, ular hammasi yana dalada emish, yugurishib, o'ynoqlab yurishganmish, hamma xursand! Yolg'iz o'zi yurgandan ko'ra, ular bilan birga bo'lsa, xursandroq ko'rinarmish! Juda kayfi chog'mish!

XIII

Keyingi vaqtlarda Lopuxov Akademiyadagi tanishlari bilan uchrashishga vaqt topolmay qoldi. Ular bilan ko'rishib turgan Kirsanovdan Lopuxovni so'raganlarida, boshiga tashvish tushib qolgan, ma'lum bo'lishicha, og'aynilaridan biri bir xonimning manzilini bergan, Lopuxov hozir shu xonimnikiga ketdi, dedi.

«Ishi o'ngidan kelsa, yaxshi joylashib oladi, – deb xayol surib borardi Lopuxov, – ikki yil, ko'pi bilan ikki yarim yildan

keyin o‘z kafedram bo‘ladi. O‘shanda turmush qurishim mumkin. Agar B. aytganday, yaxshi ayol bo‘lsa, hozircha B. nikida bemalol turaveradi, buning hech bir shubhalanadigan yeri yo‘q».

Darhaqiqat, Lopuxov surishtirib qarasa, B. xonim, garchi erining xizmati, o‘zining mol-dunyosi, nasl-nasabi jihatidan o‘zini juda baland tutishi mumkin bo‘lsa ham, lekin aqlli, xushfe’l, o‘zini katta tutmaydigan xotin ekan. Qo‘ygan shartlari joyida, oila sharoiti Verochka uchun juda mos ekan, – xullas, har jihatdan Lopuxovning ko‘nglidagiday ekan. B. xonim ham Verochkaning fe’li haqida Lopuxovning bergan javoblarini ma’qulladi; darrov ishlari bitib, kelishib olishdi, yarim soat suhbatlashganlaridan keyin, B. xonim: «Agar yosh xolangizga shartlarim ma’qul tushsa, ko‘chib kela qolsinlar, qancha tez bo‘lsa shuncha xursand bo‘laman», dedi.

– U rozi; xolam, men uchun rozilik bildira qol, deb menga vakolat bergan. Endi, gapni bir yerga qo‘yganimizdan keyin, sizga aytadigan bir masala bor, kelishib olmasimizdan ilgari bu haqda gaplashib o‘tirish behuda ish bo‘lardi. U qiz menga qarindosh emas, bir chinovnikning qizi, men ularnikida dars berib turaman. Bu qizning mendan boshqa ishonchli odami yo‘q. Lekin men unga butunlay begonaman.

– Msye Lopuxov, bundan xabarim bor. Siz, professor (B. xonim bu manzilni topib bergan tanishining familiyasini aytdi) va bu bilan shu ishingiz haqida gaplashgan o‘rtog‘ingiz bir-birlaringizni yaxshi biladigan juda pok odamlarsiz, sizlar yosh qiz bilan o‘rtangizdagi do‘stlik haqida bu qizning obro‘sini to‘kmasdan bemalol gaplashishingiz mumkin.

N. ning ham men to‘g‘rimdagi fikri shunday, murabbiya qidirib yurganimdan uning xabari bor bo‘lgani uchun, bu qizning sizga qarindosh emasligini aytishni lozim ko‘rgandi. Uni bu nojo‘ya ishi uchun koyimang, u meni juda yaxshi biladigan odam. Men ham halol odamman, msye Lopuxov, kimni hurmat qilish lozimligini bilaman, ko‘nglingiz to‘q bo‘lsin. Men o‘zimga qanday ishonsam, N. ga ham shunday ishonaman, N. bo‘lsa o‘ziga qancha ishonsa, sizga ham shuncha ishonadi. Lekin N. bu qizning nomini bilmas ekan, endi nomini so‘rasam bo‘lar, deyman, biz kelishib oldik, qiz bugunmas-erta oilangizga qo‘shiladi.

– Uning nomi Vera Pavlovna Rozalskaya.

– Endi mening ham aytadigan gapim bor. Men bolalarim haqida tashvishlanib yurishimga, qaramay, bolalarim bilan yaqin munosabatda bo‘ladigan qizim ko‘rmasdanoq ishni bitkazib qo‘ya qolganim sizga g‘alati tuyulishi mumkin. Lekin men sizning yaqinlaringiz qanday kishilar ekanligini juda yaxshi bilaman. Biringiz kishiga shunday do‘stlik qilayotgan ekansiz, bunday kishi, qiziga haqiqatan yaxshilikni ravo ko‘ruvchi ona uchun noyob durdonaday qadrli bo‘lishi lozim. Shunday bo‘lgach, ko‘rik o‘tkazish ortiqcha bir odobsizlikday tuyuladi menga. Bu gapni sizga emas, o‘zimga tegizib aytyapman.

– Men m-lle Rozalskaya uchun juda xursandman. Uning oilaviy hayoti shunday og‘irki, biron tuzukroq oilaga joylashsa o‘zini baxtiyor sezardi. Lekin unga sizning oilangiz kabi oila topilar va haqiqatan yaxshi turmush muyassar bo‘lar, deb umid qilgan emasdim.

– N. menga, qiz oilasida juda yomon ahvolga tushib qolibdi, degan edi.

– Ahvoli juda ham yomon. – Lopuxov B. xonim Verochka bilan gaplashganida qizning kechirgan og‘ir kunlarini eslatib turadigan narsalar haqida so‘z ochmay qo‘ya qolsin, deb uni zarur narsalardangina xabardor qilib qo‘ydi. B. xonim achinib, hamdardlik bilan tinglab turdi-da, oxirida Lopuxovning qo‘lini qisdi:

– Bo‘ldi, yetar, msye Lopuxov, ko‘nglimni buzmang. Shuncha yoshga kirib, – axir, yoshim qirqqa borib qolgan, – o‘zim ham yoshligimda oila azobini ko‘p tortganimdan, haligacha oiladagi jabr-zulm haqidagi gaplarni eshitishga yuragim yo‘qligini oshkor qilib, kulgiga qolib o‘tirmay.

– Ruxsat bersangiz, yana bir og‘iz so‘zim bor, buning siz uchun hech bir ahamiyati yo‘q, ehtimol, bu haqda gapirib o‘tirishning keragi ham yo‘qdir. Lekin shunday bo‘lsa ham aytib qo‘yish ma’qulroq. Qiz onasi zo‘rlab bermoqchi bo‘lgan kuyovdan qochib keladi.

B. xonim o‘ylanib qoldi. Lopuxov ham unga qarab turdi-da, o‘zi ham o‘ylanib qoldi.

– Agar yanglishmasam, buning siz uchun ahamiyati men o‘ylaganday kichik bo‘lsa kerak, deyman?

B. xonimning avzoyi buzilganday bo‘ldi.

– Kechiring meni, – deb davom etdi Lopuxov, B. xonimning juda qiyin ahvolga tushib qolganini payqab. – Kechiring, sizni qiyin ahvolga solib qo'ydim shekilli.

– To'g'ri aytasiz, bu juda jiddiy masala, msye Lopuxov. Ota-onaning xohishiga qaramay uydan chiqib ketish – juda katta janjalga sabab bo'lish demakdir. Lekin, men hali aytganday, agar qiz ularning zulmidan, dag'alligidan qochib ketayotgan bo'lsa edi, buning ortiqcha ahamiyati bo'lmas, bir iloj qilib ularni tinchitish – juda bo'lmasa biroz ko'proq pul berib, shu bilan bosti-bosti qilib qo'yish mumkin edi. Hechqisi yo'q. Lekin... ona qizini zo'rlab erga bermoqchi; demak, kuyov boy, juda ko'p foydasi tegadigan odam bo'lsa kerak.

– Albatta, – dedi Lopuxov xomush bir ovozda.

– Albatta, msye Lopuxov, albatta, boy bo'lsa kerak; mana shunisi meni o'ylatib qo'ydi. Bunday bo'lsa, onasini hech narsa bilan tinchitib bo'lmaydi-ku. Siz ota-ona huquqlarini bilasizmi? Bunday hollarda ular o'z huquqlaridan foydalanishlari turgan gap. Ular sudga beradilar-da, muddaolariga yetmaguncha qo'y-maydilar. – Lopuxov o'rnidan turdi.

– Demak, sizdan iltimosim, gapirgan gaplarimni unutsangiz.

– Yo'q, o'tira turing. Shoshmang, sizning oldingizda o'zimni bir qadar bo'lsa-da, oqlab olishimga imkon bering. E xudo, ko'zingizga juda bir yomon xotin bo'lib ko'rinsam kerak! Har bir vijdonli kimsaning yuragi achishi, homiylik qilishi lozim-u, men bo'lsam ikkilanib o'tiribman. Qanday ojiz bandalarmiz!

Haqiqatan uning hozirgi ahvolini ko'rgan odamning rahmi kelardi: u mug'ambirlik qilayotgani yo'q, haqiqatan vijdon azobida qolgandi. Uzoq vaqt poyma-poy gapirdi, nima deyotganiga tushunib bo'lmadi, – o'salligi shu darajaga yetgandi; keyin gaplarini to'g'rilab oldi, lekin poyma-poy gaplaridan ham, to'g'ri gaplaridan ham Lopuxov biron yangilik anglamadi. Lopuxovning ham yuragi g'ash edi. B. xonimning aytgan gaplarini o'ylab, shu qadar xayol surib ketgandi, hatto bu gaplardagi yangilikning mag'zini chaqishga ham ojiz edi. B. xonim ko'nglidagilarni aytib bo'lgach, Lopuxov gap boshladi:

– Uzr so'rab aytgan hamma gaplaringiz behuda. Meni kamsityapti, yoki jahli chiqdiga chiqarmang, deb odob saqlab jim turdim. Lekin aslini aytsam, gapingiz qulog'imga kirgani yo'q.

Siz haq gapni aytganingizni bilmasam mayli edi! Agar siz haq bo‘lmaganingizda qanchalar yaxshi bo‘lardi. Lekin qizga shart-sharoit masalasida kelisha olmadik, B. xonim menga yoqmadi, deb qo‘ya qolardim! Shunda qiz ikkalamiz boshqa biron iloji topilar, degan umidda yuraverardik. Hozir-chi, hozir unga nima deyman?

B. xonim yig‘ladi.

– Unga endi nima deyman? – Lopuxov zinadan tushib borarkan, takror o‘ziga savol berdi. «Endi nima qiladi? Endi holi nima kechadi?» u Galernayadan Konnogvardeyskiy xiyoboniga eltadigan ko‘chaga chiqar ekan, shunday xayol surib borardi.

Albatta, yosh bolalarga osmondagi oyni olib bo‘lmasligini isbotlamoqchi bo‘lgan kishilar qaysi ma’noda haq bo‘lsa, B. xonim ham shu ma’noda nohaq edi. B. xonim juda obro‘li odam edi, shunday bo‘lgandan keyin, agar u, Verochka biznikiga kelib tursin, deb qat’iy istak bildiradigan bo‘lsa, Marya Aleksevna Verochkani uning qo‘lidan tortib olmasdi ham, na unga va na eriga tirg‘almasdi ham, chunki ish aylanib kelib, B. xonim qo‘rqqanday, sudga tushadigan bo‘lsa, unda rasmiy javobgar uning eri bo‘lardi. Lekin B. xonimning boshida ham ancha g‘alva bo‘lardi, ba’zi bir xunuk gap-so‘zlarga qolish ehtimoli ham yo‘q emasdi; birovni deb ba’zi kishilardan iltifot so‘rashga to‘g‘ri kelardi, holbuki bu imkoniyatlardan keyinchalik o‘zi foydalanishi ham mumkin edi. Boshqacha yo‘l tutish kimga zarur-u, qanday aqlli odam B. xonimning aksini qilardi, deysiz? Biz B. xonimni aslo yomonotliq qilishga haqimiz yo‘q; lekin Verochkani qutqaraman, deb shuncha tashvish tortib yurgan Lopuxovni ham nohaq deb bo‘lmasdi.

XIV

Verochka shartlashilgan skameykada allaqachondan buyon kutib o‘tirar ekan, har safar muyulishdan chiqib keluvchi harbiy furajkaga ko‘zi tushganda yuragi o‘ynab-o‘ynab ketardi. «Nihoyat, ana, do‘stimning o‘zi kelyapti!» – Verochka o‘rnidan tura yugurdi.

Ehtimol, Lopuxov skameykaga borguncha o‘zini bosib olar edi, – lekin mo‘ljalidan ilgari to‘satdan uchrashib qolganidan yuzidagi g‘amginlik alomatlari hali ham aks etib turardi.

– Chatoqmi?

– Chatoq, do‘stim.

– Masala hal bo‘lganday edi-ku? Nega endi chatog‘i chiqdi? Nima bo‘ldi, do‘stim?

– Do‘stim, qani, uyga yuring, sizni kuzatib qo‘yaman. Gap bor. Ishimiz nega chatoq bo‘lganini bir necha daqiqadan keyin aytaman. Hozir shoshiltirmang, bir o‘ylab ko‘ray. Hali ham xayolimni yig‘ib olganim yo‘q. Biron yangi narsa o‘ylab topish kerak. Noumid bo‘lmaylik, topamiz. – Lopuxov shu oxirgi so‘zni aytgach, o‘zini ancha bosib olgan bo‘lsa-da, lekin hali ham o‘ziga kelmagandi.

– Hozir ayting, kutishga toqat bor ekanmi! Biron yangi narsa o‘ylab topish kerak, dedingiz, demak, ilgari o‘ylab topgan narsamiz yaramadi-da? Mening murabbiyalik qilishim mumkin emas ekan-da? Men qanchalar baxtsiz ekanman!

– Sizni aldashdan nima foyda? Ha, murabbiyalik qilishingiz mumkin emas. Sizga shuni aytmoqchi edim. Lekin, do‘stim, sabr qiling, sabr! Bardam bo‘ling! Bardam odam yutib chiqadi.

– Oh, do‘stim, o‘zim-ku bardamman-a, lekin juda qiynalib ketdim-da.

Bir necha daqiqa jim borishdi.

Bu nimasi? Ha, Verochka paltosi ostida nimanidir ko‘tarib olgan edi.

– Do‘stim, qo‘lingizda biron narsa bormi? Bering, men ko‘tarib olay.

– Yo‘q, yo‘q, kerakmas. Og‘ir emas, o‘zim.

Yana jim borishdi, uzoq jim yurishdi.

– Do‘stim, suyunganimdan soat ikkigacha uyqum kelmadi. Ko‘zim uyquga ketgan ekan, qiziq bir tush ko‘ribman! Qo‘lansa zindondan qutulib chiqayotgan emishman, falaj ekanman, sog‘ayib, yugurib dalaga chiqqan emishman, men bilan juda ko‘p o‘rtoqlarim ham yugurishib chiqishgan emish, ular ham menga o‘xshab zindondan qutulib chiqib, falajdan sog‘ayib olishganmish, hammamiz keng dalada quvnab, yugurishib yurganmishmiz! Tushim to‘g‘ri chiqmadi! Men uyga qaytib bormayman, deb o‘ylagan edim.

– Do‘stim, tuguningizni menga bering, endi uni yashirmasa ham bo‘ladi-ku.

Yana jim borishdi. Uzoq jim borishdi.

– Do‘stim, bilsangiz, u xonim bilan mana bunday to‘xtamga keldik: siz Marya Aleksevnadan beijozat uydan chiqib ketishingiz mumkin emas. Yo‘q, mumkin emas, yo‘q, sizni qo‘ltiqlab olay, bo‘lmasa yiqilib tushasiz, deb qo‘rqaman.

– Hechqisi yo‘q, to‘r nafasimni bo‘g‘ib yubordi. – U yuzidagi to‘rini ko‘tardi. – Endi tuzuk, yaxshi.

– («Rangi o‘chib ketganini!») Yo‘q, do‘stim, men aytgan gap to‘g‘risida o‘ylamang. Men tushuntirib aytolmadim chog‘i, biron ilojini topamiz.

– Qanday ilojini topamiz, azizim? Menga tasalli berish uchun shunday deyapsiz. Iloji yo‘q ko‘rinadi.

Lopuxov jim qoldi. Yana jim ketishdi.

– («Rangi o‘chib ketganini! Rangida qon qolmabdi-ya»!) Do‘stim, bir iloji bor.

– Qanday, azizim?

– Qandayligini hozir aytaman, do‘stim, faqat avval o‘zingizni biroz bosib oling. Buni juda sovuqqonlik bilan o‘ylab ko‘rishingiz lozim.

– Hozir ayting! Eshitmagunimcha tinchimayman.

– Yo‘q, do‘stim, hozir qattiq iztirobdasiz. Muhim bir qarorga kelolmaysiz. Birozdan keyin aytaman. Ana, uyga ham yetib qoldik. Xayr, do‘stim. O‘zingizni qo‘lga olib, bosiqlik bilan javob beradigan bo‘lsangiz, darrov aytaman.

– Qachon axir?

– Indinga darsga kelganimda.

– Juda kech!

– Bo‘lmasa, ertaga atayin kelib ketaman.

– Yo‘q, yana ham tezroq bo‘lsin.

– Bugun kechqurun.

– Yo‘q, ketishingizga yo‘l qo‘ymayman. Uyga men bilan birga kirasiz. Bezovtasan, deyapsiz, bir qarorga kelolmaysan, deyapsiz – xo‘p, gaplaringizga roziman, biz bilan birga ovqatlaning bo‘lmasa. Tinchlanib qolishimni o‘zingiz ko‘rasiz. Ovqatdan keyin oyim uxlaydi, o‘shanda gaplashib olamiz.

– Axir, nima deb kiraman? Birga kirib borsak, oyingiz yana shubhalanib qoladi.

– Shubhalansa, shubhalanaversin! Menga nima! Yo‘q, do‘stim, shu sababli ham kirganingiz ma’qul. Yuzimdagi to‘rimni ko‘tarib olganman, bizni ko‘rgan bo‘lishlari mumkin.

– To‘g‘ri aytasiz.

XV

Marya Aleksevna qizi bilan Lopuxovning eshikdan birga kirib kelayotganini ko‘rib hayron qoldi. Ularga qattiq tikila boshladi.

– Marya Aleksevna, indinga kechqurun bandman, shuni aytay, deb kirdim, dars bergani ertaga kelaman. Ruxsat bersangiz, o‘tirsam. Juda charchadim, kayfiyatim ham joyida emas. Biroz dam olsam, degandim.

– Ha, aytmoqchi, Dmitriy Sergeich, nima bo‘ldi? Juda xafa ko‘rinasiz?

Ishq-muhabbat sarguzashtidan qaytishdimi, yo shunchaki uchrashib qolishganmikin? Ishq-muhabbat sarguzashtidan qaytgan bo‘lsalar, xursand ko‘rinsa kerak edi. Ishq sarguzashtida, uning gapiga ko‘ra, aytishib qolgan bo‘lsalar, yigitning jahli chiqib, kuzatib ham kelmasdi. Undan tashqari, Verochka to‘ppa-to‘g‘ri o‘z xonasiga o‘tib ketdi, unga qayrilib qaramadi, – lekin urishganga ham o‘xshamaydi, – yo‘q, shunchaki uchrashib qolgan bo‘lsalar kerak. Yana kim biladi deysiz, ikkalasiga ham ehtiyot bo‘lib turish kerak.

– Menga-ku, Marya Aleksevna, hech gap bo‘lgani yo‘g‘-a, Vera Pavlovnaning rangi o‘chgan ko‘rinadi – yoki menga shunday ko‘ringanmikin?

– Verochkani, deysizmi? O‘zi odati shunaqa.

– Balki menga shunday ko‘ringandir. Sizga aytsam, o‘ylay berib boshlarim aylanib ketdi.

– O‘zi nima gap, Dmitriy Sergeich? Qallig‘ingiz bilan achchiqlashib qolgan bo‘lmang tag‘in?

– Yo‘q, Marya Aleksevna, qallig‘imdan ko‘nglim to‘q. Ota-onalarim bilan urishgim kelib yuribman.

– Sizga nima bo‘ldi, otam? Dmitriy Sergeich, ota-ona bilan ham urishadimi? Sizni unday deb o‘ylamagan edim, otam.

– Boshqa iloji yo‘q. Marya Aleksevna, o‘zi shunaqa oila. Nima balolarni, odamning qo‘lidan kelmaydigan narsalarni talab qilishadi.

– Bu boshqa gap, Dmitriy Sergeich, – hammaning ko'nglini topish qiyin, haddan oshish ham yaramaydi, to'g'ri aytasiz. Shunday bo'lsa, janjalinglar puldan chiqqan, sizni koyiydigan joyim yo'q.

– Marya Aleksevna, kechirasiz, nodonlik qilgim kelyapti: shu qadar diqqatmanki, ko'nglim tortgan, hurmatimga loyiq kishilar orasida biroz orom olgim bor; bunday kishilarni sizning uyingizdan boshqa hech qayerda uchratganim yo'q. Ruxsat bersangiz, bugun siznikida ovqatlansam, xo'p desangiz Matryonaga bir xizmat buyursam. Denker mayxonasi shu yaqin o'rtadadir, vinolari qandayligini bilmayman-u, lekin yaxshi bo'lsa kerak.

Ovqat to'g'risida gap ochilganda Marya Aleksevnaning joni chiqayozgandi, Matryona tilga olinganda ko'ngli o'rniga tushib, vajohatidan kutish alomati paydo bo'ldi: «Qani, yigitchaning tushlikka qo'shadigani nima bo'larkin?» – «Denkerning vinolari yaxshi bo'lsa kerak!» Lekin yigitcha Marya Aleksevnaning yuziga qaramasdan cho'ntagidan portsigarini chiqardi va undagi xatdan bir tishlam yirtib oldi-da, qo'liga qalam olib yozdi.

– Ko'nglingizga olmasangiz, Marya Aleksevna, xush ko'rgan vinongizni aytsangiz.

– Men, Dmitriy Sergeich, tag'inam rostini aytsam, vino deganini yaxshi bilmayman, ichmayman, desam ham bo'ladi; xotinlarga yarashmaydi.

«Og'zingga olmasliging basharangdan ko'rinib turibdi».

– Marya Aleksevna, shunday-ku, lekin maraskinni qizlar ham ichadi. Yozsam maylimi?

– U qanaqa vino bo'ldi, Dmitriy Sergeich?

– Hatto vino ham emas, sharbatday narsa. – Yonidan qizil pul chiqardi. – Yetsa kerak? – Yozgan xatiga ko'z yugurtirib oldi, – har ehtimolga qarshi yana besh so'm qo'sha qolay.

Uch haftalik daromad, bir oylik ta'minotga yetadigan pul. Boshqa iloji yo'q, Marya Aleksevnaning og'zini yaxshilab moylamasa bo'lmaydi.

Marya Aleksevnaning ko'zi yoshlanib, basharasida mayin tabassum paydo bo'ldi.

– Yaqin orada qandolat do'koni ham bordir? Bilmadim, yong'oqli pirog bormikin, Marya Aleksevna, shu pirogni juda yaxshi ko'raman; bo'lmasa, borini olib kelar, boriga baraka qilamiz...

Lopuxov oshxonaga chiqib, Matryonani xarid qilgani jo‘natdi.

– Bir vaqtixushlik qilaylik bugun, Marya Aleksevna, ota-onam bilan janjalim alamiga ichmoqchiman. Vaqtixushlik qilsak nima bo‘pti, Marya Aleksevna? Qallig‘im bilan munosabatimiz yaxshilanib boryapti. Ishim o‘ngidan kelsa, yalloni o‘shanda ko‘rasiz, to‘g‘rimi, Marya Aleksevna?

– To‘g‘ri aytasiz, Dmitriy Sergeich, qarab tursam, pulning qadriga yetmay qo‘yibsiz, sizni bunchalik deb o‘ylamagandim, bama’ni, vazmin odam, deb yurardim. Qallig‘ingizdan zakalat olganmisiz, deyman?

– Zakalat-pakalat olganim yo‘q-ku, Marya Aleksevna, lekin yoniga pul tushgandan keyin, biroz vaqtixushlik ham qilsa bo‘ladi. Zakalat nimasi? Gap zakalatda emas, bu narsaga umid bog‘lash yaxshimi? Vijdoning sof bo‘lsin, bo‘lmasa, shubhaga qolasan kishi. Bunday qilish olijanoblik bo‘lmaydi, Marya Aleksevna.

– Olijanoblik emas, Dmitriy Sergeich, to‘g‘ri, olijanoblikdan emas. Menimcha, har bir ishda olijanoblikni qo‘ldan bermaslik kerak.

– To‘g‘ri aytasiz, Marya Aleksevna.

Tushlikkacha qolgan yarim soat yoki chorakam bir soat vaqtni ana shunday har xil olijanob narsalar haqidagi shirin suhbatlar bilan o‘tkazishdi. Shu o‘rtada Dmitriy Sergeich, juda ochilib ketib, uylanadigan vaqtim yaqinlashib qoldi, deb yubordi. «Vera Pavlovnaning to‘yi nima bo‘ldi?» – Marya Aleksevna hech narsa deyolmadi, chunki qizini majbur qilolmaydi. Shundaylikka shundayku-ya, lekin nazarimda, Vera Pavlovna yaqin o‘rtalarda rozi bo‘lsa kerak; menga biror gap aytgani yo‘q, lekin shuni ham ko‘rmasa, ko‘zning nima keragi bor. – Siz bilan men, Marya Aleksevna, rostini aytganda, tullak chumchuqlarmiz, bizni aldab tuzoqqa ilintirib bo‘lmaydi. Yoshim ko‘pga borgan bo‘lmasa ham, lekin men ham ko‘pni ko‘rgan tullaklardanman, shundaymasmi, Marya Aleksevna?

– Shunday, otaginam, shunday, tullakdan kam yeringiz yo‘q!

Xullas, Marya Aleksevnaning ko‘nglidagi gaplarni topib gapirib, Dmitriy Sergeich shu qadar ochilib ketdiki, xafagarchilikdan asar ham qolmadi! Shu qadar quvnab o‘tirdiki, Marya Aleksevna ilgari uni hech bunday xursand ko‘rmagandi. «Ha, dog‘uli, o‘lguday

quv-da! Qallig'idan bir-ikki mingni shilganligi ko'rinib turibdi, ota-onasi hamyoni liq to'la pulligini bilib qolib, chang solmoqchi bo'lishgan, bu esa: oyijon, otajon, bekor aytibsiz, hurmatingizni bajo keltirish bosh ustiga, lekin sizga atagan pulim yo'q, degan. Quvligini qara-ya! Shunday kishi bilan suhbat qilish rohatijon, ayniqsa, Matryonaning xarid qilib kelganini eshitib, ro'molcham xobgohimda qopti, degan bahonada oshxonaga yugurishini aytmaysizmi. O'n ikki so'm-u ellik tiyinlik vino sotib olibdi, – ichilsa, uchdan biri ichilar, – va bir so'm ellik tiyinlik pirog olibdi, buni, pirogga ketgan pulni hayf desang ham bo'ladi! Lekin pirogdan ham qoladi, qarindosh-urug'lar kelganda murabbo o'rniga qo'ysa bo'ladi, har holda zarari yo'q, yoningga qoladi».

XVI

Verochka o'z xonasida o'tirardi.

«Uni qistab uyga olib kelganim yaxshi bo'ldimi? Oyim bir tikilib qaradiki.

Uni mushkul ahvolga solib qo'ydim-ku! Qanday bahona bilan ovqatga qoladi?

E, xudo, men sho'rlikning holim nima kechadi?

Bir iloji bor, dedi u, – yo'q, azizim, hech qanday iloji yo'q!

Yo'q, iloji bor – iloji: deraza. Hech iloji bo'lmasa, o'zimni derazadan tashlayman.

Mana bu tentakni qarang-u: «Hech iloji bo'lmasa» emish, hozirchi?

Derazangdan o'zingni tashlasang, zumda tushasan, – yiqilayotganday emas, xuddi uchib ketayotganday bo'lasan, – bu narsa o'zingga ham juda xush yoqsa kerak. Yo'lkaga tushib urilganingda – qattiqligini o'shanda sezasan! Joning og'rirmikin? Yo'q, og'riqni ham sezishga ulgurmay qolsang kerak, deb o'ylayman, faqat juda qattiq tushasan! Bir zum shunday bo'ladi, xolos. Bundan oldin bo'lsa havo xuddi yumshoq momiqday, juda beozor yo'l bo'shatib turadi... nimasini aytasan, bundan yaxshisi bormi...

Xo'sh, keyin nima bo'ladi? Hamma kelib tomosha qiladi – boshing yorilgan, yuz-ko'zing majaq-majaq, tuproqqa qorishasan, qonga bo'yalasan... Qani endi shu joyga toza qum sepib

qo‘yish mumkin bo‘lsaydi, – bu yerdagi qum ham toza emas... yo‘q, oppoq, top-toza qum bo‘lsa... juda yaxshi bo‘lardi. Yuzing ham majaq bo‘lmasdan, tozaligicha qolardi, seni ko‘rib hech kim qo‘rqib ham ketmasdi.

Parijda bo‘lsa, sho‘ring qurg‘ur qizlar is tegib, bo‘g‘ilib o‘lishar ekan. Derazadan tashlash yaxshi emas. Bunisi yaxshi ekan.

Muncha qattiq gaplashishyapti, nimani gaplashishyapti? Eshitib bo‘lmaydi.

Unga xat qoldirardim, hammasini yozardim. Axir, o‘shanda unga men: «Bugun tug‘ilgan kunim», degan edim-ku, u vaqtlarda ancha dovyurak ekanman, nega shunday ekanman? Chunki men u vaqtda tentakkina qiz edim, u vaqtda tushunmasdim.

Parijdagi qizlar juda aqlli ekan-da! Nima, meni ham aql bitmaydi, deysizmi? Toza ham qiziq ish bo‘lardi-da: uyga kirib qarashsa, hech narsa ko‘rinmaydi, faqat is hidi kelib turibdi, uyni ko‘kish tutun bosgan; qo‘rqib ketishadi: nima balo bo‘libdi? Verochka qani? Oyim otamga baqirib: «Nega qarab turibsan, oynani sindir!» – deydi, oynani sindirishadi, bir vaqt qarashsa: pardoz stoli oldida boshimni stolga qo‘yib, yuzimni qo‘lim bilan bekitib olganman. «Verochka, is tegdimi?» – miq etmayman. «Verochka, nega indamaysan?» – «Voy, o‘zini o‘zi bo‘g‘ib o‘ldiribdi-ku!» Hammalari baqirishadi, yig‘lashadi. Juda qiziq ish bo‘lardi-da, hammalari yig‘lashadi, oyim bo‘lsa, jonimdan yaxshi ko‘rardim, deb hammaga gapirib o‘tiradi.

Axir, u achinadi-ku. Achinsa nima, xat yozib qoldiraman-ku.

Ko‘rasiz, axiyri bir kun men ham sho‘rlik Parij qizlari singari, shunday qilaman. Men bir aytmay, aytdimmi, qilaman. Men qo‘rqmayman.

Nimasidan ham qo‘rqasan? Bu juda yaxshi-ku! Avval haligi, yana bir iloji bor, degani nimaligini bir ko‘ray-chi. Yo‘q, hech qanday iloji yo‘q. Meni yupatish uchun shunday degan edi.

Nega odamlar bir-birovini yupatishar ekan-a? Yupatishning hech keragi yo‘q. Yordam qilishning iloji bo‘lmagach, yupatib bo‘larkanmi? Aql-hushi joyida bo‘lishiga qaramay, baribir u ham shunday qildi-ku. Nega shunday qildiykin? Buning keragi yo‘q.

U nimalar deyapti? Vaqti chog‘day ovozlari ham quvnoq-ku!

Rostdan ham biron ilojini o‘ylab topdimikin?

Qayoqda deysiz, hech bunday iloji yo‘q.

Agar biror ilojini topmagan bo‘lsa, bunday vaqti chog‘ bo‘larmidi? Nimani o‘ylab topdiykin?»

XVII

– Verochka, ovqatga kel! – deb chaqirdi Marya Aleksevna.

Darhaqiqat, Pavel Konstantinich ishdan qaytgandi, pirog – qandolat do‘konining pirogi emas, Matryona pishirgan, kechagi suyuq oshdan ortib qolgan mol go‘shti solingan pirog allaqachon tayyor bo‘lgan edi.

– Marya Aleksevna, siz ovqat oldidan bir ryumkagina araq ichib ko‘rganmisiz? Juda foydali-da, ayniqsa, mana bu achchiq apelsin arag‘i juda ajoyib, yo‘q demang, ichib ko‘ring. Medik sifatida ichib ko‘ring, deb tavsiya qilyapman. Yo‘q demang, ichib ko‘ring.

– Ilojim qancha, medikning gapiga amal qilmay bo‘larkanmi, lekin yarim ryumka.

– Yo‘q. Marya Aleksevna, yarim ryumkadan foyda yo‘q.

– Dmitriy Sergeich, o‘zingiz-chi, o‘zingiz nega ichmayapsiz?

– Qarib, tavbamga tayanib qolganman, Marya Aleksevna, ichmayman, deb so‘z berganman.

– Rostdan ham qizitib qolayotganga o‘xshaydimi, deyman!

– Foydasi ham, Marya Aleksevna, ana shu qizitishida. («Rostdan ham juda xursand-ku! Nahotki biron iloji bo‘lsa! Oyim bilan juda inoq bo‘lib olibdimi? Menga qaramaydi ham, – juda quv-da!»)

Stol atrofiga o‘tirishdi.

– Mana bunisini biz Pavel Konstantinich bilan ichganimiz bo‘lsin. El – bu nima-yu pivo nima, pivodan o‘tkir emas. Marya Aleksevna, bir ichib ko‘rsangiz-chi.

– Agar pivo bo‘lsa, marhamat qiling, pivoni ham ichmaydimi kishi?

(«Voy xudo, nechta shisha o‘zi? Ahmoq bo‘lib yurgan ekanman-da! Do‘stlik degani bunaqa bo‘lar ekan-u!»)

(«Buning quvligini qarang! O‘zi ichmayapti. O‘ziga quygan elga shunchaki labini tegizib qo‘yyapti xolos. Bu el degani durust narsa ekan, – kvasga o‘xshab ketarkan-u, lekin o‘tkir ekan, anchagina

o‘tkir ekan. Mishkani qizimga qo‘shib qo‘yganimdan keyin araqni tark qilib, nuqul el ichganim bo‘lsin. Bu miyasini ichkilikka boy beradiganlardanmas! Biroz ichib o‘tirsa ham mayli edi bu dog‘uli! Ha, mayli, o‘zimga yaxshi. Choy ichishga esa suyagi yo‘q».)

– Dmitriy Sergeich, o‘zingiz ham biron narsa ichsangiz-chi.

– E, nimasini aytasiz, vaqtida xo‘p ichganman, Marya Aleksevna, bir paytlari xo‘p ichib olganman, o‘sha ichganlarim anchaga yetadi! Ishim ham yo‘q, pulim ham yo‘q vaqtlarda toza ichganman; hozir ishim ham bor, pulim ham bor – endi vinosi bilan ham ishim yo‘q. Shusiz ham vaqtim chog‘.

Butun ovqat vaqtini shu zaylda o‘tkazishdi. Qandolat do‘koni pirogi ham yetib keldi.

– Azizim Matryona Stepanovna, buning sherigi nima bo‘ladi?

– Hozir, Dmitriy Sergeich, hozir, – Matryona bir shisha shampanskiy ko‘tarib kirdi.

– Vera Pavlovna, siz ham ichmadingiz, men ham ichmadim. Endi biz ham ichamiz. Mening qallig‘im bilan sizning kuyovingiz sog‘lig‘iga!

«Bu nimasi? Yo topgan iloji shumikin?» – deb o‘ylab qoldi Verochka.

– Xudo qallig‘ingiz va Verochkaning kuyoviga baxt ato qilsin, – dedi Marya Aleksevna. – Biz, keksalarga Verochkaning to‘yi tezroq nasib etsin.

– Hech gapmas, Marya Aleksevna, yaqinda nasib etib qoladi. Shundaymi, a, Vera Pavlovna?

«Nahotki o‘sha narsani gapiryapgan bo‘lsa?» – deb o‘yladi Verochka.

– Shunday, Vera Pavlovna, albatta, shunday. «Shunday», desangiz-chi.

– Ha, – dedi Verochka.

– Shunday, Vera Pavlovna, oyingizni shubhalantirib chakki qilasiz. «Ha», deng-qo‘ying. Endi ikkinchi qadahni ko‘tarish lozim. Vera Pavlovnaning to‘yi tezroq bo‘lishi uchun! Ko‘taring, Vera Pavlovna! Hechqisi yo‘q, ish joyida bo‘ladi. Qani, urishtiraylik. To‘yingiz tezroq bo‘lishi uchun!

Qadah urishtirishdi.

– Aytganingiz kelsin, aytganingiz kelsin! Rahmat senga, Verochka, qarigan chog‘imda ko‘nglimni ko‘taryapsan! – dedi-da,

Marya Aleksevna ko‘z yoshlarini artdi. Ingliz eli va maraskin vinosi ko‘nglini yumshatib, kayfini chog‘ qildi.

– Aytganingiz kelsin, aytganingiz kelsin, – deb takrorladi Pavel Konstantinich.

– Sizdan ko‘pdan ko‘p minnatdormiz, Dmitriy Sergeich, – dedi Marya Aleksevna tushlikdan keyin, – tashakkur! O‘z uyimizda bizni mehmon qildingiz-a; bayram qilib berdingiz, desa ham bo‘ladi! – Ko‘z qarashlarida endi hushyorlikdan ko‘ra ko‘proq mehribonlik aks etib turardi.

Atayin ayyorlik ishlatganingda ham bunchalik bo‘lmaydi. Lopuxov vino xarid qilganida buning oqibati shunday bo‘lar, deb o‘ylamagandi: bu narsa ovqatga qolaman, deb Marya Aleksevnaning kayfini uchirib, ko‘ziga yomon ko‘rinmaslik niyatida bergan porasi edi. Marya Aleksevna Lopuxov singari begona odamga rahmi kelsa ham, lekin ishonmasdi – ishonadigan kimi ham bor deysiz? Shunday ekan, u bilan mast-alast bo‘lib ichkilik icharmidi? Marya Aleksevna o‘zi ham, ish darrov bunchalik tus olar, deb o‘ylamagandi, mo‘ljali to‘yib rohat qilishni choydan keyinga qoldirish edi. Lekin o‘rtada nafs balosi bor. Marya Aleksevna araq va boshqa shirin narsalardan o‘zini tiysa bo‘lardi-yu, lekin anavi el ichimligi va boshqa qand-qurslarga kelganda tajribasizligi pand berib qo‘ydi.

Tushlik juda tantanavor, zo‘r bo‘ldi. Marya Aleksevna Matryonaga, endi samovar ham qo‘yib yubor, deb buyruq berdi, bunaqa ziyofatdan keyin odatda shunday qilinardi. Lekin bu noz-ne’matlar rohatini faqat o‘zi va Lopuxov ko‘rdi. Verochka choy ichgim yo‘q, deb xonasiga kirib ketdi. Pavel Konstantinich o‘qimagan odam bo‘lganidan, so‘nggi tortilgan ovqatdan keyin har vaqtdagiday yonboshlab dam olgani ketdi. Dmitriy Sergeich shoshilmay choy ichib o‘tirdi; bir chashkani tugatib, yana so‘radi. Marya Aleksevna, bo‘shashib, ertalabdan buyon tobim kelishmay turgandi, deb uzr so‘radi, mehmon ham, tortinmang, bemalol, deb bir o‘zi qoldi. Ikkinchi chashkani ichdi, yana bir chashka ichib, kresloda mudrab qoldi, Matryona ta’biri bilan aytganda, malla mushuk singari ovqatni xo‘p yalab-yuqsadi-da. Malla mushuk xurrak otib yotardi; bu xurrak Dmitriy Sergeichni ham uyg‘otib yuborgan bo‘lsa kerak, shundan keyin Matryona ham samovar va chashkalarni yig‘ishtirib, oshxonasiga kirib ketdi.

XVIII

– Vera Pavlovna, gunohimni kechiring, – dedi Lopuxov uning xonasiga kirib; ovozi pasayib, tovushi titrab qolibdi, – ovqat vaqtida qichqirayotganda, – yana «do'stim» emas, «Vera Pavlovna», deyishini aytmaysizmi, – beadablik qildim, kechiring. Nimalar deganimdan xabaringiz bor: ha, er-xotinni bir-biridan judo qilisholmaydi. Keyin erkingiz qo'lingizda bo'ladi.

– Azizim! Ko'rding-ku, kirib kelganingda yig'lab o'tirgandim, suyunganimdan shunday bo'ldi.

Lopuxov uning qo'lini o'pdi, keyin yana qayta-qayta o'pdi.

– Bunday qarasam, azizim, meni zindondan qutqaradiganga o'xshaysan: qanday aqlli va rahmdilsan, buni qayoqdan o'ylab topding?

– Sen bilan raqs tushganimizdayoq o'ylab qo'ygandim.

– Azizim, men ham o'shandayoq mehribon ekan, deb ko'nglimdan o'tkazib qo'ygandim. Azizim, meni ozodlikka chiqarmoqchisan. Endi sabr qilsam bo'ladi; endi zindondan chiqishimga ko'zim yetadi, endi zindonda azob chekmayman, chunki undan chiqishimni bilaman. Azizim, zindondan qanday chiqaman? Mana bunday, Verochka. Hozir aprelning oxiri. Iyulning boshlarida Akademiyadagi ishlarim tugaydi, – turmush qurishimiz uchun bu ishlarni oxiriga yetkazishim kerak. Ana o'shanda zindondan ozod bo'lasan. Yana uch oycha, balki undan ham kamroq sabr qilishing kerak. Shunda ketasan, men shifokor lavozimini olaman. Maoshim uncha katta emas; lekin zaruratga qarab birmuncha amaliyot ham qilaman, bir kunimizni ko'rarmiz.

– Jonginam, bizga ozginasi ham kifoya qiladi. Lekin bunga men rozi emasman: sening pulingga yashagim yo'q. Men hozir dars berib turibman. Unda darslarimdan mahrum bo'laman, axir, oyimning hammaga meni yaramas qiz, deyishi turgan gap. Lekin boshqa joylardan dars topilib qolar. Bir kunim o'tib qolar. Boshqa iloji ham yo'q, shundaymasmi? Sening pulingga yashashim kerak emas, to'g'rimi?

– Senga bularni kim aytdi, dilbarim?

– Yana kim aytdi, deb so'rashini qarang. Axir, qulog'imga shu gaplarni quygan o'zing emasmiding? Kitoblaring-chi? Ularda yozilgan narsalarning yarmi shundan bahs ochadi-ku.

– Kitoblarda, deysanmi? Bu gaplarni senga men aytganmanmi? Qachon aytganman, Verochka?

– Yana qachon emish! Hamma narsa pul bilan o‘lchanadi, deb kim aytgandi? Dmitriy Sergeich, buni kim aytgandi?

– Xo‘sh, aytgan bo‘lsam nima bo‘pti?

– Sen meni, kitoblaringizda aytilganiday, dalil-isbotlardan xulosa chiqarishga ojiz, befahm qizcha deb bilasanmi?

– Xulosa, deganing nimasi? Azizim Verochka, o‘zingdan o‘zing nimalar deyapsan?

– Mana bu ayyorni qarang! Zo‘ravonlik bilan meni o‘ziga cho‘ri qilib olmoqchi! Yo‘q, Dmitriy Sergeich, siz aytganday bo‘lmaydi, bildingizmi?

– Sen ayt, men bilib olay.

– Siz hamma narsa pul bilan o‘lchanadi, deysiz, Dmitriy Sergeich: kimda pul bo‘lsa, o‘sha hokim bo‘ladi, o‘shaning aytgani aytgan bo‘ladi, deb yozilgan kitoblaringizda; demak, xotin kishiki erining hisobiga yashar ekan, u eriga qaram bo‘ladi, bildingizmi, Dmitriy Sergeich? Siz meni bunga aqli yetmaydi, menga cho‘rilik qiladi, deb o‘ylagan bo‘lsangiz kerak. Yo‘q, Dmitriy Sergeich, menga zo‘ravonlik qilishingizga yo‘l qo‘ymayman, siz rahmdil, olijanob zo‘ravon bo‘lmoqchisiz, bunga tobim yo‘q, Dmitriy Sergeich? Qani, ayting, azizim, yana qanaqasiga yashashimiz mumkin? Sen odamlarning qo‘l-oyog‘ini kesasan, ularga zahar-zaqqum dori ichirasan, men bo‘lsam fortepyanodan dars beraman. Xo‘sh, yana qanday yashashimiz mumkin?

– Shunday degin, Verochka. Demak, bir odam ikkinchi odamni qancha yaxshi ko‘rsa ham, unga qancha ishonsa ham, o‘z erkini undan bor kuchi bilan himoya qilaversin ekan-da. Bu aytgan narsaning uddasidan chiqasanmi, yo‘qmi, bilmayman-u, lekin buning deyarli farqi ham yo‘q: kimki shu qarorga keldimi, bas, u o‘zini himoya qildi, deyaver; o‘zi o‘z kuchiga ishonishi kerak bo‘lgan taqdirda boshqalarning yordamidan voz kechish mumkinligini sezadi, shuni sezishining o‘zi kifoya, desa bo‘ladi. Verochka, biz juda kulgili odamlarmiz! «Sening hisobingga yashagim yo‘q», deysan, men bu gaping uchun seni olqishlayman. Verochka, qani ayt-chi, kim shunday deydi?

– Kulgili bo‘lsak, bo‘larmiz, azizim, nima bo‘pti? Biz bilganimizcha, o‘zingizga ma’qul bo‘lganicha yashayveramiz. Boshqa qanday ham yashashimiz mumkin, azizim?

– Vera Pavlovna, men sizga turmushimizning faqat bir tomoni to‘g‘risidagi fikrlarimni aytdim, – siz o‘z rejangiz bilan bu fikrlarimni butunlay ostin-ustun qilib yubordingiz, meni zolim, zo‘ravon deb atadingiz, – bo‘lajak munosabatimizning boshqa tomonlari qanday bo‘lishini, marhamat qilib, o‘ylab ko‘ring! Men o‘z mulohazalarimni aytishni behuda deb hisoblayman, chunki aytganim bilan baribir ularni ham ostin-ustun qilib tashlaysiz, deb qo‘rqaman. Do‘stim, Verochka, kandan turmush qurish niyating borligini o‘zing ayt; men faqat sevgilimning o‘zi hamma narsaga aqli yetib turibdi, deb qo‘ya qolsam kerak!

– Buningiz nimasi? Xushomad qilyapsizmi? Iltifot qilmoqchimisiz? Lekin hokim bo‘lib olish niyatida mo‘min-qobillik bilan xushomadgo‘ylik qilishlarini juda yaxshi bilaman. Iltimos, bundan buyon to‘g‘ri gaplasha bering. Azizim, meni ortiqcha maqtab yuboryapsan! Uyalib ketyapman, azizim, meni maqtay berma, bo‘lmasa juda ham taltayib ketaman.

– Xo‘p, Vera Pavlovna, agar siz qo‘rs gapni yoqtirsangiz, bundan keyin qo‘rs gapirganim bo‘lsin. Vera Pavlovna, tabiatingizda latofat, nazokat shu qadar ozki, shu boisdan nuqul erkakcha fikrlasangiz kerak.

– Azizim, qani ayt-chi, «latofat» degani nima o‘zi? Xotinlarning kontraltday, erkaklarning baritonday gapirishini bilaman, xo‘sh, nima bo‘pti? Shuning uchun, siz ayollar kontraltday gaplashasizlar, deb gap sotib o‘tirish kerakmi? Bu haqda bizdan iltimos qilib o‘tirish lozimmi? U holda ish sababdan hamma latofatli bo‘linglar, deb qulog‘imizga quymoqchi bo‘ladi? Azizim, axir bu ahmoqlik emasmi?

– Ahmoqlik, Verochka, o‘taketgan bema’nilik.

– Shunday ekan, azizim, nazokat-u latofatli bo‘lish haqida kuyib-pishib yurmayman, quloq soling, Dmitriy Sergeich, sizga men qanday turmush kechirishimiz haqida tamomila erkakcha fikr bayon qilay. Bizlar do‘st bo‘lamiz. Lekin istagim – birinchi do‘sting bo‘lish. Aytmoqchi, hali senga, anavi sevikli do‘sting Kirsanovni ko‘rarga ko‘zi yo‘qligini gapirganim yo‘q!

– Chakki qilasan, Verochka: u juda yaxshi odam.

– Yomon ko‘rib qoldim. U bilan ko‘rishib turishingni ham man etaman.

– Juda yaxshi narsadan boshlabsan-ku. Zulmimdan shu qadar vahimaga tushibdiki, erini qo‘g‘irchoq qilib qo‘ymoqchi. Birga turganimdan keyin qanday ko‘rishmasligim mumkin?

– Ertadan kechgacha bir-biringiz bilan quchoqlashib o‘tirarsizlar.

– Bo‘lmasa-chi. Choy vaqtida, ovqat vaqtida shunday qilamiz. Lekin qo‘limiz bo‘sh emas, quchoqlashib o‘tirishning iloji yo‘q.

– Ertadan kechgacha bir-biringizdan ajralmaysizlar.

– Turgan gap. U o‘z xonasidan, men o‘z xonamdan sira ajralgimiz kelmaydi, desa bo‘ladi.

– Unday bo‘lsa, u bilan umuman ko‘rishmay qo‘ya qolsang nima bo‘ladi?

– Axir, biz ahil yashaymiz, ba’zan kishining gaplashgisi keladi, bir-birimizga to‘ygunimizcha gaplashib o‘tiramiz.

– Qachon qarasang birga, hali qarasang quchoqlashib o‘tirishadi, hali qarasang janjallashib o‘tirishadi. Yomon ko‘rib qoldim o‘shani.

– Verochka, bu gaplarni qayoqdan olding? Biz biron marta ham janjallashganimiz yo‘q. Alohida-alohida turamiz-u, lekin ahilmiz, bu rost gap, xo‘sh, nima bo‘pti?

– Bilsang, azizim, men seni aldadim, boplab aldadim! Bizning turmushimiz qanday bo‘lishini aytging kelmagan edi, qo‘lga tushib hammasini o‘zing aytib berding! Xo‘p bopladim-da! Endi o‘zing aytganingday, qanday hayot kechirishimizga quloq sol! Birinchidan, ikki xona uyimiz bo‘ladi, biri seniki, biri meniki, uchinchi xonada choy ichamiz, ovqatlanamiz, senga ham emas, menga ham emas, ikkalamizga kelgan mehmonlarni o‘sha uyda kutib olamiz. Ikkinchidan, joningga tegmaslik uchun xonangga kirmayman; Kirsanov kirmaydi-ku, shuning uchun ham o‘rtangizda janjal bo‘lmaydi. Sen ham mening xonamga kirmaysan. Bu ikki. Endi uchinchi shart shuki, – buni qara, azizim, buni so‘rab olish esimdan chiqibdi: Kirsanov sening ishlaringga aralashyaptimi yoki sen uning ishlariga aralashyapsanmi? Bir-biringizdan biron narsa so‘rashga haqingiz bormi?

– E, Kirsanov qayoqdan o‘rtaga kirib qolganiga endi tushundim! Aytmayman.

– Yo‘q. Men uni baribir yomon ko‘raman. Sababini aytma, kerak emas. O‘zim ham bilaman: bir-biringizga savol berishga haqingiz yo‘q. Xullas, uchinchidan: azizim, sendan biron narsani so‘rashga haqim yo‘q. Ishlaring to‘g‘risida menga biron gap aytmoqchi bo‘lsang yoki aytishing lozim bo‘lib qolsa, o‘zing aytasan. Men ham shunday qilaman. Ana shunday uch shart qilib qo‘yamiz. Yana nima qoldi?

– Verochka, ikkinchi shartga izoh kerak. Sen bilan ikkimiz choy vaqtida va ovqat vaqtida o‘rtada sheriklik xonada ko‘rishamiz. Bordi-yu, bunday bo‘lib qoldi, deylik. Ertalab choy ichib bo‘lganimizdan keyin, men o‘z xonamga kirib olganimda sening xonangga kirolmasam, seni tushga qadar ko‘rmaymanmi? Shundaymi?

– Bo‘lmasa-chi.

– Juda yaxshi, bir tanishim keladi-da, soat ikkida falonchi shu yerda bo‘lmoqchi, deydi; men soat birda ish bilan chiqib ketishim kerak. Shunda soat ikkida keladigan o‘rtog‘imga mendan javob aytib qo‘y, deb iltimos qilishim mumkinmi, – agar sen uyda bo‘lsang, aytib qo‘y, deb iltimos qilsam bo‘ladimi?

– Albatta, bo‘ladi. Bunga xo‘p deymanmi, yo‘qmi – bu boshqa masala. Agar yo‘q desam, talab qilishga haqing yo‘q, nega yo‘q deyapsan, deb so‘rab ham o‘tirmaysan! Shunday deb aytib qo‘ysang, deb iltimos qilishing mumkin.

– Juda soz. Lekin choy vaqtida bundan xabarim yo‘q edi. Xonangga kirishga esa haqim yo‘q. Qanday iltimos qilaman?

– E xudo, muncha ham soddasan, xuddi yosh bolaga o‘xshaydi-ya! Bundan oson narsa bor ekanmi? Dmitriy Sergeich, siz bunday qilasiz. Sheriklik xonaga kirasiz-da: «Vera Pavlovna!» – deysiz. Men o‘z xonamdan: «Nima deysiz, Dmitriy Sergeich?» – deb javob beraman. Siz: «Men ketyapman; men yo‘g‘imda falonchi keladi (tanish odamingizning familiyasini aytasiz). Unga berib yuboradigan ba’zi bir ma’lumotlar bor, Vera Pavlovna, sizdan iltimos, o‘sha odam kelsa, shu gapni unga aytib qo‘ysangiz», deysiz. Agar «yo‘q» desam, gap tamom. Agar «xo‘p» desam, men sheriklik xonaga chiqaman, tanishingizga aytishim lozim bo‘ladigan narsani menga

aytasiz. Qanday qilish kerakligini endi bilib olgan bo‘lsangiz kerak deyman, qo‘zichog‘im?

– Azizim Verochka, hazil o‘z yo‘li bilan-u, lekin sen aytganday yashash yaxshiroqqa o‘xshaydi. Ammo bunday gaplarni qayoqdan olding? Men-ku bilaman, qaysi kitobdan o‘qiganim esimda bor. Ammo bu kitoblar sizlarning qo‘lingizga borib yetmaydi-ku. Senga keltirib bergan kitoblarimda bo‘lsa, bu xil maydachuydalar to‘g‘risida bir og‘iz ham gap yo‘q. Birovdan eshitgandir, desam – kimdan ham eshitishing mumkin? Birinchi uchratgan tuzukroq odaming men bo‘lsam kerak.

– Azizim, bu gaplarni odamning o‘zi o‘ylab topishi qiyin ekanmi? Axir, men ham oila hayotini ko‘rgan odamman, men o‘z oilamni aytayotganim yo‘q; mening oilam boshqa, o‘ziga xos, mening ham dugonalarim bor, ularning oilasida bo‘lganman: erlar bilan xotinlar o‘rtasida ozmuncha mojaro bo‘ladi deysanmi, azizim, sen bularni tasavvur ham qilolmaysan!

– Men-ku, Verochka, tasavvur qila olaman-a.

– Azizim, men nima deb o‘ylab yurganimni bilasanmi? Odamlar hozirgiday, hammalari birga, to‘p-to‘p bo‘lib yashamasligi kerak. Odamlar yo ish masalasida, yoki dam olganda, vaqtixushlik qilganda bir-birlari bilan ko‘rishib turishi lozim. Men odamlarga razm solib yuraman-da: nega begonalar bilan har qanday kishi ham xushmuomala bo‘ladi, deb hayron bo‘laman. Nima sababdan hamma odamlar oilasidagidan ko‘ra begonalar o‘rtasida yaxshiroq ko‘rinish payida bo‘ladi? Chindan ham begonalar o‘rtasida yaxshiroq ko‘rinadi. Buning sababi nima? O‘z yaqinlarini ko‘proq yaxshi ko‘rsa ham, nega begonalardan ko‘ra o‘z yaqinlari bilan munosabati yomon bo‘ladi? Azizim, bilasanmi, sendan bir narsa iltimos qilmoqchiman; shu damgacha qanday bo‘lgan bo‘lsa, bundan keyin ham menga munosabating shunday bo‘lsin; axir, bu narsa meni yaxshi ko‘rishingga to‘sqinlik qilgani yo‘q-ku, biz har holda boshqalardan ko‘ra bir-birimizga yaqinroq edik. Shu damgacha sen o‘zingni qanday tutding? Hurmatsizlik qildingmi, qattiq gapirdingmi? Yo‘q. Begona ayolga yoki qizga beodoblik qilish, qattiq gapirish mumkinmi, deyishadi. Xo‘p, azizim: men sening qallig‘ingman, xotining bo‘laman, lekin sen har holda men bilan begona ayolga qanday muomala joiz bo‘lsa, shunday muomala

qil: azizim, ahil yashashimiz, sevgimizni ardoqlashimiz uchun shu ma'qulroqday ko'rinyapti menga. Shunday emasmi, jonginam?

– Verochka, sen to'g'ringda nima deb o'ylashimni ham bilmay qoldim. Sendan ilgarilari ham hayron bo'lib yurardim.

– Jonginam, sen meni maqtamoqchi bo'lasan! Yo'q, azizim, buni tushunib olish sen o'ylaganday qiyinmas. Bular birgina mening xayolimdagi gaplarmas, azizim: men kabi sodda xotin-qizlarning boshida ham shu fikr bor. Lekin ular o'z fikrlarini unashib qo'ygan yigitlariga yoki erlariga aytishdan tortinadilar; agar aytishadigan bo'lsa, ular to'g'risida nima deb o'ylashlarini: axloqsiz ekan, deyishlarini juda yaxshi biladilar. Seni yaxshi ko'rib qolganimning sababi ham shuki, sen bunday o'ylamaysan. Bilsang, seni dastlab tug'ilgan kunimdagi suhbatimiz vaqtida sevib qolgandim. Siz sho'rlik xotin-qizlarning ahvolingizga odamning yuragi achishadi, deganingdayoq yaxshi ko'rib qolgandim.

– Men seni qachon yaxshi ko'rib qoldim? Xuddi o'sha kuni, buni aytganman, lekin qachon aytgandim?

– Juda qiziqsan-da, azizim! O'zing topishing qiyinmas, deymanda, topsam yana maqtashga tushasan.

– Mayli, qani top-chi!

– Qachonligi ma'lum: men odamlar hayotini yaxshilash mumkinmi, shu rostmi, deb so'raganimda.

– Bu aqlingga yana qo'lingni o'pib qo'yish lozim bo'ladi, Verochkam.

– Qo'ysang-chi, azizim, ayollarning qo'lini o'pishlarini xush ko'rmayman.

– Nega, Verochka?

– Jonginam, buni o'zing ham bilasan, mendan so'rab o'tirishingning nima keragi bor? Azizim, menga bunaqa savollar berma.

– To'g'ri aytasan, do'stim: bunday so'rash mumkin emas. Bu yaxshi emas. Nima demoqchi bo'lganingni rostdan ham bilmagan vaqtlarimdagina so'rayman. Sen hech kimning qo'lini o'pish kerak emas, demoqchi eding.

Verochka xaxolab kulib yubordi.

– Endi gunohingni kechiraman, chunki o'zing kulgi bo'lib berding. Meni sinamoqchi bo'lgan eding, lekin buning nimasi yomonligini o'zing ham bilmas ekansan. Hech kimning qo'lini

o‘pish kerakmasligi to‘g‘ri gap-ku, lekin men umuman deb gapirganim yo‘q, men erkaklar xotinlarning qo‘lini o‘pishi yaxshi emasligi to‘g‘risida gapirdim xolos. Azizim, bunday ayollar juda ham xafa bo‘lsalar kerak; buning ma’nosi shu bo‘ladiki, erkaklar ayollarni o‘zlariga teng bilmasdilar, erkak odam xotin kishi oldida o‘z qadr-qimmatini yerga urolmaydi, xotin kishi erkakdan shu qadar past turadiki, erkak odam xotin kishi oldida o‘zini har qancha pastga ursa ham baribir xotin kishiga teng bo‘lmaydi, undan juda yuqori turadi, deb o‘ylaydilar. Sen, azizim, bunday deb o‘ylamaysan, shunday ekan, qo‘limni o‘pishning nima keragi bor senga? Undan ko‘ra, aziz do‘stim, menga qanday tuyulganiga quloq sol: ikkalamiz kuyov-kelinlarga ham o‘xshamaymiz-a?

– To‘g‘ri aytasan, Verochka, ularga o‘xshash yerimiz kam; unday bo‘lsa, ikkalamiz kimmiz?

– Bir xudo biladi, azizim bilasanmi, ikkalamizning nikohdan o‘tganimizga juda ko‘p vaqtlar bo‘lganga o‘xshaydi.

– Bo‘lmasa-chi, do‘stim: chindan ham shunday. Eski qadrdon do‘stlarmiz, hech narsamiz o‘zgargani yo‘q.

– Faqat bir narsa o‘zgardi, azizim; zindondan ozodlikka chiqayotganimni endi bilaman.

XIX

Ular o‘rtasida kelin-kuyov o‘rtasida bo‘ladigan birinchi suhbatga aslo o‘xshamaydigan taxlit g‘alati suhbat bo‘lib o‘tganidan keyin, bir-birining qo‘lini qisib, Lopuxov o‘z xonasiga kirib ketdi. U jo‘nagach, Verochka eshikni o‘zi bekitib oldi, chunki Matryona, malla mushuk hali ancha-muncha xurrak otadi, degan xayolda hali ham pivoxonada xotirjam o‘tirgandi. Matryonaning malla mushugi rostdan ham hamon xurrak otib yotardi.

Lopuxov uyiga soat oltidan keyin yetib qolib, ishga o‘tirdi-yu, lekin ancha vaqtgacha qo‘li ishga bormadi. Semyonov ko‘prigi yonidan Viborggacha uzoq yo‘l bo‘yi miyasi nima bilan band bo‘lgan bo‘lsa, hozir ham shular bilan band edi. Balkim, ishq-muhabbat xayollari bilan banddir, dersiz? Yo‘q, unchalik ham emasdi. Umuman hozir, uning xayolini band qilgan fikrlarini orzu deb bo‘lmasdi. Hayotdan yolchimagan kishining o‘ziga yarasha

g‘am-tashvishi bo‘ladi, Lopuxov shu haqda o‘ylab qolgandi. Turgan gap: materialist o‘z foydasini o‘ylaydi xolos. Chindan ham u faqat foydani o‘ylardi, shoirona, shirin xayollar surish o‘rniga qo‘rs materialistlarga xos ishq xayollari bilan band edi.

«Qurbon bo‘ldim», degan xayolni miyadan chiqarib tashlash sira mumkin emasdi. «Bu yaxshi emas. Falonchi oldidagi burchimni durustroq ado etishim kerak, deb o‘ylaganingning o‘zida unga qiladigan muomalang birmuncha zo‘rma-zo‘raki bo‘lib qoladi. O‘zi bilib oladi, deysan. Og‘aynilarim, baland martabaga minadigan odam edi, deb tushuntirib qolishadi. Tushuntirib bermaganlarida ham o‘zi payqaydi: «Do‘stim, meni deb shuncha vaqt kutib yurgan martabangdan kechibsan», deyishi turgan gap, – pul-ku o‘rtaga tushmas, – oshnalarim ham, Vera ham pulni o‘rtaga solishmaydi. «Men bo‘lmaganimda boy bo‘lib ketardi, meni deb kambag‘alligicha qoldi», deb o‘ylamasa, shunga ham shukur qilish kerak. Bunday deb o‘ylamas. Lekin olim degan nom chiqarish niyatim borligini, nomim ham chiqishi turgan gapligini bilib oladi. «Voy, meni deb o‘zini fido qildi!» – deb qayg‘urishini o‘shanda ko‘rasiz. Men bo‘lsam fidokorlik qilishni o‘ylaganim ham yo‘q, shu damgacha fidokorlik darajasiga yetib aqlimni yeb qo‘yganim ham yo‘q, hech vaqt yemasman ham, deb o‘ylayman. O‘zini fido qiladiganlardan emasman. Bundaylar bo‘lmaydi ham, kim o‘zini fido qilmaydi ham; fido aylash degani – bo‘lmagan, bema’ni gap. Ko‘nglingga yoqqan ishni qilasan. Shunday deb tushuntirib ko‘r-chi. Nazarida bu tushunarli; lekin kishi o‘z ko‘zi bilan ko‘rdimi, taltayib: valine’matimsiz, deb turib oladi. Mana, bo‘lajak hosil nishonasi hozirdanoq ko‘rinib qoldi-ku: «Sen meni zindondan qutqarding, qanday rahmdilsan», deb aytdi ham-ku. Agar bu ishim o‘zimga yoqmasa, seni qutqarib o‘tirarmidim. Xayolingda, seni men ozod qilyapmanmi? Bundan o‘zim mamnun bo‘lmasam, jon kuydirib o‘tirarmidim, menga nima! Ehtimol, men o‘zimni o‘zim ozod etgandirman. Ha, albatta, o‘zimni ozod etdim; yashagim keladi, sevgim keladi, tushundingmi? Hammasini o‘zimga, o‘zim uchun qilyapman. Unda zararli minnatdorlik tuyg‘usi kuchaymaslik, uni qiynoqqa solib qo‘ymaslik uchun nima qilsam ekan? Biron iloji topilib qolar, – o‘zi aqlli qiz, buning arzimagan gapligini tushunadi. Albatta, bunday qilish xayolimda ham yo‘q edi.

Oilasidan chiqib ketishga ulgurolsa, uylanishimizni bir-ikki yil keyinga surarmiz, deb o'ylagandim; shu vaqt ichida professor ham bo'lib olardim, pul masalalari ham joyida bo'lardi. Endi keyinga surib bo'lmaydi. Xo'sh, bundan menga qanday zarar? Men avval pul masalalarini bir yoqlik qilish kerak, deb o'ylab yurganimda, o'zimni o'ylabmanmi? Erkak kishiga nima? Erkakka hech gapmas. Pul kamchilligi xotin kishiga ta'sir qiladi. Oyog'imda etigim bor, tirsaklarim yirtilgan emas, bir tovoq karam sho'rvam bor, uyim issiq, – menga yana nima kerak? Xullas, bu ishdan men qanday zarar ko'raman? Yosh, go'zal qizga bu kifoya qilmaydi, ko'ngli huzur-halovat tusaydi, odamlar orasida tanilishni istaydi. Bular uchun esa qo'lida puli bo'lmaydi. Albatta, shu narsalar kamlik qilib turibdi, deb o'ylamaydiku-ya; o'zi aqlli, nomusli qiz; bu hech gapmas, shunchaki bema'nilik, undan nafratlanaman, deb o'ylaydi va shunday qiladi ham. Lekin kishi o'ziga nima yetishmay turganini bilmasa yoki hatto buning menga keragi yo'q, deb ko'nglini to'q qilsa ham shunday ekan-ku, deb qo'ya qolish kifoya, deysizmi? Yo'q, bu xomxayol. Inson tabiati aql-farosat, shart-sharoit, g'urur panasida qoladi-da, damini chiqarmaydi, hamisha mulohaza yuritib ichidan ezilaveradi. Yosh qizning bunday umr kechirishi, chiroyli qizning bunday turmush qurishi yarashmaydi; mol-dunyosi bo'lmagani vajidan boshqalarga o'xshab yasanmasligi, zeb-ziynat ichida yurmasligi yaxshi emas. Bechoraginam, senga yuragim achiydi: biron iloj qilib sal tuzukroq yasharsan, deb o'ylagandim. Menga nima? Men yutdim, kim bilsin, ikki yildan keyin menga tegadimi-yo'qmi; hozir esa tegmoqchi...»

– Dmitriy, kel, choy ich.

– Hozir. – Lopuxov Kirsanovning xonasiga kira turib o'ylab qoldi: «To'g'ri-da, men hamma vaqt birinchi o'rinda turadi – o'zimdan boshlab o'zim bilan tugatdim. Nimadan boshlovdim: «fido» degan so'zdan – makkorlikni qarang; olimlik shon-shuhratidan va kafedradan voz kecharmishman, bo'lmagan gap! Bari bir emasmi, shunday bo'lganda ham ishlayveraman, shunday bo'lganda ham kafedraga boshliq bo'laman, shunday bo'lganda ham tibbiyotga xizmat qilaveraman. Nazariyotchi kishining xudbinligi amaliyotda fikrlar qo'zg'atishini payqab turishi naqadar lazzatli».

Men kitobxonni hamma voqeadan ogohlantirib turaman, shu vajdan kitobxonga aytadigan so‘zim shuki, u, muallif Lopuxovning bu monologini keltirish bilan Lopuxov bilan Vera Pavlovnaning bundan keyingi munosabatlarida biron muhim voqea sodir bo‘lishiga ishora qilyapti, deb o‘ylab o‘tirmasin; Vera Pavlovnaning odamlar o‘rtasida dong chiqarishga va yasanib yurishga imkoni yo‘qligi uning turmushiga aslo rahna solmaydi va «zararli» minnatdorchilik «tuyg‘usi»dan Lopuxov ikkalasi o‘rtasidagi munosabatiga zarar yetmaydi. Men har bir so‘zi tagiga biron ma’no yashiradigan san’atkorlardan emasman, men odamlarning o‘y-fikrlari va qilmishlarini hikoya qilib beraman xolos; agar insonning biron xatti-harakati, gapi, fikriy monologi shaxsni yoki biron vaziyatni ta’riflash uchun kerak bo‘lsa, garchi romanimning bundan keyingi voqealarga uning hech bir ta’siri bo‘lmasa ham, men uni hikoya qilaveraman.

– Endi, Aleksandr, ishda mendan qolib ketyapsan, deb shikoyat qilmaysan, senga yetib olaman.

– Anavi qizga yordam berish harakatida yurganding, bitirdingmi?

– Bitirdim.

– B. xonimnikiga murabbiya bo‘lib kiradimi?

– Yo‘q, murabbiyalikka kirmaydi. Boshqacharoq bo‘ldi. Hozircha o‘z oilasida ham tuzukroq tursa bo‘laveradi.

– Durust, yaxshi bo‘pti. Murabbiyalik osonmas. Mendan so‘rasang, birodar, ko‘z asabini tamomlab, endi undan keyingi juftga kirishyapman. Sen nimada qolgan eding?

– Men hali, anavi... ishimni tamomlashim kerak... – Shu bilan anatomiya va fiziologiyadan gap boshlanib ketdi.

XX

«Bugun 28-aprel. U iyul boshlarida ishimni tamomlayman, dedi; boring, 10-da tamomlasin: bu oyning boshi emas-ku. 10-sanasini olsa bo‘ladi yoki aniq bo‘lsin uchun 15-iyulni ola qolay: yo‘q, 10-bo‘lgani yaxshiroq, yana qancha kun qoladi? Bugunni hisoblamasa ham bo‘ladi – bugundan besh soat qoldi xolos; apreldan ikki kun qoldi; may – 31 kun, 2 kunni qo‘shsak 33 kun

bo‘ladi; iyun – 30 kun, 33 ni qo‘shsak, 63 kun bo‘ladi; iyuldan 10 kun olamiz, hammasi bo‘lib faqat 73 kun bo‘larkan. Shu ham ko‘pmi – faqat 73 kun? Keyin ozod bo‘laman! Bu zindondan chiqaman! Oh, qanchalar baxtiyorman! Jonginamning o‘ylab topgan ishini aytmaysizmi? Qanchalar baxtiyorman!»

Bu yakshanba kuni kechqurun bo‘lgan gap. Dushanba kuni – seshanbadan ko‘chirilgan dars kuni.

– Do‘stim, azizim, bir daqiqa bo‘lsa-da yana sen bilan birga bo‘lganimga xursandman! Bu zindonda yana qancha umrim qoldi, bilasanmi? Sening ishlaring qachon tugaydi? O‘ninchi iyulda tugaydimi?

– Tugaydi, Verochka.

– Demak, zindonda yana yetmish ikki kun-u shu oqshom o‘tirar ekanman. Bugun bir kunni o‘chirib tashladim, – pansion tolibalari va maktab bolalari singari jadval tuzib oldim, har kuni o‘chirib turaman. O‘chirib turish qanchalik maroqli!

– Jonginam Verochka, azizim! Endi g‘am-g‘ussadan qutuladigan kun yaqin qoldi, ikki yarim oy ko‘z ochib-yumguncha o‘tib ketadi, ozodlikka chiqasan.

– Rosa suyunaman-da! Lekin sen, azizim, endi men bilan hech gaplashma, menga qarama ham, endi fortepyano ham chalavermaymiz. O‘zim ham sen kelganda har gal xonadan chiqavermayman. Yo‘q, chiqmasam turolmasman, har gal chiqaman, faqat bir daqiqaga chiqaman, senga sovuqqina qarab qo‘yaman, kulmayman ham. Hozir ham xonaga kirib ketaman. Xayr, azizim. Qachon?

– Payshanba kuni.

– Uch kun! Muncha uzoq! Unda faqat oltmish sakkiz kun qoladi.

– Kamroq hisoblasang ham bo‘ladi: yettinchilarda bu yerdan chiqib ketishing mumkin bo‘ladi.

– Yettinchidami? Demak, bugun oltmish to‘qqiz kun qopti-da? Meni juda xursand qilding-da! Xayr, azizim!

Payshanba.

– Azizim, men bu yerda endi faqat oltmish olti kun o‘tiraman xolos.

– To‘g‘ri, Verochka, vaqt g‘izillab o‘tib ketyapti.

– G‘izillab, deysanmi? Yo‘q, azizim. Kunlar juda ham uzayib ketdi! Shu uch kun o‘tguncha boshqa vaqtlarda bir oy o‘tsa ham bilinmasdi, xayr, azizim, uzoq gaplashib o‘tirishimiz yaramaydi, – o‘zimiz ham rosa ayyormiz-da, nima deding? Xayr, xah, men zindonda yana oltmish olti kun o‘tirishim kerak!

(«Hm, hm. Men sezayotganim yo‘q – ish bilan bo‘lib vaqt o‘tganini ham bilolmay qolyapman. Qolaversa, men zindonda ham emasman. Hm, hm! Ha».)

Shanba.

– Oh, azizim, yana oltmish to‘rt kun bor! Bu yerda yuragim siqilib ketdi! Bu ikki kunning o‘tishi o‘tgan uch kundan og‘ir bo‘ldi. Xunob bo‘lib ketdim! Jonginam, bu yerning qanchalik iflos, jirkanchligini bilsang edi! Xayr, jonginam, azizim, seshanbagacha xayr; bu uch kun shu o‘tgan besh kunning hammasidan ham uzoq cho‘ziladi. Xayr, azizim.

(«Hm, Hm! Ha! Hm! Ko‘zlari bejo. Yig‘lashni yaxshi ko‘radiganlardan emas. Bunisi yaxshi emas! Hm! Ha.)

Seshanba.

– Azizim, kun sanashni ham bas qildim. Kun o‘tmayapti, sira o‘tmayapti.

– Verochka, do‘stim, sendan bir iltimosim bor. Yaxshilab gaplashib olishimiz lozim. Ozodlikni nihoyatda qo‘msab qolding. O‘zingga biroz erk ber, gaplashib olishimiz kerakmi axir?

– Xo‘p, azizim, xo‘p.

– Senga bir iltimosim bor. Ertaga, qay mahalda qulay bo‘lsa, qaysi vaqtda desang ham, baribir, aytsang bo‘lgani, – Konnogvardeyskiy xiyobonida yana o‘sha o‘rindiqqa borib o‘tirib tursang. Borasanmi?

– Boraman, azizim, albatta boraman. Soat o‘n birda, yaxshimi?

– Juda yaxshi. Rahmat, do‘stim.

– Xayr, azizim. Bu fikrni o‘ylab topganingdan juda xursandman! Bu narsa men ahmoqning xayolimga ham kelmapti. Xayr. O‘sha yerda gaplashamiz; har holda men erkin nafas olib, diqqatim yoziladi. Xayr, azizim, soat o‘n birda, albatta.

Juma.

– Verochka, qayoqqa otlanyapsan?

– Menmi, oyijon? – Verochka qizarib ketdi. – Nevskiy prospektiga, oyijon.

– Unda, men ham sen bilan birga boraman, Verochka, Gostinniy dvorda ishim bor. Nevskiyga deysan-u, kiygan kiyimingni qara! Nevskiyga borsang, tuzukroq kiyinib ol, qizim, bu ahvolda odamlarga qanday ko'rinasan?

– Shu ko'ylagimni yaxshi ko'raman. Bir daqiqa poylab turing, oyijon, bir narsam qopti, olib chiqaman.

Uydan chiqib yo'lga tushishdi. Gostinniy dvorga yetib borishdi. Sadovaya ko'chasidan o'tib, Nevskiy prospektiga yaqinlab qolishdi, mana, Ruzanov do'koniga ham yetib kelishdi.

– Oyijon, sizga aytadigan ikki og'iz gapim bor.

– Nima deysan, Verochka, jon bolam?

– Xayr, oyijon, qachon qaytishimni bilmayman; jahlingiz chiqmasa, ertagacha xayr.

– Nima deyapsan, Verochka? Gapingga tushunolmay turibman.

– Xayr, oyijon. Men erimnikiga ketyapman. Dmitriy Sergeich bilan uch kun burun nikoh qildirdik. Izvoshchi, Karavannayaga hayda.

– Xonim, bir tanga-yu bir miri berasiz.

– Xo'p, tezroq yur. O'zi kechqurun uyga keladi. Mendan xafa bo'lmang, oyijon.

Bu so'zlar Marya Aleksevnaga arang eshitildi.

– Karavannayaga emas, men bu xonimdan tezroq qutulib olay, sen ham ko'p o'ylab o'tirmagin, deb shunday degan edim. Chapga, Nevskiyga buril. Karavannayadan ham nariga, Vasilyevskiy ostrovga, Beshinchi liniyaga, Sredniy prospektning naryog'iga boraman. Tuzukroq yurgizgin, yana qo'shaman.

– Xonim, meni aldamoqchi bo'lgan ekanlar-da! Yarim so'm bermasalar bo'lmaydi.

– Tezroq olib borsang.

XXI

To'y rasmona to'ylardan ham, juda dabdabali to'ylardan ham bo'lgani yo'q.

Endi biz kelin-kuyovmiz, degan gap bo‘lgandan keyin oradan ikki kun o‘tgach, Verochka ozod bo‘lishiga yaqin qolganiga suyunib yurdi; uchinchi kun, uning iborasi bilan aytganda, «zindon» ko‘ziga undan ham yomon ko‘rinib qoldi, to‘rtinchi kun yig‘ladi, holbuki, Verochka yig‘i degan narsani yomon ko‘rardi, lekin sal yig‘lab oldi, beshinchi kun ko‘proq yig‘ladi, oltinchi kun yig‘isini yig‘ishtirib qo‘ydi-yu, lekin g‘am-g‘ussadan ko‘ziga uyqu kelmadi.

«Hm, hm» degan monologni boshlaganida, Lopuxov bir qarab qo‘ydi, yana bir qaradi-da, «hm, hm! Ha! Hm!» – deb qo‘ydi. Birinchi monologni aytganda u bir narsani chamalab qo‘ydi-yu, nimani chamalab qo‘yganini o‘zi ham bilmadi, ikkinchi monologni aytganda o‘zining birinchi monologida nimani chamalab qo‘yganini tushunib oldi. «Erk yo‘lini ko‘rsatgandan keyin, insonni erksizlikda qoldirish yaxshi emas», – shundan keyin ikki soat o‘yladi. Semyonov ko‘prigidan Viborg tomoniga yetguncha yo‘lda bir yarim soat o‘yladi, o‘z kushetkasida yarim soat o‘ylab yotdi; chorak soat qovog‘ini solmay o‘ylanib yotdi, qolgan chorakam ikki soat davomida qovog‘ini solib o‘yladi, ikki soatdan keyin peshonasiga bir urib, «Gogolning pochtmeysteri»dan beshbattar latta bo‘lib qolibman-ku!» – deb soatiga qaradi. «Soat o‘n, hali erta», deb xonadonidan chiqib ketdi.

Dastlabki chorak soatda qosh-qovog‘ini solmay o‘yladi: «Hammasi behuda gap, kursni tamom qilishning nima keragi bor? Diplomim bo‘lmasa ham bir kunim o‘tib qolar, – diplomning keragi ham yo‘q. Dars bersam, tarjima qilsam ko‘proq topaman, doktorligimdan ko‘p topsam topamanki, kam emas, bular arzimagan gaplar».

Demak, to‘g‘risini aytganda, bunga qovoq solishning ham keragi yo‘q edi; o‘tgan safar dars berganida xayoliga shunga o‘xshagan fikr kelib qolgandi. Buni u hozir tushundi. Agar «fidoyilik» degan gapdan boshlanib, kiyim-kechak to‘g‘risidagi mulohazalar bilan tamom bo‘lgan fikrlarini esiga tushirsak, shunga o‘xshagan holatlar yuz berishi o‘sha paytdayoq sezilib qolganini aytib, uni qo‘lga tushirish mumkin bo‘lardi, yo‘qsa uning miyasiga o‘sha vaqtdayoq: «Olimlik shuhratidan voz kechaman», degan fikr qayoqdan kela qolardi? U vaqtda, o‘zi voz kechmasa ham nazarida his-tuyg‘usi: «Voz kechishing turgan gap, muddat berishmaydi», deganday

bo‘lgandi. Binobarin, agar amaliyotchi mutafakkir Lopuxovni o‘sha vaqtdagi «voz kechmayman»ini bekorga chiqarib, uni qo‘lga tushiradigan bo‘lsak, nazariyotchi sifatida tantana qilar va bunday deyardi: bu fikrlarimizni xudbinlik idora qilishiga yangi bir misol! «Men buni oldindan bilishim lozim edi, lekin bilmadim, chunki boshqa narsani bilgim kelardi, bizning xatti-harakatlarimizni ham xudbinlik idora qiladi, chunki hammasini oldindan bilish va o‘sha vaqtdayoq bartaraf qilib qo‘ya qolish mumkin bo‘lgani holda, qizni zindonda bir hafta ortiqroq o‘tirishga majbur qilishning nima keragi bor edi!»

Lekin bulardan birontasi xayoliga ham kelmadi, birontasi haqida o‘ylamadi ham, chunki qovog‘ini solishi va qovog‘ini soliq ahvolda chorakam ikki soat: «Kim nikoh qiladi?» – degan so‘zni o‘ylab o‘tirishi lozim bo‘lgandi. Yakkash: «Hech kim nikoh qilmaydi!» – deb javob beraverdi. Bir vaqt «hech kim nikoh qilmaydi», degan javob o‘rniga «Mersalov» degan familiya esiga tushdi; shunda peshonasiga bir urib: «Boshda Mersalovni eslasam bo‘lmasmidi?» – deb o‘zini koyib to‘g‘ri ish qildi. Qisman to‘g‘ri ish qilmadi ham: Mersalovni o‘ylaganda uni nikohlovchi odam deb o‘ylash odat emasdi.

Tibbiyot akademiyasida har xil odamlar bor, jumladan, seminaristlar ham uchraydi; Diniy akademiyada ularning tanishlari bor, shular orqali bu akademiyada Lopuxovni biladigan kishilar ham topiladi. Diniy akademiyadagi tanish talabalardan biri yaqin bo‘lmasa ham yaxshi bir talaba bir yil ilgari kursni tamomlab, Vasilyevskiy ostrovdagi allaqanday seryo‘lak bir binoda poplik qilardi. Lopuxov ana shu oshnasinikiga jo‘nadi, vaqt ziq bo‘lib kech qolganidan hatto izvoshga tushib oldi.

Mersalov uyida yolg‘iz o‘zi yangi bir asarni – Lyudovik XIV nimi, yo shu suloladan bo‘lgan boshqa bir kishining asarinimi o‘qib o‘tirgandi.

– Aleksey Petrovich, gap bunday! Bilaman, siz uchun juda qaltis ish; ota-onasi bilan yarashib olsak yaxshi-ya, lekin sudga berishsa nima qilamiz? Boshingizga balo bo‘lishi turgan gap, lekin... – Lopuxov shuncha qidirsa ham kallasidan hech qanday «lekin» topolmadi: darhaqiqat, bizni deb bo‘yningga sirtmoq soldir, deb kishi qanday ko‘ndirish mumkin!

Mersalov uzoq o‘yladi, bunday qaltis ishga vakolat berish uchun u ham «lekin» qidirdi, biroq u ham hech qanday «lekin» topolmadi.

– Endi nima qilamiz? Biron ilojini topish kerak edi-ya... men ham bir yil ilgari sizning ahvolingizga tushgandim, sizday men ham noiloj edim. Hozir uyalib turibman: sizga yordam qilish kerak edi. Ha, oilalik bo‘lganingdan keyin u yoq-bu yoqni surishtirmay ish qilishga ham qo‘rqasan kishi.

– Salom, Alyosha. Hammalari salom deb yuborishdi, salom, Lopuxov: ko‘rishmaganimizga ham ancha bo‘ldi. Xotin to‘g‘-risida gapirayotibsizlarmi? Qachon qarasang, xotinlaringni yomon-laysizlar, – dedi ota-onasinikidan qaytib kelgan o‘n yetti yoshlar chamasidagi yoqimtoygina, malla soch, o‘ktam bir xonim.

Mersalov voqeani xotiniga gapirib berdi. Bu yosh xonimning ko‘zlari chaqnab ketdi.

– Alyosha, seni yeb qo‘yisharmidi!

– Qaltis joyi bor, Natasha.

– Juda qaltis ish, – uni quvvatladi Lopuxov.

– Nima bo‘pti, Alyosha, tavakkal qilaver, iltimos.

– Agar, Natasha, o‘zingni xavf-xatarga qo‘yib, meni yodingdan chiqarding, deb koyimasang, gap tamom. Dmitriy Sergeich, qachon nikoh qildirmoqchisiz?

Demak, to‘sqinlik qiladigan narsa qolmadi. Dushanba kuni erta bilan Lopuxov Kirsanovga bunday dedi:

– Aleksandr, gapdan xabaring bormi? Ishimizning zimmadagi yarmini ham senga tortiq qiladiganga o‘xshayman. Qog‘ozlarim va preparatlarimni ol, men bu ishdan voz kechdim. Akademiyadan ketadigan bo‘ldim, iltimosim shu. Uylanmoqchiman.

Lopuxov voqeani qisqagina qilib gapirib berdi.

– Agar sen ahmoq bo‘lsang yoki men ahmoq bo‘lsam, Dmitriy, bu tentaklik, derdim, hozir unday demayman. Bildiradigan e’tiroz-laringni mendan ham yaxshiroq o‘ylab qo‘ygandirsan. O‘ylab qo‘ymagan bo‘lsang ham menga baribir. Bu ishing tentaklikmi, tentaklik emasmi, bilmayman, lekin seni bu ishdan qaytara olmasligimni bilganim uchun o‘zim ham tentaklik qilib seni qaytaraman, deb harakat qilmayman. Bu ishda senga biron keragim bormi?

– Biron arzonroq joydan uch xonalik xonadon izlab topish kerak. Men Akademiyaga borib qog‘ozlarimni tezroq olishim kerak bo‘ladi. Xonadonni sen qidirsang, deyman.

Lopuxov seshanba kuni qog‘ozlarini oldi, Mersalovga borib, to‘y ertaga bo‘ladi, dedi.

– Aleksey Petrovich, sizga qaysi vaqt qulayroq? – Aleksey Petrovichga baribir, ertaga kun bo‘yi uyda bo‘ladi. – Aytgancha, sizga xabar berish uchun Kirsanovni yuborishga vaqt toparman.

Lopuxov chorshanba kuni soat 11 da xiyobonga kelib, Verochkani ancha kutdi, endi tashvishlanib turgandi, Verochka ko‘rindi: shoshilib kelib qoldi.

– Verochka, do‘stim, senga biron narsa bo‘ldimi?

– Yo‘q, azizim, yo‘q, kechikishimga sabab uxlab qolibman.

– Soat nechada uyquga yotgan eding?

– Azizim, senga aytmoqchi emasdim, soat yettida yotdim, xayol surib ketibman; yo‘q, oldinroq ekan, soat oltida.

– Azizim Verochka, sendan iltimos shuki, ikkimiz ham xotirjam bo‘lishimiz uchun tezroq nikohdan o‘tishimiz kerak.

– Ha, azizim, shunday qilish kerak, tezroq bo‘lish kerak.

– Unday bo‘lsa, to‘rt kun, uch kunlardan keyin...

– Qani endi, koshki edi, azizim, juda aqlli ish qilarding-da.

– Uch kunlardan keyin xonadon toparman, ro‘zg‘orga kerak narsalar sotib olaman, keyin ko‘chib birga tursak ham bo‘ladimi?

– Bo‘ladi, azizim, bo‘ladi.

– Oldin nikohdan o‘tishimiz kerak-ku.

– Azizim, oldin nikohdan o‘tish kerakligini ham unutibman.

– Bugun nikoh o‘qitishimiz ham mumkin, sendan shuni iltimos qilmoqchi edim.

– Yur bo‘lmasa, azizim, nikohdan o‘taylik; bularga qanday va qachon ulgurding? Muncha ham aqllisan!

– Yo‘lda hammasini gapirib beraman, ketdik.

Yetib kelishdi, uzun yo‘laklardan o‘tib cherkovga kirishdi, qorovulni topib, Mersalovga yuborishdi; Mersalov ham uzun-uzun yo‘lakli shu uyda turardi.

– Endi, Verochka, sendan yana bir iltimos, cherkovda kelin-kuyovni o‘pishishga majbur qilishlarini bilasanmi?

– Ha, azizim, bilaman: lekin juda uyalaman-da!

– Bo‘pti, o‘shanda uyalib o‘tirmaylik, desang, hozir o‘pishib qo‘ya qolaylik.

– Xo‘p bo‘ladi, azizim, o‘pishsak o‘pisha qolaylik, busiz mumkin emas ekanmi?

– Cherkovda busiz mumkin emas, shuning uchun hozir o‘rganib qo‘yaylik.

O‘pishishdi.

– Azizim, o‘rganib qo‘yganimiz ham yaxshi bo‘ladi, ana, qorovul ham kelyapti, endi cherkovda uncha uyalmaymiz.

Lekin kelgan kishi qorovul emasdi, qorovulni dyachokka yuborishgan edi, Mersalovnikida kutib o‘tirgan Kirsanov kirib keldi.

– Verochka, sen juda yomon ko‘rgan va meni ham ko‘rishmaysan, deb taqiqlab qo‘ygan odaming Aleksandr Matveich Kirsanov shu bo‘ladi.

– Vera Pavlovna, biz mehribonlarni qaysi gunohimiz tufayli bir-birimizdan judo qilmoqchi bo‘ldingiz?

– Mehribon bo‘lganlaringiz uchun, – dedi Vera Pavlovna, qo‘lini Kirsanovga uzatarkan, u hamon tabassum-la nimanidir o‘ylab turardi, – unga men sizdek ko‘ngil qo‘ya olarmikinman? Siz uni juda ham yaxshi ko‘rasiz-da.

– Menmi? Men, Vera Pavlovna, o‘zimizdan boshqa hech kimni yaxshi ko‘rmayman.

– Uni ham yaxshi ko‘rmaysizmi?

– Birga turdik, janjallashmadik, shu ham katta gap.

– U ham sizni yaxshi ko‘rmasmidi?

Bundan biron narsa sezganim yo‘q. Keling, o‘zidan so‘rab qo‘ya qolamiz: Dmitriy, sen meni yaxshi ko‘rarmiding?

– Seni unchalik yomon ham ko‘rgan emasman.

– Unday bo‘lsa, Aleksandr Matveich, siz bilan ko‘rishib turishga qarshiligim yo‘q, o‘zim ham sizni yaxshi ko‘rib qolarman.

– Mana bu ishingiz durust, Vera Pavlovna.

– Mana men ham tayyorman, – Aleksey Petrovich keldi, – qani, cherkovga yuringlar. – Aleksey Petrovich xursand ko‘rinardi, qiziqchilik qilib qo‘ydi, nikoh o‘qiganda esa tovushi biroz xirillab turdi, – sudga bersa nima bo‘ladi? Natasha, otangnikiga bor, ering boqa olmay qoldi, deysanmi, tirik ering turganda otangning bergan tuzi ham tatimaydi! – Xullas, yana bir necha og‘iz gapirganidan keyin o‘zini bosib oldi.

Nikoh marosimi yarmiga yetganda Natalya Andreyevna yoki Aleksey Petrovich tili bilan aytganda, Natasha kirib keldi; nikohdan keyin kelin-kuyovni, biznikiga marhamat, deb taklif etdi; ularnikida kichkinagina dasturxon hozirlab qo'yilgan edi: nikohdan keyin kirishdi, o'ynab-kulishdi, ikki juft bo'lib ikki kadrildan raqs tushishdi, valsga ham tushishdi, Aleksey Petrovich raqsni bilmagani sababli skripka chalib berdi; shu taxlitda bir yarim soatcha vaqt qanday o'tganini ham bilmay qolishdi. To'ylari o'yin-kulgi bilan yaxshi o'tdi.

– Meni uyda ovqatga kutib o'tirishgan bo'lsa kerak, ketsam bo'lardi, – dedi Verochka. – Endi, azizim, men uch-to'rt kun zindonimda betashvish yashashim mumkin, ko'proq ham tursam bo'laveradi, – endi tashvish tortib nima qilardim! Qo'rqadigan joyim qolgani yo'q, yo'q, kuzatma, o'zim ketaman, ko'rib qolishmasin tag'in.

– Hechqisi yo'q, meni pishirib yeyisharmidi, xijolat chekmasangiz ham bo'ladi, janoblar! – dedi Aleksey Petrovich Lopuxov bilan Kirsanovni kuzatib qo'yar ekan: ular, Verochka sal nariga yetib olsam, deb bir necha daqiqa kutib turishgandi: – Natashaning menga dalda berganidan hozir juda xursandman.

Ertasiga, to'rt kun axtargandan keyin, Vasilyevskiy ostrovdagi 5-liniyaning eng oxiridan juda yaxshi xonadon topishdi. Lopuxovning yonida bor-yo'g'i bir yuz oltmish so'm jamg'arib qo'ygan puli bor edi, oshnasi bilan maslahatlashib, Verochka bilan hozirdanoq uy-ro'zg'or tashvishini qilish, mebel, idish-tovoq sotib olish mumkinmas, degan qarorga kelishdi, shu vajdan bir meshchan xonadonida uch xona uyni mebeli, idish-tovog'i va mayda-chuydasi bilan ijaraga olishdi; uy egasi kunduzlari 1-liniya bilan 2-liniya o'rtasidagi Sredniy prospektda qutisini devor tagiga qo'yib olib yoymachilik qiluvchi, tugma, lenta, to'g'nag'ich va shu kabi mollar sotuvchi, kechalari bo'lsa, kampiri bilan ezmalanishdan qo'li bo'shamaydigan bir chol edi. Kampirning kuni chayqov bozoridan keltiriladigan quchoq-quchoq, yuzlab, minglab eski-tuskilarni yamash bilan o'tardi. Uy egalarining o'zlari xizmatkorlik qilishga rozi bo'lishdi. Oyiga jami o'ttiz so'm to'lashadi. U vaqtlarda, bundan o'n yil burun Peterburg narx-navosi bilan qaraganda bu yerda juda arzonchilik edi. Bunday ma'murchilikda uch, hatto to'rt

oyga yetadigan mablag‘ jamg‘arib qo‘yilardi; choy uchun bir oyga o‘n so‘m ham yetardi, shunday emasmi? Lopuxov to‘rt oylik dars, biron adabiy mashg‘ulot, biron savdo idorasidan ish topib olaman, deb umid qilgan edi. Xonadon topilgan kuni, – topgan xonadonlari yaxshi edi, – o‘zlari ham uzoq vaqt qidirishdi, bekor ovora bo‘lishmadi, Lopuxov odatdagicha payshanba kuni darsga kelganida Verochkaga:

– Do‘stim, ertaga ko‘chib bor, mana manzili. Boshqa gapirib o‘tirmayman, sezib qolishadi, – dedi.

– Azizim, meni qutqarding!

Endi uydan qanday chiqib ketsa bo‘larkin? Aytsinmi? Verochka aytmoqchi ham bo‘ldi, lekin oyim urishib, kaltaklaydi, ustimdan qulflab qo‘yishi mumkin, deb o‘yladi. O‘ylab-o‘ylab, o‘z xonasida xat yozib qoldirmoqchi bo‘ldi: Marya Aleksevna qizining Nevskiy tomonga ketayotganini eshitib, men ham birga boraman, deganida, Verochka uyiga qaytib kirib xat olib chiqqan edi: oyimga to‘g‘risini aytganim durust, oyim men bilan ko‘chada yoqalashib o‘tirmas, deb o‘ylagandi. Lekin gapirganda uzoqroqda turib gapirib lippa izvoshga o‘tirib jo‘nab qolish kerak, bo‘lmasa qo‘limdan mahkam ushlab oladi.

Ruzanov do‘koni yonida bo‘lgan mojaroning boshi shu edi.

XXII

Biz mojaroning yarmidan xabardormiz, xolos. Hech gapdan xabari yo‘q Marya Aleksevna bir daqiqa, – yo‘q, bir daqiqa ham emas, bir zum, – qizi nima deganini tushunib olmoqchi bo‘ldi-yu, lekin tushunolmadi, bu nima degani, deb yerga qarab qoldi. Bir daqiqagina, hatto undan ham kam shu holatda turdi... Bir vaqt o‘ziga keldi, og‘zidan bir haqorat gap ham chiqdi, lekin bu payt endi qizi Nevskiyga qarab burilib ketayotgan edi; Marya Aleksevna o‘sha tomonga bir necha qadam yugurib bordi, izvosh kerak, degan fikrdan keyin yo‘lkaga o‘ta: «Izvosh!» – deb qichqirdi. «Xonim qayoqqa boradilar?» – qayoqqa desin? Qizining «Karavannayaga», degani qulog‘iga kirgandek edi, lekin qizi Nevskiyga burilib ketdi-ku. Qayoqqa yur desin endi? «Anavi la’natini quvib yet!» – «Quvib yet, deysizmi, xonim? Tuzukroq gapirsangiz-chi, qayoqqa yuray;

baylashmasdan qayoqqa borardim, buning ustiga qayoqqa borishim noma'lum bo'lsa». Marya Aleksevna o'zini yo'qotib, izvoshchini qarg'ay boshladi. «Boyvuchchamning kayfi borga o'xshaydi, deyman», dedi-da, izvoshchi yo'lga tushdi. Marya Aleksevna izvosh orqasidan yugurib, qarg'ab, boshqa izvoshlarni ham chaqirib, hay-haylab boraverdi. Nihoyat, kolonna tagiga yetib borgach, jazavasi tutib yer tepinib dodlay berdi: Gostinniy dvor kolonnalari yonida mayda-chuydalar sotuvchi yigitlardan besh-oltitasi atrofini o'rab oldi: yigitlar uni mazah qilib, biri qo'yib-biri olib inson sha'niga to'g'ri kelmaydigan gaplarni aytishar, mayna qilib goh maqtab, goh nasihat qilganday bo'lishardi; «Xonim, deyman, saharlab turib otib olgan ekanlar-da, bo'ldi qiling, poshshaoy!» – «Hoy poshshaxon, limonimdan beshtagina olsang-chi, juda ajoyib gazak bo'ladi-da, arzonga beraman!» – «Boyvuchcha, hoy boyvuchcha, uning gapiga quloq solma, limonni qo'y, bosh og'riq qilishdan yaxshisi yo'q!» – «Boyvuchcha, deyman, qarg'ash-so'kinishga ham yomon usta ekansan-da; kel, bas boylashib so'kishamiz, qani kim yutarkin!» – Marya Aleksevna nima qilayotganini o'zi ham bilmay, maynabozlik qilib unga tilini ko'rsatayotgan o'n yetti yoshlar chamasi bir yigitning quloq-chakkasiga shapaloq tortib yuborgandi, uning boshidagi shapkasi uchib ketdi, sochi qo'liga to'g'ri kelib qoluvdi, mahkam ushlab oldi. Buni ko'rgan tomoshabinlar qiyqirib yubordi. «Bo'sh kelma, boyvuchcha, bir adabini berib qo'y!» Ba'zi birlari: «Fedka, bo'sh kelma, sen ham qaytimini ber!» – deyishdi, lekin ko'pchilikning Marya Aleksevna tomonida ekanligi barala ko'rinib turardi: «Boyvuchchani urish Fedkaga yo'l bo'lsin!» – «Yaxshilab adabini berib qo'y, boyvuchcha, bir Fedkaning adabini ber, o'zidan ko'rsin u la'nati». Mayna qilib turgan yigitlardan boshqa yana ancha odam to'plandi: izvoshchilar ham, do'kondagi dastyor bolalar ham, yo'lovchilar ham tomosha qilib turishardi. Marya Aleksevna hushiga kelganday bo'ldi-da, Fedkani siltab yuborib, o'zi ko'chaning narigi betiga o'tib ketdi. Yigitlar orqasidan kulib, mayna qilib qolishdi.

Paj korpusi darvozasidan o'tgach, uyiga qarab ketayotganini payqadi-da, izvosh yollab eson-omon yetib keldi, eshik ochgan Fedyani kaltaklab, keyin shkafchasi oldiga bordi, nima bo'ldiykin, deb Matryona yugurib kirgandi, uni ham urdi, yana shkafchasi oldiga yugurdi, g'izillab Verochkaning xonasiga kirib ketdi, bir

daqiqadan keyin yana shkafcha yoniga keldi. Tag'in Verochkaning xonasiga kirdi, bu gal u yerda biroz hayallab qoldi, keyin og'ziga kelganini qaytarmay qarg'ab, so'kinib hamma xonalarga kirib chiqaverdi, lekin endi uradigan hech kim qolmadi: Fedya iflos zinapoyaga bekinib qutuldi, Matryona Verochkaning eshigi tirqishidan qarab turgandi. Marya Aleksevnaning chiqib kelayotganini ko'rib, oshxonaga ham o'tolmay shu yerga, Marya Aleksevnaning karavoti ostiga yashirinib, to'polon bosilib, uni chaqirgunlaricha pisib yotaverdi.

Marya Aleksevna xonadan xonaga o'tib qancha vaqtgacha qarg'ab so'kinganini Matryona bilolmadi, lekin bu ahvol uzoq davom etgan bo'lsa kerakki, ishdan qaytib kelgan Pavel Konstantinich ham uning g'azabidan benasib qolmadi, ham ma'naviy, ham moddiy jihatdan toza adabini berdi. Lekin har narsaning ham intihosi bor, deganlaridek, Marya Aleksevna bir vaqt: «Matryona, ovqatni olib chiq!» – deb baqirdi, Matryona dovul bosilganini ko'rgach, karavot tagidan chiqib, ovqat keltirdi.

Ovqat vaqtida Marya Aleksevna so'kinmagan bo'lsa ham irillashini, xuruj qilishini qo'ymadi, alamini noiloj ichiga yutib o'tirdi; keyin uyquga yotish o'rniga yolg'iz o'zi goh jim, goh vaysab o'tirdi, so'ngra vaysashini ham bas qilib jim bo'lib qoldi, oxiri:

– Matryona! Barinni uyg'ot, ayt, yonimga kelsin, – deb baqirdi.

Matryona, yana biron narsa buyurib qolar, deb pivoxonaga ham, boshqa biron xonaga ham chiqib ketolmay, Marya Aleksevnaning buyrug'ini kutib turgan edi, Pavel Konstantinich kirdi.

– Bor, bekaga borib, qizim bu shaytonga mening ijozatim bilan erga chiqadi, deb ayt. Xotinimning rayiga qaramadim, degin. Sizning ra'yingizga qaradim, sizning ko'nglingiz yo'qligiga ko'zim yetganidan shunday qildim, degin. Ayb faqat xonimda, men sizning ra'yingizga qaradim, degin. Ularning boshini men o'zim qovushtirib qo'ydim, degin. Tushundingmi?

– Tushundim, Marya Aleksevna, juda aqlli ish qilyapsan-da.

– Bor, dedim-ku! Ovqat yeb o'tirishgan bo'lsa ham, baribir, chaqirtir, dasturxondan ham turg'iz. Hali hech narsadan xabari yo'q.

Pavel Konstantinich aytgan gaplarning adolatdan ekanligi shu qadar ravshan ediki, u birovga gap uqtirishga usta bo'lganda ham

kechaklar, bir juft oddiy tilla zirak, eski bir ko'ylagi, Verochka kiyib ketgan eski paltodan boshqa hamma narsa uyda qolgan edi. Marya Aleksevna shu aniq masalada, Verochka o'z narsalarini talab qilib, Lopuxovga ro'yxat tuzib beradi, deb kutib o'tirdi. Oltin va shunga o'xshagan buyumlaridan hech birini bermayman. Jo'nroq to'rtta ko'ylak, ancha kiyilgan bir necha sidirg'a ichki kiyim beraman, deb qat'iy qarorga kelib qo'ydi. Lekin hech narsa bermay bo'larkanmi, bu olijanoblik bo'lmaydi, degan fikrga keldi. Sababi Marya Aleksevna olijanoblikni hamma vaqt o'rniga qo'yib kelardi-da.

Real hayotga oid yana bir masala – uy bekasiga munosabat masalasi edi; Marya Aleksevna bu masalani juda ustalik bilan hal qilib qo'yganini o'zimiz ham ko'rdik.

Endi uchinchi masalaga kelsak, bu benomus qiz bilan anavi ablahni nima qilish kerak, degan masala edi. «Oq qilish kerakmi?» – bu qiyin gapmas, lekin tuzukroq narsaga hazmi taom o'rnida ishlatsa bo'lardi. Tuzukroq chorasi faqat bitta – shikoyat yozib, ish qo'zg'atish, sudga berish. Marya Aleksevna dastlab hayajonda o'zining bu qarorini ideal bir chora deb bildi, shu idealligi nuqtayi nazaridan juda qiziq ishday ko'rindi. Lekin qoni sovib, tinchib qolgan sari bu ish ko'ziga boshqacharoq ko'rindi. Bunaqa ishlarga ko'p pul kerak bo'lishini, o'zi juda qiziqib qolgan bunday ideal ishlar uchun juda katta pul kerak bo'lib, rosa cho'zilishini, bir talay pulning boshiga suv quygandan keyin oqibati natijasiz tugashini Marya Aleksevnadan yaxshiroq biladigan odam yo'q edi.

Xo'sh, nima qilmoq kerak? O'ylab-o'ylab pirovardida faqat ikki narsaga qaror qildi: Lopuxov bilan rosa olishadi, talab qilib kelsa Verochkaning narsalarini qo'ldan chiqarmaslikka urinib ko'radi, binobarin, arz qilaman, deb qo'rqitadi. O'shanda ham miriqib qarg'ab, janjallashadi.

Lekin qarg'ab, janjallashish imkoniyati ham bo'lmadi. Lopuxov kelib, Verochka ikkalamizning sizdan, Marya Aleksevna va Pavel Konstantinich, iltimosimiz shuki, roziligingizni olmaganimiz uchun gunohimizni kechirsangizlar, dedi.

Bu gapni eshitib, Marya Aleksevna: «Oq qildim u yaramas-ni!» – deb baqirib yubordi.

Lekin «yaramas» deyishgacha bormay, faqat «yara...» degancha qoldi, chunki Lopuxov shu orada baland ovoz bilan: «Qarg'ish

eshitishga kelganim yo‘q, ish yuzasidan keldim. Jahlingiz chiqib turibdi, shu sababli xotirjam gaplasholmayapsiz, shuning uchun biz Pavel Konstantinich bilan maslahatlashib qo‘ya qolamiz, siz jahlingizdan tushib o‘zingizga kelganingizda bizlarni Fedya yoki Matryonani yuborib chaqirtirarsiz», deb Pavel Konstantinichni zaldan kabinetga boshlab borar ekan, azbaroyi qattiq gapirganidan uning gapini bo‘lish mumkin bo‘lmay qoldi: shu sababdan Marya Aleksevnaning gapi og‘zida qoldi.

Lopuxov Pavel Konstantinichni zal eshigigacha boshlab bordida, to‘xtab orqasiga qayrildi:

– Marya Aleksevna, xo‘p desangiz siz bilan ham hozir gaplashib qo‘ya qolay; lekin ish yuzasidan xotirjam gaplashib olishimiz kerak, – dedi.

Marya Aleksevnaniki yana tutib kelayotgandi, Lopuxov yana uning so‘zini bo‘lib:

– Tinch gaplasholmasangiz, chiqib ketganimiz ma’qul, – dedi.

– Sen, ahmoq, qayoqqa ketyapsan? – deb baqirdi Marya Aleksevna.

– O‘zi boshlab boryapti-ku.

– Agar Pavel Konstantinich ham tinch gaplashgisi kelmasa, men keta qolay, – menga baribir. Lekin, Pavel Konstantinich, nega o‘zingizni bunday haqorat qilishlariga yo‘l qo‘yasiz! Marya Aleksevna yo‘l-yo‘riqni bilmaydigan xotin, bizni xohlagan maqomga solib o‘ynatishim mumkin, deb o‘ylasa kerak, siz bo‘lsangiz amaldorsiz, qonun-qoidadan xabardor bo‘lishingiz lozim. Endi sen Verochkani hech nima qilolmaysan, bu kishiga esa hech bir daxling yo‘q, deyish sizdan lozim.

«Qo‘limizdan hech narsa kelmasligini ham biladi, bu muttaham deya o‘yladi ichida Marya Aleksevna. Lopuxovga, dastlab onalik izzat-nafsim qo‘zib qizishgandim, endi xotirjam gaplashaman, dedi.

Lopuxov bilan Pavel Konstantinich qaytib kelib joylariga o‘tirishdi; Lopuxov, iltimosim shuki, boshlagan gapimni oxirigacha yetkazmagunimcha quloq solib o‘tirsangiz, keyin har qancha gapingiz bo‘lsa men ham eshitaman, deb gap boshladi, Marya Aleksevna uning gapini bo‘lmoqchi bo‘lgan joylarda ovozini balandroq ko‘tarib shu bilan bemalol oxirigacha gapirib oldi, gapining mazmuni shu bo‘ldiki, endi bizni ajratish mumkinmas,

chunki Storeshnikov ishidan hech narsa chiqmasligini o'zingiz ham yaxshi bilasiz, shunday bo'lgandan keyin o'zingizni behuda qiynab nima qilasiz, yo'q desangiz yana ixtiyor o'zingizda: ortiqcha pulingiz bo'lsa, bir harakat qilib ko'rsangiz ham yomon bo'lmaydi; fig'oni falak bo'ladigan biron ish bo'lgani yo'q, chunki Verochkaning Storeshnikovga sira ham ko'ngli yo'q, xullas, o'zi aslida behuda ish edi, Marya Aleksevna, buni o'zingiz ham ko'rdingiz, qizni har holda erga berish kerak: bu esa turgan-bitgani ota-onaga zarar: qizga sep qilish kerak, to'yning o'ziga ham ancha-muncha pul kerak, lekin eng muhimi – qizning sepi; demak, Marya Aleksevna, Pavel Konstantinich, qizining sizlarga hech zarari tegmay erga chiqqani uchun hali undan minnatdor ham bo'lishingiz kerak! Lopuxov ana shunga o'xshash gaplarni gapirib yarim soatcha ezmalandi.

Lopuxov gapini tamom qilganida, Marya Aleksevna bunday qaroqchi bilan masala talashib obro' topmasligiga ko'zi yetdi-da, gapini to'ppa-to'g'ri o'z his-tuyg'ularidan boshlab qo'ya qoldi, men qizimiz Verochka ota-onasining rizoligini olmay erga chiqqanidan xafa bo'ldim xolos, chunki bu har qanday onaning ham jahlini chiqaradi; onaning his-tuyg'ulari, qayg'u-hasratlaridan gap ketgandan keyin, har ikkala tomonning fikri ham ko'proq shu masalaga qaratildi, nega deganda odob degan narsa shuni talab qiladi-da; odobni ham o'rniga qo'yib gaplashib olishdi. Marya Aleksevna, yolg'iz, sevikli qizim bo'lgandan keyin xafa bo'lmay ilojim qancha, dedi. Lopuxov, qizingizni sevsangiz, bo'lib o'tgan ishdan ranjimang, dedi, odob qancha talab qilsa, his-tuyg'ular haqida shunga yarasha gap ketgandan keyin, odob yuzasidan talab qilinadigan yana bir masalaga ko'chishdi, bir tomon: biz hamisha qizimizga baxt tilab keldik, desa, ikkinchi tomon: bu turgan gap, deb javob qaytardi; bu masalada ham uzundan uzoq gaplashib olganlaridan keyin, yana olijanob odob talabiga muvofiq ko'pdan ko'p uzrlar aytib xayrlasha boshlashdi, xullas, natija shu bo'ldiki, Lopuxov ona ko'ngli singanini ko'rib Marya Aleksevnadan, qizingizning siz bilan ko'rishuviga hoziroq ijozat bersangiz, deb iltimos qilmayman, chunki bu narsa ona uchun yana ham og'irroq tuyulishi mumkin, Marya Aleksevna qizining baxtli turmush kechirayotganini eshitgach (albatta, Marya Aleksevnaning birdan bir

orzusi shu edi, qizim baxtli bo'lsin, derdi), ko'ngli tinchiydi, demak, xafa bo'lmasdan qizi bilan diydor ko'rishuvi ham mumkin bo'ladi, dedi.

Ikki tomon shu qarorga kelib yaxshilik bilan xayrlashishdi.

– Voy qaroqchi-yey! – dedi Marya Aleksevna kuyovini kuzatib kirgach.

Kechasi tush ko'rdi: deraza tagida o'tirganmish, ko'chaga ajoyib bir kareta kelib to'xtabdi, undan yasan-tusan bir xonim tushibdi, yonida bir kishi ham bormish, ular Marya Aleksevnaning uyiga kirganmish-da, haligi xonim: «Oyijon, erim meni yasatib qo'yganini ko'rdingizmi!» – degan emish, bu xonim Verochka emish. Marya Aleksevna zehn solib qarasa, Verochkaning ustidagi ko'ylagi juda qimmatbaho matodanmish, Verochka: «Matoning o'zi besh yuz so'm turadi, oyijon, bu bizga hech gapmas», dermish. «Bunaqa bir to'p ko'ylagim bor: mana bu, oyi, undan ham qimmat turadi, mana bunga, barmoqlarimga qarang-chi! – dermish. Marya Aleksevna Verochkaning barmoqlariga qarasa, barmoqlariga katta-katta gavhar ko'zli uzuklar taqilganmish! «Oyijon, mana bu ikki ming so'mlik uzuk, mana bunisi, oyijon, undan ham qimmat – to'rt ming so'm; endi ko'ksimga qarang, oyi, bu to'g'nag'ich undan ham qimmat: bahosi o'n ming so'm!» – dermish. Haligi erkak Dmitriy Sergeichmish, u bunday dermish: «Oyijon, Marya Aleksevna, bular hammasi bizga pisand emas! Hamma gap hamyonimda: mana, oyijon, hamyonimga qarang, ko'rdingizmi to'lib ketganini, hammasi yuz so'mlik, shu hamyonni, oyijon, sizga tortiq qilaman, chunki bu ham bizga hech gapmas! Mana bu undan ham kattaroq hamyonni, oyijon, sizga tortiq qilmayman, chunki unda qog'oz pul yo'q, u bank biletlari va veksellar bilan to'la, bundagi har bir bank bileti va har bir veksel, hurmatli onajonim Marya Aleksevna, sizga tortiq qilgan hamyondagi hamma puldan ham qimmat turadi!» – «Aziz o'g'lim, Dmitriy Sergeich, siz qizimni, butun oilamizni baxtli qildingiz; lekin, o'g'lim, buncha dunyoni qayoqdan oldingiz?» – «Oyijon, men tijorat ishlari bilan shug'ullanaman!»

Shundan keyin Marya Aleksevna uyg'onib ketdi-yu, ichida: «Chindan ham tijorat ishlari bilan shug'ullansa bo'ladigan yigit», deb qo'ydi.

XXIV

MARYA ALEKSEVNAGA MAQTOVNOMA

Marya Aleksevna, endi siz Verochkaning hayotida muhim shaxslikdan chiqasiz, binobarin, ushbu hikoya muallifi siz bilan xayrlasharkan, voqea pirovardida biroz popugingiz pasayib sahnadan chiqib ketayotganingiz uchun unchalik qayg‘urmasangiz ham bo‘ladi, deb iltimos qilmoqchi, binobarin, izzat-hurmatdan mahrum bo‘ldim, deb o‘tirmang. Sizni biroz laqillatishdi, lekin Marya Aleksevna, bu bilan sizning aql-farosatingiz haqidagi fikrimizga hech qancha zarar yetgani yo‘q: ilgarigi tajribalaringizni e’tiborga olib gapiradigan bo‘lsak, bu odamlarga qolganda yanglishganingiz ayb emas. Butun o‘tmishingiz sizni, kishilar ikki toifaga: ahmoqlarga va ayyorlarga bo‘linadi, degan xulosaga olib kelgandi; siz: «Kimki ahmoq bo‘lmasa, u ayyor bo‘ladi, ayyor bo‘lishi turgan gap, ahmoq odamgina ayyor bo‘lmasligi mumkin», deb o‘ylardingiz. Marya Aleksevna, bunday fikr juda to‘g‘ri edi, yaqin vaqtlargacha juda to‘g‘ri edi, Marya Aleksevna. Siz, Marya Aleksevna, juda shirinso‘z odamlar bilan uchrashardingiz, ular hammasi, odamlarni beistisno shirin so‘z bilan laqillatadigan ayyor kishilar ekanligini, yo bo‘lmasa na hayotdan xabari bor va na qo‘lidan biron ish keladigan, kap-katta bo‘lsa ham, g‘irt tentak ekanligini o‘zingiz ham ko‘rgan edingiz. Shu sababdan, Marya Aleksevna, shirin gaplarga uncha ham inonavermas edingiz. Ularni yo behuda gap, yoki aldamchilik deb bilardingiz, Marya Aleksevna, shunday o‘ylab to‘g‘ri qilardingiz. Siz umringizda ilk daf’a ahmoq ham emas, ayyor ham emas, bir ayolga duch kelganingizda odamlar to‘g‘risidagi mulohazangiz tamomila yetilib bo‘lgandi; siz uni ko‘rib uyalgan, o‘ylab qolgan ekansiz, u haqda nima deb o‘ylashingizni, u bilan qanday muomala qilishni bilmay qolgan ekansiz, bu ishingizni ma’zur tutsa bo‘ladi. Soddadil, laqma bir go‘dak bolaga emas, balki hayotni sizdan yaxshiroq biladigan, hayot to‘g‘risida sizdan yaxshiroq mulohaza yuritadigan, ishni sizdan ko‘ra yaxshiroq udda qiladigan birinchi olijanob kishiga duch kelganingizda sizning odamlar haqidagi mulohazangiz tamomila yetilgan edi; siz yanglishib uni o‘zingiz singari dog‘uli deb bilgan ekansiz, bu ishingizni ma’zur tutsa bo‘ladi. Marya Aleksevna, sizning bu qilgan

xatolaringiz sizni aqlli va ishning ko'zini biladigan ayol deb hurmat qilishimga aslo zarar yetkazmaydi. Eringiz bo'lmag'ur bir odam edi, siz uning martabasini oshirdingiz, qarigan chog'ingizda ko'radigan kuningizni o'ylab, o'z g'amingizni o'zingiz yedingiz, bular hammasi yaxshi, bular sizga arzonga ham tushgani yo'q. Sizning ko'rgan chora-tadbirlaringiz yaxshi bo'lmasa-da, lekin shart-sharoitlaringiz o'z shaxsingizga emas, shart-sharoitingizga bog'liq, ularning isnodi sizga tegmaydi, ammo aqlingizga va iroda kuchingizga balli.

Marya Aleksevna, shu fazilatlaringizga tan berganimizga xursandmisiz? Albatta, siz shunga ham xursand bo'lib yuraverdingiz, chunki siz hech qachon men dilkash, mehribon ayolman, deb da'vo qilib chiqishni xayolingizga ham keltirgan emassiz; beixtiyor ochilib gapirgan vaqtlaringizda, men bag'ritosh, noinsof odamman, deb iqror bo'lardingiz, ammo bag'ritoshligingiz va noinsofligingizni o'zingiz uchun orsizlik deb hisoblamasdingiz, turmush shart-sharoitim shu bo'lgandan keyin boshqacha bo'lishi ham mumkin emas, deb isbot qilib kelardingiz. Bas, shunday bo'lgandan keyin aqlingiz va iroda kuchingizni maqtash bilan birga, uning yoniga qilgan himmatlaringiz maqtovi ham qo'shilmagan ekan, bu bilan unchalik ishingiz bo'lmasa kerak, siz o'zingizni himmatli odam deb hisoblamaysiz ham, buni bir fazilat deb bilmasdan, balki ahmoqlarning ishi deb sanaysiz. Demak, siz ilgarigi maqtovdan tashqari, yana meni maqtasinlar, deb da'vo ham qilmaysiz. Lekin men sizning sha'ningizga yana bir narsa aytishim mumkin: hamma yomon ko'rgan va oshna-og'aynigarchilik qilgim kelmaydigan kishilarimdan, har holda, shulardan ko'ra siz bilan jon deb bordi-keldi qilardim. Siz naf chiqadigan joyda rahm-shafqat degan narsani bilmaysiz. Agar biron kishining zarariga ish qilsangiz va bundan sizga foyda chiqmasa, pastkashligingiz tufayli bunday yo'lga kirmaysiz; foydasi bo'lmagandan keyin vaqtingni ham, mehnatingni ham, pulingni ham behuda sarf qilishning nima keragi bor, deb mulohaza yuritasiz. Siz albatta, qizingizni va uning erini o'tda qovurib jizg'anak qilsangiz xursand bo'lardingizku-ya, lekin siz ishni vazminlik bilan o'ylab ko'rish uchun qasos alangangizni pasaytirdingiz va ularni qovurish qo'lingizdan kelmasligiga ko'-zingiz yetdi; Marya Aleksevna, iloji yo'q narsani tushuna bilish buyuk fazilat! Shuni tushunganingizdan sudga berish niyatingizdan

ham qaytdingiz, bu sud jig'ingizga tekkan kishilarni hech baloga giriftor qilolmasdi; ularni sudga beraman, deb o'zingizni o'zingiz tashvishga qo'yib, ancha zarar ham ko'rardingiz, shuning uchun bu niyatingizdan qayta qoldingiz. Agarki dushmanni yengish mumkin bo'lmasa, unga mayda-chuyda zarar yetkazganing bilan o'zing ko'proq narsangdan ajraladigan bo'lsang, kurashga otlanishning nima keragi bor; shunga ko'zingiz yetgandan keyin, es-hushingizni yig'ib, mardlik qilib o'zingizga ham, boshqalarga ham behuda zarar keltirmaslikka majbur bo'ldingiz, – Marya Aleksevna, bu ham buyuk fazilat! Ha, Marya Aleksevna, siz bilan hali bordi-keldi qilsa bo'ladi, chunki siz yomonlikni deb o'z zararingizga yomonlik qilishni xohlamaysiz, bu juda kamdan kam uchraydigan, buyuk fazilat! Marya Aleksevna, millionlarcha kishilarning aft-basharasi sizday xunuk bo'lmasa ham ular o'ziga ham, birovlarga ham sizdan ko'proq zararlidir. Yomon kishilar orasida sizning yaxshiroq ekaningizga sabab shuki, siz telba va befahm emassiz. Men sizni jon deb yer bilan yakson qilib tashlardim-u, lekin sizni hurmat qilaman: siz hech qanday ishbuzarmonlik qilmaysiz; shart-sharoitingiz talab qilgani uchun hozir yomon ishlarga aralashib qoldingiz, agar sizga boshqa sharoit yaratib berilsa bormi, siz jon deb yomonligingizni bas qilasiz, hatto foyda keltiradigan bo'lasiz, chunki o'rtaga pul masalasi tushmasa yomonlik qilgingiz kelmaydi, lekin biron naf chiqishini bilsangiz hech narsadan toymaysiz, – demak, kerak ekan, halol ishlash va olijanoblik qilishni ham uddalaysiz. Marya Aleksevna, sizning shunday ishlarga qobiliyatingiz bor; sizdagi bu qobiliyat ishga tushmay yotganiga, aksincha, unga zid qobiliyatlaringiz amal qilib turganiga siz aybdor emassiz, sizda shunday qobiliyat yo'q emas, bor, lekin uni hammada ham bor, deb aytib bo'lmaydi. Ablah odamlarning qo'lidan hech narsa kelmaydi; siz faqat buzilgan odamsiz, ablah emassiz. Siz ma'naviy andazangiz jihatdan ham ko'plardan yuqori turasiz. – Marya Aleksevna, qanoatlandingizmi?

– Otaxon, nimadan qanoatlanay? Turmushimning mazasi yo'q-ku?

– Xuddi shunisi yaxshi-da, Marya Aleksevna.

UCHINCHI BOB

OILAVIY HAYOT VA IKKINCHI MUHABBAT

I

Verochkaning zindondan qutulib chiqqaniga uch oy bo'ldi. Lopuxovlarning ishi tuzukkina yurishib ketdi. U ancha-muncha dars berardi, qandaydir sahhofdan ham ish topdi, geografiya darsligini tarjimaga oldi. Vera Pavlovna ham ikki joyda dars berardi, bular ortiqcha maqtarlik ham, yomon ham emasdi. Ikkovlari har oyda sakson so'mcha topishardi; bu pulga tejab-tergab kun ko'rishdan boshqacha ilojlari bo'lmasa ham, har holda, ular muhtojlik nimaligini bilishmasdi, mablag'lari oz-ozdan ko'payib, to'rt oylardan keyin, balki undan ham ilgariroq o'zimizga alohida uy-ro'zg'or tutsak bo'lar, deb chamalab qo'yishdi (keyinchalik shunday bo'ldi ham).

Hayot tarzlari, albatta, Vera Pavlovna xayolni unashuv kunida yarim hazil, yarim jiddiy rejasini chizganday bo'lmasa-da, har holda shunga juda o'xshardi. Ular ko'chib borgan uy egalari – chol-kampir, bu yoshlarning turmushi qiziq-ku, deb rosa boshlari qotdi, bunday qarasang yosh yigit-qizga ham, er-xotinga ham o'xshamaydi.

– Petrovna, menga shunday ko'rinadimikin, desam, sen ham qiz uning singlisi yo bo'lmasa u qizning akasiga o'xshaydi, deysanmi?

– Topgan o'xshatishingni qara-ya! Aka-singil bunday sertakalluf bo'lmaydi, bular-chi, ko'rmayapsanmi? Eri o'rnidan turib paltosini kiyadi-da, samovar keltirguningcha kutib o'tiradi. Choy damlab xotinini chaqiradi, u ham kiyinib chiqadi. Bularning nimasi aka-singil? Sening fikringcha shunday ham bo'ladiki, kambag'alroq kishilar azbaroyi kambag'alligidan ikki oila bir xonadonda turadi – shunga o'xshatsa bo'ladi.

– Petrovna, deyman, eri xotini yoniga kirolmasa shu ham ish bo‘ldimi, xotinim kiyinmagan deb eri kirolmas ekan-da?

– Undan ko‘ra, sen kechqurunlari har biri o‘z xonasiga kirib ketishini aytsang-chi. «Xayr, azizim, xayrli tun!» – deydi. Xayrlashib har biri o‘z xonasiga kirib ketadi, kitob o‘qiydi, yigit ham yozib o‘tiradi. Mana bu yog‘ini eshit, bir kuni nima bo‘ldi degin? Qiz o‘rniga kirib, kitob o‘qib yotgandi; bir vaqt to‘siq ortidan qulog‘imga bir nima eshitildi – shu tun nimagadir mening ham uyqum qochgandi – quloq solsam, xotin o‘rnidan turdi. Nega turdi, deb o‘ylaysan? Quloq solib tursam, oyna yoniga borib, sochini tuzatdi. Xuddi mehmonlar oldiga chiqadiganday, keyin xonadan chiqqanini eshitdim. Men ham yo‘lakka chiqib, stulga chiqdim-da, derazadan erining xonasiga qaradim. U bir vaqt erining eshigiga kelib: «Azizim, kirsam bo‘ladimi?» – deb so‘radi. U bo‘lsa: «Hozir, Verochka, bir daqiqa sabr qil», dedi. U ham yotgan ekan. Ko‘ylagini kiydi, paltosini kiydi: hozir galstugini ham bog‘laydi, deb turgandim, yo‘q, galstuk bog‘lamadi, u yoq-bu yog‘ini tuzatdi-da: «Endi kirsang bo‘ladi, Verochka», dedi. «Men mana bu kitobdagilarni tushunmayapman, tushuntirib bersang-chi», dedi xotini. Yigit tushuntirdi. «Azizim, bezovta qildim, meni kechir», dedi. Yigit bo‘lsa: «Hechqisi yo‘q, Verochka, shunchaki cho‘zilib yotgandim, xalaqit berganing yo‘q», dedi. Shu bilan xotin chiqib ketdi.

– Chiqib ketdimi?

– Chiqib ketdi.

– Eri hech nima demadimi?

– Hech nima demadi. Sen chiqib ketganiga hayron bo‘lma: xotini kiyinib erining yoniga kirganiga, eri to‘xtab tur, deganiga, kiyingandan keyin, endi kirsang mayli, deganiga hayron bo‘l. Sen mana bunisini aytsang-chi: bunisi nimasi?

– Menga qara, Petrovna, bu bir mazhab bo‘lsa kerak; nega desang, har xil mazhab bor-da.

– Shunaqaga o‘xshaydi. Ha, gaping to‘g‘riga o‘xshaydi. Yana bir kun bo‘lgan gap.

– Danilich, men bir kuni xotinidan: sizlarning odatingiz qanaqa, deb so‘radim. «So‘raganimga tag‘in xafa bo‘lmang: qaysi dindasizlar?» – degandim, qanday bo‘lardi, rus dinidamiz, dey-

di. «Eringiz-chi?» – deb so‘rovdim. «U ham rus dinida», deydi. «Biron mazhabdan emasmisizlar?» – devdim, hech qanday mazhabdan emasmiz, deydi: nega bunday deb o‘yladingiz, dedi. «Nega desangiz, bekam, sizni boyvuchcha deyishimni ham, oyimqiz deyishimni ham bilmay qoldim; o‘zingiz eringiz bilan birga turasizmi, yo‘qmi?» – desam kulib: birga turamiz, deydi.

– Kuldimi?

– Kuldi: birga turamiz, dedi. Odatinglar qiziq ekan, kiyinmagan bo‘lsangiz, o‘zingizni eringizga ko‘rsatmas ekansiz, xuddi begona odamday, bu nimasi?» – «Kiyimsiz, bir ahvolda nima qilaman o‘zimni ko‘rsatib», deydi. Bunga hech qanday mazhabning dahli yo‘qmish. «Bu nima bo‘lmasa?» – desam: «Mehr-oqibat yaxshi bo‘ladi, g‘idi-bidi ham kamroq», deydi.

– To‘g‘ri aytibdi, Petrovna, gapi haq ko‘rinadi. Bu hamma vaqt ust-boshingni tuzatib yur, degani.

– Yana nima deydi degin: meni alvastiga o‘xshab yurganimni boshqalar ko‘rmasin, deyman, erimni boshqalardan yaxshiroq ko‘raman, shuning uchun ham unga yuviqsiz ko‘rinmayman, deydi.

– Bunisi ham to‘g‘riga o‘xshaydi, Petrovna: birovlarning xotiniga nega ko‘z olaytirishadi, deb o‘ylaysan? Nega desang birovning xotinini yasan-tusani bilan, o‘z xotinini esa alvasti bir ahvolda ko‘radi. Sulaymon payg‘ambar haqidagi rivoyatlarda shunday deyilgan. Juda donishmand podsho o‘tgan.

II

Lopuxovlar hayoti tuzuk o‘tib turdi. Vera Pavlovna hamisha xushvaqt. Lekin bir kun, – to‘ydan besh oycha o‘tgandan keyin, – Dmitriy Sergeich darsidan qaytib kelsa, xotinining juda kayfi chog‘: ko‘zlarida iftixor va quvonch barq urib turardi. Shunda Dmitriy Sergeich bir necha kundan buyon xotinida yoqimli bir tashvish-hayajon, shirin xayolchanlik, mayin nazokat alomatlari ko‘rinib qolganini esladi.

– Do‘stim, bir narsaga suyunib yuribsan: menga ham aytsang nima qiladi?

– Ha, bir narsa borga o‘xshaydi, azizim, lekin biroz sabr qil: aniq bilganimdan keyin aytaman. Yana bir necha kun kutish kerak.

Men uchun zo‘r quvonch bo‘ladi. Sen ham suyunasan, bilaman; Kirsanov ham, Mersalov ham xursand bo‘ladilar.

– O‘zi nima gap?

– Azizim, ahdimiz esingizdan chiqdimi: savol berish yo‘q, degandikmi? Aniq bo‘lganda aytaman.

Yana bir hafta o‘tdi.

– Azizim, nimadan xursand bo‘lib yurganimni aytaman. Menga maslahat ber, bunday narsalarni sen yaxshi bilasan. Ko‘pdan buyon biron ish bilan shug‘ullansam, deb yurgandim. O‘ylab-o‘ylab, tikuvchilik ishxonasi ochish kerak, degan fikrga keldim: yaxshimi?

– Do‘stim, qo‘lingni o‘pmayman, deb ahd qilgandik, umuman shunday kelishganmiz, lekin bunday paytlarda o‘pish-o‘pmaslik haqida gaplashganimiz yo‘q. Qani, qo‘lingizni bering, Vera Pavlovna.

– Keyin, azizim, ishni amalga oshirganimizda.

– Ishing amalga oshganda qo‘lingni bir men emas, boshqalar ham, Kirsanov ham, Aleksey Petrovich ham o‘pishadi. Hozircha yolg‘iz o‘zimman, niyating ham o‘psa arziguday.

– Zo‘rlab o‘pmoqchimisan? Baqiraman.

– Baqiraver.

– Azizim, uyalaman, tilim kalimaga kelmay qoladi. Shu ham arziguday muhim ish bo‘ptimi!

– Do‘stim, bir muhim tomoni bor: hammamiz gapiramiz-u, hech ish qilmaymiz. Sen bo‘lsang bu to‘g‘rida hammamizdan keyin o‘ylab, hammadan oldin ish boshlashga jazm qilibsan.

Verochka boshini erining ko‘ksiga bosib, yuzini yashirdi:

– Azizim, juda maqtab yubording-ku.

Eri uning boshidan o‘pib qo‘ydi.

– Donosan.

– Azizim, qo‘y, unday dema. Senga bir narsani aytib ham bo‘lmaydi: shunaqasan-da.

– Bo‘ldi, gapirmayman: sen gapira qol, dilbarim.

– Ikkinchi bunday atama.

– Juda jahling tez-a.

– Seni qara-yu! Xalaqit berganing bergan. Jim o‘tirib gapga quloq solsang-chi. Menimcha, eng muhimi shuki, avval boshda ozroq kishilarni tanlaganingda ehtiyot bo‘lish kerak, tanlagan

odamlaring haqiqatan halol, yaxshi kishilar bo‘lsin, yengiltak, betayin kishilar yaramaydi; sabr-toqatli, dilkash, muloyim odamlar bo‘lsin, huda-behuda janjal chiqarishmasin, o‘zlari ham odam tanlashni biladigan bo‘lsin, shundaymi?

– Shunday, do‘stim.

– Hozir men uch nafar shunday qiz topdim. E-ha, ozmuncha izladimmi! Bilsang, azizim, uch oydan buyon do‘konma-do‘kon yurib, odamlar bilan tanishdim, – oxiri topdim. Juda yaxshi qizlar. Ular bilan yaxshilab tanishib oldim.

– O‘z ishlarini yaxshi biladigan chevar qizlar bo‘lishi kerak, chunki bu ish nomiga munosib, hammasi hisob-kitobli bo‘lishi lozim.

– Bo‘lmasa-chi, turgan gap.

– Xo‘sh, yana nima? Men bilan nimani maslahatlashmoqchisan?

– Tafsilotlarini bilmoqchi edim, azizim.

– Qani, tafsilotlarini ham gapir-chi: juda to‘g‘ri, o‘zing hammasini yaxshilab o‘ylabsan, shart-sharoitga qarab ish tutish ham qo‘lingdan keladi. Bunda eng muhimi – prinsip, fe’l-atvor, mahorat tafsilotlari har bir vaziyatdagi sharoitga qarab o‘z yo‘li bilan ketaveradi.

– Bilaman, lekin sen: mana bunday qilish kerak, desang dadilroq bo‘laman.

Ular anchagacha gaplashib o‘tirishdi, Lopuxov xotinining rejasidan biron tuzatgulik joy topolmadi; lekin xotini rejasini aytib berar ekan, uni yanada kengaytirib, aniqlab olganday bo‘ldi.

Ertasi kuni Lopuxov «Politseyskie vedomosti» idorasiga e’lon eltib berdi, undan «Vera Pavlovna Lopuxova ayollar kiyim-kechagi tikishga buyurtma oladi» va hokazo, «arzon bahoda» va hokazo deyilgan edi.

Verochka o‘sha kuni ertalab Jyulining uyiga bordi. Hozirgi familiyamni xonim bilmaydi, «m-lle Rozalskaya» deb ayting.

– Qo‘zichog‘im, yuzingizga to‘r tutmay ochiq kelibsiz, xizmatkorga familiyangizni ham aytibsiz, bu tentaklik-ku, bunaqada o‘zingizni bir baloga giriftor qilasiz-ku, do‘ndiqcham!

– Erga chiqqanman, istagan joyimga borishim, ko‘nglim tusagan ishni qilishim mumkin.

– Eringiz bilib qolsa nima bo‘ladi?

ko‘ngli buzilib, muvaffaqiyat tilashlar boshlanib ketdi, ikki gapning birida, Jyuli, Le-Telle xarob bo‘lgan, deb qo‘shib qo‘ydi, yig‘lab-siqtadi, lekin «olijanoblik» nimaligini biladigan xotinman, deb yana ko‘ziga yosh oldi, yana quchoqlashdilar, yana muvaffaqiyat tiladi.

Jyuli to‘rt kunlardan keyin Vera Pavlovnanikiga kelib, anchamuncha buyurtma berdi, bir qancha tanishlarning manzilini aytdi, ulardan ham buyurtma olish mumkinligini gapirdi. Jyuli Lopuxov biznikiga kelib ketdi, endi sen ham borishing kerak, rasmi shu, deb Serjni ham birga olib kelgandi. Jyuli Lopuxovlarnikida uzoq o‘tirsa ham o‘zini vazmin tutdi, zarracha ham yengiltaklik qilmadi; uy devorlari devor emas, yupqagina to‘siqligini ko‘rsa ham bu haqda og‘iz ochmadi, nega deganda o‘zi birovning sha’niga dog‘ tushirish yomon ishligini biladigan xonimlardan edi. Ortiqcha qizishmasa ham Lopuxovlarning bechorahol turish-turmushidagi hamma mayda-chuydalarigacha juda qiziqib, ko‘proq xayol surib o‘tirdi, hayot shunday bo‘lishi kerak, boshqachasi hayot bo‘lmaydi, kamtarona hayot kechirganingdagina chinakam baxtli bo‘lasan, deb hatto Serjga, ikkovimiz Shveysariyaga, atrofi tog‘lar va dalalar bilan o‘ralgan ko‘l bo‘yidagi chog‘roq bir uyga ko‘chib boramiz, bir-birimizga mehribon bo‘lamiz, baliq ovlaymiz, ekin ekib, o‘zimiz parvarish qilamiz, dedi; Serj bo‘lsa, fikringga tamomila qo‘shilaman, lekin uch-to‘rt soatdan keyin yana nima deb qolishingni hali ko‘rarman, deb javob berdi.

Sredniy va Maliy prospektlari o‘rtasidagi 5-liniyada istiqomat qiluvchilar Jyulining chiroyli karetasining taqir-tuqurini, aravaga qo‘shilgan ajoyib otlarning dupur-dupurini eshitib, hayratda qolishdi, har holda Buyuk Pyotr zamonidan buyon, balki bundan oldin ham bu o‘rinlarda hech kim bunaqasini ko‘rmagandi. Yetti derazasi ko‘chaga qaragan bir qavatli yog‘och uyning yopiq darvozasi oldiga ajoyib bir karetaning kelib to‘xtaganiga, karetadan yana ham ajoyib bir zot, ya’ni yonida basavlat bir ofitser bilan go‘zal bir xonimning tushganiga ko‘p ko‘zlar tikilib turgandi, ofitserning martabasi balandligi shubhasiz edi. Hammaning dilini siyoh qilgan narsa shu bo‘ldiki, oradan biroz vaqt o‘tgach, darvoza ochilib, kareta hovliga kirdi; tomoshabinlar basavlat ofitserni va undan ham salobatliroq xonimni qaytishda ko‘rolmay dog‘da qoldi. Danilich savdo-sotig‘ini bitirib uyga qaytganida Petrovna bilan ikkovlari o‘rtasida mana bunday suhbat bo‘ldi.

– Danilich, ijarachilarimiz juda mo‘tabar odamlarga o‘xshaydi. Bir general xotini bilan kelib ketdi. Xotini shunday yasanganki, asti qo‘ya berasan, general ikki yulduz taqib olibdi.

Petrovna Serjning ikki yulduz qadab olganini ko‘rgani qiziq edi, Serjda hali yulduzning o‘zi bo‘lmay, bo‘lganda ham Jyulining yonida mulozimlikda yurganida taqmasligi turgan gap, qizig‘i ham shunda edi; lekin ko‘rgani rostligiga, yanglishmaganiga, maqtanmaganiga u emas, men guvohlik beraman; ko‘rgani rost. Serjning yulduz taqmaganini biz bilamiz; lekin Serjning savlati shunday ediki, bu turishda Petrovna ko‘zi bilan uning ikki yulduzini ko‘rmaslik mumkin emasdi, – ko‘rgani rost; sizga hazil qilayotganim yo‘q, ko‘rdi.

– Malayning kiyimini ko‘rsang, Danilich: gazi besh so‘mlik ingliz movutidan; juda badjahl, dimog‘dor-u, lekin boodob ekan, gapingga javob beradi; yenglarini ushlab ko‘ruvdim, indamadi, juda mayin movut ekan. Pulni pul deyishmasa kerak. O‘zlari ham, Danilich, ikki soat chamasi bo‘lishdi, ijarachilarimiz ham ular bilan, xuddi men sen bilan gaplashgandek bemalol ta’zim-pa’zim qilmay xaxolashib gaplashib o‘tirdi, bizning yigitimiz general bilan yonma-yon kresloga bemalol yonboshlab oldi; nimasini aytasan? Papirosi o‘chib qoluvdi, generalning qo‘lidan papirosini olib, o‘zinikini tutatdi. General xonimimizning qo‘llarini o‘pganini ko‘rsang, qanday deb aytishimni ham bilmayman. Danilich, bu nimasi bo‘ldiykin?

– Hammasi xudodan, men shunday deb o‘ylayman; demak, yo tanishlari, yo bo‘lmasa biron qarindoshlari bo‘lsa kerak, bu ham xudodan.

– To‘g‘ri aytasan, Danilich, xudodanligiga shubha yo‘q; men bundaymasmikin, deb o‘ylab turibman, yo yigit, yo qiz generalning, yoki xotinining ukasi, yo singlisi bo‘lsa kerak, to‘g‘risini aytsam, balki u xotin generalning singlisimikin?

– Petrovna, sen aytgandan bo‘lsa qiziq-ku, unaqaga o‘xshamaydi. Undog‘ bo‘lsa, bular ham puldor bo‘lishi lozim edi.

– Xuddi shundog‘, Danilich, yo onasi nikohsiz erdan tuqqan, yoki u otasining nikohsiz xotinidan ko‘rgan qizi. Chunki yuz-ko‘zlari boshqa-boshqa, bir-biriga o‘xshamaydi.

– Ha, Petrovna, nikohsiz bo‘lishi mumkin. Shunday ham bo‘ladi.

Petrovna yoymachilik do‘konida to‘rt kungacha ancha tanilib qoldi. Ro‘paradagi do‘kon xaridorlarining anchasi uch kungacha yoymachining do‘koniga tanda‘ qo‘yib qoldi, Petrovna hatto odamning ko‘zini ochish niyatida bu kunlarda eski-tuski yamashini ham yig‘ishtirib, ma’rifatga tashnalarning chanqog‘ini qondirib o‘tirdi.

Oqibati shu bo‘ldiki, bir haftadan keyin Pavel Konstantinich qizi bilan kuyovini ko‘rgani keldi.

Marya Aleksevna qizi va qaroqchi haqida ma’lumotlar to‘plab yurardi, – qizidan xabar olish yoki g‘amxo‘rlik qilish niyatida emas, buni u shunchaki sinchkovlik tufayli qilardi. Vasilyevskiy ostrovdagi kambag‘alroq qarindoshlaridan biriga, yo‘ling tushganda Vera Pavlovnadan xabar olib tur, deb tayinlab qo‘ygandi; qarindoshi Marya Aleksevnaga ba’zan oyda bir marta, ba’zan tez-tez, to‘g‘ri kelgan vaqtlarida xabar yetkazib turardi. Lopuxovlar inoq yashashyapti. Hech qanday urush-janjal yo‘q. Uylariga juda ko‘p yigit-qizlar kelishini aytmasa, keladiganlar hammasi erining tanish-bilishlari, og‘aynilari, hammasi tuzuk, bama’ni odamlar. Turmushlarini to‘kis deb bo‘lmaydi-yu, lekin pullari bor ko‘rinadi. Bisot sotishmaydi, olishadi. Vera Pavlovna o‘ziga ikkita ipakli ko‘ylak tikib oldi. Bir munosabat bilan ikki divan, divanga yarasha stol, yarim dyujina kreslo sotib olishdi; bularga qirq so‘m to‘lashdi, yuz so‘mga yaxshigina mebellik bo‘lib olishdi. Xo‘jayinlariga, uyingizga boshqa odam toping, bir oylardan keyin biz o‘z xonadonimizga ko‘chib ketamiz, yaxshiliklaringiz uchun sizlardan juda minnatdormiz, deyishdi; xo‘jayinlar, biz ham sizlardan ko‘pdan ko‘p xursandmiz, dedi.

Marya Aleksevna bu xabarlarni eshitib o‘ziga tasalli berib yurgandi. O‘zi juda qo‘rs, juda yomon xotin, qizini qiynoqqa solardi, o‘z foydasini ko‘zlab uni juvonmarg qilishdan ham toymasdi; boyib olish rejalarini qizi buzib yuborganidan keyin uni qarg‘ab yomonotliq qilgani ham rost; lekin bundan, Marya Aleksevna qizini juda yomon ko‘rardi, degan xulosa chiqarish kerakmi? Aslo unday emas. Qizi qo‘lidan butunlay chiqib ketib, ishi pachava bo‘lganidan keyin nima ham iloji bor edi? Chiqqan qiz chig‘iriqdan tashqari. Lekin nima bo‘lsa ham qizi-ku; endi Vera Pavlovnaga biron ziyon-zahmat yetib, Marya Aleksevnaga

nafi tegadigan biron hodisa ro‘y bermaganidan keyin, onasi chin ko‘ngildan qiziga yaxshilikni ravo ko‘radi. Butun fikr-zikri shu emas, shunchaki yaxshilikni ravo ko‘radi, nega bundayligining nima ahamiyati bor? Niyatini kim bilsin-u, har holda qizining payiga tushgandi. Qizini poylab yurish uchun shunchaki chora-tadbir ko‘rib qo‘ydi, poylamaslikning iloji yo‘q, ishonavering; yaxshilikni ravo ko‘rishni ham shunchaki xo‘jako‘rsinga, ishonavering, nima qilganda ham qizi. Shunday ekan, yarashib qo‘ya qolsa nima bo‘larkan? Qaroqchi kuyovi ham tuppa-tuzuk, vaqti kelib foydasi ham tegib qolsa ajabmas. Shunday qilib, Marya Aleksevna, qizim bilan bordi-keldi qilishim lozim, degan fikrga kela boshladi. Yarim yildami, boring, bir yildami bu niyatiga yetsa bo‘lardi: shoshilishning hojati yo‘q, sabr qilishi kerak. Biroq general bilan uning xotini to‘g‘risidagi xabar bu niyatni yarim yo‘lga yetganda birdaniga ilgari surib yubordi. Qaroqchi chindan ham ayyor-da. O‘zi bemansab, maktabdan qochgan tirmizak talaba, yonidagi sariq chaqasi bilan yosh, demak, juda obro‘li, boy generalga oshna bo‘lib olibdi, xotini generalning xotini bilan tanishtirib qo‘yibdi: bunday odamning martabasi baland bo‘lishi turgan gap. Yo bo‘lmasa Vera generalning xotini bilan o‘rtoq bo‘lib, erini generalga tanishtirib qo‘ydimikin? Bari bir emasmi, xullas, Veraning martabasi oshadigan ko‘rinadi.

Shunday qilib, Marya Aleksevnaga general va uning xotini kelib ketgani to‘g‘risidagi xabar kelgach, darhol erini yuborib, qizingga onang gunohingdan kechdi, yoniga borarkansan, deb ayt, dedi. Vera Pavlovna va eri Pavel Konstantinich bilan birga borib, kechqurun biroz o‘tirib kelishdi. Bir-birlariga qovushmay, suhbatlari ham sovuqqina bo‘ldi. Ko‘proq Fedya ustida gaplashdilar, chunki bu haqda bemalolroq gapirish mumkin edi: Fedya gimnaziyaga qatnardi. Oxiri Fedyani gimnaziya pansioniga berishga Marya Aleksevnani ko‘ndirishdi; Dmitriy Sergeich pansionga borib, ko‘rib turadi, bayram kunlari Vera Pavlovna uni uyiga olib kelib turadi. Gapni zo‘rg‘a choy vaqtigacha cho‘zib o‘tirishdi, keyin shoshilib xayrlashdilar: Lopuxovlar, bugun uyimizga mehmon keladi, deyishdi.

Vera Pavlovna yarim yil bemalol yashadi, ko‘ngli ham g‘arazli, makkorona gaplar, firibgarliklar, razil rejalardan xoli bo‘ldi. Bir paytlar o‘zi yotgan zindon endi ko‘ziga dahshat bo‘lib ko‘rinar

edi. Ifloslik, razillik, har xil riyokorliklar u erishgan yangiliklar qarshisida endi yanada aniqroq ko'rinib qoldi.

«Bu qadar xor-u zorlikka qanday chidab kelgan ekanman? Bu zindonda qanday yashagandim? Yashaganimni ko'yavering, eson-omon chiqqanimni aytmaysizmi? Aql bovar qilmaydi. Shunday muhitda yashab, yana menda ezgulikka muhabbat qayoqdan paydo bo'ldiykin? Tavba, sira tushunolmayman», – deb o'yladi Vera Pavlovna uyiga qaytarkan, qiynoqdan qutulib orom olganday bo'lib.

Uylariga yetganlaridan keyin biroz vaqt o'tgach, kutgan mehmonlari yig'ildi. Bular o'sha vaqtlarda kelib turadigan Natalya Andreyevna bilan Aleksey Petrovich Kirsanov edi. Oqshomlari ham odatdagidek o'tdi. Vera Pavlovna ajoyib pokiza kishilar orasida, ularning sof fikrlaridan bahra olib kechirayotgan yangi hayotidan nihoyatda mamnun edi! Ular odatdagidek ko'p narsalarni xotirlab kulishdi, dunyodagi har xil narsalar ustida jiddiy gaplar gapirishdi: o'sha vaqtdagi tarixiy voqealardan tortib (bunday to'garaklardagi odamlarni Shimol bilan Janub o'rtasidagi hozirgi buyuk urush darakchisi, Amerikadagina emas, boshqa mamlakatlarda ham yuz beradigan buyuk voqealar darakchisi bo'lgan Kanzasdagi o'zaro urush ham qiziqtirardi; hozir siyosat bilan hamma ham qiziqadi, u vaqtlarda juda kamdan kam odam qiziqardi: Lopuxov, Kirsanov va ularning oshna-og'aynilari ham shu noyob kishilar jumlasidan edi) dehqonchilikning kimyoviy asoslari to'g'risidagi Libixning nazariyasi haqida o'sha vaqtlarda boshlangan munozaralargacha, bunday to'garaklardan birontasi ham tilga olinmay qolmagan tarixiy taraqqiyot qonunlarigacha qidirib topish va qondirish mumkin bo'lgan amaliy orzu-tilaklarni qondirish mumkin bo'lmagan va qondirilishi zarur bo'lmagan xom xayollardan, bezgak vaqtidagi soxta tashnalikdan farqlay bilishning qanchalik muhimligi, tashnalik singari bunday xom xayollarning ham davosi bitta, yangi, ya'ni: organizmdagi kasallikni – real orzularning buzilib aynib ketishiga sabab bo'ladigan kasallikni davolash ekanligi bilan, o'sha vaqtlarda antropologik falsafa o'rtaga qo'yilgan va shu tub farqning muhimligi, shunga o'xshagan va o'xshamagan, lekin shunga o'xshash hamma masala bilan qiziqishardi. Xonimlar sodda tilda bayon qilingan bu ilmiy gaplarga ba'zi-ba'zida quloq solib, har xil savol bilan aralashib qo'yishardi, ko'pincha bunday gaplar

bilan ishlari bo‘lmasdi. Lopuxov bilan Aleksey Petrovich mineral o‘g‘itning juda muhimligini gapirishga berilib ketganlarida, suv purkab issig‘ini bosgandek biroz hovuridan tushirib qo‘yishardi; lekin Aleksey Petrovich bilan Lopuxovning bu ilmiy gapdan og‘zi tinmasdi. Kirsanovning ularga yordami tegmasdi, u butunlay xonimlar yonida bo‘lardi, uchovlari yarim kechagacha o‘yin-kulgi qilib ashula aytishar, qahqah urib kulishardi, nihoyat, holdan ketib, jiddiy suhbatga mukkasidan ketgan anavi olimlarning munozarasini ham to‘xtattirishar edi.

III

VERA PAVLOVNANING IKKINCHI TUSHI

Vera Pavlovnaning ko‘zi uyquga ketib, tush ko‘rganmish. Keng dala emish, dalada eri, ya’ni sevgilisi bilan Aleksey Petrovich aylanib yurganmish, sevgilisi bunday dermish:

– Siz, Aleksey Petrovich, bir xil tuproqda bunday oppoq, toza va nozik bug‘doy unadi-yu, boshqa xil tuproqda unmaydi, shuning sababini bilmoqchisiz. Buning farqini hozir o‘zingiz ham ko‘rasiz. Mana bu bo‘liq boshoqning ildiziga qarang: ildizi yonida tuproq bor, lekin bu yangi, sof tuproq, desa bo‘ladi: hidi dimog‘ingizga uryaptimi, nam hidi, dimoqqa yoqmaydigan hid, lekin bijib, achib qolgan emas. Bilasiz, siz bilan biz amal qiladigan falsafa tilida bu toza tuproq real tuproq deb ataladi. Bu tuproq, albatta, chiriganku-ya, lekin yaxshilab qarasak, bu tuproqning hamma elementlari asli o‘zi sog‘lom elementlar. Bular shu taxlitda bir-biri bilan qo‘shilganda tuproq hosil bo‘ladi, lekin atomlarning joylanish holati biroz o‘zgarsa, biron boshqa narsa hosil bo‘ladi; bulardan hosil bo‘ladigan boshqa narsalarning hammasi ham sog‘lom bo‘ladi, chunki asosiy elementlarining o‘zi sog‘lom. Bu tuproqning sog‘lomlik xususiyati nimada? Siz dalaning holatiga diqqat qiling: ko‘ryapsizmi, bu yerda suv to‘xtab qolmaydi, qiyalik bo‘lgani uchun oqib ketadi, demak, bunda chirigan narsa bo‘lishi mumkin emas.

– To‘g‘ri aytasiz, harakat – reallik demakdir, – deydi Aleksey Petrovich, – chunki harakat – hayot demakdir, reallik va hayot ikkovi bir narsa. Lekin hayotning eng asosiy elementi mehnatdir,

shu sababdan reallikning asosiy elementi mehnatdir, binobarin, reallikning eng to‘g‘ri alomati – ishchanlikdir.

– Ko‘rdingizmi, Aleksey Petrovich, quyosh bu tuproqni qizdirib, issiqlik uning elementlarini murakkabroq kimyoviy tarkibga, ya’ni oliy tarkibiy shakllar holatiga keltirganda quyosh nuridan bahra olgan bu tuproqdan sog‘lom boshoq unib chiqadi.

– Ha, to‘g‘ri aytasiz, chunki bu real hayot tuprog‘i, – deydi Aleksey Petrovich.

– Endi mana bu dalaga o‘tamiz. Bu yerda ham bir tup o‘simlikni olib, ildizini tekshirib ko‘ramiz. Uning ildizida ham tuproq bor. Bu tuproqning ko‘rinishiga e’tibor bering. Bu tuproqning chiriganligini ko‘rish qiyin emas.

– Ya’ni, ilmiy atama bilan aytganda, xayoliy tuproq, – deydi Aleksey Petrovich.

– Balli, bu tuproq elementlari sog‘lom emas. Tabiiyki, bu elementlar har xil holatda bo‘lganda ham, ulardan tuproqqa o‘xshamagan har qanday boshqa narsalar hosil bo‘lsa ham, bu narsalarning hammasi nosog‘lom, befoyda bo‘ladi. To‘g‘ri, chunki elementlarning o‘zi sog‘lom emas, – deydi Aleksey Petrovich.

– Biz bu nosog‘lomlik sababini topishimiz qiyin emas.

– Ya’ni, bu xayoliy chirish sababini, – deydi Aleksey Petrovich.

– Ha, agar biz bu dalaning joylanish holatiga e’tibor qiladigan bo‘lsak, bu elementlarning chirish sababini topishimiz qiyin bo‘lmaydi. Ana, ko‘ryapsizmi, suvning oqib ketadigan joyi yo‘q, suv turib qolib, buziladi.

– To‘g‘ri, harakat yo‘qligi mehnat yo‘qligidir, – deydi Aleksey Petrovich, – chunki mehnat antropologik tahlilda boshqa shakllarning hammasiga – vaqtixushlikka ham, dam olishga ham, ermakka ham, xursandchilikka ham negiz va mazmun beradigan harakatning tub shaklidir; oldingi mehnat bo‘lsa, bular real bo‘lmaydi. Harakat yo‘q joyda esa hayot yo‘q, ya’ni reallik yo‘q, chunki bu xayoliy tuproq, ya’ni chirigan tuproq. Bunday dalalarni qanday sog‘aytirishni yaqin-yaqinlargacha bilishmasdi, hozir chorasi topildi: bu chora – zahob yerlarni zovur qazib quritishdir; ortiqcha suv ariqlardan oqib ketadi. Qancha kerak bo‘lsa shuncha suv qoladi, bu suv ham harakat qiladi, shu bilan dala reallik kasb etadi. Lekin bu

chora amalda tatbiq qilinmaguncha bu tuproq xayoliy tuproqligicha, ya'ni chirigan tuproqligicha qoladi, shunday bo'lgandan keyin unda o'simlik yaxshi o'sishi mumkin emas; shu bilan birga juda tabiiyki, real tuproqda o'simlik yaxshi o'sadi, chunki u sog'lom tuproq. Maqsad ham shuni isbot qilmoq edi, lotincha aytganda....

Lotincha aytganda, «maqsad shuni isbot qilmoq edi», degan jumlani Vera Pavlovna eshitolmaydi.

– Aleksey Petrovich, oshxona lotin tili hamda sillogistika[1] bilan shug'ullangingiz keladimi? – debdi sevimlisi, ya'ni eri.

Vera Pavlovna ularning yoniga kelib shunday debdi:

– Tahlil, o'xshashlik va antropologizmlaringizni bas qiling, xudo xayringizni bersin, janoblar, boshqa biron narsadan gaplashinglar, men ham suhbatda ishtirok etay, keling, yaxshisi, qarta o'ynaymiz.

– Yaxshi, o'ynaganimiz bo'lsin, – dermish Aleksey Petrovich, – yoki bo'lmasa har kim o'z boshidan kechirganlarini gapirib bersin.

– Kelinglar, juda maroqli bo'ladi, – dermish Vera Pavlovna, – lekin bu fikr sizdan chiqdi, boshlash ham sizdan bo'lsin.

– Jonim bilan, singlim, – dermish Aleksey Petrovich, – lekin singlim, o'zingiz necha yoshga kirgansiz, o'n sakkizlarda bordirsiz?

Yaqinda o'n to'qqizga qadam qo'yaman.

– Lekin hali o'n to'qqiz emas; bas, o'n sakkiz deymiz-u, hammamiz o'n sakkiz yoshgacha boshdan kechirganlarimizni aytamiz, shart-sharoit bir xil bo'lishi lozim. Men o'zim uchun va xotinim uchun ham hikoya qilaman. Otam guberna shahrida dyachok edi, muqovasozlik qilardi, onam xonadonni seminaristlarga ijaraga qo'yardi. Tong sahardan yarim kechagacha otam bilan onamning butun tashvishi, fikr-zikri bir burda non topish ustida bo'lardi. Otam ba'zida ichar, lekin muhtojlik juda ezib yuborgan vaqtlarda ichardi, – bu real baxtsizlik, – yoki tuzukroq daromad qilgan vaqtlarda ichardi; bunday kezlarda butun pulini onamga berardi-da: «Xotin, endi xudoga shukur, ikki oy muhtojlikning yuzini ko'rmaysan, xursandchilikka bir ichay deb yarim so'm olib qoldim», – derdi – bu real quvonch. Onamning tez-tez jahli

[1] Ya'ni bema'ni bahslar.

chiqar, ba'zan meni kaltaklar edi. Urganda ham xum, cho'yan qozon ko'tarib, besh jon o'zimiz, besh jon seminaristlarning kirini yuvaman, kalish yuzini ko'rmagan yigirma oyoq iflos qilgan pollarni supurib-sidiraman, sigirlarga qarayman, deb beldan ajralishiga oz qolgan vaqtlarda urardi; bu – dam olmasdan haddan tashqari ishlash natijasida asablarning real ishdan chiqishidir; yana buning ustiga-ustak, onam aytmoqchi, «u bari bu bariga yetmay» qolganda, ya'ni o'g'il bolalardan birontamizga etik yoki singillarimizdan birontasiga boshmoq olishga pul yetmaganda ham kaltaklashga tushardi. Biz ahmoq bolalar uning ishiga qarashib yuborsak yoki biron bama'ni ish qilsak, onamizning toleyi kulib boqib onda-sonda biron daqiqa dam olguday bo'lsa, o'zi aytganday, «bel og'rig'i qo'yib yuborsa», onamiz bizni erkalatib suyib ham qo'yardi – bular hammasi real quvonch...

– Qo'ying, real g'am-g'ussa-yu quvonchlaringizni bas qiling, – dermish Vera Pavlovna.

– Unday bo'lsa, marhamat qilib Natashaning sarguzashtlariga quloq solsinlar.

– Yo'q, quloq solmayman: unda ham shunday real g'am-g'ussa-yu quvonchlar bo'ladi, – bilaman.

– Juda to'g'ri aytdingiz.

– Ehtimol, mening sarguzashtimga quloq solarsiz, – debdi Serj qayoqdandir paydo bo'lib.

– Mayli, – dermish Vera Pavlovna.

– Ota-onam badavlat odamlar bo'lsa ham dardi-fikri doim pul edi, badavlat kishilarning boshida ham shu savdo.

– Serj, siz sarguzasht aytishni bilmas ekansiz, – dermish muloyimlik bilan Aleksey Petrovich, – siz ularning nima vajdan pul dardida yurganini, qanday chiqimlar tashvishga qo'yganini, qanday ehtiyojlarni qondirolmay qiynalishganini ayting.

– Ha, tushunib turibman: bu savollaringiz bejiz emas, – dermish Serj, – lekin bu masalani qo'yib, ular fikr-zikrining boshqa tomonini ko'ramiz. Ular ham bolalariga g'amxo'rlik qilgan.

– Lekin bolalarning yeydigan bir burda noni bormidi? – so'rarmish Aleksey Petrovich.

– Bo'lmasa-chi, lekin ularning g'amxo'rlik qiladigan...

– Qo'ying, Serj, gapirmay qo'ya qoling, – dermish Aleksey Petrovich, – tarixingizni o'zimiz bilamiz; ortiqcha narsalar

to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishlar, kerakmas narsalar haqida o‘ylashlar – siz mana shu zaminda o‘sib katta bo‘lgansiz; bu xayoliy zamin. Shuning uchun ham siz o‘zingizga bir qarang, siz tabiatan aqlsiz odam emassiz, juda yaxshi odamsiz, balki bizlardan yomonroq ham, aqlsizroq ham emassiz, lekin qo‘lingizdan nima keladi, sizdan qanday manfaat?

– Jyuli meni o‘zi bilan qayerga olib borsa, uning yonida bo‘lish; foydam shuki, Jyuli mening panohimda aysh-ishrat qiladi, – deb javob berganmish Serj.

– Bundan xulosa shuki, – dermish Aleksey Petrovich, – xayoliy yoki nosog‘lom zamin...

– Reallik va xayoliy zamin deb ham jonimizga tegdingiz! Allaqachon masala ravshan bo‘lgan-u, bular hali ham gap sotadi! – dermish Vera Pavlovna.

– Men bilan gaplashging yo‘qmi hali? – dermish Marya Aleksevna, u ham qayoqdandir paydo bo‘lib. – Siz, janoblar, bizni yolg‘iz qoldiringlar, chunki ona qizi bilan gaplashmoqchi, – dermish.

Hammalari g‘oyib bo‘lganmish. Verochka qarasa, yakka o‘zi Marya Aleksevna bilan turganmish. Marya Aleksevnaning yuzida istehzo paydo bo‘lganmish.

– Vera Pavlovna, siz o‘qimishli xonimsiz, shunday pok va olijanobsizki, – deganmish Marya Aleksevna achchig‘i chiqqanidan ovozlari titrab. – Siz shunday mehribon xonimsiz... Mendek qo‘rs va badjahl piyanista siz bilan qanday ham gaplashsin, – dermish. – Vera Pavlovna, sizning onangiz badjahl va yomon xotin; lekin ruxsat etsangiz, sizga, xonim, bir savol bersam: bu onaning dardi-fikri nima bo‘lganini bilasizmi? Dardi bir burda non; bu, sizningcha, siz olimlarning fikricha, real, haqiqiy insoniy g‘amxo‘rlik, shunday emasmi? Siz so‘kish nimaligini eshitganmisiz? Yomonlik va razolat nimaligini ko‘rganmisiz? Qani, ayting-chi, ularning muddaosi nima edi? Behuda-yu bema’nilikmi? Yo‘q, boyvuchcha, unday emas, sizning oilangizdagi hayot qanday bo‘lgan bo‘lsa hamki, lekin puch, xayoliy hayot emasdi. Ko‘rdingizmi, Vera Pavlovna, men ham siz olimlarga o‘xshab gapirishni o‘rganib oldim. Lekin siz, Vera Pavlovna, onangiz yomon, badjahl xotinligidan juda xijolat bo‘lasiz, uyalasiz. Vera

Pavlovna, qani endi onam mehribon va halol xotin bo'lsaydi, deb orzu qilasiz, shunday emasmi? Vera Pavlovna, men jodugarman, sehrgarman, orzuyingizni ro'yobga chiqarishim mumkin. Mana, Vera Pavlovna, orzuyingizga yetasiz; badjahl onangiz g'oyib bo'lyapti; mana bu mehribon onaga va uning qiziga qaranglar.

Bir xona emish. Ostonada soqollari o'sib ketgan, isqirt bir mast odam xurrak tortib yotganmish. Kimligini bilib bo'lmasmish, yuzining yarmini qo'li bilan bekitib olgan, yarmi ko'karib momataloq bo'lib ketganmish. Bir karavotda bir xotin yotganmish – e, bu Marya Aleksevna-ku, lekin juda xushfe'lmish! Qirq beshga kirgan bo'lsa ham yuzida qoni yo'q, munkillab qolganmish, rangi za'faronmish! Karavot yonida o'n sakkiz yoshlar chamasi bir qiz turganmish, e, bu – men, Verochkaman-ku, dermish; ust-boshimning chuvrindiligini-chi. Bu nimasi? Rangim ham sarg'ayib, xunuklashib ketibman, uyim ham huvillab qolganmish! Uy anjomlari deyarli yo'qmish. «Verochkam, do'stim, farishtam, – dermish Marya Aleksevna, – yonboshla, damingni ol, oppog'im, menga muncha tikilasan, men aytmasang ham yotaveraman. Sen uch kundan buyon mijja qoqqaning yo'q».

– Mayli, oyijon, charchaganim yo'q, – dermish Verochka.

– Mening bo'lsa, Verochka, mazam yo'q; mensiz ahvoling nima kecharkin? Otangning oyligi ham oz, senga madadkor bo'larli holi yo'q. Sen chiroyli qizsan; dunyoda yomon odam ko'p. Seni ehtiyotlaydigan hech kim qolmaydi. Sendan ko'nglim tinchimaydi, – dermish. Verochka yig'larmish.

– Jonginam, xafa bo'lma, bu ta'na emas, ogohlantirib qo'yay, deyapman: tobim qochganidan bir kun ilgari, jumada nega uydan chiqib ketding? – Verochka yana yig'larmish.

Bir boyvuchcha o'tirganmish. Boyvuchchaning oldida Verochka turganmish.

– Verochka, u seni aldaydi, undan voz kech.

– Yo'q, oyijon.

Oradan ikki oy o'tganmish. Bir daqiqa ichida qanday qilib ikki oy o'tib ketdiykin? Ofitser o'tirganmish. Ofitser oldida, stolda bir shisha turganmish. Ofitserning tizzasida Verochka o'tirganmish.

Yana bir daqiqa ichida ikki oy o'tib ketganmish.

Bir boyvuchcha o'tirganmish. Boyvuchchaning oldida Verochka turganmish.

– Dazmol bosishni bilasanmi, azizim?

– Bilaman.

– O‘zing kimsan, jonginam? Krepostnoylardanmisan yo ozod bo‘lganlardanmisan?

– Otam amaldor.

– Oliy nasablardan ekansan-da, jonginam. Unday bo‘lsa seni ishga yollashim mumkin emas. Sendan qanday xizmatkor chiqardi? Yo‘q, jonginam, ishga ololmayman.

Verochka ko‘chada turganmish.

– Xonim, hoy xonim, – dermish shirakayf bir yigit, – yo‘l bo‘lsin? Men kuzatib bora qolay. – Verochka Nevaga qarab yugurib ketganmish.

– Xo‘sh, oppoq qizim, mehribon onangnikida ahvoling nima kechardi, endi aqling yetdimi? – dermish ilgarigi asl Marya Aleksevnaning o‘zi. – Qalay, sehrga usta ekanmanmi? Yo ko‘nglingdagini topolmadimmi? Nega daming chiqmaydi? Tiling bormi o‘zi? Seni gapirtirish ham qo‘limdan keladi; qarang tildan qolganini! Do‘konma-do‘kon yurdingmi?

– Ha, yurdim, – deb javob berarmish-u, o‘zi titrarmish.

– Ko‘rdingmi? Eshitdingmi?

– Ha.

– Turmushlari yaxshi ekanmi? O‘qimishli odamlar ekanmi? Kitob o‘qishar ekanmi, sizlarning yangi tartiblaringiz haqida o‘ylaydilarmi, odamlarga qandan yaxshilik qilsa bo‘larkan, deb o‘ylasharkanmi? Qani, ayt, shunday deb o‘ylasharkanmi?

Verochka titraganicha jim turganmish.

– Nima balo, tiling ham gapga kelmay qolganmi! Turmushlari yaxshi ekanmi, deb so‘rayapman.

Verochka sovuq qotsa ham jim turganmish.

– Nega gapirmaysan, gapirsang-chi? Turmushlari yaxshi ekanmi, deb so‘rayapman; o‘zlari yaxshi ekanmi? Sen ham o‘shalardek bo‘lging keldimi? Nega ovozing chiqmaydi? Qovoq-tumshuq qilishni bilar ekansan-ku! Verochka, gapimga quloq sol. Sen-ku o‘qimishlisan – men o‘g‘irlab topgan pullarimga o‘qigansan. Sen xayrli ishni o‘ylayapsan-u, lekin agar men yomon bo‘lmaganimda xayrli ish deb nimani aytishlarini ham bilmasdan ketarding. Tushunyapsanmi? *Hammasi* mendan chiqqan, sen *mening* qizimsan, tushunyapsanmi? *Men* onangman.

Verochka ham yig'larmish, ham titrarmish, ham sovuq qotarmish.

– Oyijon, nima qil deysiz? Sizga mehr qo'ya olmasam nima qilay?

– Menga mehribon bo'l, deyapmanmi?

– Men hech bo'lmasa sizni hurmat qilgim keladi; lekin bunga ham ra'yim yo'q.

– Hurmatingga zormanmi?

– Bo'lmasa, nima kerak sizga, oyijon? Nega mening oldimga kelib, bunday dahshatli gaplarni gapiryapsiz? Nima tilagingiz bor mendan?

– Mendan minnatdor bo'l deyman, ko'rnamak. Yaxshi ko'rma, hurmat qilma. Men yomonman, nega ham yaxshi ko'rarding? Men yomonman, nega ham hurmat qilarding? Lekin qizim Verochka, bilib qo'y, men shunday bo'lmaganimda sen ham bunday bo'lmasding. Seni yaxshi qilgan – men yaramas; mehribonliging – men yomondan. Shuni bilib qo'y, qizim Verka, mendan minnatdor bo'l.

– Marya Aleksevna, keting, endi men singlim bilan gaplashaman.

– Marya Aleksevna g'oyib bo'lganmish.

O'z kuyovlarining qallig'i, o'z singillarining sanglisi Verochkaning qo'lidan tutarmish.

– Verochka, senga hamisha yaxshilikni ravo ko'raman, sen ham mehribon bir qizsan, men bo'lsam gaplashayotgan kishim qanday bo'lsa, shundayman. Lekin sen hozir g'amgin ko'rinasan, ko'rdingmi, men ham g'amginman; menga bir qara-chi, g'amginligim yarashadimi?

– Har holda dunyodagi hamma odamlardan yaxshi.

– Bir bo'sa ol, Verochka, sen bilan ikkimiz hamdardmiz. Senga onang haq gapni gapirdi. Men onangni xush ko'rmayman, lekin u menga kerak.

– Ajabo, usiz turolmaysizmi?

– Keyinchalik odamlarga yomonlik qilishi kerak bo'lmay qolganda usiz tursam bo'ladi. Hozir mumkin emas, o'zing ham ko'ryapsan-ku, yaxshi odamlarning yolg'iz o'zi qaddini rostlab ololmaydi, yomonlar kuchli, ular ayyorroq. Lekin ko'rdingmi

Verochka, yomonlar ham har xil: bir xillarining niyati shuki, dunyo tobora yomonlashib borsin, deydi, bir xillari, boshqa xil yomonlar, dunyo tobora yaxshilansin, deydi: har kim o‘z foydasini ko‘zlaydi. Ko‘rdingmi, sening onang qizim o‘qisin, dedi: sening dars berib topgan pullaringni onang qo‘lingdan tortib olardi; onang qizim boy kuyovni tuzoqqa ilintirsin, deb orzumand bo‘lib yurardi, buning uchun seni o‘qitib ilmli qilishi lozim edi. Ko‘rdingmi, onangning niyati yomon bo‘lsa ham bundan insonga foyda tegdi: axir sen bundan naf ko‘rding-ku? Boshqa yomonlarning niyati bunday emas. Onang Anna Petrovna bo‘lganda, shunchalik o‘qib ilmli bo‘larmiding, xayrli ish nimaligini bilarmiding, yaxshilikka ko‘ngil qo‘yarmiding? Yo‘q, sening biron yaxshi narsani bilishingga yo‘l qo‘yishmasdi, seni bir qo‘g‘irchoqqa aylantirib qo‘yishardi. Shunday emasmi? Bunday onaga faqat qo‘g‘irchoq qiz kerak, chunki o‘zi ham qo‘g‘irchoq, erta-kech qo‘g‘irchoqlar bilan qo‘g‘irchoq o‘ynagani o‘ynagan. Onang yomon odam, lekin har holda inson, unga sening qo‘g‘irchoqqa o‘xshab qolmasliging kerak edi. Ko‘rdingmi, niyati yomonlar ham har xil. Ba’zilari menga xalaqit beradi: chunki men odamlar chinakam inson bo‘lsin, deyman, ularning niyati odamlarni qo‘g‘irchoqqa aylantirishdir. Boshqa yomonlar menga yordamlashadi, – ularning niyati menga yordam qilish bo‘lmasa ham odamlarning chin inson bo‘lishiga keng yo‘l ochib beradilar, ular odamlarning chin inson bo‘lishi uchun mablag‘ to‘laydi. Menga shunisi kerak. Shunday, Verochka, boshqa yomonlarga qarshi turadigan yomonlar bo‘lmasa mening ishim xarob. Mening yomonlarim yomon-ku, lekin ularning yomon qo‘lidan yaxshilik unib turadi. Ha, Verochka, onangga minnatdorchilik bildir. Unga mehr qo‘yma, u yomon, lekin u senga ko‘p yaxshilik qilgan, shuni unutma: u bo‘lmaganda sen ham bo‘lmasding.

– Doim shunday bo‘ladimi? Yo‘q, bunday bo‘lmaydimi?

– Ha, Verochka, borib-borib bunday bo‘lmaydi. Yaxshi odamlar kuchayib ketgandan keyin yomonlarga ehtiyojim qolmaydi. Tez orada shunday ahvol yuz beradi, Verochka. O‘shanda yomonlar yomonligini tashlamasa iloji yo‘qligini o‘zlari ham tushunib qoladilar: odamgarchilik qilib kelgan yomonlar mehribon bo‘lib qoladilar: ular yaxshilik qilish o‘zlariga zarar bo‘lgani uchungina

yomonlik qiladilar, holbuki, ular yomonlikdan yaxshilikning afzalligini bilishadi, yaxshilikka mehr qo'yilganda ular xayrli ishni yaxshi ko'radigan bo'lishadi.

– Qo'g'irchoqqa aylangan yomonlar-chi, ularning ahvoli nima kechadi? Ularga yuragim achiydi.

– Ular boshqacha qo'g'irchoq o'ynashadi, bezarar qo'g'irchoq o'ynashadi. Chunki bolalari ularga o'xshamaydi: hamma odamlarim inson bo'ladi, ularning bolalarini qo'g'irchoqlikka emas, odamiylikka o'rgataman.

– Qanchalar yaxshi bo'ladi!

– Lekin hozir ham yaxshi, chunki o'sha yaxshi kunlarga tayyorgarlik ko'rilyapti; har holda o'sha yaxshi kunlarni tayyorlayotganlarning ahvoli hozir ham juda yaxshi. Verochka, sen oshpaz xotinga ovqat tayyorlashga qarashganingda issiq oshxonada nafasing bo'g'ilay deydi-yu, lekin o'zingga yaxshi, muhtojlikdan qutulasan, issiq bo'lsa, nafasing qisilsa nima bo'pti? Hammaning ovqat yeyishi qanchalik yaxshi, ovqat pishirishga qarashgan kishiga undan ham yaxshi: unga ovqat yana ham shirinroq tuyuladi. Sen bo'lsang, Verochka, shirin ovqatni yaxshi ko'rasan, shundaymi?

– Ha, – debdi Verochka shirin pecheniyga o'chligi va oshxonada pecheniy pishirib yurish siri ochilib qolganidan kulib.

– Shunday ekan, nimadan xafa bo'lasan? Sen g'amingni ham unutib yubording.

– Muncha ham mehribonsiz!

– Quvnoqligimni aytmaysanmi, Verochka, hamisha vaqtim xush, xafaligimda ham vaqtim xush bo'ladi. To'g'rimi?

– To'g'ri, men g'amginligimda, siz g'amgin bir ahvolda paydo bo'lasiz-da, darhol yozilasiz; siz bilan vaqtim xush, o'zimni juda xursand sezaman.

– Mening «Donc, vivons» degan qo'shig'im esingizdami?

– Esimda.

– Qani, kel, aytamiz.

– Keling, aytamiz.

– Verochka! Seni uyg'otib yubordimmi? Choy ham tayyor. Qo'rqib ketgandim: quloq solib tursam, ingraganday bo'lding, kirsam, qo'shiq aytyapsan.

– Yo'q, azizim, uyg'otib yuborganing yo'q, o'zim ham uyg'onardim. Bir g'alati tush ko'ribman, azizim, choy vaqtida aytib

beraman. Chiqib tur, kiyinaman. Dmitriy Sergeich, xonamga nega beruxsat kirdingiz? Esingizni yedingizmi? Azizim, bosiriqqanimga qo'rqib ketdingmi? Beriroq kel, shu ishing uchun bir o'pib qo'yay. – O'pib qo'ydi. – Endi chiqib tur, men kiyinib olay.

– Mayli bo'lmasa, xodimang o'rnida xizmatingni qila qolay.

– Xo'p bo'ladi, azizim, lekin juda uyat-da!

IV

Vera Pavlovnaning ishxonasi ochildi. Ish boshlash juda oson, dastlab hatto shu qadar oson ko'chdiki, u haqda gapirib o'tirmasa ham bo'ladi. Vera Pavlovna dastlabki uch nafar chevar qizga do'kondan oladigan ish haqingizdan sal ko'proq to'layman, dediyu, boshqa hech gap aytmadi; bu ishning biron qiyin joyi yo'q edi; chevar qizlar Vera Pavlovnaning bema'ni, yengiltak xotin emasligini ko'rib, qo'limda ishlanglar, degan taklifini o'ylab-netmay qabul qilishdi: kambag'al bir xonim tikuvchilik ishxonasini ochmoqchi ekan, buning ajablanarli yeri yo'q. Bu uch qiz yana uch-to'rtta qiz topishdi, ularni, Vera Pavlovna iltimos qilganday, juda ehtiyotlik bilan tanlashdi: bunday shart bilan tanlashning ham biron shubhali yeri, ya'ni biron g'alati jihati yo'q edi: yosh va kamtar bir ayol ishxonamda ishlaydigan qizlar ochiqko'ngil, mehribon, aql-farosatli, sabr-toqatli bo'lsin, degan maqsadda qizlarni tanlagan ekan, nima qilibdi? Janjal-to'polonga tobi yo'q, vassalom; shuning uchun ham bu ish donolik, bor gap shu. Tanlangan qizlar bilan Vera Pavlovnaning o'zi ham tanishdi, ishga olaman, deb aytishdan ilgari ular bilan yaxshilab tanishib chiqdi, bu ham tabiiy bir narsa; bu ham uning bama'ni ayolligidan dalolat beradi, xolos. Bunda hayron bo'ladigan, ishonish qiyin bo'lgan hech narsa yo'q.

Shunday qilib, qizlar bir oy ishlab, baylashgan haqlarini o'z vaqtida oldilar. Vera Pavlovna o'zi doimo ishxonada bo'lardi, qizlar u bilan yaqindan tanishib, rahmdil bo'lsa-da, tejab-tergab ishlaydigan bama'ni, aqlli ayolligini bilishdi, shu bilan Vera Pavlovna ularning to'la ishonchini qozondi. Bunda biron hayron qoladigan, hayron qolishga undaguvchi jihati yo'q, lekin beka – yaxshi ayol, bu xislati tufayli ishi ham yurishib ketdi: sababi ish tutishni bilardi.

Oy oxirida, Vera Pavlovna ishxonaga qandaydir hisob-kitob daftarini ko'tarib bordi, chevar qizlariga, ishlaringizni to'xtatinglar, aytadigan gapim bor, dedi.

U oddiygina til bilan tushunarli qilib, juda tushunarli narsalar to'g'risida gapira boshladi, chevar qizlari ilgari uning og'zidan yoki boshqa biron kishining og'zidan bunday gaplarni eshitmagan edilar.

– Mana endi bir-birimizni yaxshi bilib oldik, – deb gap boshladi Vera Pavlovna, – sizlarni men yaxshi ishchi, yaxshi qizlar ekansiz, deb aytishim mumkin. Siz esa meni qanaqa bema'ni ayol ekan, deyolmaysiz. Demak, siz bilan o'z mulohazalarim to'g'risida ochiq gaplashsam bo'lar ekan. Agar mulohazalarim sizga g'alatiroq tuyulsa, bu haqda yaxshiroq o'ylab ko'rasiz, ammo lekin dabdurustdan, bema'ni gaplar-ku, demanglar, chunki mening unaqa xayolparastlardan emasligimni bilasiz. Mening fikr-mulohazalarim ana shunday.

Yaxshi odamlar: shunday tikuvchilik ishxonalari ochish mumkinki, chevar qizlarning bunday korxonalarda ishlashi hammamiz biladigan boshqa korxonalarda ishlashga qaraganda ancha foydali bo'ladi, deydilar. Men shuni sinab ko'rmoqchi edim. Birinchi oydagi ishimizga qarab hukm qilsa, foydaliroq bo'lishi aniqqa o'xshaydi. Siz hammangiz, o'z haqingizni to'la oldingiz, endi men sizga to'langan haqdan va boshqa har xil chiqimlardan keyin qo'limda yana qancha foyda qolganini aytaman, – Vera Pavlovna bir oy mobaynidagi daromad-buromadlar hisob-kitobini o'qib berdi. To'langan ish haqidan tashqari, boshqa har xil chiqimlar: uy ijarasi, chiroq haqi, hatto Vera Pavlovnaning ishxona yumushlari bilan izvoshga to'lagan bir so'mcha puli ham chiqimga kiritilgan edi.

– Mana ko'rdingizmi, – deb davom etdi u, – qo'limda falon so'm qolibdi. Endi bu pulni nimaga ishlatish kerak? Bu ishxonani ochishdan maqsadim, chevar qizlarning ishidan foyda chiqsa, foydani shu qizlarning o'ziga berish edi. Shuning uchun ham bu foydani men sizga tiqsimlab beraman; dastlab hammaga bab-baravar, har biringizga alohida-alohida taqsimlayman. Shunday taqsimlash yaxshimikin yoki sizlarga ko'proq foyda tegadigan qilib boshqacharoq taqsimlash lozim bo'larmikin, buni yana o'ylab ko'rarmiz, – dedi-da, shu bilan pullarni taqsimlab berdi.

Chevar qizlar nima qilishlarini bilmay anchagacha hayron bo'lib turishdi-da, so'ngra tashakkur bildirishdi. Vera Pavlovna

tashakkurlariga quloq bermasam, fikrimizni inobatga olmadi, ko'nglimizga qaramadi, demasinlar, degan andishaga borib ularga quloq solib turdi, so'ngra so'zida davom etdi:

– Endi men sizlarga bir kun bo'lmasa bir kun axir gaplashishimiz kerak bo'lgan eng qiyin masalani aytishim lozim, bilmadim, buni sizga yaxshilab tushuntira olarmikinman. Har holda gaplashib olgan ma'qul. Bu pullarni men o'zimda qoldirmaganimga sabab nima, ishxonadan menga daromad chiqmagandan keyin ishxona ochib o'tirishning menga nima keragi bor? O'zingizga ma'lum, erim ikkalamizning hech nimaga muhtojligimiz yo'q: badavlat emasmiz-u, lekin hamma narsamiz bor, to'kismiz. Agar biron narsa kamlik qilsa, erimga aytsam, hatto aytmasam ham menga ko'proq pul kerak bo'lganini o'zi payqaydi, shu bilan pulim ham ko'payadi. Hozir u ko'proq foyda chiqadigan ish bilan emas, o'ziga ko'proq yoqqan ish bilan band. Biz bir-birimizni juda yaxshi ko'ramiz, menga yoqqan ishni erim ham jon deb bajaradi, unga yoqqan ish menga ham ma'qul. Shu sababdan, agar pulim kamlik qilsa, u hozirgi ishlaridan ko'ra ko'proq foyda unadigan ish bilan mashg'ul bo'lardi, ko'proq pul topardi, chunki u aqlli va uddaburon odam, – o'zingiz ham uni bir qadar bilasiz. U boshqa ishga o'tmagan ekan, demak, qo'limizda bor pulimiz ham menga kifoya, sababi – men pulga uncha o'ch emasman; o'zingizga ma'lum, birov unga, birov bunga ishqiboz, hamma ham pulga o'ch bo'lavermaydi: ba'zilar balga ishqiboz, boshqalari – yasanishga yoki qartaga havas qo'yadi, bunday odamlar zavq-shavqini qondirish uchun bor dunyosini sovurib, xonavayron bo'lishgacha boradi, ko'plari xonavayron bo'ladi ham, lekin ularning ishqibozlikni puldan ham afzal ko'rishi hech kimni ajablantirmaydi. Men siz bilan birga sinab ko'rmoqchi bo'lgan ana shu ishga ishqibozman, ammo bu ishqibozligim tufayli xonavayron bo'lish u yoqda tursin, umuman hech qanday pul sarf qilmayman, bu ishdan hech qanday daromad olmasam ham mayli, shu ish bilan band bo'lganimga suyunaman. Menimcha, buning hech qanday g'alati yeri yo'q: kim ishqibozlikdan foyda kutadi deysiz? Yonidan pul sarflaydiganlar ham ko'p. Men unday ham qilmayman, pul ham sarflamayman. Boshqalarning ishqibozligi mo'maygina pulga tushsa, men zarar ko'rmay, havas qilgan ishim bilan shug'ullansam,

ko‘nglim quvonsa, demak, mening foydam boshqalarnikidan ko‘proq bo‘lar ekan. «Nega bu ishni havas qildingiz?» – deb so‘rarsiz. Sababi bunday. Donishmandlar dunyoda hammaning rohatda yashashi uchun qanday turmush qurish lozimligi haqida juda ko‘p kitoblar yozgan; bunda eng muhimi shuki, yangi tartibda ishxonalar ochish kerak, deydilar ular. Siz bilan biz shunday tartib o‘rnata olarmikinmiz, shuni sinab ko‘rmoqchiman. Birovning yaxshi imorat solgisi, yana birovning yaxshi bog‘ yoki gulzor qilib bahra olgisi kelganday, men ham shavq-zavq-la bahra olsa bo‘ladigan yaxshi tikuvchilik ishxonasi ochishni orzu qildim.

Albatta, agar men hozir qilganimday chiqqan foydani sizlarga oy sari taqsimlab tursam, bu ham ancha ma’qul ish bo‘lardi. Lekin donolar bundan ham yaxshiroq tartib o‘rnatish mumkin, shunda foyda ham ko‘proq chiqadi, foydani ham o‘z o‘rnida sarflash kerak, deydilar. Juda ajoyib tartib o‘rnatish mumkin, deydilar. Biz ham yana o‘ylab ko‘ramiz, men donolarning gapiga qarab yana nimalar qilish mumkinligini sizga oz-ozdan gapirib turaman. Siz o‘zingiz ham razm solib borasiz, bundan ham yaxshiroq biron yo‘li borligini payqasangiz, balki sekin-asta shunday qilib ko‘ramiz, qani, nima bo‘larkin. Lekin sizga shuni aytib qo‘yay, sizlarsiz men ishimizga hech bir yangilik kiritmayman. Faqat lozim ko‘rgan yangiligingizni ishga tatbiq etamiz. Donolar, xalq nimani lozim topsa, o‘sha ishning natijasi yaxshi bo‘ladi, deydilar. Men ham shunday deb o‘ylayman. Demak, siz hech qanday yangilikdan qo‘rqib-netib o‘tirmang, o‘zingiz o‘zgartirishni istagan narsadan boshqa hamma narsa eskicha qolaveradi. Sizlarning istak-xohishingizdan tashqari hech narsa joriy etilmaydi.

Hozir men siz bilan maslahatlashmasdan chiqargan so‘nggi buyrug‘imni ma’lum qilaman. Ko‘rdingizmi, hisob-kitob qilib turish kerak, ortiqcha chiqim bo‘lmasin. O‘tgan oy bu ishlarni yolg‘iz o‘zim bajardim; endi bunday qilmoqchi emasman. Orangizdan ikki kishini saylang, ular bu ishlarda men bilan birga bo‘lishsin. Ularsiz men hech qanday ish qilmayman. Axir bu pul meniki emas, sizlarniki, demak, bu pulni tasarruf qilish ham sizning ishingiz. Bu yangi ish; bunga qaysi biringiz ustaroqsiz, hali noma’lum, shunday ekan, sinab ko‘rish uchun avval qisqa muddatga odam saylash kerak, boshqa odam saylash kerakmi yo ilgari saylanganlarni o‘rnida qoldirish kerakmi – bu bir haftadan keyin ma’lum bo‘ladi.

Bu ajoyib gaplar uzoq vaqt hammaning og'zida yurdi. Lekin Vera Pavlovna ishonch qozondi: o'zi ham masalani ko'p chuqurlashtirib o'tirmay, odamni bir daqiqa zavqlantirib, keyin ishonchsizlik tug'diradigan ajoyib-g'aroyib istiqbollarni tasvirlab o'tirmay, sodda qilib gapirdi. Shu sababdan qizlar ham uni telbaga chiqargani yo'q, keragi ham shu – telbaga chiqarishmasa bo'lgani edi. Ish sekin-sekin yurishib ketdi.

Albatta, sekin-sekin yurishib ketdi. Ishxonaning uch yillik qisqacha tarixi mana bunday bo'ldi, shu uch yil mobaynida ishxonada qilingan ishlar Vera Pavlovna tarixining eng muhim tomoni bo'ldi.

Ishxonaga poydevor qurgan qizlar sinchiklab tanlab olingandi, yaxshi chevar qizlar edi, ular ishning yaxshi yurishib ketishidan bevosita manfaatdor edilar, shu sababdan ham, tabiiy, ish juda yaxshi ketdi. Ishxonaga bir marta buyurtma bergan xonimlardan birontasi ham aynib ketgani yo'q. Bir qancha do'kon va tikuvchilik ustaxonalari bularga ko'z olaytirgandi, lekin hech qanday ta'siri bo'lmadi. Lekin Vera Pavlovna har xil g'idi-bidi gaplarni bartaraf qilish niyatida ishxonaga viveska osish uchun zudlik bilan ruxsat olishga majbur bo'ldi. Ko'p o'tmay buyurtma ko'payib, ishxonaga dastlabki kirgan qizlar kamlik qilib qoldi va ularning soni sekin-asta ko'paydi. Bir yarim yildan keyin yigirmaga yaqin qiz ishladi, keyin ular yana ko'paydi.

Butun idora ishlarini chevar qizlar zimmasiga topshirishning birinchi natijasi shu bo'ldiki, qizlar idora qila boshlagan dastlabki oydayoq, Vera Pavlovnaning maosh olmay ishlashi yaxshi emas, degan qarorga kelishdi, shunday bo'lishi ham lozim edi. Qizlar buni Vera Pavlovnaning o'ziga aytishgandi, u: ha, chindan ham shunday bo'lishi lozim, deb ma'qulladi. Unga foydaning uchdan birini bermoqchi bo'lishdi. Vera Pavlovna ularning bu ishi o'zlari o'rnatgan tartib-qoidalarning asosiy mazmuniga zid ekanligini qizlarga tushuntirguncha, bu foydani sal vaqt bir chekkaga qo'yib turdi. Qizlar anchagacha bunga tushunolmay yurishdi; keyinchalik foydadan alohida bir ulush ajratib berilishiga Vera Pavlovnaning qarshi turgani izzat-nafsi tufayli emas, balki asli ishning o'zi shuni talab etishini tushungach, o'zlari ham rozi bo'lishdi. Bu vaqtlarda ishxonada ish juda ko'payib, kiyimlarni Vera Pavlovnaning bir o'zi

bichib ulgurolmadi, yana bir bichiqchi qiz olish kerak bo'ldi: bu bichiqchiga qancha maosh to'lasalar, Vera Pavlovnaga ham shuncha to'laydigan bo'lishdi. Vera Pavlovnaga ilgari foydadan chegirib berilgan pullarning bichiqchiligi uchun unga tegishi zarur bo'lgan qismidan qolganini uning iltimosi bilan qayta kassaga qo'yishdi; qolgan pulni bank ochishga ishlatishdi. Vera Pavlovna bir yil, chamasi, kunning ko'proq qismini ishxonada o'tkazdi, vaqt jihatdan olganda, aslida, hech kimdan oz ishlagani yo'q. U endi ishxonada kun bo'yi bo'lmasligi ham mumkinligini bildi, ammo ish vaqtining qisqarishiga qarab unga to'lanadigan haq ham kamaytirildi.

Endi foydani qanday taqsimlash kerak? Vera Pavlovna foydani o'rtada hammaga baravar taqsim qilmoqchi edi. Bu ish uchinchi yilning o'rtalariga borganda mumkin bo'ldi. Ungacha foydani ish haqiga qarab rasamadi bilan bo'lib berishdan tortib bir necha xil bosqichlar bosib o'tildi. Dastlab biron qiz kasal bo'lsa yoki boshqa biron uzrli sabab bilan bir necha kun ishlamasa, buning uchun foydadan uning ulushini kamaytirish yaxshi emasligiga ko'zlari yetdi, chunki bu foyda shu kasal kunlarida hosil qilingan foyda emas, balki butun ish davrida, ishxonaning umumli faoliyati tufayli ungan. So'ngra bichiqchilar, buyurtmalarni uyma-uy eltib topshirgani va boshqa yumushlarda yurgani uchun alohida haq oladigan boshqa qizlarga maxsus maosh kifoya, ularning foydadan ham ko'proq ulush olishi insofdan emas, degan fikrga kelishdi. Biron mas'uliyatli vazifani bajarmay, faqat kiyim tikuvchi qizlar shu qadar kamtar edilarki, hatto ular ilgari o'zlari o'rnatgan eski tartibning noto'g'riligini ko'rib tursalar ham bu ishda o'zgarish qilishni talab etmadilar: biron mas'ul vazifada ishlovchi qizlarning o'zi ortiqcha haq olish yaxshi emasligini payqab, yangi tartibning ma'nisini juda aniq tushunganlaridan keyin ortiqcha haqdan o'zlari voz kechdilar. Binobarin, shuni ham aytib o'tish kerakki, hammalarining ishlari tobora yaxshilashib borgandan keyin, vaqtincha kamtarlik qilib, bir xillari bunga chidab, boshqalarining bundan voz kechishini katta bir jasorat deb bo'lmasdi. Bir xil oddiy tikuvchilar boshqalariga qaraganda ko'proq pul ishlab topsa ham hammalari foydadan baravar ulush olishi lozimligi, ko'proq ish qiladiganlarning maoshi boshqalardan ko'proq bo'lishining o'zi ham bu ko'proq qilingan ishining farqi ekanligini ularga tushuntirish hammadan qiyin bo'ldi.

Bu uchinchi yil o‘rtalarida foydani taqsimlashdagi so‘nggi yangilik edi, foyda – biron shaxsning ishda ko‘rsatgan mahorati uchun beriladigan mukofot emas, balki ishxonaning umumiy xususiyatidan kelib chiquvchi natija ekanini, uning tuzilishi, oldiga qo‘ygan maqsadining natijasi ekanini ishxonadagilar tushundi, ishxonaning maqsadi esa – ishda qatnashuvchilarning shaxsiy xususiyatlaridan qat’i nazar, hammalarining oladigan foydalari bir xil bo‘lsin, degan maqsad edi; ishlovchilarning butun foydaga sherikligi ishxonaning mana shu xususiyatiga bog‘liq bo‘ladi: ishxonaning xususiyati, uning ruhi, undagi tartib hammaning ahilligi bilan yuzaga keladi, ahillik masalasida esa ishda qatnashadigan har qanday ayolning ham o‘rni katta bo‘ladi: juda uyatchan yoki eng qobiliyatsiz ayolning ham indamay rozilik bildirishi ishdagi tartib uchun, butun ishning yaxshi borishi uchun, uni yanada yaxshiroq yo‘lga qo‘yish uchun foydali bo‘ladi.

Men ko‘p mayda-chuydalarni tashlab ketdim, chunki niyatim ishxonani tasvirlab berish emas, Vera Pavlovnaning ishini tasvirlash uchun nima lozim bo‘lsa, ishxona xususida faqat shuni gapirib o‘taman. Ba’zi bir mayda-chuydalarni tilga olishimdan murod Vera Pavlovnaning qanday yo‘l tutganini, sabr-toqat bilan, charchamay, qadam-baqadam ishni qanday yo‘lga qo‘yib borganini va o‘z tartib-qoidasiga: hech qanday buyruqsiz, maslahatlashish, tushuntirish, madadkorlik qilish, sheriklarining qarorini amalga oshirishda ularga yordam berish odatiga hamisha qattiq rioya qilganini ko‘rsatishdir.

Foydani oy sari taqsim qilishdi. Dastlab har bir qiz o‘z ulushining hammasini olib, boshqalardan alohida sarflab yurdi: har kimning o‘ziga yarasha zarur ehtiyojlari bo‘lib, bundan tashqari hali ahillik bilan ishlash odati ham yo‘q edi. Ular ishxona ishlarida doimiy qatnashib, barcha ishlar haqida to‘la tasavvurga ega bo‘lganlaridan keyin, Vera Pavlovna, hozirgi mahoratingizda buyurtmalar oyma-oyiga juda har xil taqsimlanyapti, ish uncha yurishmagan oylarning kam-ko‘stini yaxshi ishlangan oylarda qoplab ketish uchun foydaning biron qismi jamg‘arib qo‘yilsa yomon bo‘lmasdi, degan gapni o‘rtaga tashladi. Hisob-kitob juda aniq yuritilardi, qizlardan birontasi ishxonadan bo‘shab ketsa, kassada turgan hissasini shu ondayoq olishi mumkinligini qizlar bilardi. Shu sababdan ular bu taklifga rozi bo‘lishdi. Birmuncha

kapital jamg‘arilib, u tobora ko‘paydi; kapitalni har xil maqsadlarda ishlatib turishdi. Qatnashuvchilardan birontasi pulga muhtoj bo‘lib qolsa, qarz berib turish ham mumkin ekan. Ammo qarz olgan pul uchun foiz to‘lash hech kimning xayoliga kelmadi: sababi, puldan qarashib yuborishning eng yaxshi usuli foizsiz qarz berish ekanligini har bir kambag‘al bilardi. Bunday bank tashkil etilgandan keyin xarid shirkati ham tuzildi: qizlar choy, qahva, qand, oyoq kiyimi va boshqa ko‘p buyumlarni ishxona vositasida xarid qilish foydali ekanini ham tushunib qolishdi, chunki ishxona chakanalab xarid qilmaydi, demak, arzonga tushadi. Oradan birmuncha vaqt o‘tgach, yana yangi ishlar qilishdi: non va boshqa shu kabi oziq-ovqatlarni ham shu tariqa xarid qilish foydali ekanligini tushunishdi, ilgarilari bu narsalarni non do‘konidan va baqqollardan olishardi; lekin qarasalar, buning uchun hammalari bir-birlariga yaqin turishlari lozim ekan: bir necha kishi bir xonadonda turadigan bo‘lishdi. Ishxonaga yaqin joydan xonadon olishdi. Keyin ishxonada novvoyxona va boshqa oziq-ovqat do‘konlaridan mol olib yetkazib turuvchi agentlik ochishdi. Bir yarim yillardan keyin deyarli barcha qizlar katta bir xonadonga joylashib, hammalari bir dasturxondan ovqat yeydigan, katta ro‘zg‘orli xonadonlardan oziq-ovqat g‘amlab oladigan bo‘lishdi.

Qizlarning yarmi turmushga chiqmagan yoshlar edi. Ba’zi birlarining qarib qolgan qarindoshlari, onalari yoki xola-yu ammalari bor edi; ikki qiz keksa otasini o‘z qaramog‘iga olgandi; ko‘plarining yosh ukalari yoki singillari bor edi. Ulardan uchtasi shu qarindosh-urug‘lari tufayli umumiy xonadonga joylashishga imkonlari bo‘lmadi: bittasining onasi odam bilan chiqishmaydigan, yana bittasining onasi amaldorning xotini ekan, mujiklar bilan birga turishni istamadi, uchinchisining otasi piyanista ekan, shu sababli bu qizlar faqat agentlik xizmatidan foydalanib turishardi; eri bor tikuvchi juvonlar ham shu ahvolda edi. Lekin haligi uch qizdan boshqa, qaramog‘ida ota-ona, qarindosh-urug‘lari bo‘lgan hamma qizlar umumiy xonadonda turishardi. Ba’zilari bir xonada yolg‘iz o‘zi tursa, ba’zilari ikki-uch kishidan bo‘lib turishardi: ularning qarindosh-urug‘lari o‘zlari xohlaganlaricha turishardi, ikki kampir alohida-alohida xonada turardi, qolgan kampirlar birga turishardi. Yosh bolalarning xonasi alohida, yana qizlar uchun ham alohida ikki

xona bor edi. O‘g‘il bolalar sakkiz yoshga kirguncha shu uylarda turishardi, yoshi katta bolalar hunariga qarab joylashtirilardi.

Kompaniyadagilar hech kim hech kimni koyitmayapti, hech kimning hech kimga zarari tegmayapti, deb ko‘ngli to‘q yurishi uchun hamma narsaning aniq hisob-kitobi bor edi. Yolg‘iz qizlarning xonadon haqi va yeyish-ichishini hisob-kitob qilish juda oson edi. Ular birmuncha vaqt bir qarorga kelolmay yurishdida, oxiri sakkiz yoshli uka yoki singilga katta qizlarga ketadigan sarf-xarajatning to‘rtdan bir qismi, o‘n ikki yoshgacha bo‘lgan qizchaga uchdan biri, o‘n ikki yoshdan yuqorisiga esa uning opasiga ketadigan xarajatning yarmi ketadi, degan qarorga kelishdi; o‘n uch yoshdan boshlab ular agar biror boshqa ishga kirmasa shogirdlikka ilinadigan bo‘ldi, o‘n olti yoshdan boshlab tikuvchilik hunarini yaxshi bilib olsa, uni kompaniyaning teng huquqli a’zosi qatoriga olishdi. Ota-onalarining chiqimi, albatta, tikuvchi qizlarga ketadigan chiqim bilan baravar hisoblanardi. Alohida xonada turuvchilardan alohida haq olinardi. Deyarli hamma kampirlar, ishxona xonadonlarida turuvchi uchala chol ham oshxonada va boshqa ro‘zg‘or ishlarida qatnashishardi; buning uchun, albatta, ularga haq to‘lanardi.

Bular hammasi juda yengil-yelpi hikoya qilinyapti, amalga oshirilganda ham ancha oson, yengil va tabiiy bir narsaday bo‘ldi. Ammo juda sekinlik bilan amalga oshdi; har bir yangilikni ro‘yobga chiqarish uchun juda ko‘p muhokamalar bo‘lib, mulohazalar aytildi, har bir yangilikka o‘tishda juda ko‘p ovoragarchiliklar sodir bo‘ldi. Ishxonaning foydasi va uni taqsimlash singari ishxonadagi tartib-qoidalarning boshqa tomonlari haqida ham shunday batafsil hikoya qilsak, gap juda cho‘zilib ketadi va u ancha quruq bo‘lib qoladi; kishining me’dasiga tegmaslik uchun ko‘p narsalar haqida hech nima demasdan, ba’zi bir narsalar haqida sal-pal eslatib o‘tish kifoya; masalan, ishxonadagilar buyurtmalarni tikishdan bo‘sh vaqtlarida tayyor buyumlar sotadigan agentlik ham ochildi, ishxonaning-ku hali alohida do‘kon ochishga qurbi yetmasdi, lekin Gostinniy dvordagi do‘konlardan biri bilan shartnoma tuzdi. Chayqov bozorda kichik bir do‘kon ochdi, kampirlardan ikkitasi shu do‘konda gumashtalik qilardi. Lekin shunga qaramay ishxona hayotining bir tomonini batafsilroq gapirib o‘tmasa bo‘lmas.

Vera Pavlovna dastlabki kunlardanoq ishxonaga kitob olib keladigan bo'ldi. Qizlarga topshiriq berib qo'ygandan keyin ularga kitob o'qib berardi, biron zarur ish chiqib qolib, o'qishni to'xtatmasa, yarim soat, bir soat kitob o'qirdi. Keyin qizlar kitob o'qishdan to'xtab dam olishardi; so'ngra yana kitob o'qilardi, yana dam olinardi. Qizlar dastlabki kunlardanoq kitobga ko'ngil qo'yib qolganligini aytmasa ham bo'ladi, ba'zi birlarining ilgari ham kitobga havasi zo'r edi. Oradan ikki-uch hafta o'tgandan keyin ish vaqtida kitob o'qish rasm bo'ldi. Uch-to'rt oydan keyin kitobni juda yaxshi o'qiydiganlar ham chiqib qoldi; ular Vera Pavlovna bilan galma-gal kitob o'qishardi, qizlarning har biri yarim soatdan kitob o'qib berardi, uying shu yarim soat vaqti ishga hisoblanardi. Vera Pavlovna kitob o'qib berish vazifasidan qutulgach, ilgarilari ham kitob o'qish o'rniga ba'zan hikoya qilganday, endilikda tez-tez va ko'proq hikoya qiladigan, keyinchalik borib hikoya qilishlar ham barham topib, har xil bilim sohalaridan yengil-yelpi dars berish rasm bo'ldi. So'ngra, – bu oldga tashlangan juda katta qadam bo'lgandi, – Vera Pavlovna rasmona o'qishga ko'chsa ham mumkinligiga ko'zi yetdi: qizlar o'qishga qiziqib, ishlari shu qadar yurishib ketdiki, tushki ovqat oldidan dars tinglash uchun katta tanaffus bo'lsin, degan qarorga kelishdi.

– Aleksey Petrovich, – dedi Vera Pavlovna bir kuni Mersalovlarnikiga borganida, – sizga bir iltimosim bor. Natashani ham ko'ndirib qo'ydim. Ishxonam har turli bilim o'chog'iga aylanyapti. Siz ham professorlar qatoriga kirsangiz-chi.

– Men ularga nimadan dars berishim mumkin? Lotincha va yunonchadanmi yoki mantiq va notiqlik ilmidanmi? – dedi Aleksey Petrovich. – Sizning fikringizcha va yana o'zim biladigan bir kishining fikricha, mening ixtisosim uncha maroqli emas-ku.

– Yo'q, sizning xuddi shu mutaxassisligingiz kerak, siz odob-axloq bobida va darslarimizning to'g'ri yo'lga tushib ketishi masalasida bizning suyanchig'imiz bo'lasiz.

– Gapingiz to'g'ri. Men bo'lmasam, odob-axloq qayoqda deysiz. Bo'lmasa, kafedra tayinlang.

– Masalan, rus tarixi, umumiy tarixdan ocherklar.

– Juda soz. Men bulardan leksiya o'qiyman, ammo mutaxassis deb hisoblanarkanman. Juda soz. Ikki vazifam bo'larkan: ham professor, ham suyanchiq.

Boshqa professorlar Natalya Andreyevna, Lopuxov, yana ikki-uch talaba, Vera Pavlovnaning o‘zi edi, ular qiziqchilikka o‘zlarini professor deb atashardi.

O‘qish bilan birga har xil o‘yin-kulgilar ham bo‘lib turardi. Kechalar tashkil etishardi, shahar tashqarisiga sayr-tomoshalarga chiqishardi: avval kamroq bo‘lsa ham, keyinchalik pullari ko‘payganda tez-tez o‘yin-kulgi qilib turishdi. Uchinchi qishga yetganlarida italyan operasiga orqaroq joylardan o‘n o‘ringa abonement olishdi.

Vera Pavlovnaning xursandligi-yu baxtiyorligini ko‘rsangiz; ko‘p mehnat qilardi, tashvishi boshidan oshib-toshib yotardi, dilsiyohlik vaqtlari ham ko‘p bo‘lardi. Ishxonadagi eng yaxshi chevar qizlardan birining boshiga tushgan falokat, faqat Vera Pavlovnaga emas, butun ishxonadagi xotin-xalajga qattiq ta’sir qildi. Vera Pavlovnaning o‘zi topgan uch qizdan biri Sashenka Pribitkova juda dilbar, odobli qiz edi. Qallig‘i xushfe’l, tuzukkina mansabdor yigit edi. Bir kun qiz bemahalda ko‘chada ketayotganida kimdir unga tegishib gap otgan. Qiz qadamini tezlatgan. U kishi ham tez yurib unga yetib olib, qo‘lidan ushlagan. Qiz siltanib qo‘lidan chiqqan, lekin siltanganidan qo‘li haligi kishining ko‘kragiga tekkan, shunda muhtaram janobning tilla soati uzilib jiring etib yo‘lkaga tushgan. Muhtaram janob shundan keyin Pribitkovani qo‘lidan dadil tutib: «O‘g‘rini ushlang! Qorovul!» – deb baqirgan. Bir-ikki qorovul kelib, Pribitkovani politsiya uchastkasiga olib ketgan. Ishxonada uch kungacha Pribitkovaning taqdiridan bexabar o‘tirishgan, uning qayoqqa g‘oyib bo‘lganini hech kim bilmagan. To‘rtinchi kun deganda uchastka xizmatchilaridan shafqatli bir soldat Vera Pavlovnaga Pribitkovadan xat keltirgan. Shu zamonoq Lopuxov bu ishning ketiga tushgan. Unga qo‘pol muomala qilishgan, u ham beshbattar qo‘rqoqlik qilib bo‘sh kelmagan, shu bilan Serjning yoniga borgan. Serj bilan Jyuli qayoqqadir uzoq saylga ketishgan ekan, ertasiga qaytishgan. Serj kelgandan keyin ikki soat o‘tgach, xususiy pristav Pribitkovadan uzr so‘ragan, uning qallig‘idan ham uzr so‘ragani ketgan. Pribitkovaning qallig‘i bir kun ilgari uchastkaga Pribitkovaning yoniga borgan, uni uchastkaga olib kelgan qorovullardan haligi oliftaning nomini bilib olgan, uyiga borib, duelga chaqirgan; olifta, bizdan xato o‘tibdi, deb mensimagannamo

uzr so‘ragan, duelni eshitib xaxolab kulgan. Chinovnik: «Mana bu dueldan bosh torta olmasalar kerak», – deb oliftaning yuziga shapaloq tortib yuborgan, olifta tayog‘ini qo‘lga olgan ekan, chinovnik uning ko‘kragiga bir musht urgan: olifta gurs etib yiqilgan, to‘polonni eshitib xizmatkorlari yugurib kelishgan. Qarashsa, olifta o‘lib yotganmish, yiqilganida chakka tomiri stolning qirrasiga tekkan ekan. Chinovnikni qamoqqa olishgan, ishini sudga berishgan, bu ishning qanchaga cho‘zilishi noma’lum bo‘lgan. Keyin-chi? Keyin hech gap bo‘lgani yo‘q, lekin o‘shandan beri Pribitkovaning rang-ro‘yiga qarasang yuraging ezilib ketardi.

Ishxonada bundan boshqa yana bir qancha voqea yuz berdi, jinoiy ishlar bo‘lmasa ham, lekin har holda yaxshi ishlar emasdi: bular qizlarni qon-qon yig‘latadigan, yosh yigit yoki kattalarga ko‘p bo‘lmasa ham biroz vaqt ko‘ngilli ovunchoq bo‘ladigan oddiy voqealar edi. Hozirgi tushunchalar va shart-sharoitlar hukm surib turganda bunday voqealar sodir bo‘lishi muqarrarligini Vera Pavlovna bilardi, qizlar haqida boshqalar har qancha g‘amxo‘rlik qilsa ham, ular o‘zlarini o‘zlari har qancha ehtiyot qilsalar ham, yoshlarni bunday ko‘ngilsizliklardan saqlash qiyinligiga aqli yetardi. Bir zamonlarda chechakka qarshi emlashni bilib olgunlaricha qanday bo‘lgan bo‘lsa, bu ham hozircha shunday edi. Hozir biron kishiga chechak chiqsa, o‘zi aybdor, yoki bunga ko‘proq uning yaqin-bilishlari zomin bo‘ladi: ilgari zamonlarda unday emasdi: biron balo-qazo, ofati shahar, qishloq, boshqa chechak kasaliga mubtalo bo‘lib sog‘ayguniga qadar karantin qilib hech qayoqqa chiqmay yotib olish o‘rniga, boshqa kishiga ham yuqtirgan biron kishidan boshqa hech kimni ayblab bo‘lmasdi. Bu masala hozirda ham shunday: vaqti kelib odamlar o‘zlarini bu chechakdan ham qutqaradilar, uning davosi ham topilgan, lekin chechakning ham davosi topilganda uzoq, juda uzoq vaqtgacha uni ishlatgilari kelmagani singari, bu davoni ham ishlatgilari kelmay turibdi. Bu ofat hali shahar va qishloqlarda bemalol izg‘ib yurganini va avaylab, ehtiyotlab parvarish qilinayotgan ma’sumlarga ham chang solayotganini Vera Pavlovna bilardi: lekin «Boshingga tushgan kulfatga men aybdor emasman, bunga, do‘stim, o‘zing ham gunohkor emassan», – deb o‘zingga o‘zing tasalli berishing undan besh battar yomon! Har holda bu kundalik voqealarning har

biri Vera Pavlovnaning dilini siyoh qilardi, ishi avvalgidan ham ko'payib ketardi; yordam qilish uchun avval kasalini topish kerak bo'lardi; ko'pincha qidirish zarur emasdi, faqat yordam qilish lozim bo'lardi: tinchitib, dalda berib, ko'nglini ko'tarib, «yig'ingni bas qil, bas qilsang, yig'iga hojat ham qolmaydi», – deb aql-idrokli bo'lishga chaqirar edi.

Lekin quvonch ko'proq, ha, ko'proq bo'lardi. Xafagarchilikdan ko'ra quvonch ko'proq edi; xafagarchilik onda-sonda, o'shanda ham kamdan kam bo'lardi: bordi-yu yarim yilda biron qizni deb diling siyoh bo'lsa, boshqa hamma qizlarni ko'rib ko'ngling to'lib xursand yurarding; oradan ikki-uch hafta o'tgach, yana bittasidan ham quvonib qolarding. Vera Pavlovna esa kundalik ishlardan yuzi yorug', ko'ngli shod bo'lib yurardi. Ba'zan xafagarchilik oralab kishining dilini siyoh qilsa, yaxshi ishlar, voqealar dilsiyohlikni bosib ketardi, bunday xursandchiliklar xafagarchilikdan ko'proq bo'lardi: masalan, biron qizning ukasi yoki singlisi yaxshiroq ishga joylashib qo'yiladi; uchinchi yilga borib qizlardan ikkitasi uy muallimasi vazifasiga imtihon berdi, axir, bu ish ular uchun juda katta baxt edi! Shu kabi bir qancha har turli yaxshi ishlar amalga oshdi. To'y deganda ishxonadagilarning hammasi, ayniqsa, Vera Pavlovnaning quvonchi ichiga sig'may ketardi. To'ylar ko'p va hammasi yaxshi bo'lar; to'y oldidan ham, to'ydan keyin ham ko'pgina kechalar o'tkazishardi, ishxonadagi o'rtoqlari kelinga ko'plab sovg'a-salomlar tayyorlashardi; ehtiyot fonddan qizga sep qilishardi; bu masalada ham Vera Pavlovnaning ishi boshidan oshib yotardi! Boshda Vera Pavlovnaning bir ishi ishxonadagilarga nojo'yadek tuyuldi: birinchi kelin uni vakilonalikka iltimos qilgandi, ko'ndirolmadi: ikkinchisi so'ragandi, u ham ko'ndirolmadi. Ko'pincha Mersalova yoki uning onasi – bama'nigina bir xonim vakil-onalik qilardi. Lekin Vera Pavlovna sira ham vakil-onalik qilmasdi. Vera Pavlovna qizni kiyintirib, cherkovga kuzatib borar, lekin o'shanda ham qizning dugonalaridan biri bo'lib borardi. Birinchi safar, biron narsadan xafa bo'lib shunday qildi, deb o'ylashgan edi, lekin unday emas ekan. Vera Pavlovna vakil-ona bo'ling, degan takliflaridan juda xursand bo'ldi, lekin ko'nmadi: ikkinchi safar shunchaki kamtarlik qilyapti, deb o'ylashdi: Vera Pavlovnaning qizga rasmiy homiylik qilgisi

kelmasdi. Umuman, o'zining biron-bir ta'sirini o'tkazayotgandek ko'rsatmaslik payidan bo'lardi, boshqa qizlarni odamlarga tanitishga harakat qilardi va bu ishida yaxshi natijalarga ham erishdi. Ishxonaga buyurtma bergani kelgan xonimlardan ko'plari Vera Pavlovnani boshqa bichiqchi qizlardan farqlay olishmasdi. Vera Pavlovna biron kishiga, ishxonadagi bu tartib-qoidalarning hammasi qizlarning o'zidan chiqqan va o'zlari boshqarib turishadi, deb tushuntirganda xursandligidan boshi osmonga yetardi; Vera Pavlovna bunday paytlarda o'zini o'zi ishontirib, ishxona mensiz ham ishlab ketadi, boshqa ishxonalar ham ochilishi mumkin, nega ham mumkin bo'lmas ekan, deganday bo'lardi. Bu narsa amalga oshsa ajoyib ish bo'lardi-da! Chevarlar ichidan biron kishi rahbarlik qilmasdan, chevar qizlarning aql va tashabbusi bilan ochilsa ajabmas, degan xayoliga o'zini ishontirgisi kelardi: Vera Pavlovnaning yuksak orzusi shu edi.

Ishxona ochilgandan buyon salkam uch yil, Vera Pavlovna erga chiqqandan buyon uch yildan ko'proq vaqt shu taxlitda o'tdi. Bu yillar juda osuda, natijali bo'ldi, xotirjamlik, quvonch, xayrli ishlarga to'ldi.

Vera Pavlovna odatdagidek uyg'onib, o'rnida anchagacha huzur qilib yotadi; o'zi erkalanib yotishni yaxshi ko'radi, biroz mudrayotganga o'xshaydi-yu, mudramaydi, nima qilsamikin, deb o'y o'ylaydi; u yoqqa, bu yoqqa o'girilib ham ko'radi, ko'ziga uyqu ilinmaydi, o'ylamaydi ham, yo'q, nimani o'ylar ekan: «Issiqqina, yumshoqqina o'rinda ertalab erkalanib cho'zilib yotganga nima yetsin!» Eri, ya'ni sevgilisi sheriklik xonadan turib – yo'q, endi sheriklik xonalarning biridan, deyish kerak, chunki sheriklik xona hozir ikkita, erga chiqqaniga ham to'rt yil bo'lgan, «Verochka, uyg'ondingmi?» – demaguncha erkalanib yotadi. «Ha, turdim, azizim», deb javob beradi. Buning ma'nisi, eri choy hozirlashga kirishsa bo'ladi, degani: ertalab eri turib choy hozirlaydi, Vera Pavlovna, – yo'q, u o'z xonasida Vera Pavlovna emas, Verochka, – kiyinadi. Muncha uzoq kiyinmasa! Yo'q, uzoq emas, bir daqiqada kiyinib oladi, lekin ancha vaqtga qadar suv o'ynab o'tiradi, suv chapillatib o'tirishni yaxshi ko'radi, keyin anchagacha soch taraydi, yo'q, anchagacha emas, bir daqiqada tarab bo'ladi, uzoq vaqt sochini o'ynab o'tiradi, chunki sochini o'ynashni yaxshi

ko‘radi: aytgancha, ba’zan u chindan ham pardoz buyum jumlasiga kiradigan botinkasini kiyish bilan ovora bo‘ladi: uning botinkasi juda chiroyli, bejirim; o‘zi-ku sodda kiyinib yuradi, lekin botinkaga juda ishqiboz.

Mana, u choy ichgani chiqib, erini quchadi: «Azizim, tinch uxladingmi?» – deb hol-ahvol so‘raydi, choy ichib o‘tirib, undan-bundan, bo‘lgan-bo‘lmagan narsalardan gap ochishadi; Vera Pavlovna, yo‘q, Verochka, – u nonushta vaqtida ham Verochkaligicha qoladi, – choy ichadi, ko‘proq qaymoq yeydi; choy qaymoqqa bir bahona, chashkasining yarmidan ko‘pi qaymoq; qaymoq uning jon-u tani. Peterburgda, odatda, yaxshi qaymoq bo‘lmaydi, lekin Verochka hech narsa qo‘shilmagan juda yaxshi qaymoq sotadigan joyni topib olgan. U, qani endi o‘zimizning sigirimiz bo‘lsa edi, deb orzu qilib yuradi; nima bo‘pti, ishlari hozirgiday yurishib tursa, bir yildan keyin sigirlik ham bo‘lishadi. Soat o‘n. «Sevgilisi» dars berishga yoki ishga ketadi: u bir fabrikantning idorasida xizmat qiladi. Vera Pavlovna, – endi u yanagi kun ertalabgacha rasmona Vera Pavlovna bo‘ladi, – uy-ro‘zg‘or ishlariga qaraydi; ularning yoshgina bir xizmatkor qizi bor, unga hammasini aytib o‘rgatib turmasa ishi bitmaydi; bunisiga endi ish o‘rgatib bo‘lganda yangisiga tushuntirishga to‘g‘ri keladi: Vera Pavlovnanikida xizmatkor qiz uzoq turmaydi, hammalari erga chiqib ketishadi – yarim yil yoki sal ko‘proq ishlaydi-da, bir vaqt qarasang, Vera Pavlovna vakil-ona tayyorgarligini ko‘rib, o‘ziga to‘yga atab biron kiyim tikish taraddudiga tushib qoladi; yo‘q deyishning iloji bo‘lmaydi, «bu nimasi, Vera Pavlovna, axir bu ishlarga o‘zingiz bosh bo‘lyapsiz, vakil-onalikka sizdan boshqa hech kim yo‘q», deyishadi. Xullas, uy-ro‘zg‘or ishlaridan ko‘pi yo‘q. Keyin borib dars berish kerak, darsi ham ancha-muncha, haftada o‘n soatcha, bundan ortiq dars olay, desa og‘ir, vaqti ham yo‘q. Darsdan oldin ancha vaqt ishxonada band bo‘ladi, darsidan qayta turib yana ishxonaga kirib chiqmasa iloji yo‘q. Qarabsizki, «sevgilisi» bilan tushlik qiladigan vaqti ham kelib qolibdi. Tushlikka ko‘pincha bir, ko‘p deganda ikki kishi keladi, – undan ortig‘i ko‘plik qiladi; faqat ikkovlari o‘tirib tamaddi qiladigan vaqtlari ham bo‘ladi: mehmon kelsa yelib-yugurib ularga ham yetarli biron issiq ovqat pishirishga to‘g‘ri keladi. Vera Pavlovna ishdan charchab

kelsa naridan-beri ovqatlanib qo‘ya qolishadi; ovqat oldidan Vera Pavlovna o‘z xonasida dam oladi, ovqat ham u bilan birga qanday boshlangan bo‘lsa, shundayligicha qoladi, usiz pishiriladi. Agar charchamagan bo‘lsa oshxonada ish qaynagandan qaynaydi, yangi xil ovqatlar, allaqanday pecheniylar, ko‘pincha qaymoq bilan yeyiladigan taomlar, ya’ni qaymoqqa bahona bo‘ladigan masalliqlar paydo bo‘ladi. Tushlik vaqtida Vera Pavlovna yana gapga kiradi, ko‘proq o‘zi gapiradi: gapirmay ham bo‘larkanmi? Birgina ishxonaning o‘zidagi yangiliklar haqida qancha gapirsa bo‘ladi. Ovqatlanib bo‘lganlaridan keyin sevgilisi bilan yana chorak soat chamasi suhbat qurib o‘tirishadi-da, «xayr-ma’zur» qilib uy-uylariga kirib ketishadi, Vera Pavlovna yana o‘rniga borib yonboshlaydi, kitob o‘qiydi, rohatlanib yotadi; ko‘p hollarda ko‘zi uyquga ketadi, kun ora bir-bir yarim soatdan uxlaydi – odati shu, xunuk odat, albatta, lekin Vera Pavlovna ovqatdan keyin uyqusi kelsa uxlamay qo‘ymaydi, uyqu keltirishni o‘zi yaxshi ko‘radi, bu yomon odati uchun uyalmaydi ham, pushaymon qilmaydi ham. Bir yarim-ikki soat shunday mudrab yoki huzur qilib, erkalanib yotganidan keyin, turib kiyinadi, yana ishxonaga ketadi, choy vaqtigacha o‘sha yerda bo‘ladi. Agar oqshom hech kim bo‘lmasa, yana choy vaqtida «sevgilisi»ga kundalik ishlarini gapirishga tushadi, shu bilan biror yarim soat sheriklik xonada o‘tirishadi. So‘ngra: «Xayr, azizim, deb bir-birlarini o‘pib, ertaga nonushtagacha uy-uylariga kirib ketishadi. Vera Pavlovna shundan keyin uzoq vaqt, ba’zan soat ikkigacha ishlaydi, o‘qiydi, fortepyano chalib, o‘qishdan dam oladi, royal erining xonasida turadi; bu royalni yaqinda sotib olishgan, ilgari royal sotib olishlari ham o‘zlari uchun kattagina tantana bo‘lgandi, arzonga tushgan, to‘g‘ri kelib qolib, yuz so‘mga olgandilar, ixchamgina, eski Erar royali, tuzatishga yetmish so‘mcha ketgan; lekin royalning tovush toni haqiqatan juda yaxshi. Sevgilisi qo‘shiq eshitish uchun bu xonaga onda-sonda, kamdan kam kiradi; ishi boshidan oshib yotadi. Kechalari shu zaylda o‘tadi: ishlashadi, o‘qishadi, biror o‘yin o‘ynashadi, qo‘shiq aytishadi, ko‘pincha o‘qishadi, qo‘shiq aytishadi. Uylarida hech kim bo‘lmaganda shunday qilishadi. Ammo oqshomlari ko‘pincha uylarida mehmon bo‘ladi – ko‘pchiligi yosh yigit va qizlar, «sevgilisi»dan, Vera Pavlovnaning o‘zidan ham yosh mehmonlar, shular qatori ishxona

o‘qituvchilari ham keladi. Lopuxovni juda hurmat qilishadi, uni Peterburgdagi eng dono kishilardan biri deb bilishadi. Ular balki yanglishmas, ularning Lopuxov bilan aloqada bo‘lishining asli sababi ham shu: ular Dmitriy Sergeich bilan suhbatlarini o‘zlari uchun foydali deb biladilar. Vera Pavlovnaga ularning ixlosi juda baland, Vera Pavlovna hatto ularga qo‘lini ham o‘ptiradi, buni o‘zi uchun oriyat deb ham bilmaydi, ular bilan gaplashganda o‘zini ulardan o‘n besh yosh kattaday tutadi, ya’ni sho‘xlik qilmaganida o‘zini shunday tutadi, lekin to‘g‘risini aytganda, ko‘pincha ular bilan sho‘xlik qiladi, quvlashadi, jinnilik qiladi, ular bo‘lsa bundan xursand bo‘lib boshlari osmonga yetadi, bunday paytlarda yugurib-yelishlar, vals tushishlar, quvlashmachoqlar, o‘yin-kulgilar bo‘ladi, fortepyano chalishadi, maza-bemaza gap sotib, qahqaha otib kulishadi, ko‘proq qo‘shiq aytishadi; lekin yugurib-yelishlar, to‘polon qilishlar, xaxolab kulishlar va boshqa xil o‘yin-kulgilar Vera Pavlovnani izzat-hurmat qilib, ixlos qo‘yishlariga aslo, aslo zarari tegmaydi, ular Vera Pavlovnani shunchalik hurmat qilishadiki, qani endi odamlar o‘z opasini, oq sut berib boqqan onasini shunday hurmat qilsa. Aytgancha, ba’zan jinnilik qilmay iloji bo‘lmasa ham qo‘shiq aytish bu tentaklik emas; Vera Pavlovna ko‘pincha jiddiy tortib qo‘shiqni astoydil aytadi, ba’zan qo‘shiqsiz kuyning o‘zini chaladi, bunday kezlarda jim o‘tirib kuy tinglashadi. Ba’zi-ba’zida yoshi kattaroq – Lopuxov tengi mehmonlar ham keladi: bular ko‘pchiligi Lopuxovning ilgarigi o‘rtoqlarining tanishlari, ikki-uch yosh professorlar ham kelib turadi, bularning hammasi deyarli uylanmagan kishilar; oilali kishilardan faqat Mersalovlar keladi. Lopuxovlar o‘zlari unchalik ko‘p mehmonga borishmaydi, faqat Mersalovlarnikiga, onasinikiga, Mersalovning otasinikiga borishadi; bu mehribon, xushfe’l keksalarning har xil idoralarda tuzuk-tuzuk vazifalarda xizmat qiluvchi bir necha nafar o‘g‘illari bor, shu sababdan o‘ziga to‘q turadigan bu keksalarning oilalarida Vera Pavlovna xilma-xil katta-kichik vazifalardagi kishilarni uchratib turadi.

Ko‘ngildagidek erkin, jo‘shqin hayot kechirib, biroz kayf-safo qilishga, iliq, momiq o‘rinda huzur qilib erkalanib yotishga, qaymoqxo‘rlikka va qaymoq bilan pecheniy yeyishga nima yetsin – bular Vera Pavlovnaning jon-tani.

Dunyoda bundan ham yaxshi hayot bormi? Vera Pavlovnaning nazarida hali bundan yaxshisi yo'qday.

Yoshligingda bundan yaxshisiga yetishish qiyindir-ov, lekin yillar o'tib boradi, agar hayot o'tsa, keragicha o'tib borsa, hozir biroz insonlar hayoti tarzida borsa tobora durustlashadi. Payti kelib hammaning hayoti shunday yaxshi o'tadigan bo'ladi.

VI

Bir kun, – yoz faslining oxirlari edi, – qizlar odatdagiday yakshanba kuni shahardan tashqariga sayrga otlanishdi. Yoz kezlari ular deyarli har bayram kuni qayiqlarda orollarga sayr qilishar, o'ynab-kulishar edi. Vera Pavlovna odatda har gal ular bilan birga borardi, bu gal Dmitriy Sergeich ham ularga qo'shilib, sayrlari juda ajoyib o'tdi: u qizlarga kamdan kam hamroh bo'lardi, bu yoz uning ikkinchi marta birga bo'lishi. Buni eshitib ishxonadagilarning hammalari xursand bo'lishdi: Vera Pavlovna bu safar avvalgilardan ham yayrab-yozilarkan, sayrlari juda ko'ngilli o'tadigan ko'rinardi. Yakshanba kunini boshqacharoq o'tkazishni mo'ljalab qo'ygan boshqa odamlar ham bularga qo'shilishdi. To'rtta katta qayiq o'rniga beshta olishga to'g'ri keldi, u ham yetmay, yana bir qayiq olishdi. Ellikka yaqin, balki undan ko'proq odam to'plandi: yigirmatadan ko'proq chevar qiz yig'ildi, – faqat olti qiz sayrga chiqmadi, – uchta kampir, o'ntacha bola, ularning onalari, chevar qizlarning ukalari, qizlarning yigitlaridan uch kishi: biri soatsoz shogirdi, yana biri kichik do'kondor, bular ikkalasi xulqda uchinchisidan, uyezd maktabi o'qituvchisi bo'lmish kuyovdan qolishmasdi, bulardan boshqa yana besh-oltita har xil lavozimdagi yosh yigitlar, ikki ofitser, sakkiz nafarcha universitet va tibbiyot talabalari bor edi. O'zlari bilan to'rtta katta samovar, tugunlarda har xil non, birtalay yaxna go'sht va boshqa xil oziq-ovqat olishdi: hammalari yosh, navqiron yigit-qizlar, rosa yelib-yugurib, o'ynab-kulishdi, yana buning ustiga sof havo – ishtahalari yaxshi bo'lishi turgan gap; yarim dyujina vino ham olishdi: ellik kishiga ko'plik qilmaydi, sababi o'n beshdan ziyodrog'i yosh bolalar.

Sayrlari chindan ham yaxshi bo'ldi. Rosa o'ynab-kulishdi: o'n olti juft bo'lib raqs tushishdi, o'n ikki juft bo'lib ham tushishdi,

o'n sakkiz juft ham bo'lishdi, hatto bir kadrilga yigirma juft tushdi, salkam yigirma ikki juft bo'lib gorelki o'ynashdi, daraxtdan daraxtga arg'amchi tortib, uch joyga arg'imchoq solishdi: o'yin-kulgilar orasida choy ichishdi, ovqatlanishdi; yarim soatcha, yo'q, undan ozroq vaqt davomida ulfatlarning yarmiga yaqini hatto Dmitriy Sergeich bilan ikki talaba bahsiga quloq solib o'tirdi, bu talabalar Dmitriy Sergeichning eng kichik oshnalari ichidagi eng yaqinlari edi; har ikki tomon bir-biridan nekonsekventlik moderantizm, burjualik xususiyatlarini topishga harakat qildi, bir-birlarining illatini ochib tashlamoqchi bo'ldi; lekin, har birining o'ziga yarasha illati borligi ma'lum bo'ldi. Bir talabada romantizm, Dmitriy Sergeichda sxematistika, yana bir talabada rigorizm[1] aniqlandi; albatta, biron chet odamning bunday iplarga besh daqiqadan ko'proqqa chidash berishi mahol gap, hatto shu bahsda qatnashgan bir romantik, bir yarim soatdan oshiqqa chidolmasdan, raqs tushayotganlarning yoniga qochib qutuldi, lekin sharmandalarcha qochgani yo'q. U qandaydir moderantistdan, garchi men bunda bo'lmagan bo'lsam ham, hatto mendan ham juda nolib g'azablandi, g'azabiga sabab bo'lgan kishining yoshi anchaga borib qolganini bila turib, xitob qildi: «Uning nimasini gapiryapsiz? Tuppa-tuzuk bir odamning aqlli bir ayol oldida menga gapirgan bir gapini sizga aytaymi, u: «Inson faqat yigirma besh yoshgacha halol fikrlashi mumkin», deydi». – E, bu xonim kimligini bilaman, – dedi ofitser haligi romantikning boshiga balo bo'lib bahslashib o'tirganlarga yaqin kelib, – bu N xonim-ku; bu gapni mening oldimda aytgan, o'zi ham yaxshi ayol, lekin yarim soat ilgari, men yigirma oltiga kirdim, deb maqtanganini aytishib o'zini qo'lga tushirishdi, hammaga qo'shilib o'zi ham toza kuldi, esingdami? Shu so'zdan keyin to'rtovlon qahqah urib kulishdi, romantik xoxolaganicha qochib qoldi. Lekin bahsda ofitser uning o'rnini olib kulgi avjiga chiqdi, shu ko'yi to choy vaqtigacha kulgi bosilmadi. Ofitser ham rigorist bilan sxematistning illatini romantikdan qattiqroq ochib tashlasa ham o'z ogyust-kontizmi[2] undan besh battar oshkora bo'ldi. Choydan keyin ofitser men hali

---

[1] Bu o'rinda biron qoidaga amal qilishda juda qat'iylik ko'rsatish ma'nosida.

[2] Fransuz idealist-faylasufi Ogyust Kontning nomidan (1798–1857).

to‘g‘ri fikrlovchilar yoshida bo‘lganim uchun, shu yoshdagi boshqa kishilarga jon deb qo‘shilaman, dedi, o‘sha payt beixtiyor rigoristga aylangan Dmitriy Sergeich ham shunday qildi: raqs tushishmadi-yu, lekin gorelki o‘yiniga qo‘shilishdi. Erkaklar yugurib borib, zovurlardan sakramoqchi bo‘lganda, kurash tushganda bu uch mutafakkir kim o‘zish o‘yinida hammadan serg‘ayrat kurashchi ekanligi ma’lum bo‘ldi: zovurdan sakrashda ofitser birinchilikni oldi; baquvvat Dmitriy Sergeich ofitserdan yengilgandan keyin qattiq qizishib, bu sohada rigoristdan keyin birinchi o‘rinni egallayman, deb umid qilgan edi, rigorist ofitser bilan Dmitriy Sergeichning ikkalasini baravariga yerga ko‘tarib urdi, bu na Dmitriy Sergeichning va na ofitserning izzat-nafsiga tegdi: rigorist nomi chiqqan polvon edi, lekin Dmitriy Sergeich ofitserni yenga olmaydi, degan isnodga qolgisi yo‘g‘iydi. Dmitriy Sergeich ofitser bilan besh gal bel ushlashdi, besh gal ham ofitser, garchi osonlik bilan bo‘lmasa ham, uning yelkasini yerga tegizdi. Oltinchi gal bel ushlashgandan keyin Dmitriy Sergeich kuchsiz ekanini tan oldi: ikkovlari ham juda holdan ketishdi. Uch mutafakkir maysaga yonboshlab, bahsni davom ettirdi; bu gal Dmitriy Sergeich ogyust-kontist bo‘ldi, ofitser sxematist bo‘ldi, rigorist bo‘lsa rigoristligicha qoldi.

Soat 11 da uylariga qaytishdi. Kampirlar bilan bolalar qayiqdayoq uxlab qolishdi; xayriyat, ancha issiq kiyim olib chiqishgan ekan, lekin qolganlarining og‘zi gapdan tinmadi, olti qayiqning hammasida hech kim qiziqchilik va kulgidan bo‘shamadi.

VII

Ikki kundan keyin, ertalab choy ichib o‘tirganlarida Vera Pavlovna eriga, ranging qochib qolganga o‘xshaydimi, dedi. Eri, o‘zim ham shu kecha uncha tuzuk uxlolganim yo‘q, kecha kechqurun ham mazam qochib turgandi, hechqisi yo‘q, sayrda biroz shamollagan bo‘lsam kerak, kim o‘zish o‘ynab, kurash tushganimizdan keyin yerda uzoq yotganimda zax o‘tgandir, dedi; beparvoligi uchun o‘zini koyidi, lekin hech gapmas, o‘tib ketadi, deb Vera Pavlovnani ishontirdi. Shundan keyin o‘zining kundalik ishlari bilan bo‘lib ketdi; kechqurun choy ichib o‘tirganlarida, tuzalib qoldim, shekilli, dedi-yu, lekin ertalab, men biroz uyda o‘tirsam

bo‘lardi, dedi. Kecha kechqurunoq qattiq tashvishlangan Vera Pavlovna endi juda qo‘rqib ketdi, shifokor chaqirtir, deb Dmitriy Sergeichni qistadi. Dmitriy Sergeich unamadi: «O‘zim shifokorman-ku, kerak bo‘lsa o‘zim davosini bilaman, – hozircha shifokorning keragi yo‘q», – deb qo‘ya qoldi. Lekin Vera Pavlovna unamay, qattiq turib oldi, shu bilan Kirsanovga xat yozib kasalim yo‘q-ku, lekin xotinimning ko‘ngli uchun kelib ketsang, deb iltimos qildi.

Shu sababdan Kirsanov shoshmasdan, to tushlik vaqtigacha gospitalda bo‘lib, Lopuxovlarnikiga kechqurun soat beshlardan keyin keldi.

– Yo‘q, Aleksandr, seni chaqirib yaxshi qildim, – dedi Lopuxov, – xavfli joyi yo‘q, bo‘lmasa ham kerak: ammo zotiljam bo‘lganim aniq. Albatta, sensiz ham o‘zimni o‘zim davolashim mumkin, har holda kelib tur, busiz mumkin emas, vijdon azobiga qolmaslik uchun kerak ekan: axir, senga o‘xshagan so‘qqabosh emasman-ku.

Ular shoshilmay bittalarining biqinini ushlab ko‘rishdi. Kirsanov do‘stining ko‘kragiga quloq solib, ikkovlari Lopuxov yanglishmagan ekan, degan xulosaga kelishdi; xavfli joyi yo‘q va bo‘lmasa ham kerak, lekin zotiljam bo‘lganda ham og‘ir xili ekan. Bir yarim haftagacha yotishi lozim bo‘ladi. Lopuxov kasalini biroz o‘tkazib yubordi. Lekin, har holda, qo‘rqadigan yeri yo‘q.

Kirsanov Vera Pavlovna bilan ancha gaplashib, uni tinchitishga harakat qildi. Oxiri Vera Pavlovna uni aldashmayotganiga tushundi, kasal xavfli emasligi u yoqda tursin, og‘ir ham bo‘lmasa kerak, deb ko‘ngli joyiga tushdi: «Bo‘lmasa kerak», – deyishyapti, har qanday «bo‘lmasa kerak»ning yana boshqacha oqibatlari bo‘lishi mumkin emas, deysizmi?

Kirsanov bemorni ko‘rgani har kuni ikki marta kelib turdi, ikkovi ham kasalning yengil, bexatarligiga ishonardi. To‘rtinchi kuni ertalab Kirsanov Vera Pavlovnaga tushuntirdi.

– Dmitriyning ahvoli yomon emas, durust: yana uch-to‘rt kun og‘irroq bo‘ladi, ammo kechagidan og‘ir bo‘lmaydi, keyin tuzala boshlaydi. Lekin, Vera Pavlovna, siz haqingizda jiddiy gaplashib olmoqchiman. Siz yaxshi qilmayapsiz: kechalari uxlamaslikning nima hojati bor? Uning yonida o‘tirib chiqishning hech bir keragi yo‘q, mening ham keragim yo‘q. Siz o‘zingizga zarar yetkazishingiz

mumkin, biron zarurati bo'lsa ham mayli edi. Asablaringiz shunday ham ancha qaqshab qolgan.

Kirsanov Vera Pavlovnaga ancha nasihat qildi, lekin foydasi bo'lmadi. «Hech», «hecham», «o'zim jon derdim-ku, lekin ilojim yo'q, ya'ni kechalari jon deb uxlab, erimni yolg'iz qoldirardim-ku», deyaverdi. Nihoyat, u: «Siz gapirgan bu gaplarni erim allaqachon gapirib bo'lgan, ko'p marta gapirgan, bundan xabarim bor. Albatta, sizdan ko'ra uning gapiga quloq solishim osonroq edi, quloq solmabman, demak, ilojim yo'q ekan», dedi.

Bunday bahonaga qarshi biron narsa deb bo'lmasdi. Kirsanov bosh chayqab chiqib ketdi.

Kirsanov soat to'qqizdan keyin kelib, Vera Pavlovna bilan birga Lopuxovning yonida yarim soatcha o'tirgach: Vera Pavlovna, endi siz borib damingizni oling. Ikkimizning sizdan iltimosimiz shu. Men shu yerda yotaman», dedi.

Vera Pavlovna xijolat bo'ldi: tunda bemor yonida o'tirib chiqishning keragi yo'qligini o'zi ham ancha yaxshi, juda yaxshi bilardi, shunga qaramasdan, mana endi Kirsanovni shuncha ishini tashlab bu yerda bekor vaqt o'tkazishga majbur qilyapman, deb o'zidan o'zi koyindi. Haqiqatan ham, o'zi nima gap? Rostdan ham kerakmasga o'xshaydi!.. «O'xshaydi», kim bilsin? Yo'q, «sevgilim»ni yolg'iz qoldirish mumkinmas, yana biron falokat bo'lmasin. Suv ichgisi kelishi mumkin, choy ichgisi kelsa-chi, o'zi tortinchoq, uyg'otmaydi, demak, yonida o'tirmasa bo'larkanmi! Ammo Kirsanovning o'tirishiga hojat yo'q, bu ishiga ko'nmayman. Xonadan chiqmayman, uncha charchaganim yo'q, kunduzi ancha dam olganman, dedi.

– Unday bo'lsa, kechirasiz, iltimos, qat'iyan iltimos qilaman, chiqib ketsangiz.

Kirsanov uning qo'lidan ushlab, majbur etgandek xonasiga eltib qo'ydi.

– Aleksandr, sendan juda xijolat bo'lyapman, – dedi bemor. – Juda ham qiziq ahvolga solib qo'yding meni, hech qanday zarurati bo'lmagan holda, tuni bilan bemor yonida o'tirib chiqishingni aytaman. Lekin sendan juda minnatdorman. Agar u meni yolg'iz qoldirishdan qo'rqsa, menga qarovchi biron ayol yolla, deb ham ko'ndirolmayman, – hech kimga ishongisi yo'q.

– Agar seni boshqa biron kishiga topshirib, ko‘ngli tinchimasligiga ko‘zim yetmaganda, huzur-halovatimdan kecharmidim. Endi uxlasa kerak, deb o‘ylayman: axir, men shifokorman, qolaversa, do‘stingman.

Aytgandek, Vera Pavlovna karavotiga borib yotgan hamono ko‘zi uyquga ketdi. Ketma-ket uch kecha uxlamaslikning uncha ahamiyati yo‘q. Tashvishlanish ham o‘zicha hech gap emas. Lekin kechalari uxlamasdan, yana buning ustiga tashvishlanish, kunduzlari ham dam olmaslik xavfli edi, Vera Pavlovna yana ikki-uch kun uyqudan qolsa eridan ham zo‘rroq kasalga chalinardi.

Kirsanov yana uch tunni bemor yonida o‘tkazdi; ortiqcha toliqqani ham yo‘q, sababi, u bemalol uxladi, lekin Vera Pavlovna bunday beparvolikni ko‘rib qolmasin, deb ehtiyot-shart eshikni qulflab yotdi. Vera Pavlovna uning navbatchilikda uxlayotganini bilsa ham ko‘ngli tinch edi: u shifokor bo‘lsa, nimadan qo‘rqadi? Qachon uxlashi mumkin, qachon mumkin emasligini o‘zi biladi. Uni bezovta qilmasdan ilgariroq aytganiga ko‘nib, tinchib qo‘ya qolmagani uchun o‘zi uyalardi, hozir bo‘lsa, siz bo‘lmasangiz ham uxlayman, degan gaplariga Kirsanov sira e’tibor bermadi: «Vera Pavlovna, siz aybdorsiz, aybingiz uchun jazo tortishingiz lozim. Sizga ishonmayman».

To‘rt kundan keyin bemor butunlay sog‘ayib, kasaldan qutulganligiga Vera Pavlovna aniq ishondi. Sira ikkilanadigan joyi qolmadi: shu oqshom uchovlari qarta o‘ynashdi, Lopuxov yonboshlab olgan, ovozi ham jaranglab turardi. Kirsanov kechalari endi uxlamay navbatchilik qilishini bas qilsa ham bo‘ladi, shunday deb aytdi ham.

– Aleksandr Matveich, nega siz meni, ha, meni butunlay yodingizdan chiqarib yubordingiz? Siz Dmitriy bilan, har holda, tuzuksiz, siznikiga tez-tez borib turadi; siz bo‘lsangiz u betob bo‘lmasdan oldin, yanglishmasam, yarim yilcha biznikiga kelmadingiz; qachonlardan buyon shunday. Esingizdami, avvallari juda inoq edik.

– Vera Pavlovna, odamlar o‘zgaradi. Undan tashqari, maqtanchoqlik bo‘lsa ham aytay, men juda ko‘p ishlayman. Hech kimnikiga bormayman, desam bo‘ladi; vaqtim yo‘q, dangasaligim tutadi. Gospital bilan Akademiyada soat to‘qqizdan beshgacha

odam shu qadar charchaydiki, mundirni yechib xalat kiyib olishdan boshqasi yoqmay qoladi. Do‘stlik yaxshi narsa, lekin achchig‘ingiz kelmasin-u, divanda xalat kiyib, sigara chekib yotishga nima yetsin.

Haqiqatan ham Kirsanov ikki yildan ko‘proq vaqtdan buyon Lopuxovlarnikiga kelmagan edi, desa bo‘ladi. Odatda Lopuxovlarning uyiga keladigan mehmonlar orasida Kirsanovning nomiga kitobxonning ko‘zi tushmasdi, ularnikida kamdan kam bo‘ladigan mehmonlar orasida ham juda kamdan kam ko‘rinardi.

VIII

Farosatli kitobxon, – men faqat erkak kitobxon bilan gaplashaman: asl kitobxon o‘ta aqlli bo‘lganidan, idrokli ekanini pesh qilaverib jig‘imga tegadi, shuning uchun men u bilan muomala qilib o‘tirmasdan, bir yo‘la gapirib qo‘ya qolaman: erkak kitobxonlar o‘rtasida ham ancha-muncha esli odamlar bor: men bundaylar bilan ham kelishib o‘tirmayman; lekin kitobxonlarning ko‘pchiligi, shu jumladan hamma adabiyotchilar va adabiyotshunoslar ham farosatli kishilar, men bundaylar bilan doimo jon deb suhbatlashaman, xullas, farosatli kitobxon bunday deydi: voqeaning qayoqqa qarab borayotganini bilaman; Vera Pavlovnaning hayotida yangi roman boshlanadi; unda Kirsanov rol o‘ynaydi; undan ham ko‘prog‘ini fahmlaganman: Kirsanov Vera Pavlovnani allaqachonlaroq sevib qolgan, shu sababdan u Lopuxovlarnikiga kelmay qo‘ydi. Farosatli kitobxon, aqling juda o‘tkir-da: biron narsa aytishing bilan darrov: «Men buni sezdim», deb turasan, o‘z fahm-u idrokingga o‘zing qoyil qolasan. Farosatli kitobxon, senga hurmatim zo‘r.

Xullas, Vera Pavlovnaning tarixida yangi bir shaxs paydo bo‘ldi, binobarin, hali uning ta’rifi berilmagan bo‘lsa, ta’riflab berish lozim. Men Lopuxov to‘g‘risida hikoya qilganimda, uni jonajon oshnasidan alohida ajratib ko‘rsatishda qiynalgan edim, shu sababdan u haqda, Kirsanov to‘g‘risida ham takrorlash lozim bo‘lgan narsalardan boshqa deyarli biron gap aytganim yo‘q. Haqiqatan ham, Kirsanovning o‘ziga xos belgilari haqidagi gaplardan (farosatli) kitobxonning bilib olishi mumkin bo‘lgan narsalarning hammasi Lopuxovdagi belgilarning takrori bo‘ladi. Lopuxov o‘z tabaqasiga

ko‘ra o‘ziga to‘q, ya’ni tez-tez go‘shtli karam sho‘rva ichib turadigan meshchanning o‘g‘li; Kirsanov uyezd sudi mirzasining, ya’ni ko‘pincha go‘shtsiz karam sho‘rva ichib turadigan, demak, aksincha, ko‘pincha go‘shtli sho‘rva ham ichadigan bir kishining o‘g‘li. Lopuxov juda yoshlik chog‘idan, bolalik vaqtidan pul topib o‘zi tirikchilik qilib kelganlardan; Kirsanov o‘n ikki yoshidan otasining xat ko‘chirishlariga yordamlashib kelgan, gimnaziyaning IV sinfidan u ham dars bera boshlagan. Ikkovi ham tanish-bilishsiz, oshna-og‘aynisiz o‘z yo‘llarini o‘zlari topib yurganlardan. Lopuxov qanday odam edi? Gimnaziyada fransuz tilini o‘rganishmasdi, nemischani bo‘lsa «der», «die», «das»ni ba’zi bir xatolar bilan turlashni o‘rganishardi; Lopuxov bo‘lsa Akademiyaga kirganidan keyin ko‘p o‘tmay faqat rus tili bilan fan sohasida uncha uzoqqa borolmasligiga ko‘zi yetdi: u fransuzcha lug‘at va boshqa to‘g‘ri kelgan fransuzcha kitoblarni qo‘liga oldi; to‘g‘ri kelgan kitoblar «Telemak»[1], Janlis xonim qissalari va o‘zimizning badiiy pishiq-puxta «Revue Etrangere»[2] nomli jurnalimizning bir necha livrezonlaridan iborat edi; bular uncha qiziq kitoblar emasdi, shularni qo‘liga oldi; Kirsanovning o‘zi, albatta, kitob o‘qishga juda o‘ch edi, shu vajdan o‘ziga o‘zi: fransuzchani bemalol o‘qiydigan bo‘lmaguncha qo‘limga bironta ruscha kitob olmayman, dedi; bemalol o‘qiydigan bo‘lib oldi ham. Nemis tilini o‘rganishda boshqacharoq yo‘l tutdi: ko‘proq ishchi nemislar yashaydigan xonadonda bir burchakni ijaraga oldi; ijaraga olgan joyi bir holatda, nemislar kishini xunob qiladigan odamlar. Akademiya esa bu yerdan uzoq; shunday bo‘lsa ham qancha lozim bo‘lsa, shuncha chidadi. Kirsanov boshqacha yo‘l tutdi: Lopuxov fransuz tilini o‘rgangani singari u ham nemis tilini har xil kitoblardagi lug‘atlardan o‘rgandi, fransuz tili bo‘lsa boshqacha – lug‘atsiz, bir kitobni o‘qib o‘rgandi: bu mashhur Injil edi; Jenevada tarjima bo‘lgan Injilni topib olib, sakkiz marta o‘qib chiqdi; to‘qqizinchi marta o‘qiganida hammasiga tushundi – demak, maqsadiga yetdi. Lopuxov qanday odam edi? Mana bunday: Kamennoostrov ko‘chasida yirtiq mundirda kelayotgan edi (darsga Litseyning naryog‘iga, uch chaqirim joyga

---

[1] Fransuz yozuvchisi Fenelonning «Telemak sarguzashtlari» degan romani (1699).

[2] «Chet el obzori».

qatnab, har bir darsiga ellik tiyin olardi). Ro'parasidan basavlat bir kishi chiqib qoldi, u odam sayri havo qilib yurgan ekan, savlati shu darajadaki, yo'l bermasdan tik bostirib kelaverdi: u vaqtlarda Lopuxov ayollardan boshqa hech kimga yo'l bermaslikka ahd qilib qo'ygandi; bir-biroviga yelkalari tegib ketdi. Haligi odam yarim qayrilib qarab: «Qanday hayvonsan, cho'chqa!» – dedi, yana pand-nasihat ham qilmoqchi bo'ldi, shunda Lopuxov shartta o'girildi-da, u kishini dast ko'tarib ariqqa bosdi, tepasida turib: «Qimirlama, bo'lmasa yana ham nariroqqa, balchiqqa olib borib tiqaman», dedi. Buni ko'rgan ikki yo'lovchiga bu ishi ma'qul bo'ldi, bir chinovnik ma'qullamadi-yu, lekin iljayib qo'ydi; izvosh va aravalarda odamlar o'tib turdi, hech kim qayrilib qaramadi, chunki ariqda yotgan odam ko'rinmasdi; Lopuxov yana biroz shu ko'yi qarab turdi-da, haligi odamni qayta ko'tarib olish o'rniga qo'lidan tortib turg'izdi, ko'chaga olib chiqib: «E, muhtaram janob, nima qilib ariqqa yiqilib tushdilar? Biron-bir shikast yetmadimi ishqilib? Ruxsat bersalar, u yoq-bu yoqlarini tozalab qo'ysam», dedi. Yo'lovchidan biri kelib tozalashdi, ikki meshchan o'tib ketayotgan edi, ular ham kelib oliftaning egnini tozalashga yordamlashib, so'ng yo'llariga ravona bo'lishdi. Kirsanov bunday voqeaga duch kelgan emas, lekin boshqacha bir voqeaga uchragan. Falonchi-falonchilar yugurdaklik qilgan falonchi xonim yigirma yil ilgari qazo topgan volterchi erining kutubxonasiga katalog tuzdirishni niyat qilgan. Nima sababdan yigirma yildan keyin katalog kerak bo'lgani noma'lum. Katalog tuzib berish Kirsanovning zimmasiga tushdi, u sakson so'mga baylashib oldi; katalog ustida bir yarim oy ishladi. Bir vaqt haligi xonim, katalog tuzish kerak emas, degan qarorga keldi-yu, kutubxonaga kirib: «Bekorga ovora bo'lmang, fikrimdan qaytdim, mana, qilgan mehnatingiz haqi», deb Kirsanovning qo'liga o'n so'm pul tutqazdi. «Xonim... – u xonimning unvonini tilga olib gapirdi, – ishning yarmidan ko'prog'ini bitirdim: o'n yetti shkafdan o'rtasidan kitoblarni yozib chiqdim», dedi. «Puldan meni ranjitdi, deb o'ylayapsizmi? Nikolas, bu yoqqa kelib, mana bu janob bilan bir gaplashib qo'y», dedi. Nikolas yugurib kelib mamanga qo'pollik qilishga nima haqing bor?» – dedi. «Hoy, tirrancha, – Kirsanovning bunday deb aytishga asosi yo'q edi: Nikolas undan besh yosh chamasi katta edi, – avval

gapga quloq solsang-chi». – «Hoy, kim bor?» – deb qichqirdi Nikolas. – «Hali odam chaqirmoqchiman, degin? Odam chaqirish mana bunaqa bo'ladi». Bir zumda xonim chiyillab, hushdan ketib yiqildi, Nikolas qo'llarini ham qimirlatolmay qoldi, qo'llari ikki biqiniga temir kamar bilan bog'langandek sirib qo'yilgan edi. Kirsanov o'ng qo'li bilan sirib, chap qo'li bilan hurpaygan sochidan tortib turgan edi, keyin bo'g'zidan oldi, ko'ryapsanmi, «bo'g'ib o'ldirish menga hech gap emas», deb qattiq bo'g'gan edi, bo'g'ib o'ldirish ham hech gapmasligini Nikolas sezdi. Kirsanov, biroz nafasini rostlab olsin, deb qo'lini bo'shatsa ham hiqildog'idan tutib turaverdi. Eshik tagida Goliaf taxlit zabardast kishilar paydo bo'ldi, Kirsanov ularga qarab: «Qimirlamalaring! Bo'lmasa buni bo'g'ib o'ldiraman. Qaytlaring, yo'qsa bo'g'ib o'ldiraman!» – dedi. Nikolas buni tezda fahmlab bo'ldi, ta'zirimni yedim, deganday burni bilan ishora qildi. «Og'ayni, endi meni zinagacha kuzatib qo'yasan», dedi Kirsanov yana Nikolasga murojaat qilib, Nikolasni quchog'idan chiqarmay, shu alfozda dahlizga chiqib, zinadan pastga tushdi, uzoqdan haligi goliaflar xushomadomuz qarab turishibdi, oxirgi zinaga yetganida Nikolasning hiqildog'ini bo'shatib, turtib yubordi, shu bilan u Nikolas qo'lida o'ljaga qolgan furajka o'rniga yangisini sotib olish uchun do'konga qarab jo'nadi.

Xo'sh, bunday odamlarning bir-biridan nima farqi bor deysiz? Ularning ko'zga yaqqol tashlanadigan xususiyatlari – shaxslar xususiyati emas, balki tip xususiyatidir, farosatli kitobxon, sen ko'raverib ko'zing pishgan tipdan bular shu qadar farq qiladiki, natijada ularning shaxsiy tafovutini umumiy xususiyati bosib ketadi. Bunday kishilar boshqalar orasida xuddi xitoylar o'rtasida bir necha yevropalik yurganday, xitoylar bir-biridan ajrata olmaydigan yevropaliklar yurganday: qaysi ko'z bilan qarama, baribir, ular «hech narsadan tonmaydigan qizilsoch varvar» bo'lib ko'rinaveradi; ular nazarida, hatto fransuzlar ham, xuddi inglizlar singari, «qizil sochlar». Xitoylarning shunday deb qarashi ham to'g'ri: ular bilan munosabat masalasida birgina yevropalik nima-yu, barcha yevropaliklar nima, baribir, ular shaxslar emas, balki bir tip namoyandasi, vassalom; hammasi ham bir xilda, na suvarak yeydi va na qurt-qumursqa, hammasi bir xilda, odam chavaqlamaydi, hammasi bir xilda bo'za ichmay, araq va musallas ichadi, hatto

xitoylarning jon-tani bo‘lgan choyxo‘rlikni ham hammalari xitoylardek emas, boshqacha qilishadi; qandsiz emas, qand bilan ichishadi. Lopuxov bilan Kirsanov tipidan bo‘lgan kishilar ham bunday tipdan bo‘lak kishilarga bir xilday ko‘rinadi. Bular ishning ko‘zini biladigan, ikkilanishni, chekinishni bilmaydigan, bir ishga kirishsa, uni oxiriga yetkazadigan bahodir, zabardast kishilar – bu ular xususiyatining bir tomoni; ikkinchi tomoni – ularning har biri halol, pok odam, shunday odamki, xayoliga hatto «Bu odamga har jihatdan bemalol ishonsa bo‘larmikin?» – degan savol ham kelmaydi. Uning ko‘kragi bilan nafas olishi qanchalik rost bo‘lsa, bu ham shunday aniq; bu ko‘krak hali nafas olarkan, unda otash bor, u bevafolikni bilmaydi, qo‘rqmay, unga dadil bosh qo‘yavering, unga bosh qo‘yib orom olsa bo‘ladi. Bu umumiy xususiyatlari shu qadar aniq farqlashib turadi, bular, hatto, boshqa hamma shaxsiy xususiyatlarini bosib ketadi.

Bizda bu tip yaqinda paydo bo‘ldi. Ilgari bu tipdan darak berib turgan faqat ayrim kishilar bor edi: ular istisno tariqasida uchrardi, istisno tariqasida o‘zlarini yolg‘iz, kuchsiz his qilardilar, shu sababdan qo‘llari ishga bormasdi, u umidsizlanib yurardi, yoki bo‘lmasa haddan ziyod xursand bo‘lib, romantiklik, xayolparastlik qilardi, ya’ni bu tipga xos bo‘lgan asosiy xislatlarga ega emas edi. Ular o‘zlarini qo‘lga olib g‘ayrat, fahm-farosat, izchillik bilan ish qilishni bilmasdilar. Ular tabiatan haligiday kishilar bo‘lsa ham, lekin hali bu tip darajasiga yetib kamol topgan kishilar emasdi, bu tip yaqinda paydo bo‘ldi; men unchalik keksa, hatto butunlay keksa bo‘lmasam ham, u yillari hali bunday tip yo‘q edi. O‘zim ham shunday tip darajasiga yetolganim yo‘q, men yashagan davr unday davr emasdi; shu sababdan men o‘zim ham undaylardan emasman, men vijdonimni azobga qo‘ymay, bu tipga izzat-hurmat izhor qilishim mumkin; men bu kishilarni ajoyib kishilar deb sharaflaganimda o‘zimni nazarda tutmayotganimga afsuslanaman.

Bu tip yaqinda paydo bo‘lib, juda tez ko‘paymoqda. Bu zamon farzandidir, u zamon hodisasidir (shunday desam bo‘larmikin?), u o‘z zamonasi bilan birga, ko‘pga bormaydigan zamonasi bilan birga yo‘q bo‘lib ketadi. Bu tip oz yashaydi, u qisqa hayotga mahkum etilgan. Bundan olti yil burun bunday kishilarni ko‘rgan emasdilar; uch yil burun nafrat bilan qarashardi; hozir... ular to‘g‘risida nima

deb o'ylasalar o'ylay bersinlar; bir necha yil o'tgandan keyin, yaqin yillar ichida «bizni qutqaring!» deb yolvorishadi va ularning aytganini hamma bajo keltiradi; yana bir necha yildan so'ng, ehtimol, yil emas, bir necha oydan so'ng ularni la'natlab, jirtak chalib, sharmanda-yu sharmisor qilib sahnadan haydashadi. Xo'sh, nima bo'pti, jirtak chalsangiz chalavering, sharmanda qilavering, haydang, la'natlang, lekin sizga ularning foydasi tegdi, ularga shu kifoya, siz jirtak chalsangiz ham, la'nat yog'dirsangiz ham ular boshini baland ko'tarib kamtarlik bilan o'sha-o'sha shafqatsizlik va mehribonliklarini qo'ymay, sahnadan mag'rur tushib keta beradilar. Ular sahnada qolishmaydimi? Yo'q. Ularsiz holimiz nima kechadi? Holimiz voy bo'ladi. Lekin ulardan keyin, har holda, ulardan oldingi vaqtdagidan yaxshiroq bo'ladi. Yillar o'tadi, bir kun kelib odamlar: «Ulardan keyin yaxshi kunlar keladi; lekin, har holda, yomonlik yo'qolmaydi», deydi. Odamlar shunday desa, buning ma'nisi bu tipning yangidan dunyoga kelish vaqti yetdi, degani, ana o'shanda bu tip yana ham yaxshiroq tus olib, yana ham ko'proq dunyoga keladi, chunki u vaqtda hamma yaxshi narsalar ko'proq va hamma yaxshi narsalar yaxshiroq bo'ladi; yana o'sha voqea yangicha takrorlanadi. Odamlar: «Ha, endi ahvolimiz durust, yaxshi», deb aytguncha shu zaylda davom qiladi, ana o'shanda bu alohida tip qolmaydi, chunki hamma shu tipda shodonlar bo'ladi, shu tip hamma kishilarga xos umumiy bir xislat hisoblanmasdan, qanday qilib alohida tip deb hisoblanib kelganini ham arang tushunib oladilar.

IX

Lekin xitoylar orasidagi xitoylarga nisbatan hamma yevropaliklarning aft-basharasi bir xil, xulq-atvori birday ko'rinsa ham aslida yevropaliklarning bir-biridan farqi xitoyliklarning farqidan juda katta va xilma-xildir, shuningdek, bu bir xilday bo'lib ko'rinadigan tipda ham shaxslarning xilma-xilligi farq jihatidan undan ham ko'proq rivojlanib, bir-biridan farqi boshqa hamma tiplarning bir-biri o'rtasidagi farqdan ham ko'proq bo'lsa kerak. Bunda turli xil kishilar bor: ishratparastlar ham, tarkidunyo qilganlar ham, bag'ritoshlar ham, yumshoqko'ngillar ham bor; har xil, har turli kishilar bor. Lekin eng shafqatsiz yevropalik xitoyning ko'ziga juda

muloyim, eng qo'rqog'i juda dovyurak, eng shahvatparasti juda boodob ko'ringani singari, ular ham, tarkidunyo qilishlikda juda o'taketganlari ham ular tipidan bo'lmaganlarning o'ylaganidan ko'ra odamga ko'proq huzur-halovat kerak, deb hisoblaydi, hissiyotga juda berilganlari ham odob masalasida ular tipidan bo'lmagan axloqparastlardan ko'ra qat'iyroqdir. Lekin bularning hammasini ular o'zlaricha, allanechuk tasavvur qiladilar; ham axloq, ham huzur-halovat, ham hissiyotga berilish, ham ezgulikni ular o'zlaricha tushunadilar, hammalari bir xilda tushunadilar, hammalari faqat bir xilda tushunishlari bilan birga, hammasini allanechuk bir xilda tushunadilar, shundayki, axloq ham, huzur-halovat ham, yaxshilik ham, hissiyot ham – hamma-hammasini ular xuddi bir narsa deb bilganday. Lekin bular hammasi yana faqat xitoylar tushunchasiga nisbatan shunday, lekin tabiatlari har xil bo'lgani sababli bularni tushunishda bir-birlaridan juda farq qiladilar. Endi ularning tabiati va tushunchalari o'rtasidagi farqni qanday bilsa bo'ladi?

Yevropacha tabiatli kishilar ish to'g'risida xitoylar bilan emas, bir-biri bilan, faqat bir-birlari bilan gaplashganlarida farqlarini oshkor qilib turadilar. Shuningdek, bu xildagi odamlar ham begonalar bilan emas, bir-birlari bilan, faqat bir-birlari bilan ish olib borganda ularning ishlari ham xilma-xilligi ko'rinib turadi. Biz shunday xildagi odamlardan ikkitasi bilan: Vera Pavlovna va Lopuxov bilan tanishdik. Ular o'rtasidagi munosabat qanday o'rnatilganini ko'rdik. Endi uchinchi kishi maydonga chiqyapti! Qani ko'raylik-chi, bulardan biriga boshqa ikkisini taqqoslab ko'rish imkoni tug'ilganida qanday farqlar ma'lum bo'larkin. Hozir Vera Pavlovna o'z qarshisida Lopuxov bilan Kirsanovni ko'rib turibdi. Ilgari ulardan birini tanlab olishning iloji yo'q edi; endi iloji bor.

X

Lekin Kirsanovning tashqi ko'rinishi to'g'risida ham ikki-uch og'iz gapirib o'tish kerak.

Lopuxov singari Kirsanov ham yuz-ko'zlari chiroyli, kelishgan yigit. Ba'zi birovlar unisini chiroyliroq desa, boshqalari buni kelishgan, deydi. Lopuxovning o'zi qorachadan kelgan, sochlari qo'ng'ir, qo'yko'z bo'lsa ham ular qora ko'zlardek yonib turadi,

qirg'iyburun, lablari qalin, yuzi cho'zinchoqroq. Kirsanov mallasoch, qo'yko'z, yunon nusxa, burni alifday, og'zi kichik, yuzi cho'zinchoq, oppoq. Ikkalasi ham ancha baland bo'yli, qaddi-qomati kelishgan. Lopuxovning suyagi buzuqroq bo'lsa, Kirsanovning bo'yi biroz baland.

Kirsanovning sharoiti ancha tuzuk. U kafedraga boshliq bo'lib olgan. Saylovda ko'pchilik unga qarshi chiqdi: uni kafedra boshlig'i vazifasiga ko'tarish u yoqda tursin, hatto doktorlik lavozimini ham bermasdilar-u, lekin ilojlari yo'q edi. Ikki-uch yosh yigit, uning ilgarigi professorlaridan yoshi anchaga borgan yana bir kishi, ularning oshna-og'aynilari allaqachondan buyon hammaga, dunyoda Firxov degan bir odam bor, o'zi Berlinda turadi, yana qandaydir Klod Bernar[1] degan odam ham bor, o'zi Parijda turadi, yana shunga o'xshagan allakimlar bor, hammasini esda saqlab ham bo'lmaydi, bular ham turli shaharlarda istiqomat qilishadi, shu Firxovlar, Klod Bernarlar va yana allakimlar tibbiyot mash'allari hisoblanadi, deb yurishar edi. Bular hammasi o'taketgan behuda gaplar edi, chunki fan mash'allarini o'zimiz bilamiz: Burgave[2], Gufeland[3], Garvey ham buyuk odam, u qon aylanishini ochgan, Jenner ham shunday, chechakka qarshi emlashni o'rgangan; bularni o'zimiz bilamiz, lekin ana u Firxovlar, Klod Bernarlarni bilmayin, ular qayoqdan mash'al bo'lib olishibdi? Bo'lsa bordir, kim biladi deysiz? Kirsanov kursni tamomlayotganida mana shu Klod Bernar Kirsanovning ishlari to'g'risida juda yaxshi fikr aytgan edi.

Xullas, boshqa ilojlari bo'lmadi; Kirsanovga doktorlik unvonini berishdi, bir yarim yillardan keyin kafedraga boshliq qilishdi. Talabalar: Kirsanov qo'shilgandan keyin yaxshi professorlar guruhi ancha kuchaydi, deb gapirib yurdi. Kirsanov amaliyot qilmadi, o'ziga ham amaliy tibbiyotni tashladim, deb yurardi; lekin gospitalda ancha-muncha vaqt bo'lardi: tushlikni gospitalda yegan kunlari ham bo'lardi, ba'zan yotib ham qolardi. Gospitalda nima ish qilar ekan? Bemorlar uchun emas, fan uchun ishlayapman, deb

---

[1] Firxov (Virxov, 1821 – 1902) – nemis patologoanatomi, Klod Bernar (1913 – 1876) – fransuz fiziologi.

[2] Burgave (1668 – 1738) – niderland shifokori va kimyogari.

[3] Gufeland (1762 – 1836) – kishining umrini cho'zish muammosi ustida ishlagan nemis shifokori.

yurardi. «Kasal boqmayman, ularni o‘rganib, tajriba qilib yuraman», derdi. Talabalar uning bu gaplarini tasdiqlab, hozir faqat ahmoqlar davolaydi, chunki hozir davolash mumkin emas, deb qo‘shib qo‘yishardi. Gospital xizmatchilari esa boshqacha fikrda edi. «Kirsanov buni o‘z palatasiga olyapti – og‘ir kasal bo‘lsa kerak», deyishardi ular bir-birlariga, so‘ngra bemorga: «Ko‘ngling to‘q bo‘lsin, bu doktorning davosidan qochib qutuladigan dard kamdan kam topiladi, ustasi shu, piri ham shu», deyishardi.

XI

Vera Pavlovna erga chiqqan dastlabki vaqtlarda Kirsanov Lopuxovlarnikiga tez-tez, kunora borib turardi, desa ham bo‘ladi, yana aniqrog‘i – kunda-shunda edi; oradan ko‘p o‘tmay, dastlabki kundan boshlab Lopuxov bilan qandoq inoq bo‘lsa, Vera Pavlovna bilan ham shunday yaqin bo‘lib ketdi. Yarim yilcha shu zaylda davom etdi. Bir kun uchovlari: Kirsanov, Lopuxov va Vera Pavlovna o‘tirishgan edi. Odatdagiday, hech tortinmay, bemalol gaplashib o‘tirishardi; shu payt hammadan ko‘p gapirib o‘tirgan Kirsanov birdaniga jim bo‘lib qoldi.

– Aleksandr, nima gap?

– Aleksandr Matveich, nega jim bo‘lib qoldingiz?

– Shunday, biroz diqqat bo‘lyapman.

– Aleksandr Matveich, sizda bunaqa narsalar kamdan kam bo‘lardi-ku, – dedi Vera Pavlovna.

– Biron sababsiz sira ham bo‘lmasdi, – dedi Kirsanov boshqacha bir ohangda.

Birozdan keyin, odatdagidan ertaroq o‘rnidan turib har safargiday oddiygina xayrlashib chiqib ketdi.

Ikki kundan keyin Lopuxov Vera Pavlovnaga, Kirsanovnikiga kirgandim, nazarimda boshqacharoq kutib olganday bo‘ldi, dedi. Kirsanov u bilan juda xushmuomala bo‘lishga harakat qilgan, – u bilan Lopuxov o‘rtasida bunday muomala bo‘lishi butunlay ortiqcha edi. Lopuxov unga qarab turib, ro‘yirost bunday degan:

– Aleksandr, deyman, negadir xafaroq ko‘rinasan, kimdan xafasan, mendanmi?

– Yo‘q.

– Verochkadanmi?

– Yo‘q.

– Bo‘lmasa nima bo‘ldi senga?

– Yo‘q, hech narsa bo‘lgani yo‘q; senga nega bunday ko‘rindi ekan?

– Bugun meni negadir xush ko‘rmayapsan, gaplaring, muomalang yasama bo‘lib qolibdi, biror narsadan arazlaganga o‘xshaysan.

Kirsanov, aslo undaymas, hech gap bo‘lgani yo‘q, senga shunday ko‘rinayotgan bo‘lsa kerak, deb zo‘r berib ishontirmoqchi bo‘ldi-yu, shu bilan gapini bildirib qo‘ydi. Keyin o‘zi uyaldi, shekilli, asliga qaytib, ochiqko‘ngil, durust odamlardek muomala qila boshladi. Lopuxov uning es-hushini yig‘ib, asliga qaytganidan foydalanish niyatida, yana so‘radi:

– Qani, Aleksandr, ayt-chi, nega arazlab yurganding?

– Arazlashni xayolimga ham keltirganim yo‘q, – shu bilan yana sertakalluf va yoqimsiz muomalaga o‘tib oldi.

Bu qanday gap? Lopuxovni nimadan xafa qilib qo‘ydim ekan, deb shuncha o‘ylasa ham, biron-bir vaj topolmadi, ular bir-birini shu qadar hurmat qilishar, shu qadar inoqki, xafa bo‘lishining hech bir o‘rni yo‘q edi. Vera Pavlovna ham, men biron narsa deb ko‘nglini og‘ritdimmikin, deb rosa o‘yladi, lekin u ham hech qanday sababini topolmadi, u ham eri singari biron narsa deb ko‘nglini og‘ritgan bo‘lishi mumkin emasligini aytdi.

Oradan yana ikki kun o‘tdi; Kirsanovning Lopuxovlarnikiga to‘rt kun davomida kirmay qo‘yishi g‘alatiroq ko‘rindi. Vera Pavlovna, hatto, o‘zi sog‘-salomatmikin, deb o‘ylab qoldi. Lopuxov, rostdan ham yana betob bo‘lib qolgan bo‘lmasin, deb uyidan xabar ham oldi. Kasal qayoqda deysiz? Lekin hali ham qovog‘i soliq edi. Lopuxov ichingdagini aytasan, deb turib oldi. U bo‘lsa, yo‘q deyishini ancha cho‘zganidan keyin, Lopuxov bilan Vera Pavlovnani jonidan yaxshi ko‘rishi, hurmat qilishi to‘g‘risidagi allaqanday bo‘lmag‘ur gaplarni gapira boshladi; lekin bu gaplari bilan u, sizlar menga iltifotsiz qaramsizlar, demoqchi bo‘lganday edi-yu, ammo bunday tumtayib yurgan bo‘lishiga qaramay, bu haqda biron imo-ishora ham qilmadi, eng yomoni ham shu edi. Nimadir bu janobning izzat-nafsiga tekkani ravshan edi. Lopuxov

juda boshqacha odam deb yurgan Kirsanovning bu qiliqlarini ko'rganidan keyin, u ham juda bo'g'ilib, mezbonga: «Hoy, menga qara, sen bilan biz o'rtoq bo'lsak, axir, senda uyat degan narsa bormi o'zi?» – dedi. Kirsanov sir boy bermadi, pinagini buzmay bardosh berib, darhaqiqat, men, ehtimol, bachkanalik qilgandirman, lekin ko'p narsalardan dilim ranjigan bo'lsa nima qilay, deb javob qaytardi. «Nimadan diling ranjidi?» U keyingi vaqtlarda izzat-nafsiga tekkan birtalay gaplarni sanab ketdi, chunonchi: «Sen, kimning sochi oqish bo'lsa, u kishi bema'nilikka shuncha yaqin turadi, deding. Vera Pavlovna, bugun choy qimmatlashib ketdi, dedi. Bu mening sochimga shama qilib aytilgan ta'na, boshqa bir ma'nosi, tirikchiliging bizning hisobimizdan o'tyapti, deganingiz». Lopuxovning hafsalasi pir bo'ldi: bu odam yo izzat-nafs balosiga giriftor bo'lgan, yoki to'g'rirog'i, ahmoqlik, ablahlik ko'chasiga kirib qolgan, deb o'yladi.

Lopuxov uyiga juda xafa bo'lib qaytdi: shunchalik mehr qo'ygan, jondan aziz kishisining bu ahvolini ko'rib jig'ibiyroni chiqdi. Vera Pavlovna, nima gap, biron narsa bilib keldingmi, deb so'ragandi, u ma'yuslik bilan, yaxshisi, bu haqda indamay qo'ya qolaylik. Kirsanov behuda, bema'ni gaplarni gapirdi, chamamda betobroq ko'rinadi, dedi.

Uch-to'rt kundan keyin Kirsanovning esi joyiga tushdi, shekilli, qiliqlari juda bema'ni ekanini payqadi; Lopuxovlarnikiga kelib, tuzukkina suhbatlashib o'tirdi, so'ngra men tentaklik qildim, deb uzr so'radi; Vera Pavlovnaning gaplariga razm solsa, eri uning bema'niliklarini xotiniga aytmabdi, Lopuxovning bema'niligi uchun unga astoydil minnatdorchilik bildirdi, o'zini o'zi jazolaganday hamma gapni o'zi Vera Pavlovnaga aytib berdi, ko'ngli bo'shashib afv so'radi, tobim yo'q edi, dedi, yana negadir ish pachavalashdi. Vera Pavlovna, qo'ying, bularni eslab o'tirmang, arzimagan gap, demoqchi edi, u «arzimagan gap» degan iboraga yopishib olib, Lopuxov bilan gaplashganida qanday behuda gapirgan bo'lsa, yana shunday bo'lmag'ur gaplarni gapira boshladi; odob va ustalik bilan yana o'sha ko'nglidagi gapni ming ohangga solib aylantiraverdi, albatta, «arzimagan gap», nega deganda, Lopuxovlar oldida unchalik qadrim yo'qligiga o'zimning ham aqlim yetadi, o'zi aslida bundan

ortiqqa arziydigan nimam bor, deysiz va hokazolar deyaverdi, gapirganida ham juda shirinso'zlik, hurmat, sadoqat va ustalik bilan shama qilib gapirdi. Vera Pavlovna ham bu gaplarni eshitib, eri singari, uning ham hafsalasi pir bo'ldi. Kirsanov ketganidan keyin er-xotin bo'lgan voqealarni bir-bir eslashdi, ochiqdan ochiq bema'nilik yo'liga kirmasdan bir necha kun ilgari ham avzoyi buzuq edi: u vaqtda payqashmagan, tushunishmagan edi, ilgarigi o'sha qiliqlar endi ma'lum bo'ldi: ilgarigi qiliqlar ham shu taxlit edi-ku, lekin bo'shroq chiqqan edi.

Shundan keyin Kirsanov bir qadar tez-tez kelib turdi; lekin endi munosabatlarini ilgarigiday oddiygina davom ettirish mumkin emasdi: tuppa-tuzuk odam niqobi tagidan bir necha kungacha shunday uzun shalpang qulog'i osilib chiqib turdiki, endi bu quloq ko'zdan butunlay g'oyib bo'lganda ham, Lopuxovlarning ilgarigi do'stlariga qayta ko'ngil qo'yishlari qiyin edi; lekin bu shalpangquloq hali ham onda-sonda ko'zga tashlanib turdi. Endilikda unchalik uzun bo'lib chiqib turmas va u darrov yashirinib olardi-yu, lekin uni ko'rib odamning yuragi achir, g'ashi kelar, jirkanar edi.

Ko'p o'tmay, darhaqiqat, Kirsanovdan ko'ngillari sovidi, Lopuxovlarnikiga kelib huzur-halovat topolmay qolganining aslida boshqa sababi bor edi, shu bilan kelishini bas qilib qo'ya qoldi.

Lekin u bir tanishlarinikida Lopuxov bilan uchrashib turardi. Oradan birmuncha vaqt o'tgach, Lopuxovning ham undan unchalik ensasi qotmaydigan bo'lib qoldi, ilgarigiday bo'lib ketdi. Lopuxov unikiga borib turdi. Bir yildan keyin, hatto Lopuxovlarnikiga yana keladigan bo'lib qoldi, yana ilgarigi rasmona, halol, ajoyib Kirsanovlik ko'rinishiga qaytdi. Lekin kamdan kam kelardi: ahmoqona qiliqlarini eslashdan uyalib yurganga o'xshardi. Lopuxov u voqealarni deyarli esidan chiqargan edi. Vera Pavlovna ham esdan chiqargan edi. Ammo raxna tushgan munosabatni avvalgi holiga qaytarib bo'larkanmi? Sirtdan qaraganda u bilan Lopuxov yana avvalgiday do'st edi, Lopuxov haqiqatan ham uni ilgarigiday hurmat qilar, uyiga borib turardi; Vera Pavlovna ilgarigiday bo'lmasa ham, har holda, durustgina hurmat qilardi, lekin u bilan kamdan kam ko'rishardi.

XII

Hozir Lopuxovning kasali, to‘g‘rirog‘i, Vera Pavlovnaning eriga bo‘lgan ulkan sadoqat tufayli Kirsanov bir haftadan ko‘proq Lopuxovlarnikida qolib, ular bilan kundalik samimiy munosabatda bo‘lib turardi. Vera Pavlovnani kechalari erining tepasida o‘tirishdan qutqarib, o‘zi tun bo‘yi ular yonida bo‘lishga qaror qilib, shu bilan o‘zi uchun xatarli yo‘lga qadam qo‘yganini Kirsanov tushunardi; bundan uch yilcha burun o‘zida qandaydir otashin muhabbat alomatlarini sezib, bu ishq olovini alanga olmasdan so‘ndirish uchun sabot bilan barcha zarur choralarni ko‘ra olganiga shodlanib, faxrlanib yurgandi. Kirsanov shu tufayli o‘zini juda yaxshi his qilardi. O‘shanda ikki-uch haftagacha hadeb Lopuxovlarnikiga borgisi keldi, shu paytlarda ham mahrumlik dardidan ko‘ra o‘zi bilan kurashida ko‘rsatgan matonatidan ko‘proq xursand bo‘lib yurardi, bir oydan keyin bu darddan tamoman musaffo bo‘lib, halolligiga o‘zi qoyil qoldi. Ko‘ngli tinch, xotirjam edi.

Hozirgi xavf-xatar yanada ko‘proq shu uch yil mobaynida Vera Pavlovna ma’naviy jihatdan, albatta, ancha o‘sdi; u vaqtda hali Vera Pavlovnaning go‘dakligi bor edi, endi unday emas; Vera Pavlovnaga ko‘zing tushganda paydo bo‘ladigan his-tuyg‘ularning ham erkalatib, ham kulib boqadigan biron jihatida qizni suyishga o‘xshash yeri qolgan emas. Vera Pavlovna ma’naviy jihatdan kamol topish bilan birga, husniga ham husn qo‘shildi: shimol ayolining husni chinakam husn bo‘lsa, yildan yilga chiroyi ochilib boraveradi. Shu davrdagi uch yillik hayotida, agar kishining o‘zi ham, turmushi ham yaxshi bo‘lsa, dili ham, qosh-ko‘zlari ham, chehrasi ham, qo‘yingki, odamning o‘zi ham barq urib ochilib boraveradi.

Xavf-xatar katta edi, lekin faqat Kirsanov uchun xavfli edi: Vera Pavlovnaga nima ham bo‘lardi? U erini yaxshi ko‘radi. Kirsanov qandaydir bema’ni va ahmoq odam emaski, o‘zini Lopuxovning xavfli raqibi deb hisoblasa. U yolg‘ondakam kamtarlik qilib, ayyorligidan shunday deb o‘ylayotgani yo‘q; u bilan Lopuxovni biladigan barcha tuzuk-tuzuk odamlar ikkovini teng ko‘rishadi. Lopuxovning cheksiz yutug‘i shuki, u sevgiga sazovor bo‘ldi, Vera Pavlovna qalbidan o‘ziga munosib joy oldi. Vera Pavlovna tanlagan yigitidan mamnun, baxtiyor, bundan yaxshisini axtarish

xayolida ham yo‘q; ajabo, yana nimasi yomon? Bu haqda o‘ylash ham bema’nilik, uning – Kirsanovning Vera Pavlovna uchun va Lopuxov uchun bu jihatdan tashvish tortishi behuda shuhratparastlikdan boshqa narsa emas.

Nahotki Kirsanov arzimagan narsani deb, sevgi dardini tortmasin, deb yana bir oy, ko‘pi bilan ikki oy ayol kishining asablari qaqshashiga, bemorning karavoti yonida kechalari uxlamay, biron kasalga chalinishiga qo‘yib bersa? Nahotki halovating sal buzilgani uchun izzat-ikromda sendan kam yeri yo‘q bir zotga jiddiy zarar yetishiga yo‘l qo‘ysang? Axir bu vijdonsizlik-ku, vijdonsizlik esa o‘zing bilan o‘zing kurashganingdan ham beshbattar yomon, o‘zing bilan o‘zing kurashganing aslida og‘ir tuyulmasa ham, lekin shunday qilish lozim bo‘ladi va o‘ziga ishonib mag‘rur yurganidan oqibati nima bo‘lishiga ham shubhalanmaydi.

Kirsanov Vera Pavlovnani behuda navbatchilikdan ozod qilmoqchi bo‘lganida shunday mulohazaga borgandi.

Navbatchilik qilishga ham ehtiyoj qolmadi. Izzat-hurmatni joyiga qo‘yib sir boy bermaslik, birdaniga yo‘q bo‘lib ketib shubha tug‘dirmaslik uchun Kirsanov shu kecha-kunduzlarda yana ikki-uch marta Lopuxovlarnikiga kelishi, so‘ngra bir hafta o‘tgach, nihoyat, bir oydan, yarim yildan keyin kelib ko‘rib ketishi lozim edi. Undan keyin uzoqlanib ketganiga ishi ko‘pligini bahona qilsa bo‘lardi.

XIII

Hamma ishlar Kirsanov o‘ylagandek yaxshi bo‘ldi. Mehr-oqibat yana joyiga tushdi, ilgarigidan ham kuchaydi: lekin bu mehr-oqibatga qarshi kurashda unchalik qiynalgani ham yo‘q, yengil ko‘chdi. Dmitriy Sergeichni davolash tugagandan keyin bir hafta o‘tgach, Kirsanov Lopuxovlarnikiga ikkinchi marta kelib, soat to‘qqizlargacha o‘tirib qoldi: bas endi, izzat-hurmat shunchalik bo‘ladi-da; yana ikki haftadan keyin bir kelib ketadi: niyatiga yetib uzoqlashib oldi, desa bo‘ladi. Hozir yana biror soat o‘tirish kerak. Shu hafta ichi sevgi o‘tini ancha o‘chirdim: bir oydan keyin butunlay qutulaman. Kirsanov o‘zidan juda mamnun. Bemalol gaplashib o‘tiribdi, bu ishidan xursandligidan yanada bemalolroq o‘tirdi.

Lopuxov ertaga birinchi marta tashqariga chiqmoqchi. Vera Pavlovnaning bundan juda kayfi chog‘, tuzalgan bemorga qaraganda ham xursand. Kasalidan gap ochilib rosa kulishdi, tashvishlanadigan joyi bo‘lmagani holda, haddan tashqari qo‘rqib, o‘zi ham biron kasal orttirishga sal qolgan Vera Pavlovnaning vafodorligini hazilomuz maqtab kulishdi.

– Kulinglar-a, kulinglar, – derdi Vera Pavlovna, – mening o‘rnimda o‘zlaringiz ham boshqacha ilojini topolmasdingiz, bilmaydi deb o‘ylaysizmi?

– Boshqalarning g‘amxo‘rligi odamga qanday ta’sir qiladi, bilasizmi, – dedi Lopuxov, – bemordan tashvishlanayotganlarini ko‘rganda, o‘zi ham, e, juda ehtiyot bo‘lishim lozimga o‘xshaydi-ku, deb hadiksirab qoladi. Hali ham uyda o‘tiribman, holbuki uch kun burun uydan chiqishim mumkin edi. Bugun erta bilan chiqmoqchi edim, biron falokat yuz bermasin, deb yana bir kun orqaga surdim.

– To‘g‘ri aytasan, allaqachon chiqsang bo‘lardi, – uning so‘zini tasdiqladi Kirsanov.

– Qahramonlik deb shuni aytadi, rostini aytsam, yotish ham juda jonimga tegib ketdi: qani endi yugura chiqib ketsam.

– Azizim, sen ko‘nglimni tinchitish uchun botirlik qilganding. Agar karantinni tezroq bas qilging kelsa, hoziroq yugurib chiqib ketamiz. Birozdan keyin yarim soatga ishxonaga borib kelaman. Birga bora qolaylik: kasalingdan keyin dastlab chevar qizlarimni ko‘rgani borsang, juda yaxshi bo‘lardi-da. Ular iltifoting uchun sendan juda xursand bo‘lishardi.

– Juda soz, borsak boraveramiz, – dedi Lopuxov bugunoq sof havoda nafas olishga shaylanib.

– Bunaqa odobli bekani ko‘rganmisiz, – dedi Vera Pavlovna, – Aleksandr Matveich, biz bilan birga borishga ehtimol ra’yingiz yo‘qdir, shuni o‘ylab ham ko‘rmabman.

– Nega unday deysiz, bajonidil boraman, o‘zim ham ko‘pdan o‘ylab yurgandim. Ayni muddaoni aytdingiz.

Rostdan ham Vera Pavlovnaning o‘ylagani to‘g‘ri chiqdi. Darhaqiqat, Lopuxovning kasaldan turib birinchi navbatda qizlarni borib ko‘rganidan juda quvonishdi. Kirsanov bo‘lsa ishxonaga juda qiziqib qoldi; fikr tarzi shunday kishining ishxonaga qiziqmasligi ham mumkin emasdi. Agar ma’lum sabab tufayli

chetda qolmaganda boshdanoq bu ishxonadagi eng serg'ayrat o'qituvchilardan biri bo'lardi. Yarim soat, ehtimol, bir soat o'tib ketgani ham sezilmadi. Vera Pavlovna uni uyma-uy olib yurib, hamma narsalarni ko'rsatdi. Yemakxonadan ishxonalariga qaytayotganlarida Vera Pavlovnaning yoniga ishxonalarida uchramagan bir qiz keldi. Qiz bilan Kirsanov bir-birlariga tikilib: «Nastenka!», «Sasha!» – deya quchoqlashishdi.

– Sashajon, do'stim, uchrashar kunimiz ham bor ekan, xursandligimni bilsang edi! – dedi qiz uni o'pa-o'pa, u ham kulardi, ham yig'lardi. Qiz xursandligidan o'zini yo'qotib qo'yayozgandi, bir vaqt o'ziga kelib:

– Vera Pavlovna, hozir ishdan gaplashishga holim yo'q. Bundan ajralgim yo'q. Yur, Sashajon, xonamga kiramiz.

Kirsanov ham undan ko'proq xursand edi. Lekin qizni ko'rib tanigan paytdagi ko'z qarashida ancha g'amginlik borligini Vera Pavlovna payqab olgandi. Ajablanadigan yeri ham yo'q, chunki qiz og'ir sil kasaliga mubtalo bo'lgan edi.

Kryukova bir yil ilgari, qattiq kasalligida ishga kirgan edi. Agar u ilgari ishlab turgan do'konda qolsa, kiyim tikaverib allaqachon dunyodan ko'z yumardi. Lekin ishxonada umrini bir qadar uzaytirish tadbiri topildi. Qizlar uni kiyim tikishdan butunlay ozod etishdi: sog'lig'iga zarari tegmaydigan har xil ishlar topish mumkin edi; mayda-chuyda yumushlariga qaradi, omborxonalarga navbat bilan mudirlik qildi, buyurtmalar olib turdi, binobarin, hech kim Kryukovaning foydasi kam tegyapti demadi.

Lopuxovlar Kryukova bilan Kirsanovning gapi tugashini kutmasdan chiqib ketishdi.

XIV

KRYUKOVANING SARGUZASHTLARI

Kryukova ertasiga ertalab Vera Pavlovnaning yoniga keldi:

– Vera Pavlovna, kecha ko'rganlaringiz haqida siz bilan gaplashmoqchiman, – dedi u. Nimadan boshlashni bilmay, biroz qiynalib turdi. – Vera Pavlovna, ishqilib, u haqda yomon fikrga bormasangiz bo'lgani.

– Nastasya Borisovna, aksincha, o‘zingiz men to‘g‘rimda yomon fikrda ekansiz-ku.

– Unday emas, agar men o‘zimmas, boshqa odam bo‘lganimda edi, bunday deb o‘ylamasdim. Lekin, men boshqalardek emasman, buni o‘zingiz ham bilasiz.

– Yo‘q, Nastasya Borisovna, – siz o‘z to‘g‘ringizda bunday deyishga haqingiz yo‘q. Sizni bir yildan buyon bilib kelyapmiz; ilgari ham chevarlarimizning ko‘plari sizni bilisharkan.

– Voy, men to‘g‘rimda siz hech narsa bilmaysiz shekilli?

– Nega bilmas ekanman, juda ko‘p narsa bilaman. Siz oqsochlik qilgansiz, – keyingi vaqtlarda aktrisa N nikida bo‘lgansiz; u erga tekkanidan keyin, uning qaynatasidan qutulish uchun unikidan ketgansiz, N ning do‘koniga kirgansiz, undan keyin bizga ishga kelgansiz, men hammasini ipidan ignasigacha bilaman.

– Albatta, boshimdan nimalar kechganidan xabardor Maksimova bilan Sheinadan ko‘nglim to‘q edi, gap tashib yuradiganlardan emas. Lekin orqavoratdan sizga yoki boshqalarning qulog‘iga biron gap yetishi ham mumkin, deb o‘ylab yurardim. Ularning bexabarligidan juda xursandman! Lekin, har holda, uning qanday yaxshi odamligini bilib qo‘ying. Vera Pavlovna, men juda yomon qiz edim.

– Nastasya Borisovna, siz-a?

– Ha, Vera Pavlovna, yomon edim. Juda gustoh, odobsiz qiz edim. Hech qanday sharm-hayoni bilmasdim, doimo mast-alast yurardim, Vera Pavlovna, o‘pkam kasalligiga qaramasdan juda ko‘p ichardim, kasalimning boisi shu.

Vera Pavlovna bunaqa qizni uchinchi marta ko‘rishi edi. Vera bilan tanishganlariga qadar mo‘min-qobildek yurgan qizlar u bilan tanishishlari hamono ilgarilari falon vaqtgacha buzuq hayot kechirgan edik, deyishardi. Vera Pavlovna birinchi safar bunday tavba-tazarruni eshitib hayron bo‘ldi; lekin bir necha kun o‘zicha o‘ylab yurgach, mana bunday muhokama qildi: «Men o‘zim-chi? Men unib-o‘sgan zamin, axir u ham yaramas edi-ku; lekin menga nuqsi yuqmadi, mening oilamdan beshbattar oilalarda voyaga yetgan ming-minglab ayollarga ham nuqsi yuqmay, pokizaliklaricha qolishyapti-ku. Biron baxtli hodisa ro‘y berib, bu xo‘rlik balosidan eson-omon qutulib olishsa ajab emas». Vera Pavlovna ikkinchi

qizning arzi holini tinglaganda, tavba-tazarru qilgan qiz insonga xos hamma olijanoblik xislatlarini ham halollik, ham vafodorlik, ham mehribonlik, hatto soddabayovlik xislatlarini saqlab qolganini eshitganida sira ham ajablanmadi.

– Nastasya Borisovna, siz menga aytmoqchi bo‘lgan gaplarni ko‘p eshitganman. Gapiruvchiga ham, tinglovchiga ham – ikkoviga ham og‘ir. Ko‘p musibatlar ko‘rganingizni bilib oldim. Sizga hurmatim ilgaridan ham ziyod bo‘lsa bo‘ladiki, kam bo‘lmaydi, eshitmasam ham hammasiga tushunib turibman. Bu gapni bas qilaylik: menga gapirib berishning hojati yo‘q. O‘zim ham ko‘p yillar g‘am-g‘ussa chekkanman: o‘sha kunlarimni esga olmaslikka harakat qilaman, ularni gapirib yurishni ham yomon ko‘raman, juda og‘ir.

– Yo‘q, Vera Pavlovna, mening his-tuyg‘um boshqacha. Men uning qanday yaxshi odamligini aytmoqchiman, undan qanchalik minnatdorligimni hech bo‘lmasa biron kishi bilib qo‘ysin, buni sizdan boshqa kimga ham aytardim? Aytsam yuragim ancha bo‘shaydi. Qanday yashaganim to‘g‘risida, albatta, gapirib o‘tirishimning keragi yo‘q – menga o‘xshagan g‘arib-bechoralarning ko‘rgan kuni qursin. Sizga u bilan qanday tanishganimni aytib bermoqchiman, xolos. U to‘g‘rida gapirish menga huzur bag‘ishlaydi. Men unikiga ko‘chib ketyapman, ishxonadan ketishim sababini bilib qo‘yishingiz ham kerak-ku.

– Nastasya Borisovna, agar hikoyangiz o‘zingizga ma’qul bo‘lsa jon deb eshitaman. Bo‘lmasa, qo‘limga ishimni olay.

– Men bo‘lsam ishlashdan mahrumman. Qizlaringiz bir-biridan yaxshi, rahmdil, ahvolimga qarab ish topib beradi. Qizlaringizning hammasidan minnatdorman. Vera Pavlovna, siz ham ularga rahmat deb qo‘ying, mening nomimdan minnatdorchilik bildiring.

– Vera Pavlovna, bir kun Nevskiyda yurgandim; ko‘chaga endigina chiqqandim, hali qosh qoraymagandi; qarasam, bir talaba kelyapti, yopishib oldim. Talaba hech nima demasdan ko‘chaning narigi chetiga o‘tdi. Qarasa, yana yugurib yoniga boryapman, qo‘lidan ushlab oldim. «Ovora bo‘lmang, – dedim, – shundoq yigit ekansiz-u, qo‘ldan chiqararmidim». – «Iltimos, meni tinch qo‘ying», – dedi u. «Yo‘q, men bilan yurasiz», dedim. «Keragi yo‘q». – «Sizga keragi bo‘lmasa, menga keragi bor, qayoqqa

ketyapsiz? Sizdan sira ham ajralmayman». Juda ham behayo edim, boshqalardan beshbattar edim.

– Nastasya Borisovna, balki, aslida tortinchoq, insofli bo'lganingizdan shundaydir.

– Ehtimol. Har holda, men boshqalarga razm solib shunday o'ylardim, u vaqtlarda emas, albatta, buni keyin tushundim. Men sizdan sira ham ajramayman, degandim, u kulib qo'ydi-da: «Unday bo'lsa, mayli, yuring: lekin foydasi yo'q», dedi, adabimni bermoqchi bo'lgan ekan, buni keyin aytdi: shilqimlik qilganimga jahli chiqqan ekan. Birga ketdim, og'zimga kelganini gapiraverdim; u jim boraverdi. Uning uyiga yetib keldik. Talaba bo'lishiga qaramay, o'sha vaqtdayoq turmushi yaxshi edi, dars berib har oyda yigirma so'mcha topardi, bir o'zi turardi. Divanga yonboshlab: «Qani, vino keltir», dedim. «Yo'q, sizga vino bermayman, choy ichgingiz kelsa marhamat», dedi. «Punsh bilan», dedim. «Yo'q, punshsiz», dedi. Jinnilikka o'tdim, behayolik qila boshladim. U bo'lsa pinagini ham buzmay qarab turaverdi: juda xo'rligim kelib ketdi. Vera Pavlovna, hozir ham shunday yigitlar bor, – o'sha zamonlardan buyon yosh yigitlarga es kirib, ancha yaxshi bo'lib qolishdi, ilgari buni vahshiylik deb bilishardi. Xo'rligim kelib uni haqorat qila boshladim: «Yog'ochday serrayib turaveradigan bo'lsang, – deb so'kdim-da, – ketaman», dedim. «Endi ketib nima qilasiz, – dedi u, – choy iching: xo'jayka hozir samovar olib keladi. Lekin so'kinmay o'tiring». Nuqul «siz»lab gapirdi. «Yaxshisi, kimligingizni, nima bo'lib bu ahvolga tushib qolganingizni ayting», dedi. O'z to'g'rimda bo'lmag'ur narsalarni to'qib gapiraverardim: biz hammamiz har xil gaplarni to'qib gapiramiz, shu sababli birontamizning gapimizga birov ishonmaydi; lekin aslida shundaylar ham, yolg'on gapirmaydiganlar ham bor: oramizda olijanob, o'qimishli ayollar ham bo'ladi. Gapimga quloq solib o'tirib shunday dedi: «Gap to'qishga usta emas ekansiz; ishongim kelib o'tirdim-u, lekin ishonib bo'lmaydi». Choy ichib o'tirgandik. U shunday dedi: «Bilasizmi, qaddi-qomatingizga qaraganda, sizga ichkilik zarar qiladi, ichkilikdan o'pkangiz ishdan chiqayozibdi. Qani, bir qarab ko'ray-chi», – dedi Vera Pavlovna, – gapimga balki ishonmassiz, lekin uyalib ketdim, – holbuki qanday kunlar ko'rgan, qanday behayoliklar qilgan odamman! Uyalganimni ham payqadi. «Yo'g'-e,

faqat ko‘kragingizga quloq solib ko‘raman», dedi. U vaqtlarda hali ikkinchi kursda o‘qisa ham tibbiyotdan ko‘p narsa bilardi, fan bobida ancha ilg‘or edi. Ko‘kragimga quloq soldi. «Sizga ichkilik sira ham to‘g‘ri kelmas ekan, o‘pkangizning mazasi yo‘q», dedi. «Ichkiliksiz ilojimiz qancha, biz busiz tura olarmidik», dedim, to‘g‘risini aytdim, Vera Pavlovna, busiz turolmasdik ham. «Siz bu hunaringizni tashlang», dedi. «Tashlab bo‘pman! Vaqtixushlik qilib yuribman-ku!» – dedim. «Nimasi vaqtixushlik ekan. Xo‘p, mayli, ishlarimga qaray, – dedi, – endi ketsangiz ham bo‘ladi». Bir oqshomim bekor ketdi, deb jahl bilan chiqib ketdim, dardsiz odamday muomala qilganiga xo‘rligim keldi: bu jihatdan bizda ham izzat-nafs degan narsa bor. Bir oylardan keyin yana shu tomonlarga yo‘lim tushgandi: bir shu Yog‘ochvoyning oldiga kirib jig‘iga tegay, deb o‘yladim. Tushlikdan sal oldinroq edi; kechasi yaxshilab uyquga to‘yib olgandim. Kitob o‘qib o‘tirgan ekan. «Salom, Yog‘ochvoy». – «Salom, xo‘sh, xizmat? Men yana ahmoqchilik qila boshladim. «Bema’nilikni bas qiling, bo‘lmasa haydab chiqaraman, bunaqa ishlar menga yoqmaydi, deb aytuvdim-ku. Ichmagan ko‘rinasiz, gapga tushunarsiz, axir. Undan ko‘ra so‘zlarimga quloq solib, tanangizga o‘ylab ko‘ring: rangingiz ilgarigidan ham beshbattar za’faron, vino ichishni bas qiling. Kiyimingizni to‘g‘rilab oling, bunday odamlardek gaplashib o‘tiraylik!» Endi rostdanam ko‘kragim og‘riy boshlagandi. U yana quloq solib ko‘rdi, ilgaridan ham yomon, dedi, ko‘p gaplarni aytdi; ko‘kragimning og‘rig‘i hamon bosilmasdi, yuragim to‘lib ketib yig‘lab yubordim: jon shirin ekan, u bo‘lsa sil kasal deb yuragimni yorayozdi. Men unga: «Qanday qilib hunarimni tashlayman? Uy bekam ketishga ruxsat bermaydi, undan o‘n yetti so‘m qarzman», dedim. Bizlarni g‘ing deyolmaydigan qilib doim qarzga botirib qo‘yishadi. «Bor pulim o‘n yetti so‘m chiqmaydi, – derdi u, – ertadan keyin keling». Bu gapi juda g‘alati tuyuldi. Men pul ilinjida gapirmagandim; shunday bo‘lar, deb o‘ylabmanmi? Eshitgan gaplarimga ishongim kelmadi, boyagidan ham qattiqroq yig‘ladim, meni mazax qilyapti deb o‘yladim: «Bir bechora qizni shuncha xafa qilishga uyalmaysizmi, ko‘z yoshimni ko‘rib turib», dedim; hazil qilayotganim yo‘q, deb ishontirishga tirishsa ham, anchagacha ishonmadim. U yog‘i nima bo‘ldi deng? Pul yig‘ib, ikki

kundan keyin qo'limga berdi. Shunda ham bu narsaga sira ishongim kelmadi. «Bu nima qilganingiz, yonimga yaqinlashgingiz kelmaydi-yu, bu nima qilganingiz!» – dedim.

Uy bekamning qarzini uzdim, alohida bir xonani ijaraga oldim. Lekin boshqa qiladigan ishim yo'q edi: qo'limizga alohida chipta berib qo'yishgan, bu chiptani ko'tarib qayoqqa ham borardim, deysiz? Pul yo'q. Shu bilan yana ilgarigiday kunimni o'tkazib yuraverdim, yo'q, ilgarigidaymas: Vera Pavlovna, ilgarigi kunlarim qayoqda-yu, bu kunlarim qayoqda! Endi uyimda tanishlarimnigina qabul qiladigan bo'ldim, bular xafa qilmaydigan, yaxshi odamlar. Vino ham ichmay qo'ydim. Shunisi bilan ham hayotim ilgarigisidan yer bilan osmonday farq qilardi. Turmushim ilgarigiga qaraganda hozir yengillashdi. Lekin, har holda, hali unchalik emasdi; sizga rostini aytsam, siz, oshnalari ko'pligidan, – ular besh kishi edi, – og'ir bo'lgan bo'lsa kerak, deb o'ylasangiz kerak, yo'q, unday emas, chunki ularning beshoviga ham ko'nglim bor edi, shunday bo'lgandan keyin og'irligi ham sezilmaydi. Sizga bularni gapirganim uchun aybga buyurmang. Men faqat sizga gapiryapman: hozir ham shunday deb o'ylab yuraman. Hozir men tortinchoqmanmi-yo'qmi, bu sizga ayon; og'zimdan yaxshi gapdan boshqa narsa chiqqanini eshitgan biron kimsa bormi? Ishxonada bolalar bilan o'ralashib yuraman, meni hammalari yaxshi ko'rishadi, kampirlar ham, u bizga yaxshi narsalarni o'rgatmaydi, deyisholmaydi. Vera Pavlovna, men dardimni faqat sizga aytyapman. Hozir ham shunday deb o'ylayman: ko'nglingga yoqsa, birov-birovingni aldamasang bo'lgani; o'rtaga yolg'on-yashiq aralashadigan bo'lsa, u boshqa gap.

Hayotim ana shunday o'tgan. Oradan uch oy o'tdi, ancha dam oldim, sababi, xotirjam yashadim, pul vajidan uyalib yursam ham, lekin endi o'zimni buzuq deb hisoblamay qo'ydim.

Vera Pavlovna, shundan keyingi vaqtlarda menikiga faqat Sashenka kelardi, men ham unikiga borib turardim. Nihoyat, yana o'sha gapga qaytib keldim. Lekin u menikiga boshqalarday, bir narsa ilinjida kelmasdan, shunchaki, eski kasali qo'zib, ichkilik ichmasin, deb xabar olgani kelardi. Haqiqatan ham dastlabki kunlari biram ichgim kelardiki, asti qo'yaverasiz. Lekin undan uyalardim, kelib qolsa nima degan odam bo'laman, deb o'ylardim.

U bo‘lmaganda chidayolmas ekanman, nega desangiz, yaxshi tanishlarim kelganda: «Vinoga odam yuboraman», deyishardi, men bo‘lsam, Sashenkadan uyalib: «Yo‘q, hech qanday vinoning keragi yo‘q», derdim. Bo‘lmasa, o‘zimni tiya olmay ichib qo‘yardim: vino menga zararli, degan fikrning o‘zi kifoya qilmasdi. Keyin – uch haftalardan so‘ng o‘zimni qo‘lga oldim: vinoga o‘chligimni yengib, mast-alast gaplashish odatimdan ham qutuldim. Qarzini qaytarishga atab pul yig‘ib yurardim, ikki oylardan keyin qutuldim. Qarzini qaytarganimga u juda suyundi. Ertasiga bir ko‘ylakli dokaparang ko‘tarib keldi, shu puldan yana boshqa narsalar ham olib berdi. Keyin ham kasal boquvchi doktorday kelib turdi. Qarzini uzganimdan keyin oradan bir oy o‘tgach, menikida o‘tirgandi, bir vaqt: «Nastenka, mana endi ko‘zimga yaxshi ko‘rinyapsiz», dedi. To‘g‘ri gapni aytdi: vino kishining rang-ro‘yini buzadi, husn ham darrov asliga qaytmaydi, o‘shanda rang-ro‘yim tuzalib, ko‘zlarim chaqnab qolgandi; muomaladagi yasamalikni tashlab sharm-hayoli bo‘lib oldim, bilasizmi, ichishni bas qilganim uchun fikr-xayollarimda bama’nilik paydo bo‘ldi, ba’zan ilgarigi pala-partishligim tutib, to‘g‘ri kelganini gapirib yuboraverardim; lekin bu vaqtlarda ancha o‘zgarib, o‘zimni bosib olgandim, kamsuxan edim. «Ko‘zimga yaxshi ko‘rinyapsiz», degan gapini eshitganimda, suyunganimdan o‘rnimdan turib bo‘ynidan quchoqlab olgim keldi-yu, lekin uyaldim, o‘zimni bosdim. U bo‘lsa: «Nastenka, ko‘rdingizmi, menda ham his-tuyg‘u bor», dedi. Shundan keyin aql kirib shiringina bo‘lib qoldingiz, deb meni erkalata boshladi, erkalatganda ham qanday erkalatdi deng, qo‘limni qo‘liga qo‘ydi-da, ikkinchi qo‘li bilan siladi; qo‘limga tikilib-tikilib qaradi; qo‘llarim ham shu kunlari oppoq momiqdek bo‘lib qolgan edi... Shu desangiz, qo‘limdan ushlaganda, ishonsangiz, qip-qizarib ketibman: avvalgi ko‘rgan kunlarimdan keyin, Vera Pavlovna, xuddi ma’suma qizday – bu g‘alati dard, lekin men o‘zimni shunday his qildim. Juda uyalgan bo‘lsam ham, Vera Pavlovna, juda uyalgan bo‘lsam ham, deyishimning o‘zi qiziq, shunda ham: «Aleksandr Matveich, nima bo‘ldi, meni erkalatib qoldingiz?» – deb so‘rovdim: «Nega desangiz, Nastenka, siz endi pokiza qizsiz», dedi. Meni pokiza qiz deb ataganiga shunchalik suyundimki, ko‘zlarimdan tirqirab yosh

chiqib ketdi. U bo‘lsa: «Nastenka, nima bo‘ldi?» – deb o‘pib oldi; shunga ishonasizmi? O‘pishidan boshim aylanib, behush bo‘lib qolibman: Vera Pavlovna, avvalgi ko‘rgan kunlarimdan keyin shunday bo‘lishiga ishonsa bo‘ladimi?

Ertasiga ertalab, sho‘rim qursin, endi nima qilaman, nima tirikchilik qilaman, deb yig‘ladim. O‘zimni Nevaga tashlashdan boshqa ilojim yo‘q. Endi ilgarigiday kun ko‘rishim mumkin emas; kallamni olib tashlasa ham, ochimdan o‘lsam ham, endi unday qilmayman. Ko‘rdingizmi, bilsam, uni allaqachon yaxshi ko‘rib qolgan ekanman, lekin u menga sirini ochmay yura bergan, o‘zim, nimamni yaxshi ko‘rardi, deb noumid bo‘lib yurganimdan muhabbatim so‘nib qolgan, qalbimda sevgi otashi borligini o‘zim ham payqamaganman. Endi bular hammasi namoyon bo‘ldi. Albatta, ko‘nglingda shunday sevgi jo‘sh urib turganda, suygan kishingdan boshqa biron kishiga qaraging kelarmidi? Qaraging kelmasligini o‘zingizdan qiyos qilib bilarsiz. Bunday kezlarda o‘shandan boshqa hech kim ko‘zingga ko‘rinmay qoladi. Nima qilaman, tirikchiligimni qanday o‘tkazaman endi, deb ho‘ng-ho‘ng yig‘ladim. Borib uni yana bir ko‘raman-da, keyin o‘zimni suvga tashlayman deb qat’iy ahd qildim. Tong-saharda turib qilgan ishim shu bo‘ldi – ko‘z yoshlarim duv-duv to‘kildi. Bir vaqt qarasam, eshikdan kirib kelyapti. Quchoqlab o‘pib: «Nastenka, men bilan birga turasanmi?» – deb so‘radi. Men ko‘nglimdagi dardimni to‘kib soldim. Shu-shu ikkimiz birga tura boshladik.

Vera Pavlovna, bilsangiz, juda baxtli damlar edi; bunday baxt kamdan kam odamlarga muyassar bo‘lgan bo‘lsa kerak deb o‘ylayman. U menga tikilib to‘ymasdi. Uyqudan ko‘zimni ochsam, ko‘pincha kitob o‘qib o‘tirgan bo‘lardi, shunda o‘rnidan turib yonimga kelardi-da, ishini ham unutib, menga termilardi. Lekin, Vera Pavlovna, o‘zi juda ham kamsuqum yigit edi; bularga keyinchalik aqlim yetadigan bo‘ldi, kitob o‘qishni odat qildim, romanlarda sevgi qanday tasvirlanishini biladigan, o‘zim ham aql yuritadigan bo‘ldim. Lekin shunchalik kamsuqumligiga qaramasdan menga shunaqangi zavq-shavq bilan tikilardiki! Yaxshi ko‘rgan kishing senga termilib, erkalatib o‘tirsa, ko‘ngling qanchalar quvonar ekan: odamning xursandligi ichiga sig‘may ketarkan. Birinchi marta o‘pganida, boshim aylanib bag‘riga yopishdim,

shirin bir tuyg‘u egallab oldi, shekilli, lekin aslida bunday emasdi. Unda, men sizga aytsam, qoning qaynaganday bo‘ladi, yuragingni vahm bosadi, shirin tuyg‘uning ham qandaydir azobi bo‘ladi, chinakam huzur qilganingdan bir daqiqani deb jon fido qilasan ham – shunday bo‘lsa ham nechundir og‘ir tuyuladi; qanchalik huzur qilmagin, dilingning bir chekkasi g‘ash bo‘lib turadi. Yolg‘iz xayol surib o‘tirib, o‘z-o‘zidan: «Muncha ham yaxshi ko‘raman uni?» deb o‘ylaganingda qanday bo‘lsa, bunda ham xuddi shunday tuyuladi – huzur qilib o‘tirasan-u, lekin yuragingga vahima tushmaydi, diling ham og‘rimaydi, bir maromda, tinch-osuda o‘tirasan, yaxshi ko‘rgan kishing senga zavq bilan termilganda ham xuddi shunday tuyuladi. Unda ming chandon zo‘rroq bo‘ladi; o‘zing ham tinch bo‘lasan, diling ham g‘ash bo‘lmaydi, vahima qilmaysan emas, qilasan, lekin uni sezmaysan, vahimang ham qandaydir bosiqqina, shiringina bo‘ladi, yurak urishlaring ham muloyim, ko‘ksing ham yayrab, erkin nafas olasan, ha, bular chin, to‘g‘ri gaplar: nafas olishing yengillashadi. O‘zing ham shunday yengil tortasanki! Bir soat, ikki soat qanday o‘tib ketganini bilmay qolasan, xuddi bir daqiqa o‘tganday, yo‘q, daqiqalar ham, soniyalar ham emas, vaqt degan narsaning o‘zi bo‘lmaydi, xuddi uxlab turganday bo‘lasan: ko‘zingni ochganingda uyquga bosh qo‘yganingga allaqancha vaqt bo‘lganini bilasan; lekin vaqt qanday o‘tdi? Bir zum ham o‘tmagandek bo‘ladi; yana uyqudan turgandaysan, charchashning o‘rniga yengil tortib, tetiklashib, orom olganday bo‘lasan; ha, rost, orom olganday, men «juda yengil nafas olasan», dedim, eng kerakligi ham shu. Vera Pavlovna, termilishda gap ko‘p; boshqa hech qanday erkalash, suyish termilishga yetmaydi, kishiga bunchalik lazzat baxsh etmaydi. Sevgining boshqa jihatlari shunchalik lazzat, bunchalik orom bermaydi.

Erta-yu kech termilgani termilgan edi. Oh, bu naqadar huzur! O‘z boshidan kechirmagan odam buning nimaligini bilmaydi. Siz, Vera Pavlovna, buni bilasiz.

Hali ko‘rsangiz ko‘zimdan, hali qarasangiz qo‘limdan o‘padi, keyin ko‘kragimdan, oyog‘imdan o‘padi, sog‘ joyim qolmaydi, men ham undan uyalmayman; chunki o‘sha paytlari ham men hozirgiday edim. Vera Pavlovna, bilasizmi, ayol kishi qarab qo‘ysa ham uyalib ketasan, rostim, qizlaringizdan so‘rasangiz, qanday uyatchanligimni

aytib berishadi, shuning uchun ham bir xonada yolg'iz o'zim turaman. Shunisi qiziqki, ishonsangiz, menga termilsa, o'psa hech uyalmasdim, huzur qilardim, nafas olishim yengillashardi; Vera Pavlovna, dugonalarimdan uyalaman-u, uning tikilishidan uyalmayman, nega bunday ekan? Bilishimcha, u menga begona tuyulmagani, ikkovimiz xuddi bir kishiday bo'lib qolganimizdan, shundaymikin, deyman, nazarimda, u menga qarayotgani yo'q, o'zimga o'zim qarayotganday bo'lardim, u meni o'payotgani yo'q, o'zim o'payotganday bo'lardim, rost, nazarimda shunday bo'lardi; shu sababdan uyalmasdim ham. O'zingiz ham bilasiz, buni aytib o'tirishning keragi yo'q. Lekin bir o'ylab qolsang, keyin miyangdan chiqarishing qiyin bo'ladi. Bas endi, men boray, Vera Pavlovna, boshqa aytadigan gapim ham qolgani yo'q, Sashenkaning qanchalar rahmdil odamligini aytmoqchi edim xolos.

XV

Kryukova o'z sarguzashtini Vera Pavlovnaga keyingi kunlar aytib tamom qildi. U Kirsanov bilan ikki yilcha birga turgan, kasallik alomatlari yo'qolganday edi-yu, lekin ikkinchi yilning oxirlarida, ko'klam paytlari sil kasali to'satdan zo'rayib ketdi. Kryukova Kirsanov bilan birga tura bersa o'limini yaqinlashtirgan bo'lardi. Aloqalarini uzishsa kasali ancha vaqtgacha bosilishi mumkin edi. Shundan keyin ajralishga qaror berdilar. Kryukova doimiy o'tirib qilinadigan ishga kirsa ham o'zini halok qilardi. Biron-bir ro'zg'orboshilik, oqsochlik, enagalik va shunga o'xshagan joy izlab topishi, og'ir ish qildirmaydigan, eng muhimi, xarxasha-yu xafagarchiliklar bo'lmaydigan bironta xonimnikidan ish topishi lozim edi: albatta, bunday joy kamdan kam bo'lardi. Lekin joy topildi. Kirsanovning yosh artistlardan tanish-bilishlari bor edi, shular orqali Kryukovani rus teatri aktrisalaridan biriga oqsochlikka joylashdi, aktrisa yaxshi ayol edi. Kirsanov bilan ikkovlari uzoq vaqtgacha ajralisholmay yurdilar: «Xizmat joyimga ertaga ketaman», derdi-yu, lekin bunaqa ertalardan ko'pi o'tardi; yig'lab quchoqlashib o'tira berishardi, bir kun oxiri aktrisaning o'zi Kryukovaning nima sababdan oqsochlikka kirmoqchi bo'lganini bilgani uchun uni olib ketgani keldi va Kryukova uchun judolik

tuyg'ularida ko'p ezilish zararli bo'lgani uchun uni o'zi bilan birga olib ketdi.

Aktrisa teatrda ishlab turganida unikida Kryukova yaxshi yashadi: aktrisa xushmuomala ayol edi. Kryukova ham bu uyning qadriga yetardi, – boshqa bunday joy topish qiyin edi; bekasidan yomon gap eshitmaganidan unga juda ko'ngil qo'ygandi; buni ko'rib aktrisaning mehribonligi undan ham ziyoda bo'lgandi. Kryukova tinib-tinchidi, kasali ham zo'raymadi. Lekin aktrisa erga chiqdi, teatrdan ketdi, erining uyiga ko'chdi. U yerda aktrisaning qaynatasi oqsoch xotinga ilashib qoldi, buni Vera Pavlovna ilgari ham eshitgan edi; Kryukova-ku, bunaqa vasvasalarga uchmasdi, lekin uylarida janjal boshlandi: sobiq aktrisa bularni qaynatasining yuziga solib uyaltirgandi, cholning jahli chiqdi. Kryukova bularning janjaliga sababchi bo'lgisi kelmadi, bo'lganicha bo'laversin, menga nima, deganida ham bu ishida ilgarigiday tinch kun ko'rishi qiyin edi, shu vajdan ishni tashlab ketdi.

Bu voqea Kirsanov bilan ajralishganidan ikki yarim yilcha keyin bo'lgan edi. Bu vaqt ichida Kirsanov sira uchrashmadi. Avvaliga Kirsanov kelib uni ko'rib turdi. Lekin bu uchrashuv quvonchlari unga shu qadar yomon ta'sir qildiki, Kirsanov, xo'p desang kelishimni bas qilsam, yo'qsa o'zingga yomon bo'ladi, dedi. Kryukova shundan keyin yana ikki-uch oilada oqsochlik qilib ko'rdi; lekin hammasi juda sertashvish, serg'alva joylar edi, garchi tikuvchilik bilan shug'ullansa, kasalining tez zo'rayib ketishiga aqli yetsa ham bu oilalarda oqsochlik qilishdan tikuvchilik qilishi ma'qulroq edi: tashvish-g'alvalar ham baribir kasalni zo'raytirib yuborardi, shunday ekan, dilsiyohlikdan ko'ra bitta ishda ishlab, taqdiriga tan bergani yaxshiroq edi. Bir yil tikuvchilik qilgandi, juda mazasi qochib qoldi. Kryukova Vera Pavlovnaning ishxonasiga kirgandi, unda xonaki doktorlik qilib turgan Lopuxov Kryukovaning hech bo'lmaganda sil kasalini zo'raytirmaslik uchun qo'lidan kelgan hamma choralarni ko'rdi, ko'p harakat qildi, bemorning ahvolini sal-pal yaxshilash ham qiyinligiga qaramay, ko'p harakat qildi; lekin, baribir, kuni bitay deb qolgandi.

Kryukova so'nggi vaqtlargacha ham sil kasallar yanglishgani kabi, u ham kasalim hali uncha zo'raygani yo'q, deb o'ylab yurardi, shu sababdan, yana biron falokatga uchrab qolmay, deb Kirsanovni

qidirmasdi ham. Lekin ikki oylardan beri qancha umrim qoldi, deb Lopuxovdan hadeb so'roqlayverdi. Buni bilishining nima keragi borligini aytmasdi. Lopuxov ham jon shirinligidan, yashagisi kelganidan so'rayapti, degan xayolda xatar vaqti yaqinlashganini ochiq aytishga botinmadi, unga tasalli berib yuraverdi. Lekin Kryukovaning ko'ngli avvallaridek tinchimadi, faqat umrining oxirida quvonch bag'ishlashi mumkin bo'lgan yagona tilagini amalga oshirishdan o'zini tiyib yurdi; umri oz qolganini o'zi ham sezardi, his-tuyg'ulari ham shu fikriga ko'nikib qolgandi, shifokor bo'lsa o'zingizni ehtiyot qilishingiz kerak, deb ishontirishda davom etardi; o'zidan ko'ra shifokorga ko'proq ishonishi lozimligini o'zi ham bilardi, shu tufayli uning gapiga quloq solib, Kirsanovni qidirmasdi.

Bunday dudmallikning uzoqqa cho'zilishi mumkin emasdi, albatta; kuni yaqinlashgan sari Kryukovaning savollari ham qat'iyroq bo'lib borardi; yo anig'ini bilish juda zarurligini aytib, o'zi iltimos qilib qolishi mumkin, Lopuxov yo bo'lmasa Vera Pavlovna, hadeb so'rashidan biron muhim gap bo'lsa kerak, degan gumonga borishlari mumkin, shunday ekan, ikki-uch hafta yoki bir necha kun oldinmi, keyinmi, baribir, Kryukova Kirsanovni ishxonada to'satdan uchratib, oqibati nima bo'lgan bo'lsa, shu bo'ldi. Endi dudmallik ham osongina hal bo'ldi, jonga tegib savol beraverib hal qilmasdan, tasodifiy voqea tufayli hal bo'ldi-qo'ydi.

– Kelganingdan boshim osmonga yetdi! Sashenka, ko'pdan buyon senikiga bormoqchi bo'lib yurgandim, – dedi Kryukova o'zida yo'q xursand bo'lib, uni o'z xonasiga olib kirarkan.

– Nastenka, meni aytmaysizmi, men ham juda suyundim; endi bir-birimizdan sira ajralmaymiz; menikiga ko'chib bor, – dedi Kirsanov yuragi ezilib, shunday dedi-yu, darhol esiga tushib: «Nimaga bunday dedim? Xatar yaqinligini balki o'zi ham bilmas?» deb ko'nglidan o'tkazdi.

Lekin Kryukova bu payt yo gapning ma'nisiga tushunmadi, yoki tushungan bo'lsa ham ma'nisiga e'tibor berish xonasi emasdi, oshiq-ma'shuqlikning yana davom qilishidan suyunib, ajali yaqinligidan qayg'urib yurgani ham yodidan ko'tarildi, har holda, qattiq suyunganidan:

– Muncha ham mehribonsan, hali ham meni avvalgiday yaxshi ko'rarkansan-a, – dedi.

Lekin Kirsanov ketgach, Kryukova o'zini yig'idan to'xtatolmadi; oshiq-ma'shuqlikning ma'nisiga yo endi tushundi, yo bo'lmasa endi payqadi, bu uning «ehtiyot qiladigan joying qolmabdi, uni baribir ehtiyot qilib bo'lmaydi; har holda, xursand bo'lganing qoladi», degani edi.

Lekin Kryukova haqiqatan ham juda suyundi; Kirsanov gospitalda va Akademiyada bo'ladigan vaqtlaridan boshqa paytlarda uning yonidan bir daqiqa ham jilmadi; Kryukova bir oycha shunday umr ko'rdi; ikkovlari hamisha birga bo'ldilar, qanchadan qancha gaplashdilar, ayriliq chog'idagi sarguzashtlarini bir-birlariga gapirib berdilar, ilgari birga turgan vaqtlarini xotirlashib, rosa huzur qilishdi: birga sayr qilishdi, Kirsanov bir kolyaskani baylashib, har kuni kechqurunlari Peterburg atroflarini miriqib sayri tomosha qilishdi: inson ko'ziga tabiat shu qadar jozibaliki, Peterburg atroflari tibiati million va o'n millionlarga tushgan bo'lsa ham, bu ayanch va manfur tabiatni ko'rganda kishining bahr-dili ochiladi; ular kitob o'qishar, besh qarta, ba'zan loto ham o'ynashardi, Nastenka vaqti yetadiganday, hatto shaxmat o'ynashni ham o'rgana boshladi.

Vera Pavlovna sayrdan qaytgach, yarim tunga qadar ular bilan birga bo'lar, Kryukova yolg'iz o'zi qolgan paytlari unga ovunchoq bo'lish uchun ertalablari ham borar edi; ikkovlari yolg'iz qolganda Kryukovaning uzundan uzoq, ehtiros-la aytadigan gaplarining mazmuni bitta – Sashenkaning juda ham mehribonligi, muloyimligi, uni jonidan ham aziz bilishi haqida bo'lardi.

XVI

Oradan to'rt oycha o'tdi. Kryukovaga qilgan g'amxo'rliklari, so'ngra u haqdagi xotiralari bilan Kirsanov ovunib yurdi: nazarida Vera Pavlovna to'g'risidagi o'y-fikrlari xavf-xataridan qutulib olganday edi; Vera Pavlovna Kryukovani ko'rgani kelib u bilan uchrashgan va gaplashgan paytlarida, keyin uni ovutmoqchi bo'lganlarida ham undan o'zini olib qochmadi. To'g'ri, u g'am chekib yurganlarida Vera Pavlovna haqidagi sog'lom his-tuyg'ularida ham uning hamdardligi uchun do'stona minnatdorlik tuyg'usidan boshqa biron narsa his qilmasdi.

Lekin, kitobxon o'qigan sahifasidan keyingi sahifada gap nima to'g'rida ketishini hamma vaqt oldindan bilib turishi singari,

bu «lekin»ning ham ma'nisi nimaligini hozirdanoq biladi, lekin Kirsanovning Kryukova bilan ikkinchi marta uchrashganida unga nisbatan tuygan his-tuyg'usi aslo o'xshamasdi: Kirsanovning unga bo'lgan muhabbati allaqachon so'ngan; Kryukova bir vaqtlar suyukli xotini bo'lgani uchun ham unga nisbatan mehri tovlanib turardi xolos. Kirsanovning unga bo'lgan ilgarigi muhabbati, kim bo'lmasin, to'g'ri kelgan bittasini yaxshi ko'rib qolgan yosh yigitning sevgi tashnaligi edi xolos. Albatta, Kryukova uning tengi emasdi, chunki ular yetuklik jihatdan bir-birlariga mos emasdilar. Kirsanov yigitlik chog'idan o'tib, ulg'ayib qolganida, Kryukovaga uning nari borsa yuragi achishi mumkin edi xolos; ilgarigi kunlarini xotirlab, rahmi kelganidan unga muloyim muomala qilardi – vassalom. Uning ko'yida nadomat chekib yurgan vaqtlari ham, aslini aytganda, tez xotiridan ko'tarildi; lekin dard-alam chinakamiga tarqab ketganda ham u hamon shu g'am-g'ussa og'ushida yurgandek bo'lardi, g'am-g'ussadan xalos bo'lgan paytlari esa, bilsa uni faqat eslab qo'yar, Vera Pavlovna bilan munosabati bir joyga borib, bu munosabat boshiga katta falokat keltirishi ham mumkin ekan.

Vera Pavlovna uning ko'nglini olishga harakat qilar, Kirsanov esa uning ra'yiga qarar, o'zina xatardan xoli bilib yoki to'g'rirog'i, Vera Pavlovnani yaxshi ko'rishini esiga ham olmay, uning mehribonliklariga berilib, falokat sari borayotganini xayoliga ham keltirmay yuraverardi. Kirsanov Kryukova ko'yida g'am chekib yurgan vaqtlarida Vera Pavlovna uni ovutish payidan bo'lib, ikki-uch oy hamdardlik qilib yurishlarining oqibati nima bo'ldi? Agar shu vaqt ichida deyarli har kuni kechqurunlari yo Lopuxovlarnikida bo'lganini, yo Vera Pavlovnani biron joyga kuzatib borganini, ko'pincha bir o'zi kuzatib borganini aytmasa, boshqa hech gap bo'lgani yo'q. Bo'lgan gap shu. Lekin faqat uning uchun emas, Vera Pavlovna uchun ham shuning o'zi kifoya edi.

Keyingi paytlar Vera Pavlovnaning kunlari qanday o'tardi? Kun bo'yi ilgari qanday o'tsa, shunday o'tardi. Soat olti bo'lishi bilan yo bir o'zi ishxonasiga ketayotgan bo'lar yoki yolg'iz o'zi uyida ishlab o'tirar edi. Endi Vera Pavlovna kechqurun ishxonaga boradigan bo'lsa, bir kun ilgari Kirsanovga tayinlab qo'yishardi, u kelib Vera Pavlovnani kuzatib borardi. Ketishda ham, qaytishda ham

yo'l unchalik uzoq bo'lmasa ham odatda biror narsadan, ko'pincha, ishxonadan gaplashib borishardi: Kirsanov ishxona masalalarida Vera Pavlovnaning tinib-tinchimas yordamchisi edi. Ishxonada Vera Pavlovna uni qil, buni qil, deb buyruqlar berar, Kirsanovning ham ishi boshidan oshib yotar edi: o'ttiz nafar qizning ozmuncha yumushi bo'ladi deysizmi? Bu yumushlarni Kirsanovning bajarishi osonroq edi. Ish orasida bolalar bilan ezmalanishlar, dunyo ishlari ustida bo'ladigan bu suhbatlarga bir-ikkita qizlar ham aralashar edi. Suhbatlar arablarning «Ming bir kecha» ertaklarining ajoyib-g'aroyibligi-yu (bulardan ko'plarini allaqachon aytib bergandi ham), Hindistonda oq fillarni izzat-hurmat qilishlari, Rossiyada bo'lsa ko'p kishilar oq mushukni xush ko'rishlari, oq fillar, mushuklar, otlar – bular hammasi albinoslar[1], kasalmand jinslar ekani, ularning qora tanli kishilar singari sog'lom emasliklari ko'zlaridan ko'rinib turishi haqida bo'lardi, ulfatlarning yarmi oq mushuklarni ma'qul ko'rardi. «Bicher Stou xonim hayotiga oid biron tafsilotdan xabaringiz yo'qmi? Romanini o'zingiz hikoya qilib bergandingiz-ku?»[2] – dedi suhbatda qatnashayotgan katta qizlardan biri; yo'q, Kirsanovning hozir bundan xabari yo'q, lekin bilib keladi, o'zining ham bilgisi bor, hozir u Govard[3] to'g'risida ba'zi bir narsalarni hikoya qilib berishi mumkin. Govard ham Bicher Stou xonim toifasidagi odamlardan desa bo'ladi. Kirsanov ana shu zaylda goh hikoya qilar, goh ulfatlar bilan bahslashar edi. Suhbatda doim bir xil bolalar qatnashsa ham kattalar guruhi o'zgarib turardi. Vera Pavlovna ishlari bitgach, Kirsanov bilan choy vaqtida uyga qaytardi, choydan keyin uchovlari xiyla vaqt gaplashib o'tirishar edi; endi Vera Pavlovna bilan Dmitriy Sergeich Kirsanov bo'lmagan vaqtlardagidan ko'proq gaplashib o'tirishardi. Kechqurunlari faqat uchovlari birga bo'lganda deyarli har kuni bir soat, ikki soat musiqa chalib, qo'shiq aytishardi: Dmitriy Sergeich royal chalar, Vera Pavlovna qo'shiq aytar, Kirsanov eshitib o'tirardi; ba'zan Kirsanov

---

[1] Albinizm – pigment yetishmasligidan teri va sochlarning rangsizlanishi. Albinos – albinizm bilan kasallanish.

[2] Amerikalik ayol yozuvchi Bicher Stou (1812–1896)ning «Tom tog'aning kulbasi» degan romani.

[3] Jon Govard (1727–1790) – ingliz sherifi. U xayriya ishlari bilan nom chiqargan.

royal chalar, Dmitriy Sergeich esa xotini bilan qo'shiq aytardi. Lekin keyingi paytlar Vera Pavlovna kiyinib, yasan-tusan qilib olgach, operaga ulgurish uchun ishxonasidan shoshilib keladigan bo'lib qoldi; ular endi tez-tez operaga borib turishar, bir safar uchovlari borishsa, boshqa safar Kirsanovning o'zi Vera Pavlovna bilan borardi. Bundan tashqari, Lopuxovlarnikiga mehmonlar ham ko'p keladigan bo'lib qoldi; ilgarilari, agar yoshlarni hisobga olmasa, yoshlar ham mehmon bo'libdimi? Bu yoshlar ko'pincha jiyanlari bo'lardi, kelganda ham faqat Mersalovlar kelib turardi; endi Lopuxovlar o'zlariga o'xshagan durustgina ikki-uch oila bilan inoq bo'lib olishdi. Mersalovlar va yana ikki oila har hafta navbatma-navbat oqshomlari yig'ilishib olti juft, hatto sakkiz juft bo'lib raqs tushishar edi. Lopuxov operaga va tanishlarinikiga Kirsanovsiz bormaydi, desa bo'ladi, lekin Kirsanov Vera Pavlovnaga bunday sayrlar payti ko'pincha bir o'zi hamroh bo'lardi. Lopuxov palto kiyib olib divanda yolg'iz yotgim kelyapti, derdi. Shu sababdan bunday kechalarning yarmini uchovlari o'tkazishar, lekin keyingi xil kechalari esa hamma vaqt deyarli uchovlari birga bo'lishardi. Lopuxovlarnikida Kirsanovdan boshqa odam bo'lmaganda, u, ko'pincha, royal turgan zalda o'tirishdan ko'ra divanda yonboshlab yotishni ma'qul ko'rardi, hozir royal Vera Pavlovnaning xonasidan zalga olib chiqilgan, lekin buning ham Dmitriy Sergeichga nafi bo'lmadi, chorak soat, ko'p deganda yarim soatdan keyin Kirsanov bilan Vera Pavlovna ham royalni yig'ishtirib, divan yoniga kelib olishardi; aytgancha, Vera Pavlovna divan yonida uzoq o'tirmasdi; birozdan keyin divanga yonboshlab olardi, o'shanda ham eriga ancha joy qoldirardi; divan kattagina edi; lekin juda katta divanlardan bo'lgani uchun bir qo'li bilan erini quchoqlab olar, shu sababli eri ham, har holda, bemalolroq o'tirar edi.

Uch oycha, balki undan ham ko'proq vaqt shu zaylda o'tdi.

Shu kunlarda rohat-farog'at rasm emas, o'zim ham uni xush ko'rmayman, ya'ni sayr qilishni, sarsabilni xush ko'rmaganimday, uni ham yomon ko'raman, yomon ko'rsam men yomon ko'rarkanman, men bilan kimning ishi bor? Bir kishining hamma taomni, hamma o'yin-kulgini yoqtirishi mumkin emas-ku; lekin dilimga to'g'ri kelmaydigan bu narsalar asli juda yaxshi narsaligini, ularni ko'plar, ya'ni menga o'xshab shaxmatni sayrdan, nordon

karam bilan zig‘ir yog‘ini sarsabildan afzal ko‘ruvchi kishilarga qaraganda ko‘proq odamlar yoqtirishini yoki yoqtirib qolishi mumkinligini ham bilaman; shaxmatga o‘chligimni yoqtirmaydigan va nordon karam bilan zig‘ir yog‘i masalasidagi did-farosatimni jon deb noma’qulga chiqaradigan ko‘pchilik odamlarning didi ham menikidan yomon emasligini bilaman, shuning uchun mayli, dunyoda har xil sayri tomoshalar ko‘proq bo‘lsin, dunyoda sho‘r karam bilan zig‘ir yog‘i qolmasin, faqat menga o‘xshab ba’zi tentaklar uchun osori atiqa bo‘lib saqlanib qolsa bo‘lgani, deyman.

Yana shuni ham aniq bilamanki, mendan sira ham kam yeri yo‘q juda ko‘pchilik odamlar uchun baxt rohat-farog‘at tusini olishi kerak, shu sababdan men hayotda rohat-farog‘at hukmron bo‘lsin deb xitob qilaman. Rohat-farog‘atni xush ko‘rmaydigan bir to‘da tentaklar uchun boshqacha baxtiyorlik mavjud, lekin ko‘pchilikka rohat-farog‘at kerak. Hozir rohat-farog‘at rasm bo‘lmagan va odamlar uni xush ko‘rmagan ekan, butunlay inkor etish degan gap emas: bir masalda tulki uzumdan qanday hazar qilgan bo‘lsa, ular ham shunday hazar qilib turishibdi. Rohat-farog‘at ularning nazarida nasib bo‘lmaydigan narsaday, shu sababdan ular: «Rohat-farog‘at rasm bo‘lmay qo‘ya qolsin», degan gapni o‘ylab topishdi.

Lekin, rohat-farog‘at nasib bo‘lmaydigan narsa deyish nihoyatda bema’ni gap: u hammaga ham ma’qul bo‘ladigan va amalga oshadigan narsa; u barchaga barobar nasib etadigan, bir odamga va besh-o‘nta odamgagina emas, ko‘pchilikka nasib etadigan narsa.

Italyanlar operasi ham besh kishigagina atalgan emas, butun Peterburgga yetadigan, hamma ko‘rsa, eshitsa bo‘ladigan narsa; masalan, 1861-yili Moskvada nashr etilgan «N. V. Gogolning to‘la asarlar to‘plami» o‘n kishi uchun chiqishi mumkin emasdi, ammo xaloyiq uchun chiqarish mumkin, buning ustiga, arzon bo‘lishi ham ma’lum, albatta. Lekin butun shaharga yetadigan italyanlar operasi ham yo‘q ekan, musiqaga juda o‘ch ba’zi birovlar har xil konsertlar ko‘rib, ovunib tursa ham bo‘ladi; «O‘lik jonlar»ning 2-qismi hali butun xaloyiqqa atab chiqarilmagan ekan, Gogolga e’tiqodi zo‘r ba’zi odamlar ishdan qochmay, har biri o‘ziga uning qo‘lyozma nusxalarini tayyorlab olishdi. Qo‘lyozma qayoqda-yu, bosma kitob qayoqda, konsert qayoqda-yu, italyanlar operasi qayoqda, lekin har holda, yo‘g‘idan bori yaxshi.

XVII

Agar biron begona odam kelib, Kirsanov endi uyqudan ko'zini ochganda o'zini qanday mushkul ahvolda ko'rgan bo'lsa, shunday mushkul ahvol haqida undan maslahat so'rasa-yu, Kirsanov shu ishga aloqador shaxslarning hammasiga butunlay begona bo'lganda ham undan maslahat so'rab kelgan odamga bunday derdi: «Qochgan bilan foydasi yo'q, fursat qo'ldan ketgan; bu yog'i nima bo'lishini-ku, bilmayman, lekin qochib ketsangiz ham, qolsangiz ham, baribir go'r, tinchligi buzilmasin, deb siz g'amxo'rlik qilayotgan kishilaringiz uchun qochishingiz qolishingizdan ko'ra xavfliroq bo'lsa bo'larki, kam emas».

Albatta, Kirsanov faqat o'ziga yoki Lopuxovga o'xshagan irodasi mustahkam va juda halol kishiga shunday deyishi mumkin. Boshqa xil kishilar bilan bunday narsalar ustida bahslashib o'tirishdan foyda yo'q, chunki undaylar bu kabi masalalarda betamizlik va ablahlik qilishi turgan gap: ayol kishini uyatga qoldirishadi, o'zlari ham sharmanda bo'ladi, so'ngra ulfatlari orasiga borib, ko'rgan-kechirganlariga zorlanib yurishadi yo bo'lmasa zo'r olijanobligi, oshiq-ma'shuqligini maqtab kekkayishadi. Lopuxov ham, Kirsanov ham olijanob degan kishi qanday bo'lishi kerakligi ustida bunday odamlar bilan bahslashishni yomon ko'rishardi. Lekin Kirsanov o'zi tengi odamga, hozir qochib ketish qolishdan ham yomon, desa haq gapirgan bo'lardi. Agar shunday bo'lsa, uning ma'nisi mana bunday: «Qolsang, o'zingni qanday tutishingni bilaman: dardimni oshkor qilmayman demoqchisan, chunki qolsanggina ablahlik qilmagan bo'lasan. Gap shundaki, turmushi yaxshi o'tib turgan ayolning tinchligini mumkin qadar buzmaslik kerak. Aslida uning osoyishtaligini buzmaslik kerak edi, lekin endi, aftidan, buning iloji qolmagan. Unda hozirgi munosabatlariga to'g'ri kelmaydigan tuyg'u paydo bo'lgan ko'rinadi, ko'rinadi deyishning nima keragi bor, to'g'rirog'i, shubhasiz, paydo bo'lgan, deb qo'ya qolishda, faqat buni hali o'zi sezmaydi. Sen hech qanday da'vat qilmasang ham bu tuyg'usi o'ziga tez ayon bo'ladimi-yo'qmi, bunisi noma'lum. Lekin qorangni ko'rsatmay ketsang, bilginki, haligi tuyg'u yuzaga chiqadi. Demak, g'oyib bo'lishing sen yo'l qo'ymaslikka urinib yurgan voqeani tezlatadi xolos».

Lekin Kirsanov bu masalada begonalarday emas, balki ishtirokchiday mulohaza yuritdi. G‘oyib bo‘lish unga shu yerda qolishdan qiyinroq ko‘rindi; uning tuyg‘usi qolishga undadi, demak, qolishi – tuyg‘uga berilishi, shu tuyg‘uga ko‘nishi degan gap emasmi? So‘zimda ham, qarashlarimda ham sirimni boy bermayman, hech narsaga da’vat qilmayman, deb qat’iy ishonishga qanday haqi bor uning? Shu sababdan g‘oyib bo‘lib keta qolgani ma’qulroq. Aql-farosatning mayl safsatalaridan qanchalik umidvorligini farqlash oson gapmas, chunki vijdon, istak-xohishingga quloq solma, o‘shanda olijanoblik qilishingga ko‘proq ishonch bo‘ladi, deydi. Nazariy tildan oddiy tilga tarjima qilganda shunday: Kirsanov amal qiladigan nazariya olijanoblikka o‘xshagan bunday tumtaroq gaplarni dudmal, noaniq gap deb biladi, demak, Kirsanov o‘z terminologiyasini ishlatsa bunday degan bo‘lardi: «Har qanday odam ham xudbindir, shu jihatdan men ham; endi gap bunday, menga qaysi biri foydaliroq: g‘oyib bo‘lishmi yoki qolish? G‘oyib bo‘lsam, o‘zimdagi bir juz’iy tuyg‘uni yenggan bo‘laman; qolsam, shu bir tuyg‘u amriga quloq solib biron ahmoqona so‘z yoki ko‘z qarash-la insonlik sha’nimni tug‘yonga keltirishim mumkin. Ayrim tuyg‘uni yengish mumkin, shunda birozdan keyin tinchib qolaman, yana turmushimdan mamnun yuraveraman. Bordi-yu, o‘z insonlik tabiatimga qarish ish qilsam, tinchligimdan, o‘zimdan mamnunlik imkoniyatidan tamomila mahrum bo‘laman, butun hayotimni zaharlagan bo‘laman. Mendan ahvol so‘rasangiz, vinoni o‘lgudek yaxshi ko‘raman, oldimda bir qadah ajoyib vino turibdi, lekin bu vinoga zahar solingan degan shubham bor. Shubham o‘rinlimi, yo‘qmi – buni bilishdan ojizman. Shu qadahda turgan vinoni ichishim kerakmi yo og‘zimning suvini keltirmasin, deb uni to‘kib tashlashim lozimmi? Men qarorimni olijanob qaror deb ham, hatto vijdon amri deb ham aytmasligim kerak, bular juda balandparvoz gaplar. U qarorimni chamalab ko‘rib, aql bilan qilingan qaror, deb aytishim kerak xolos; qadahdagi sharobni to‘kib tashlayman. Shu bilan o‘zimni ba’zi huzur-halovatlardan mahrum qilaman, ko‘nglim biroz g‘ash bo‘ladi, lekin sog‘-salomat qolaman, ya’ni vinoning zaharlanmaganini aniq bilib, anchagacha ichib yuraverish imkoniyatiga ega bo‘laman. Ahmoqlik ko‘chasiga kirmayman, hamma menga ofarinlar aytadi».

XVIII

Qay taxlitda g'oyib bo'lish kerak? Ilgarigiday bahona, ya'ni nimadandir xafa bo'lganday fe'l-atvorimning biron bema'ni tomonini vaj qilib olish yaramaydi: bir bahona bilan ikki marta aldab bo'lmaydi; yana bir marta shunday qiliq qilsa birinchisining siri ochilib qoladi, u faqat yangi zamon qahramoni emas, ilgarigi qahramon bo'lib qolaveradi. Umuman, munosabatni to'satdan uzib qo'yish fikridan qaytish kerak; bu taxlit g'oyib bo'lish osonku-ya, lekin darrov sir ochilib, ko'zga tashlanib qolish mumkin-da, bunisi endi ablahlik, pastkashlik ham (Kirsanovning xudbinlik nazariyasiga ko'ra ahmoqlik – chamalab ko'rishni bilmaslik) bo'lardi. Shuning uchun juda oqilona va sermashaqqat bitta yo'li bor: bildirmasdan, sekin-asta chekinish qilish kerak, shunday qilish lozimki, u odamning g'oyib bo'lib ketayotganini ham sezmay qolishsin. Ancha og'ir va ancha ayyorlikni talab qiladigan ish bu: sendan ko'z uzmay tikilib turishganda qimirlayotganingni ham bildirmasdan asta g'oyib bo'lishing kerak, boshqa iloji yo'q ekan, shunday qilasan ham. Aytgancha, Kirsanovning nazariyasiga ko'ra, buning mashaqqatli joyi yo'q, hatto huzur qilasan kishi; ishing qancha qiyin bo'lsa-yu, uni qoyilmaqom qilib bajarsang, kuching va epchilligingdan (izzat-nafsingga qarab) shuncha xursand bo'lasan.

Rejasini chindan ham o'rniga qo'ydi: og'zidan na bironta dudmal gap, na bironta ortiqcha so'z chiqdi, biron nojo'ya qarash qilib sir boy bermadi; Vera Pavlovna bilan ilgarigiday bemalol gaplashdi, qiziqchilik qilib hazillashdi. O'zini u bilan birga bo'lishdan xursanddek ko'rsatdi: lekin har xil ishlari chiqib, Lopuxovlarnikiga tez-tez kelib turishi, butun kun ularnikida bo'lishi endilikda mumkin bo'lmay qoldi, xullas, shunday bo'ldiki, Lopuxov endi uning qo'lidan yoki ba'zan syurtugining yoqasidan ushlab, «yo'q, oshnam, bahsimiz ajrim bo'lmasdan hech qayoqqa ketkazmayman», deydigan bo'ldi, shu-shu Lopuxovlarnikida o'tirganda Kirsanovning tobora ko'proq vaqti oshnasining divanida o'tardi. Shunday zimdan, sezdirmay ish tutgani uchun o'zgarish bo'layotganligi hech bir bilinmadi. Biron ishi chiqib qolsa, Kirsanov uni bahona qilish u yoqda tursin, o'zi ham xafa bo'lganday achinib qo'ydi (o'shanda ham har zamon-har zamonda shunday qildi,

bo‘lmasa siri ochilib qolardi); ustiga-ustak, ishonsa bo‘ladigan, zarur ishlar chiqib turardi, ko‘pincha, Lopuxovlarning o‘zlari, bugun uyda bo‘laman, deb va’da bergansiz, falonchi-falonchilar kelmoqchi, degandingiz, tanishim sira qo‘ymadi, degandingiz, yodingizdan chiqarib qo‘yganingiz yo‘qmi, bora qoling, deb o‘zlari qistashardi... Yo bo‘lmasa, iye, unutibman-ku, bugun falonchinikiga bormasam xafa bo‘ladi, deb qolardi. Yo bo‘lmasa, ertalabgacha to‘rt soatlik ishim bor edi, xayolimdan ko‘tarilibdi, derdi; bunday vaqtlarda: «Sizga nima bo‘lgan, kechasi bilan mijja qoqmay ishlab chiqmoqchimisiz? Soat o‘n bo‘lib qoldi-ku, qani, hangomani yig‘ishtirib, jo‘nang endi, deyishardi. Kirsanovning ishlarini esiga solganlarida ham, ba’zan u quloq solmay, borgim yo‘q, jahli chiqsa chiqar, derdi, yo bo‘lmasa ish bo‘lsa qochmas, hali vaqt bor, bugun shu yerda o‘tirgim kelyapti, derdi. Ish degani ko‘payib ketdi: ilmiy ishlar ham kechalari bilan Kirsanovning vaqtini olardi, shunday paytlari ilmiy ishlarim ham juda jonimga tegdi, deb qo‘yardi (har zamon-har zamon til uchida shunday deb qo‘yardi), oshna-og‘aynilari ham tobora mahkamroq yopishib olishardi. Bular o‘zi (buni ham onda-sonda, nomiga gapirib qo‘yardi) juda qiziq odamlar-da, hol-jonimga qo‘yishmaydi-ya! Kirsanovga o‘zi shunday ko‘rinadi, buning sababi Lopuxovlarga ayon: Kirsanovning nomi chiqyapti, tobora ko‘proq kishilarning ishi tushadigan bo‘lib qoldi: ishdan qo‘l siltab bo‘larkanmi, yalqovligi qo‘zib chakki qiladi, o‘tgan oylarda juda ham ishyoqmas bo‘lib qoldi, ishdan ancha sovib qoldi-da, endi ishga qayta kirishib ketishi mushkulroq bo‘lib turibdi: «Oshnam, Aleksandr, o‘zingni qo‘lga ol». «Aleksandr Matveich, ayni vaqti-ya!»

Hiyla-nayrang ishlatish ham qiyin bo‘lib qoldi, chapga burilib gir aylanish, xuddi soat mili singari, sekin-asta, bir maromda aylanishlarni butun bir haftaga cho‘zish kerak bo‘lardi: milga qanchalik qattiq tikilmang, baribir uning aylanishini ko‘rolmaysiz, holbuki u tinimsiz harakatlanaveradi, ilgarigi holatidan olg‘a qarab harakatlanib boraveradi. Nazariyotchi Kirsanovning amaliyotdagi epchilligini ko‘rib o‘zidan o‘zi xursand bo‘lganini aytmaysizmi? Xudbinlar bilan materialistlar, aslini olganda, o‘z huzur-halovatlarini ko‘zlab ish qiladilar. Kirsanov ham qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, o‘z huzur-halovatimni ko‘zlab hiyla-nayrang ishlatyapman, deb aytsa bo‘ladi: ustaligiga, dovyurakligiga qoyil qolib suyunib yurardi.

Bir oy o‘tdi, balki ko‘proqdir, kim bilsin, biron kishi hisoblab yurgan bo‘lsa, shu oy yil badalida Lopuxovlar bilan yaqinligiga qilcha ham zarar yetgani yo‘q, ammo ularnikida o‘tkazadigan vaqti to‘rt hissacha, Vera Pavlovna bilan birgalikda o‘tkazadigan vaqt ulushining yarmi qisqardi. Oradan yana biron oy o‘tsa do‘stliklariga zarar yetmaydi-yu, lekin tobora kamroq ko‘rishadigan bo‘lib qolishadi, bu ham ko‘ngildagidek bo‘ladi.

Lopuxovning ko‘zlari juda o‘tkir-ku, nahot hech narsa payqamayotgan bo‘lsa?

– Yo‘q, hech narsa payqagani yo‘q.

Vera Pavlovna-chi? Vera Pavlovna ham hech narsa payqamayapti. O‘zida ham hech narsa sezmayaptimi? Vera Pavlovna o‘zida ham hech narsa sezmayapti; u tush ko‘ryapti xolos.

XIX

VERA PAVLOVNANING UCHINCHI TUSHI

Vera Pavlovna tush ko‘rgan emish:

Choydan keyin «sevgili»si bilan u yoq-bu yoqdan gaplashib, o‘z xonasiga kirib cho‘zilibdi, uxlamoqchi bo‘lib emas, hali erta ekan, endi soat sakkiz yarim, hali yechingani ham yo‘q, shunchaki kitob o‘qib yotgan ekan. Karavotida o‘qib yotgan ekan, kitob ko‘zidan g‘oyib bo‘lib, o‘ylab ketganmish: «Nega keyingi vaqtlar goho-goho yuragim siqilib, zerikadigan bo‘lib qoldim: yoki bu zerikishmas-u, shunchaki boshqa narsamikan? Yo‘q, yuragim siqilayotgani yo‘q, Kirsanov beparvoni aytmaysizmi, chiptaga kech ketdi: go‘yo Bozio[1] o‘ynaydigan kunlari soat o‘n birda borib ikki so‘mlik chipta topish maholligini bilmaganday qildi-ya. Uni ayblash ham insofdanmas, bechora soat beshgacha ish bilan band bo‘ldi, bo‘yniga olmagan bo‘lsa ham beshgacha ishlagan... ammo baribir aybdor. Bo‘ldi, bundan keyin yaxshisi chipta masalasini «sevgilim»dan iltimos qilaman, teatrga ham «sevgilim» bilan birga boraman: u meni hech vaqt chiptasiz qoldirmaydi; men bilan operaga jon deb boradi, azizimning o‘zi qandoq yoqimli. Ana shu

[1] Bozio – XIX asrning 50-yillarida Peterburg teatrida o‘ynagan mashhur italyan qo‘shiqchisi.

Kirsanovning kasriga «Traviata»dan mahrum bo'ldim, shu ham ish bo'ldimi! Har kuni opera qo'yilsa, biron yomon opera bo'lsa ham bosh rolda Bozio o'ynasa har oqshom bormay qo'ymasdim. Ovozim Bozioning ovoziga o'xshagan bo'lsa kun bo'yi ashula aytardim. U bilan tanishib olsam-chi? Qanday tanishsa bo'larkin? Anavi to'pchi Tamberlik[1] bilan qalin oshna-ku, o'sha orqali tanishsa bo'lmasmikin? Yo'q, mumkin emas. Topgan gapimni-yu! Bozio bilan tanishishning nima zarurati bor? Menga ashula aytib berarmidi? U ovozini ehtiyotlashi kerak.

Bozio ruschani qachon o'rganib ola qoldiykin? Aniq talaffuz qiladi-ya! So'zlarining g'alatiligini-chi, bunaqa bemaza-bematra she'rlarni qaysi go'rdan topdiykin? U ham men o'qigan grammatikani o'qib, savodini chiqargan bo'lsa kerak: bu she'rlar o'sha grammatikada tinish belgilari qo'yishga misol tariqasida keltirilgan; grammatikada bunday she'rlarni misol keltirish befarosatlik-ku, tuzukroq she'r bo'lsa ham go'rga edi; she'r to'g'risida o'ylashning nima keragi bor, kuylashiga quloq solish kerak:

Kayf-u safo chog'in
Sen qo'ldan berma;
Yoshlik umringni sen
Ishqqa bag'ishla...[2]

So'zlari juda kulgili: «yoshlik» deganda ham, «umringni» deganda ham urg'usi noto'g'ri qo'yilgan! Lekin ovozini qarang, his-tuyg'usiga nima deysiz! Ovozi juda ochilibdi; ilgarigi ovoziga sira o'xshamaydi, ajab! Ovozining ochilgani nimadan ekan? U bilan qanday tanishishni bilmay yurgandim, o'zi ko'rgani kelibdi. Ko'nglimdagi orzumni qayoqdan bila qoldiykin?

– Meni qachonlardan beri chorlab yurarding-ku, – dermish Bozio, u ruscha gapirarmish.

– Men seni chorlabmanmi, Bozio? Sen bilan tanish emasman-ku, qanday qilib chorlayman? Lekin sen bilan diydor ko'rishganimga juda-juda xursandman, – dermish.

---

[1] T a m b e r l i k – italyan ashulachisi, XIX asrning ikkinchi yarmida Peterburgda bir necha marta gastrolda bo'lgan.

[2] M.I. Glinkaning A.S. Pushkinning «Adeli» she'riga yaratgan romansi.

Vera Pavlovna Bozioga qo'l cho'zish niyatida pashshaxonasini ochsa, ashulachi ayol kularmish, qarasa u Bozio emas, «Rigoletto»da lo'li qiz rolini o'ynovchi de-Merik emish, xaxolab kulishlari de-Merik emish-u, ovozi Bozioniki emish, pashshaxona orqasiga yashiringanmish; Vera Pavlovna pashshaxona to'sib turganidan xafa emish, bu pashshaxona ilgari yo'q edi-ku, qayoqdan paydo bo'lib qoldi, dermish.

– Nega huzuringga kelganimni bilasanmi? – deb xaxolab kularmish, u ayol de-Merikka o'xsharmish-u, lekin Bozio emish.

– Kimsan o'zing? Sen de-Merik emassan-ku?

– Yo'q.

– Sen Boziosan-ku?

Ashulachi ayol xaxolab kularmish:

– Yaqinda bilib olasan; senikiga bir ish bilan keldim, hozir shu ish bilan shug'ullanaylik. Birga o'tirib xotira daftaringni o'qib chiqmoqchiman, – dermish.

– Hech qanday xotira daftarim yo'q, hech qachon daftar tutgan emasman.

– Qara, anavi stolchada yotgan nima?

Vera Pavlovna qarasa, karavot yonidagi stolchada bir daftarcha yotganmish, ustida «V. P.ning xotira daftari» deb yozib qo'yilganmish. Bu daftar qayoqdan keldi? Vera Pavlovna daftarni qo'liga olib varaqlabdi, o'z qo'li bilan yozilganmish; qachon yozgan ekan?

– Oxirgi betini o'qi, – dermish Bozio.

Vera Pavlovna o'qisa: «Yana butun oqshomlari yolg'iz o'zim qolyapman. Hechqisi yo'q; shunga odatlanganman».

– Faqat shumi? – dermish Bozio.

– Shu.

– Yo'q, hammasini o'qimading.

– Boshqa hech narsa yozilmagan.

– Meni aldab bo'psan, – dermish mehmon, – mana bu nima? – pashshaxona tagidan birovning qo'li ko'rinib qolibdi. Juda chiroyli qo'l emish. Yo'q, bu chiroyli qo'l Bozioning qo'li emas, bo'lmasa nega bu qo'l pashshaxonani ochmasdan, parda orasidan uzatiladi?

Yangi mehmonning qo'li haligi sahifaga tekkan ekan, qo'l tekkan joylarda yangi satrlar paydo bo'lganmish, ilgari bu satrlar

yo‘q ekan. Mehmon: «O‘qi», deganmish. Vera Pavlovnaning yuragi orqasiga tortib ketibdi, u hali bu satrlarga qaramagan, ularda nimalar yozilgan, bilmasmish, lekin yuragi siqilib ketayotganmish. Yangi satrlarni o‘qigisi kelmasmish.

– O‘qi, – deb takrorlarmish mehmon xonim.

Vera Pavlovna o‘qibdi. «Yo‘q, endi bir o‘zim zerikyapman. Ilgari bunaqa zerikmasdim. Ilgari yolg‘izlikda nega zerikmasdim-u, endi zerikadigan bo‘lib qoldim?»

– Bundan oldingi betni och, – dermish mehmon.

Vera Pavlovna oldingi betni ochibdi. Unda: «Bu yilgi yoz fasli», deb yozilgan ekan. «Kim xotira daftariga shunday deb yozadi?» – deb o‘ylarmish Vera Pavlovna, 1855-yil, iyun yoki iyul deyish, kunini ham yozib qo‘yish kerak edi, bunda bu yilgi yoz fasli, deyilgan: kim xotira daftariga shunday yozadi? «Bu yilgi yoz fasli. Odatdagidek shahar tashqarisiga, Orollarga chiqib turamiz; bu gal «sevgilim» ham biz bilan birga boradi: bundan biram xursandmanki». Iye, avgust-ku, qaysi sana ekan? Avgustning o‘n beshimi yo o‘n ikkinchisimi? O‘n beshinchilari bo‘lsa kerak, huv anavi gal borganimiz, shundan qaytganimizda, sho‘rlik «sevgilim» kasal bo‘lib qolgandi, deb o‘ylarmish Vera Pavlovna.

– Hammasi shumi?

– Hammasi shu.

– Yo‘q, hammasini o‘qimayapsan. Bunisi-chi, bu nima? – mehmon xonim shunday dermish-u, yana parda orasidan haligi chiroyli qo‘l kelib daftar sahifalariga tegarmish, Vera Pavlovna beixtiyor: «Nega «sevgilim» bizni tez-tez kuzatib qo‘ymaydi?» – degan yangi so‘zlarni o‘qirmish.

– Yana bir varaq och, – dermish mehmon xonim.

«Sevgilim»ning ishi boshidan oshib yotibdi: u meni deb ishlagani ishlagan». Javobi ham topildi, deb xursand bo‘larmish Vera Pavlovna.

– Yana bir varaq och.

«Bu talabalar qanchalar sofdil, olijanob kishilar-a, ular sevgilimni juda hurmat qilishadi. Ular bilan mening ham vaqtim chog‘ bo‘ladi: xuddi aka-ukadaymiz, bir-birimizdan tortinmaymiz».

– Hammasi shumi?

– Hammasi shu.

– Yo‘q, davomini o‘qi. – Yana haligi qo‘l kelib, sahifalarga tegarmish, yana yangi-yangi satrlar paydo bo‘larmish. Vera Pavlovna yana beixtiyor yangi-yangi satrlarni o‘qirmish:

«16-avgust – ya’ni Orollarga borib kelgan kunimizning ertasi, sayr qilgan kunimiz o‘n beshinchi edi, – deya o‘ylarmish Vera Pavlovna. – «Sevgilim» kun bo‘yi haligi Raxmetov bilan, yo bo‘lmasa, hamma qiziqchilik qilib rigorist deb ataydigan kishi va uning boshqa o‘rtoqlari bilan suhbatlashib yurdi. Chorak soatdan ko‘proq yonimda bo‘ldi, yo‘q, to‘g‘ri emas, yarim soatdan ko‘proq deb o‘ylayman, bu aniq, – dermish Vera Pavlovna. – Qayiqda yonma-yon o‘tirgan vaqtimiz bu hisobga kirmaydi. 17-avgust. Kecha kechqurun talabalar kelib tuni bilan o‘tirishdi, sevgilimning tobi qochgan kundan oldingi kuni edi, sevgilim tong otguncha talabalar bilan gaplashib o‘tirdi. Nega ularga shuncha ko‘p vaqtini beradi-yu, menga qolganda vaqtini ayaydi? Hamisha ish bilan band emas-ku, o‘zi bo‘sh vaqtlarim bo‘ladi, dam olmasdan ishlab bo‘larkanmi, ko‘p dam olaman, orom olay, deb biron narsani o‘ylab o‘tiraman, deydi-ku, nega yolg‘iz o‘zi o‘ylaydi, nega men bilan birga o‘ylamaydi?»

– Yana bir varaq och.

«Shu yilning iyuli, sevgilim betob bo‘lishiga qadar shu yil hamma oylar shunday bo‘ldi, o‘tgan yil ham, ilgarilari ham shunday edi. Besh kun burun talabalar kelib ketishgan edi; kecha ham kelishdi. Ular bilan rosa sho‘xlik qildim, xo‘p kulishdik. Erta yoki indin yana kelishadi, yana xo‘p o‘ynab-kulamiz».

– Hammasi shumi?

– Hammasi shu.

– Yo‘q, davomini o‘qi. – Yana qo‘l paydo bo‘lib, sahifalarga tegarmish, yana qo‘l tekkan joyda yangi-yangi satrlar paydo bo‘lib qolarmish. Vera Pavlovna yana beixtiyor shularni o‘qirmish:

«Shu yilning boshidan, ayniqsa, bahor oxirlaridan. Ilgari talabalar bilan vaqtim chog‘ o‘tardi, ha, vaqtim chog‘ bo‘lardi, xolos. Endi ko‘pincha: bular bolalikda o‘ynaydigan o‘yin-ku; ancha vaqtgacha eslab yursam kerak, keksayganimda ham g‘alati ko‘rinsa kerak, bunday o‘yinlarga aralashishdan yoshim o‘tib qolganda bolaligimni eslatadigan o‘yinlarni tomosha qilib o‘tirsam ajabmas. Hozir ham bu talabalarni ukalarimday bilaman, endilikda jiddiy o‘y-fikrlar va mehnatdan toliqib dam olgim kelgan kezlari hamma vaqt

ham bir paytlardagi Verochkaga aylanib qolishni istayvermayman. Axir, men endi Vera Pavlovnaman; Verochkaga o'xshab o'yin-kulgi qilishning ham vaqti-soati bor, o'yin-kulgi ham evi bilan-da. Vera Pavlovnaning ko'ngli ba'zan ana shu Vera Pavlovna holida vaqtichog'likni qo'msab qoladi. Buni hayotda teng-tengi bilan deydilar.

– Yana orqaga bir necha sahifa varaqla.

«Yaqin kunlarda tikuvchilik ishxonasi ochmoqchiman, buyurtma so'rab Jyulining yoniga bordim. Sevgilim ham ketimdan kirib bordi. Jyuli bizni ovqatga olib qoldi, shampanskiy buyurib, meni qistab ikki stakan ichirdi. Ikkalamiz qo'shiq boshladik, shovqin-suron qilib uyni boshimizga ko'tardik, kurash tushdik. O'lguday sho'xlik qildim. Sevgilim kulib o'tiraverdi.

– Hammasi shu ekanmi? – dedi mehmon xonim, uning qo'li tekkan joyda yana yangi-yangi so'zlar paydo bo'la boshladi, Vera Pavlovna ularni yana beixtiyor o'qidi:

«Sevgilim kulib o'tiraverdi. Bizga qo'shilib u ham biroz o'ynab-kulsa nima qilardi? Yana ham quvonchliroq bo'lardi. Buning biron noqulay yeri bormi yo u qovushmay qolarmidi? Hech bir noqulayligi yo'q, qovushardi. Uning fe'li o'zi shunaqa. Bilgani shu, xalaqit bermay, deydi, ma'qullaydi, suyunadi – bo'lgan-turgani shu».

– Yana oldinga qarab bir varaq och.

«Bugun erga chiqqanimdan buyon birinchi marta sevgilim bilan birga ota-onamni borib ko'rdik. Erga chiqqunimga qadar meni xo'rlab, bo'g'ib yotgan hayotni qayta ko'rganimda yana yuragim ezilib ketdi. Azizim! Meni u qanday jirkanch hayotdan xalos qildi! Kechasi yomon bir tush ko'rdim; onam, ko'rnamaklik qilding, deb mendan o'pkalanganmish-da, bir haq gapni aytganmish, shu qadar dahshatli haqiqatni gapirganmishki, bundan faryod chekib yig'lab yuboribman. Azizim faryodimni eshitib, xonamga kiribdi, qarasa, ashula aytayotganmishman (hali ham tushimda), chunki sevikli go'zal xonim kelib meni ovutgan emish. Azizim xizmatlarimni qilib yurarmish. Juda uyalib ketdim. O'zi juda kamtar odam, faqat yelkamdan o'pib qo'ydi».

– Faqat shu yozilgan ekanmi? Meni aldab bo'psan, o'qi... – Yana mehmon xonimning qo'li tekkan joyda yangi so'zlar paydo bo'libdi. Vera Pavlovna ham beixtiyor ularni o'qibdi:

«Kishining ko'ngliga biroz og'ir botarkan».

– Yana bir necha sahifa orqaga qarab varaqla.

«Bugun men do'stim D.ni Yangi ko'prik yonidagi xiyobonda kutdim: men murabbiyalikka kirmoqchi bo'lgan xonimning uyi shu yerda. Xonim rozi bo'lmadi. Uyga D. bilan juda xafa bo'lib qaytdik. Tushlik oldidan xonamda, bu kunimdan o'lganim yaxshi, degan xayollarga bordim. Ovqat vaqtida D. to'satdan: «Vera Pavlovna, qallig'im bilan kuyovingiz sog'lig'iga qadah ko'taraylik», dedi. Kutilmaganda erkinlikka chiqqanim uchun suyunganimdan o'zimni yig'idan bazo'r tutib qoldim. Ovqatdan keyin qanday turmush qurishimiz haqida D. bilan uzoq gaplashdik. Uni muncha ham yaxshi ko'rmasam: u meni zindondan ozod qilyapti».

– Hammasini o'qisang-chi.

– Hech narsa qolgani yo'q.

– Qarab ko'r-chi. – Yana mehmon xonimning qo'li tekkan joyda yangi-yangi satrlar paydo bo'lganmish.

– O'qigim yo'q, – dedi Vera Pavlovna qo'rquvdan titrab; yangi satrlarda nimalar yozilganidan xabari bo'lmasa ham o'qimasdanoq dahshatga tusha boshlagan emish.

– Men buyurgandan keyin o'qimay ko'r-chi, o'qi!

Vera Pavlovna o'qibdi:

«Uni nahotki meni zindondan ozod qilayotgani uchun yaxshi ko'rsam? Uning o'zini emas, zindondan ozod bo'lishimni yaxshi ko'ramanmi?»

– Yana orqaga varaqlab, eng birinchi sahifani o'qi. «Tug'ilgan kunim, bugun D. bilan birinchi marta gaplashdim, gaplashdim-u, yaxshi ko'rib qoldim. Hali hech kimdan tasalli beruvchi bunday ajoyib gaplarni eshitmagandim. Shafqatga muhtojlarning hammasiga shafqat qilmoqchi, yordamga muhtojlarga yordam bermoqchi; kishilarning baxt-saodatli bo'lishi mumkin, shunday bo'lishi kerak, qabohat va g'am-g'ussa abadiy emas, biz tomon yangi, porloq hayot kelyapti, deydi qat'iy ishonch bilan. O'qimishli, jiddiy bir odam shu gaplarni dadil aytganini eshitganimda qalbim quvonchga to'ldi; chunki u men o'ylab yurgan fikrlarimni tasdiqladi... Sho'rlik ayollar to'g'risida mehribonlarcha gapirgan gaplarini aytmaysizmi. Bunday erkakni har qanday ayol ham yaxshi ko'rishi mumkin. Qanchalar dono, olijanob, mehribon zot!»

– Juda yaxshi. Yana so‘nggi sahifani och.

– Bu sahifani o‘qiganman-ku.

– Yo‘q, bu hali so‘nggi sahifa emas. Yana bir varaq och.

– Bu sahifada hech narsa yo‘q.

– O‘qisang-chi! Ko‘ryapsanmi, bu sahifada juda ko‘p narsalar yozilgan. – Mehmon xonimning qo‘li tegsa yana yo‘q satrlar paydo bo‘larmish.

Vera Pavlovnani sovuq ter bosib ketganmish.

– O‘qigim kelmayapti, o‘qiy olmayman.

– Buyuraman! O‘qishing kerak.

– O‘qiy olmayman, xohlamayman ham.

– Bo‘lmasa, nima yozilganini senga men o‘qib beraman. Tingla: «Olijanob yigit, xaloskorim. Lekin olijanoblik tufayli unga hurmat, ishonch bildirasan, hamjihatlikka tayyor turasan, uni o‘zingga do‘st bilasan, xaloskorga minnatdorchilik bildirasan, vafodor bo‘lasan. Vassalom. U tabiatan balki mendan ham jo‘shqin odamdir. Qoni qaynab turganda erkalatishlari biram haroratliki. Lekin kishida boshqa ehtiyoj ham bo‘ladi, ko‘ngil dildoring bag‘rida uzoq, osuda orom ham tilab turadi. Shularni u bilarmikin? Tabiatimiz, ehtiyojimiz bir-biriga monandmikin? Meni deb o‘limdan ham qaytmaydi, men ham uning uchun jon fido qilishga tayyorman. Lekin shu kifoyami? Uning fikr-zikri mendami? Erta-kech uni o‘ylaymanmi? Uni chin ko‘ngildan sevamanmi? Ilgarilari men butunlay osoyishta, nozik his-tuyg‘u nimaligini bilmasdan – yo‘q, mening his-tuyg‘um ungamas...»

– Ortiq eshitgim yo‘q! – Vera Pavlovna xotira daftarini g‘azab bilan uloqtirib yubordi. – Ichi qora! Ablah! Bu yerga nega kelding? Seni chaqirganim yo‘q, yo‘qol!

Mehmon xonim muloyimgina kulib qo‘ydi.

– Sen uni yaxshi ko‘rmaysan; bu so‘zlarni o‘z qo‘ling bilan yozgansan.

– Ming la’nat senga!

Vera Pavlovna shunday xitob qildi-yu, uyg‘onib ketdi, ko‘rgani faqat tush ekanini va uyg‘onganini anglamayoq o‘rnidan tura yugurib chiqib ketdi.

– Azizim, bag‘ringga ol, himoya qil! Dahshatli tush ko‘rib-man! – U erining pinjiga tiqildi. – Azizim, meni ovut, mehribonlik qil, himoya qil!

– Verochka, senga nima bo‘ldi? – eri uni quchoqladi. – Muncha titramasang. – Uni o‘pdi. – Ko‘zlaringda yosh, peshonangda sovuq ter. Jonginam, muzdek joydan oyoqyalang o‘tgansan; oyoqlaringni hozir quchib, silab isitib qo‘yaman.

– Meni ovut, ehtiyotla! Juda yomon tush ko‘ribman, seni yaxshi ko‘rmasmishman.

– Jonginam, mendan boshqa kimni ham yaxshi ko‘rarding? Behuda gaplar, nima qilsa ham tush-da.

– Ha, seni sevaman, meni quchib-erkalat, bag‘ringga bos, seni yaxshi ko‘raman, yaxshi ko‘rgim keladi.

Vera erini qattiq quchoqlab pinjiga kirib oldi, uning erkalatishlaridan tinchlanib o‘pa-o‘pa uxlab qoldi.

XX

Bugun ertalab Dmitriy Sergeich xotinini choyga chaqirmadi: xotini hali ham uning bag‘rida uxlab yotardi; eri bo‘lsa xotiniga termilib xayol surib o‘tirardi: «Unga nima bo‘ldi ekan, nimadan bunchalik qo‘rqdi ekan, bu qanaqa tush bo‘ldi?»

– Verochka, yotaver, choyni shu yerga keltiraman; turma, jonginam, suv olib kelaman, shu yerda yuvinasan.

– Xo‘p, turmayman, yotaveraman, juda yaxshi joy ekan. Azizim, juda aqlli ishlar qilasan-da, jon-tanim bilan yaxshi ko‘rib qoldim seni. Yuvinib bo‘ldim, endi choyni shu yerga keltira qol; yo‘q, shoshma, avval bir quchib qo‘ygin! – Vera Pavlovna erini uzoq vaqt quchib turdi. – Azizim, juda g‘alati xotinman-a! Yugurib yoningga kelganimni qara! Endi Masha nima deb o‘ylaydi? Yo‘q, bu yerda uxlab qolganimni unga bildirmaymiz. Kiyimlarimni shu yerga keltir. Meni ovut, erkalat, azizim, seni sevsam deyman, sevishim kerak. Ilgarigidan yuz chandon ziyoda sevgim bor!

Vera Pavlovnaning xonasi bo‘sh. Vera Pavlovna Mashadan yashirinib-netib o‘tirmay, erining xonasiga ko‘chib o‘tdi. «Azizim, muncha ham muloyim, muncha ham shirinsan, seni bunchalik sevishimni bilmas ekanman. O‘zim ham juda g‘alatiman-da!»

– Verochka, jonginam, endi tinchidingmi, o‘tgan kuni nima tush ko‘rganingni aytib bersang-chi?

– Ha, shunchaki bo‘lmag‘ur bir tush-da. Tushimda senga, nega meni erkalatmaysan, deganmishman. Hozir o‘zimga keldim. Nega

ilgaridan bunday birga turmasdik? Birga turganimizda bunday yaramas, dahshatli tush ko'rmasdim, esimga tushsa hali ham yuragim orqamga tortib ketadi!

– Shunday tush ko'rmaganingda hozirgiday turmasdik-da!

– Haq gapni aytasan; u yaramasdan minnatdorman: u yomon emas, yaxshi.

– «U» deganing kim? Ilgarigi go'zal xonimdan boshqa, yangi dugona ham topib oldingmi?

– Ha, yangi dugona topdim. Yonimga qandaydir bir ayol keldi, ovozi juda ajoyib, Bozioning ovozidan ham yaxshi, qo'llarini aytmaysanmi! Husniga qarab to'ymaysan! Faqat qo'lini ko'rdim xolos: o'zi pashshaxona orqasiga bekinib oldi, tushimda esa o'rnim yonida turganmish. Shu sababli u yerdan ko'chib o'tdim-da, yotog'imga pashshaxona tutilganmish, mehmon xonim pashshaxona orqasiga bekinib olgan emish; azizim, qo'llari biram chiroyliki! Ishq-muhabbatdan kuyladi, sevgi nimaligini menga ham tushuntirdi, bu narsani endi tushundim. Xo'p tentak ekanman, hech baloda yo'q bir qizaloq ekanmanda-a?

– Jonim, farishtam, har bir ishning o'z vaqti-soati bo'ladi. Ikkalamizning ilgarigi turmushimiz ham sevgi edi; hozirgi turmushimiz ham – sevgi; bir xil odamlar sevgining bir turini yoqtiradi, boshqalariga boshqa xil sevgi kerak: sen ilgari bir sevgidan mamnun eding, endi ko'ngling boshqasini tusaydi. Ha, do'stim, sen endi juvonsan, ilgari senga keragi bo'lmagan narsa endi zarur bo'lib qoldi.

Oradan bir hafta, ikki hafta o'tdi. Vera Pavlovna rohat-farog'atda yashamoqda. U eri uyda yo'q paytlarida yoki ishlab o'tirganda o'z xonasiga ham kirib turadi, yo'g'-e, eri ishlab o'tirganda ham ko'pincha uning kabinetida bo'ladi; xalaqit berishi mumkinligini sezsa, eri qunt bilan ishlab o'tirgan bo'lsa, xalal berishning nima keragi bor? Lekin bunday ish qayoqda deysiz, ilmiy ishlarining ko'pini osongina bajarib qo'yadi. Shu sababli vaqtining to'rtdan uch qismi mobaynida xotini yonida bo'ladi, bir-birlarini suyib, erkalatishadi. Bir ish qilish, erining divanidan kichikroq divan sotib olish kerak edi. Mana endi Vera Pavlovna tushlikdan keyin o'z divanida yonboshlab erkalanib yotadigan bo'ldi; eri bo'lsa divan yoniga kelib, xotiniga termilib o'tiradi.

– Azizim, nega hadeb qo‘limdan o‘pasan? Yoqtirmasligimni bilasan-ku.

– Shunday degin? Xafa bo‘layotganingni unutibman, mayli, xafa bo‘lsang bo‘la qol, o‘paveraman.

– Azizim, meni ikkinchi marta qutqarishing, yomon odamlardan qutqarding, o‘zimdan o‘zimni xalos qilding! Erkalat meni, azizim, erkalat!

Bir oy o‘tdi. Vera Pavlovna o‘z bo‘lmasida erining xonasida, ya’ni kabinetidagi kenggina yumshoq divanchasida tushlikdan keyin erkalanib yotardi. Eri kelib divanga o‘tirgandi, xotini uni quchgancha boshini erining ko‘ksiga qo‘yib, xayol surib ketdi: eri xotinini o‘padi, lekin xotini xayol surishini bas qilmaydi, ko‘zlarida yosh miltiraydi.

– Verochka, jonim, nega xayol surib qolding?

Vera Pavlovna jim yig‘laydi xolos. Yo‘q, ko‘z yoshlarini artib oldi.

– Qo‘y, azizim, erkalama meni! Yetar endi. Rahmat senga! – deydi-yu, eriga termiladi. – Rahmat senga mehribonliging uchun.

– Mehribonliging uchun rahmat deysanmi, Verochka? Bu nima deganing?

– Mehribonsan, azizim, mehribonsan.

Oradan yana ikki kun o‘tdi. Vera Pavlovna ovqatdan keyin yana erkalanib yotdi, yo‘q, endi erkalanmaydi, o‘z xonasida, o‘z karavotida faqat xayol suradi. Eri yonida uni quchoqlab o‘tiradi, eri ham xayol suradi.

«Yo‘q, bu to‘g‘ri emas. Menda xuddi ana shu narsadan yo‘qroq», deb o‘ylaydi Lopuxov.

U qanday mehribon, men esam ko‘rnamaklik qilyapman!» – deb o‘ylaydi Vera Pavlovna.

Ular ana shu xususda o‘ylashadi.

Xotini:

– Azizim, xonangga kirib ishla yoki damingni ol, – degisi keladi, ma’yusligini sezdirmay to‘g‘ridan to‘g‘ri aytadi-qo‘yadi.

– Nega yoningdan haydaysan, Verochka, menga shu yer ham yaxshi, – Lopuxov ham bemalol, tortinib-netib o‘tirmay quvonchla gapirgisi keladi, gapiradi ham.

– Yo‘q, azizim, xonangga bor. Men uchun shuncha mehribonliging ham kifoya. Kirib damingni ol.

Eri xotinini o‘padi, xotini xayol surishni bas qiladi, yana lazzatlanib, yengil nafas oladi.

– Rahmat senga, azizim, – deydi xotini.

Kirsanov esa juda xursand. Bu gal kurash qiyinroq bo‘ldi, lekin qiyin bo‘lsa ham bu kurash unga umrining oxirigacha ko‘ksini ilitib huzur-halovat bag‘ishladi. Ha, u halol yigit. Bu kurash ularni bir-biriga yaqinlashtirdi. Chinakamiga yaqinlashtirdi. Kirsanov divanda papiros chekib yotgan ko‘yi fikrga toldi: «Halol bo‘l, ya’ni rejali bo‘l, hisobdan adashma, bularning hammasini yodingda tut; summasi kissasidan katta ekanligini unutma, binobarin, insonlik tabiating sen uchun har bir istak-xohishingdan kuchliroq, muhimroq, agar ular biron vaqt bir-biriga zid kelsa, shu insonlik tabiating manfaatlarini alohida istak-xohishing manfaatlaridan afzal ko‘r – vassalom; buning ma’nisi: halol bo‘l – halol bo‘lsang ishing joyida bo‘ladi, degani. Tartib-qoida bitta, o‘zi ham juda oson gap, bugun ilm-fan natijasi shu, baxtli hayot qonunlari majmuasi shu. Bu oddiy qoidani tushunishga moyil bo‘lib tug‘ilganlar baxtiyor odamlar. Mening ham bu jihatdan ancha baxtim bor. Albatta, men tabiatimdan ko‘ra ko‘proq bilimimga minnatdorlik bildirishim lozimdir. Borib-borib bu narsa rivoj topib, butun tarbiyadan, butun hayot shart-sharoitidan kelib chiqadigan oddiy bir qoida bo‘lib qoladi. Ana shunda dunyodagi hamma odamlar hayoti menikiday yengil kechadi. Ha, nimasini aytay, men hayotimdan roziman. Ularni bir yo‘qlashim kerak: bormaganimga ham uch hafta bo‘ldi. Borgim yo‘q-ku, lekin hozir xonasida. Oyog‘im ham tortmay turibdi. Bugun-erta yarim soatga kirib chiqarman. Yoki yana biror oy sabr qilaymi? Iloji bor shekilli? Chekinish joyida bo‘ldi, hiyla-nayrang ham tugadi, ko‘zlaridan g‘oyib bo‘ldim, endi ularnikiga uch hafta bormadimmi, uch oymi, sezishmaydi ham. Halol munosabatda bo‘lgan odamlar to‘g‘risida olis-olislarda o‘ylab yurish ham huzur bag‘ishlar ekan kishiga. Maza qilib xotirjam dam olyapman».

Lopuxov esa ikki-uch kundan so‘ng, bu gal ham tushdan keyin xotinining xonasiga kirdi, Verochkasini dast ko‘tardi-da, o‘z xonasiga olib chiqib divanga yotqizdi va: «Azizim, shu yerda damingni ol», deb zavq bilan termilib o‘tirdi. Xotini jilmayib, mudray boshladi; eri yonida kitob o‘qib o‘tirdi. Xotini bir vaqt ko‘zini ochib, xayol sura boshladi:

«Xonasining saranjom-sarishtaligini qarang; zarur buyumlardan boshqa hech nima yo‘q. Ha, buning ham o‘ziga yarasha nozik tabiati bor: anavi katta bir quti sigarani o‘tgan yili men sovg‘a qilgandim, hali ham butun turibdi, navbat kutyapti. Birdan bir yaxshi ko‘rgan narsasi, noz-ne’mati – sigara. Yo‘q, anavi mo‘ysafidning fotosurati ham bor ekan, u ham xonaga fayz bag‘ishlab turibdi; uning yuzidan nur yog‘ilyapti, ko‘z qarashlari qanchalar beozor, ko‘rinishida qanchalar ma’no bor! Dmitriy bu fotosuratni osonlik bilan topgani yo‘q. Hech qayerda, hech kimda Ouenning[1] surati yo‘q. Uch bor xat yozdi, xat olganlardan ikkisi bu cholni topisholmagan, uchinchisi topgan-u, lekin fotosurati haqiqatan yaxshi chiqquncha cholni picha urintirgan, fotosuratni va «avliyo chol»ning (uni Dmitriy avliyo chol deb atardi) xatini olib Dmitriyning xursand bo‘lganini ko‘rsangiz edi, bu «avliyo chol» xatida, uning gapiga qaraganda, meni maqtab yozganmish. Yana bir hashami – mening portretim; yaxshi rassom chaqiraman, deb yarim yil pul yig‘ib yurdi, keyin shu yosh rassom bilan ikkovi meni toza qiynashdi. Xonada bor-yo‘g‘i ikki portret bor. Mening xonamdagi singari gravyura va fotosuratlar sotib olsa ko‘pga tusharmidi? Mening xonam gulga to‘la, unikida sira yo‘q; nega menga gul kerak ekan-u, unga keragi yo‘q? Men ayolman, shuning uchunmi? Bo‘lmagan gap! Yo o‘zi jiddiy, olim odam, shu vajdanmi? Kirsanovnikida gravyuralar ham, gullar ham bor-ku, u ham jiddiy olim-ku.

Nega u men bilan ko‘proq birga bo‘lsa zerikadi? Yonimda noiloj o‘tirishini o‘zim ham sezaman. Nahotki jiddiy va olim odamligidan shunday bo‘lsa? Axir, Kirsanov ham... yo‘q, yo‘q, u mehribon odam, meni deb nimalar qilmadi, meni deb har ishga tayyor! Meni yana boshqa kim ham shunchalar sevardi? Men ham uni sevaman, men ham unga jon fido qilishga tayyorman...»

– Verochka, jonginam, ko‘zing ilingani yo‘qmi?

– Azizim, nega xonangda gul o‘stirmaysan?

– Jonginam, xo‘p, gul o‘stirganim bo‘lsin. Ertagayoq gul bo‘ladi. Uyda gul parvarishlash fazilati haqida o‘ylash esimga kelmabdi. Gul o‘stirish juda yaxshi ish-da.

– Yana bir narsani iltimos qilmoqchiman: har xil fotosuratlar sotib ol, yoki yaxshisi, men o‘z pulimga suratlar ham, gullar ham olib bera qolay.

---

[1] Robert Ouen (1771–1858) – ingliz faylasufi.

– Qani endi, ko‘nglimdagi ish bo‘lardi-da. Gul, fotosuratlarni o‘zim ham yaxshi ko‘ramanku-ya, lekin sen olib bersang nur ustiga a’lo nur bo‘lardi-da. Verochka, ko‘p xayol surding, tushingni o‘ylab yotganding. Iltimos, seni bunchalar dahshatga solgan tushingni batafsilroq gapirib ber, deb iltimos qilsam maylimi?

– Azizim, uni esimdan chiqardim. Qayta esimga tushsa, hali ham yuragim zirillab ketadi.

– Verochka, tushingdan xabardor bo‘lsam, nafi tegarmidi, deyman.

– Ixtiyoring, azizim. Tushimda, operaga bormay Bozioni o‘ylab yurganimdan yuragim siqilganmish: yonimga bir xonim kelganmish, uni avval Bozio deb o‘ylabman, u hadeb mendan yashirinarmish; o‘sha ayol meni qo‘yarda-qo‘ymay xotira daftarimni o‘qitdi; unda yozilgan narsalarning hammasi ikkalamizning sevgimiz haqidagi gaplar emish, u qo‘l tegizgan sahifalarda yangi-yangi so‘zlar paydo bo‘lib qolarmish, unda seni yaxshi ko‘rmayman, deb yozganmishman.

– Do‘stim, kechirasan, sendan yana bir narsani so‘ramoqchiman: bu gaplarni faqat tushingda ko‘rdingmi?

– Jonim, faqat tushimda ko‘rmaganimda senga aytgan bo‘lmasmidim? Axir, tush ko‘rganimda o‘sha zahotiyoq senga aytdim-ku.

Bu so‘zlarni u shu qadar nazokatli, yurakdan, soddalarcha aytdiki, bundan Lopuxov qalbida shirin, haroratli tuyg‘ular jo‘sh urdi; ha, bu baxtiyorlikni u bir umr esdan chiqarmaydigan bo‘ldi. Afsuski, bunday his-tuyg‘ular ozgina, juda kamdan kam erlarga muyassar bo‘ladi! Baxtiyor sevgi lazzatlari bu yanglig‘ his-tuyg‘ular oldida hech gapmas: bu tuyg‘u inson ko‘nglini yayratib, unga muqaddas g‘urur bag‘ishlaydi, insonning boshi osmonga yetadi. Vera Pavlovnaning xiyla ma’yuslik bilan aytgan gaplarida ta’na bor edi; ta’nasining ma’nisi esa bunday edi: «Do‘stim, nahotki mening to‘la ishonchimni qozonganingni bilmasang?! Xotin zoti dilidagi gaplarini eridan sir tutishi kerak: er-xotin o‘rtasidagi munosabatning o‘zi shunday. Lekin sen, azizim, o‘zingni shunday tutdingki, sendan yashiradigan hech narsa qolmadi, ko‘nglimdagi gaplar o‘zimga qanday ayon bo‘lsa, senga ham shunday ayon». Er deganning zo‘r xizmati bu; bunday yuksak mukofot juda buyuk ma’naviy fazilat egasigagina muyassar bo‘ladi; bunday fazilat egasi o‘zini bekam-u

ko‘st olijanob odam deb hisoblashga haqi bor. U kishi, vijdonim pok va hamisha pokligicha qoladi, jasoratim hamisha menga yor bo‘ladi, boshimga har qancha mushkul ish tushganda ham hamma vaqt o‘zimni xotirjam, dadil tutaman, taqdir hech vaqt qalbimga hokimlik qilolmaydi, deb ko‘ngli to‘q yurishi mumkin, bunday odam shu buyuk sharafga sazovor bo‘lgan paytdan to umrining oxirigacha, har qanday zarbaga uchraganda ham o‘z insonlik qadr-qimmatini saqlab, o‘zini baxtiyor his qiladi. Biz Lopuxovni hissiyotga beriluvchi, ko‘ngli bo‘sh odam emasligini yaxshi bilamiz, buni ko‘rib turibmiz ham, lekin xotinining haligi gaplari unga shunchalik ta’sir etdiki, bundan yuz-ko‘zlari olov bo‘lib yondi.

– Verochka, do‘stim, menga ta’na qilding, – umrida ovozi ikkinchi va oxirgi marta titrab ketdi; birinchi marta, jumboqni topdim, degan faraziga o‘zi shubhalanganida shunday bo‘lgandi, endi suyunganidan titradi, ta’na qilding, lekin bu ta’nang jami izhori sevgi gaplaringdan ham lazzatli. Senga savol berib ko‘nglingni ranjitgandim, lekin bema’ni savolim tufayli ta’naga o‘zim qolganimdan baxtiyorman! Qara, ko‘zlarimda yosh, bolaligimdan buyon umrimda ko‘zimga birinchi yosh kelishi!

Lopuxov butun oqshom xotinidan ko‘z uzmadi, xotinining xayoliga esa biron marta bu mehribonliklari zo‘rma-zo‘rakiga o‘xshaydi, degan fikr kelmadi, xullas, bu oqshom uning umrida, har holda, shu vaqtgacha bo‘lgan eng baxtli oqshomlardan biri bo‘lib qoldi; sizga bu gaplarni hikoya qilayotgan vaqtdan bir necha yil o‘tgach, uning naqadar baxtli kunlari, oylari, yillari ko‘p bo‘ladi: bolalari o‘sib-ulg‘ayib, baxt-saodatga munosib avlod bo‘lib yetishganda shunday kunlar keladi. Bu shodlik boshqa har qanday shaxsiy shod-xurramlikdan afzaldir; boshqa shaxslar hayotida bir zumda o‘tib ketadigan kamdan kam uchrovchi xurramlik uning kundalik oddiy xursandchiligiga aylanadi. Lekin bu hali uning kelajagida bo‘ladigan narsa.

XXI

Lopuxov tizzasida uxlab qolgan xotinini divanga oborib yotqizgandan keyin yana uning tushini o‘ylab ketdi. Gap xotini uni yaxshi ko‘rish-ko‘rmasligida emas; bu xotinining ishi, bu

masalada xotinining ixtiyori o‘zida emas, o‘zining izmi ham o‘zida emas, bunga aqli yetib turibdi; bular o‘z-o‘zidan hal bo‘lib ketishi mumkin, bu bo‘sh vaqtlarida o‘ylaydigan gap emas; xotini uni sevmasligini qaysi munosabatlaridan sezib qoldi, hozir u ana shuni bilib olishi kerak.

Bu masala ustida birinchi marta xayol surib o‘tirishi emas; xotinining mehr-muhabbatidan mahrum bo‘lishiga bir necha kundan buyon ko‘zi yetib yuribdi. Bu og‘ir musibat, lekin iloji qancha? Fe’l-atvorini o‘zgartirish qo‘lidan kelsa edi, xotinining ko‘ngli tusagan latofat va nazokatga u ham ko‘ngil qo‘ysa edi, o, qani endi, unda butunlay boshqa olam bo‘lardi. Lekin harakati behudaligiga ko‘zi yetdi. Agar mayl-havas tug‘ma bo‘lmasa yoki kishining o‘z istak-xohishlaridan qat’i nazar, u hayotda tobiga yetkazilmasa, inson o‘z irodasi bilan bunday mayl-havas yaratolmaydi, mayl yo‘q yerda ko‘ngildagiday biron ish qilish ham mumkin emas. Demak, uning masalasi hal. Ilgarigi xayol surishlarida shu qarorga kelib qo‘ygan edi. Endi, o‘zi to‘g‘risidagi fikr-o‘ylarini tugatgandan keyin (doimo avval o‘zini o‘ylab, o‘ylaydigan narsasi qolmagandan keyingina boshqalarni o‘ylaydigan xudbinlar singari), boshqa birovning, ya’ni xotinining uy-xayollari masalasiga ko‘chdi. Xotini uchun nima qilishi mumkin? Nima bo‘layotganini xotini hali o‘zi ham bilmaydi, u hali erichalik qalb azobini tortgani yo‘q; bu tabiiy bir hol: xotini o‘zidan to‘rt yosh kichik, yosh jihatidan to‘rt yilning ahamiyati juda katta. Hali xotini bilmaydigan narsaga tajribaliroq erining aqli yetmasmikin? Tush ta’biri qanday?

Oradan ko‘p o‘tmay Lopuxov: xotinimning bunday fikr-xayollarga borishining sababi ko‘rgan tushidir; tushining mazmuniga esa biron-bir aloqador masala asos bo‘lgan bo‘lsa kerak, deb taxmin qildi. Operaga bormaganim uchun zerikib qoldim, deydi. Lopuxov o‘zi va xotinining turmush tarzini birma-bir xayolidan kechirdi, hamma narsa asta-sekin oydinlashdi. Xotini bo‘sh vaqtlarida, ko‘pincha, eri singari yolg‘iz qolardi. So‘ngra o‘zgarish boshlandi; xotinining vaqti doim o‘yin-kulgi bilan o‘tadigan bo‘ldi. Hozir yana ilgarigi ahvol qaytariladigan bo‘lib qoldi. Xotini esa bu narsaga beparvo qaray olmasdi: bu ishlar uning tabiatiga to‘g‘ri kelmasdi, ko‘pchilik odamlarning tabiatiga ham bu narsa mos emasdi. Buning aytarlik biron siri ham yo‘q. Hamma

urinishing, Lopuxovning materialistik nazariyasiga muvofiq, kuch jihatdan taxminan to'rt stakan quyuq qahvaga baravar kelarkan, Lopuxovga to'rt stakan quyuq qahvaga qarshi bir dona hap dori kamlik, uch donasi ko'plik qilardi. U shularni taqqoslab jilmaya-jilmaya uxlab qoldi.

XXII
NAZARIY SUHBAT

Ertasiga Kirsanov gospitaldan qaytib kelgach, kechroq ovqatlandi-da, sigara chekib, dam olish niyatida cho'zilgandi, Lopuxov kirib keldi.

– Aytmagan joyga yo'nmagan tayoq, – dedi Lopuxov hazillashib, lekin gapi hazilga unchalik o'xshamadi. – Aleksandr, seni biroz bezovta qilaman; boshqa ilojing ham yo'q, biroz bezovta bo'lasan. Sen bilan jiddiy gaplashib olishim lozim. Barvaqtroq kelmoqchi edim, uxlab qolibman, seni uchrata olmasdim ham. – Lopuxov endi hazilni yig'ishtirdi. «Bu nimasi? Fahmlab qoldimikin?» – deb o'yladi Kirsanov. – Qani, bir gaplashib olaylik, – so'zini davom ettirdi Lopuxov o'tirarkan. – Qani, ko'zimga qara-chi.

«Ha, shu haqda gaplashmoqchi, bu turgan gap».

– Menga qara, Dmitriy, – dedi Kirsanov yanada jiddiyroq ohangda. – Ikkalamiz do'stmiz. Lekin dunyoda shunday narsalar borki, do'stlar ham unga yo'l qo'ymasligi kerak. Iltimos, bu gapingni bas qilsang. Hozir jiddiy gapga tobim yo'q. Hech mahal tobim bo'lmaydi. – Kirsanov niyati yomon odamga duch kelganday, adovat bilan tikilardi.

– Aleksandr, gapirmaslikning iloji yo'q, – deb gapini davom ettirdi Lopuxov vazmin, biroz bo'g'ilibroq, – nayranglaringni tushundim.

– Jim. Meni o'zingga umrbod dushman qilib olmay desang, meni ilgarigiday hurmat qilsin desang, bu haqda gapirma, bas qil.

– Sen o'zing bir vaqtlar hurmat qilish-qilmasligim bilan ishing bo'lmay qolgandi, esingdami? Hozir hamma gap ravshan bo'ldi. Men u vaqtda e'tibor qilmagan ekanman.

– Dmitriy, iltimos qilaman, chiqib ket, bo‘lmasa men chiqib ketaman.

– Ketolmaysan. Sen nima deb o‘ylayapsan, mening tashvishimni chekyapti, deb o‘ylaysanmi?

Kirsanov indamadi.

– Hozir mening qo‘lim balandroq. Sening ahvoling esa chatoq. Men o‘zimni olijanoblik qilayotgan qahramondek his qilyapman. Lekin bular hammasi behuda gap. Men aql-idrok bilan ish tutishim kerak. Aleksandr, sendan iltimosim shuki, nayrangbozligingni bas qilsang. Undan hech qanday natija chiqmaydi.

– Nimalar deyapsan? Fursat o‘tganmidi? Kechir meni, – Kirsanov tez-tez gapirib yubordi, «undan hech qanday natija chiqmaydi», degan so‘zlarimni eshitib xursand bo‘lganidanmi yoki xafa bo‘lganidanmi, o‘zi ham bilolmay qoldi.

– Yo‘q, gapimni boshqacha tushunding. Fursat o‘tgani yo‘q. Hozirgacha ham hech narsa bo‘lgani yo‘q. Nima bo‘lishini endi ko‘ramiz. Lekin hali hech narsa bo‘lgani yo‘q. Ha, darvoqe, Aleksandr, sen o‘zing nimalar deyapsan, tushunmayapman; men nima haqda gapirayotganimni sen ham tushunmayapsan; biz bir-birimizni tushunmayapmiz, shunday emasmi? Bir-birimizning gapimizga tushunishimizning keragi ham yo‘q, shunday emasmi? Sen tushunmay, boshing qotib turgan bu jumboqlar ko‘nglingni g‘ash qiladi. Biron jumboqning o‘zi yo‘q. Men senga hech nima deganim yo‘q. Senga aytadigan gapim ham yo‘q. Qani, sigarangdan ber-chi: parishonxotirlik bilan sigaramni qoldirib kelibman. Chekib olay, keyin ilmiy masalalardan gaplashamiz, o‘zim ham shunga kelgandim, bekorchilikdan, ilmiy masalalar ustida ezmalanishib o‘tiraylik, degandim. Sun’iy oqsil modda yasash ustidagi tajribalarga nima deysan? – Lopuxov oyog‘ini tirash uchun bir kreslo yoniga boshqasini tortib, bemalol o‘tirib oldi-da, sigara chekib so‘zini davom ettirdi:

– Agar natija bersa, mening fikrimcha, juda katta kashfiyot bo‘ladi. Tajribalaringni takrorladingmi?

– Yo‘q, lekin takrorlash kerak.

– O‘zing ham juda baxtli ekansan, ixtiyoringdagi hazilakam laboratoriya emas. Takrorla, qunt bilan takrorla. Asosiy ozuqa moddasini anorganik moddalardan hosil qilish – insoniyatning,

oziq-ovqatida va butun hayotida o'zgarish yasash degan gap-ku. Juda katta ish – Nyutonning kashfiyoti darajasidagi kashfiyot bo'ladi. Shunday emasmi?

– Albatta. Lekin tajribalarimning aniqligiga shubham bor. Bunga ertami-kech erishishimiz turgan gap, fan shunga qarab boryapti, bu tushunarli. Lekin hali u darajaga yetganimizcha yo'q.

– Shunday deb o'ylaysanmi? Men ham shu fikrdaman. Demak, gapimiz tamom. Xayr, Aleksandr. Sendan bir iltimos, biznikiga ilgarigiday tez-tez borib tursang. Ko'rishgunimizcha xayr.

Kirsanovning Lopuxovga adovat bilan tikilib turgan ko'zlarida endi g'azab o'tlari chaqnadi.

– Bilsam, Dmitriy, meni ilgarigiday sen to'g'ringda, bu pastkash odam ekan, degan fikrimda qoldirmoqchisan shekilli?

– Yo'q, aslo unday niyatim yo'q. Lekin biznikiga borib turishing kerak. Xo'sh, nima? Axir biz og'aynimiz-ku. Iltimos qilsam nima bo'pti?

– Ilojim yo'q. Sen aqlga to'g'ri kelmaydigan, binobarin, xunuk ish qilyapsan.

– Sen qanaqa ish to'g'risida gapiryapsan, sira tushunmay qoldim-ku, senga aytsam, bunaqangi gaplarga tobim yo'q, bir lahzalar ilgari sening ham tobing yo'q edi.

– Dmitriy, bu nima deganing, qani, tushuntir-chi.

– Keragi yo'q. Tushuntiradigan ham, tushunadigan ham biron gap yo'q. Yo'q gaplarga qizishib yuribsan, vassalom.

– Yo'q, senga bu ahvolda javob berolmayman. – Lopuxov ketmoqchi edi, Kirsanov uning qo'lidan tutdi. – Qani o'tir-chi. Kerakmas, deganimga qo'ymay gap boshlading. Mendan nimani talab qilyapsan, xudo biladi. Gapimga quloq solishing kerak.

Lopuxov o'tirdi.

– Qani ayt-chi, nima haqing bor? – Kirsanov ilgarigidan ham darg'azab bir ahvolda gap boshladi. – Qani ayt-chi, menga og'ir botadigan narsani talab qilishga nima haqing bor? Sendan biron mutelik joyim bormi? Nima keragi bor? Bu – bema'nilik-ku. Bo'lmag'ur oshiq-ma'shuqlik xayollarini boshingdan chiqarib tashla. Sen bilan biz rasmona hayot deb biladigan narsalar jamiyat urf-odatlari tushunchasi o'zgargandagina amalga oshadi. Jamiyat qayta tarbiyalanishi kerak, bu turgan gap. Hayot taraqqiy qilgan sari

jamiyat ham qayta tarbiyalana boradi. Yangi tarbiyadan bahramand bo'lgan odam boshqalarga yordamlashadi, bu turgan gap. Lekin jamiyat hali qayta tarbiyalanmagan ekan, butunlay o'zgarmagan ekan, birovning taqdirini tahlika ostiga qo'yishga haqing yo'q. Axir, bu dahshat-ku, tushunyapsanmi, yo jinni-pinni bo'lib qoldingmi?

– Yo'q, Aleksandr, hech narsa tushunmayapman. Oshnang, meni esingdan chiqarib yubor, chunki menikiga borib tursang, ko'nglim ko'tariladi, deb shunchaki iltimos qilsa, bundan allaqanday ma'no chiqarmoqchi bo'lasan. Buning nimasi kishining jig'iga tegar ekan, tushunolmay qoldim-ku.

– Yo'q, Dmitriy, bu masalada hazil bilan qutulib ketolmaysan. Sen esini yegan biron yaramas ishni boshlayotganingni isbotlab berishim lozim. Ikkalamizga nimalar ma'qul bo'lish-bo'lmasligini kim biladi deysan? Masalan, shapaloqni kishining sha'niga to'g'ri keladigan narsa deb tan olmaymiz, bu ahmoqona bid'at, zararli bir xurofotdan boshqa narsa emas. Lekin sen hozir biron erkakni shapaloq yeyishga mahkum qilib qarab turishga haqing bormi? Axir bu pastkashlik, birovning tinchini buzish bo'ladi. Tentak, shunga aqling yetadimi? Men bir kishini yaxshi ko'rsam-u, shapaloqning behuda, bo'lmag'ur bir narsaligini sen ham, men ham bilganimiz holda, sen mendan uni bir shapaloq ur deb talab qilsang, seni ahmoq, razil odam deb hisoblayman, nahotki shunga aqling yetmasa, agar meni shunga majbur qilsang, qaysi birimizning jonimiz shirinligiga qarab, yo seni o'ldiraman, yo o'zimni. O'zimni yoki seni o'ldirsam o'ldiramanki, lekin sen aytgan narsangni qilmayman. Tentak, nahotki shunga ham aqling yetmasa? Men erkak va shapaloq to'g'risida gapiryapman, shapaloq tortish ahmoqlik, lekin hozircha bu narsa erkaklarning tinchini buzib turibdi. Dunyoda erkaklardan tashqari ayollar ham bor, ular ham inson, shapaloqdan boshqa bema'ni narsalar ham bor, ular sen bilan mening fikrimcha ham, aslida ham bema'ni narsa, lekin ular ham kishilarning tinchini buzadi. Biron kishini, masalan, biron ayolni sen bilan mening fikrimcha ham, aslida ham bema'ni narsalardan birontasiga, qanaqasiga bo'lsa ham baribir, duchor qilish razolat, qabohat, vijdonsizlik ekanini nahotki tushunmasang?! Eshityapsanmi, o'ylagan narsalaring vijdonsizlik deyapman.

– Do'stim, vijdon nima-yu, vijdonsizlik nimaligi to'g'risidagi gaplaring juda to'g'ri. Lekin bu gaplarning nima keragi bor,

tushunolmayapman, buning menga nima daxli bor? Men kim bo‘lsada, birovning hayotini tahlika ostiga qo‘yish to‘g‘risida, bunday biron narsa haqida senga og‘zimni ham ochganim yo‘q-ku. Sen bu gaplarni ichingdan to‘qib chiqaryapsan. Men sendan, do‘stimdan, meni unutma, chunki men do‘stingman, sen bilan birga bo‘lgim keladi, deyapman xolos. Do‘stingning iltimosini bajo keltirasanmi?

– Men senga, bu iltimosing vijdondan emas, dedim. Men bunaqa vijdonsizlik ko‘chasiga kirmayman.

– Bu ishingni maqtasa arziydi. Lekin xayolingga kelgan qandaydir fikrlardan qizishib, nazariyaga berilib ketding; bekordan bekor, quruq nazariyabozlik qilging borga o‘xshaydi. Bo‘lmasa men ham shunchaki nazariyabozlik qila qolay, hech kimga daxli bo‘lmagan, mavhum bir haqiqatni tushuntirishdan boshqa hech qanday narsaga hech bir aloqasi yo‘q bir savol beraman. Agar biron kimsa, o‘z dilini og‘ritmasdan, birovning ko‘nglini ko‘tarish qo‘lidan kelsa, fikrimcha, biron-bir niyati bo‘lsa, u kishini xursand qilishi kerak, bundan o‘zi ham mamnun bo‘ladi. Shundaymi?

– Bo‘lmagan gap, Dmitriy, gaplaring noto‘g‘ri.

– Aleksandr, men hech narsa gapirayotganim yo‘q; nazariy masalalar bilan shug‘ullanyapman xolos. Yana bir savolim bor. Agar biron kishida biron ehtiyoj tug‘ilsa, uning bu ehtiyojini so‘ndirish uchun qilgan harakatimiz biron yaxshilikka olib boradimi? Bunga nima deysan? Bundan hech qanday yaxshilik chiqmaydi, shunday emasmi? Buning oqibatida ehtiyoj kattalashib ketishi mumkin (bu zararli, yo bo‘lmasa soxta yo‘l), bunisi ham zararli, ham xunuk ish bo‘ladi yoinki o‘zi so‘nishi bilan birga hayotni ham so‘ndiradi, bunisiga kishining yuragi achiydi.

– Dmitriy, gap unda emas. Men bu nazariy masalani boshqa ko‘rinishda qo‘yaman: agar biron kimsa tahlika ostida bo‘lmasa ham o‘zini yaxshi his qilsa, uni tahlika ostida qoldirishga biron kishining haqi bormi? Shunday zamon keladiki, har bir kimsa tabiatining butun hamma ehtiyojlari to‘la qondiriladi, buni sen bilan men bilamiz; lekin unday zamon hali kelmaganini ham ikkalamiz bab-baravar yaxshi bilamiz. Hozir aql-farosati bor odam yayrab-yashnasa bo‘lgani, garchi bu yayrab-yashnashida o‘z tabiatining butun hamma tomonlarini kamol toptirishga imkon bo‘lmasada, shunisiga ham xursand bo‘lib yuraveradi. Men mavhum faraz

ma'nosida shunday aql-farosatli odam bor, deb taxmin qilaman. Yana bu odam xotin kishi deb taxmin qilaman; yana mavhum faraz ma'nosida, bu olamning yayrab-yashnab turgan sharoiti – erga tekkanligi deb taxmin qilaman, bu odam o'z ahvolidan rozi deb taxmin qilaman-da, shu mavhum farazga muvofiq, bu odam yana ham yaxshiroq kunga yetolmasmikin, deb o'zi rozi bo'lib turgan shu yaxshi ahvolidan mahrum qilishga, tahlika ostiga qo'yishga kimning haqi bor, deyman. Holbuki uning ahvoli bundan ortiq yaxshilanmasa ham kuni o'taveradi. Dmitriy, oltin davr kelishi turgan gap, buni sen bilan men bilamiz, lekin uning kelishiga hali vaqt bor. Temir davr o'tib bormoqda, deyarli o'tib ketdi, lekin oltin davr hali kelgani yo'q. Agar, mening mavhum farazimga muvofiq, bu odamning biron katta ehtiyoji (faqat misol uchun shunday taxmin qilamiz, masalan, sevgi ehtiyoji), hech qondirilmagan yoki yaxshi qondirilmagan bo'lsa, biron begona odam tavakkal qilib uni tahlika ostiga qo'ysa yoki o'zi tavakkal qilsa, bunga qarshi hech narsa demasdim. Agar bu odam ehtiyoji, har holda, yaxshi qondirib turilgan ekan, o'zi ham tavakkal qilmasligi lozim; men mavhum ma'noda, u tavakkal qilmoqchi emas, deb taxmin qilaman-da, tavakkal qilish niyati yo'qligi to'g'ri, bu ishi aqldan, deyman va kimki uni, o'zini tahlika ostiga qo'ygisi kelmagan bir kimsani tahlika ostiga qo'ysa, u odam yomon, nojo'ya ish qiladi, deyman. Bu taxminiy xulosaga qarshi qanday e'tiroz bildira olasan? Hech qanday. Haqing yo'q, buni bir bilib qo'y.

– Aleksandr, sening o'rningda men ham shu sen aytgan gaplarni aytardim; sen singari men ham faqat misol tariqasida bu masalada sening biron o'rning bor, deyman; bu masalaning ikkalamizga ham daxli yo'qligini bilaman, sen bilan men faqat olimlar tariqasida gaplashyapmiz, bizga to'g'riday ko'ringan umumiy ilmiy qarashlarning qiziq tomonlari haqida gaplashyapmiz xolos; shu qarashlarga muvofiq, har bir kimsa u yoki bu ish to'g'risida o'zining shaxsiy munosabatiga qarab o'z nuqtayi nazaridan hukm qiladi, men ham shu ma'noda, sening o'rningda men ham xuddi sendek gapirardim, deyman. Mening o'rnimda sen ham xuddi mendek gapirarding. Umumiy ilmiy nuqtayi nazardan bu, shubhasiz haqiqat-ku. Axir, V o'z o'rnida V bo'ladi; agar V o'rnida V bo'lmaganda edi, V hali o'z o'rnida bo'lmasdi, V ning o'z o'rnida bo'lishi uchun

uning nimasidir yetishmay turardi, shundaymi? Xullas, senga hech qanday e'tiroz bildirishim mumkin bo'lmagani singari, sen ham mening so'zlarimga hech qanday e'tiroz bildirolmaysan. Lekin men ham, sendan ibrat olib, hech qanday narsaga tatbiq qilinmaydigan shunday mavhum faraz tuzaman. Dastlab, uch kishi bor ekan, deb taxmin qilamiz (shunday taxmin qilishning mumkin bo'lmagan eri yo'q-ku), shulardan birining siri bor ekan, shu sirini ikkinchisidan, ayniqsa, uchinchi kishidan yashirmoqchi ekan, deb taxmin qilamiz; ikkinchi kishi birinchi kishining sirini payqab qolib, unga: aytganimni qilasan, bo'lmasa siringni uchinchi kishiga ochib qo'yaman, deydi, deb taxmin qilamiz. Bu haqda nima deb o'ylaysan?

Kirsanovning biroz rangi oqarib, anchagacha mo'ylovini burab o'tirdi.

– Dmitriy, mening sha'nimga yomon ish qilyapsan, – dedi u nihoyat.

– O'zim ham senga yaxshilik qilishga juda orzumand bo'lib yuribman, meni qiziqtiradigan biron joying bor ekanmi? Undan tashqari, sen o'zing nimalar deyapsan, tushunolmay qoldim. Sen bilan men olim bilan olim gaplashgandek gaplashdik, bir-birimizning oldimizga har xil olimona, mavhum masalalar qo'ydik; nihoyat, sening oldingga shunday bir masalani qo'ydimki, sen bundan o'ylanib qolding, demak, olimlik izzat-nafsim qondi. Shu sababdan bu nazariy gaplarni bas qilaman. Ishim ko'p, senikidan oz emas, xo'p, xayr endi. Esimdan chiqayozibdi. Aleksandr, iltimosimni yerda qoldirmay, biznikiga, qadrdon do'stlaringnikiga borib turarsan endi, diydor ko'rishib tursak hamisha xursand bo'lamiz, o'tgan oylardagiday tez-tez borib turarsan?

Lopuxov o'rnidan turdi.

Kirsanov har bir barmog'i xuddi mavhum bir farazday, ularga tikilib o'tiraverdi.

– Dmitriy, menga nisbatan nojo'ya ish qilyapsan. Men iltimosingni bajo keltirmasligim mumkin emas. Lekin mening ham senga bir shartim bor. Xo'p, sizlarnikiga borib turaman, lekin agar sizlarnikidan bir o'zim chiqmasam, qayoqqa borsam ham yonimda birga bo'lasan, qani yur, deb chaqirishimni kutmasdan, eshitdingmi? Chaqirmasam ham birga borasan. Sensiz men bir

qadam jilmayman, na operaga, na tanishlarimiznikiga, hech qayoqqa bormayman.

– Aleksandr, bu sharting menga qattiq tegmaydimi? Nima, sen o'g'rimidingki, poylab yursam?

– U ma'noda gapirganim yo'q. Seni o'g'ri deb o'ylaydigan darajada ranjitmayman ham. Kerak bo'lsa, u yoq-bu yoqni o'ylab o'tirmasdan, kallamni shartta kesib qo'lingga tutqizaman. Sen ham shunday qilasan, deb o'ylashga haqim bo'lsa kerak. Lekin nimani o'ylashimni o'zim bilaman. Aytganimni qilaver, vassalom.

– Endi men ham bilib oldim. To'g'ri, sen bu ma'noda ancha ish qilding. Endi bu to'g'rida yanada ko'proq jonkuyarlik qilmoqchisan. Nima ham derdim, bu masalada haqsan. To'g'ri, meni majbur qilish kerak. Lekin, do'stim, sendan har qancha minnatdor bo'lsam ham buning hech bir foydasi yo'q. O'zimni o'zim majbur qilmoqchi bo'lib ko'rdim. Senda bor iroda menda ham bor, ayyorlikda ham sendan qolishganim yo'q. Lekin yuragingda dard bo'lmasa-yu, biron ishni faqat biron niyatda burchim deb bilib, majburiy qilsang, ishing mujmal bo'ladi. Sen o'zingga ishlatmoqchi bo'lgan vositang bilan biron narsani halok qilish mumkin xolos, lekin u bilan biron jonli ish qilish mumkin emas. – Kirsanovning «Nimani o'ylashimni o'zim bilaman» degan gaplari Lopuxovga qattiq ta'sir qildi. – Rahmat senga, do'stim. Bunday o'ylab qarasam, sen bilan sira o'pishmagan ekanmiz, hozir bir o'pishib olsak, istaysanmi?

Agar Lopuxov bu suhbatidagi o'z xatti-harakatlariga bir nazariyotchi sifatida qaraganda hozir bajonidil shunday degan bo'lardi: «Xudbinlik kishini har ko'yga soladi, degan nazariya juda to'g'ri ekan. Eng muhimini yashirib qoldi, «bu odam o'z ahvolidan xursand, deb faraz qilaylik» deganida: «Aleksandr, sening bu farazing noto'g'ri», deb aytish kerak edi, men bo'lsam jim turaverdim, chunki bunday deyishdan menga foyda yo'q edi. Nazariyotchi odam o'z xudbinligi natijalarini kuzatib zavqlanadi. Naf yo'qligi sababli o'z ishidan voz kechadi, xudbinlik tufayli ming maqomga tushsa hamki, chiranib o'zini biron olijanob ish qilayotgan odamdek ko'rsatadi».

Agar Kirsanov bu suhbatidagi o'z xatti-harakatlarini bir nazariyotchi sifatida qaraganda hozir bajonidil shunday degan bo'lardi: «Lekin nazariya juda to'g'ri narsa-da; kishi o'z tinchini

ko‘zlaydi, shuhrat orttirgisi keladi, holbuki men xotin kishining tinchini tahlika ostiga qo‘yishga haqing yo‘q, deb gap sotyapman; buning ma’nisi (ma’nisini o‘zing tushunib olaver), men o‘z huzur-halovatimni, ba’zi odamlarning yana bir kishining, do‘stim, shuningdek, sening ham tinchingni ko‘zlab olijanoblik qildim, deganidir; shu sababdan mening olijanobligimga tasannolar ayt. Nazariyotchi odam o‘z xudbinligining amalda qanday natijalarga olib kelishini kuzatib zavqlanadi. Ahmoq bo‘lmay, razillik qilmay, deb o‘zimni bu ishdan olib qochdim-u, lekin himmatli odamlar qahramonlik ko‘rsatib, olijanoblik qilganday og‘zim qulog‘imga yetib quvondim; yana o‘z to‘g‘ringda tashvish tortmaslik va olijanoblik qilaman, deb bu shirin quvonchdan mahrum bo‘lmaslik uchun birinchi da’vatdayoq rozi bo‘lib o‘tirmaysan, lekin xudbinlik seni ming maqomga solib shunday o‘ynatadiki, bundan sen chiranib, o‘z olijanobligingda mahkam turganday ko‘rsatishga intilasan».

Lekin Lopuxovning ham, Kirsanovning ham na nazariyotchilik qilishga va na bunday rohatbaxsh kuzatuvlar olib borishga vaqti bor edi: ularning ikkoviga ham amaliy ish ancha og‘irlik qilar edi.

Kirsanovning yana tez-tez kelib turishiga yaxshi bahona topildi; besh oycha boshqa ishlarga chalg‘ib ishi juda yig‘ilib qolgan ekan, shu sababdan bir yarim oycha ishdan bosh ko‘tarmasdan o‘tirishga to‘g‘ri keldi. Yig‘ilib qolgan ishlarini saranjomlab oldi, mana endi vaqti ham bemalolroq. Bu shunchalik ravshan bir narsa ediki, sababini aytib o‘tirishga ham to‘g‘ri kelmadi.

Aslida ham aniq va ravshanligi sababli Vera Pavlovna ham biron shubhaga bormadi. Shunisi ham borki, Kirsanov o‘z rolini ilgarigiday juda o‘rinlatib yurdi. Do‘sti bilan qilgan ilmiy suhbatidan keyin, Lopuxovlarnikiga borganimda biron xato qilib qo‘lga tushib qolmasam go‘rga edi, deb cho‘chib yurdi. Vera Pavlovnaga ilk bor qarashimda qizarib ketmasmikinman, yo qaramaslik payidan bo‘lishim qiziq tuyulmasmikin, yoki shunga o‘xshagan biron nojo‘ya harakat qilib qo‘ymasmikinman, deb qo‘rqqan edi; yo‘q, unday bo‘lmadi, Vera Pavlovna bilan uchrashuv daqiqalarida o‘ziga qoyil qoldi yoki qoyil qolishga to‘la haqi bor edi: eski yor-u birodarlari bilan diydor ko‘rishganiga ko‘pdan ko‘p minnatdorlik izhor etib, do‘stona tabassum qilib qo‘ydi; sababi birmuncha vaqt ulardan judolikda yashashga to‘g‘ri kelgan, boshqa iloji ham

bo‘lmagan; ko‘z qarashlari ham osoyishta, tap tortmay bemalol, beg‘araz, dadil gapirdi; agar uchiga chiqqan g‘iybatchi bo‘lsangiz-u, uning gap-so‘zlari yoki harakatlaridan biron nojo‘ya yerini topib qo‘lga tushirmoqchi bo‘lsangiz ham, bekorchilikdan qalin oshnalari o‘rtasida taralabedod qilib yuruvchi bir odam ekan-da, deb boshqa biron illat qidirib ham o‘tirmasdingiz.

Birinchi daqiqadaki shunday sir boy bermagan ekan, oqshomning qolgan qismida ehtiyot bo‘lishning nimasi qiyin deysiz? Birinchi oqshomdaki o‘zini tuta bilgan ekan, keyingi oqshomlarda o‘zini bemalol tutishi qiyin bo‘lardi deysizmi? Gapirganda bamaylixotir, ohista gapirdi, ko‘z qarashlari ham osoyishta, oddiygina, do‘stona edi, xullas, aslo sir boy bermadi.

Agar u sir boy bermay o‘zini ilgarigiday tutgan bo‘lsa, unga qaragan ko‘zlar, boshqa ko‘zlar aslo payqab ololmaydigan, ha, boshqa hech qanaqa ko‘z payqamaydigan ko‘p narsalarni payqashga moyil ko‘zlar edi. Marya Alekseyevna ulgurji savdo-sotiq ishlari uchungina tug‘ilgan, deb tan olgan Lopuxovning o‘zi ham Kirsanovning pinagini buzmay, bamaylixotir o‘tirganiga ajablandi va nazariyotchi tariqasida ilmiy nuqtayi nazardan uni beixtiyor qiziqtirgan bu hodisaning psixologik tomonini mushohada qilib, juda huzur qildi. Lekin mehmon xonimning qo‘shiq aytishlari va xotira daftarini o‘qishga majbur etgani bejiz emasdi. Mehmon xonim quloqqa shivirlaganda ko‘zlar juda ham ziyrak tortardi.

Hatto shu ko‘zlar ham hech nima payqayolmagandi, mehmon xonim shivirlashga tushdi: bu yerda u narsa aslida yo‘q bo‘lsa ham, uning yo‘qligini o‘zim ko‘rib turgan bo‘lsam ham, uni ko‘rishga harakat qilamiz. Garchi ko‘z hech narsani ilg‘amasa ham, ko‘zlar tikilaverdi, uning payqashi uchun shu ham kifoya edi: bunda bir gap bor.

Masalan, Vera Pavlovna, eri va Kirsanov uchovlari navbatdagi oqshomlardan birida Mersalovlarnikiga yo‘lga tushishdi. Umumiy qoidaga binoan bugun, hatto Lopuxov ham vals tushyapti-yu, nima uchundir Kirsanov bu g‘alati oqshomda vals tushmayapti: yetmish yashar chol bo‘lsang ham, bu yerga kelganingdan keyin, marhamat qilib hamma bilan barobar vaqtixushlik qil; bu yerda hech kimning hech kim bilan ishi yo‘q, hammaning muddaosi bitta – ko‘proq qiyqirish, ko‘proq o‘ynab-kulish, barcha baravar vaqtixushlik qilish,

xo'sh, shunday ekan, nega endi Kirsanov vals tushmayapti? U vals boshladi, lekin nega kechikibroq boshladi? Shunchalik muhim ishni boshlaymi yo boshlamaymi, deb bir necha daqiqa o'ylab o'tirish lozimmidi? Agar u vals tushmasa, siri ochilib qolishi mumkin.

Tushganda ham Vera Pavlovna bilan tushmasa, butun sir shu ondayoq ochilib qolardi. Lekin u o'z rolini ustalik bilan bajaradigan mohir artistlardan bo'lgani uchun Vera Pavlovna bilan vals tushgisi kelmayotganiga qaramay, vals tushmasa shubha tug'ilib qolishini darrov payqadi: aks holda, Vera Pavlovnaga va dunyoda boshqa biron kishiga hech qanday daxli bo'lmagan bir zumlik bu taradduddan ayolning xotirasida kichik, yengil-yelpi bir savol qoldi, agar ashulachi mehmon xonim behisob shunday juda kichik, zarracha savollarini shivirlamaganida, ashulachi mehmon xonimning shivirlab aytgan gaplariga qaramasdan, Vera Pavlovnaning o'zi ham buni sezmay qolishi mumkin edi.

Nega, masalan, Mersalovlarnikidan qayta turib, ertasiga «Puritan» operasiga borishmoqchi bo'lganida va Vera Pavlovna eriga: «Azizim, sen bu operani yoqtirmaysan, zerikib qolasan, men Aleksandr Matveich bilan bora qolay: unga har qanday opera ham yoqaveradi; agar men yoki sen bilan opera yozsak, shunga ham boraversa kerak», deganida, nega Kirsanov Vera Pavlovnaning fikrini quvvatlamadi, «rost, Dmitriy, men senga chipta olmayman», demadi. Nega shunday bo'lsa-da, «sevgili»si operaga borsa, buning, albatta, biron-bir shubhali yeri yo'q; axir, Vera Pavlovna bir marta iltimos qilib, «Menga ko'proq vaqtingni ber» deganidan buyon u qayoqqa borsa, xotinini kuzatib boradi, o'shandan buyon shu gapni yodidan chiqargani yo'q, demak, uning operaga borishida biron sir-asror yo'q, buning sababi shuki, u ilgarigiday mehribon, uni ilgari qanday yaxshi ko'rgan bo'lsa, hozir ham shunday yaxshi ko'rishi lozim, lekin bundan Kirsanovning xabari yo'q-ku, nega u Vera Pavlovnaning fikrini quvvatlamadi? Albatta, bu shunchaki bir gap, uni hech kim payqagani ham yo'q. Vera Pavlovnaning ham esidan chiqib ketdi, desa bo'ladi, lekin mana shu payqalmagan qum zarralari payqamagan bo'lsa ham, tarozi pallasiga tinmay tushyapti. Masalan, mana bu gap endi qum zarrasi emas, u kattakon tosh.

Ertasiga karetada (ikki izvoshga qaraganda bu arzon tushadida) operaga ketayotganlarida kecha uyida bo'lishgan Mersalovlar

to‘g‘risida ham bir necha og‘iz gap bo‘ldi, oilalarining ahilligini maqtashdi, bunday oila kam, deyishdi; buni hammalari gapirishdi, jumladan, Kirsanov: «Ha, Mersalovning yana bir yaxshi tomoni shuki, xotini tortinib-netib o‘tirmasdan ko‘nglidagini eriga aytaveradi», deb qo‘shib qo‘ydi. Kirsanov shunday dedi, uchovlari ham shuni aytishga og‘iz juftlagandilar, lekin bu gapni birinchi bo‘lib Kirsanov aytib yubordi: ammo nega bunday dedi? Buning ma’nisi nima? Agar bu ma’lum ma’noda tushuniladigan bo‘lsa, bu nima degani axir? Bu Lopuxovni maqtash bo‘ladi, Vera Pavlovna bilan Lopuxovning baxt-taxtini maqtash bo‘ladi-ku; albatta, Mersalovlardan boshqa hech kim to‘g‘risida o‘ylamasdan ham shunday deb aytish mumkin edi, agar uni Mersalovlar to‘g‘risida ham, ular bilan qo‘shgan holda, Lopuxovlar to‘g‘risida ham o‘yladi, deb faraz qilinsa, buning ma’nisi to‘ppa-to‘g‘ri Vera Pavlovna xususida shunday deyildi, degani bo‘ladi, xo‘sh, qanday maqsadda shunday deb aytildi?

Lekin hamma vaqt shunday bo‘ladi: tirnoq orasidan kir qidirgan odam albatta topadi; hech qanday kir bo‘lmasa ham u odam kirni ko‘rib turaveradi; kirning, hatto soyasi ko‘rinmasa ham uning alomatlarini ko‘rib turaveradi, har gal yangi-yangi alomatlarini qidirib topadi.

Bu masalada chindan ham, undan tashqari, bir aniq dalil bor, bu dalil butun sirni tamomila ochib tashlashga imkon berardi: Kirsanovning Lopuxovlarni hurmat qilishi aniq, u holda nega u ikki yildan ko‘proq vaqt ulardan uzoqda yashadi? Uning vijdonli odamligi ravshan, bo‘lmasa, nega o‘shanda o‘zini pastkash qilib ko‘rsatdi?

Vera Pavlovna buni o‘ylashga o‘zida ehtiyoj sezmagani uchun buni o‘ylagani ham yo‘q edi, Lopuxov ham o‘ylamadi; endi Vera Pavlovnaning o‘ylagisi kelib qoldi.

XXIV

Vera Pavlovna bu sirni asta-sekin ochganini o‘zi ham sezmay qoldi. Kirsanovning xayoldan deyarli butunlay ko‘tariladigan mayda-chuyda so‘zlari, quloqlarining taassurotlari yig‘ilib boraverdi, bularga begona odam e’tibor bermasdi, ular Vera Pavlovnaning

Ko‘rinishdan oqshom tinch o‘tdi. Vera Pavlovna erini chiqarib yuborib, vaqtining yarmini o‘z xonasida yolg‘iz o‘tkazdi, keyin eri yonida bo‘ldi, o‘sha besh-olti og‘iz gapni takrorlab, albatta ko‘proq gap bilan emas, balki bir maromdagi osoyishta tovush bilan, xursand ham bo‘lmay, xafa ham ko‘rinmay, xotinini tinchlantirishga harakat qilar ekan, o‘zi bir qadar xayolchan ko‘rinardi. Vera Pavlovna uning sokin ovozini tinglab, xayolchan yuziga tikilar ekan, aytarlik biron narsa bo‘lgani yo‘q, shunchaki xomxayolni otashin muhabbat deb bilibdi, bir necha kundan keyin bu fikrlar tarqab ketadi, ulardan asar ham qolmaydi, deb o‘yladi, yo bo‘lmasa, butunlay emas, birmuncha, yo‘q, birmuncha ham emas, butunlay shunday deb o‘yladi, yo bunday emas deb o‘yladimi, yo‘q, bunday deb o‘ylagani yo‘q, bunday emasligini his qildi-ku? Ha, unday emas, yo‘q, shunday, shunday deb o‘ylayapman, deb tobora qat’iyroq o‘yladi; darhaqiqat, endi butunlay shuni o‘ylab qoldi, hadeb bir zaylda osoyishta tovush bilan, aytarlik hech narsa bo‘lgani yo‘q, deb turgandan keyin o‘ylamaslikka ilojing qancha? Shu tovush allalagandek u tinchib uxlab qoldi, qattiq uxladi, tushiga mehmon xonim kirgani yo‘q, juda kech uyg‘ondi, uyqudan turib o‘zini ancha bardam, tetik his qildi.

XXV

«O‘y-xayoldan qutulishning eng yaxshi chorasi – ishlash, – deb o‘yladi Vera Pavlovna, shunday deb o‘ylab to‘g‘ri qildi ham, – tuzalgunimcha butun kun ishxonada bo‘laman. Menga faqat shu narsa yordam beradi».

Butun kunini ishxonada o‘tkazadigan bo‘ldi. Birinchi kuni, haqiqatan, o‘y-fikrlaridan qutulib, ancha ovundi; ikkinchi kuni faqat charchadi, lekin fikr-xayollaridan unchalik qutulolmadi, uchinchi kuni ulardan butunlay qutulolmadi. Shu taxlitda bir hafta o‘tdi.

Kurash juda og‘ir kechdi. Vera Pavlovnaning rangi ketib qoldi. Lekin sirtdan qaraganda u juda xotirjam, o‘zini qo‘lga olib, hatto, o‘ynab-kulib yurgandek edi. Ammo buni biron kishi payqamagan bo‘lsa payqamagandir, rangi siniqqani, tobi kelishmay turganidan bo‘lsa kerak, deb shunga yo‘ygan bo‘lsa bordir, binobarin, Lopuxov buni payqagan, busiz ham u hamma sirdan xabardor, hamma narsaga aqli yetib turardi.

– Verochka, – deb gap boshladi u oradan bir hafta o'tgandan keyin. – Sen bilan men «bo'zchi belboqqa yolchimaydi, kulol mo'ndiga» degan qadimiy maqolga amal qilib yashayapmiz. Biz boshqalarga ta'lim berib, turmushda bizning iqtisodiy tamoyillarimizga amal qilinglar, deymiz-u, o'zimiz turmushimizni shu tamoyillarga muvofiq qurish haqida o'ylamaymiz. Axir, bitta katta xo'jalik bir qancha mayda xo'jalikdan foydaliroq-ku! Shu qoidani o'z xo'jaligimizga tatbiq qilgim kelyapti. Agar biz biron kishilar bilan birga tursak, biz va biz bilan birga turadiganlar xarajatning salkam yarmini tejasak bo'lardi. Men ham juda jonimga tekkan la'nati darslarimni tashlardim, zavoddan oladigan maoshim ham yetib turardi, dam olardim, ilmiy ishlarim bilan shug'ullanardim, yana martabam ulug' bo'lardi. Buning uchun murosa-madora qilsa bo'ladigan odamlar bilan topishib olmoq kerak. Bunga nima deysan?

Kirsanov nazariy suhbat kuni Lopuxovga shubha, g'azabnok ko'zlari bilan qanday qaragan bo'lsa, Vera Pavlovna ham eriga allaqachondan buyon xuddi shunday darg'azab ko'zlarini tikib turardi. Eri gapini tugatganda, Vera Pavlovnaning yuzlari g'azabdan lovullab ketdi.

– Iltimos qilaman, bu gapingni bas qil. Bularning keragi yo'q.

– Nega unday deysan, Verochka? Men faqat puldan yutishimizni gapiryapman xolos. Sen bilan menga o'xshagan kambag'al kishilar bunga beparvolik bilan qarashi mumkin emas. Ishim juda og'ir, ba'zi jihatlari jonimga tegdi.

– Men bilan bu taxlitda gaplashish mumkin emas, – Vera Pavlovna o'rnidan turdi, – bunday imo-ishora bilan gapirishingga yo'l qo'ymayman. Dilingdagi gapingni qo'rqmay ochiq aytaver.

– Verochka, men faqat o'z foydamizni aytmoqchiydim, o'zimizga yaxshi bo'lardi...

– Yana boshladi-ya! Jim! Menga homiylik qilishga senga kim huquq berdi? Ko'zimga yomon ko'rinib qolmagin yana!

Vera Pavlovna yugura xonasiga kirdi-da, ichidan bekitib oldi.

Bu ularning birinchi va oxirgi janjali edi. Vera Pavlovna kechgacha xonasini ichidan bekitib o'tirdi. Keyin erining xonasiga kirdi.

– Azizim, juda qattiq gapirib yubordim. Lekin gaplarimga xafa bo'lma. Ko'rib turibsan, o'zim bilan o'zim kurashyapman. Menga

dalda berib yordamlashish o‘rniga, menga qarshi kurashayotgan masalani qo‘llayapsan, men bo‘lsam, bo‘sh kelmasman degan umid bilan, ha, shunday umid bilan kurashyapman.

– Do‘stim, nojo‘ya gap boshlaganim uchun meni kechir. Yarash-yarash, xo‘pmi. Kel, suhbatlashib o‘tiramiz.

– Ha, azizim, yarashdik, lekin menga qarshi ish qilma. O‘zim o‘zimga qarshi kurashishim ham og‘irlik qilib turibdi.

– Chakki qilasan, Verochka. Sen tuyg‘ularingga quloq solib ko‘rish uchun o‘zingga o‘zing fursat berganding, bular dastlab o‘ylaganingdan jiddiyroq ekanini o‘zing ham sezib turibsan. O‘zingni qiynab nima qilasan?

– Yo‘q, azizim, men seni sevgim keladi, ko‘nglingni og‘ritmasam, yo‘q, og‘ritmasam deyman.

– Do‘stim, sen menga yaxshilikni ravo ko‘ryapsan. Seningcha, qiynalib, azob chekishingni tomosha qilib turaverishim kerakmi?

– Azizim, axir sen meni qattiq sevasan-ku!

– Albatta, Verochka, qattiq sevaman; bu haqda gap ham bo‘lishi mumkin emas. Lekin ikkovimiz ham sevgi nimaligini yaxshi tushunamiz. Sevgan kishing xursand bo‘lsa, sen ham xursand, qayg‘ursa, sen ham qayg‘urasan, axir, sevgi degani shu emasmi? Sen o‘zingni qiynasang, meni ham qiynagan bo‘lasan.

– To‘g‘ri aytasan, azizim; lekin agar men bu tuyg‘umga bo‘sh kelsam, sening uchun ham azob bo‘ladi-ku, oh, qayoqdan ham menda bunday tuyg‘u paydo bo‘lib qoldi? Qurib ketsin!

– Tuyg‘ung qayoqdan paydo bo‘ldi, nima uchun paydo bo‘ldi, endi baribir, uni o‘zgartirish mumkin emas. Faqat birgina iloji bor: yo shu tufayli azob tortasan, seni ko‘rib men ham azoblanaman, yo sen azob chekishingni bas qilasan, shunda men ham azobdan qutulaman.

– Azizim, men azob chekmayman – o‘tib ketadi. Mana ko‘rasan, o‘tib ketadi.

– Men uchun qayg‘urishingdan minnatdorman. Bu harakatlaringning qadriga yetaman, chunki bu ishing nimani lozim topsang, shuni bajo keltirish qo‘lingdan kelishini ko‘rsatib turibdi. Lekin, Verochka, shuni bir bilib qo‘y: sening bu tashvishlaring o‘zingga kerak bo‘lsa bordir-u, menga keragi yo‘q. Men chetdan qarab turibman, ahvoling o‘zingdan ko‘ra menga ayonroq. Bu

harakatlaring behuda ketishini bilaman. Kuching yetgancha kurashib ko‘r. Lekin, xafa qilib qo‘yaman, deb mendan xavotir olma. Bu ishga qanday qarashimni o‘zing bilasan; bu to‘g‘ridagi fikrim qat’iyligini ham, aslida to‘g‘riligini ham bilasan, bular hammasi senga ayon. Nahot meni aldasang? Nahot meni hurmat qilmay qo‘ysang? U yog‘ini aytsam, menga mehr-oqibating nahotki o‘zgarib, susayib qolsa? Aksincha, senga dushman emasligimni ko‘rganingdan keyin mehr-oqibating yana ham kuchaymasmikin? Menga rahming kelmasin, meni deb baxtingdan ajramasang, men aslo baxti qaro bo‘lib qolmayman. Bas, endi yetar. Bu haqda ko‘p gapirish kishiga og‘ir botadi, sening gaplaringni eshitish undan ham og‘ir. Lekin, Verochka, hozir aytgan gaplarim qulog‘ingda bo‘lsin. Meni kechir, Verochka. Endi xonangga kirib o‘ylab yot, yaxshisi, uxla. Men to‘g‘rimda o‘ylama, o‘zingni o‘yla. O‘zingni o‘ylasang, meni ham bekorga qayg‘uga duchor qilmaysan.

XXVI

Ikki haftadan keyin, Lopuxov zavod idorasida o‘tirganda Vera Pavlovna ertalabdanoq besaranjom bo‘lib qoldi. O‘zini o‘ringa tashlab, qo‘llari bilan yuz-ko‘zini yashirib olar, chorak soatdan keyin sakrab o‘rnidan turib, xonada u yoqdan bu yoqqa yura boshlardi, kresloga o‘tirar, yana o‘rnidan turib, bir-bir qadam tashlab yurib, turib yana o‘zini o‘rniga otar, yana turib yurar, yozuv stoli yoniga kelib turib qolar, yana undan nari ketar edi. Nihoyat, o‘tirib bir necha og‘iz xat yozdi, konvertga solib muhrlab qo‘ydi, yarim soatdan keyin xatni yirtib, kuydirib tashladi, yana anchagacha besaranjom bo‘ldi, yana xat yozdi, yana yirtib, kuydirib tashladi, yana betoqat bo‘ldi, yana yozdi, shoshilib muhrlab, ustiga manzil yozishga ham ulgurmay, yugurib erining xonasiga kirdi, xatni stol ustiga tashladi, yugurib o‘z xonasiga chiqdi, o‘zini kresloga tashladi, yuzini qo‘llari bilan yashirib olgancha shu ko‘yi qimir etmay o‘tiraverdi; yarim soat, balki bir soatdan keyin qo‘ng‘iroq chalindi, keldi, dedi-yu, yugurib erining kabinetiga borib, maktubni olmoqchi, yirtib, kuydirib tashlamoqchi bo‘ldi, xat qani? Yo‘q-ku, qayoqqa yo‘qoldi? Shoshib qog‘ozlarni olib ko‘rdi: maktub qani? Shu vaqt Masha borib eshikni ochdi, Lopuxov zinada turganida

Vera Pavlovnaning rangi o‘chgan, vajohati buzuq bir ahvolda, uning kabinetidan o‘z xonasiga o‘tganini ko‘rdi.

Lopuxov xotinining ketidan kirmadi, to‘ppa-to‘g‘ri o‘z kabinetiga ketdi: stoliga shoshmasdan sovuqqina ko‘z tashladi, stolning yon-verlariga qaradi; o‘zi ham bir necha kundan buyon biron kor-hol, gap bo‘lishini yoki xat olishini kutib yurardi, darhaqiqat, mana maktub, manzili yozilmagan, lekin xotinining muhri bosilgan; bo‘lmasam-chi, yo yirtib tashlamoqchi bo‘lib qidirgan, yo bo‘lmasa hozir kirganda tashlab ketgan, yo‘q, qidiribdi; qog‘ozlar betartib bo‘lib qolibdi, titrab, vahima bosib turganda tashlab ketgan maktubni qayta topish oson ekanmi, laxcha cho‘g‘day qo‘lini kuydirib turgan maktub beixtiyor shiddat bilan tashlaganida stolning orqasiga, deraza tagiga borib tushgan. Maktubni o‘qimasa ham bo‘ladi: mazmuni ma’lum; lekin, baribir o‘qimasdan iloji yo‘q.

«Azizim, men hech qachon senga hozirgiday mehribonlik his etgan emasdim. Sen uchun jonimni fido qilishga ham tayyorman! Agar o‘limim seni biroz bo‘lsa-da baxtiyor etsa, o‘zimni jon deb qurbon qilardim! Lekin usiz turolmayman. Azizim, seni xafa qilyapman, qiynayapman, lekin bunday bo‘lishini istamayman. Menda ixtiyor qolmadi. Meni kechir, kechir meni».

Chorak soat, balki ko‘proqdir, Lopuxov stol yonida kreslolarning dastasiga tikilib turib qoldi. Bu zarbani avvaldan kutgan bo‘lsa ham, lekin u og‘ir botdi, shunday xatdan yoki biron jiddiy gapdan keyin qanday va nima qilish lozimligini ko‘p o‘ylagan, oldin bir qarorga kelib qo‘ygan taqdirda ham, har holda, fikringni darrov yig‘ib olishing oson emas. Lekin, har holda, u o‘zini qo‘lga oldi. Oshxonaga, Mashaning yoniga chiqdi.

– Masha, ovqatni biroz qo‘yib tursangiz, men o‘zim aytaman. Sal tobim qochib turibdi, ovqat oldidan dori ichsam degandim. Bizni kutmay, o‘zingiz ovqatlana bering, bemalol ovqatlanib oling: men ovqat yeyishim mumkin bo‘lgunga qadar ulgurasiz. O‘zim aytaman.

Oshxonadan chiqib, xotinining xonasiga kirdi. Xotini yuzini yostiqqa burkab yotgan ekan, erining kirganini sezib, seskanib o‘rnidan turdi:

– Maktubni topdingmi, o‘qidingmi? E xudo, qanday jinniman-a! Yozganlarim yolg‘on, shunchaki jazavam tutgandi!

– Bo‘lmasam-chi, do‘stim, bu so‘zlarga chinakamiga ishonish kerakmas, chunki sen qattiq hayajonda eding. Bunaqangi ishlarni shunchaki hal qilib qo‘ya qolish mumkin emas. Hali ikkalamiz bu haqda xotirjam o‘tirib qayta-qayta gaplashamiz: bu ikkalamiz uchun ham juda muhim masala-ku. Do‘stim, hozir senga o‘z ishlarim haqida gapirib bermoqchiman. Ishlarimni ancha o‘zgartirib yubordim, ko‘nglimdagiday bo‘ldi, bundan o‘zim ham xursandman. Gapimni eshityapsanmi? – Albatta, Vera Pavlovna eshityaptimi-yo‘qmi, o‘zi ham bilmasdi. Gapingni eshityapsanmi-yo‘qmi, ishqilib, qulog‘imga nimadir chalinyapti, deyishi mumkin, lekin nima eshitayotganini o‘ylashga ham madori yo‘q. Har holda, eshitilyapti, maktubiga aloqasi yo‘q qandaydir boshqa bir narsa ustida gap borayotganini payqab turibdi. Keyin quloq sola boshladi, chunki eshitgisi kelib qoldi: asablari maktubdan boshqa biron narsa bilan band bo‘lgisi kelib qoldi, anchagacha hech narsa tushunmasa ham, har holda, erining mamnunlik bilan gapirayotgan sovuqqina ovozini eshitib tinchidi; keyin gaplarning ma’nisini ham tushundi. – Gapimga quloq sol, chunki bular men uchun juda muhim. – «Quloq solyapsanmi?», deb savol berganidan keyin eri to‘xtamay gapirdi: – Ishlarimdagi o‘zgarishlardan juda mamnunman, – deb ishlarining ikir-chikirlarigacha gapirib berdi; xotini bu gaplarning to‘rtdan uch qismini, yo‘g‘-e, hammasini biladi, bilsa ham baribir, mayli, gapiraversin, u qanday mehribon! Shu bilan qarasangiz, yana ishlaridan javrab ketdi: dars berish allaqachon ko‘ngliga urgani, qaysi oilada yoki qaysi shogirdlariga dars berishi nega jonga tekkani, zavod idorasidagi ishlari joniga tegmagani, chunki u juda muhim ishligi, butun boshli bir zavoddagi odamlarga ta’sirini o‘tkazib turgani, unda, har holda, ba’zi bir ishlar qilayotgani qolmay hammasini gapirdi: kishilarning savodini chiqarishga talabgorlar topib, dars berish usullarini o‘rgatgani, yo‘l-yo‘rig‘ini topib muallimlarga firmadan haq to‘lanadigan qilgani, ishchilar savodxon bo‘lsa mashinalarni, ishni kamroq buzishadi, ishga chiqmay qolishlari kamayishi, mast-alast yurishlari barham topishini, oladigan ish haqlari ozligi ishchilarni ichkilikdan qaytarayotganligi, shu niyat bilan pivoxonalarga ham tez-tez borib turishgacha gapirdi, gapirmagan hech nima qolmadi. Eng muhimi, firmadagilar uni ishchan, epchil odam ekan, deyishadigan bo‘lgani,

tuppa-tuzuk obro‘ orttirgani, shu bilan sekin-asta butun ishlarni o‘z qo‘liga olgani, xullas, gaplarining xulosasi va Lopuxov uchun eng kerakligi quyidagilar bo‘ldi: ‚uni zavod boshqaruvchisining o‘rinbosari vazifasiga tayinlashar emish; boshqaruvchilik faxriy bir vazifa bo‘lib, firma sheriklaridan ekan, oyligi ham faxriy bo‘lar ekan; zavodni esa Lopuxov boshqarar ekan. Firma sherigi faqat shu shart bilan boshqaruvchilik vazifasiga ko‘nibdi, «qo‘limdan kelmaydi, menga yo‘l bo‘lsin», debdi, «siz shu vazifada bo‘lsangiz kifoya, unda halol kishi o‘tirishi kerak, ishga aralashmasangiz ham mayli, hammasini o‘zim eplayman» degan ekan, «unday bo‘lsa, mayli, shu vazifani olganim bo‘lsin», debdi; lekin gap zavodga boshliq bo‘lishida emasligi, gap 3500 so‘m maosh olishida, bu ilgari olgan hamma pullaridan: har xil adabiy ishlaridan bergan darslaridan, zavoddagi ilgarigi vazifasidan tushgan hamma pulidan ming so‘m ortiq bo‘lib, endilikda zavodda bo‘lak hamma ishlarini tashlashi mumkin ekan. Masalaning bunday hal bo‘lishi juda ko‘ngildagiday ish bo‘libdi. Yarim soat shu taxlitda hikoya qilgandan keyin, gapi tamom bo‘lganda Vera Pavlovnaning, darhaqiqat, juda yaxshi bo‘libdi, deb aytishiga gal keldi, endi Vera Pavlovna sochini tuzatib ovqatga chiqsa ham bo‘lardi.

Ovqatdan keyin Mashaga izvosh uchun sakson tiyin kumush pul berishdi, u to‘rt joyga borib, Lopuxovning: «Janoblar, qo‘lim bo‘sh, sizlarga muntazirman», degan xatini ko‘rsatib kelishi kerak; bir vaqt eshikdan dahshatli Raxmetov kirib keldi, uning ketidan birin-ketin bir to‘da yoshlar yig‘ilishdi; shu bilan qizg‘in ilmiy suhbat boshlanib ketdi, hammalari bir-birlarini har turli subutsizliklarda ayblashdi, bunday balandparvoz gaplarga xushi yo‘q ba’zi birovlar Vera Pavlovnani zeriktirmaslik payidan bo‘ldi, vaqt yarim kecha bo‘lganda Vera Pavlovna Mashaning qayoqqa g‘oyib bo‘lganini fahmladi-da, qarang, erim xo‘p mehribon odam-da, deb qo‘ydi. Bu gal Vera Pavlovna yosh do‘stlari bilan jinnilik qilmay, jim o‘tirgan va, hatto, Raxmetovni jon deb o‘pgisi kelgan bo‘lsa ham yosh do‘stlaridan juda mamnun edi.

Mehmonlar kechasi soat uchlarda tarqalishdi, kech tarqab juda yaxshi qilishdi. Kun bo‘yi hayajonda holdan toygan Vera Pavlovnaning yoniga eri kirganida, u endi o‘rniga yotgandi.

– Do‘stim, Verochka, senga zavodimiz to‘g‘risida hikoya qilibman-u, yangi vazifam haqida bir narsani aytishni unutibman,

unchalik ahamiyati yo‘q, binobarin, bu haqda gapirmasa ham bo‘lardi, lekin har ehtimolga qarshi aytib qo‘yganim ma’qul. Sendan bir iltimosim bor: uyqum kelib qoldi, sening ham uyqung kelgan; zavod haqida biron narsani unutsam, ertaga gaplashamiz, hozir ikki og‘izgina gapirmoqchiman. Men zavod boshqaruvchisining o‘rinbosari vazifasini qabul qilganimda bir shart qo‘ydim: bu vazifani xohlagan vaqtimda, bir oydan keyinmi, ikki oydan keyinmi, xohlagan paytim qabul qilaman, dedim. Hozir shu fursatdan foydalanmoqchiman: ota-onalarim Ryazanda turishadi, ularni ko‘rmaganimga besh yil bo‘ldi, borib ko‘rib kelsam deyman. Xayr, Verochka. O‘rningdan qo‘zg‘alma. Ertaga erta bilan turarsan. Hozir uxla.

XXVII

Vera Pavlovna ertasiga xonasidan chiqqanida eri bilan Masha ikki chamadonga u-bular joylashayotgan edi. Masha ish bilan ovora edi, Lopuxov unga o‘rashga, taxlashga dunyoning narsasini bergandi, hozir uning qo‘li-qo‘liga tegmasdi. «Verochka, sen ham yordamlashib yuborsang-chi». Uchovlari buyum ajratish, joylash bilan ovora bo‘lib, choyni ham shu yerda ichishdi. Vera Pavlovna endi o‘ziga kelib gap boshlamoqchi bo‘lgandi, eri: «Soat o‘n yarim; temir yo‘lga jo‘naydigan vaqt ham bo‘lib qolibdi», dedi.

– Azizim, men ham sen bilan ketaman.

– Do‘stim, ikki chamadonni yonimda olib ketaman, senga joy qolmaydi. Sen Masha bilan uyda qol.

– Buni aytayotganim yo‘q. Ryazanga birga boraman deyapman.

– Unday bo‘lsa, chamadonlarni Masha olib boradi, sen ikkalamiz birga o‘tiramiz.

Ko‘chadagi gap kishiga uncha kor qilmaydi. Yana tosh ko‘chaning taraqa-turuqini aytmaysizmi: Lopuxov ko‘p gaplarni eshitmay qoladi, ko‘plariga bergan javobini eshitib ham bo‘lmaydi, ba’zilariga indamay, javob bermay qo‘ya qoladi.

– Sen bilan Ryazanga boraman, – deb turib oldi Vera Pavlovna.

– Narsalaringni olmagansan-ku, qanday borasan? Borging kelsa, avval hozirlik ko‘r: nimani lozim ko‘rsang, shunday qil.

Lekin sendan bir iltimos: mendan xat kelishini kutib tur. Ertagayoq xat olasan: yo'ldan jo'natib yuboraman. Ertagayoq olasan, kutgin, iltimos.

Vera Pavlovna temiryo'l galereyasida vagonga chiqishi oldidan erini quchoqlab, yig'lab-yig'lab rosa o'pdi. Lopuxov bo'lsa yakkash zavodi, ishlarining yaxshiligi, chol-kampirlarning suyunishidan gapirardi, dunyoda kishiga eng kerakligi o'z salomatligi, boshqalarning ortiqcha ahamiyati yo'qligi, shu sababli salomatligingga ehtiyot bo'l, deb xayrlasharkan, panjara ortidan shunday dedi:

– Sen kechagi xatingda hech qachon senga hozirgiday mehr qo'ymaganman, deganding, bu haq gap, azizim Verochka. Mening ham senga muhabbatim undan kammas. Kishiga mehr qo'yish – unga baxt tilash degani, buni ikkimiz ham juda yaxshi bilamiz. Lekin erk bo'lmasa, baxt qayerda? Senki menga baxtni ravo ko'rar ekansan, men ham senga shuni tilayman. Meni deb o'zingni qiynaydigan bo'lsang, meni ranjitasan. Bunday qilma, ko'ngling tusagan ishni qil. Keyin yana ko'rarmiz. Qachon qaytishim kerakligini yozib yuborarsan. Xayr, omon bo'l, azizim, ikkinchi qo'ng'iroq bo'ldi, vaqt tugadi. Xayr.

XXVIII

Bu voqea aprelning oxirlarida bo'lgan edi. Iyunning yarmida Lopuxov qaytib keldi, uch hafta Peterburgda turib, aytganiday, zavod ishlari bilan Moskvaga jo'nab ketdi. 9-iyulda yo'lga chiqdi, 11-iyulda erta bilan Moskva temiryo'l stansiyasi yonidagi musofirxonaga tushgan mehmon o'rnidan turmayoq bir mojaro bo'lgan bo'lsa, shundan ikki soatcha keyinroq Kamennoostrovdagi dachada yana bir mojaro yuz berdi. Endi farosatli kitobxon o'zini o'zi otgan kim ekan, deb bosh qotirib o'tirmaydi. Farosatli kitobxon topqirligidan xursand bo'lib: «U Lopuxovligini allaqachon bilgandim», deydi. O'zi qaysi go'rga yo'qolibdi-yu, furajkasining kizagiga qayoqdan o'q tega qopti? «Qilgan ishlari maynabozchilikdan boshqa narsa emas, ayyor o'zini o'zi to'rga ilintiribdi», deb ming xayolga boradi farosatli kitobxon. Nima ham derdim, bilganingni qil, senga gap uqtirib bo'larmidi.

XXIX
TA'RIFI ODAM

Kirsanov ketgandan keyin oradan uch soatcha o'tgach, Vera Pavlovna biroz es-hushini yig'ib oldi, dastlab boshiga, ishxonani o'z holiga tashlab qo'yish mumkin emas, degan fikr keldi. Vera Pavlovna, ishxonada ish endi o'zi ketaveradi, deb isbot qilishni yaxshi ko'rsa ham, lekin shunday deb o'ylab o'ziga o'zi tasalli berishini, aslida ishxonaga rahbar kerakligini, aks holda, butun ishlar barbod bo'lishini juda yaxshi bilardi. Aytmoqchi, hozir ishlar ancha yo'lga qo'yilgan, endi ishxonaga rahbarlik qilish ustida ko'p qayg'urmaslik ham mumkin. Mersalovaning ikki bolasi bor; lekin har kuni, har kun bo'lmasa ham ba'zi kunlari bir soat-bir yarim soat vaqt ajrata oladi. Yo'q demasa kerak, chunki shu kunlarda ham ishxonaga ko'p vaqtini sarf qilyapti. Vera Pavlovna sotiladigan buyumlarini ajrata boshladi. Mashani avval Mersalovaning uyiga yuborib, bir kelib ketishini iltimos qildi, keyin eski kiyim-kechaklar, har xil mayda-chuydalar sotadigan Raxelnikiga yubordi. Raxel ishbilarmon yahudiy ayollardan bo'lib, Vera Pavlovnani yaxshi tanirdi. U jami yahudiy savdogarlar, yaxshi odamlar bilan qanday halol munosabatda bo'lsa, Vera Pavlovna bilan ham shunday munosabatda bo'lardi. Raxel bilan Masha shahardagi xonadonga borib, unda qolgan kiyim-kechaklar, har xil buyumlarni yig'ishtirishlari, yo'l-yo'lakay mo'ynado'znikiga kirib chiqishlari (Vera Pavlovna unga yozda saqlab berish uchun po'stinini berib qo'ygan edi), ana undan keyin jami narsalar bilan dachaga yetib kelishlari kerak edi. Raxel bo'lsa ana shu yig'ishtirib kelingan bisotni durustgina bahoda sotib olishi lozim edi.

Masha darvozadan chiqayotganda Raxmetovga duch keldi, u yarim soatdan buyon dacha atrofida aylanib yurgan ekan.

– Masha, biron yoqqa ketyapsizmi? Qachon qaytasiz?

– Kechasi allamahalda qaytsam kerak. Juda ishim ko'p.

– Vera Pavlovna bir o'zi qoladimi?

– Ha.

– Bo'lmasa, sizning o'rningizga men kirib biroz o'tirib turaman, biron foydam tegar.

– Marhamat, o'zim ham yolg'iz tashlab ketishdan qo'rqib turgandim. Janob Raxmetov, esimdan chiqibdi, qo'shnilardan

birontasini chaqiring, tanish oshpaz, enagalik qiluvchi dugonalarim bor, ovqat vaqtida qarashib yuborishadi, Vera Pavlovna hali ovqatlangani ham yo‘q.

– Hechqisi yo‘q; men ham ovqatlanganim yo‘q, o‘zimiz ovqatlanamiz. Siz-chi, o‘zingiz ovqat yeganmisiz?

– Vera Pavlovna ovqat yedirmasdan yuborarmidi?

– Shunisiga ham shukur. O‘zi bilan ovora bo‘lib, shuni ham esidan chiqarib qo‘yar, deb qo‘rqqandim.

Mashadan boshqa hamma, ko‘ngilchanligi va ust-boshi jihatidan u bilan teng yoki undan sal yuqori turadiganlardan boshqa hamma Raxmetovdan biroz hayiqardi; Lopuxov ham, Kirsanov ham, boshqa hech nimadan, hech kimdan qo‘rqmaydiganlar ham ba’zan undan hayiqib turishardi. Raxmetov Vera Pavlovnadan o‘zini juda uzoq tutardi. Vera Pavlovna uni juda diqqinafas odam deb bilardi, Vera Pavlovna bilan sira o‘tirgan emasdi. Lekin Masha bilan u boshqa mehmonlardek xush muomalada bo‘lmasa, unchalik gaplashmasa ham Masha uni alohida aziz ko‘rardi.

– Vera Pavlovna, chaqirmasangiz ham keldim, – deb gap boshladi u, – lekin men Aleksandr Matveichni ko‘rdim, hamma gapdan xabarim bor. Shu vajdan, biron xizmatingizga yarab qolarman, bir oqshom yoningizda o‘tirarman deb o‘yladim.

Uning hoziroq yordami tegishi mumkin, kiyim-kechaklarni ajratishda Vera Pavlovnaga qarashadi. Raxmetovning o‘rnida boshqa har qanday odam bo‘lsa ham shu ondayoq ishga solinardi, yo bo‘lmasa o‘zi darrov ish boshlab yuborardi. Lekin u o‘zi ham boshlayverdi, birov unga ish ham buyurmadi; Vera Pavlovna uning qo‘lini qisib, «Iltifotingiz uchun minnatdorman», dedi.

– Men kabinetda o‘tiraman, – javob berdi Raxmetov, – biror yumush chiqib qolsa, chaqirarsiz; biron kishi kelsa, o‘zim eshik ochaman, siz xotirjam bo‘ling.

Shunday dedi-da, keyin bemalol kabinetga yo‘l oldi, yonidan katta bo‘lak vetchina, bir parcha qora non chiqardi, bular hammasi to‘rt qadoqcha kelardi, o‘tirib, yaxshilab chaynab tanovul qildi-da, ustidan yarim grafin suv ichdi, so‘ngra kitob terib qo‘yilgan tokchalar oldiga yaqinlashib, nimani o‘qisam ekan, deb kitob tanlashga tushdi: «Ma’lum», «qizig‘i yo‘q», «qizig‘i yo‘q...», «qizig‘i yo‘q...», «qizig‘i yo‘q...» Bu «qizig‘i yo‘q» degan so‘zlar

Makoley, Gizo, Te, Ranke, Gervinuslarning[1] kitoblari haqida aytilgan edi. «Mana bunisining topilgani xo'p ish bo'ldi-da» – bir necha qalin-qalin kitob koreshoklariga yozilgan «Nyuton asarlari to'plami» degan so'zlarni o'qib, shunday deb qo'ydi; shoshilib tomlarni ko'zdan kechirdi-da, nihoyat, qidirganini topdi, miyig'ida kulib: «Ana topdim, ana topdim», deb qo'ydi. «Observations upon the prophecies of Daniel, and the Apocalypse of St.John», ya'ni «Daniil va Apokalipsis avliyo Ionning valiyligi haqida mulohazalar» deb o'qidi. «Bilimimning bu jihatiga haligacha ham tuzukroq poydevor qurmagan edim». Nyuton bu izohlarni keksayganida, aqli noraso, chala jinni bo'lib qolganida yozgan. Tentaklik va donolik omuxtasi masalasidagi klassik asar[2]. Binobarin, bu olamshumul-tarixiy masala: beistisno hamma voqealarda, hamma kitoblarda, deyarli hammaning tushunchasida shu taxlitda qorishtirib yuborilgan edi. Lekin qorishtirilganda ham, birinchidan, bizga ma'lum bo'lgan aql egalari ichida eng dohiyona va eng normal aql egasi, ikkinchidan, unga aralashib ketgan telbalik hamma tan olgan, shubhasiz, bo'lgan telbalik qorishtirib yuborilgan edi. Xullas, o'zi juda zo'r, kerakli kitob. Bu kitobda umumiy hodisalarning eng nozik belgilari ham boshqalariga qaraganda sezilarli darajada ko'rsatilgan bo'lishi lozim, binobarin, bu telbalikni aql bilan aralashtirib yuborish belgilarini o'zida saqlagan hodisa xislatlari ekanligiga hech kim shubha qilmasa kerak. «O'qisa arziydigan kitob». Shu bilan u keyingi yuz yil ichida musahhihlardan bo'lak odam o'qimagan bu kitobni zo'r ishtiyoq bilan o'qishga kirishdi: bu kitobni Raxmetovdan boshqa biror kishining o'qishi qum yoki qipiq chaynash bilan baravar edi. Lekin u rohat qilib o'qidi.

Raxmetov singari kishilar juda kam; men hozirgacha shu xil odamlardan faqat sakkiz nusxasini (shu jumladan ikki ayolni) uchratdim; ularning faqat bir fazilati demasa, hech bir o'xshash tomonlari yo'q. Ular orasida yumshoqko'ngillari ham, qahri qattiqlari ham, qovog'idan qor yog'ib turadiganlari ham, yig'loqilari ham (biri badjahl bo'lsa, biri o'taketgan surbet; biri indamas, hamma

---

[1] Makoley, Gizo, Te, Ranke, Gervinus – XIX asrning birinchi yarmida yashagan burjua tarixchilari.

[2] Nyutonning bu asarida cherkov urf-odatlari haqidagi to'g'ri nuqtayi nazar tasavvur bilan aralashtirib yuborilgan *(tarj.)*

narsaga beparvo misoli bir haykal; bular ikkovi ko'z oldimda tutqanog'i bor xotinday bir necha marta ho'ng-ho'ng yig'ladi, yig'laganda ham o'z ishidan nolib emas, har xil gaplar orasida yig'lab olishdi; yolg'iz o'zlari bo'lganda beshbattar yig'lashsa kerak, bunga aminman), tinib-tinchimaganlari ham bor. Ularning faqat bitta fazilatini demasang, bir-biriga o'xshash yeri yo'q, lekin shu fazilati ularni bir avlodga birlashtiradi va boshqa odamlardan farqlab turadi. Menga yaqinroq bo'lganlari bilan tanho uchrashib qolganimda ulardan kulardim; ular yo jahli chiqardi, yo chiqmasdi, lekin o'zlari ham o'zlaridan kulishardi. Darhaqiqat, ularning qiziq tomonlari ko'p, eng muhim tomonlarining o'zi qiziq bo'lib, ta'rifi odamligi bilan qiziq tuyulardi. O'zim shunday odamlarni kulgi qilishni yaxshi ko'raman.

Men Lopuxov bilan Kirsanovlar davrasida uchratgan va bunda hikoya qilmoqchi bo'lgan odam Vera Pavlovnaning ikkinchi tushida tuproq xususiyatlari ustida Lopuxov bilan Aleksey Petrovich mulohazalariga izoh berish lozimligining jonli shohididir; izoh shundayki, zamin qanday bo'lsa ham, har holda, unda sog'lom boshoqlar unib-o'sadigan bir parcha yer uchrashi mumkin. Hikoyamdagi asosiy shaxslar: Vera Pavlovna, Kirsanov va Lopuxovning shajarasi, to'g'risini aytganda, buvasi-yu buvisidan nariga o'tmaydi, yuqoridan yana biron katta buvisini zo'rg'a qo'shib qo'ysa bo'lar (katta buvasi allaqachon nom-nishonsiz esdan chiqib ketgan, u – katta buvisining eri bo'lganligi, ismi Kirilligi ma'lum xolos, chunki buvasini Gerasim Kirilich deyisharkan). Raxmetov XIII asrdan buyon ma'lum xonadon avlodlardan, ya'ni faqat bizda emas, butun Yevropadagi eng qadimgi xonadonlardan birining naslidan. Solnomalarda yozilganiga qaraganda, go'yo xalqni musulmon qilmoqchi bo'lganligi uchun (ehtimol, ularning bunday niyati ham bo'lmagandir), lekin aslida, qilgan jabr-zulmlari uchun Tverda qo'shinlari bilan birga kallasi kesilgan tatar tumanboshilari, korpus boshliqlari orasida Raxmet degani ham bor ekan. Tver a'yonining, ya'ni ober-gofmarshal va feldmarshalining jiyani bo'lmish Raxmetning zo'rlab xotin qilib olgan rus xotinidan tug'ilgan kichik o'g'li onasining yuz-xotiri uchun omon qoldirilgan va cho'qintirilib, «Latif» ismi o'zgartirilib «Mixail» deb atalgan. Raxmetovlar mana shu Latif-Mixail Raxmetovichlardan tarqalgan.

Ular Tverda boyarlar edi, Moskvada faqat okolnichiy bo'lishdi, Peterburgda o'tgan asrda general-anshef bo'lganlari bor edi, albatta, hammasi emas: bu xonadonning urug'-aymoqlari juda ko'payib ketgani sababli hammasiga general-ansheflik lavozimi yetmasdi. Bizning Raxmetovimizning buvasining buvasi Ivan Ivanovich Shuvalovning[1] oshnasi edi, u Minix[2] bilan do'st bo'lgani uchun g'azabga duchor bo'layozganda, uni qutqarib qolgan ham shu odam bo'lgan edi. Buvasining otasi Rumyansev[3] bilan birga xizmat qilgan, general-ansheflik darajasiga yetgach, Novi[4] yonida halok bo'lgan edi. Buvasi Tilzitgacha Aleksandrga hamroh bo'lib borgan, bu ketishda hammadan balandroq martabaga erishishi ham turgan gap edi, lekin Speranskiy[5] bilan do'st bo'lgani uchun mansabidan ajrab qolgan. Otasining ishi o'ngidan ham kelmay, mansabidan ham tushmay xizmat qilib kelgan, qirq yoshida general-leytenant unvoni bilan xizmatdan bo'shab, Medveditsa daryosining yuqori oqimidagi tarqoq mulklaridan birida joylashib olgan. Lekin mulklari uncha katta emasdi, hammasi bo'lib unga ikki yarim ming chamasi jon qarardi, bolalari talaygina, qishloqda bekorxo'ja bo'lib yurgan vaqtlarida sakkizta bola ko'rgan edi; bizning Raxmetovimiz kenjasidan kattasi edi, uning singlisi ham bor edi; shu sababdan bizning Raxmetovimiz unchalik boy merosxo'rlardan emasdi: unga to'rt yuz chamasi jon va yetti ming desyatina yer tekkandi xolos. O'ziga tekkan jonlarini va besh ming besh yuz desyatina yerini nima qilganini hech kim bilmasdi, o'ziga bir ming besh yuz desyatina yer qoldirganini ham hech kim bilmasdi, umuman, uning pomeshchikligini ham hech kim bilmasdi, o'ziga olib qolgan yerini ijaraga qo'yib, har holda, hali ham uch ming so'm daromad

---

[1] I.I.Shuvalov (1727–1797) – fan va maorif sohasida ishlagan rus davlat arbobi.

[2] Minix (1683–1767) – rus davlat arbobi. Yelizaveta Petrovnaning taxtga o'tirishiga sababchi bo'lgan saroy o'zgarishidan keyin Anna Ioannovna tarafdori deb surgun qilingan edi.

[3] P.A.Rumyansev (1725–1796) – mashhur rus lashkarboshisi.

[4] Novi yonida bo'lgan jangda (1799) Suvorov boshliq rus qo'shinlari fransuz armiyasini tor-mor keltirgan.

[5] M.M.Speranskiy (1772–1839) – rus davlat arbobi, ma'muriyat sohasida tuzgan islohot loyihalaridan norozi bo'lgan yuqori dvoryanlar guruhining talabi bilan 1811-yilda davlat sekretari vazifasidan olib tashlangan.

olib turardi, oramizda yashab turganidan ham hech kimning xabari yo‘q edi. Biz bulardan keyinchalik xabar topdik, avvallari bo‘lsa, albatta, uni o‘sha Raxmetovlar xonadoniga mansub bo‘lsa kerak, deb taxmin qilib yurardik, ular orasida juda ko‘p boy pomeshchiklar bor edi, hamma Raxmetovlar bir bo‘lib, Medveditsa, Xopra, Sura, Sna daryolarining yuqori oqimida yetmish besh ming jonlari bo'lib, ular doim o‘sha tomonlarda uyezd boshlig‘i vazifasini ado etishardi, goh biri, goh boshqasi doimo o‘sha daryolarning yuqori oqimlarida uch gubernyadan goh unisida, goh bunisida guberna boshlig‘i lavozimida xizmat qilardi. Bizning Raxmetovimiz bir yilda to‘rt yuz rublcha sarf qilishini ham bilardik; bu pul o‘sha vaqtlarda talaba uchun ozlik qilmasdi, ammo Raxmetovlar naslidan bo‘lgan pomeshchik uchun kamlik qilardi; shu vajdan bizning har birimiz bunday ma’lumot olib o‘tirish to‘g‘risida oz o‘ylaganimizdan, hech qanday ma’lumot olmasdanoq, bizning Raxmetovimiz biron-ta surilib, qashshoqlashib qolgan Raxmetovlar naslidan bo‘lsa kerak, bolalariga biroz sarmoya meros qoldirgan davlat palatasi maslahatchisining o‘g‘li bo‘lsa kerak, deb ko‘nglimizga tugib qo‘ygan edik. Aslida bunday ishlar bilan qiziqishimizning nima keragi bor edi, deysiz.

Hozir u yigirma ikki yoshga kirgan, o‘n olti yoshidan buyon talaba; lekin uch yilcha universitetni tashlab qo‘ydi. Ikkinchi kursdan chiqib, mulkka qaytdi, vasiyining qarshiligini yengib, akalaridan la’nat eshitib, o‘z bilganini qilgan, oxiri shu darajaga borib yetganki, opa-singillarining erlari uning nomini tilga olishni ham taqiqlab qo‘yishgan; so‘ngra Rossiyani u boshidan bu boshigacha ming ko‘yda, quruqlikda ham, suvda ham, unaqasiga ham, bunaqasiga ham, chunonchi, piyoda ham kezib chiqqan, yelkanlik kemalarda ham, qayiqlarda ham yurgan, ko‘p sarguzashtlarni boshidan kechirgan, bularni o‘zicha o‘ylab topgan; aytmoqchi, ikki kishini Qozon universitetiga, besh kishini Moskva universitetiga joylab qo‘ygan, bular undan stipendiya olib turishardi, o‘zi Peterburgda turmoqchi bo‘lgani uchun u yerga hech kimni o‘zi bilan ergashtirib kelmagan, shu sababdan hech birimiz uning daromadi to‘rt yuz rubl emas, uch ming rublligini bilmasdik. Bu keyinchalik ma’lum bo‘ldi, u uzoq vaqt yo‘q bo‘lib ketgan, Kirsanovning kabinetida Nyutonning «Apokalipsis»iga bergan

izohini o‘qib o‘tirgan vaqtidan ikki yil ilgari Peterburgga qaytib, filologiya fakultetiga kirgan (ilgari tabiiyot fakultetida edi), biz bilganlarimiz shular edi, xolos.

Raxmetovning Peterburgdagi tanishlaridan birontasi ham uning nasl-nasabidan va mablag‘laridan bexabar bo‘lgani bilan, uni taniydiganlarning hammasi ikki laqabi borligini bilishardi: laqablaridan biri bu hikoyada ko‘zingiz tushgan «rigorist» degan laqabi; unga bu laqabni berishganida xomush mamnunlik bilan miyig‘ida kulib qo‘ya qolgandi. Lekin uni «Nikitushka» yoki «Lomov» deb ataganlarida yoki «Nikitushka Lomov» deb to‘la laqabini aytib murojaat qilganlarida, og‘zi qulog‘iga yetib, juda xursandlik bilan yoqimli kulib qo‘ygandi, shunday qilishga to‘la haqi ham bor edi, chunki tug‘ilishidan bu laqabi bo‘lmasa ham, irodasi mustahkam bo‘lganidan, millionlar orasida shuhrat qozongan bu nomni olish huquqiga ega bo‘lgandi. Lekin bu nom sakkiz guberna joylashgan, kengligi yuz chaqirim yerdagina shuhrat qozongan edi; Rossiyaning qolgan gubernalaridagi kitobxonlarga buning qanday nomligini tushuntirib berish lozim. Bundan o‘n besh-yigirma yil ilgari Volgada burlaklik qilib yurgan Nikitushka Lomov bo‘yi o‘n besh vershok keladigan juda barvasta, yag‘rindor, zabardast odam edi, semiz emas, miqti bo‘lsa ham og‘irligi o‘n besh pud kelardi. Kuchi qanchaligini ko‘rsatish uchun bir misol kifoya: bir o‘zi to‘rt kishining haqini olardi. Kema kelib shahar yonida to‘xtab, u, Volga bo‘ylaridagi ibora bilan aytganda, bozorga borganida, atrof ko‘chalardagi bolalarning: «Nikutushka Lomov kelyapti. Nikitushka Lomov kelyapti!» degan baqiriq-chaqiriqlari eshitilib turardi, buni eshitib hamma pristanga qarab chopardi, olomon bozor ko‘chasiga yig‘ilib, o‘z bahodirining orqasidan ergashib borardi.

Raxmetov o‘n olti yoshida Peterburgga kelganida, ancha baland bo‘yli, pishiq, rasmona yigitchalardan edi-yu, lekin unchalik baquvvat emasdi: unga duch kelgan o‘n nafar tengqurlaridan ikkisi uni bemalol yiqitsa bo‘lardi. Lekin o‘n olti yarimlarga borib qolganida jismoniy boylik ham orttirishim kerak ekan, deb o‘ylab, o‘zining tarbiyatini qila boshladi. Badantarbiyaga zo‘r berdi. Bu ish-ku, yaxshi-ya, lekin badantarbiya bor materialni kamolga yetkazadi xolos, material to‘plash ham kerak edi, shu bilan badantarbiyaga

ketadigan vaqtdan ikki hissa ko‘proq vaqti davomida har kuni bir necha soatdan kuch talab ishlarda qora ishchilik qildi: suv tashidi, o‘tin tashidi, o‘tin yordi, taxta tildi, sangtaroshlik qildi, yer qazidi, temirchilik qildi; ko‘p ishladi, ishlaganda ham har xil ishlarda ishladi, chunki har bir yangi ishda, har bir yangi joyda kishining yangi-yangi mushaklari tobora mustahkam tortib boradi. Bokschilarday parhez qildi: o‘zini nuqul kishini baquvvat qiladigan ovqat bilan boqdi, ha, o‘zini boqdi, ko‘proq bifshteks yedi, o‘shanda ham go‘shtini xomroq pishirib seli bilan yedi, shundan buyon hamisha shu taxlitda kun kechirib keldi. O‘zini shu taxlitda bir yil tarbiyalagach, safarga jo‘nadi, bu ish badantarbiya mashg‘ulotlari uchun yana ham qulayroq bo‘ldi, yer haydadi, duradgorlik qildi, yuk tashidi, kishining sihatiga yaxshi ta’sir qiladigan har xil kasb-hunarda bo‘ldi; bir gal, hatto, Volganing boshidan oyog‘igacha, Dubovkadan Ribinskkacha borib burlaklik qildi. Agar u burlak bo‘lmoqchiman, deb aytsa, kema egasiga ham, burlaklarga ham o‘taketgan bema’nilik bo‘lib ko‘rinardi va uni ishga olishmasdi; lekin u yo‘lovchi bo‘lib kemaga chiqdi, artel bilan inoqlashib, qayish tortuvchilarning yoniga kirdi, bir hafta o‘tgandan keyin rasmona ishchiday boshqalar bilan bab-baravar qayish bog‘lab kema sudradi; ko‘p o‘tmay uning qanday kema sudrashini ko‘rib qolishdi, kuchini sinashdi, tortishmachoqda o‘rtoqlaridan uchtasi, hatto to‘rttasi ham bir bo‘ldi-yu, u ham bir bo‘ldi, to‘rttasidan ham kuchliroq chiqdi; shu kezlarda yigirma yoshda edi, kema sudrashadigan o‘rtoqlari unga o‘sha vaqtda yoshini yashab bo‘lgan qahramon xotirasiga «Nikitushka Lomov» deb laqab qo‘yishdi. Keyingi yil yozda u paroxodda ketayotganida palubada to‘planib turgan avom xalq ichidagilardan biri o‘tgan yil birga kema sudrashgan o‘rtog‘i ekan, shu-shu hamroh talabalar uning laqabi Nikitushka Lomovligini bilib olishdi. Darhaqiqat, u juda baquvvat bo‘lib olgandi, vaqtini ayamay, hamisha baquvvat bo‘lib yurishga harakat qilardi. «Shunday qilish kerak, – derdi u, – shunda oddiy kishilar seni hurmat ham qiladi, yaxshi ham ko‘radi! Buning foydasi bor, bir kun kerak bo‘lib qoladi».

O‘n olti yarim yoshligidan boshiga shu fikr o‘rnashib qolgan, chunki uning o‘ziga xos xislati ham, umuman, shu yoshidan boshlab rivoj topgan. O‘n olti yoshida u Peterburgga kelganida kursni tamom

qilgan oddiy, yaxshi bir gimnazist, yumshoqko'ngil, vijdonli bir yigitcha edi, uch-to'rt oy vaqtini endi o'qishga kelgan talabalar singari o'tkazdi. Lekin talabalar orasida juda aqlli yigitlar bor, ular hamma singari emas, boshqacharoq o'ylashadi, degan gaplar qulog'iga chalinib turdi, shundaylardan beshtasining nomini ham bilib oldi, u vaqtlarda bundaylar hali oz edi. Shunday odamlarga qiziqib qoldi, birontasi bilan tanishib olish payiga tushdi; u Kirsanov bilan uchrashib qoldi, shu bilan o'zgarib, ta'rifi odamga, bo'lg'usi Nikitushka Lomov va rigoristga aylana boshladi. Birinchi kun kechqurun uchrashganida u Kirsanovning gaplarini zo'r e'tibor bilan tingladi, yig'ladi, yemirilishi lozim bo'lgan narsalarga la'natlar o'qib, yashashi lozim bo'lgan narsalarga omad tilab Kirsanovning gaplarini bo'lib turdi. «Qaysi kitobni o'qishdan boshlashim kerak?» – deb so'ragandi, Kirsanov aytdi. Ertasiga erta bilan soat sakkizdayoq Nevskiy prospektida Admiralteyskaya ko'chasi bilan Politseyskiy ko'prigigacha qatnab, qaysi nemis yoki fransuz kitob do'konini oldin ochilishini kutdi, kerak kitobini olib, payshanba kuni soat 11 dan yakshanba kuni kech soat 21.00 gacha surunkasiga uch kundan ko'proq – sakson ikki soat o'qidi; dastlabki ikki tunda uxlamay chiqdi, uchinchi kun kechasi sakkiz stakan juda quyuq qahva ichdi, to'rtinchi kun kechasi har qancha ichsa ham, majoldan ketib yiqildi, shu ko'yi yerda o'n besh soat qotib uxladi. Bir haftadan so'ng Kirsanovning yoniga kelib, yangi kitoblar ko'rsatib, yo'l-yo'riqlar berishini so'radi; u bilan inoqlashib, so'ngra u orqali Lopuxov bilan tanishdi. Yarim yildan keyin, garchi yoshi o'n yettida, Kirsanov bilan Lopuxovning yoshi yigirma birda bo'lsa ham, ular uni o'zlariga qiyosan yosh yigit deb hisoblamay qo'ydilar, u o'zi ham ta'rifi odam bo'lib olgan edi-da.

Uning o'tmish hayotida qanday iste'dod nishonalari bor edi? Uncha katta bo'lmasa ham, lekin nishonalari bor edi. Otasi zolimtabiat, juda aqlli, o'qigan, o'taketgan konservator odam edi. Marya Aleksevna o'taketgan konservator, lekin xalol odam bo'lgani singari, uning otasi ham shu ma'noda o'taketgan konservator edi. Albatta, Raxmetov juda og'ir kunlarni boshdan kechirgan. Faqat shuning o'zi bo'lsa mayliydiku-ya, ancha noziktabiat onasi erining yaramas fe'l-atvoridan ko'p iztirob chekardi, bundan tashqari, u qishloqdagilarning ko'rgan kunidan ham xabardor edi. Bular ham

hali hech gap emasdi: u yana bir og'ir savdoni boshidan kechirgan: o'n besh yoshida otasining o'ynashlaridan birini yaxshi ko'rib qolgandi. Bu xotin, albatta, baloga qoldi. Raxmetovning kasriga jafo chekkan bu xotinning holiga yuragi achidi. Ming xil xayolga bordi, Lopuxov Vera Pavlovnaga qanday asqatgan bo'lsa, Kirsanov ham Raxmetovga shunday asqatdi. O'tmish hayotida iste'dod nishonalari yo'q emas, bor edi, lekin bunday ta'rifi shaxs bo'lishda eng muhimi, albatta, kishining tabiati. Universitetdan chiqib, mulkiga jo'nab ketishidan, so'ngra Rossiyani kezib kelishidan birmuncha avvalroq u ham moddiy, ham ma'naviy, ham aqliy hayotida ajoyib tamoyillarga amal qilish jihatdan qat'iy bir qarorga kelgandi, u qaytib kelganida bu narsalar mukammal bir tartibga tushib qolgan va bu tartibga qat'iy rioya qilardi. U o'ziga o'zi: «Og'zimga bir qatra ham ichkilik olmayman. Xotin zotiga yaqinlashmayman», deb so'z bergandi. O'zi jo'shqin tabiatli odam edi. «Nima keragi bor? Bunchalik bo'lishning aslo keragi yo'q». «Shunday qilish kerak. Biz kishilar turmushdan to'la lazzat olsin deb talab qilganimizdan keyin, buni o'z nafsimizni qondirish uchun emas, o'zimiz uchun emas, balki umuman insonlar uchun talab qilayotganimizni, o'z nafsimizmi deb emas, balki, faqat tamoyilni deb, o'z shaxsiy ehtiyojimizni deb emas, balki e'tiqodimizni deb talab etayotganimizni turmushimiz bilan ham isbotlashimiz lozim».

Shu sababdan ham u, umuman, o'zini ataylab qiynoqqa solib, og'ir hayot kechirdi. Nikitushka Lomov bo'lib olish va hamisha shunday yurish niyatida juda ko'p mol go'shti tanovul qilishi lozim edi, u ko'p mol go'shti yedi. Lekin u mol go'shtidan boshqa biron ovqatga bir tiyin sarf qilishga ham ko'zi qiymasdi; uy bekasiga, men uchun eng yaxshi mol go'shti oling, eng yaxshi joylaridan oling, deb aytib turardi-yu, lekin uyda yeydigan boshqa hamma ovqatlari nuqul arzon narsalar bo'lardi. Oq non yemasdi, uyda nuqul qora non yerdi. Haftalab og'ziga bir chaqmoq ham qand solmasdi, oylab hech qanday meva, biron burda buzoq go'shti yoki parranda go'shti yemasdi. Bunday narsalarga pul ham sarf qilmasdi: «Bu noz-ne'matlarsiz ham yashasa bo'ladi, bularga pul sarf qilishga haqim yo'q», derdi. Holbuki, o'zi dasturxoni to'kin-sochin, badavlat oilada o'sgan, ovqat xillari to'g'risidagi gaplariga qaraganda, didi

ham yomon bo‘lmasa kerak; biron oshnasinikida ovqatlanganida o‘z uyida sira tayyorlatmaydigan xilma-xil ovqatlarni jon deb yerdi, ba’zi bir ovqatlarni esa birovning dasturxonidan ham yemasdi. Bunday farq qilishiga bahonasi ham chakki emas: «Avom xalq goh-gohda bo‘lsa ham yeydigan ovqatni to‘g‘ri kelganda men ham yeyman. Avom xalqning tushiga ham kirmaydigan ovqatni men ham yemasligim kerak! Bu menga avom xalqning turmushi mening turmushimdan qanchalik og‘irligini bir qadar sezib qo‘yishim uchun kerak», derdi. Shu sababdan agar dasturxonga meva qo‘yilsa, u nuqul olma yerdi, gilosga qo‘l ham urmasdi; Peterburgda bo‘lganida apelsin yerdi, provinsiyada bo‘lganida yemasdi, ko‘rdingizmi, Peterburgda avom xalq ham apelsin yeydi, provinsiyada qayoqdan yeydi? Pashtet yerdi, chunki «yaxshi pirogning pashtetdan kam yeri yo‘q, qatlama somsani avom xalq ham biladi», derdi, lekin sardinka baliq yemasdi. Ko‘rkamlikni xush ko‘rsa ham, lekin faqirona kiyinib yurardi, boshqa hamma jihatlardan qanoatli, qashshoq hayot kechirardi; masalan, to‘shakda emas, namatda yotardi, hatto namatni ham ikki buklab solmasdi.

Bir narsadan vijdoni azoblanib yurardi – u chekishni tashlamagandi: «Sigara chekmasam fikrlay olmayman; rostdan shunday bo‘lsa, demak, men haqman, balki bu irodasizlikdandir». Lekin yomon sigaraga tobi yo‘q edi – axir, o‘zi zodagonlar orasida tarbiyalangan. Uning to‘rt yuz rubllik chiqimidan yuz ellik rublchasi sigaraga ketardi. Bu illatini: «Qabih o‘chlik», derdi. Uning shu illati kishiga biroz qo‘l kelardi: o‘zi biror kishining aybini ochib, juda savalasa, savalanayotgan kishi: «Benuqson kishi bo‘larkanmi, o‘zing ham chekasan-ku», derdi, bunday hollarda Raxmetovning jazavasi battar tutardi, lekin ta’nalarining yarmidan ko‘prog‘ini o‘ziga qilardi, garchi o‘zi bilan ovora bo‘lib, uni aslo esidan chiqarmasa ham, har holda, aybi ochilayotgan kishiga ozroq tegardi.

U juda ko‘p ish qilardi, chunki moddiy masalalarda o‘zini qanchalik tiyib qo‘ygan bo‘lsa, vaqtini ham shunchalik ehtiyotlardi. Bir oyda chorak soat vaqtini ham bekorga ketkizmasdi, «dam olish» degan narsani bilmasdi. «Ishlarimning o‘zi har xil, bir ishdan ikkinchi ishga ko‘chishning o‘zi dam olish bo‘ladi», derdi. Oshna-og‘aynilari bilan qancha tez uchrashib turishi lozim bo‘lsa,

shuncha uchrashib turardi, ular Kirsanovnikida yoki Lopuxovnikida yig'ilishardi: «Bu kerakli ish; kundalik voqea-hodisalar ma'lum bir guruh odamlar bilan yaqin aloqada bo'lib turish lozimligini ko'rsatyapti, har turli ma'lumotlar uchun ixtiyoringda doimo zarur manbalar bo'lishi lozim», derdi. Agar ishi bo'lmasa, shu odamlar to'planadigan joydan boshqa hech kimnikiga hech vaqt bormasdi, ishi bitgach, ortiq besh daqiqa ham o'tirmasdi; uyida ham hech kimni qabul qilmasdi, qabul qilganda ham faqat haligiday shartlar bilan qabul qilardi; ishi tamom bo'lgandan keyin hech tortinib-netib o'tirmasdan: «Ishingiz to'g'risidagi gapimiz tugadi; endi ruxsat etsangiz boshqa ishlar bilan shug'ullansam, vaqt g'animat», derdi.

Qayta olamga kelgan dastlabki oylarida betinim kitob o'qidi; lekin bu ishi yarim yildan sal ko'proq davom etdi: prinsiplari to'g'riligiga ko'zi yetib, fikr tarzi tartibga tushgandan keyin, darhol o'ziga o'zi: «Kitob o'qish endi ikkinchi darajali ish bo'lib qoldi; bu jihatdan hayotga tayyorman», dedi. Shu bilan boshqa ishlardan bo'sh vaqtlarinigina kitob o'qishga sarfladi, lekin bo'sh vaqti oz bo'lardi. Shunga qaramasdan, bilimini boyitib bordi: yigirma ikki yoshida mustaqil olim darajasiga yetdi. Chunki bu ishda ham hech qanday zeb-ziynat, hashamat bilan ishing bo'lmaydi, faqat kerak ishni qilasan, deb o'ziga qat'iy bir qoida tuzib olgandi. Kerak ishi qaysilar edi? U bunday derdi: «Har bir predmetdan yozilgan katta asarlar juda oz; boshqa asarlarning hammasida mana shu ozgina asarlardagi gaplar takrorlangan, suyuqlashtirilgan, buzilgan. Faqat shu asarlarni o'qish kifoya; boshqa asarlarni o'qiganda vaqt bekor ketadi. Masalan, rus belletristikasini olaylik. Dastlab Gogol asarini o'qib chiqaman, deyman. Minglarcha boshqa hikoyalarda besh sahifadagi besh satrdanoq buzilgan Gogol asarlaridan boshqa narsani ko'rmayman, bas, ularni o'qib nima qilaman? Fan sohasida ham shunday, fan sohasida bu hol yanada aniqroq ko'rinib turadi. Agar men Adam Smit, Maltus, Rikardo va Mill asarlarini o'qigan bo'lsam, bu oqimning ipidan ignasigacha bilaman, bas, qolgan siyosiy iqtisodchilar har qancha mashhur bo'lsa ham ularning yuztasidan bittasining asarini o'qib o'tirishimning ham hojati yo'q; besh betini varaqlab, besh yo'ldan o'qib chiqsam ham ularning o'zidan chiqqan biron-bir yangi fikr topolmasligim aniq, hammasi ko'chirib olingan va buzilgan. Mustaqil fikr aytilgan bo'lsa, shuni

o‘qiyman, shu mustaqil fikrni bilib olishim uchun qancha zarur bo‘lsa, shuncha o‘qiyman». Shu sababdan uni Makoley asarlarini o‘qishga sira majbur qilib bo‘lmasdi; chorak soat kitobning u yoq-bu yog‘idan varaqlab: «Bu quroqlarning qanday lattalardan tikilganini bilaman», deb qo‘yardi. Tekkereyning «Jonsaraklik yarmarkasi» degan asarini maza qilib o‘qidi, «Pendennis»ni o‘qiy boshlagandi, yigirmanchi betiga yetganida kitobni yopib qo‘ya qoldi: «Bor-yo‘g‘ini «Jonsaraklik yarmarkasi»da aytib bo‘ldi, shekilli, biron yangilik chiqmaydiganga o‘xshaydi, o‘qib o‘tirishning keragi yo‘q», dedi. O‘qib chiqqan har bir kitobim shundayki, bular yuzlarcha boshqa kitoblarni o‘qish zaruratidan qutqaradi», derdi u.

Badantarbiya, kuch-quvvatni oshirish ishlari, kitob o‘qish – Raxmetovning shaxsiy ishlari shular edi, lekin Raxmetov Peterburgga qaytib kelganidan keyin vaqtining to‘rtdan biri shu ishlarga ketardi, qolgan vaqtda boshqalarning ishi bilan yoki, ayniqsa, hech kimga taalluqli bo‘lmagan xolis ishlar bilan band bo‘lardi, o‘qishda qanday qoidaga amal qilsa, bu ishlarda ham doimo shu qoidaga amal qilardi: ikkinchi darajali ishlar va ikkinchi darajali odamlarga vaqt sarf qilib o‘tirmasdan, faqat katta ishlar bilan shug‘ullanardi, ikkinchi darajali ishlar va shundaylar rahbarligi ostida bo‘lgan odamlar shu katta ishlar tufayli o‘z-o‘zidan hal bo‘lib ketardi. Masalan, fikrdosh do‘stlaridan boshqa faqat boshqalarga ta’sirini o‘tkaza oladigan odamlar bilan tanishdi. Bir necha boshqa kishilar oldida obro‘si bo‘lmagan kishi ming urinsa ham u bilan, hatto, gaplasha olmasdi. Bunday hollarda u: «Kechirasiz, vaqtim yo‘q», derdi-da, o‘zini chetga olardi. Agar u biron kimsa bilan tanishmoqchi bo‘lsa-yu, u odamning tanishgisi bo‘lmasa, baribir tanishmay qo‘ymasdi, tanishib olardi. U to‘g‘ri yoningizga kelardi-da, aytmoqchi bo‘lgan gapini aytardi, gapini aytishidan avval: «Men siz bilan tanishmoqchiman; zarurat tug‘ilib qoldi. Hozir vaqtingiz bo‘lmasa, boshqa vaqt tayinlang», derdi. Mayda-chuyda ishlaringizga sira e’tibor qilmasdi, siz uning juda yaqin tanishi bo‘lsangiz-u, mushkulimni oson qiling, deb ming yalinsangiz ham nazar-pisand qilmasdi: «Vaqtim yo‘q», derdi-da, burilib o‘z ishiga ketaverardi. Lekin muhim ishligini bilsa, sezsa, hech kim bu ishga uning aralashuvini xohlamasa ham aralashardi: «Aralashishim kerak», derdi-qo‘yardi. Bunday hollarda uning nimalarni gapirgani

va nimalar qilganiga odamning sira aqli yetmasdi. Masalan, mening u bilan qanday tanishganimni so‘ramaysizmi? U vaqtda yosh emasdim, uncha-munchani ko‘rib ,ancha pishib qolgandim, shu sababdan provinsiyamdan menikiga hamma vaqt besh-oltita yosh yigitlar kelib turardi. Demak, men o‘sha vaqtdayoq uning nazarida qimmatli odam edim; bu yosh yigitlarning menga ixlosi baland edi, men ham ulardan umidvor edim; shu tufayli u nomimni eshitib qolibdi. Men uni Kirsanovnikida dastlab ko‘rganimda u haqda hali hech narsa eshitmagandim: sayohatdan qaytib kelgan kezlari ekan. U mendan keyin kirib keldi; bu yerdagilardan unga faqat men tanish emasdim. Kelganidan keyin, Kirsanovni bir chekkaga olib chiqdi-da, ko‘zi bilan menga ishora qilib unga bir-ikki og‘iz gapirdi. Kirsanov ham unga bir necha og‘iz gap bilan javob berdi. Bir daqiqadan keyin Raxmetov ro‘paramga, divan yonida turgan kichik bir stol yoniga kelib o‘tirdi-da, bir yarim gaz masofadan basharamga tikilib oldi. Ta’bim xira bo‘ldi: qarshisidagi odam emas, biron suratday, hech tap tortmay boshimdan oyog‘imgacha razm solib o‘tirdi, men qovog‘imni solib oldim. U pinagini ham buzmadi. Ikki-uch daqiqa shunday tikilib turganidan keyin menga: «Janob N, men siz bilan tanishib olishim kerak. Men sizni taniyman, siz meni tanimaysiz. Men to‘g‘rimda uy egasidan, bu yerdagilarning qaysi biriga ko‘proq ishonsangiz, shundan so‘rang», dedi-da, o‘rnidan turib, boshqa xonaga kirib ketdi. «Bu qanaqa tentak?» – degandim, «Bu Raxmetov, sizni, unga ishonsa bo‘ladimi, deb so‘rasin deyapti, haqiqatan ham, unga e’tibor bersa arzirmikin, bu yerdagilarning hammasidan ham zarurroq», deb javob qaytardi Kirsanov, boshqalar ham uning so‘zini tasdiqlashdi. Besh daqiqadan keyin Raxmetov hamma o‘tirgan xonaga kirib keldi. Men bilan gaplashmadi ham, boshqalar bilan ham oz gaplashdi, biron-bir ilmiy, muhim gap bo‘lgani yo‘q. Oradan birmuncha vaqt o‘tgach, «Iye, soat o‘n bo‘lib qolay deyapti-ku. Soat o‘nda boshqa bir joyda ishim bor. Janob N, – deb menga murojaat qildi, – sizga aytadigan bir og‘iz gapim bor. Kimligingizni so‘rash niyatida uy egasini bir chekkaga olib borganimda sizga qarab qo‘ydim, chunki, baribir, sizni surishtirayotganimni payqashingiz turgan gap edi: demak, bunday hollarda ana shu kabi imo-ishoralar qilmaslik behuda ish bo‘lardi, bu tabiiy hol. Siz uyingizda qachon

bo‘lasiz, huzuringizga kirishim kerak». Men u vaqtlarda yangi tanish orttirishni xush ko‘rmasdim, bu kishining o‘z ixtiyorimga qo‘ymay, men bilan tanishmoqchi bo‘lgani sira ham yoqmadi. «Men uyimga faqat uxlagani boraman: kun bo‘yi uyda bo‘lmayman», dedim. «Uyingizga uxlagani borasizmi? Uxlagani qay vaqtlarda borasiz?» – «Juda kech qaytaman». – «Masalan?» – «Soat ikki-uchlarda». – «Mayli, vaqt tayinlang». – «Agar siz, albatta, ko‘rishmoqchi bo‘lsangiz, ertadan keyin, ertalab soat uch yarimda». – «Sizning bu gaplaringizni, albatta, men kulgi va dag‘allik deb bilishim lozim bo‘lsa kerak; ehtimol, ma’qul bo‘larli uzringiz bordir. Har holda, ertadan keyin erta bilan soat uch yarimda siznikida bo‘laman». – «Siz juda qat’iy qaror qilgan bo‘lsangiz, yaxshisi, sal kechroq borsangiz ham bo‘lar: ertalabdan to soat o‘n ikkigacha uyda bo‘laman». – «Juda soz, soat o‘nlarda boraman. Yolg‘iz o‘zingiz bo‘lasizmi?» – «Ha». – «Juda soz». U aytgan vaqtida keldi-da, u yoq-bu yoqdan aylantirib o‘tirmasdan, nima uchun tanishishni lozim topgan bo‘lsa, gapni shundan boshladi. Yarim soatcha suhbatlashib o‘tirdik; suhbatimiz nimalar ustida borganining ahamiyati yo‘q. Shunisi ham kifoya qilsa kerakki, u: «Lozim», desa, men «yo‘q», dedim; u: «Siz majbursiz», desa, men «hech», dedim. Yarim soatdan keyin u: «Gapni cho‘zishdan foyda yo‘q ekan. Siz o‘zingiz so‘zsiz ishonsa bo‘ladigan odamligimga ishonch hosil qildingizmi?» – degan edi, men: «Hammalari menga shunday deyishdi, hozir o‘zim ham ko‘rib turibman», dedim. «Shunday bo‘lsa ham o‘z fikringizda qolasizmi?» – dedi. «Qolaman», dedim. «Bundan qanday xulosa chiqishini bilarsiz? Siz yo bir yolg‘onchi, yo bo‘lmasa bema’ni odamsiz!» Bu gapiga nima deysiz? Bu gap boshqa odamning og‘zidan chiqsa nima qilish kerak bo‘lardi? Duelga chaqirish lozim bo‘larmidi? Lekin u gapirganda, hech bir shaxsiy his-tuyg‘uni aralashtirmasdan, birovning ko‘nglini og‘ritish uchun emas, balki haqiqatni topish uchun vazminlik bilan hukm chiqaruvchi tarixchi singari gapirardi, o‘zi ham shu qadar g‘alati odam ediki, undan xafa bo‘lishning o‘zi kulgili bo‘lardi, shu sababdan men kulib qo‘ya qoldim. «Unisi ham, bunisi ham baribir-ku», degan edim, «Bu masalada baribir emas», dedi. «Balki men unisi ham, bunisi hamdirman», degandim, «Bu masalada unisi ham, bunisi ham birga bo‘lishi mumkin emas. Lekin ikkisining

biri bo‘lishingiz turgan gap: yo sizning o‘ylaydigan va qiladigan ishingiz bilan gapingiz bir emas: u holda siz yolg‘onchisiz; yo o‘ylaydigan va qiladigan ishingiz ham, gapingiz ham bir: unda bema’ni odamsiz. Ikkisidan biri ekanligingiz turgan gap. Nazarimda, birinchisi bo‘lsangiz kerak», dedi. «Kim deb o‘ylasangiz, o‘zingiz bilasiz», dedim men hamon iljayib. «Xayr, har holda, bilib qo‘ying, sizga bildirgan ishonchim o‘z o‘rnida qola beradi, qachon lozim topsangiz, suhbatimizni davom ettirishdan qochmayman», dedi. Bu voqea qanchalik xunuk bo‘lmasin, Raxmetovning gapi mutlaqo to‘g‘ri edi, gapni shundan boshlagani ham to‘g‘ri edi, chunki u avval meni yaxshilab bilib olib, keyin gap boshlagandi; gapni shunday tamomlashi ham to‘g‘ri edi; men unga haqiqatan ham dilimdagini aytmagandim, u meni yolg‘onchi deyishga haqqi bor edi, bu menga qattiq botmasdi ham, hatto, uning iborasi bilan aytganda, «u holda» men uchun qaltis masala ham emasdi, chunki o‘zi shunday fursat to‘g‘ri kelgandi, binobarin, u haqiqatan menga ilgarigiday ishonsa, hatto hurmat qilsa, buning biron qiziq yeri ham yo‘q edi.

Uning xulq-atvori juda qiziq bo‘lishiga qaramasdan, odamlar: «Raxmetov juda aqlli odam, qilgan ishlari ham juda to‘g‘ri», deb ko‘ngli to‘q bo‘lardi, u juda achitib, gapirganida ham shunday qilardiki, aql-farosatli odam undan xafa bo‘lmasdi, o‘zi o‘taketgan qo‘rs ko‘rinsa ham, aslida juda muloyim odam edi. Uning pisanda qilib aytib qo‘yadigan qiziq-qiziq gaplari bo‘lardi. Biron qaltisroq gap aytadigan bo‘lsa, odatda, bunday boshlardi: «Mening shaxsiy his-tuyg‘uga berilmay gapirishimni o‘zingiz bilasiz. Gaplarim dag‘alroq tuyulsa, uzr. Lekin haq gap hech kimni ranjitmasa kerak, haqorat qilish niyatida emas, zaruratdan gapirilyapti. Gaplarimga quloq solib o‘tirish ortiqchaligiga ko‘zingiz yetgan zamon so‘zimni bas qilaman; odatim shu: lozim topsam, fikrimni o‘rtaga tashlayveraman, lekin hech vaqt xiralik qilib yopishib olmayman», derdi. Rostdan ham yopishib olmasdi: bordi-yu, gapirish lozim deb bilsa, fikrini, albatta, uqtirardi, nima haqda va qanday ma’noda gapirganini anglamasligingizga o‘rin qolmasdi: lekin ikki-uch og‘iz so‘z bilanoq sizga fikrini uqtirardi-da, so‘ngra sizdan: «Endi gapimning mazmunini payqab olgandirsiz, shu to‘g‘rida gaplashsak, suhbatimizdan ma’no chiqar, deb o‘ylaysizmi?» – derdi. Agar siz «yo‘q» desangiz, ta’zim qilardi-da, nari ketardi.

Shu xilda suhbatlashar, shu xilda ishlardi, ishi-ku, boshidan oshib yotardi, hammasi shaxsan o'ziga tegishli bo'lmasdi, lekin qanday ishligini sheriklari ham bilmasdi. Ammo boshida tashvishi ko'pligini hamma sezib turardi. Uyida kamdan kam bo'lardi. Yurgani yurgan, qatnagani qatnagan edi; ko'proq piyoda yurardi. Uning uyiga ham ko'p odam kelib-ketib turardi, goh yangi-yangi odamlar paydo bo'lib qolardi; bunday keldi-ketdi uchun u hamma vaqt soat ikkidan uchgacha uyda bo'lardi; bu vaqtda u ish ustida gaplashar va ovqatlanib olardi. Ba'zan bir necha kunlab uyiga kelmay ketardi. Bunday vaqtlarda unga sadoqatli bo'lgan va o'lsa ham sir boy bermaydigan eng yaqin o'rtoqlaridan biri uning o'rniga uyda o'tirib, kelgan-ketganlarni kutib olardi.

Biz uni Kirsanovning kabinetida Nyutonning «Apokalipsis»iga bergan izohini ko'zdan kechirib o'tirgan holida uchratganimizdan ikki yilcha keyin, Kirsanovga va yana ikki-uch juda yaqin do'stlariga, bu yerda boshqa ishim qolmadi, qo'limdan kelgan hamma ishlarni bajarib bo'ldim, endi yana uch yillardan keyin ishlasa bo'ladi, xullas, shu uch yilim bo'sh, kelgusidagi ishlarim uchun shu uch yillik fursatdan foydalanishni mo'ljallab qo'ydim, deb Peterburgdan jo'nab ketdi. Keyinchalik bilsak, u sobiq mulkiga borib, qo'lida qolgan yerini o'ttiz besh mingga sotibdi, keyin Qozon va Moskvaga boribdi, yetti stipendiatining kursini tamomlashiga yordam tariqasida besh mingchasini ulashibdi; uning chinakam tarixi shu bilan tugagan edi. Moskvadan qayoqqa g'oyib bo'lgani noma'lum. Bir necha oy dom-daraksiz yo'qolib ketgandan keyin u haqda hammaga ma'lum narsalardan bo'lak biron gapdan xabardor bo'lgan kishilar, u oramizda yurganida, uning iltimosi bilan yashirib yurgan gaplarni endi sir tutmay qo'yishdi. Ana o'shanda yor-do'stlarimiz uning stipendiatlari ham borligini bilib olishdi, men hikoya qilib bergan shaxsiy munosabatlarining katta qismidan ham, yana ko'pgina voqealardan ham xabardor bo'lishdi, bu voqealardan, aytmoqchi, hamma gaplar ravshanlashmasdi, bular tufayli Raxmetov yor-u do'stlari nazarida yanada sirli shaxsga aylanardi, bular shu qadar ajoyib va g'aroyib voqealar ediki, hammani hayron qoldirar yoki yor-u do'stlarning u haqdagi tushunchasiga – o'z shaxsiy his va tuyg'ulariga kelganda, ta'bir joiz bo'lsa, qalb degan narsadan mahrum, shaxsiy hayot degan narsani aslo bilmaydigan nihoyatda

bag‘ritosh bir odam, degan tushunchaga tamomila zid kelardi. Bu o‘rinda ushbu voqealarning hammasini hikoya qilib o‘tirishning keragi yo‘q. Har xil voqealarning har biridan bittadan, faqat ikki voqeani misol keltiraman: biri – juda ajoyib voqea, yana biri – uning yor-u do‘stlarining u haqdagi ilgarigi fikriga tamomila zid keladigan voqea. Kirsanov aytib bergan hikoyalardan tanlab aytaman.

Raxmetov Peterburgdan ikkinchi marta, ehtimol, so‘nggi marta g‘oyib bo‘lishidan bir yil ilgari Kirsanovga: «Tig‘ jarohatlarini tuzatadigan malhamlardan ko‘proq bering», debdi. Kirsanov bu malhamlarni u qo‘l-oyoqlarini tez-tez kesib turadigan duradgorlar yoki boshqa kosiblar arteliga oborib bersa kerak, deb o‘ylabdi-da, kattakon bir bankada malham beribdi. Ertasiga erta bilan Raxmetov istiqomat qilib turgan uy bekasi dod solib Kirsanovning oldiga kelibdi. «Tabibjon, uyimda turuvchi odamga bir balo bo‘lganga o‘xshaydi, anchadan buyon xonasidan chiqmaydi, eshikni ichidan bekitib olibdi, eshik tirqishidan qarasam, qip-qizil qoniga bo‘yalib yotibdi; dod deb baqirsam, ichkaridan turib: «Agrafena Antonovna, hech gap bo‘lgani yo‘q», deydi. Hech narsa bo‘lgani yo‘q emish! Tabibjon, tezroq borib yordam bering, o‘lib-netib qolsa sho‘rim quriydi. O‘zini hech ayamaydigan odam», debdi. Kirsanov yugurganicha kelibdi. Raxmetov xomush jilmayib eshikni ochibdi. Kirsanov qarasa, faqat Agrafena Antonovna emas, boshqalar ham qo‘rqib ketadigan ahvolga tushib qolganmish: Raxmetovning butun ich kiyimlari (u ich kiyimda ekan) qip-qizil qon, karavotining tagi ham, yotgan namati ham – hammasi qip-qizil qon emish; namatga uchini yuqoriga qilib yuzlab mayda mix qoqilganmish, mixning uchi namatdan salkam yarim vershok chiqib turganmish; Raxmetov kechasi shu mixlar ustida yotib chiqibdi. «Bu nimasi, Raxmetov, sizga nima bo‘ldi?» – deb dahshat ichida so‘rabdi Kirsanov. «Sinov. Kerak bo‘lib qoladi. Albatta, aqlga to‘g‘ri kelmaydigan ish-ku, lekin, har holda, asqatishi mumkin. Nazarimda, bardosh beradigan ko‘rinaman», debdi. Bundan yana shu narsa ma’lum bo‘ladiki, Raxmetovning ko‘rgan-kechirganlaridan tashqari, uy bekasi ham Raxmetov to‘g‘risida juda ko‘p qiziq-qiziq voqealarni aytib berishi mumkin ekan, lekin o‘zi sofdil, ochiqko‘ngil kampir bo‘lgani uchun Raxmetovni jon-dilidan yaxshi ko‘rardi: albatta,

undan biron gap olish mumkin edi. Uy bekasining bu gal ham Kirsanovga yugurib kelganiga sabab, Raxmetovning o'zi uni tinchitish uchun mayli degan ekan: kampir Raxmetov o'zini o'ldirib qo'yadi, deb yig'layverib bezor qilgan ekan.

Shundan ikki oycha keyin, may oyining oxirlarida, Raxmetov bir haftami, ko'proqmi dom-daraksiz ketibdi, lekin o'shanda buni hech kim sezmabdi, chunki uning bir necha kunlab yo'q bo'lib ketish odatlari avvaldan bor ekan. Kirsanov endi Raxmetovning shu kunlar boshidan nimalar kechganini aytib berdi. Bu Raxmetov hayotidagi ishqiy sarguzashtlar davri bo'lgan. Nikitushka Lomovga munosib bir voqeaning oqibati muhabbatga aylanib ketgan. Raxmetov birinchi Pargolovdan shahar tomon o'rmonchilik instituti yonida odaticha yerga qarab xayol surib kelayotgan ekan. Shunda bir ayolning dod deb baqirganini eshitib o'ziga kelibdi; qarasa, sharaban aravada sayr qilib yurgan bir xonimning oti olib qochgan ekan, otni xonimning o'zi haydab ketayotgan ekan, jilovni tortolmay qolibdi, jilov yerda sudralib ketayotganmish, ot ikki qadam narida ekanida Raxmetov unga tashlanib, tutmoqchi bo'lgan ekan, chap berib, jilovidan tutolmay qolibdi, aravani keyingi o'qiga yopishib to'xtatibdi, o'zi esa yiqilibdi. Odamlar yugurib kelib xonimni aravadan tushirishibdi, Raxmetovni o'rnidan turg'azishibdi; Raxmetovning ko'kragi biroz ezilibdi, lekin arava g'ildiragi oyog'ining bir parcha go'shtini yulib ketgani yomon bo'libdi. Xonim o'ziga kelgach, Raxmetovni chorbog'imga olib boringlar, debdi. Chorbog'i yarim chaqirimcha joyda ekan. Raxmetov madordan ketgani uchun rozi bo'libdi, lekin boshqani emas, faqat Kirsanovni toptirib kelinglar, deb talab qilibdi. Kirsanov ko'rib, ko'kragining ezilgani hech gapmas, majolsizligining sababi ko'p qon ketganidan, debdi. Uch kuncha yotibdi. Raxmetov falokatdan qutqarib qolgan xonimning o'zi uni parvarish qilibdi. Madorsizlik tufayli uning biron ish qilishi mumkin bo'lmay qolibdi, xonim bilan suhbatlashib o'tirishdan boshqa iloji qolmabdi, vaqti baribir bekor ketarkan-da, u yoq-bu yoqlardan gaplashib yotibdi. Xonim o'n to'qqizlarda tul qolgan ayol ekan, ancha badavlat, o'z izmi o'zida, aqlli-hushli xotin ekan. Raxmetovning, albatta, sevgi haqidagi emas, shunchaki otashin gaplarini eshitib xonim unga

maftun bo‘lib qolibdi: «Uning nurafshonligini tushlarimda ham ko‘rib chiqardim», debdi xonim Kirsanovga. U ham xonimga oshiq bo‘lib qolibdi. Xonim uning ust-boshi, turish-turmushiga qarab, hech vaqosi yo‘q odam, deb yurgan ekan, Raxmetov o‘n bir kunda o‘rnidan turib, endi ketsam ham bo‘ladi, deganida, xonim sevgi izhor etib, nikohdan o‘taylik, deb taklif qilgan ekan. U: «Boshqalardan ko‘ra siz bilan ochiqroq gaplashdim; mendek kishilarning o‘z taqdirini boshqa odam taqdiri bilan bog‘lashga haqi yo‘qligini o‘zingiz ham ko‘rib turibsiz», debdi. Xonim ham: «To‘g‘ri aytasiz, sizning uylanishingiz mumkin emas. Lekin tashlab ketguningizga qadar bo‘lsa ham suysangiz, shunga ham roziman», debdi. «Yo‘q, bu shartga ham ko‘nishim mumkin emas, – debdi u, – men o‘zimdagi sevgi otashini o‘chirishim kerak: sizni sevsam, qo‘l-oyog‘im bog‘lanib qoladi, shunday ham ular ipsiz bog‘lanib turibdi, hali-beri yechilishi ham qiyin. Lekin yechib olaman. Men birovni sevishim mumkin emas». Keyin bu xonimning taqdiri nima bo‘libdi? Xonimning hayotida katta o‘zgarish bo‘lishi kerak edi; uning o‘zi ham ta’rifi odamga aylanibdi. Men shuni bilgim keldi. Lekin bilolmadim. Kirsanov menga uning ismini aytmadi, uning taqdiri nima bo‘lganini o‘zim ham bilolmadim: Raxmetov Kirsanovdan iltimos qilib, u bilan uchrashmayam, u haqda birovdan biron narsa so‘ramayam, degan ekan. «Agar men sizni u haqda biron narsa biladi, deb o‘ylasam, o‘zimni tiya olmay sizdan so‘rayman, bu yaxshi emas», debdi. Hammamiz shu voqeadan xabardor bo‘lganimizdan keyin o‘sha vaqtlarda – bir yarim yoki ikki oydan keyin, balki undan ham ko‘proq o‘tgach, Raxmetovning avvalgidan ham avzoyi buzilib, qovog‘i ochilmay qolgani yodimizga tushdi, qabih odatini, ya’ni sigara chekishini yuziga solib har qancha achitib gapirsak ham o‘zini o‘zi savalash odatini qilmadi, uni Nikitushka Lomov deb, unga har qancha xushomadgo‘ylik qilsak ham, salgina iljayib ham qo‘ymadi. Boshqa voqealar ham esimga tushdi: o‘sha yili yozda, men bilan gaplashganida, uch-to‘rt marta, birinchi marta gaplashganimizdan keyin oradan birmuncha vaqt o‘tgach, men undan (ikkovimiz yolg‘iz qolganimizda) kulganim uchun meni yoqtirib qolgandi, kulib aytgan gaplarimga javoban: «Mayli, mening ahvolimga achinavering, achinib to‘g‘ri qilasiz, axir men mavhum g‘oya emasman, men ham odamman, mening

ham yashagim keladi», dedi-yu, yana: «Mayli, hechqisi yo‘q, o‘tib ketadi», deb qo‘shib qo‘ydi. Aytganday, o‘tib ketdi ham. Lekin bir gal, men uni juda kulgi qila berib joniga tekkanimda, hatto kech kuzda ham qo‘yarda-qo‘ymay, shu so‘zlarni aytishga majbur qilganimda shunday degan edi. Mana shundan keyin, farosatli kitobxon, ehtimol, mening Raxmetov haqida aytgan gaplarimdan boshqa ko‘proq narsalarni ham bilishimga fahmi yetgan bo‘lsa kerak. Ehtimol, shundaydir. Men unga e’tiroz bildirib biron narsa deyolmayman, chunki u farosatli kitobxon. Lekin men bilganda ham ozmuncha narsani bilmayman, sen farosatli kitobxon, men bilgan narsalarni bir umr ham bilolmaysan. Lekin bilmagan narsamni bilmayman: hozir Raxmetov qayerda, ahvoli qalay, uni keyinchalik yana ko‘ramanmi-yo‘qmi? Uning barcha tanish-bilishlari u haqda nimani bilsa, men ham shundan boshqa hech narsa bilmayman ham, hech qanday taxmin qilmayman ham. Moskvadan g‘oyib bo‘lganiga uch-to‘rt oy bo‘lib, dom-daraksiz yo‘qolganda hammamiz uni Yevropada sayohat qilib yurgan bo‘lsa kerak, deb o‘yladik. Bu taxminimiz ham to‘g‘ri bo‘lsa kerak. Har holda, uni tasdiqlaydigan hodisa yuz berdi. Raxmetov yo‘qolib ketganiga bir yil bo‘lganda Kirsanovning tanishlaridan biri Venadan Myunxenga ketayotganida vagonda bir yosh rus yigitini uchratibdi, u yigit, barcha slavyan yerlarini aylanib chiqdim, borgan joylarimda jami sinflar bilan yaqin munosabatda bo‘ldim, aholining hamma asosiy qismlarining tushunchalari, xulq-atvori, turmush sharoiti, maishiy muassasalari, badavlatligini obdan bilib olish uchun qancha vaqt kerak bo‘lsa, shuncha istiqomat qilib turdim, buning uchun shaharlarda ham, qishloqlarda ham bo‘ldim, qishloqdan qishloqqa piyoda bordim, keyin xuddi shu zaylda ruminlar bilan, vengerlar bilan ham tanishib chiqdim. Shimoliy Germaniyani kezdim, yayov yurgan vaqtlarim ko‘p bo‘ldi, undan yana janubga, Avstriyaning nemislar yashaydigan viloyatlariga o‘tdim, hozir Bavariyaga ketyapman, undan Shveysariyaga, Vyurtemberg va Baden orqali Fransiyaga boraman, Fransiyani ham shunday kezib chiqaman, keyin shu maqsadda Angliyaga o‘taman, yana bir yil vaqt sarf qilaman, debdi; agar shu bir yillik vaqtimdan qolsa, ispanlarni ham, italyanlarni ham borib ko‘raman, vaqt qolmasa, ilojim qancha, unchalik «keragi» ham yo‘q, lekin anavi yurtlarni borib ko‘rish

«kerak», debdi. «Nega?» – deyishgan ekan: «Ba'zi bir mulohazalar uchun», debdi; bir yildan keyin nima bo'lsa ham Shimoliy Amerika shtatlarida bo'lishim «kerak», boshqa biron yurtdan ko'ra Shimoliy Amerika shtatlarini o'rganishim ko'proq «kerak», biron ish topsam, uzoq vaqt, ehtimol, butunlay o'sha yerda qolib ketarman, lekin uch yillardan keyin Rossiyaga qaytishim turgan gap, chunki hozir emas, shu uch yillardan keyin Rossiyada bo'lishim «kerak», debdi.

Shu odamlarning hammasi Raxmetovga juda o'xshab ketardi, hatto «kerak» deyishlari ham hikoya qilib bergan odamning esida qolgan. Hikoya qilgan kishining eslagan gaplariga qaraganda, yo'lovchining yoshi, tovushi, aft-angori xuddi Raxmetovning o'zginasi; lekin hikoya qilgan kishi o'sha payt hamrohiga uncha razm solmagan, ular bor-yo'g'i ikki soat birga bo'lishgan: qandaydir bir shaharchada vagonga chiqqan-u, bir qishloqda tushib ketgan; shu sababdan u Raxmetovning aft-angorini umumiy bir tarzda tasvirlab beroldi xolos, tavsirini juda aniq deb bo'lmaydi, xullas, o'sha odam Raxmetov bo'lsa kerak, lekin yana kim biladi deysiz? Balki u emasdir.

Yana bir mish-mish gap bor edi; ilgari pomeshchik o'tgan yosh bir rus yigiti XIX asrda yashagan yevropalik buyuk mutafakkirlardan biri, yangi falsafa otasi bo'lmish bir nemisning oldiga borib, unga: «O'ttiz ming galer pulim bor; menga faqat besh mingi kifoya qiladi; qolganini siz oling, iltimos», deganmish (faylasuf juda kambag'al ekan). «Nima qilaman», debdi faylasuf. «Asarlaringizni nashr qilishga sarflang», deganmish. Faylasuf, albatta, pulni olmabdi; lekin shunday bo'lsa ham rus yigiti baribir pulni haligi faylasufning nomiga bankka qo'yganmish-u, pulni nima qilsangiz ixtiyor sizda, xohlasangiz suvga tashlang, endi uni baribir qaytarib berolmaysiz, chunki meni axtarib topolmaysiz, deb xat yozganmish, bu pul hozir ham o'sha bankda yotganmish. Agar bu xabar to'g'ri bo'lsa, faylasufning oldiga borgan odam – Raxmetov, bunga hech qanday shubha yo'q...

Hozir Kirsanovning kabinetida o'tirgan janob ana shunday odam edi.

Bu janob ta'rifi odam, juda kamdan kam uchraydigan zot. Farosatli kitobxon, kamdan kam uchraydigan shu xil odam nusxasini bu qadar batafsil tasvirlashimdan maqsad – shu xildagi

odamlar bilan seni (sen bilmaydigan) odamshavanda muomalaga o'rgatish emas: senga bunday odamlardan birontasini ham ko'rish nasib bo'lmaydi; farosatli kitobxon, sening ko'zlaring bunday odamlarni ko'radigan qilib yaratilgan emas; ular sening ko'zingga ko'rinmaydi; ularni faqat halol va jasur ko'zlar ko'radi; sen hech bo'lmasa, dunyoda shunday odamlar ham bo'lar ekan, deb eshitib qo'yishing uchun senga bu odamning ta'rifi misol keltirilyapti. Bu ta'rif ayol kitobxonlar bilan oddiy kitobxonlar uchun qanday xizmat qilishini ular o'zlari biladi.

Nimasini aytasiz, Raxmetov singarilar juda qiziq, juda ajoyib odamlar. Men «ular qiziq» deb ularning o'ziga aytyapman, bunday deb aytishimga sabab shuki, ularga yuragim achiydi; men buni u kabi ajoyib kishilarga maftun bo'ladigan olijanob kishilar uchun aytyapman: olijanob odamlar, ular izidan bormang, chunki bizni da'vat qilayotgan yo'llarida shaxsiy huzur-halovat degan narsa juda kamdan kam deyman; lekin olijanob kishilar mening gapimga quloq solmasdan, bunday deyishadi: «Yo'q, huzur-halovat kam emas, juda ko'p, ba'zi bir joyda kam bo'lsa bordir, lekin bu yo'l juda ham uzoqqa bormaydi, bu yo'ldan bir iloj qilib o'tib olgach, benihoya shod-u xurramlik yo'liga chiqib olish ham qo'limizdan keladi». Ana ko'rdingmi, farosatli kitobxon, Raxmetov singari odamlar «juda ajoyib», «qiziq odamlar» degan gapimni sen uchun emas, xaloyiqning boshqa qismi uchun gapiryapman. Senga bo'lsa, farosatli kitobxon, aytadigan gapim shuki, bular yomon odamlar emas; buni aytmasam, o'z fahming yetmaydi; qayta aytaman, bular yomon odamlar emas. Bunday odamlar oz, lekin hammaning hayotini yashnatadiganlar shular; ular bo'lmasa, hammaning hayoti so'nardi, buzilib, po'panak bosib ketardi. Ular oz, lekin ular hammaning nafas olishiga imkon berib turibdi, ular bo'lmasa odamlarning nafasi bo'g'ilardi. Halol va ezgu niyat kishilar juda ko'p, lekin bunday odamlar oz; ular – choyning guli, ajoyib sharob guli; uning kuchi va xushbo'yligi shundan; bular eng yaxshi kishilar davrasining guli, bular dvigatellar dvigateli, bular el-yurt guli.

XXX

«Endi eng muhim shaxs Raxmetov bo'ladi, boshqalar uning oldida ip esholmay qoladi, Vera Pavlovna ham unga oshig'i shaydo

bo‘ladi, Lopuxovning boshidan nima kechgan bo‘lsa, yaqinda Kirsanov ham shu kulfatga duchor bo‘ladi», deb o‘ylaydi farosatli kitobxon. Farosatli kitobxon, sira ham bunday bo‘lmaydi. Raxmetov bir oqshom Vera Pavlovna bilan suhbatlashib o‘tiradi, men ular o‘rtasida o‘tgan gaplarning bir shingilini ham yashirib qolmayman, agar ular o‘rtasida bo‘lgan gaplarni senga yetkazmay qo‘ya qolay, desam edi, bundan oson gap yo‘q edi, bu gap to‘g‘risida indamay qo‘ya qolsam, hikoyamdagi voqealar balki hech bir o‘zgarmasdi, buni tez orada o‘zing ham ko‘rasan, yana senga oldindan shuni ham aytib qo‘yayki, Raxmetov Vera Pavlovna bilan gaplashib, jo‘naganidan keyin bu hikoyadan butunlay chiqib ketadi, u mening romanimda na muhim va na nomuhim shaxs bo‘ladi, hech qanday shaxs bo‘lmay qoladi. Uning romanga kiritilganiga va bunchalik mufassal ta’riflanganiga sabab nima? Qani, farosatli kitobxon, shuni bir o‘ylab ko‘r-chi, topa olarmikinsan? Bundan keyingi sahifalarda: Raxmetov Vera Pavlovna bilan gaplashib bo‘lgandan keyin darhol aytib beraman; u ketishi bilanoq, shu bobning oxirida aytmadi. Yoki u yerda nima deyilishini top-chi, agar sen o‘zing juda ko‘p gapirib yuradigan badiiyotdan biroz bo‘lsa-da xabardor bo‘lsang, buni topishdan oson gap yo‘q, lekin topish senga yo‘l bo‘lsin! Kel, senga jumboqning yarmidan ko‘prog‘ini aytib bera qolay: Raxmetov badiiyotning eng muhim, eng asosiy talabini bajo keltirish uchun, faqat uning talabini bajo keltirish uchun yaratilgan; qani, hech bo‘lmasa, endi topib ko‘r-chi, bu talab degani o‘zi nima, uning talabini bajo keltirish uchun nima qilish kerak edi, hikoyaning davomida hech bir e’tibor berilmasdan, o‘zi qatnashtirilmasdan bir chekkada qoldirib ketilgan Raxmetovning qaddi-qomatini senga ko‘rsatib, uning talabi qanday bajo keltirildi; qani top-chi? Badiiyot haqida gap sotib yurmaydigan asl kitobxon va oddiy kitobxon buni biladi, qani sen, donishmand, top-chi? Shuning uchun ham senga fursat beriladi, shuning uchun ham satrlar orasida ochiq joy ham qoldirib o‘tiladi: sen to‘g‘ringda qanday jonkuyarlik qilayotganimni ko‘ryapsanmi? To‘xtab, shu haqda o‘ylab ko‘r-chi, topa olarmikinsan?

Mersalova kelib, qayg‘urdi, tasalli berdi, ishxona ishlari bilan jon deb shug‘ullanardim-u, qo‘limdan kelmaydi, dedi, yana qayg‘urib, ovutib, buyumlarini saranjomlashda yordam berdi.

Raxmetov qo‘shnisining oqsochini non do‘koniga yuborib, o‘zi samovar qo‘ydi, choy tayyorladi, o‘tirib choy ichishdi; Raxmetov yarim soatcha xonimlar bilan birga o‘tirib, besh stakan choy ichdi, ular bilan birgalashib katta bir idishdagi qaymoqni yarim qildi, ishtaha bilan tushirib olgan bulkadan tashqari yana pecheniy yedi; «O‘zimni ziyofat qilishga haqim bor, chunki yarim sutka vaqtimni qurbon qildim», dedi. Maza qilib ovqat yedi, xotinlarning oh-vohiga quloq solib o‘tirdi-da, uch marta: «Bu tentaklik» deb qo‘ydi, ya’ni xonimlarning oh-vohi emas, qiynab yuboradigan va tuzalmas kasaldan boshqa biron sabab bilan o‘zini o‘zi o‘ldirish yoki bo‘lmasa, masalan, charxpalakka tortib qiynab o‘ldirish singari biron muqarrar ajalning oldini olish uchun o‘zini o‘zi o‘ldirish «tentaklik», dedi. Har gal bu fikrini, o‘z odaticha, bir necha og‘iz so‘z bilan, lekin juda ta’sirli so‘zlar bilan izhor etdi; oltinchi stakan choyni quyib oldi, qolgan qaymoqni stakanga solib, oxirgi pecheniyni ham oldi (xonimlar allaqachon choy ichib bo‘lishgandi), u o‘rnidan turib, ta’zim bajo keltirdi-da, shu materiallar bilan moddiy huzur-halovatini nihoyasiga yetkazish, divanga yastanib bemalol orom olish uchun yana kabinetiga kirib ketdi. Bu divan har qanday odam yotadigan oddiy divan bo‘lsa ham, lekin uning uchun xuddi Kapuya hashamati[1] singari bir narsa edi. «O‘zimni shunday ziyofat qilishga haqqim bor, chunki o‘n ikki yoki o‘n to‘rt soatimni qurbon qilyapman». Moddiy huzur-halovatni tamomlagach, aqliy huzur-halovatga – «Apokalipsis»ning izohlarini o‘qishga kirishdi. Soat sakkizdan o‘tib qolganda o‘zini otib qo‘ygan odamning xotiniga butunlay aniqlangan voqeani xabar qilish uchun politsiya amaldori kirib keldi; Raxmetov amaldorga xotini hamma narsadan xabardor, unga yana gapirib o‘tirishning keragi yo‘q, dedi; kishini xun qiladigan mashaqqatdan qutulganiga amaldor juda suyundi. Keyin Masha bilan Raxel kelib, kiyim-bosh va buyumlar tanlash boshlandi: Raxel yaxshigina pochapo‘stindan boshqa hamma narsaga (Raxel pochapo‘stinni sotib o‘tirmang, yana uch oydan keyin baribir po‘stin kerak bo‘ladi dedi), shu qolgan hamma narsaga to‘rt yuz ellik so‘m bersa bo‘ladi, dedi, Mersalovaning chamasida

---

[1] Kapuya hashamati – Kapuya degan Rim shahrining nomidan, bunda Karfagen qo‘shini rimliklar ustidan g‘alaba qilgandan keyin haddan ziyoda dabdaba va hasham bilan dam olgan edi.

ham bundan oshiqqa sotib bo‘lmasdi; shu bilan soat o‘nlarga borib savdo-sotiq tamom bo‘ldi; Raxel ikki yuz so‘m berdi, yonida boshqa puli yo‘q ekan, qolganini uch kunlardan keyin Mersalovadan berib yuboradigan bo‘ldi-da, buyumlarni olib jo‘nadi. Mersalova yana bir soatcha o‘tirib, bola emizadigan vaqt ham bo‘lib qoldi, ertaga kelib stansiyaga kuzatib qo‘yarman, deb u ham jo‘nab ketdi.

Mersalova ketgandan keyin Raxmetov Nyutonning «Apokalipsis izohi»ni yopib, avaylab joyiga qo‘ydi, Mashani Vera Pavlovnadan xabar oldirib, huzuriga kirsam bo‘larmikin, deb so‘rattirdi. Kirsin, degan ekan, o‘z odaticha shoshmasdan, vazmin qadamlar bilan uning xonasiga kirdi.

– Vera Pavlovna, men endi sizga ancha-muncha tasalli bersam bo‘ladi. Endi ovutsam bo‘ladi, ilgari keragi yo‘q edi. Shuni bilib qo‘ying (bu yerga kelishimning oqibati quvonchli bo‘ladi), bekordan bekor gapirmasligimni o‘zingiz ham bilasiz, demak, siz xotirjam bo‘lishingiz mumkin, bo‘lgan ishni batafsil aytib beraman. Men sizga, Aleksandr Matveich bilan uchrashdim, hamma narsadan xabarim bor, deb aytgandim. Bu gap rost. Aleksandr Matveich bilan ko‘rishganim rost. Hamma narsadan xabardorligim ham rost. Lekin men sizga hamma gapni undan eshitdim, deb aytganim yo‘q, bunday deb aytishim ham mumkin emasdi, chunki aslida bor gapni undan eshitganim yo‘q, Dmitriy Sergeichdan eshitdim, u menikida ikki soatcha bo‘ldi; Dmitriy Sergeichning kelishini aytishgandi, men uyda kutib o‘tirgandim, sizni bu qadar xafa qilgan xatni yozganidan keyin menikida ikki soatcha, balki undan ko‘proq bo‘ldi. U mendan iltimos qilib:

– Siz niyatidan xabardor ekansiz, nega uni bu yo‘ldan qaytarmadingiz? – dedi.

– Men sizdan, xotirjam o‘tiravering, chunki bu yerga kelishimning oqibati quvonchli bo‘ladi, deb iltimos qildim-ku. To‘g‘ri aytasiz, men uni bu yo‘ldan qaytarmadim, chunki qat’iy bir qarorga kelganini o‘zingiz ham ko‘rib turibsiz. Gapimni boshlayman: mendan iltimos qilib, shu oqshomni sizning yoningizda o‘tkazishimni so‘ragan ham uning o‘zi, chunki xafa bo‘lishingizni bilardi, menga shunday topshiriq bergan edi. U meni o‘rtada vositachilik qilishga loyiq ko‘rdi, chunki men, agar zimmamga olsam, topshirilgan ishni juda aniq o‘rniga qo‘yib bajaradigan

odamligimni bilardi, bundan tashqari, hech qanday his-tuyg'u, hech qanday iltimoslarga bo'sh kelmay, zimmamga olgan topshiriqni aniq bajarishdan sira qaytmasligimni ham bilardi. Sizning yolvorib, uni bu yo'ldan qaytaring, deb so'rashingizni ham bilardi, yolvorishlaringiz menga hech bir kor qilmay aytganlarini bajarishimga ko'zi yetardi. Men uning xohishini bajo keltiraman ham, shu sababdan, sizdan iltimos, men aytadigan narsalarimdan sal bo'lsa-da, yon berishimni iltimos qilib o'tirmang. Uning topshirig'i shuki, u «sahnadan chiqib ketish» uchun yo'q bo'larkan...

– Voy xudoyim-ey, bu nima qilgan ishi! Nega siz uni bu yo'ldan qaytarmadingiz?

– «Sahnadan chiqib ketish» degan so'zning mag'zini chaqib ko'ring-da, elburutdan meni yomonotliq qilmang. Qo'lingizga kelib tekkan xatda ham ushbu iborani ishlatgan, shunday emasmi? Biz ham xuddi shu iborani ishlatamiz, chunki u juda to'g'ri, juda aniq ibora.

Vera Pavlovnaning ko'zlarida taajjub alomatlari ko'rina boshladi; fikri tobora ravshanlashdi: «Nima gapligini bilmasam, nima ham deb o'ylardim?» Raxmetov gapga ham, ish bitirishga ham juda usta odam, bu aniq sezilib turardi. U buyuk ruhshunos bo'lib, odamning etini asta-sekin o'ldirish yo'llarini bilar, bunday usuldan foydalanishga ham usta edi.

– Xullas, unga xos ibora bilan aytsam, «sahnadan chiqib ketarkan», sizga atab menga bir xat qoldirdi...

Vera Pavlovna sapchib o'rnidan turdi:

– Qani xat? Menga bering! Kuni bilan shu yerda bo'ldingiz-u, uni bermaslikka sabringiz qanday chidadi?

– Chidadi, chunki shunga zarurat sezdim. Ko'rsatgan sababimni birozdan keyin o'zingiz ham ma'qullaysiz. Bunday qilishim bejiz emas. Lekin avval gapimning boshida sizga aytgan, «oqibati quvonchli bo'ladi» degan iboramning ma'nosini tushuntirib berishim lozim. Oqibati quvonchli bo'ladi, deganimda, sizning bu xatni olishingizni nazarda tutmaganimning ikki vaji bor, biri shuki, «xat olishning o'zi quvonch» degan so'zga munosib tasalli bo'lmasdi, shunday emasmi? Tasalli topish uchun kattaroq bir sabab bo'lishi kerak. Demak, tasalli beradigan narsa xatning o'zida bo'lsa kerak.

Vera Pavlovna yana sakrab o‘rnidan turdi.

– Hovliqmang, siz xato qilyapsiz, demoqchi emasman. Iltimos, sizni xat mazmuni haqida ogohlantirib, ikkinchi vajga, nima uchun men «oqibati quvonchli bo‘ladi» deganimda sizning xat olishingizni ko‘zda tutmay, mazmunini nazarda tutishim lozim bo‘lganiga quloq solsangiz. Mazmuni shu qadar muhimki (mazmuni qandayligini mana hozir ikkimiz aniqlab oldik), men xatni sizga faqat ko‘rsatishim mumkin, lekin qo‘lingizga berolmayman. Siz uni o‘qib chiqasiz, lekin qo‘lingizga olmaysiz.

– Nega? Xatni qo‘limga bermaysizmi?

– Yo‘q, bermayman. Bu ishning menga topshirilganiga sabab ham shu, o‘rnimda boshqa biron kishi bo‘lsa, xatni qo‘lingizga tutqazardi. Bu xat qo‘lingizga tushishi mumkin emas, sababi, mazmuni ikkimiz aniqlaganimizdan juda muhim bo‘lganidan, u xat hech kimning qo‘lida qolishi mumkin emas. Qo‘lingizga bersam, siz uni saqlab qo‘ygingiz keladi. Xatni sizdan qayta tortib olishga majbur bo‘lmaslik uchun uni sizga bermayman, faqat ko‘rsatib olaman, xolos. Lekin siz o‘tirib, qo‘lingizni tizzangizga qo‘ysangiz-u, ularni ko‘tarmaslikka so‘z bersangiz, shundagina xatni ko‘rsataman.

Biron begona odam, u qanchalik ko‘ngilchan bo‘lmasin, bu marosim tantanasini, ayniqsa, oxiridagi bu irim-sirimlarini ko‘rib o‘zini kulgidan to‘xtatolmay qolardi. Rost, u o‘zi ham juda qiziq edi-da. Lekin bizga shunday zo‘r xabar yetkazganlarida, Raxmetovning o‘ndan birichalik sabr qilish qo‘limizdan kelsa, asablarimiz uchun buning foydasi juda ko‘p bo‘lardi.

Lekin Vera Pavlovna, albatta, begona odam emas, shu vajdan u sustkashlikning faqat jonga tegadigan tomoninigina seza oldi xolos. Keyin o‘tirib, darrov qo‘lini qovushtirdi, ajoyib ovoz bilan, ya’ni aziyat chekaverib betoqat bo‘lgan odamning: «Qasamyod etaman!» – deganini ko‘rgan biron kimsa qanday zavq bilan kulsa, o‘zi ham bu holatini ko‘z oldiga keltirib zavqlanmasligi mumkin emasdi.

Raxmetov o‘n-o‘n ikki yo‘l xat yozilgan bir varaq pochta qog‘ozini stolga qo‘ydi.

Vera Pavlovnaning xatga ko‘zi tushgani zamon, yuzi lov etib yondi, ichgan hamma qasamlarini ham esidan chiqarib o‘rnidan

sakrab turib ketdi; qo'lini shart uzatib xatga yopishmoqchi bo'lgandi, lekin bu payt xat Raxmetovning yuqori ko'tarilgan qo'lida, ancha nariga borib qoldi.

– Shunday qilishingizni bilardim, shuning uchun ham agar payqagan bo'lsangiz, qo'limni xatdan olmay turgandim. Xat stolda qancha tursa, men ham qo'limni olmay bir burchidan tutib turaman, xotiringiz jam bo'lsin. Xatni olishga qancha urinsangiz ham harakatlaringiz behuda ketadi.

Vera Pavlovna yana qo'lini qovushtirib o'tirdi. Raxmetov xatni yana uning ko'z oldiga qo'ydi. Vera Pavlovna uni hayajon-la yigirma martacha o'qib chiqdi. Raxmetov xatni bir burchidan ushlab Vera Pavlovna o'tirgan kreslo yonida sabr qilib tik turaverdi. Chorak soat shu alfozda o'tdi. Nihoyat, Vera Pavlovna, endi xatni yulib olish niyatidan qaytgan bo'lsa kerakki, taqdiriga tan berib, qo'llari bilan yuzini berkitdi-da, takror-takror: «Rahmdilligini qarang-a, muncha ham rahmdil bo'lmasa!» – dedi.

– Men fikringizga u qadar qo'shilmayman, sababini ham aytib beraman. Bu endi uning xohishini bajo keltirish emas, o'z fikrimni bayon etish bo'ladi, u bilan so'nggi marta ko'rishganimda bu fikrimni unga ham aytgandim. Topshirig'i shu bo'ldiki, bu xatni ko'rsating-da, keyin yoqib yuboring, dedi. Siz xatni to'yib o'qib oldingizmi?

– Yana bir, yana bir marta o'qiy.

Vera Pavlovna qo'lini yana tizzalariga qo'yib o'tirdi. Raxmetov xatni yana stolga qo'yib, chorak soat ilgarigiday sabr qilib tik turdi. Vera Pavlovna yana yuzini qo'li bilan yashirib, «Muncha rahmdil, muncha rahmdil!» – dedi.

– Siz bu xatni iloji boricha o'qib, mag'zini chaqdingiz. Agar xotirjam o'tirganingizda e'tibor berib shuncha uzoq o'qiganingizdan keyin, uni yodlab olishdan tashqari, har bir harfining surati ham umrbod yodingizda qolardi. Lekin hozirgi bu hayajonlanishingizda xotirlab qolish qonunlari buzilib, esingizdan chiqib ketishi mumkin. Shu ehtimolni nazarda tutib, bu xatdan nusxa ko'chirib olganman, kerak bo'lganda hamma vaqt shu nusxasini ko'rishingiz mumkin. Birmuncha vaqt o'tgach, ehtimol, bu nusxasini sizga berishim ham mumkin bo'lar. Hozir asl nusxasini kuydirib tashlayman, shunda uning topshirig'ini bajo keltirgan bo'lamman, deb o'ylayman.

– Yana bir ko‘rsating.

Raxmetov yana xatni stolga qo‘ydi. Vera Pavlovna bu gal hadeb xatga tikilavermadi: u xatni yodlab olayotganday, yodlagan-yodlamaganini tekshirayotganday edi. Bir necha daqiqadan keyin xo‘rsinib qo‘ydi-da, yana xatga tikilib qoldi.

– Endi kifoya qilar deb o‘ylayman. Vaqt ham allamahal bo‘lib qoldi. Soat o‘n ikki, men sizga hali bu ish to‘g‘risida o‘z fikrimni bayon qilmoqchiman, bilib qo‘ysangiz, o‘zingiz uchun yomon bo‘lmas deb o‘ylayman. Rozimisiz?

– Ha.

Shamga tutishi bilan xat lov etib yondi-ketdi.

– Oh! – deb qichqirib yubordi Vera Pavlovna, – buni aytganim yo‘q, nega bunday qildingiz?

– Hozirgina, gapingizga quloq solaman, dedingiz-ku. Baribir emasmi, axir? Qachon bo‘lsa ham kuydirib yuborilardida. – Raxmetov shunday dedi-da, o‘tirdi. – Xatdan ko‘chirilgan nusxa bor-ku. Endi, Vera Pavlovna, bu ish to‘g‘risidagi fikrimni aytay sizga, gapni sizdan boshlayman. Siz ketmoqchisiz, sababi?

– Bu yerda qolsam vijdon azobi qiynab yuboradi. O‘tgan kunlarimni eslatib turadigan joylarni ko‘rganimda ko‘nglim buziladi.

– To‘g‘ri aytasiz, ko‘ngilsiz bo‘ladi. Lekin boshqa biron joyda o‘zingizni yengil his qilaman deb o‘ylaysizmi? Sal-pal yengil bo‘lar. Holbuki shuni deb nima qilmoqchisiz, bilasizmi? Sal yengil tortay deb ellik kishini o‘z holiga tashlab ketyapsiz, holbuki bularning taqdiri sizga bog‘liq. Shu ishingiz yaxshimi?

Raxmetovning diqqinafas tantanavor ohangda gapirishlari qayoqqa gum bo‘ldi? Uning gaplariga jon kirdi, yengil, sodda, qisqa-qisqa qilib, hayajon-la gapira boshladi.

– Gapingiz to‘g‘ri, lekin Mersalovadan iltimos qilmoqchi edim.

– Yo‘q, unday emas. Mersalova ishxonada o‘rningizni bosish-bosmasligini bilmaysiz-ku: uning bu ishga qanchalik qobiliyati borligi hali sinab ko‘rilgan emas. Holbuki bu ishda kamdan kam uchraydigan qobiliyat egasi bo‘lishi kerak. O‘rningizga odam topilishi dargumon, siz ketsangiz ishxonaning xarob bo‘lishi turgan gap. Shu yaxshimi? Siz ellik kishining tinch, osoyishta yashashini o‘ylamay, muqarrar halokat tahlikasi ostida qoldirmoqchi bo‘ldingiz. Nimani deb shunday qilmoqchi bo‘ldingiz? Andek o‘z

huzuringizni ko'zlab. Shu yaxshimi? O'z ahvolingizni sal yaxshilash payidan bo'lib tashvish tortyapsiz-u, boshqalarning taqdiriga kelganda parvoyi falaksiz! Xo'sh, ishingizning bu tomonini qanday deb o'ylaysiz?

– Nega meni bu yo'ldan qaytarmadingiz?

– Siz gapimga quloq solmasdingiz. Tez qaytib kelishingizni ham bilardim, demak, biron muhim gap ham bo'lmasdi. Siz gunohkormisiz?

– Hamma gunoh menda, – dedi Vera Pavlovna yarim hazil, lekin ko'proq jiddiy qiyofada.

– Yo'q, bu hali gunohingizning faqat bir tomoni. Hammasi ancha ko'p. Lekin tavba-tazarru inobatga olinadi: hali tuzatsa bo'ladigan boshqa gunohni tuzatishda yordam beriladi. Vera Pavlovna, endi ko'nglingiz o'rniga tushdimi?

– Ha, tushganday.

– Juda yaxshi. Masha uxlaganmikin? Sizga uning keragi yo'qmi?

– Albatta,

– O'zingizni bosib oldingiz-ku, demak, siz hozir unga nima deyish lozimligini eslashingiz ham mumkin: soat o'n ikkidan oshdi, kirib uxla, desangiz, chunki u ertaga barvaqt turadi. Buni kim o'ylashi kerak, sizmi yoki men? Yo'qsa men borib aytay, uxlasin. Aytmoqchi, yana bir gap chiqib qoldi, yangi tavba-tazarru uchun yana mukofot lozim, siz yana tavba qilyapsiz-ku, sizga biron yegulik topib kela qolay. Siz bugun tushlik ham qilganingiz yo'q; hozir ishtahangiz bordir.

– Ha, ishtaham joyida: esimga solganingizdan keyin yana ham ochildi, – dedi Vera Pavlovna endi barala kulib.

Raxmetov tushlikdan qolgan sovuq ovqat ko'tarib kirdi, – Masha unga pishloq, qandaydir qo'ziqorin solingan kichik bir bankachani ham ko'rsatdi; shuning bilan durustgina gazak tayyor bo'ldi, ikki kishilik idish-tovoq olib keldi, hammasini o'zi tayyorladi.

– Ko'ryapsizmi, Raxmetov, ishtaham juda joyida, demak, qorin rosa ochgan ekan; hech narsa esimga kelmay qolgandi, Masha tugul o'zimni ham yodimdan chiqarib qo'ygandim; demak, men hali unchalik niyati yomon jinoyatchi emasman.

– Men ham birovlarning g‘amini yeydigan farishtalardan emasmanki, sizning ishtahangiz tashvishini tortsam, o‘zimning ham qornim toza ochgandi, tushlikning mazasi bo‘lmagandi; men yegan ovqatni boshqa birov yesa bo‘kib qolardi, lekin mening xo‘raligimni bilasiz-ku, bir o‘tirganimda ikki yigitning ovqatini yeyman.

– Nimasini aytasiz, Raxmetov, siz faqat qornim tashvishini qiluvchi farishta emassiz. Nega kun bo‘yi xatni ko‘rsatmay o‘tirdingiz? Meni namuncha qiynamasangiz?

– Zo‘r sababi bor. Sizning jig‘ibiyron bo‘lib yurganingizni boshqalar ko‘rsin, ko‘ngil g‘ashligingiz sababchisi bo‘lgan voqeaning to‘g‘riligini tasdiqlab, hammaning qulog‘iga borib yetsin, deb shunday qildim. Siz o‘zingizni ayyorlikka solishga ko‘nmasdingiz. Tabiiy narsa o‘rnini boshqa hech narsa bosolmaydi, tabiiylik ta’siri, har holda, zo‘rroq bo‘ladi. Hozir bu voqeaning to‘g‘riligini tasdiqlovchi uch manba bor: Masha, Mersalova, Raxel. Mersalova eng muhim manba, undan hamma tanish-bilishlaringizga xabar tarqaladi. Unga odam yuborish fikriga kelganingizdan juda xursand bo‘ldim.

– Juda mug‘ambir odam ekansiz, Raxmetov!

– Ha, tungacha kutib o‘tirib chakki qilmagan, lekin buni men o‘ylab topganim yo‘q; bu Dmitriy Sergeichning o‘zidan chiqqan fikr.

– Juda ham rahmdil-da! – Vera Pavlovna xo‘rsinib qo‘ydi, to‘g‘risi, g‘amgin emas, minnatdorlik bildirganday entikib qo‘ydi.

– E, Vera Pavlovna, biz hali uni miridan sirigacha tekshirib chiqamiz. Keyingi vaqtlarda u juda aqlli gaplar topib, juda bama’ni ishlar qilgani rost. Lekin gunohlari ham yo‘q emas, katta-katta gunohlari bor.

– Raxmetov, u haqda bunday gapirmang, bilib qo‘ying, men xafa bo‘laman.

– Nima, to‘polon ko‘tarmoqchimisiz? Bu ishingiz uchun jazolash lozim. Jazolashni davom qildira beraymi? Jinoyat ro‘yxatingiz endi boshlandi.

– Jazolang, jazolang, Raxmetov.

– Itoatkorlik uchun siylamoq kerak. Itoatkorlik hamma vaqt qadrlanadi. Sizda biron shisha vino topilsa kerak. Ichsangiz yomon bo‘lmasdi. Qayerdan qidiray? Bufetdanmi yoki biron javondanmi?

– Bufetdan.

Bufetdan bir shisha xeres topildi. Raxmetov qo'yarda-qo'ymay Vera Pavlovnaga ikki ryumka ichirdi, o'zi sigara chekdi.

– Afsuski, men ham uch-to'rt ryumka icha olmayman, juda ichgim kelyapti.

– Nahotki ichkingiz kelayotgan bo'lsa, Raxmetov?

– Havasim kelyapti, Vera Pavlovna, havasim kelyapti, – dedi u kulib. – Irodasi bo'sh odamman.

– Siz-ku, xudoga shukur, irodasi bo'shlardansizku-ya! Raxmetov, sizga qarab hayron bo'lib o'tiribman. Sizni boshqacha deb yurardim, sira ham unaqa emas ekansiz. Nega siz doim badqovoq yovuzlarga o'xshab yurasiz? Hozir qarang, nozanday yoqimtoy, quvnoqsiz.

– Vera Pavlovna, hozir men quvnoq odam vazifasini bajaryapman, binobarin, quvnoq bo'lmay ilojim qancha? Bu onda-sonda bir uchraydigan tasodif. Umuman, ko'rganing hamisha g'am-g'ussa bo'lgandan keyin, badqovoq yovuz bo'lmay, nima bo'larding? Lekin, Vera Pavlovna, ko'zingizga shu taxlitda ko'ringan bo'lsam (o'zim ham mudom shu taxlit bo'lsam jon derdim), yana ochilib-sochilib dilimizdagi gaplarimizni ham aytib yuborgan bo'lsak, men o'z ixtiyorim bilan badqovoq yovuzlarga o'xshab yurmasligim sir bo'lib qolaversin. Men faqat o'z vazifamni bajarishdan tashqari turmush lazzatini totishni ham orzu qilaman, lekin o'z vazifamni ado qilishim yengilroq; hozir endi ko'nglimni ochish payidan bo'lishlarini ham bas qilishgan, biror joyga taklif etib vaqtimni olishmaydi ham. Meni badqovoq yovuzdan boshqacha tasavvur qilishingiz mumkin bo'lmasligi uchun jinoyatlaringiz tergovini davom ettirishdan yaxshisi yo'q.

– Yana nima deysiz? Shunday ham ikki jinoyatimni topib oldingiz-ku: biri – Mashaga berahmligim, yana biri – ishxonaga beparvo qarashim. Tavba qildim.

– Mashaga berahmlik – jinoyat emas, faqat xato: Masha qisilib ketayotgan ko'zlarini biron soat ortiqroq ishqalab o'tirgani bilan halok bo'lmaydi, aksincha, men o'z vazifamni bajarayotibman, deb xursand bo'lib, ko'zini ishqalab o'tira beradi. Biroq ishxona uchun men sizni chindan ham g'ajib tashlamoqchiman.

– Shunday ham g'ajib bo'ldingiz-ku.

– Hali g'ajib tamomlaganim yo'q, boshingizdan oyog'ingizgacha g'ajib tashlamoqchiman. Ishxonani shu ahvolga tashlab qo'yishga qanday ko'nglingiz bo'ldi?

– Tavba ham qildim, hali butunlay tashlab qo'yganim ham yo'q-ku: axir, Mersalova o'rnimga qolmoqchi bo'ldi-ku.

– O'z o'rningizga uni qo'ymoqchi bo'lganingiz – kifoya qiladigan uzr emas, deb bu haqdagi gapimizni tamomladik-ku. Siz shuni bahona qilaman, deb yana bir jinoyat ustida qo'lga tushdingiz. – Raxmetov qovog'ini solmasa ham, yana asta-sekin jiddiy tus oldi. – O'rnimga Mersalova qoladi, deysizmi, shunday qaror qildingizmi?

– Ha, shunday, – dedi Vera Pavlovna ilgarigi hazilini bas qilib. – Chunki buning oxiri voy bo'lishini o'zi ham payqagan edi.

– Buni qarang-a. Kim bunday qaror chiqaribdi? Siz va Mersalova; anavi ellik nafar kishi bunga rozimi-yo'qmi, ularning boshqa biron niyati bormi-yo'qmi, ishxona yaxshiroq bo'lsin, degan umidi bormi-yo'qmi – bu haqda biror ma'lumot bormi? Vera Pavlovna, axir, buning otini zolimlik deydilar-ku. Ko'rdingizmi, bo'yningizda hozir ikki katta jinoyat turibdi: berahmlik, zolimlik. Uchinchisi bundan ham yomon. Turmushni tashkil etish haqidagi sog'lom g'oyalarga bir qadar mos keladigan muassasani, bu g'oyalar amalda tatbiq qilsa arziydigan ma'qul g'oyalar ekanini tasdiqlaydigan muassasani, buning amaliy isbotlari ham shu qadar ozligini, buning har biri nihoyatda qimmatbaho isbotlar ekanligini o'zingiz ham bilasiz-ku, siz tahlika ostiga qo'ydingiz, e'tiqod-u tushunchalaringizning ma'qulligini isbot qiladigan muassasadan ularni noma'qul, behuda bir narsaga, insoniyat uchun samarali g'oyalarni rad etuvchi vositaga aylantirish xavfini tug'dirdingiz, siz o'z muqaddas tamoyillaringizga qarshi chiqib, bu bilan zulmat va yovuzlik homiylariga dalil topib berdingiz. Men hozir anavi ellik nafar kishini nochor ahvolda qoldirganingiz haqida gapirib o'tirmayman, ellik nafar kishi nima degan gap! Siz insoniyat ishiga zarar keltirdingiz, taraqqiyot ishiga xiyonat qildingiz. Buni, Vera Pavlovna, cherkov tilida kufur ish deydilar, bu shunday gunoh ishki, boshqa har qanday gunohni kechsa bo'ladi-yu, lekin bu gunohni hech qachon va sira ham kechirib bo'lmaydi. Shundaymi?

Jinoyatchimisiz? Xayriyatki, hali boshqa biron nojo‘ya ish bo‘lgani yo‘q, siz faqat xayolingizda gunoh ish qildingiz. Vera Pavlovna, qarab tursam rostdan ham qizarib ketdingiz. Xo‘p, sizga tasalli berganim bo‘lsin. Agar siz qattiq azob chekib qiynalmaganingizda, bunday gunoh ishlarni xayolingizga ham keltirmasdingiz. Demak, bu ishlarda ham asl jinoyatchi, sizni shuncha azoblarga solib qo‘ygan kishi boshqa odamdir. Siz bo‘lsangiz, nuqul, muncha rahmdil, muncha rahmdil bo‘lmasa, deysiz.

– Bu nima deganingiz? Sizningcha, mening azob-uqubatlarimga u aybdormi?

– Bo‘lmasa kim aybdor? U-ku, juda ustalik qildi, bunisiga hech narsa demayman, lekin shu mojarolarning nima keragi bor edi? Bu shovqin-suronlarning kimga keragi bor? Aslo bunday qilmaslik kerak edi.

– To‘g‘ri aytasiz, bunday his-tuyg‘ularga berilmasligim kerak edi. Lekin uni men chorlab chaqirganim yo‘q; men tuyg‘ularimni daf etishga harakat qilib ko‘rdim.

– Ana xolos, unday qilmasligim kerak edi, emish. Siz o‘z gunohingizni ko‘rmagansiz-u, lekin gunohingiz bo‘lmagan masalada o‘zingizdan ta’na qilasiz! Siz bilan Dmitriy Sergeichning fe’l-atvoringiz shunday bo‘lgandan keyin, bu tuyg‘uning paydo bo‘lishi turgan gap edi: undoq bo‘lmasa, bundoq, ishqilib, bir kun, albatta, bosh ko‘tarib chiqardi; bunda asosiy tuyg‘u – unga boshqacha mehr qo‘yganligingiz emas, bu uning oqibati xolos; asosiy tuyg‘u – ilgarigi munosabatlaringizdan noroziligingiz. Bu norozilik qanday tusga kirishi lozim edi! Agar siz bilan u, ikkovingiz yoki aqalli ikkovingizdan biringiz o‘qimagan, dag‘al yoki yomon odam bo‘lganingizda, bu tuyg‘u oddiy tusga kirardi – er bilan xotin o‘rtasida dushmanlik chiqarardi, agar ikkovingiz ham yomon odam bo‘lsangiz, bir-biringizning go‘shtingizni yerdingiz, yo biringiz ikkinchingizni g‘ajirdingiz, yo ikkinchingiz g‘ajilardingiz, har holda, biz ko‘pchilik er-xotinlar mojarosini ko‘rib zavqlanishingiz singari, sizning uyingizda ham shunday bo‘lardi; albatta, bu narsa boshqa biron kishiga ko‘ngil qo‘yishga xalaqit bermasdiku-ya, lekin qirg‘in, bir-biringizni g‘ajishingiz asosiy o‘rinda turardi. Sizda bu norozilik bunday tus olmaganiga sabab shuki, ikkovingiz ham tuzukkina,

bama'ni kishilarsiz, bu norozilik juda yengil-yelpi, muloyim, beozor tus oldi, boshqa birovga ko'ngil qo'yish tusiga kirdi. Demak, bunda boshqa bir kishini sevish haqidagi gap ham bo'lishi mumkin emas, gap aslo unda emas. Asosiy gap shundaki, ilgarigi ahvoldan norozilik paydo bo'lgan; norozilikning sababi – xulq-atvorlarning bir-biriga to'g'ri kelmasligidir. Siz ikkovingiz ham yaxshi odamlarsiz, lekin, Vera Pavlovna, sizning fe'lingiz bolalik chog'ingizdagi noaniqlik holidan chiqib, ma'lum xislatlarga ega bo'lganidan keyin, siz bilan Dmitriy Sergeichning bir-biringizga unchalik monand emasligingiz ma'lum bo'ldi. Buning sizga ham, unga ham nimasi nomunosib? Men ham yomon odam emasman, lekin siz men bilan chiqisholarmidingiz? Men bilan birga tursangiz, xunoblikdan yuragingiz qon bo'lardi – sabr-toqatingiz necha kunga yetardi?

– Bir necha kunga, – dedi Vera Pavlovna kulib.

– U-ku, menchalik badqovoq yovuzlardanmas, shunday bo'lsa ham ikkalangiz bir-biringizga sira munosib emasdingiz. Buni dastlab kim payqashi kerak edi? Yoshi kattaroq, o'zini bir qadar bosib olgan, hayotda ko'proq narsani ko'rib, tajriba orttirgan odam payqashi lozim edi. Shunga ko'zi yetib, sizni vahima bosmasin, oh-voh qilib yurmasin desa, sekin-asta etingizni o'ldirish undan lozim edi. U kutishi lozim bo'lgani holda kutmagan, tuyg'u juda yetilib, hatto, bu tuyg'uning oqibatida boshqa bir tuyg'u paydo bo'lganidan keyingina buni tushungan. Nega shunday bo'lishini oldindan bilmagan, payqamagan ham. Nima, u ahmoqmi? Yo'q, aqli joyida. Sababi unda emas, palapartish ish qiladigan beparvo odam bo'lganida, sizga bo'lgan munosabatlarida, sizni mensimaganida, Vera Pavlovna, gap ana shunda! Holbuki siz nuqul: «Yaxshi odam edi, meni yaxshi ko'rardi!» – deysiz.

Raxmetov asta-sekin zavq-shavqqa to'lib, gaplariga jon kirdi. Lekin Vera Pavlovna uning gapini kesdi.

– Raxmetov, gaplaringizga quloq solishim kerak emas, – dedi Vera Pavlovna norozi bir ohangda, boshimga ko'tarsam arziydigan kishini muncha yomonotliq qilmasangiz?

– Unday emas, Vera Pavlovna, sizga bu gaplarni gapirishning keragi bo'lmaganda, gapirib o'tirmasdim. Nima deyapsiz, buni shu bugun bilibdi, deb o'ylayapsizmi? Gapirgim kelsa, ilgari

gapirolmasmidim? Biron kishi bilan gaplashishim kerak bo'lsa, uning mendan qochib qutulolmasligini bilasiz-ku. Demak, bu gaplarni sizga ilgari ham aytishim mumkin edi, lekin indamay keldim. Hozir gapirfyotgan ekanman, demak, gapirish xonasi kelgan. Fursati kelmasdan hech narsa demayman. Sizga yuragim achisa ham xatni yonimdan chiqarmay to'qqiz soat sabr qilib o'tirganimni o'zingiz ko'rdingiz-ku. Indamay o'tirish kerak edi, indamay o'tira berdim. Dmitriy Sergeich bilan o'rtangizdagi munosabat haqida allaqachonlardan buyon o'ylab yurgan narsam to'g'risida hozir gap ochgan ekanman, demak, bu munosabatlar haqida gapirish fursati kelibdi.

– Yo'q, gapingizni eshitgim yo'q, – dedi Vera Pavlovna qattiq jahli chiqib, – Raxmetov, iltimos qilaman, bas qiling. Iltimos, keting. Meni deb butun bir oqshomingizni qurbon qilganingiz uchun sizdan ko'p minnatdorman. Lekin, iltimos qilaman, keting.

– So'zingiz qat'iymi?

– Qat'iy.

– Juda soz, – deb kulib qo'ydi Raxmetov. – Vera Pavlovna, mendan osonlik bilan qutulish mumkin emas. Shunday bo'lishiga ko'zim yetgandi, tadbirini ham ko'rib qo'yganman, yondirib tashlangan maktubni uning o'zi yozgan. Mana bu maktubni mening iltimosim bilan yozgan, buni sizga qoldirib ketishim mumkin, chunki bu hujjat emas. Marhamat, – dedi-da, Raxmetov maktubni Vera Pavlovnaga uzatdi.

«11-iyul. Tungi soat 2. Azizim Verochka, Raxmetovning hamma gaplariga quloq sol. Nima demoqchi, bilmayman, senga atab unga biron gap ham aytganim yo'q, senga nima demoqchi bo'lganligi haqida menga ham biron gap aytgani yo'q, lekin shunisini yaxshi bilamanki, kerak gapdan boshqa hech nima demaydi. Sening D. L.»

Vera Pavlovna maktubni necha marta o'pganini o'zi ham bilmaydi.

– Nega bu maktubni ko'rsatmay o'tirdingiz? Balki sizda uning boshqa biron topshirig'i ham bordir?

– Yo'q, boshqa hech narsa yo'q, chunki boshqa hech narsaning keragi ham yo'q. Nega ko'rsatmay saqlab o'tirding, deysizmi? Zarurati bo'lmagandan keyin, maktubni berishning keragi yo'q edi.

– Yo rabbiy, zarurati yo‘q, deganingiz nimasi? Axir, judolikdan keyin yozgan bir necha satr maktubi ham menga tasalli bo‘lmasmidi?

– Hali shunday deng, buni o‘ylamabman, lekin buning unchalik ahamiyati yo‘q, – deb kulib qo‘ydi Raxmetov.

– Raxmetov, bunday qarasam, jinimni qo‘zg‘atmoqchiga o‘xshaysiz!

– Hali bu xatni deb ikkovimiz janjallashib ham olamiz, deng? – Yana kulimsirab qo‘ydi. – Undoq bo‘lsa, xatni qo‘lingizdan olib kuydirib tashlayman, biz kabilar haqida: bunday odamlar uchun muqaddas narsaning o‘zi bo‘lmaydi, deb aytishlarini o‘zingiz ham bilasiz-ku. Siz-u bizning qo‘limizdan zo‘rlik ham, har qanday yovuzlik ham keladi. Xo‘sh, endi so‘zimni davom ettirsam maylimi?

Ikkovlarining ham popuklari ancha pasaydi. Vera Pavlovna maktubni ko‘rib ko‘ngli ancha joyiga tushdi, Raxmetov bo‘lsa, Vera Pavlovna maktubni ko‘zlariga surtib, o‘pib to‘ygunicha, bir necha daqiqa jim o‘tirdi.

– Ha, gapingizga quloq solishim kerak.

– U payqashi lozim bo‘lgan narsani payqamadi, – deb gap boshladi Raxmetov vazminlik bilan. – Oqibati yomon bo‘ldi. U payqamagan narsasi uchun gunohkor bo‘lmasligi lozim edi-yu, lekin bu ishini ma’zur tutish ham mumkinmasdi. Sizning xulq-atvoringiz bilan uning xulq-atvori o‘rtasidagi shu munosabatlar aslida muqarrar shunday natijalarga olib borishini bilmaganda ham, u, har holda, har ehtimolni ko‘zda tutib sekin-asta qulog‘ingizga quyib, pishitib, biron shunday tasodifga tayyorlab borishi, xohlamasangiz ham, kutmasangiz ham, lekin to‘satdan paydo bo‘ladigan tasodifga hozirlik ko‘rib qo‘yishi lozim edi: axir, kelajakda nimalar sodir bo‘lishini, qanday-qanday kutilmagan voqealar yuz berishini kim biladi, deysiz. Bu aksiomani, har xil tasodifiy hodisalar bo‘lishini u aniq bilardi-ku. Sizni shunday fikr-u xayolotda qoldirishga qanday ko‘ngli bo‘ldiykin, axir, boshingizga savdo tushganda, nima qilishingizni bilmay qoldingiz-ku. Shunday voqea yuz berishi mumkin, deb o‘ylamaganligi beparvoligidan, bu sizning ko‘nglingizga qattiq tegdi, lekin buning yaxshi tomoni ham, yomon tomoni ham yo‘q, o‘zi beozor bir ish; lekin sizni

har qanday tasodiflarga tayyorlab, hozirlik ko‘rib qo‘ymaganligi niyati yomonligidan. To‘g‘ri, u-ku, ko‘ra-bila shunday qilgani yo‘q, lekin hamma gap shundaki, inson tabiati uning o‘ylamay-netmay qilgan ishlarida ko‘rinadi. Sizni tayyorlab, hozirlik ko‘rib kelsa, o‘z zarariga ish tutgan bo‘lardi, sizni tayyorlab borsa, uning manfaatlariga mos kelmaydigan tuyg‘uga qarshilik ko‘rsatishdan ojiz qolardingiz. Sizda shunday kuchli bir tuyg‘u paydo bo‘ldiki, eng kuchli qarshiligingiz ham uning qarshisida behuda narsa bo‘lib qoldi; lekin bunday kuchli bir tuyg‘uning paydo bo‘lganligi ham tasodifiy bir hol. Bu tuyg‘u, o‘zi munosib bo‘lsa ham, unchalik arzimagan odam tufayli paydo bo‘lganda, bunchalik kuchli emas, zaifroq bo‘lardi. Har qanaqasiga kurashsang ham kor qilmaydigan bunday kuchli tuyg‘u kamdan kam uchraydi. Agar qarshilik ko‘rsatuvchi kuch butunlay zaiflashtirib yuborilmasa, bunday tuyg‘ularning paydo bo‘lish ehtimoli ko‘proq. U bo‘lsa shunday bo‘lishini bilib qarshilik kuchini zaiflashtirgisi kelmagan. Sizni bu hodisaga tayyorlamaganligining, shuncha g‘am-g‘ussaga duchor qilganligining sababi shu. Xo‘sh, bunisiga nima deysiz?

– Raxmetov, gapingiz noto‘g‘ri. U o‘z fikrini mendan yashirgan emas. Uning ishonch-u e’tiqodini siz qanday yaxshi bilsangiz, men ham shunday bilardim.

– To‘g‘ri, Vera Pavlovna, ammo buni yashirsa juda ham bo‘lmay ketardi-da. Sizda uning ishonch-u e’tiqodiga mos ishonch-e’tiqod paydo bo‘lib, ularning kamol topishiga xalaqit berishlik va bunda o‘zini aslida o‘ylayotgan narsadan boshqa narsalarni o‘ylayotganday qilib ko‘rsatish juda noinsoflik bo‘lardi. Siz bunday odamni hech qachon yaxshi ko‘rmasdingiz. Yo men uni yomon odam deb aytdimmi? U o‘zi juda yaxshi odam, nimasi yomon? Xohlasangiz, men uni juda maqtashim mumkin. Men bu ish yuz bermasdan avval deyapman, bu ish yuz bergandan keyin u to‘g‘ri yo‘l tutdi, lekin bu ish bo‘lmasdan u sizga yaxshilik emas, yomonlik qildi, deyapman xolos. Sizning qiynalishingiz nimadan bo‘ldi? U Kirsanovni xafa qilmaslik uchun gapirdi, buni aytib o‘tirishning ham keragi yo‘q, o‘z-o‘zidan tushunarli. Bundan u juda qattiq ranjiydi, degan fikr sizga qayoqdan yopishib ola qoldi? Sizda bunday fikr paydo bo‘lishi kerak emasdi. Bunda ranjish nima qilib yuribdi? Bo‘lmagan gap. Bu rashk degani qayoqdan paydo bo‘ldi!

– Raxmetov, siz rashk degan narsani tan olmaysizmi?

– O‘qimishli odamda rashk degan narsa bo‘lmasligi kerak. Rashk – buzilgan tuyg‘u, soxta tuyg‘u, pastkashlik xolos, bu shunday hodisalar jumlasidanki, men kiyimimni hech kimga kiyishga bermayman, mushtugimdan hech kimni chektirmayman: bu – odamni xuddi o‘z mulki, o‘z moli deb qarashdan kelib chiqadigan oqibat.

– Lekin, Raxmetov, rashkni tan olmasak, oqibati juda yomon-ku.

– Rashkchi odam uchun juda yomon, rashk qilmaydigan odam uchun yomon jihati tugul biron ahamiyati ham yo‘q.

– Axir bu gapingiz axloq-odobni inkor qilish bo‘ladi-ku, Raxmetov!

– U bilan to‘rt yil birga yashaganingizdan keyin ham shunday ko‘rinyaptimi? Uning gunohi ham shunda. Siz har kuni necha marta tushlik qilasiz? Bir marta. Agar siz har kuni ikki marta tushlik yesangiz, biron kishi da’vogar bo‘larmidi? Bo‘lmasa kerak. Bas, nega ikki marta ovqat yemaysiz? Biron kishini xafa qilib qo‘yaman deb qo‘rqasizmi? Yo‘q, sababi faqat shu bo‘lsa kerakki, sizga buning keragi yo‘q, tushda ikki marta ovqat yegingiz kelmaydi. Holbuki tushlik ovqat kishiga huzur bag‘ishlaydi. Aql-farosat, eng muhimi, qorinning o‘zi ham bir marta tushlik ovqatdan huzur topadi, ikkinchi marta yeging ham kelmaydi. Agar xayolparast yoki har kuni ikki marta tushlik yeydigan sulloh bo‘lsangiz, biron kishini xafa qilib qo‘yaman, deb nafsingizni tiya olarmidingiz? Yo‘q, tiya olmasdingiz, biron kimsa bundan xafa bo‘lsa yoki «yema», deb taqiqlasa, siz yashirin ovqatlanadigan bo‘lardingiz, qanday to‘g‘ri kelsa, shunday ovqatlanib ketaverardingiz, nari-beri ovqatlanib olaman, deb qo‘lingizni bulg‘atib ovqatni cho‘ntagingizga yashirib, kiyimingizni iflos qilardingiz. Bu yerda gap axloqli yoki axloqsizlikda emas, aslo unday emas, hamma gap xufiyalikning yaxshi-yomonligida xolos. Birovlar rashk mehr-u shafqatga loyiq tuyg‘u, «unday qilsam, ranjitib qo‘yaman», deydi, bir xillar esa kurashda bekordan bekorga vijdon azobiga tushadi. Juda kamdan kam odamlarni, eng olijanob odamlarni vijdon azobiga soladi, bundaylarning xulq-atvoridan hech bir xavfsiramasa ham bo‘ladi. Bu bema’nilik boshqalarni tiyish u yoqda tursin, ayyorlik qilishga,

aldashga majbur etadi, binobarin, ularni haqiqatan yomon odam qilib qo‘yadi. Bo‘lgan-turgani shu. Nahotki bundan bexabar bo‘lsangiz?

– Xabarim bor edi, albatta.

– Shunday ekan, rashkning axloqiy nafini qayoqdan qidirib topardingiz?

– U bilan o‘zimiz ham hamisha shunday mazmunda suhbatlashib o‘tirardik.

– Juda ham bunday mazmunda bo‘lmasa kerak yoki suhbatlashsangiz ham bir-biringizdan shunday gaplarni eshitib birov-birovingizga ishonmagan bo‘lsangiz kerak, ishonmaganingizga sabab shuki, doim boshqa har xil masala ustida, ehtimol, xuddi shu masala ustida boshqa ma’nodagi so‘zlarni eshitib kelgansiz, bo‘lmasa, namuncha jig‘ibiyron bo‘ldingiz? Yana nimaga deng? Arzimagan narsa ustida shuncha shovqin-suron ko‘tarib yuribsiz! Uchovingiz, ayniqsa, siz, Vera Pavlovna, namuncha xijolat tortmasangiz? Holbuki bir yil ilgarigidan uchovingiz bemalol birga turishingiz yoki biron yo‘lini qilib uchovingiz bir xonadonga yo bo‘lmasa boshqacharoq joylashib olsangiz bo‘lardi, yo qanday to‘g‘ri kelsa, shunday joylashib, hech dilsiyohlikka yo‘l qo‘ymay, ilgarigiday uchalangiz birga choy ichib, ilgarigiday uchalangiz birga operaga borib tursangiz bo‘laverardi. Bu dilsiyohliklarning nima keragi bor? Jig‘ibiyron bo‘lib dod-faryod ko‘tarishlarning nima hojati bor? Bular hammasi shuning kasriki, u ilgarigi odatini qilib sizni bunga tayyorlamagan, shu vajdan siz: «Bunday qilsam adoyi tamom bo‘lganim», deb o‘ylab yurgansiz, holbuki hech bir bunday bo‘lmasdi. Ko‘ra-bila sizni ming baloga giriftor qilib ketdi.

– Yo‘q, Raxmetov, siz juda dahshat gaplarni gapiryapsiz.

– Yana «dahshat gaplar»! Men arzimagan narsadan xijolat tortish, behudadan behuda jig‘ibiyron bo‘lishlarni dahshat deb bilaman.

– Sizningcha, bu voqealarning hammasi tentaklik melodramasimi?

– Ha, hech bir keragi yo‘q fojia singdirilgan tentaklik melodramasi. G‘alva ko‘tarmay, tinchgina suhbatlashib qo‘ya qolish o‘rniga, bunaqa dilsiyohlik kelib chiqishiga ham Dmitriy Sergeich aybdor. Uning bu voqeadagi halol xatti-harakatlari ilgari

qilgan gunohlarini yuvishga zo‘rg‘a yetadi. Axir u qulog‘ingizni pishitib, bu voqeaning oldini olgani yo‘q-ku, u yog‘ini so‘rasangiz, o‘zini ham shu mojarolarning hammasini yo bir piyola ko‘proq choy ichish, yoki kam ichish singari behuda, bo‘lmag‘ur narsa deb bilib, ularga vazminlik, ko‘ngilchanlik bilan qaraydigan qilib tayyorlab kelmadi-ku. Gunohi juda katta, lekin gunohiga yarasha jazosini ham tortdi. Yana bir qadah xeresdan iching-u, kirib uxlang. Men bu yerga kelishdan oxirgi maqsadimga ham yetdim, soat uch bo‘lib qoldi: agar uyg‘otishmasa, juda uzoq uxlaysiz. Men Mashaga, Vera Pavlovnani soat o‘n yarimdan ilgari uyg‘otmang, deb aytib qo‘ydim, chunki ertaga choy ichar-ichmas zudlik bilan temir yo‘lga jo‘nashingiz lozim: hamma narsalaringizni joylashga ulgurmasangiz ham hechqisi yo‘q, tezda qaytib kelasiz yoki buyumlaringizni olib borib berishadi, qaysi biri ma’qul: Aleksandr Matveich ketingizdan borsinmi yo o‘zingiz kelasizmi? Masha yoningizda bo‘lsa, xijolat tortasiz, xotirjamligingizni ko‘rsa, durust ish bo‘lmas. Yarim soat shoshilib tayyorlanayotganingizda nimani ham payqaydi deysiz. Mersalova bilib qolsa yomon bo‘ladi. Ertaga erta bilan ularnikiga kirib aytib qo‘yarman, buyoqqa kelmay qo‘ya qolsin. Vera Pavlovna uyqudan qolgan, uyg‘otmay qo‘ya qoling, to‘g‘ri temir yo‘lga boravering, deyman.

– Men uchun muncha tashvish tortmasangiz? – dedi Vera Pavlovna.

– Aqalli shuni undan chiqqan aql demang, buni ham o‘zim aytyapman. Bilib qo‘ying, ilgarigi qilmishlari uchun men uni xo‘p koyiyman, o‘ziga, albatta, bundan ham ko‘proq, achchiqroq gaplarni aytdim, hech bir keraksiz bu dard-u alamlarning hammasi uchun u gunohkor bo‘lsa ham, lekin xuddi shu keraksiz oh-u fig‘onlar vaqtida maqtasa arzirlik ishlar qilibdi.

XXXI

FAROSATLI KITOBXON BILAN SUHBAT VA UNING BADARG‘A QILINISHI

– E, farosatli kitobxon, qani ayt-chi, Raxmetovni tasvirlashning nima hojati bor edi, mana u yo‘qoldi, bundan keyin hikoyamda

qayta ko'rinmaydi. Buning voqeada qatnashmaydigan shaxsligini mendan bilib olgansan...

– Bekor aytibsiz, – deb mening so'zimni bo'ladi farosatli kitobxon, – Raxmetov voqeada qatnashadigan shaxs: axir u maktub olib keldi-ku, u maktubdan...

– Taqsirim, estetikadan gap sotishni yaxshi ko'rganing bilan bu masalada juda bo'shsan-da, – deb uning gapini bo'laman, – bu gapingga qaraganda, Masha ham voqeada qatnashuvchilardan ekan-da? Hikoyamning boshida u ham bir maktub olib kelgandi, esingda bormi, buni o'qib Vera Pavlovna dahshatga tushgandi. Raxel ham voqeada qatnashuvchi shaxsmi, Vera Pavlovnaning buyumlariga Raxel pul berdi-ku, u pul bermasa Vera Pavlovna hech qayoqqa ketolmasdi. Professor N ham voqeada qatnashuvchilardanmi, chunki u Vera Pavlovnani B. xonimga murabbiyalikka tavsiya qilgan edi, bo'lmasa Konnogvardeyskiy xiyobonidan qaytishdagi mojaro bo'lmasdi. Balki Konnogvardeyskiy xiyoboni ham voqeada qatnashuvchidir? Chunki shu xiyobon bo'lmaganda, unda uchrashuv voqeasi va undan qaytib ketish voqeasi bo'lmasdi. Goroxovaya ko'chasiga nima deysan, balki u voqeada qatnashuvchi eng asosiy shaxsdir, chunki bu ko'cha bo'lmasa, undagi o'ylar, demak, Storeshnikovning uyi ham bo'lmasdi, bu uyni boshqaruvchisi ham, uy boshqaruvchisining qizi ham bo'lmasdi, unda butun hikoyaning o'zi ham bo'lmasdi. Ha, mayli, seningcha shularning hammasi: Konnogvardeyskiy xiyoboni bilan Masha ham, Raxel bilan Goroxovaya ko'chasi ham voqeada qatnashuvchilar, deb faraz qilaylik, ammo bular haqida besh-o'n og'iz, hatto undan ham oz gapirildi, chunki ularning ishtiroki besh-o'n og'iz gapdan ortiqqa arzimaydi ham, Raxmetovga qancha sahifa berilgan, bir qarab ko'rchi.

– Ha, endi bildim, – deydi farosatli kitobxon, – Raxmetov Vera Pavlovna bilan Lopuxov ustidan hukm chiqarish uchun hikoyaga olib kirilgan, u Vera Pavlovna bilan gaplashish uchun kerak edi.

– Eh, mazang yo'q ekan-ku, taqsirim! Voqeani tamoman aksincha tushunibsan. Boshqa shaxslar to'g'risida fikr aytsin deb, alohida bir kishini tasvirlashning nima keragi bor? Ehtimol, sening buyuk san'atkorlaring shu muddaoda o'z asarlariga hali qarasang

odam olib kirib, hali qarasang olib chiqib turar, men yomon yozuvchi bo‘lsam ham, badiiylik shartlarini, har holda, sal-pal tuzukroq tushunaman. Yo‘q, taqsirim, Raxmetovning hikoyaga olib kirilishiga zarurat yo‘q edi. Vera Pavlovna, Lopuxov, Kirsanov o‘z xatti-harakatlari va munosabatlari haqidagi fikrlarini qayta-qayta o‘z tillari bilan gapirib berishgan-ku, shuni bilmaysanmi? Ular befarosatlardanmas, nima yaxshi, nima yomonligiga o‘zlarining ham aqllari yetadi, ular bu masalada suflyorga muhtoj emas. Vera Pavlovna, bir necha kundan keyin, fursati kelganda shu mojarolarni eslab, ishxona to‘g‘risida Raxmetov uni qanday koyigan bo‘lsa, o‘zini o‘zi ham shunday koyidi, deb o‘ylaysizmi? Lopuxovning Vera Pavlovnaga munosabati haqida Raxmetovning aytgan hamma gaplarini Lopuxovning o‘zi ham o‘ylab ko‘rmagan, deb o‘ylaysanmi? U hammasini o‘ylab ko‘rgan; tuzuk, bama’ni odamlar qaysi ishlari tuzuk, qaysi ishlari nojo‘ya bo‘lganini o‘zlari ham yaxshi biladilar, shu sababdan ham, taqsirim, ularni tuzuk, bama’ni odam deb aytishadi, nahotki shunga aqling yetmasa? Taqsirim, bama’ni odamlarning ko‘nglida nimalar borligini bilish bobida juda mazang yo‘q-da. Hali boshqa gaplarim ham bor: nahotki sen, Raxmetov Vera Pavlovna bilan gaplashganida Lopuxovga bildirmasdan o‘z bilganicha qildi, deb o‘ylasang? Yo‘q, taqsirim, unday emas: Raxmetov bu masalada Lopuxov qo‘lida bir qurol bo‘lib xizmat qildi, xolos, bu masalada Raxmetov Lopuxovning quroli ekanini o‘zi ham o‘sha vaqtda juda yaxshi bilardi, ikki kunmi, uch kundan keyin Vera Pavlovna ham buni fahmlab oldi, agar qattiq hayajonlanmaganda Raxmetovning og‘zidan gap chiqqan zamon buni payqab olardi: gap aslida ana shunday edi, nahotki sen shuni ham tushunmagan bo‘lsang? Albatta, Lopuxov ikkinchi maktubida juda to‘g‘ri gap aytgan, Raxmetov bilan Vera Pavlovna o‘rtasida bo‘ladigan suhbat mazmuni haqida u na Raxmetovga biron og‘iz gap aytgan va na Raxmetov unga biron fikr bildirgandi; chunki Lopuxov Raxmetovning qanday odamligini, Raxmetovning ma’lum ishlar to‘g‘risidagi fikrlarini, qanday hollarda Raxmetovning nimalar deyishini yaxshi bilardi, axir, bama’ni odamlar bir-biri bilan gaplashmasa ham, bir-birining nima demoqchiligini tushunishadi. Raxmetovning Vera Pavlovnaga nimadir deyishini Lopuxov oldindan so‘zma-so‘z yozib qo‘yishi ham mumkin edi, shu vajdan

Lopuxov undan, o'rtamizda vositachi bo'l, deb iltimos qilgan edi. Seni psixologiya sir-u asrorlari dunyosining yanada ichkarirog'iga olib kiraymi? Lopuxov o'zi haqida hozir nima o'ylayotgan bo'lsa, Raxmetovning ham u haqda shuni o'ylayotganini (Mersalov va Mersalova ham shuni o'ylayotganini, u bilan Orollarda kurash tushgan ofitser ham shuni o'ylayotganini) juda yaxshi bilardi, garchi Vera Pavlovnaga bu haqda hech kim hech narsa demasa ham, birmuncha vaqtdan keyin Vera Pavlovnaning ham shuni o'ylashini yaxshi bilardi. Vera Pavlovnaning dastlabki minnatdorlik tug'yoni bosilishi bilanoq, shunga aqli yetib qolardi, bas, shunday ekan, deb o'ylaydi Lopuxov, Vera Pavlovnaning yoniga Raxmetovni yuborsam, bundan men hech nima yutqizmayman. Raxmetov meni koyisa koyiy qolsin, Vera Pavlovnaning o'zida ham bugun bo'lmasa ertaga shunday fikr tug'ilishi turgan gap: qaytaga menga hurmati oshadi – mening yutug'im shu bo'ladi: Raxmetov bilan ikkovlari o'rtasidagi suhbat mazmunini ilgaritdan bilishimga, o'zim ularni bir-biri bilan gaplashtirganimga va nima sababdan gaplashtirganimga tez kunda o'zining ham aqli yetib qoladi; ana o'shanda Vera Pavlovna bunday deb o'ylaydi: «O'zi juda ham olijanob odam ekanda, dastlabki hayajonga tushgan kunlarimda, unga minnatdorlik bildirib, boshim gangib qolishini bilganda, menda o'zimni bosib olishimga yordam beradigan fikr tug'dirish payidan bo'lgan; axir Raxmetov uni koyiganiga dilim ranjigan bo'lsa ham, uning gapi aslida to'g'riligini o'sha vaqtdayoq tushungandim; bir haftalardan keyin o'zim ham tushunardim-u, lekin u vaqtda buning men uchun ahamiyati qolmasdi, o'zim busiz ham xotirjam bo'lib qolardim; fikrlarni birinchi kuniyoq eshitganimdan yuragimni ancha bo'shatib oldim, yo'qsa ko'nglim bir haftagacha g'ash bo'lib yurardi. O'sha kuni bu fikrlar men uchun juda muhim, foydali bo'ldi... Ha, o'zi juda olijanob odam». Lopuxov shuni o'ylab topdi, Raxmetov unga qurol bo'lib xizmat qildi, xolos. Ko'rdingmi, muhtaram farosatli kitobxon, olijanob odamlar ana shunaqa ayyor bo'ladi, ularning nafsoniyatini aytmaysanmi: nafsoniyati, farosatli kitobxon, sening nafsoniyating singari emas, taqsirim, chunki sen bir narsadan huzur qilsang, ular boshqa narsadan huzur topishadi; o'zlari izzat-hurmat qilgan odamlar ularni olijanob odamlar ekan, deb o'ylasa bas, shundan xursand bo'lib yura beradilar, shuning uchun ham, taqsirim,

ular zo‘r berib maqsadlariga yetish payida bo‘ladilar, har xil tadbir-choralar o‘ylab topadilar, ularning tashvishi va tadbir-choralari senikidan ortiq bo‘lsa bo‘ladiki, kam bo‘lmaydi, ammo shunisi ham borki, sening maqsading bilan ularning maqsadi o‘rtasida farq bor, demak, sen bema’ni, boshqalar uchun zararli nayranglarni o‘ylab topasan, ularning o‘ylab topganlari to‘g‘ri, halol bo‘ladi, boshqalarga nafi tegadi.

Farosatli kitobxon:

– Menga bunday qo‘rs gapirishga nima haqing bor? – deya xitob qilishi mumkin, ustingdan shikoyat yozaman, seni badkirdor odam deb sharmandangni chiqaraman! – deyishi mumkin.

– Taqsirim, rahm qiling, – deb javob qaytaraman, – aql-idrokingizni qanchalik hurmat qilsam, fe’l-atvoringizni ham shunchalik hurmatlaganimdan keyin, sizga qo‘rs gapirishga qanday tilim borardi. Siz badiiylikni g‘oyat yaxshi ko‘rganingiz uchun shunchaki ilmingizni biroz boyitib qo‘yay, degandim xolos. Siz, taqsirim, Raxmetov aslida Vera Pavlovna bilan Lopuxov ustidan hukm chiqarish uchungina voqeaga olib kirilgan, deb o‘ylab xato qilgan edingiz. Bunga ehtiyoj yo‘q edi: Raxmetovning ular to‘g‘risidagi fikrlari orasida men sendan yashiradigan joyi yo‘q, taqsirim, ular Lopuxovning o‘zi to‘g‘ridagi fikrlari deb aytishim mumkin. Raxmetov bo‘lmasa ham bir necha kundan keyin Vera Pavlovnada o‘zi va Lopuxov haqida shunday fikrlar tug‘ilishi turgan gap edi. Taqsirim, endi senga bir savolim bor: Raxmetovning Vera Pavlovna bilan suhbatini senga aytishdan murod nima edi, bilasanmi? Agar senga Lopuxov bilan Vera Pavlovnaning fikrini bildirmasdan, Raxmetov bilan Vera Pavlovna o‘rtasida bo‘lgan suhbatni aytayotgan ekanman, gap mazmunini aytmasdan, xuddi shu suhbatning o‘zini aytishim lozimligini endi tushundingmi? Senga xuddi shu suhbatni aytish lozimligini endi tushundingmi? Senga xuddi shu suhbatni aytish lozimligiga sabab nima? Sabab shuki, bu Raxmetov bilan Vera Pavlovna o‘rtasida bo‘lgan suhbat: aqalli endi tushungandirsan? Hali ham tushunganing yo‘qmi? Juda ham ajoyibsan-da. O‘zi fahm-farosatdan ham toza bergan ekan-da. Quloq sol, tushuntirib beray: ikki kishi suhbatlashayotganda ularning gapidan ikkovining xulq-atvori bir qadar bilinib turadi, gap

nimadaligiga fahming yetay deyaptimi? Shu suhbatga qadar Vera Pavlovaning fe'l-atvori qandayligini yaxshi bilarmiding? Bilarding, demak, bu suhbatdan u haqda biron yangilik bilib olganing yo'q; Vera Pavlovnaning lov etib yonib ketishini ham, hazilkashligini ham bilarding, ishtahasi joyidaligini ham, xonasi kelganda bir ryumka xeres ichishdan qaytmasligini ham bilarding, demak, bu gap Vera Pavlovnaning ta'rifi uchun kerak emas ekan, bas, unda kimning ta'rifi uchun kerak ekan? Suhbatlashganlar faqat ikki kishi-ku: Vera Pavlovna-yu Raxmetov. Vera Pavlovnaning ta'rifi uchun kerak bo'lmasa, qani o'ylab top-chi, kimning ta'rifi uchun kerak?

– Raxmetovning ta'rifi uchun! – deb xitob qiladi farosatli kitobxon.

– Balli, topding, shuning uchun ham senga e'tiqodim zo'r-da. Ko'rdingmi, ilgari o'ylab yurganingdan butunlay boshqacha, aksicha ekan. O'rtada suhbat bo'lsin, deb Raxmetov voqeaga olib kirilgani yo'q, seni Raxmetov bilan yaxshiroq tanishtirish uchun, faqat shu vajdan sen hali suhbatdan xabardor bo'lding. Raxmetov ichkilik ichmasa ham ichkisi kelib qolganini, u juda haligiday «badqovoq yovuz» emasligini, aksincha, biron ko'ngilochar ish bilan band bo'lib g'am-g'ussalari, achchiq musibatlarini yodidan chiqarganda, u ham qiziqchilik qilib, o'ynab-kulib o'tirishni biladigan odamligini shu suhbat tufayli bilding; lekin u kamdan kam quvonaman, kamdan kam quvonishim o'zim uchun ham bir azob, «badqovoq yovuz» bo'lib yurishimdan o'zim ham xursand emasman, deydi, lekin shart-sharoit shundayki, ezgulikni men kabi jon-jahdi bilan sevuvchi kishining «badqovoq yovuz» bo'lmasligi mumkin emas, agar ana shularni nazar-e'tiborga olmasa, balki men kunlar bo'yi vaqtixushlik qilib, taralabedod, o'ynab-kulib yursam kerak edi, deydi.

Farosatli kitobxon, Raxmetovning qanday odamligini ta'rif-lashning o'ziga ko'p sahifalar ajratilgan bo'lsa ham, lekin aslini surishtirganda undan ham ko'proq sahifalar romanda umuman qatnashmaydigan o'sha shaxs bilan seni tanishtirish niyatida sarf qilinganiga endi tushungandirsan? Qani ayt-chi, bu shaxs nega romanga olib kirilib, batafsil tasvirlangan? Bir vaqtlar aytgan gaplarim esingdami: «Faqat asosiy badiiylik talabini qondirish uchun», deb aytgan edim. Bu talabning qandayligini va Raxmetov

siymosi sening ko‘z oldingda gavdalantirilib, talab qanday qondirilayotganini bir o‘ylab ko‘r-chi. Topdingmi? Qayoqda, senga yo‘l bo‘lsin. U holda quloq sol. Qo‘y, quloq solmasang ham bo‘ladi, baribir tushunmaysan, qo‘y, shuncha mazax qilganim ham yetar. Endi sen bilan emas, xaloyiq bilan gaplashaman, jiddiy gaplashaman.

Badiiylikning birinchi sharti bunday: butun predmetlarni shunday tasvirlash kerakki, ular aslida qanday bo‘lsa, kitobxon shunday tasavvur qilsin. Masalan, agar men biron o‘yin tasvirlamoqchi bo‘lsam, shunday qilishim kerakki, kitobxonga u biron kulba yoki qasr bo‘lib ko‘rinmasdan, qanday uy bo‘lsa, shunday ko‘rinsin. Agar men oddiy bir odamni tasvirlamoqchi bo‘lsam, shunday qilishim kerakki, bu odam kitobxonga pakana yoki devqomat bo‘lib ko‘rinmasin.

Men yangi avlodga mansub andishali va nomusli, oddiy odamlarni tasvirlamoqchi bo‘ldim, hozir yuzlab-minglab shunday odamlar bor. Men shunday odamlardan uch nafarini: Vera Pavlovna, Lopuxov, Kirsanovni misol keltirdim. Men ularni oddiy odamlar deb hisoblayman, ular o‘zlari ham shunday deb hisoblashadi, hamma tanish-bilishlari, ya’ni ularga o‘xshagan hamma odamlar ham ularni oddiy odamlar deb biladi. Ular haqida biron joyda boshqacha gap aytganim bormi? Ular haqida boshqa biron narsa aytdimmi? Men ularni hurmat-ehtirom bilan tasvirladim, chunki har qanday vijdonli va andishali kimsaga hurmat-ehtirom bildirsa arziydi. Lekin men biron joyda ularga bosh egganim bormi? Biron joyda ularni nihoyatda olijanob va ajoyib zotlar deb, ulardan a’lo va ulardan yaxshiroq odamlar bo‘lishi mahol bir narsa, ular insoniyatning yuksak kamolot darajasi deb, zarracha bo‘lsa-da, shunga ishora qilgan joyim bormi? Men ularni yangi avlodga mansub andishali va nomusli kishilar deb o‘ylaganimdek, romanimda ham ularning xatti-harakati aynan shunday tasvirlangan. Ular biron-bir dabdabali xatti-harakat qilganmi? Razillik, yuraksizlik qilishmaydi; ular sof niyatli oddiy kishilar, ana shu sof niyatlariga mos ish qilishadi, bo‘lgani shu, ammo buning nimasi qahramonlik bo‘pti! Men shu xildagi hamma oddiy kishilar singari ish tutuvchi odamlarni tasvirlab ko‘rsatmoqchi edim, niyatimga yetdim deb umid qilaman. Turmushda uchrovchi shu toifadagi odamlarni yaxshi

biladigan kitobxonlar avval boshdanoq romanimda qatnashuvchi asosiy shaxslar – ideal shaxslar bo'lmay, o'z toifasi jumlasidagi odamlarning umumiy darajasidan hech qancha yuqori emasligini doimo ko'rib kelgan bo'lsalar kerak degan umiddaman. Shu toifa odamlarning har biri ikki-uchtadan ko'proq voqeani boshidan kechirgan, shu voqealarda ularning ishtiroki men tasvirlagan voqealardagidan kam bo'lgan emas. Boshqa andishali kishilar men hikoyamda tasvirlagan voqealarning o'zini emas, boshqacharoq voqealarni boshidan kechirgan, deb faraz qilaylik; lekin bu voqeaning hamma xotinlarni va hamma erlarni bir-biridan ajratib yuborishga qurbi yetarlik biron shox – muguzi yoki biron antiqa yeri yo'q, hamma andishali xotinlar erlarining o'rtog'iga jigar-bag'ridan oshiq bo'lavermaydi, hamma andishali erkak ham eri bor xotinga oshiqlik xirsini tuyushga harakat qilavermaydi, tiyganda ham ozmas-ovloqmas, uch yil tiyib yurolmaydi, yana har kim istalgan ko'prikda o'zini o'zi otishga yoki (farosatli kitobxon aytganday) mehmonxonadan g'oyib bo'lishga o'zini majbur etmaydi. Lekin shu bilan birga, har bir andishali kishi men tasvirlagan shu odamlar o'rnida bo'lsa ularga aniq taqlid qilishni aslo qahramonlik deb bilmasligi va agar to'g'ri kelib qolsa, undan tap tortmasligi ham turgan gap, shunday, hatto undan ham mushkulroq ahvolga tushib qolganida ham bunga tayyor turadi, o'shanda ham o'zini antiqa odam deb hisoblamaydi, o'zi haqida o'ylagani faqat shu bo'ladiki, menmi, men shunchaki ma'lum darajada halol odamman, deb qo'ya qoladi. Bunday odamning yaxshi tanish-bilishlari ham (hammasi o'ziga o'xshagan odamlar: ular boshqalar bilan yaxshi tanish-bilish bo'lishmaydi) u haqda o'zi tuzuk odam, deb o'ylashadi-yu, lekin uning oldida tiz cho'kishni xayollariga ham keltirishmaydi, biz ham unga o'xshagan odammiz, deb qo'yishadi. Men maqsadimga yetgan bo'lsam kerak, deb umid qilaman, yangi avlodga mansub bo'lgan har bir andishali va nomusli odam romanimda qatnashuvchi uch nafar shaxsni o'zlarining yangi tanishlari jumlasiga mansub oddiy odamlar sirasidan deb bilsalar kerak.

Lekin hikoyaning eng boshidan mening Vera Pavlovnam, Kirsanovim va Lopuxovim haqida: «Ha-da, bular o'zimizning yaxshi tanishlarimiz, biz singari oddiy odamlar», deb o'ylaydigan,

romanimda qatnashuvchi asosiy shaxslar haqida shunday deb o'ylaydigan odamlar, har holda, xaloyiq orasida ozchilikni tashkil qiladi. Xaloyiqning ko'pchiligi hali bu toifa odamlardan juda past turadi. Umrida kulbayi vayronalaridan boshqa hech narsani ko'rmagan odam shunchaki oddiy bir uy suratini qasr surati deb biladi. Bu odam ko'ziga uy qasr bo'lib emas, uy bo'lib ko'rinishi uchun nima qilish lozim? Hech bo'lmaganda, qasrning bir burchagini o'sha suratga qo'shib chizish kerak, odam qasrning shu bir burchagini ko'radi-da, qasr degani suratdagi binodaqangi kichkina bo'lmasligiga, bino aslida rasmona oddiy uydan katta bo'lmay, hamma odamlar shunday uylarda, hatto undan ham yaxshi uylarda turishi lozimligiga ko'zi yetadi. Raxmetov siymosini ko'rsatmaganimda, kitobxonlarning ko'pchiligi hikoyamda qatnashuvchi asosiy shaxslar masalasida boshi qotib qolardi. Garov boylashaman, bu bobning to so'nggi bo'limigacha Vera Pavlovna, Kirsanov, Lopuxov xaloyiqning ko'pchiligiga qahramon, juda olijanob, hatto ideallashtirilgan shaxsday juda ham olijanob bo'lganliklaridan, aslida yo'q shaxslarday ko'ringan edi. Yo'q, do'stlarim, tili zahar, boodob, holi xarob do'stlarim, sizning ko'zingizga shunday ko'ringan: ular juda balandda emas, balki sizlar juda tubdasiz. Ularning shunchaki oddiy, osmonda emas, yerda yashovchi odamlar ekanini siz endi ko'rib turibsiz; siz o'zingiz tubanlikda yashayotganingiz uchun, faqat shu vajdan ular sizga osmon-u falakda parvoz qilib yurganday ko'ringan. Ular qanday yuksaklikka ko'tarilgan bo'lsa, hamma odamlar ham shu yuksaklikka ko'tarilishlari kerak, ko'tarilishi mumkin. Holi xarob do'stlarim, siz ham, men ham quvib yetishim mahol oliytabiat odamlar, oliytabiat zotlar bunday bo'lmaydi. Men oddiy odamlardan biri tarixini nari-beri chizib ko'rsatdim: ko'rdingizmi, ularning bichimi yaxshi o'xshamaydi. Agar siz o'z bilimingizni oshirish payidan bo'lsangiz, men to'la tasvirlayotgan odamlar bilan tenglashib olishingiz hech gap emas. Kimki ulardan tonsa, u odam pastkash. Do'stlarim, kulbayi vayronalaringizdan chiqing, deyman, chiqing, bu unchalik qaltis ish emas, erkin, yorug' dunyoga chiqing, bu dunyoda yashashdan lazzatli narsa bormi, yo'li ham yengil, o'zi ham jozibali, bir harakat qilib ko'ring: rivoj toping, o'sing. Razm soling, o'ylab ko'ring, hayotdan chinakam bahramand bo'lishdan,

kishi shafqatli va baxtiyor bo‘lishi lozimligidan gapiruvchilarning kitoblarini o‘qing. Ularning kitobini o‘qisangiz, huzur qilasiz, hayotga nazar tashlashdan maroqli ish yo‘q, o‘ylang – o‘ylashdan jozibali narsa yo‘q. Bo‘lgani shu. Jonfidolik kerak emas, muhtojlik talab qilinmaydi, zarurati yo‘q. Baxtiyorlikni orzu qilsangiz bo‘lgani, faqat shuni istasangiz bas. Shu istak yo‘lida siz huzur qilib o‘z bilimingizni oshirish payidan bo‘lasiz: baxt degani shu. O‘qigan, bilimdon kishining huzur-halovatiga nima yetsin! Boshqa birovning jonfidolik, g‘am-g‘ussaga botish deb his qilgan narsasini o‘qimishli odam huzur-halovat, lazzat deb biladi, shod-u xurramlik uning jon-dili, shod-u xurramlikdan boshi chiqmaydi! Qani, bir harakat qiling – bunga nima yetsin!

TO‘RTINCHI BOB

IKKINCHI OILAVIY HAYOT

I

Berlin, 1856-yil, 20-iyul

«Marhamatli xonim Vera Pavlovna,

Halok bo‘lmish Dmitriy Sergeich Lopuxovga yaqinligim sizga tamoman noma’lum; lekin sizga kamoli hurmat-ehtirom bildiruvchi kishini lutfan tanish-bilishlaringiz qatoriga kiritursiz, degan umiddaman. Har holda, o‘lguday xira ekan, deb meni gunohkor qilmassiz, deb o‘ylayman; siz bilan xat yozishib turar ekanman, bu bilan halok bo‘lmish Dmitriy Sergeichning istagini bajo keltiraman xolos; men sizga xabar qilgum ma’lumotlarni tamomila to‘g‘ri deb bilishingiz mumkin, chunki uning fikrlarini o‘z so‘zlari bilan, xuddi o‘zi gapirganday bayon etaman. Men uning so‘zlarini keltiraman, bu xatni uning ushbu masaladagi fikrini tushuntirish niyatida yozdim:

«Pirovardida yaqin kishilarimni tashvishga solib qo‘ygan fikrlar (yuqorida pisanda qilganimday, Dmitriy Sergeichning o‘z so‘zlarini keltiryapman), menda sekin-asta yetilib bordi, binobarin, niyatim tugal qaror topgunicha bir necha marta o‘zgardi. Shu fikrlarga sabab bo‘lgan holatni men tamomila to‘satdan, u o‘zini (Dmitriy Sergeich u deganda sizni nazarda tutadi) dahshatga solgan tushini menga qo‘rquv ichida aytgan daqiqadagina payqagan edim. Tushi menga juda muhim ko‘rindi; men uning hayajonga, his-tuyg‘ulariga chetdan qarab turgan odam tariqasida, uning hayotida alohida bir davr boshlanayotganini, bu davr o‘rtamizdagi ilgarigi munosabatni ma’lum muddatga o‘zgartirib yuborishini shu ondayoq tushundim. Lekin kishi o‘rgangan, odatga aylangan holatni saqlash uchun so‘nggi kuchini ham ayamaydi; tabiatimizning eng nozik

nuqtalarida taassub hukmronlik qiladi, biz zarurat tufayligina bu taassub elementlaridan chekinamiz. Dastlabki taklifimning sababi, fikrimcha, shu bo'lsa kerak: men bu hodisa birmuncha vaqtdan keyin o'tib ketadi, shu bilan bizning ilgarigi munosabatlarimiz yana asliga qaytadi, deb o'ylagim kelgandi, shunday deb o'ylagan edim ham. U esa men bilan juda ham yaqinlashib, shu bilan bu hodisaning oldini olmoqchi bo'lgandi. Men ham qiziqib ketibman; shu tariqa bir necha kungacha uning orzusini amalga oshirmaslik mumkin emas, deb yurdim. Lekin biroz vaqt o'tgach, bunga umid bog'lash behuda ish ekanligiga ko'zim yetdi. Bunga mening fe'l-atvorim sababchi edi.

Men bu bilan o'z fe'l-atvorimni aslo yomonga chiqarmoqchi emasman. Men bu masalada mana bunday o'ylayman.

Qanday lozim bo'lsa, shunday hayot kechiradigan kishining vaqti uchga: mehnat, huzur-halovat va istirohat yoki vaqtixushlikka bo'linadi. Huzur-halovatga ham, mehnatga ham istirohat kerak. Mehnat bilan huzur-halovat umuminsoniy omil shaxsiy xususiyatlardan ustun turadi; mehnatda biz tashqi foydali ehtiyojlarning ustunlik hukmiga amal qilamiz; huzur-halovatda inson tabiatining yana shunday boshqa umumiy ehtiyojlarining ustunlik hukmiga amal qilamiz. Istirohat, vaqtixushlik – shunday omilki, u shaxsiy hayotbaxsh materiallar jamg'armasining zavoli bo'lib, shu hayajonda sarf bo'lgan kuchlarni qayta tiklash yo'lini qidiradi, bu – hayotga shaxsning o'zi olib kiradigan omil; bunda shaxs o'z xususiyatlariga qarab, huzur-halovatini o'ylab ish tutishni niyat qiladi. Mehnatda va huzur-halovatda kishilar kishilarga shaxsni xususiyatlardan yuqori turuvchi umumiy, qudratli kuch tufayli xuddi shu mehnatdan manfaatdor bo'lishni mo'ljallab mayl qiladilar; huzur-halovatga – organizmning birdek ehtiyojlari tufayli amal qiladilar. Istirohatda unday emas. Bu shaxsni xususiyatlarni tekislab, yo'q qilib yuboradigan umumiy kuchning ishi emas; istirohat ko'proq shaxsiy ish, bunda har bir shaxs o'ziga hammadan keng maydon talab qiladi, bunda inson hammadan ko'proq individuallashadi va kishining xulqi uning uchun qanday istirohat qulay va yoqimliroqligi masalasida hammadan ko'proq namoyon bo'ladi.

Bu jihatdan odamlar ikki asosiy qismga bo'linadi. Bir xillariga boshqalar bilan birga istirohat yoki vaqtixushlik qilish ko'proq

yoqadi. Ba'zi-ba'zida yolg'iz qolish har bir kimsaga ham kerak. Lekin ularga bu yolg'izlik istisno tariqasida kerak; odamlar orasida yashash ular hayotining qonun-qoidasidir. Bu toifa vakillari boshqa toifa vakillariga – buning aksini qiluvchi toifaga qaraganda juda ko'p: bular boshqa toifa, boshqalar bilan birga bo'lgandan ko'ra yolg'izlikda o'zlarini bemalolroq his qiladilar. Bu farqni afgor omma ham payqagan, bu farqqa afgor omma ulfatijon va odamovi deb nom qo'ygan. Men odamovilar jumlasidanman, xonim bo'lsa – ulfatijonlar jumlasidir. Oramizdagi voqeaning butun siri ana shunda. Bu sababdan birontamizni yomonotliq qiladigan biron narsa yo'qligi ravshan bo'lsa kerak. Bu sababning oldini olishga birontamizning kuchimiz yetmagan ekan, buning biron yomon yeri ham yo'q: kishi o'z tabiatiga qarshi turishga ojizlik qiladi.

Boshqalar tabiatining o'ziga xos jihatlarini tushunish ancha qiyin gap: bu hammaning ham qo'lidan kelavermaydi; har bir kimsa boshqalarni o'z xulqiga taqqoslab tasavvur etadi. Menga keragi yo'q narsa, menimcha, boshqalarga ham kerak emas, – shaxsiyatimiz shunday o'ylashga undaydi; buning aksicha o'ylashim uchun juda yaqqol alomatlar bo'lishi shart. Aksincha: menga huzur va erk baxsh etgan narsa boshqalarga ham birdek bo'lishi kerak. Shu tariqa fikr qilishimizning tabiiyligi o'z tabiatim bilan xonim tabiati o'rtasidagi farqni juda kech payqaganim uchun afv so'raganligimdir. Biz birga yashay boshlaganimizda meni juda boshiga ko'tarib yuborganligi ham xatoni ancha kuchaytirdi: u kezlar o'rtamizda hali tenglik yo'q edi, u meni haddan ziyod hurmat qilardi; mening hayotim unga ibrat bo'lib ko'rindi, shaxsiy xususiyatimni umuminsoniy xususiyati deb bildi, birmuncha vaqt shunga mahliyo bo'lib yurdi. Bundan kuchliroq boshqa sababi ham bor edi.

Nodon va bilimsiz kishilar ma'naviy hayot daxlsizligini uncha hurmat qilmaydilar. Oiladagi har bir kimsa, ayniqsa kattalar, o'ylab-netib o'tirmay shaxsiy hayotingizga tumshug'ini suqib, aralasha beradi. Gap bunday qilganimizda sirlarimizning oshkor bo'lishida emas: sirlar – bir qadar yirik gavharlar, ularni yashirib, bekitib qo'yishni yodingdan chiqarmaysan kishi; yana har bir kimsada ham sir bo'lavermaydi, ko'plarning o'z yaqinlaridan yashiradigan siri yo'q deyarli. Lekin har bir kimsa o'zimizga alohida bir xona bo'lsin, deb orzu qilgani singari, ma'naviy hayotimda hech kim

daxl qilolmaydigan ko‘nglim to‘riga egalik qilay, deydi. Nodon, bilimsiz kishilar unisi bilan ham, bunisi bilan ham ishi yo‘q: siz alohida xonada turganingizda ham unga har bir kimsa suqilib kiraveradi; sizning xonangizni ko‘rish yoki jig‘ingizga tegish niyatida emas, yo‘q, shunchaki sizning bezovta bo‘lishingizga aqli yetmaganidan shunday qiladi: u, agar men uning ko‘ziga umuman balo-qazodek ko‘rinsam, shu taqdirdagina kutmagan yerda yana oyog‘im tagidan chiqib qolmasa go‘rgaydi, deb o‘ylaydi; uni xush ko‘rgan odamning ham joniga tegishi, xalaqit berishi mumkinligiga uning aqli yetmaydi. Bizda faqat bir xonaning, oila boshlig‘i turadigan xonaning ostonasini muqaddas deb biladilar, shu xonada turuvchidan beijozat hech kim uning ostonasidan hatlab o‘ta olmaydi, chunki oila boshlig‘i xonaga undan beijozat kirgan har qanday kishi yelkasiga bir musht urib haydab chiqarishga haqi bor. Kimki boshqalardan katta yoki oiladagi mavqeyi jihatdan teng ekan, xohlagan vaqtida uning xonasiga tumshug‘ini suqa beradi. Uy masalasida ham, ma’naviy hayot dunyosi masalasida ham shunday. Hech qanday zarurati bo‘lmasa ham, hatto biron-bir fikr aytish maqsadi bo‘lmasa ham u yerga har bir kimsa bekordan bekorga kirib boraveradi, ko‘pincha tili qichib asabingizga tegish niyatida kiradi. Qizning ikki ko‘ylagi bor: biri oq, biri pushti rang; u bugun pushti rang ko‘ylagini kiygan, bas, til qichib uning asabiga tegishga bahona topildi.

«Anyuta, pushti ko‘ylagingni kiyibsanmi, nega bu ko‘ylagingni kiyding?» Nega shu ko‘ylagini kiyganini Anyutaning o‘zi ham bilmaydi, – axir, biron ko‘ylakni kiyishi kerak-ku, u oq ko‘ylagini kiyganda ham baribir shu ahvol. «O‘zim, oyijon (yoki opajon)». – «Oq ko‘ylagingni kiysang yaxshi edi». Nega yaxshi bo‘lishini Anyuta bilan gaplashayotgan ayolning o‘zi ham bilmaydi: tili qichib turgandi xolos. «Anyuta, deyman, bugun xafaroq ko‘rinasanmi?» Holbuki Anyuta xafa ham emas, xursand ham emas: xafa ham emas ekan, xafaligi ko‘rinib ham turmas ekan, so‘rasa nima qilibdi? «Bilmadim, yo‘q, xafa bo‘lmasam kerak», – «Yo‘q, nimagadir xafa ko‘rinasan». Ikki daqiqalardan keyin: «Anyuta, deyman, fortepyano chalib bersang-chi». Bu nimaga kerak bo‘lib qoldi – noma’lum; va hokazo, kun bo‘yi shu taxlitda davom eta beradi. Sizning dilingiz go‘yo bir ko‘cha-yu, deraza yonida o‘tirgan har bir kimsa shu ko‘chaga qaragisi kelaveradi, bu ko‘chada

biron narsa ko‘rgisi kelganidan emas, yo‘q, u ko‘chada na biron kerakli narsa, na biron qiziq narsa ko‘rmasligini o‘zi ham biladi, u shunchaki ishi yo‘qligidan shunday qiladi; baribir emasmi, demak, ko‘chaga qarasa nima bo‘pti? Rost, ko‘chaga-ku baribir; lekin unga hadeb tirg‘alaverishsa bundan u qanday huzur topsin!

Hech qanday maqsad va hech qanday fikr-o‘ysiz bunday tirg‘alaverishdan kishining ranjishi tabiiy: kishi yolg‘iz qolishga imkon tug‘ilishi bilanoq birmuncha vaqt shu yolg‘izlikdan huzur topadi, garchi tabiati yolg‘izlikka emas, balki ulfatchilikka moyil bo‘lsa ham yolg‘izlikdan huzur topadi.

U erga chiqishidan ilgari bu jihatdan juda mushkul ahvolda qolgandi: uni sira o‘z holiga qo‘yishmasdi, hol-joniga qo‘ymay tirg‘alishaverardi, shunchaki ishlari yo‘qligidan, tasodifan va faqat befarosat ekanliklaridan emas, dam-badam hech tinch qo‘ymay, har daqiqada qo‘pollik bilan, yuzsizlarcha shunday qilishardi, g‘arazgo‘ylik va yomon niyat bilan jig‘iga tegishardi, shunchaki odobsizlik bilan emas, juda dag‘al, juda iflos qo‘llari bilan daxl etib jonidan bezor qilib yuborishardi. Shu sababdan bu mashmashalar unga qattiq ta’sir etgandi.

Binobarin, mening xatoyimni juda ham yomonga chiqarmasliklari lozim. Bir necha oy, balki bir yilgadir, men xatoga yo‘l qo‘ymadim: darhaqiqat, u yolg‘izlikka muhtoj edi, bundan u huzur ham topdi. Menda shu orada uning fe’l-atvoriga doir ma’lum bir fikr tug‘ildi. Undagi vaqtincha kuchli ehtiyoj mendagi doimiy ehtiyojga juda xil kelib qoldi, agar men vaqtincha bir hodisani uning fe’l-atvoridagi doimiy xislat deb bilgan ekanman, buning nimasi ajablanarli? Har bir kimsa boshqalar haqida o‘zidan qiyos qilib hukm chiqaradi!

Xato yo‘q emas, bor, bo‘lganda ham juda katta xato. Bunda men o‘zimni aybdor deb bilmayman-u, lekin nuqul o‘zimni oqlagim kelaveradi; demak, boshqalarning menga o‘zimchalik lutf aylamasligini sezib turibman. Menga qaratilgan tanbehni yumshatish uchun o‘z fe’l-atvorimning shu tomoni ustida bir qadar ko‘proq gapirishim lozim, chunki u va boshqa odamlarning ko‘p qismi bundan unchalik xabardor emas, bas, agar so‘zlab berilmasa, uni noto‘g‘ri tushunishlari mumkin.

Men tanholikdan o‘zgacha istirohat bo‘lishi mumkinligiga aqlim yetmaydi. Boshqalar bilan birga bo‘lish men uchun biron

ish bilan shug'ullanish, yo ishlash, yoki kayf-safo qilish demakdir. Men yolg'iz o'zim bo'lganda, shundagina o'zimni tamomila erkin his etaman. Buni nima deb atasa bo'ladi? Nega shunday? Ba'zilar odamoviligidan, boshqalar uyatchanligidan shunday qiladi; yana bir xil odamlarda g'amginlikdan, xayolparastlikdan; to'rtinchi xil odamlarda inson zotiga mehri yo'qligidan bo'ladi. Menda bulardan hech qanaqasi yo'qdir? Men ochiq, ro'yirost odamman, hamisha xushvaqtlikdan qochmaydiganlardanman, g'am-g'ussa degan narsani bilmayman. Men kishilarni ko'rsam bahri dilim ochiladi, xursand bo'laman; lekin birga ishlashganimda yoki huzur-halovatda shunday, bu – keyin istirohatni, ya'ni, menimcha, tanholikni talab qiluvchi holat. Mening tushunishimcha, mendagi bu odat mustaqillikka, erkinlikka o'ta intilishdir.

Uning oilasidagi ilgarigi, juda notinch ahvoli birmuncha vaqt o'z mayliga mos kelmaydigan tarzda kun kechirib turishga majbur etdi: menga hurmati uning bu vaqtincha ixlosmandligiga keragidan ko'proq madadkorlik qildi: men shu uzoq vaqt mobaynida uning xulq-atvori haqida ma'lum tasavvur hosil qildim, vaqtincha xislatini doimiy xislat deb bilib, tinchidim, bor gap shu. Men xato qildim, lekin bu xatoyimning yomon jihati oz edi; u hech qanday chakki ish qilgani yo'q. Ammo buning natijasida u qancha g'am-g'ussa chekdi, men-chi, men butun boshli falokatga yo'liqdim!

Dahshatli tushdan qo'rqib ketganini ko'rib, his-tuyg'ularini tasavvur etganimda, xatoyimni tuzatish fursati o'tgandi. Agar buni ilgariroq payqaganimizda, ehtimol, hamisha astoydil, zo'r berib u ham, men ham bir-birimizdan mamnunlik taraddudini ko'rib yurarmidik? Bilmadim; o'ylaymanki, bu ishimiz o'ngidan kelganda ham biron yaxshi natija berishi mahol edi. Biz fe'l-atvorimizni oramizdagi munosabatdan og'irsinishimizga o'rin qolmas darajada o'zgartirdik, deb faraz qilaylik. Lekin xulq-atvorni o'zgartirish biron yomon xislatga qarshi qaratilsa, shu holdagina biron tuzuk natija chiqadi; uning ham, mening ham o'zgartirishga muhtoj jihatlarimizning hech bir yomon yeri yo'q edi. Ellashishning tanholikka moyillikdan nimasi yomon yoki nimasi yaxshi, yoki aksincha, tanholikning ellashishdan nimasi yaxshi-yu, nimasi yomon? Xulq o'zgartirish esa – har holda zo'rlik qilish, dilga raxna solish demakdir, raxna solgandan keyin asliga qaytarib bo'lmaydi,

zo‘rlik qilganda o‘rtaga ko‘p sovuqchilik tushadi. Oqibati shu bo‘lgandan keyin, men va uning, ehtimol (lekin aniq emas, faqat ehtimol) erishadigan natijamiz bunga arzimas. Ikkalamizning ham sal-pal rangimiz siniqib qolardi, tirik jonimizni bir qadar qiynab qo‘yardik. Nima keragi bor? Ma’lum xonalardagi ma’lum joylarni band qilish uchunmi? Bola-chaqamiz bo‘lganda yo‘rig‘i boshqa edi; unda judoligimiz kasriga bolalarimiz qoladi, deb shu haqda ko‘proq o‘ylashga to‘g‘ri kelardi: ish chappasiga ketadigan bo‘lsa, buning oldini olish uchun har qancha zo‘r berib tirishsang ham ozlik qiladi, natijada jondan azizlarimning taqdiri ilinjida zarur chora-tadbirlarni ko‘rdim, deb shodlanasan kishi; buning oqibati esa xayrli bo‘lardi. Endilikda bu ishdan qanday bama’ni maqsad ko‘zda tutilishi mumkin?

Shu tariqa, hozirgi ahvolda mening xatoyim hatto yaxshi natija berdi shekilli; shu xatoyim tufayli ikkovimiz ham o‘zimizni unchalik qiynaganimiz yo‘q. Bu xato ko‘p g‘am-g‘ussaga sabab bo‘ldi, lekin agar bu xato yuz bermaganda, bundan ham ko‘proq tashvish chekardik, natija ham bunchalik ko‘ngildagiday chiqmasmidi».

Dmitriy Sergeichning aytganlari shu. U masalaning bu tomoniga zo‘r e’tibor berganidan, o‘zini noqulay sezgani, o‘zi uchun nafsiz deb bilganini payqash qiyin emas. U ro‘yirost qo‘shimcha qildi: «Bu ishni mening ahvolimga achinmay tekshiradiganlar nazarida unchalik haq bo‘lmasam kerak, deb his qilaman. Lekin uning menga rahm-shafqat qilishiga aminman. U hatto men to‘g‘rimda o‘zimdan yaxshiroq hukm chiqaradi. Men o‘zimni tamomila haq deb bilaman. Uning tush ko‘rishiga qadar o‘tgan fursat to‘g‘risidagi fikrim shunday». Endi tushingiz ikkalangiz o‘rtangizdagi munosabatning ko‘ngildagiday emasligini ko‘rsatgandan keyin unda qanday his-tuyg‘u va niyatlar paydo bo‘lganini aytib beraman.

«Men (bu Dmitriy Sergeichning so‘zlari), uning yomon tush ko‘rdim, deb aytgan birinchi gapidanoq ilgarigi munosabatlarimizdan boshqacha qandaydir bir hodisa yuz berishi muqarrarligini tushundim, dedim. Bu ancha kuchli hodisa bo‘lar, deb kutib yurdim, chunki u jo‘shqin tabiatli ayol bo‘lganidan va uzoq vaqt sirini ichida saqlaganidan noroziligi haddan oshgan, bundan boshqacha bo‘lishini kutish ham mumkin emasdi. Lekin har holda kutish dastlab menga juda oson va foydali ishday ko‘rindi. Men

o‘zimcha bunday muhokama qildim: u ma’lum vaqtgacha biron kishiga juda ko‘ngil qo‘yishi mumkin: bir-ikki yil o‘tgandan keyin yana o‘zi oldimga keladi; men juda yaxshi odamman, deb o‘yladim. Boshqa biron menday odamni uchratishi qiyin (o‘z to‘g‘rimda nima deb o‘ylasam, shuni aytyapman, ikkiyuzlamalik qilib qadr-qimmatimni yerga urish odatim yo‘q). Sevgi tuyg‘usi qonsa, shiddat kuchining bir qismidan ayriladi: u men bilan turganda mizojining bir jihati kamroq qonsa ham, lekin umuman boshqa biron kishi bilan turishdan ko‘ra men bilan yengilroq, erkinroq hayot kechirishiga o‘zining ham ko‘zi yetib qoladi; yana hammasi ilgarigiday joy-joyiga tushib ketadi. Tajriba meni mulla qilib qo‘ydi, endi unga ko‘proq e’tibor beraman; u yana hurmatimni bajo keltiradi. Menga ilgarigidan ham ko‘proq mehr qo‘yadi, shu bilan avvalgidan ham inoqroq yashaymiz.

Biroq (buni tushuntirib berishim ancha qaltis ish; lekin baribir tushuntirib o‘tishim kerak) u bilan o‘rtamizdagi munosabatning yana o‘z iziga tushib ketishini men qanday xayol qilgan edim deng? Bundan xursandmidim? Albatta. Lekin faqat xursandmidim? Yo‘q, bu menga malol kelganday tuyulsa ham baribir xursand edim, juda xursand edim-u, lekin har holda malol kelgan tomoni ham bor edi. Unga muhabbatim juda zo‘r, ko‘proq uning ko‘ngliga qarash payidan bo‘lishim kerak; bu men uchun rohat-ku, lekin har holda hayotim mushkullashadi. Men dastlabki taassurotdan xotirjam bo‘lib, tinchlanganimda, shunday tuyulgan edi. Keyin qarasam, yanglishmagan ekanman. U ko‘nglimni ovlashga harakat qil, deb istak bildirganida, o‘zimdagi shu tuyg‘uni sinab ko‘rishimga imkon berdi. Uning bu istagini bajo keltirib o‘tkazgan bir oy vaqtim hayotimdagi eng og‘ir kunlar bo‘ldi. Hech qanday azob tortganim yo‘q, bu iborani ishlatishning o‘rni emasdi, bunday ifodalash bema’ni bo‘lardiku-ya; uning ra’yiga qarab ish qilganimda xursandlikdan boshqa biron narsa his qilganim yo‘q; lekin zerikib, diqqinafas bo‘lib yurdim. Menga muhabbatini saqlab qolish yo‘lidagi urinishlari oqibatsiz qolib ketganining siri ana shunda. Men uning ra’yiga qarayman, deb diqqinafas bo‘ldim.

Men ko‘pdan ko‘p oqshomlarimni talabalarga sarflaganimda zerikmaganim, jonimdan ziyoda ko‘rgan bu xotinga bor-yo‘g‘i bir necha oqshom vaqtimni berishim bilan juda holdan ketganim

dastlab qiziq tuyulishi mumkin, holbuki talabalar deb unchalik tashvishga ham tushmasdim, bu xotinni esa o'zimdan ham yaxshi ko'rardim, uni deb o'limdan ham qaytmasdim, faqat o'limdan emas, har qanday azob-uqubatlardan ham tap tortmasdim. Bu narsa qiziq tuyulishi mumkin, lekin men shuncha vaqtimni sarf qilgan yoshlarga munosabatim ma'nosini yaxshilab chaqib ko'rmaganlarga shunday ko'rinishi mumkin. Birinchidan, bu yoshlar bilan men hech qanday shaxsiy munosabatda bo'lgan emasman: men ular bilan o'tirganimda ularni alohida shaxslar emas, bir-birlari bilan fikr olishayotgan bir qancha mavhum nusxalar deb bilardim; mening ular bilan qiladigan suhbatim tanholikda xayol surishdan oz farq qilardi; bunda insonligimning faqat bir tomoni, boshqalariga qaraganda kamroq oromtalab tomoni – fikr band bo'lardi. Qolgan hammasi uyquda yotardi. Yana desangiz, suhbat qurishdan amaliy foydali maqsad – yosh do'stlarimni aql-farosatli, olijanob va g'ayratli qilishga ko'maklashish maqsadi ko'zda tutiladi. Bu bir mehnat edi; lekin shu qadar yengil mehnat ediki, boshqa mehnatlarga sarflangan kuchni tiklashga yaraydigan, charchatmay, aksincha, bardam qiluvchi mehnat edi, lekin har holda mehnat edi; shuning uchun shaxs bunda istirohatga bo'lgan talabi singari talab qo'ymasdi. Men bunda tasalli emas, naf axtardim: bunda men, fikrdan tashqari, butun vujudimga orom berdim; fikr esa men suhbatlashgan kishilarga hech qanday shaxsiy munosabatlarimni aralashtirmasdan amal qilib turdi, shu sababdan u yolg'izlikda o'zini qanday his qilsa, bunda ham o'zini shunday bemalol his etdi; bu gaplar mening tanholik holatimga ta'sir etmadi, deb aytish mumkin. Bunda kishi butun vujudi bilan his qiladigan munosabatlarga o'xshaydigan biron narsa yo'q edi.

«Diqqinafaslik» degan so'zni tilga olish qaltisligini bilaman: lekin halollik buni yashirishimga yo'l qo'ymaydi. Men uni har qancha yaxshi ko'rsam ham, keyinchalik o'rtamizda ilgarigiday totuvlik munosabati tug'ilishi mumkin emasligiga ko'zim yetgach, ancha yengil tortdim. Uning ra'yiga qarashim menga malol kela boshlagan paytlarda, buni ham sezgandagina, bunga ishonch hosil qila boshladim. Shundan keyingina kelajak ko'zimga boshqacha ko'rinib, ko'ngildagidek tuyuldi; menga bu usul ma'qulroq tushdi; ilgarigi munosabatlarimiz davom etishi mumkin emasligiga ko'zim

yetgach, qanday qilib tezroq, – men yana o'sha tilga olish mahol bo'lgan so'zni ishlatishim lozim, – diqqinafaslikdan qanday qilsam-u tezroq qutulsam, xalos bo'lib olsam, deb o'ylay boshladim. Masalaning sirtiga qarab bildirilgan minnatdorlikni ko'riboq izmini qo'ldan bermoqchi yoki niyati xolisligiga ko'zi yetar darajada yaqin bo'lmagan kishiga olijanoblikday tuyuladigan narsaning siri shunda edi. Ha, men bu diqqinafaslikdan qutulib olgim keldi xolos. Men yaxshi tomonlarimni yo'qqa chiqarib, riyokorlik qilib, niyatlarimdan biri unga yaxshilik tilash ekanligini inkor etmayman. Lekin bu faqat ikkinchi niyatim edi, – bu juda kuchli bo'lsa ham, har holda, kuchi jihatidan birinchi, asosiy niyatimdan – diqqinafaslikdan qutulish istagimdan keyinda turardi: haqiqiy omil shu istagim edi. Shu istagim ta'sirida men uning hayotiga razm solib bordim va hayot tarzi o'zgarishi tufayli his-tuyg'ularining o'zgarishida Aleksandr Matveichning goh paydo bo'lib, goh yo'qolib ketishi asosiy rol o'ynashini osongina tushundim. Bu masala meni Aleksandr Matveich haqida o'ylashga majbur etdi: uning g'alati odat chiqarganligi sababini ham tushundim, ilgarilari bu odatlariga e'tibor bermasdim, shu bilan menda yangi bir fikr, – o'zimga ko'proq ma'qul tushgan fikr, – tug'ildi, buni ilgari aytgandim ham. Xonimda otashin muhabbat izlashgina emas, shunday muhabbat jo'sh urib qolgani, lekin hali bu muhabbatga iqror bo'lmagani, bu tuyg'u juda munosib kishiga, umuman o'rnimni bemalol bosadigan kishiga qaratilgani, uning o'zida ham muhabbat jo'sh urib turganini ko'rib juda suyundim. Aytmoqchi, dastlab bu narsa menga, albatta, yomon ta'sir qildi: har qanday muhim o'zgarishga bir qadar g'am-g'ussa aralashadi. Shundan keyin men o'zimni, rostini aytsam, unga kerak odamman, deb hisoblashim mumkin emasligini sezdim: axir men o'rganib qolgandim, to'g'risini aytsam, ko'nglim ham to'ldi: demak, bunday munosabatdan mahrumlik oqibati og'ir tuyulishi turgan gap edi. Lekin bu tomoni meni xursand qilgan tomonidan dastlab juda oz fursat mobaynida baland kelib turdi. Endi men uning baxti ochilishiga amin, taqdiridan xotirjam edim. Bu – zo'r shodlik manbayi edi. Lekin asl shodlik ham shu edi, deb o'ylash behuda edi; yo'q, shaxsiy tuyg'u yana undan ham muhimroq edi: qarasam, majburiyatdan butkul xalos bo'lyapman. Mening so'zimdan go'yo oilasiz hayot menga oilali hayotdan erkinroq yoki yengilroq

ko‘ringanday ma’no chiqishi mumkin emas; yo‘q, agar er-xotin bir-birining ra’yiga qarash uchun bir-birini diqqinafas qilishiga hech qanday zarurat sezilmasa, agar ular o‘zlarini qiynab-netib o‘tirmay ham bir-birlaridan mamnunlik his etishsa, agar ular bir-birlarining ko‘ngliga qarashni o‘ylab o‘tirmay, bir-birining ra’yiga qarasa, bir-biriga munosabati qancha yaqin bo‘lsa, o‘zlarini shuncha yengil his qiladilar, shuncha erkin his etadilar. Lekin xonim bilan o‘rtamizdagi munosabat bunday emasdi. Shu sababdan ajralib ketish men uchun ozodlikka chiqish degan gap edi.

Bundan shu narsa ko‘rinib turibdi; uning baxtiga zomin bo‘lmaslikka ahd qilganimda o‘z manfaatimni ko‘zlab ish tutdim; bu ishimning olijanoblik jihati bor edi, lekin bunda madad bergan narsa tabiatimdagi o‘zim uchun yaxshiroq sharoit yaratishga intilish mayli edi. Shu sababdan aytishim mumkinki, o‘zimni bardam tutdim: o‘zimni har yoqqa urmadim, ortiqcha sarosimaga berilmadim, boshqalar ko‘ziga yomon ko‘rinmay, o‘z burchimga ham xiyonat qilmay, ishimni o‘nglab yurdim. Kishi o‘z tabiati maylini burch deb bilsa, ishi oson ko‘chadi.

Men Ryazanga jo‘nab ketdim. Oradan birmuncha vaqt o‘tgandan keyin, endi yonimda bo‘lsang ham menga xalaqit bermaysan, deb chaqirtirib oldi. Lekin yonida bo‘lishim nojo‘yaligiga ko‘zim yetdi. Bilishimcha, buning ikki sababi bor edi. Uning fikriga qaraganda, unga juda ko‘p yaxshilik qilgan odamni ko‘rib turishi og‘ir edi. Bu masalada u yanglishardi, menga minnatdorchilik izhor etishiga arzirlik biron-bir yaxshilik qilganim yo‘q, chunki men ko‘proq o‘z foydamni o‘ylagandim. Lekin bu ishlar unga boshqacha ko‘rinardi, shuning uchun ham o‘zini mendan juda minnatdor hisoblab yurardi. Bu juda og‘ir tuyg‘u. Bu tuyg‘uning ko‘ngilli jihati ham bor, lekin tuyg‘u juda ham kuchli bo‘lmagandagina bu jihati baland keladi. Bunday tuyg‘u kuchli bo‘lganda odamni ezib turadi. Yana bir boshqa sababi – bu ham ancha nozik gap, lekin o‘ylagan narsangni aytmay ilojing yo‘q, menimcha, boshqa sababi shuki, ijtimoiy sharoit nuqtayi nazaridan u o‘z ahvolining normal emasligidan ko‘ngli g‘ash bo‘lib yurardi; shunday vaziyatda bo‘lishiga haqi borligini jamiyatning rasmiy tan olmaganligi ko‘ngliga og‘ir botardi. Xullas, uning yonida bo‘lishim unga malol kelishiga ishonch hosil qildim. Yashirmayman, men kashf etgan bu yangilikning yana

shunday jihati bor ediki, bu oldingi vaqtlar his qilgan hamma tuyg'ularimdan ham og'irroq edi. Men unga ilgarigiday mehr qo'ydim; hamon uning eng yaqin, qadrdon kishisi bo'lib qolgim keldi. Shunday bo'lar, degan umidda edim. Lekin buning mumkin emasligiga ko'zim yetgach, qattiq qayg'urdim. Bu gal har qanday shaxsiy manfaatlar ham qayg'u-alamni tarqatib yuborishdan ojiz edi; shuni aytishim mumkinki, bunda mening ahdim, mening so'nggi ahdim azbaroyi unga sadoqatim zo'rligidan, baxti ochilsin, degan umid-la qilingan ahd edi, bunda hech qanday shaxsiy manfaat ko'zda tutilgan emasdi. Lekin unga munosabatimdan hech vaqt, hatto eng yaxshi vaqtlarda ham bu ahdimchalik xursand bo'lgan emasman. Bunda men olijanoblik deb, to'g'rirog'i, olijanob niyat degan fikr ta'sirida ish tutdim, bu shunday niyat ediki, bunda insoniylik tabiatining umumiy qonuni, shaxsiy xususiyatlaridan madad olmay, yolg'iz o'zi amal qiladi; shunda men olijanob odamday ish tutish, kim bo'lmasin, Ivanmi, Pyotrmi, bundan qat'i nazar, odamday ish tutish kishiga qanchalar lazzat bag'ishlashini bildim. Bu nihoyatda kuchli tuyg'u, men singari soddabayov kishilar ko'pincha shunday ulug'vor tuyg'u darajasiga ko'tarilishga bardosh berolmay qolishadi; lekin ba'zan shunday tuyg'uga muyassar bo'lish rohatiga nima yetsin?

Xatti-harakatimning bir tomoni – boshqa biron kishi bilan munosabatda o'taketgan aqlsizlik bo'lsa ham, lekin men yon berayotgan shaxsning xulqi nazarida juda to'g'ri topiladigan tomoni izohga muhtoj emas. Men Ryazanga ketayotganimda xonim bilan Aleksandr Matveich o'rtasida bir og'iz ham gap o'tgani yo'q; so'nggi qarorga kelganimda men bilan Aleksandr Matveich o'rtasida ham, men bilan xonim o'rtasida ham hech gap bo'lgani yo'q. Lekin men Aleksandr Matveichni yaxshi bilardim; men ularni bilish uchun Aleksandr Matveichning fikrini yaxshi bilishimning keragi yo'q edi».

Men, ilgari aytganimday, Dmitriy Sergeichning so'zlarini aynan yetkazyapman.

Men sizga butunlay yot odamman; lekin halok bo'lgan Dmitriy Sergeichning xohishini bajo keltirib, siz bilan shu qadar sirdosh bo'lib xat yozishyapmanki, binobarin, halok bo'lgan Dmitriy Sergeichning ruhiy kechinmalarini juda yaxshi biladigan, sizga

yot bu muxbirning kimligini bilish sizni qiziqtirsa kerak, deb o'ylayman. Men iste'fo bergan tibbiyot talabasiman – sizga bundan boshqa hech narsa aytolmayman. Keyingi yillarda Peterburgda istiqomat qilardim. Bundan bir necha kun ilgari sayohat qilish va chet ellardan o'zimga biron yangi kasb-hunar qidirish niyatida yo'lga chiqdim. Siz Dmitriy Sergeichning halok bo'lganidan xabar topgan kuningizning ertasiga men Peterburgdan jo'nab ketgandim. Bir voqea tufayli qo'limda hujjatlarim yo'q edi, menga boshqa birovning hujjatlarini olishga to'g'ri keldi, ikkalamizga ham tanish bir olam meni shu hujjatlar bilan ta'minladi. Yo'l-yo'lakay uning ba'zi bir topshiriqlarini bajarishim sharti bilan menga shu hujjatlarni berdi. Janob Raxmetovni ko'rib qolsangiz, iltimos, unga aytsangiz, hamma topshiriqlarini lozim bo'lganidek bajo keltirdim. Men hozircha Germaniyani kezib, u yerdagilarning urf-odatlari bilan tanishsam kerak. Qo'limda bir necha yuz so'mim bor, niyatim sayr qilish. Bekor yurish jonimga tegsa, o'zimga ish qidiraman, qanday ish bo'lsa ham baribir, qayerda to'g'ri kelsa, shu yerdan topaman. O'zim qushday erkinman, qushday betashvish bo'lib olishim ham mumkin. Bu kunimdan o'zim behad xursandman.

Iltifot qilib, menga bemalol javob xati yozishingiz ham mumkin. Lekin bir haftadan keyin qayerda bo'lishimni bilmayman, balki Italiyada bo'larman, balki Angliyada, balki Pragada, – hozir qayerni orzu qilsam, shu joyda turishim mumkin, lekin orzuyim meni qayoqqa eltishini bilmayman. Shu vajdan xatlaringizga faqat bunday manzil yozing: bu konvert ichida xatingiz boshqa bir konvertga solingan bo'lsin, bu konvertga har qanday manzil o'rniga siz faqat 12345 raqamlarini yozasiz: buning ma'nosi Shveygler agentligi idorasi uchun xat, menga yuborilishi lozim, degani bo'ladi.

Marhamatli xonim, sizga tamomila yot, lekin behad sadoqat bildiruvchi kishining hurmat va ehtiromini qabul qilgaysiz, deb

Iste'fodagi tibbiyot talabasi

Muhtaram janob, Aleksandr Matveich, halok bo'lgan Dmitriy Sergeichning bildirgan istagiga muvofiq, sizni ishontirib aytamanki, o'z o'rnini sizga berishi lozim bo'lganligi unga juda yaxshi ishday tuyuldi. Shunday o'zgarishga olib kelgan, salkam uch yil unikiga

deyarli butunlay mehmonga kelmay qo'ygan vaqtingizda sekin-asta yuz bergan, demak, siz sira ham ishtirok etmagan, siz keyinchalik bir-biriga yaqinlashtiraman, deb behuda uringan ikki kishining xulq-atvori o'rtasidagi nomuvofiqlikdangina yuzaga kelgan musibatning oqibati shu bo'lishi muqarrar edi. Dmitriy Sergeich bunga sizni zomin bo'ldi, deb ko'rsatishi mumkin emasligi ravshan. Albatta, buni aytib o'tirish ortiqcha: lekin shunchaki rasmiyatchilik uchun aytib qo'ying, degandi. U band qilolmagan joyni baribir biror kishi egallardi, bu turgan gap, Dmitriy Sergeichning qo'lidan kelmaganligi uchun bu joyni boshqa kishi band qildi. Bu joyga sizning kelganingiz, halok bo'lgan Dmitriy Sergeichning fikricha, hamma uchun yaxshi bo'ldi. Qo'lingizni qisib qolaman. Iste'fodagi tibbiyot talabasi».

– Bildim...

Bu nima? Tanish ovoz... Qayrilib qarasam – o'sha o'zim bilgan! O'sha, o'sha, farosatli kitobxonning o'zi, u badiiyat masalasida ko'zini baqraytirib, hech baloni bilmay, sharmandayi sharmisor bo'lib yaqinda badarg'a qilingan edi; u yana hozir bo'libdi, yana ilgarigiday farosatli bo'lib olibdi, u yana nimadandir xabardor!

– E! Bildim buni kim yozganini...

Lekin men shoshib to'g'ri kelgan, ayni muddao narsani qo'limga olgandim, – qarasam, sochiq, chunki iste'fodagi tibbiyot talabasining xatini ko'chirib nonushta qilayotgandim, – demak, sochiqni qo'limga olib, og'ziga tiqibman: «Menga qara, butun boshli shaharga jar solishning nima keragi bor?»

II

Peterburg, 1856-yil, 25-avgust

«Marhamatli janob,

Xatingizni olib qanchalik xursand bo'lganimni tushunib olasiz. Xatingiz uchun chin ko'ngildan rahmat. Halok bo'lgan Dmitriy Sergeichga yaqinligingiz sizni ham o'zimga do'st hisoblashimga huquq beradi, – sizni shunday atashimga ruxsat bergaysiz. Dmitriy Sergeichning xulq-atvori uning siz orqali yetib kelgan har bir

so‘zidan ko‘rinib turibdi. U har gal o‘z qilmishlarining eng sirli sabablarini qidirib topadi va sabablarni o‘z xudbinlik nazariyasiga moslab shu bilan lazzatlanadi. Aytmoqchi, bu – biz ulfatlarning hammasiga tekkan kasal. Mening Aleksandrim ham o‘zini shu andazaga solib tahlil qilishni yaxshi ko‘radi. Agar siz uning uch yil mobaynida menga va Dmitriy Sergeichga nisbatan o‘z xatti-harakatlariga qanday vaj keltirganini bir eshitsangiz edi! Uning so‘zlariga qaraganda, hamma vaqt o‘z shaxsiy manfaati nuqtayi nazaridan, o‘z huzur-halovatini ko‘zlab ish tutgan. Men ham allaqachon shuni odat qilib oldim. Lekin men bilan Aleksandrga bu narsa Dmitriy Sergeichga qaraganda kamroq daxldor, Aleksandr bilan ikkovimizning fikrimiz tamomila bir-u, lekin bu masalaga Dmitriy Sergeich ko‘proq mayl bildirar. Haqiqatan, agar uchovimizning gapimizga quloq solinsa, shu damgacha dunyo uchovimizga o‘xshagan xudbin odam yuzini ko‘rmagan. Ehtimol, bu haq gapdir? Ehtimol, ilgari bizdaqa xudbinlar bo‘lmagandir? Ha, bo‘lmagan shekilli.

Lekin uchovimizda ham bor bu xususiyatdan tashqari, Dmitriy Sergeichning so‘zlarida boshqa bir tomoni ham bor, bu aslida uning mavqeyidan kelib chiqqan bir narsa: uning bu gaplaridan maqsad – meni tinchitish ekanligi aniq. Gaplari chin ko‘ngildan aytilgan gaplar emas, demayman, – yo‘q, u hech mahal o‘ylamay gapirmaydi, – lekin haqiqatning menga tasalli beradigan tomonini u juda bo‘rttirib ko‘rsatgan. Aziz do‘stim, buning uchun tashakkur, lekin men ham xudbin xotinman, – aslini aytsam, menga tasalli beraman, deb tashvish tortib behuda ish qilyapti; bizni birovlar, gunohsiz deb topishidan ko‘ra o‘zimiz oqlashimiz osonroq; men, to‘g‘risini aytsam, uning oldida o‘zimni aybdorman, deb hisoblamayman; qolaversa, o‘zimni undan minnatdor sezishni ham lozim hisoblamayman. Uning olijanobligini qadrlayman, juda qadrlayman! Lekin u meni deb emas, o‘zini deb olijanoblik qilganini ham bilaman. Men ham, agar uni aldamagan bo‘lsam, uni deb emas, balki o‘zimni deb aldamadim, sababi, aldash unga nisbatan insofsizlik bo‘ladi, deb shunday qilganim yo‘q, chunki bu mening o‘zim uchun ko‘ngilsiz ish bo‘lardi.

U o‘zini aybdor deb bilmagani singari, men ham o‘zimni aybdor hisoblamayman, dedim. Lekin, u singari men ham, o‘zimni oqlab

olish niyatim borligini sezib turibman; uning so'zlariga (juda to'g so'zlariga) qaraganda, xatti-harakatimning ba'zi bir jihatlari uchun tanbehdan o'zimni o'zim begonalarga qaraganda osonroq xalos qilishimni sezib turibman. U o'zini aybsizga chiqarmoqchi bo'lgan masalalarda men o'zimni aslo oqlash niyatim bor, deb sezmayman. Aksincha, u o'zini oqlashi lozim bo'lmagan masalada men o'zimni oqlab olgim keladi. Mening tush ko'rishimgacha bo'lgan ishlarda hech kim meni biron darajada aybdor deb hisoblamaydi, buni o'zim ham bilaman. Lekin undan keyin ishning bunday melodramatik tus olishiga va bu kabi ajoyib halokatga olib borishiga men emas, kim sabab bo'ladi? Men dastlab ko'rgan tushim men bilan Dmitriy Sergeichning ahvolini ikkalamizga ham oydinlashtirib berganida, munosabatlarning muqarrar o'zgarib ketishiga men shunchaki yengil-yelpi qarashim lozim emasmidi? Dmitriy Sergeich halok bo'lgan kuni men qahri qattiq Raxmetov bilan uzoq suhbatlashdim, u aslida juda muloyim va dilkash odam ekan. U Dmitriy Sergeich haqida menga allaqanday dahshatli gaplar gapirdi. Lekin Raxmetovning dag'al, xuddi g'animday aytgan gaplarini Dmitriy Sergeichga do'stona bir ohangda yetkazsak, haq gaplarni aytgandek tuyulardi. Raxmetovning menga aytadigan gaplari Dmitriy Sergeichga juda tushunarli bo'lsa kerak, uning ko'nglidagi gapni aytgandir, degan shubham bor. Ha, o'zim ham o'sha kezlarda shu taxlit gaplarga mushtoq edim, bu gaplar menga ancha tasalli berdi, bas, bu suhbatni uyushtirgan zotning kimligidan qat'i nazar, men bu suhbat uchun, do'stim, sizdan benihoya minnatdorman. Biroq Dmitriy Sergeich bu mojaroning so'nggi yarmida ustalik ishlatganini berahm Raxmetovning o'zi ham tan olmay iloji yo'q edi. Raxmetov uni bu mojaroning faqat birinchi yarmi uchun, o'zimni oqlash niyati uchun aybladi. Garchi menga hech kim o'zing aybdor, demagan bo'lsa ham ikkinchi yarmi jihatidan o'zimni oqlashga harakat qilaman. Lekin har birimizning, – men o'zimizni va do'stlarimizni, to'garak a'zolarimizni nazarda tutaman, – Raxmetovdan ham oshib tushadigan tanbehchimiz bor; bu tanbehchimiz – o'z aqlimiz.

To'g'ri aytasiz, do'stim, agar men masalaga e'tiborsizroq qarasam va uni ortiqcha fojiali, deb hisoblasam edi, hammamiz uchun ham ancha oson ko'chardi, buni tushunib turibman. Dmitriy Sergeichning nazarida, bundan ham ko'proq gapirish lozim: ana

shunda voqeani bu qadar ajib va o‘zi uchun juda musibatli qilib tamomlashning ham keragi yo‘q edi, buning sababi faqat mening haddan ziyoda tashvish tortganimdir. Garchi buni menga aytib qo‘yishni sizga topshirmagan bo‘lsa ham unga shunday tuyulishi turgan gap, buni tushunib turibman. Hatto shunday fikr tug‘ilishi ham mendan ixlosini qaytarmagan ekan, men uchun bu tuyg‘u yana ham qimmatlidir. Lekin, do‘stim, shuni bilingki, bu uncha insofdan emas, aslo insofdan emas: Dmitriy Sergeich o‘zi juda og‘ir deb ta’riflayotgan tashvishga uchrab qolgan ekan, bu mening xatoyim, mening haddan ziyoda tashvish tortganim tufayli tug‘ilgan zarurat emas. Agar men munosabatimizning o‘zgarishiga haddan tashqari kuyinmaganimda, Ryazanga borishning ham keragi yo‘q edi; lekin u, bu narsa menga ortiqcha og‘ir tuyulgani yo‘q, deydi; bas shunday ekan, mening qattiq hayajonlanishimdan hali biron-bir ziyon-zahmat yetmabdi. Dmitriy Sergeichga hayotdan judo bo‘lish zaruratigina og‘irlik qilgan. Bu qarorning muqarrarligiga u ikki sababni dalil keltiradi: men benihoya minnatdorligimdan qiynalibman, Aleksandrga jamiyat shart-sharoiti talab qilganday munosabatda bo‘lolmaganimdan jafo chekibman. Chindan ham u halok bo‘lguncha men butunlay tinch emasdim, kunim og‘irlik qilib malol kelib turgan edi, lekin u haqiqiy sababini topolmadi. Uning fikricha, ahvolni ko‘rib turib haddan tashqari minnatdorlik bildirishim menga og‘ir tuyulganmish, – juda ham bunchalik emas. Odamzod o‘ziga tasalli beruvchi fikrlarni axtarib topishga moyildir. Dmitriy Sergeich o‘limga ehtiyoj sezganda bu sababdan allaqachonoq asar ham qolmagandi: undan minnatdorligi allaqachon o‘rtamiyona tus olgandikim, bunday paytda minnatdorlik shirin bir tuyg‘uga aylanadi. Holbuki bu masalaga ilgarigiday zo‘r hayajon bilan qarashimga sabab ham shu edi. Dmitriy Sergeich aytayotgan ikkinchi sababga – Aleksandrga munosabatimga jamiyat tan oladigan munosabat tusini berish istagiga kelsak, axir buning masalaga qanday qarashimga hech qanday aloqasi yo‘q edi, bu sabab jamiyat tushunchalaridan kelib chiqardi. Bu sabab oldida men ojizlik qilardim. Lekin shu sababli uning ko‘z o‘ngida bo‘lishim og‘ir edi, deb o‘ylab Dmitriy Sergeich juda xato qiladi. Yo‘q, unday emas. Agar zarur bo‘lsa va men uchun bu kifoya qilsa edi, uni halok etmasdan ham bu sababni osongina bartaraf qilish mumkin

edi. Agar eri xotini bilan birga tursa, xotini boshqa odam bilan har qanday munosabatda bo‘lganda ham jamiyat xotinini yomonotliqqa chiqarmasligi uchun shuning o‘zi kifoya. Shuning o‘zi katta gap. Erning olijanobligi tufayli shu taxlit hal bo‘lgan ko‘p mojarolarni bilamiz; shunday hollarda jamiyat xotinni yomonotliq qilmay, tinch qo‘yadi. Hozir men, bizning mojaromiz singari, ishlarni hal qilishda hamma uchun eng yaxshi va oson yo‘l shu deb bilaman. Dmitriy Sergeich ilgari menga shu yo‘lni taklif etgandi. Men u vaqtda qattiq hayajonda bo‘lganim uchun bu yo‘lni rad qilgandim. Agar o‘sha payti shu taklifga ko‘nganimda, bilmadim, oqibati nima bo‘lardi! Agar jamiyat meni tinch qo‘yib, janjal ko‘tarmasa, Aleksandrga munosabatim bilan ishi bo‘lmay, men shunga ko‘nib yuraversam, u holda, albatta, Dmitriy Sergeich menga taklif etgan yo‘l kifoya edi, shunda o‘zini o‘limga chog‘lashining ham zarurati qolmasdi. U holda, albatta, Aleksandrga munosabatim rasmona belgilab berilsin, deb istak bildirishga hech qanday vaj ham topolmasdim. Lekin, fikrimcha, bizniki singari mojarolarning ko‘pida qoniqarli topiladigan bu ish bizning mojarolarimizda ko‘ngildagiday tus olmasdi. Bizning munosabatimizda shunday bir noyob tasodif mavjud bo‘lib, unga aloqador shaxslarning uchovi ham bir-biriga teng edi. Agar Dmitriy Sergeich Aleksandrni aqlda, bilimda yoki xulq-atvorda o‘zidan ustun deb bilganda edi, agar u o‘z o‘rnini Aleksandrga bo‘shatib berarkan, ma’naviy kuch afzalligi oldida orqaga chekinganda edi, agar uning voz kechishi ixtiyoriy emas, zaif kishining kuchli odam oldida chekinishi qabilida bo‘lganda edi, u holda, albatta, menga hech narsa og‘ir botmasdi. Xuddi shuningdek, agar men aql va xulq-atvorda o‘zimni Dmitriy Sergeichdan bir qadar ustun sezsam edi, agar u, men bilan Aleksandr o‘rtasidagi munosabatlar yetilmasdan ilgari, yodingdami, do‘stim, ikkimiz rosa kulgan latifadagi juda ajoyib ta’riflangan odam singari bo‘lganda boshqa gap edi. Ushbu latifada aytilishicha, opera foyesida ikki janob uchrashib, suhbatlari asnosida bir-birlariga yoqib qolib, tanishmoqchi bo‘lishibdi: «Men poruchik falonchiman», debdi bittasi. «Mendan so‘rasalar, Tedesko xonimning eriman», degan ekan ikkinchisi. Agar Dmitriy Sergeich «Tedesko xonimning eri» bo‘lganda edi, ha, u taqdirda o‘lishiga hech bir hojat qolmasdi. Taqdiriga tan berib, ko‘nikib qo‘ya qolardi, agar olijanob zot

bo‘lsa, taqdirga tan berishni or bilmas, shu bilan hammasi joy-joyiga tushardi. Lekin uning men va Aleksandrga munosabati sira ham bunday emasdi. Uning bizdan zarracha ham zaifligi, zarracha ham pastligi yo‘q edi – buni biz ham bilardik, uning o‘zi ham bilardi. Uning yon berganligi kuchsizligidan emas, – aslo undan emas! O‘z o‘rnini bo‘shatib berishi faqat o‘z ixtiyori bilan qilingan ish. Shundaymi, do‘stim? Siz buni ilkor etolmaysiz. Mening qay ahvolga tushib qolganimdan xabaringiz bormi? Do‘stim, hamma gap ana shunda. Qarasam, uning ezgu og‘ushiga tushib qolibman, o‘zimni bu ahvolda ko‘rish naqadar og‘ir botganini bilsangiz edi, shu vajdan u olijanob niyatini amalga oshirishni – halok bo‘lishni zarur deb bildi. Ha, do‘stim, menda uni shunga majbur etgan tuyg‘uning paydo bo‘lish sababi uning siz yozgan xatda aytilishidan ham chuqurroq edi. Kishiga malol keladigan darajadagi minnatdorchilikdan endilikda asar ham qolmagandi. Jamiyat da’volarini Dmitriy Sergeichning o‘zi menga taklif etgan yo‘l bilan qondirish yengil ko‘chardi; men hech narsani da’vo qilib chiqmaydigan bir to‘da odamlar orasida yashab turganimdan, jamiyat da’volari menga yetib kelgani ham yo‘q. Lekin men Dmitriy Sergeichga qaram edim, ahvolimning qanday kechishi faqat uning ixtiyorida edi, bu jihatidan mustaqil emasdim, – ahvolim mushkulligiga sabab shu edi. Endi o‘zingiz bir o‘ylab ko‘ring, men munosabatlarimizning o‘zgarishi masalasiga biron-bir nuqtayi nazardan qaraganim bilan bu sabab bartaraf bo‘larmidi? Gap mening qarashimda emas, shunda ediki, Dmitriy Sergeich baribir o‘z bilganicha, o‘z ixtiyori bilan ish qiladigan ajoyib, mustaqil odam edi. Ha, do‘stim, siz mendagi bu tuyg‘uni bilasiz, uni ma’qullaysiz, kimligidan qat’i nazar, qanchalik sadoqatli bo‘lsa ham, uni men har qancha hurmat qilsam ham, unga o‘zimdan ko‘ra ko‘proq ishonsam ham, meni deb hech narsadan qaytmay, doimo jonbozlik ko‘rsatishini, baxt-saodatimni o‘z baxt-saodatidan ziyoda ko‘rishini yaxshi bilsam ham, men hech kimning mayliga, hech kimning ixtiyoriga qaram bo‘lgim yo‘q. Ha, do‘stim, bunday niyatim yo‘q, siz mening bu tuyg‘umni ma’qullashingizni ham bilaman.

Ammo lekin bularni gapirib o‘tirishning nima keragi bor, har qancha qidirsa ham hech kim topolmaydigan, eng shirin tuyg‘u sirlarini ochib tashlaydigan bu tahlilning nima zarurati bor? Har

holda men ham, Dmitriy Sergeich singari, bunda mening gunohim yo'q, gap falon narsada, bular mening ixtiyorim bilan bo'layotgani yo'q, deyishim mumkin bo'lsin uchungina foydamizni ko'zlab o'z sirimizni o'zimiz ochyapmiz. Buni ta'kidlayotganimning sababi shuki, Dmitriy Sergeich shunday mulohazalarni yoqtiradi. Do'stim, men sizga xushomadgo'ylik qilmoqchiman.

Lekin endi bu gaplarni bas qilish kerak. Siz menga benihoya hamdardlik ko'rsatib, uzundan uzoq (men uchun juda ham qimmatli) xat yozishga bir necha soat vaqtingizni ayamabsiz; men ham diplomatik iboralarni Dmitriy Sergeich yoki siz singari ustalik bilan ishlatayotibman. Dmitriy Sergeich qaytib kelgach, halok bo'lish niyatida, Moskvaga jo'nash oldida men bilan xayrlashganidan keyin holim nima kechganini bilish siz uchun qiziq ekanini shundan, faqat shu xatdan ko'rib-bilib turibman. U Ryazandan qaytib kelganidan keyin ko'rsaki, men qiynalib qolibman. Ahvolimning og'irligi u qaytib kelganidan keyin aniq bo'lib qoldi. U Ryazanda turgan vaqtida, sizga to'g'risini aytsam, u haqda unchalik ko'p o'ylaganim yo'q, siz uning qaytib kelib meni ne ahvolda ko'rganiga qarab hukm qilganday, u haqda unchalik ko'p o'ylaganim yo'q. Lekin u Moskvaga jo'nab ketganida qandaydir reja tuzib qo'yganini sezgandim. Uning Peterburgda ishlarini bir yoqlik qilayotganligi, bir haftacha shu ishlarning bitishini kutganligi, so'ngra jo'nab ketish niyatida yurganligi sezilib turardi – sezmay ham bo'larmidi? Keyingi kunlari-chi, ba'zi-ba'zida men uning yuz-ko'zlarida, sir saqlashga ancha mohir bo'lgan ana shu yuzlarida g'amginlik alomatlarini ko'rdim. Biron qat'iy, kutilmagan ishga tayyorgarlik ko'rilayotganligini sezib yurdim. U, nihoyat, vagonga chiqqanida yuragim allanechuk bo'lib, dard qoldim. Ertasiga ham ma'yusligim yozilmadi, indinga erta bilan battar ezilib o'rnimdan turgandim, bir vaqt Masha qo'limga maktub uzatdi, – bilsangiz, juda qiyin ahvolda qoldim, daqiqalarim, soatlarim, butun kunim zahar bo'ldi. Shu sababdan, do'stim, Dmitriy Sergeichga mehr-u muhabbatim naqadar zo'r bo'lganini hozir ilgaridagidan yaxshiroq bilaman. O'zim bu mehr-u muhabbatimni bunchalik kuchli deb o'ylamasdim. Ha, do'stim, mehr-u muhabbatim nechog'lik zo'r bo'lganini endi bildim, buni siz ham bilasiz, chunki o'sha vaqtda men Aleksandrdan ajrashmoqlik niyatim borligini siz, albatta, bilardingiz; kun bo'yi

hayot gulim xazon bo‘lganday, umrim zaharlanganday o‘tirdim, siz, mehribon do‘stimning maktubini ko‘rganimda go‘dak bolalarday qanchadan qancha suyunganimni ham bilardingiz, bu maktub fikr-zikrimni tamomila o‘zgartirib yuborgan edi (ko‘rdingizmi, iboralarni juda ehtiyotlik bilan ishlatyapman, siz, do‘stim, mendan rozidirsiz). Siz bu ishlarning hammasidan xabardorsiz, chunki Raxmetov meni vagonga o‘tqazib qo‘yib, sizni kuzatgani ketdi; Dmitriy Sergeich bilan u mo‘ljallagan ishni oxiriga yetkazish uchun har holda Peterburgdan jo‘nab ketish lozim edi, deb haq gapni aytgan edilar, bu ishni deb Dmitriy Sergeich meni kun bo‘yi azobga qo‘yishdan ham tortinmadi, shunday bag‘ritoshligi uchun unga ko‘pdan ko‘p minnatdorlik bildiraman! U bilan Raxmetov Aleksandrga, hokimning yoniga borma, uni kuzatib chiqma, deb to‘g‘ri qilishdi. Lekin Moskvaga borishga hojat qolmadi, Peterburgdan boshimni olib ketsam bo‘lgani edi, shu vajdan Novgorodda qoldim. Bir necha kun o‘tgach, Aleksandr Dmitriy Sergeichning halok bo‘lganligi to‘g‘risidagi hujjatlarni keltirdi. Uning halokatidan keyin oradan bir hafta o‘tgach, Aleksandr bilan ikkimizning to‘yimiz bo‘ldi. Aleksandrning haftada uch-to‘rt marta gospitalga borib turishiga qulay bo‘lsin, deb bir oycha temiryo‘l yonida, Chudovada yashadik. Kecha Peterburgga qaytib keldik, – shuncha vaqtdan buyon maktubingizga javob yozmaganimning sababi shu: maktub Mashaning tortmasida yotgan ekan, sal bo‘lsa esidan ham chiqayozgan ekan. Siz esa shuncha vaqtdan buyon javob olmay, boshingizga ming xayollar kelgan bo‘lsa kerak.

Mehribon do‘stim, sizni quchib, Vera Kirsanova».

«Azizim, qo‘lingni qisaman. Xudo xayringni bersin, nima bo‘lganda ham menga xushomad qilib xat yozmasang bo‘lardi; aks holda olijanobligingni ko‘klarga ko‘tarib, yuragimda yig‘ilib qolgan gaplarni shunday qalashtirib tashlaymanki, o‘zingni qo‘yarga joy topolmay qolasan. Menga qara, sening menga va mening senga faqat bir necha satrdan maktub yozishimiz sening ham, mening ham bir qadar bofahmligimizdan shohidlik bermaydi, deb o‘ylaysanmi; go‘yo ikkimizning biroz uyatchanligimiz isbot qilinyaptimi, deyman. Men-ku shundaydirman, har holda uzrim bor, lekin senga

nima bo‘ldi? Keyingi safar sen bilan bemalolroq gaplasharman va bu yerdagi yangiliklardan bir talay yozib yuborarman, deb umid qilaman. Aleksandr Kirsanoving».

III

Chin ko‘ngildan yozilgan bu xatlar, Vera Pavlovnaning o‘zi aytganday, haqiqatan ham ancha bir tomonlama yozilgan edi. Har ikkala xat muallifi, albatta, boshdan kechirgan og‘ir musibatlarini bir-biridan yashirib, chekkan aziyatlarini kamaytirib ko‘rsatishga harakat qilgandi, – naqadar ayyor odamlar! Men ulardan, ya’ni shular na shularga o‘xshaganlardan, bu xatlar menga hech bir og‘ir botganmas, ortiqcha ta’sir etmas, deb hayajon bilan aytgan gaplarini eshitganimda xaxolab kulishdan o‘zimni to‘xtatolmay qolardim: albatta, men kabi begona odam oldida yuzma-yuz turib shunday gaplarim aytganlarida xaxolab kulardim! Qulog‘imga shu gaplarni quyib quyish lozim bo‘lgan odamga shunday deb gapirishlarida men ham, albatta, bu hech gap emas, deb ma’qullab qo‘yardim. Andishali odam juda g‘alati maxluq bo‘ladi-da: o‘zim taniydigan har bir andishali odam ustidan hamisha to‘yib-to‘yib kulardim.

Undaylarning g‘alatiligi bema’nilikkacha borib yetadi. Chunonchi, shu maktublarni olaylik. Men bunday janoblar va xonimlar bilan tanish-bilishligim borligi uchun bundaqangi ishlarga qisman ko‘nikib qolganman; bundan bexabar, hali buzilmagan kishiga, masalan, farosatli kitobxonga bunday narsalar qanday ta’sir qiladi?

Farosatli kitobxon sochiq bilan og‘zini arta turib bosh chayqab:

– Axloqsizlik! – deydi.

– Balli! Topding! – deb men uni maqtayman. – Qani, yana biron gap aytib kishini suyuntirsang-chi.

– Muallif ham axloqsiz odam ekan-ku, – deydi-ya farosatli kitobxon, – ma’qullayotgan narsalarini qara-ya!

– Yo‘q, azizim, xato qilyapsan. Bularning ko‘pini ma’qullayman. Senga rostini aytsam, hatto hammasi ham menga ma’qul emas. Bular hammasi juda g‘alati, juda havoyi gaplar; turmushda juda boshqacha, jo‘nroq bo‘ladi.

Mening qahramonim qiyofasida insoniyat aql bovar qilmaydigan axloqsizlik darajasiga yetkazilganini ko‘rgan farosatli kitobxon hayronlikdan ko‘zlarining paxtasini chiqarib:

– Demak, sen beshbattar axloqsizmisan? – deya menga savol beradi.

– Beshbattar axloqsizman, – deyman. Rostdanmi yoki farosatli kitobxondan kulganimdanmi, shunday deyman, bunisi noma'lum.

Xat yozish yana uch-to'rt oy davom etdi, – Kirsanovlar juda hafsala bilan yozib turishdi, narigi tomon hafsalasizlik qilib har zamonda bir xat yozardi. Keyin borib Kirsanovlarning maktublariga javob bermay qo'ydi; aftidan, uning niyati Lopuxovning haligi uzundan uzun birinchi maktubiga jo bo'lgan fikrlarini Vera Pavlovna bilan uning eriga yetkazish edi-yu, shu burchini bajargandan keyin yana xat yozishib o'tirishni ortiqcha deb bildi. Kirsanovlar bir-ikki marta javob olmaganlaridan keyin, tushunib, ular ham xat yozishni bas qilishdi.

IV

Vera Pavlovna erining gospitaldan tushlikka kelishini kutib yumshoq kushetkasida dam olyapti. Bugun u ovqatdan keyingi hazmi taom shirinliklar tayyorlash uchun ortiqcha urinmadi, tezroq yotib hordiq chiqargisi keldi, chunki bugun ertalab ishlagan, ancha vaqtdan buyon shunday bo'lyapti, bu ahvol hali anchagacha davom etadi, ertalab qiladigan yumushlari boshidan oshib yotibdi, shaharning boshqa bir chekkasida yana bir ishxona ochish taraddudi bor. Vera Pavlovna Lopuxova Vasilyevskiyda istiqomat qilardi. Vera Pavlovna Kirsanova Sergiyevskaya ko'chasida turadi, chunki eri Viborg tomonga yaqinroq xonadonda yashashi kerak. Mersalova Vasilyevskiyda ochilgan ishxonaga juda munosib bo'ldi, shunday bo'lishi tabiiy edi; axir, Mersalova bilan ishxona bir-birlariga juda ham tanish edi. Vera Pavlovna Peterburgga qaytib kelgandan keyin qarasa, ishxonaga borishi lozim bo'lganda, onda-sonda bir kirib o'tsa kifoya ekan; uning ishxonaga hali ham har kuni borib turishining asli sababi unga mehri edi, ishxonada ham uni shu mehr-u muhabbat kutib olardi; ehtimol, hali birmuncha vaqt ishxonaga kirib turishidan hech bir foyda yo'q deb bo'lmas, chunki Mersalova hanuz Vera Pavlovna maslahatiga muhtoj deb bilardi; bu ish ham juda oz vaqtini olardi, nariroq borib unga zarurat ham kamayadi; yaqin o'rtalarda Mersalova keragicha tajriba orttirib,

Vera Pavlovnaga ehtiyoji ham qolmaydi. Xullas, Vera Pavlovna Peterburgga qaytganidan keyin dastlabki vaqtlarda Vasilyevskiydagi ishxonaga zarur kishilikdan ko'ra, ko'proq hurmatli mehmonday borib turardi. Shunday ekan, endi nima ish qilsin? – nima bo'lardi: o'ziga yaqin yerdan, shaharning boshqa bir chekkasidan boshqa ishxona ochishi kerak.

Shunday qilib, Basseynaya ko'chasi bilan Sergiyevskaya ko'chasi o'rtasidagi kichik ko'chalardan birida yangi ishxona ochish taraddudi boshlandi. Bu ishxonaning tashvishi ilgarigi ishxona tashvishidan ozroq bo'ldi: asosiy shtatdagi qizlardan beshtasi ilgarigi ishxonadan bu yangi ishxonaga o'tdi, ularning o'rniga yangi qizlar olindi; qolgan shtatga ilgarigi ishxonada ishlab turgan tikuvchi qizlarning yaxshi tanishlaridan tanlab olindi. Buning ma'nosi shu ediki, ishning yarmidan ko'prog'i taxt qilib qo'yilgan edi, tikuvchilik ishxonasining maqsadi va undagi tartib sheriklarning hammasiga ma'lum edi, bu ishxonaga kirgan yangi qizlar birinchi ishxonada juda sekinlik bilan amalga oshirilgani shu tartiblarni darhol yo'lga qo'yishga astoydil kirishdilar. Hozir ish ilgarigidan o'n karra tezroq yo'lga qo'yilgan, tashvish ham uch hissa kam. Lekin baribir ish ko'p. Vera Pavlovna kecha, o'tgan kuni, ikki oy burungiday bugun ham holdan toygan, ikkinchi erga chiqqanidan buyon oradan yarim yildan ko'proq vaqt o'tgan bo'lsa ham yana ikki oy davomida mazasi bo'lmay yurdi, axir, erga chiqadigan odam to'y ham qilishi kerak-da. To'y marosimi ham uzoq cho'zildi. Mana, endi ishga kirishib ketdi.

Bugun u qattiq ishladi, hozir dam olib, ko'p narsalarni, ko'proq shu kunlardagi ishlarni o'ylab yotibdi: qandoq yaxshi, ko'ngli ham to'q! Hayot barq urgan, o'y o'ylashga ham qo'li tegmaydi, xayol surish payti keyinroq keladi, unga hali ancha bor, hatto o'n yildan keyin ham, yigirma yildan keyin ham kelmaydi, hali ancha vaqt bor; hozir xonasi emas, vaqti hali-beri kelmaydi. Lekin hozir ham ba'zi-ba'zida xayol surib qoladi, masalan, hozir shunday onda-sonda eslaydigan narsa ustida xayol surib ketdi. Xayolidan mana nimalar kechdi:

– Azizim! Men ham sen bilan boraman!

– Axir, buyumlaringni olmay qayoqqa borasan?

– Azizim, bugun birga olib ketmasang, ertagayoq orqangdan yetib boraman.

– Yaxshilab bir o‘ylab ko‘rgin. Xatimni kut. Ertagayoq qo‘lingga tegadi.

Shu bilan Vera Pavlovna uyiga qaytib ketadi: Masha bilan uyga ketayotganida o‘zini qanday his qildi, Moskva stansiyasidan Sredniy prospekt bo‘ylab uzundan uzoq yo‘lni bosib o‘tguncha qanday sezgi, qanday xayol ko‘chalariga kirib chiqmadi deysiz. To‘satdan shu ahvol yuz berib, boshi gangib qolganini o‘zi ham bilmaydi. Eri o‘z xonasida Vera Pavlovnaning xatini topib olganiga bir kecha-kunduz ham bo‘lmasdan, – yana ikki soatdan keyin bir kun to‘ladi, – zudlik bilan, to‘satdan jo‘nab qoldi! Vera Pavlovna hali hech nimani payqamagan bir paytda – tunov kungi ertalab xavotir olaverib toliqib, uyqusizlikka ortiq bardosh berolmay qolgan paytini poylab, kechasi soat ikkida yoniga kirdi-da, bir necha og‘iz gap aytdi; gapirgan gapi diliga tugib qo‘ygan narsalar to‘g‘risidagi tushunib bo‘lmas bir muqaddima edi, aytmoqchi bo‘lgan fikrini esa qisqa qilib aytdi-qo‘ydi: «Ota-onam bilan ko‘pdan buyon diydor ko‘rishganim yo‘q – ko‘rib kelsam deyman; xursand bo‘lishadi», dedi-yu, chiqib ketdi. Vera Pavlovnaning yoniga kirganida, orqamdan chiqma, deb undan so‘z olgan bo‘lsa ham Vera Pavlovna orqasidan yugurib chiqdi – qayoqqa ketdi? «Masha, qani u, qani deyman?» Mehmonlar ketgandan so‘ng choynak-piyola yig‘ishtirayotgan Masha: «Dmitriy Sergeich chiqib ketdi; tashqariga chiqayotib, bir aylanib kelaman, dedi», deb javob berdi. Shu bilan Vera Pavlovnaning uyquga bosh qo‘yishdan boshqa iloji qolmadi, qiziq, ko‘ziga qanday uyqu kelgan ekan? Lekin bu voqeaning o‘sha kuni erta bilan tong yorishib qolganda yuz berishidan u bexabar edi; Dmitriy Sergeich, hali vaqt bor, hamma narsa to‘g‘risida gaplashamiz, degan edi. Vera Pavlovna endi uyqudan turgandi, temir yo‘lga chiqadigan vaqt ham bo‘lib qoldi. Bu voqealarning hammasi shunchaki xayolida kechganday, go‘yo bularning unga daxli yo‘qday, hammasi boshqa birov to‘g‘risidagi voqealar-u, unga kimdir shoshilinch gapirib berganday tuyuldi. Mana endi temir yo‘ldan uyiga qaytib kelgach, o‘ziga kelib xayol sura boshladi; endi ahvolim nima bo‘ladi, endi nima qilaman, deb o‘ylab qoldi.

Ryazanga boradi, turgan gap. Boraman, dedimi, boradi. Boshqa iloji yo‘q. Maktub nima bo‘ladi? Bu maktubda nimalarni yozadi? Yo‘q, biror qarorga kelish uchun bu maktubni kutib o‘tirish kerak

ekanmi! Unda nimalarni yozishini biladi. Lekin har holda maktub kelib yetguncha kutib, keyin biron qarorga kelish kerak. Kutib o‘tirishning nima hojati bor? Yo‘q, boraman, dedimi, boradi. Ha, boradi. Bir soat o‘yladi, ikki soat o‘yladi, uch, to‘rt soat o‘yladi. Mashaning qorni ochib, Vera Pavlovnani uchinchi marta ovqatga taklif etdi, bu gal chaqirishdan ko‘ra ko‘proq buyurdi. Bu nimasi, bu ham xayolparishonlikdanmi? «Bechora Masha, meni deb toza och qoldi». «Masha, meni kutib nima qilardingiz, kutmasdanoq allaqachon ovqatlanib olsangiz bo‘lmasmidi?» – «Bir o‘zimdan ovqat o‘tarmidi, Vera Pavlovna». Yana bir soat, ikki soat xayol surdi: «Boraman, ertagayoq jo‘nayman. Lekin maktub kelishini kutaman, kut, deb iltimos qildi. Lekin bu maktubda nima yozilsa ham, – nima yozilishini o‘zim ham bilaman, nima deb yozilsa ham, baribir, boraman». Bir soat, ikki soat shuni o‘yladi; ha, bir soat o‘ylab o‘tirdi; lekin ikki soat shuni o‘ylab o‘tirdimikin? Yo‘q, garchi mudom shuni o‘ylasa ham shu bilan birga boshqa yana to‘rt so‘z ustida: «Uning bunga ra’yi yo‘q», degan to‘rt so‘z ustida ham o‘yladi, shu to‘rt og‘iz so‘z ustida tobora ko‘proq o‘yladi, kun botay deb qoldi-yu, u hamon ilgarigi o‘yi va to‘rt og‘iz so‘zi ustida xayol surib o‘tira berdi; bir vaqt Masha yana xiralik qilib Vera Pavlovnani choy ichishga chaqirish oldidan to‘rt og‘iz so‘zdan: «Mening ham bunga ra’yim yo‘q», degan boshqa besh og‘iz so‘z paydo bo‘lib qoldi. Mashaning xiralik qilib kirgani yaxshi bo‘ldi! Bu yangi besh og‘iz so‘zni undan uzoqlashtirdi.

Biroq yaxshi niyatli Masha ham bu besh og‘iz so‘zni aytarlik uzoq vaqt yiroqlashtirgani yo‘q. Dastlab ularning o‘zi kelishga jur’at etisholmadi, o‘rnilariga: «Borishim lozim», degan raddiya yuborishdi, shu raddiya niqobi ostida qaytib kelish uchungina shunday qilishdi: raddiya bilan birga bir zumda ularning egalari ham – «uning bunga ra’yi yo‘q» degan to‘rt og‘iz so‘z ham yana kirib keldi, xuddi shu payti to‘rt og‘iz so‘zdan yana: «Mening ham bunga ra’yim yo‘q», degan besh og‘iz so‘z paydo bo‘ldi. Yarim soat shu taxlit xayol surildi, yarim soatdan keyin bu to‘rt og‘iz so‘z, ilgarigi besh og‘iz so‘zni, ilgarigi asosiy so‘zlarni o‘z bilganicha o‘zgartira boshladi, shu bilan, bir vaqt qarasangiz, «o‘zim boraman», degan eng asosiy so‘zdan, o‘sha avvalgi so‘zlarning o‘zi bo‘lsa ham, lekin ulardan tamomila boshqa

uch so‘z: «Men o‘zim boramanmi?» – degan so‘zlar paydo bo‘ldi – so‘z degan mana shunaqa o‘sib, boshqacha tusga kirib turdi! Shu o‘rtada yana Masha: «Vera Pavlovna, men qo‘liga bir so‘lkavoy tutqazdim, mana bu yerga: agar soat 9 gacha topshirsa, bir so‘lkavoy, keyin keltirsa, yarim so‘m, deb yozib qo‘ygan ekan. Vera Pavlovna, buni konduktor keltirdi, kechki poyezd bilan kelganmish: va’damning ustidan chiqay, hayallab qolmay deb izvosh yolladim», deydi. Maktub undan kelgan! Ha! Maktubda nima yozilganini Vera Pavlovna biladi, unda «borma», deb yozilgan, lekin u baribir boradi, bu maktubga quloq solishni istamaydi, uning gapiga kirmaydi, boraman dedimi, boradi. Yo‘q, maktubda unday deyilmagan, – maktubda bunday deb yozilgan, yozilganiga quloq solmay iloj yo‘q: «Men Ryazanga bormayman. Yo‘lda zavodga doir ancha-muncha ishlarim bor. Moskvada anchagina ishlarim bor, ularni bitirish uchun u yerda bir haftacha turaman, Moskvaga borguncha yana ikki shaharga tushib o‘taman, Moskvadan Ryazanga borguncha yana uch joyda to‘xtayman. Qayerda qancha vaqt, qayerda qachon bo‘lishimni aytish qiyin; boshqa ishlarimdan tashqari savdo gumashtalarimizdan pul ham olishim lozim; o‘zing bilasan, «aziz do‘stim» – ha, maktubda shunday deb yozilgan: bir necha marta «aziz do‘stim», deb yozilgan, menga hali ham mehribon ekanligini, hech ko‘ngli qolgan yeri yo‘qligini ko‘rsatish uchun shunday deb yozgan, deya xotirlab o‘tirardi Vera Pavlovna. O‘sha vaqtda men uning xatidagi shu «aziz do‘stim», degan so‘zlarini ko‘zimga surtib o‘pgandim, ha, shunday degan, – o‘zing bilasan-ku, «aziz do‘stim», birovdan pul olar bo‘lsang, bir necha soatda bitiraman, deb mo‘ljal qilgan ishingni bir necha kun kutishga to‘g‘ri keladi. Shu sababdan, men Ryazanga qachon yetib borishimni bilmayman; lekin uncha tez yetib borolmasam kerak». Bu maktubning deyarli har bir so‘zi Vera Pavlovnaning esida qolgan. Bu nima degan gap? Uning yonida bo‘lish uchun etagidan mahkam tutishiga sira yo‘l qo‘ymadi. Endi nima qilsin? Ilgarigi: «Uning yoniga jo‘nab ketishim kerak», degan so‘zlar «har holda men u bilan ko‘rishmasligim kerak», degan so‘zga aylanib ketdi, «u degani ham endi ilgari o‘ylab yurgan kishisi emas. Ilgarigi hamma so‘zlar o‘rnini shu so‘zlar olib, yana bir soat xayol surdi, ikki soat davomida: «Men u bilan ko‘rishmasligim

kerak», deb o'yladi; bu so'zlar o'zgarganda endi ular: «Nahotki u bilan ko'rishgim kelsa? – Yo'q», degan so'zlarga aylanib ketdi; uning ko'zi uyquga ketganda bu so'zlar o'zgarib: «Nahotki men u bilan ko'rishmasam?» – degan so'zlarga aylandi – lekin buning javobi qani? Qachon ko'zdan g'oyib bo'ldi? Bu so'zlar o'sib, ha, ular o'sib: «Nahotki men u bilan diydor ko'rishmasam?» – degan so'zlarga aylanishiga sal qoldi. Uni tong saharda uyqu elitarkan, shu: «Nahotki men u bilan diydor ko'rishmasam?» – degan so'zlar bilan uxlab qoldi.

Ertalab allamahalda ko'zini uyqudan ochganda, ilgarigi hamma so'zlar o'rniga hali ham ikki so'z birgina so'z bilan: «Diydor ko'rishmasam», degan so'z «ko'rishaman» degan so'z bilan olishib, butun vaqtni shu bilan o'tkazdi; hamma so'zlar yodidan ko'tarildi, bu kurashda hamma narsa esdan chiqdi, katta so'z hamon kichkina: «Diydor ko'rishmasam», degan so'zni yodida saqlab qolgisi kelib, unga qattiq yopishib oldi, yonidan jilitmadi; «ko'rishaman» degan kichik so'z hamon narida g'oyib bo'lib turdi; katta so'z kichik so'zni yonida saqlab qolishga harakat qilganida hamma narsa yoddan ko'tarildi, hamma narsa esdan chiqdi. Katta so'z kichik so'zni yonida saqlab qoladi, ilgarigi kichik so'z qochishga joy topolmasin, deb boshqa yana bir kichik so'zni yordamga chaqirdi: «Yo'q, diydor ko'rishmayman...», yo'q, diydor ko'rishmayman», endi ikki so'z bema'ni eng kichik so'zni o'rtaga olib qattiq yopishib oldi, bu so'z ulardan qochib qutulolmaydi, bu so'zni ular o'rtaga olvolishgan: «Yo'q, diydor ko'rishmayman»... «Yo'q, diydor ko'rishmayman» – shoshmang, u o'zi nima qilyapti? Shlapasini kiydi, beixtiyor oynaga qaradi: sochlari taralganmi, ha, taralgan, shlapasini kiyganini oynada ko'rdi, bir-birlariga chambarchas yopishib olganday bu uch so'zdan bitta so'z qolibdi, unga yangi: «Qaytish yo'q», degan so'z qo'shilibdi. Qaytish yo'q, qaytish yo'q. «Masha, meni ovqatga kutmang, bugun uyda ovqatlanmayman».

– Aleksandr Matveich hali gospitaldan qaytganlari yo'q, – deydi xotirjamlik bilan Stepan, bu dardisar bilan xotirjam gaplashmay iloji qancha? Bu xonimning kelishida biron aytarlik sir yo'q: ilgarilari, yaqinginalarda ham tez-tez kelib turuvchi edi. «O'zim ham shunday deb o'ylovdim, mayli, kutib o'tiraman. Bu yerdaligimni unga aytmay qo'ya qoling». Xonim qandaydir jurnalni

qo‘lga oldi – ha, o‘qisa bo‘lar, o‘qisa bo‘larkan; «qaytish yo‘q» degan fikr boshiga keldi deguncha, bir qarorga keldi deguncha, u juda tinchib qoladi. U, albatta, ɵz o‘qidi, o‘qimadi ham, uyni ko‘zdan kechirib, uy bekasi singari u yoq-bu yoqni yig‘ishtira boshladi, nimasini ham yig‘ishtirdi deysiz, hech yig‘ishtirgani yo‘q, lekin o‘zini juda bosib olganday sezdi: o‘qishi ham mumkin, ish bilan band bo‘lishi ham mumkin. Uning ko‘zi tozalanmagan guldonga tushdi, stoldagi movut dasturxonni ham tuzatib qo‘yish lozim, mana bu stul ham joyidan qo‘zg‘atilgancha qolibdi. O‘tirgan joyida xayolga cho‘mdi: «Qaytish yo‘q, boshqa iloj yo‘q, yangi turmush boshlanyapti», deb bir soat, ikki soat o‘ylab o‘tirdi: «Yangi turmush boshlanyapti. U hayron bo‘lar, o‘zida yo‘q suyunar. Yangi turmush boshlanyapti. Qanchalar baxtiyormiz». Qo‘ng‘iroq chalindi, xonim biroz qizarinqirab kulib qo‘ydi, oyoq tovushi eshitildi, eshik ochildi. «Vera Pavlovna!» – deganicha Aleksandr Matveich turgan joyida gandiraklab ketdi, ha, gandiraklab eshik tutqichini ushlab qoldi; Vera Pavlovna esa yugurganicha yoniga bordi, uni quchoqlab oldi: «Azizim, jonim! U qanday olijanob odam! Seni qanchalar yaxshi ko‘rishimni bilsang edi. Sensiz yashay olmadim!» – so‘ngra, so‘ngra nima bo‘ldi? Ular bu xonadan qanday o‘tishdi? Vera Pavlovnaning xotirida yo‘q, yugurib yoniga borganini, uni o‘pganini biladi, xolos, lekin bu xonadan qanday o‘tishganini bilmaydi. Aleksandr Matveich ham bilmaydi; faqat bir narsa ularning yodida qoldi, stol yonidagi kreslolar yonidan o‘tayotganlari, eshikdan nari ketganlari... Bir necha soniya ikkovlarining boshi aylanib, ko‘zlari tindi... «Verochka, malikam!» – «Do‘stim, sensiz yashay olmadim. Meni shuncha vaqtdan beri sevsang ham sir boy bermay kelding-a! Juda olijanobsan-da! Sasha, u naqadar olijanob yigit!» – «Verochka, qani, ayt, nima bo‘ldi?» – «Men unga, sensiz turolmayman, dedim; ertasiga, kuni kecha jo‘nab ketdi, ketidan bormoqchi bo‘ldim, kun bo‘yi uning orqasidan boraman, deb o‘ylab o‘tirdim, hozir, ko‘rib turibsan, allaqachondan buyon shu yerdaman». – «Verochka, shu ikki hafta ichida juda ozib ketibsan, qo‘llaringda qon qolmabdi!» U Vera Pavlovnaning qo‘llaridan o‘pdi. «To‘g‘ri aytasan, azizim, juda og‘ir kurash bo‘ldi! Tinchlikni buzmaslik uchun qancha azob chekkanlaring menga endi ayon bo‘ldi! Qanday sir boy bermay yurding, hech narsaga fahming yetmabdi-ya. Azob o‘tida rosa

kuygan bo‘lsang kerak!» – «Gaping to‘g‘ri, Verochka, oson bo‘lgani yo‘q», deydi-yu, ketma-ket qo‘llarini o‘padi, qo‘llaridan ko‘zini uzmaydi, bir vaqt Vera Pavlovna xaxolab: «Buni qara, seni esimdan chiqarib qo‘yibman. Sasha, charchagandirsan, qorning ham ochdir!» Vera Pavlovna yugurgancha chiqib ketdi: «Verochka, qayoqqa?» Lekin u javob bermaydi, u oshxonada, vaqti chog‘, shoshib-pishib Stepanga: «Ovqatdan tezroq keltiring, ikki kishilik, tezroq! Likoplar, pichoq-qoshiqlar qayerda, bering, o‘zim oborib dasturxon tuzataman, siz ovqatni keltiring, Aleksandr gospitaldan charchab kelibdi, tezroq ovqat yesin», dedi. Vera Pavlovna likoplar ko‘tarib kelar ekan, ulardagi pichoq, sanchqi, qoshiqlar shaqir-shuqur qilardi. «Ha, ha, ha, azizim! Oshiq-ma’shuqlarning birinchi ko‘rishgandagi dastlabki tashvishi tezroq ovqatlanib olish bo‘ladi! Ha, ha, ha!» Aleksandr ham kuladi, dasturxon tuzashga yordamlashadi, yordamlashishdan ko‘ra ko‘proq xalaqit beradi, chunki yakkash Vera Pavlovnaning qo‘lidan o‘padi, «Verochkam, oppog‘im, qo‘llaringda qon qolmabdi!» – deydi-da, qo‘llaridan o‘padi. Bir-birlari bilan o‘pishib, kulishadi. «Sasha, ovqat vaqtida jim o‘tir!» Stepan sho‘rva keltiradi. Ovqat vaqtida Vera Pavlovna bo‘lgan voqealarni hikoya qiladi. «Ha, ha, ha, azizim, oshiq-ma’shuqlarmiz-u, ovqat yeyishimizga qara! Bilsang, kecha tuz totganim yo‘q». Stepan nihoyat ovqatni olib kiradi. «Stepan! Meni deb ovqatsiz qolasizmi, deyman?» – «To‘g‘ri, Vera Pavlovna, do‘kondan o‘zimga biror narsa sotib olarman». – «Hechqisi yo‘q, Stepan, bundan buyon o‘zingizdan boshqa ikki kishilik ovqat tayyorlash lozimligini bilib qo‘yasiz. Sasha, sigara quting qayoqda? Menga olib ber». O‘zi Aleksandr uchun sigaraning uchini qirqib, tutatib beradi. «Mana, chek, azizim, men qahva tayyorlay, yo choy ichging bormi? Yo‘q, azizim, tushligimiz yaxshiroq bo‘lishi kerak, Stepan bilan ikkovingiz bu haqda o‘ylamabsizlar hisob». Besh daqiqadan keyin qaytib keladi, Vera Pavlovnaning ketidan Stepan choynak-piyola ko‘tarib kiradi, Vera Pavlovna kelib qarasa, Aleksandrning sigarasi o‘chib qolibdi. «Ha, ha, azizim, mensiz xayol dengiziga g‘arq bo‘libsan-da!» – Aleksandr ham kuladi. «Chek sigarangni», deydi-da, Vera Pavlovna yana uning sigarasini yondirib beradi.

Vera Pavlovna shu gaplarni eslaganda hozir ham o‘zini kulgidan to‘xtata olmaydi: «Oshiq-ma’shuqligimiz ham oddiy, jo‘ngina!

Birinchi uchrashuvda sho‘rva, birinchi diydordan boshlar ham aylandi – ishtaha ham karnay, ana senga oshiq-ma’shuqlik!

Juda ajoyib bo‘lgan edi! Ko‘zlarining chaqnashini aytmaysizmi! Bo‘lmasa-chi, ko‘zlari hozir ham chaqnab turadi. O‘shanda qoni qochgan qo‘llarimga tomgan ko‘z yoshlari-chi, hozir, albatta, unday emas, qo‘llarim o‘zi chiroyli, uning gapi to‘g‘ri». Vera Pavlovna qo‘llariga qarab turib, ularni tizzasiga qo‘ydi, ustidagi yupqa to‘r libosi ostidan tizzasi aniq ko‘rinib turardi, Vera Pavlovna yana xayol surib: «Gapi to‘g‘ri», deydi, yana iljayadi, qo‘llarini asta surib ko‘kragiga bosadi, Vera Pavlovna boshidan «to‘g‘ri» degan xayol kechadi.

«Yana nimalarni xayol qilib o‘tiribman, bu nima qilganim?» – deb Vera Pavlovna xayol surishdan to‘xtamay kulib qo‘yadi. Go‘yo o‘zini shu xotiralarga aloqasi borday sezadi! Yo‘q, unday emas, bu – taomdan, qo‘l o‘pishdan, ikkovimizning kulishimizdan, qoni qochgan qo‘llarimni ko‘rib ko‘z yoshi qilishdan iborat birinchi uchrashuv edi, bu juda ajoyib uchrashuv edi. Choy quyyapman-u: «Stepan, qaymog‘ingiz yo‘qmi? Biror joydan yaxshi qaymoq topsa bo‘ladimi? Yo‘q, bunga hozir vaqt qani, topilmasa kerak. Ha, mayli, lekin ertaga albatta topamiz. Azizim, sigarangni chek: sigara chekishni esdan chiqarib o‘tiribsan», deyman.

Choy ichilib bo‘lmasdan qo‘ng‘iroq ovozi jiringlab qoldi, bir vaqt ikki talaba hovliqib kirib keldi, azbaroyi shoshilishganidan meni ko‘rmadilar ham. «Aleksandr Matveich, juda qiziq bir subyekt! – deyishdi nafaslari og‘izlariga tiqilib: – Hozir olib kelishdi, bunaqa og‘ir kasal juda kamdan kam uchraydi». Qiziq subyekt kasalining nomi – qandaydir lotincha atama tillaridan tushmadi. «Aleksandr Matveich, juda alomat kasal, tez yordam berish kerak, yarim soat ham g‘animat, tezroq yetaylik, deb izvoshda keldik». – «Azizim, tez bo‘l, tezroq bora qol», deydi Vera Pavlovna. Shundan keyingina talabalar Vera Pavlovnaning borligini sezib salom berishdi-da, shu ondayoq professorlari bilan birga chiqib ketishdi; u zudlik bilan otlandi, ustida o‘sha kiyib o‘tirgan harbiy syurtugi; Vera Pavlovna, tezroq bo‘l, deb shoshirdi. «U yerdan to‘g‘ri uyga kelarsan?» – deb so‘radi Vera Pavlovna xayrlasharkan. «Ha», degan javob oldi. Kechqurun Vera Pavlovna uzoq kutib o‘tirdi: soat o‘n, daragi yo‘q, o‘n bir

ham bo‘ldi, endi kutishdan foyda yo‘q. Lekin bu nimasi? Vera Pavlovna, albatta, tashvishlanmaydi, Aleksandrga biron narsa bo‘lishi mumkin emas; bas, qanday kori hol yuz berdiykin, qiziq subyekt shuncha vaqtini olsa-ya! Sho‘rlik qiziq subyektning holi nima kechdiykin, tirikmikin, Sasha uning joniga ora kirdimikin? Ha, Sasha uzoq tutilib qoldi. Ertasiga erta bilan soat to‘qqizda qaytdi, soat to‘rtgacha gospitalda ekan: «Juda mushkul va juda alomat hodisa, Verochka». – «Omon qoldimi?» – «Ha». – «Muncha barvaqt turmasang?» – «Yotganim ham yo‘q». – «Yotganim yo‘q deysanmi? Kech qolmay deb tun bo‘yi uxlamasdan chiqdim, degin! Noinsof! Qani, darrov uyga ravona bo‘lgin-u, tushgacha uxla, borganimda sen uxlab yotgan bo‘lgin». Shu bilan ikki daqiqa o‘tar-o‘tmas uyga jo‘natildi.

Dastlabki ikki uchrashuvlari shunday bo‘lgandi. Lekin ikkinchi safargi ovqatlari joyida bo‘lyapti; bir-birlariga sarguzashtlarini bir boshdan aytib berishyapti, kecha nima gaplar kechganini bir xudo biladi: kulishdi, xayol surishdi, bir-birlarining ko‘nglini olib achinishdi, birining ko‘ziga ikkinchisi ko‘proq mashaqqat tortganday ko‘rinadi... bir yarim haftadan keyin Kamenniy ostrovda kichik bir chorbog‘ni ijaraga olib, o‘sha yerga ko‘chib ketishdi.

VI

Vera Pavlovna hozirgi sevgisi o‘tmishini unchalik tez eslamaydi: hozirgi hayoti shunday barq urganki, eslab o‘tirishga vaqti ham yetmaydi. Lekin o‘tmishini u goh-goh esga olib turadi, to‘g‘ri, dastlab goh-gohida, so‘ngra tez-tez eslaydi, har gal eslaganida norozilik hissi – dastlab bilinar-bilinmas, g‘ira-shira norozilik hissi qo‘zg‘aldi: kimdan norozi? Nimadan norozi? Kimdan noroziligi ham ravshanlasha boshladi, u o‘zidan norozi, nimasidan norozi? Norozilik o‘z xulq-atvorining qaysi jihatlaridan zuhur topganini ham bilib turibdi, u o‘ziga juda bino qo‘ygan xotin. Lekin u faqat o‘tmishi tufayligina o‘zidan norozimi? Avval boshda shunday edi, keyinchalik hozirgi kunlaridan ham noroziligini fahmladi. Bu tuyg‘u aniqlangandan keyin uning qiziq tomoni ko‘zga tashlanib qoldi: go‘yo bu tuyg‘u uning, ya’ni Vera Pavlovna Kirsanovaning noroziligi emas-u, minglar va millionlar noroziligi unda aks

etayotganday; u o‘zidan norozi emas, o‘zidan noroziligi shu minglar va millionlarning noroziligiday. Bu minglar va millionlar kimlar o‘zi? Ular nimaga o‘zlaridan norozi! Agar Vera Pavlovna ilgarigidan yolg‘iz o‘zi umr kechirsa, yolg‘iz o‘zi xayol sursa edi, ehtimol, bu tuyg‘u bunchalik tez aniqlanmay turardi, lekin u hozir doimo eri bilan birga, ular hamisha birga o‘y o‘ylashadi, eri to‘g‘risidagi fikr-xayollari ham o‘zining hamma o‘y-fikrlariga aralashib ketgan. Bu narsa Vera Pavlovnaga o‘z his-tuyg‘ularining sirini bilib olishga ko‘p yordam berdi. Aleksandrning o‘zi bu sir-u sinoatni ro‘yirost tushuntirib berishga ojizlik qildi: Vera Pavlovna uchun bu tuyg‘u hali qorong‘i, eri uchun undan ham battar zimiston, qanday qilib shaxs huzur-halovatini buzmaydigan, shaxsingga sira daxl etmaydigan norozilik hissi bo‘lishini eri tushunishi ham mahol edi. Bu unga g‘alati tuyulardi, Vera Pavlovnadan ko‘ra eriga yuz karra qorong‘i. Lekin Vera Pavlovnaning doimo eri haqida o‘ylab yurishlari, doimo u bilan birga bo‘lishlari, unga ko‘z tashlab turishlari, u bilan birga xayol surishlari unga katta foyda berdi. Vera Pavlovna o‘zida norozilik hissi tug‘ilganda hamisha bir narsani ikkinchisiga taqqoslashini sezadi, noroziligi ham o‘zini eri bilan taqqoslashdan iborat bo‘ladi, bir vaqt: «Farq bor, ko‘ngilsiz bir farq bor», degan chinakam so‘z yodiga kelib qoldi. Gap nimadaligi endi ravshan bo‘ldi.

VII

– Sasha, judayam yaxshi odam-da (Vera Pavlovna bir ofitserning familiyasini aytdi, u ko‘rgan dahshatli tushida shu ofitser orqali Tamberlik bilan tanishmoqchi bo‘lgan edi), u menga yangi bir poema keltirib berdi, bu poema hali yaqin o‘rtalarda bosilmas ekan, – dedi Vera Pavlovna tushki ovqat vaqtida. – Ovqatdan keyin darhol o‘qiy boshlaymiz, xo‘pmi? Seni kutib o‘tirgandim, Sasha, hamma ishim sen bilan birga bo‘lsa, deyman. Juda o‘qigim kelib o‘tirgandim.

– Qanaqa poema ekan?

– O‘qiganimizda bilarsan. Ko‘ramiz, bu asari tuzuk chiqqanmikin?

Uning gapiga qaraganda, o‘zi, – muallifni aytyapman, – poema biroz ko‘nglimdagiday chiqdi, deganmish.

Ikkovlari Vera Pavlovnaning xonasiga kirib o'tirishdi. Vera Pavlovna o'qiy boshladi:

Hay-hay, savat to'lgan molga,
Chit ham bor, kimxob ham bor.
Qomatimni sen bir yo'la –
Ammo bukmagin, dildor[1].

– Ha, bildim, – dedi Kirsanov bir necha misrani eshitgandan keyin: – Buni yangi uslubda yozibdi. Lekin bu uning – Nekrasovning asari ekanligi ko'rinib turibdi, labbay? Meni kutganing uchun sendan juda minnatdorman.

– Minnatdor bo'lmay ko'r-chi! – dedi Vera Pavlovna, Bu kichkina poemani ikki qayta o'qishdi, poema muallifining tanishlaridan biri ularning yaqin kishisi bo'lganidan, poema bosilishidan uch yilcha burun ularning qo'liga tekkan edi.

– Menga qaysi she'rlari ko'proq ta'sir qildi, bilasanmi? – dedi Vera Pavlovna poemaning boshqa joylarini eri bilan qayta-qayta o'qib chiqqandan keyin, – bu she'rlar poemada asosiy o'rin tutmasa ham fikrimni o'zimga tortib oldi.

Katya sevgilisini sog'inib, intizor bo'lib kutib o'tirdi:

Qo'yib bersa ko'z yoshlaring
Bo'lar edi shashqator.
Ammo hozir o'rim payti,
Har ishning o'z vaqti bor.

Yosh qiz bo'lma, sur'at jadal
Ishlash kerak hoynahoy;
Goh chalg'iga o'tloq mahtal,
Goho o'roqqa bug'doy.

Terlab-pishib saharlarda
Don yanchilar; so'ng, albat –
Shabnam yoygan o'tloqlarga
Zig'irpoya yoyish shart...[2]

---

[1] N. L. Nekrasovning «Attorlar» poemasidan.

[2] Nekrasovning o'sha poemasidan.

Bu she'rlar epizoddagi asosiy she'rlar emas, ular yoqimtoy Katyaning Vanya bilan turmush qurish orzusida surgan xayollariga go'yoki bir muqaddimadir, lekin mening fikrimni xuddi shu she'rlar band etdi.

Chindan ham bu – poemadagi eng yaxshi o'rinlardan biri, lekin poemadagi asosiy tasvirlar emas. Demak, bu she'rlar sendagi o'y-fikrlarga juda mos tushibdi. Bular qanday fikrlar ekan?

– Bunday, Sasha. Ikkalamiz ayol kishining tuzilishi erkak kishining tuzilishidan afzal bo'lsa borki, lekin kam emas, shu sababdan qo'pol zo'ravonlik davri barham yeganidan keyin, xotin zoti ma'naviy hayotda erkak kishini keyingi o'rniga surib qo'yishi turgan gap, deb tez-tez gapirib yurardik, ikkalamiz hayotni mushohada qilib yurib shunday bo'lishi lozim, degan xulosaga kelgan edik; hayotda tabiatan aqli raso ayollar erkaklardan ko'proq uchraydi; ikkimiz ham shunday fikrdamiz.

Sen anatomiya, fiziologiya sohasidagi har turli tafsilotlar bilan buni tasdiqlading ham.

– Erkaklar uchun haqorat gaplarni gapiryapsan, Verochka, bu gapni mendan ko'ra sen ko'proq gapirib yuribsan: menga alam qilyapti. Yaxshiyamki sen bilan ikkimiz bashorat qilib gapirayotgan zamonlar hali-beri kelmaydi. Aks holda men orqada qolib ketmaslik uchun o'z fikrimdan butunlay voz kechardim. Verochka, bu hali faqat taxminiy gap, fan bu masalani, ha, haqiqatan shunday, deb hal qilish uchun hali yetarli ma'lumot topganicha yo'q.

– To'g'ri, azizim. Shu damgacha ayrim shaxslarning hayoti va organizmining tuzilishi ustidagi mushohadalarga ko'ra chiqarilgan juda aniq xulosaga tarix faktlarining nega zid kelganligi ustida gapirgan edik. Ayol kishining shu vaqtgacha ma'naviy hayotda bu qadar kichik rol o'ynaganligiga sabab shuki, zo'ravonlik uning rivoj topishi uchun zarur vositalardan ham, kamolotga intilishlaridan ham mahrum etgan edi. Shunday deb izohlash ham kifoya. Lekin shunga o'xshash boshqa bir misol ham keltiraman. Ayol kishining organizmi jismoniy kuch miqdori jihatidan ancha zaif, lekin shunisi ham borki, ayol kishining organizmi pishiqroq, shundaymi?

– Ma'naviy kuchlarning tabiati masalasiga qaraganda bu ancha asosli gap. To'g'ri aytasan, ayol zotining organizmi halokatga eltuvchi moddiy kuchlarga – iqlimga, ob-havoga, to'yib, yayrab

ovqat yemaslik singari hodisalarga ko'proq bardosh beradi. Tibbiyot va fiziologiya hali bu masalani batafsil tekshirib ko'rgani yo'q; lekin statistika allaqachonlaroq umumiy javob bergan: ayol kishining o'rtacha umri erkak kishining umridan ko'proqqa cho'ziladi. Bas, bundan ma'lum bo'ladiki, ayol kishining organizmi pishiqroq ekan.

– Agar ayol zotining hayot tarzi salomatlik jihatidan umuman erkaklar hayotidan ancha yomon ekanligi nazarda tutilsa, bu yana ham ravshanroq bo'ladi.

– Bu fikrni yanada kuchaytiruvchi, xulosani aniqroq ko'rsatuvchi boshqa bir mulohaza ham bor – bu fiziologiyaga oid narsa. Ayol kishi erkakdan birmuncha ertaroq yetiladi. Ayol kishining balog'atga yetishi 20 yil, erkaklarniki 25 yil davom qilsin, – bizning iqlimimizda, avlodimizda, taxminan, shunday. Erkaklarning 65 yoshgacha umr ko'rishiga imkon beradigan proporsiya ayollarning 70 yoshgacha umr ko'rishiga imkon beradi, deb buni taxmin qilib ko'raylik; agar biz o'sish – rivojlanish muddatlari o'rtasidagi farqni nazarda tutsak, ayol kishining organizmi balog'at yoshlari o'rtasidagi farqni nazarga olmagan statistika mo'ljalidan ancha kuchli ekanligi ma'lum bo'ladi. Yetmish yil degani uch yarim marta yigirma yil degani. Oltmish besh yilni yigirma besh yilga taqsim qilsa qancha bo'ladi? Ikki yarimdan sal oshiqroq – ikki butun o'ndan olti. Demak, erkak kishi to'la kamolga yetish muddatini faqat ikki yarim martacha takrorlab umr kechirsa, asl kishi kamolga yetish muddatini bemalol uch yarim marta takrorlab umr kechiradi. Organizmning pishiqligi esa shu proporsiyaga qarab o'lchanadi.

– Darhaqiqat, farqi men o'qigandan ko'proq ekan.

– Lekin men faqat misol tariqasida gapirdim, yaxlit sonlarni, esimga kelganlarini oldim. Lekin xulosa baribir men aytganday bo'laveradi. Statistika ayollar organizmining pishiqroqligini aniqladi, – sen insonlar qancha umr ko'rishini ko'rsatadigan jadval xulosalarini o'qigansan xolos. Lekin agar statistika faktlariga fiziologiya dalillarini qo'shsak, farq undan ham kattaligi ma'lum bo'ladi.

– Sasha, gap shunday; o'ylab topgan narsangni qara, bu narsa hozir menga undan ham keskinroq tuyulyapti. Men bo'lsam, agar ayol kishining organizmi uni ishdan chiqaruvchi moddiy kuchlarga qanchalik chidamli bo'lsa, ma'naviy zarbalarni ham shunchalik oson

yengadi, bardoshli bo‘ladi, deb o‘ylagandim. Amalda esa butunlay aksini ko‘rib turibmiz.

– Ha, shunday bo‘lishi mumkin albatta. Lekin bular hali shunchaki bir faraz, bu masalalar bilan hali hech kim shug‘ullangani yo‘q, bu haqda maxsus faktlar to‘planmagan. Lekin sening xulosang hozirning o‘zida shubhasiz bo‘lgan faktdan kelib chiqadi, bunga shubhalanib bo‘lmaydi. Organizmning pishiqligi asablarning pishiqligiga qattiq bog‘liq. Ehtimol, ularning asabi ko‘proq elastik – moslashuvchi, tuzilishi mustahkamroqdir, agar shunday bo‘lsa, ayollar har xil g‘am-g‘ussa va azob-uqubatlarga ko‘proq bardosh berishi va oson yengishi kerak. Lekin amalda ko‘pincha buning aksini ko‘ramiz. Erkak kishi juda oson yengadigan ishga ayol kishi aralashsa ko‘p hollarda juda qiynaladi. Hozirgi kunda organizm tug‘ilishining o‘zi qanday hodisalardan darak bersa, shunga qarama-qarshi hodisalarga duch kelib turganligimiz sabablari hali yaxshilab tekshirib ko‘rilmagan. Lekin bu sabablardan biri aniq, bu sabab hamma tarixiy voqealarda va bugungi hayotimiz jabhalarida ravshan ko‘rinib turibdi. Bu – noto‘g‘ri fikr-mulohaza kuchi, yomon odat, soxta umid, soxta qo‘rqoqlikdir. Agar odam biror nima «qilolmayman», deb o‘ylasa, darhaqiqat, bu ish uning qo‘lidan kelmaydi. Xotin-qizlarning miyasiga: «Sizlar zaifsizlar», deb quyib kelishgan – shuning uchun ham ayollar o‘zlarini zaif his qiladilar, haqiqatan zaif bo‘lib qoladilar. Butunlay sog‘-salomat bo‘lsalar ham zaiflashib oxiri o‘lib ketsam kerak, deb o‘ylayverib, haqiqatan zaiflashib-zaiflashib oxiri o‘lib ketgan kishilarni sen bilasan. Lekin butun boshli omma, xalqlar, butun insoniyatga taalluqli misollar ham bor. Eng ajoyib misollardan biri urushlar tarixidir. O‘rta asrlarda piyoda askarlar, biz otliq askarlarga bardosh bera olmaymiz, deb o‘ylashardi, – haqiqatan ham otliq askarlarga sira bas kelisha olmasdi. Bir necha yuzta otliq askar butun boshli piyodalar armiyasini qo‘y singari oldilariga solib quvib yurardi; yer yuzida o‘ziga ishongan, mag‘rur, mustaqil mayda yer egalaridan tashkil topgan ingliz piyoda askarlari paydo bo‘lgunga qadar ahvol shunday edi, ular qo‘rqish degan narsani bilmasdi, jang qilmay orqaga chekinish ularga odat emasdi, otliq askarlarga duch kelganda qochib qolish kerak, degan xato fikrga berilmagan bu kishilar Fransiyaga o‘zlaridan ko‘proq otliq askarlarni tor-mor

keltirganlar: Kresen yonida ham, Puatye yonida ham, Azenkur yonida ham fransuz otliq armiyalarining juda ozgina ingliz piyoda askarlaridan yengilganini eshitgansan. Shveysariya piyoda askarlari o'zlarini, feodallarning otliq askarlaridan nimamiz kam ekan, deb hisoblagan vaqtlaridan boshlab xuddi haligiday ahvol ro'y bergan. Son jihatidan bundan ham ko'p Avstriya otliq askarlari, keyin Burgundiya otliq askarlari har gal shveysar piyoda askarlariga duch kelganlarida mag'lub bo'lardilar; keyin boshqa otliq askarlar ham shveysar piyoda askarlari bilan jang qilmoqchi bo'lgandi, ular ham hammasi birin-ketin yengildi. Ana shundan keyin hamma, «iye, piyoda askarlar otliq askarlardan zo'rroq ekan-ku», deb o'ylab qoldi, zo'rligi turgan gap; lekin bir necha asr davomida piyoda askarlar o'zlarini otliq askarlardan zaifmiz deb bilganlari uchun ham juda zaif edilar.

– To'g'ri aytasan, Sasha. Zaifligimizga sabab, biz o'zimizni zaif deb bilamiz. Lekin, fikrimcha, yana boshqa bir sababi ham bor. Ikkalamiz to'g'rimizda gapirmoqchiman.

– Qani, ayt-chi, azizim.

– Hu, birda sen ko'rmay yurgan ikki hafta ichida men juda ham o'zgarib ketgan edimmi? Sen o'shanda qattiq hayajonda yurding. Sodir bo'lgan o'zgarish senga juda katta ko'rinishi mumkin edimi yoki haqiqatan zo'r o'zgarish bo'lganmidi, hozir shuni qanday xotirlaysan?

– U vaqtda sen chindan ham juda ozib-to'zib, ranging siniqib qolgandi.

– Ko'rdingmi, azizim, hozir o'ylab qarasam ana o'sha narsa mening iftixorimga raxna solgan ekan. Axir meni juda yaxshi ko'rar eding-ku. Shunday bo'lgandan keyin nega o'sha kurash senda o'z ifodasini topmadi? O'sha meni ko'rmay ketgan oylar ichi ranging ketib, ozib-to'ziganingni hech kim ko'rgani yo'q-ku. Bundan shunchalik oson qutulganing sababi nimada?

– Endi bilsam, Katya zerikkan chog'larida ish bilan ovunib yurganligi to'g'risidagi she'r shu vajdan senga juda yoqib tushgan ekan-da. Sen balki o'sha judolik kunlarida holim nima kechganini bilmoqchidirsan? Gaping juda to'g'ri. Bu kurashga osongina bardosh berganimning sababi, uni ko'p o'ylab o'tirishga vaqtim yo'q edi. O'ylagan vaqtlarimda ko'p azob chekdim, lekin kundalik

zarur ishlar bu judolik dardini ko'pincha unutishga majbur etardi. Kasal ko'rishga borib turardim, leksiyalarga tayyorlanardim. Shunday vaqtlarda beixtiyor o'z fikr-xayollarim bilan bo'lib, dam olardim. O'shanday ba'zi kunlarda ancha-muncha bo'sh vaqtlarim bo'lganda, o'zimni kuchdan qolayotganday his qilardim. Bir hafta o'zim bilan o'zim bo'lib, shu fikrlarimga berilaversam aqldan ozadiganga o'xshadim.

– Ha, azizim, o'rtamizdagi farqning butun siri shunda ekanligini men ham yaqinda tushundim. Shunday ish bilan band bo'lginki, bosh tortishing, keyinga surishing mumkin bo'lmasin, ana o'shanda kishi o'zini ancha dadil his qiladi.

– Axir, o'shanda sening ishing ko'p edi, hozir ham shunday.

– E, Sasha, bular kechiktirib bo'lmaydigan ishlar, deb o'ylaysanmi? Bularni xohlagan vaqtimda, istaganimcha bajaraman. Istasam ularni qisqartishim yoki butunlay keyinga surib qo'yishim mumkin. Ko'ngling buzilib xafa bo'lib turganingda o'zingni biron ish bilan ovutish uchun kuchli iroda ham kerak-da, shunday irodagina uni bajarishga majbur eta oladi. Zarurat kishiga tayanch bo'lolmaydi. Masalan, men uy-ro'zg'or ishlari bilan band bo'laman, juda ko'p vaqtimni shularga sarflayman; lekin vaqtimning o'ndan to'qqizini bu ishga o'z ra'yim bilan sarflayman. Tuzukroq oqsoch xotin bo'lsa, o'zim ozroq band bo'lgan taqdirimda ham shu zaylda bitib boravermasmidi? Biroz kamroq vaqt sarf qilganimda bajariladigan ish bir yaxshiroq bajarilsin, deb ko'proq vaqt sarf qilishimning kimga keragi bor? Bu ham o'z xohishimga bog'liq. Fikr-xayoling joyida bo'lganda o'zingni shunday ishlar bilan band qilasan, ko'ngling buzildimi – bu ishlaringni yig'ishtirib qo'yasan, chunki ularsiz ham kuning o'taveradi. Muhim ish turganda ortiqcha zarur bo'lmagan ishni hamma vaqt yig'ishtirib qo'yasan. His-tuyg'ularing qattiq hayajonlanib, haligiday ishlar to'g'risidagi fikringni keyinga surib qo'yadi. Men dars beraman; bu uy-ro'zg'or ishlariga qaraganda birmuncha muhimroq: darsni o'z holiga tashlab qo'yishim mumkin emas; lekin bu ishlar ham ko'nglimdagiday emas. Istagan vaqtim darsga tuzukroq e'tibor beraman, dars vaqtida u to'g'rida sal o'ylasam ham darsim yomon o'tadi, chunki dars berish juda oson, dars berish kishining butun fikr-zikrini band etmaydi, undan tashqari mening tirikchiligim faqat shu dars bilan o'tadimi? Hayotdagi o'rnimni shu darsga bog'liq

deb bilasanmi? Ajabo, hozir kunimga yarab turgan mablag'ni Dmitriy ishlab topdi, hozir sen topyapsan. Dars berish o'zimni mustaqil his qilishim uchun kerak, o'zi ham foydali. Lekin har holda, dars berish men uchun hayotiy zarurat emas. O'sha vaqtlarda o'zimni ovutish uchun, erta-kech ezib turgan fikr-xayoldan qutulish uchun biror ishxona ochishga urinib ko'rgandim. Buni ham o'z xohishim bilan qilgandim. Axir ishxonada faqat bir soat, bir yarim soat bo'lishim kifoya edi, agar ko'proq vaqt qolib ishlagan ekanman, ataylab o'zimni biror ish bilan band qilardim, buni o'zim uchun foydali deb bilardim, lekin buning ish uchun hech qanday zarurati yo'q edi. Undan tashqari, bu ishning o'zi men singari oddiy kishilar uchun muhim bir tayanch bo'lishi mumkinmi? Raxmetovlar boshqa toifadagi odamlar, ular ko'pchilikning ishiga shunday qovushib ketadilarki, bunday ish ular uchun zarurat, ular hayotining muhim jihati bo'lib qolgan; ko'pchilikning ishi hatto ularning shaxsiy hayotiga aylanib qolgan. Bizda esa, Sasha, bu narsa nasib bo'lmaydi. Biz u singari lochinlardan emasmiz. Bizga shaxsiy hayotimiz bo'lsa bas. Ishxona mening shaxsiy hayotim bo'larmidi? Bu menga munosib ish emas, menga yot ish. Men bu ish bilan o'zim uchun, boshqalar uchun, qolaversa, o'z e'tiqodim uchun ham band qilaman. Lekin sen bilan biz kabi kishilarning, lochin bo'lolmaydigan kishining, o'zi qiynalib turganda, bunday kishining boshqalar bilan nima ishi bor? Bunday kishi o'zi vijdon azobida qiynalib turganda uning e'tiqod bilan nima ishi bor deysan? Yo'q, unday emas, har kimning o'z ishi, zarur hayoti uchun zarur mablag'im uchun, butun hayotdagi o'rnim uchun, butun taqdirim uchun, hamma orzu-havaslarim va ehtiroslarimdan muhimroq bo'lsin; ehtirosga qarshi kurashda faqat shunday ish senga tayanch bo'ladi, ehtiros faqat shunday ishni hayotdan siqib chiqara olmaydi, o'zi ehtirosni bosib ovozini o'chiradi, faqat shunday ish senga kuch, rohat bag'ishlaydi. Men shunday ish qilgim keladi.

– To'g'ri aytasan, do'stim, to'g'ri, – dedi Kirsanov xotinining o't chaqnab turgan ko'zlaridan o'pib. – Gaping rost, men ham shu damgacha bu haqda o'ylamagandim, holbuki buning hech bir qiyin yeri yo'q; negadir men payqamabman! Ha, Verochka, birov uchun birov tashvish tortmaydi. Kimki o'ziga yaxshi bo'lsin desa, o'zi uchun o'zi o'ylashi kerak, o'zi to'g'risida o'zi tashvish tortishi lozim, – uning o'rnini boshqa hech kim bosolmaydi.

Shunchalik yaxshi ko'ribman-u, o'zing tushuntirib bermaguningcha tushunmabman-a! Lekin, – deya davom etdi u kulib, xotinini o'pib, – hozir senda shunday ehtiyoj tug'ilganiga sabab nima? Biror kishini yaxshi ko'rib qoldingmi deyman, a, shundaymi, Verochka?

Vera Pavlovna xaxolab kulib yubordi, ikkovlari uzoq vaqt o'zlarini kulgidan to'xtatolmay, gapirolmay qolishdi.

– Ha, endi ikkovimiz ham buni sezishimiz mumkin, – deb gap boshladi nihoyat Vera Pavlovna, – hozir sening ham, mening ham bunday biror baloga duchor bo'lishimiz mumkin emasligini senday aniq aytishim mumkin. Lekin rostini aytsam, menda hozir qanday tuyg'u paydo bo'ldi, bilasanmi, azizim: agar Dmitriyga muhabbatim yetuk ayol muhabbati emas ekan, Dmitriy ham meni biz hozir tushunayotgan ma'noda sevgan emas. Menga ko'ngil qo'yishning ikki vaji bor edi: meni o'ziga do'st bilib, menga juda ham o'rganib qolgan edi; ba'zan ayollik jihatimga ko'ngli erib ketardi: u menga, shaxsan menga do'stlik ko'zi bilan qarardi; ko'ngil qo'yish, orziqish daqiqalarini faqat xotinlar qidiradi: buning shaxsan menga uncha daxli yo'q. Lekin bu muhabbat emasdi. U men to'g'rimda juda ko'p xayollarga bordi, deb o'ylaysanmi? Yo'q, uning uchun bu o'y-xayollarning unchalik qizig'i yo'q edi. Menda ham, unda ham chin muhabbat degan narsa yo'q edi.

– Verochka, unga noinsoflik qilyapsan.

– Yo'q, Sasha, xuddi shunday. O'rtamizda gap borganda uni maqtashning keragi yo'q. U to'g'rida juda yaxshi fikrda ekanligimizni ikkovimiz ham bilamiz, yana u, menga hech nima bo'lgani yo'q, deb har qancha gapirsa ham, lekin aslida ancha mushkul ahvolda qolganini ham bilamiz, axir, sen ham ehtirosimni yengib turishim oson bo'ldi, dersan – bular hammasi yaxshi gap va bunda hech qanday mug'ambirlik yo'q; lekin bunday qaltis gaplarni tom ma'noda tushunmaslik kerak, do'stim, qanchalar azob chekkaningni yaxshi bilaman... Ko'rdingmi, buni qanchalik yaxshi tushunaman...

– Verochka, bo'g'ib o'ldirmoqchisan shekilli; sen tuyg'ung bilan birga kuchingni ham ko'rsatmoqchi bo'lding, shundaymi? Nima ham derdim, juda zo'r ekansan, qalbing shunday urib turgandan keyin kuch senda bo'lmay, kimda bo'lardi?

– Azizim, Sasha!

VIII

– Sasha, ish to‘g‘risidagi gapimni tugatishga qo‘ymading, – deb gap boshladi Vera Pavlovna chamasi ikki soatlardan keyin, choy ichib o‘tirishganda.

– Gapingni tugatishingga qo‘ymadimmi? Hali men gunohkor bo‘ldimmi?

– Albatta, sen gunohkorsan.

– Jinnilikni kim boshladi?

– Shunday degani uyalmaysanmi?

– Nima?

– Jinnilikni sen boshlading, degani. Buni qara-ya, o‘zing allaqanday loqaydsan-u, yana vazmin, odobli xotining obro‘sini to‘kmoqchi bo‘lasan!

– Qara-ya! Men bo‘lsam tenglik to‘g‘risida gapiryapti, deb ishonib o‘tiribman, tenglik bo‘lgandan keyin tashabbusda tenglik-da.

– Ha, ha, ha! Qanday olimona gaplar! Nahotki sen meni subutsizlikda ayblamoqchi bo‘lsang? Axir men tashabbusda ham tenglik bo‘lsin, deb harakat qilayotganim yo‘qmi? Lekin, Sasha, endi men esdan chiqargan jiddiy gapimizni davom ettirish tashabbusini o‘z qo‘limga olaman.

– Olaver, lekin men senga ergashishdan bosh tortaman. Men endi esdan chiqarib turish tashabbusini qo‘limga olaman. Qani, qo‘lingni ber.

– Sasha, gapimizni tugatishimiz kerak-ku, axir.

– Ertaga ham kun bor. Hozir ko‘rmayapsanmi, men mana bu qo‘lni tekshirib chiqishga juda qiziqib qoldim.

IX

– Sasha, kecha tugamay qolgan gapimizni bugun tugata qolaylik. Tugatish kerak, chunki men ham sen bilan birga bormoqchiman: axir, nima uchun bormoqchi bo‘lganimni bilib qo‘yishing kerak-ku, – dedi Vera Pavlovna ertalab.

– Men bilan? Men bilan bormoqchimisan?

– Ha, sen bilan. Sasha, butun hayoting bog‘liq bo‘lgan ishingni sen qanday qadrlasang, men ham shunday qadrlaydigan ishning

men uchun nima keragi borligini bir vaqt so‘raganding; sening bu ishing bir qadam ham orqaga jildirmasa, qanchalik e’tibor talab qilsa, mening bu ishim ham xuddi shunday. Azizim, menga bunday ishning kerakligiga sabab shuki, men bu ishim bilan faxrlanaman. Hu o‘shanda his-tuyg‘ularimga qarshi kurashganim juda sezilib qolib, menga og‘ir tuyulganini eslab allaqachonlardan buyon ko‘nglim buzilib, uyalib yuraman. Bu kurashning men uchun og‘ir kechganligini gapirayotganimni bilasan, axir, bu kurash sen uchun ham uncha yengil ko‘chmadi – bu hissiyotning zo‘rligiga bog‘liq, kurash men uchun og‘ir kechgan ekan, endi pushaymon qilib o‘tirish menga yarashadigan ish emas, pushaymon qilish degani – his-tuyg‘um juda kuchli edi, degani, yo‘q, unday emas! Lekin nima sababdan bu kuchga qarshi menda sendagi kabi mustahkam tayanchim bo‘lmadi? Men ham ana shunday tayanchga ega bo‘lsam deyman. Shu tufayli menda bir fikr tug‘ildi-yu, lekin haqiqiy ehtiyoj, albatta, hozirgi kunimizga bog‘liq, men hamma jihatdan senga teng bo‘lsam, deyman, bu ehtiyojning eng muhim jihati shunda. Men o‘zimga ish topdim. Kecha men bilan xayrlashib chiqib ketayotganingdan keyin bu to‘g‘rida juda ko‘p o‘yladim, bu fikr miyamga kecha ertalab sen yo‘qligingda kelgandi, kecha o‘zi yaxshi odam deb sen bilan maslahatlashmoqchi edim, lekin bama’ni odam, degan umidimni puchga chiqarding. Hozir endi maslahatlashishga hojat qolmadi: o‘zim bir qarorga keldim. Ha, Sasha, men bilan hali ancha-muncha ovora bo‘ladiganga o‘xshaysan; azizim, agar men shu ish qo‘limdan kelishiga ko‘zim yetsa, ko‘nglimiz to‘lib xursand bo‘lamiz.

Ha, Vera Pavlovna o‘ziga ish topdi, ilgari bu to‘g‘rida o‘ylashi ham mumkin emasdi: u Aleksandri bilan doimo hamkor-u hamdast edi, shu sababdan hayotlari ham durust kechardi. Lopuxov Vera Pavlovnani hech bir jihatdan qiynab qo‘ymagan edi, Vera Pavlovna ham uni qiynamagandi, vassalom. Yo‘q, unday emas, o‘rtada boshqa ishlar o‘tgan, albatta, ancha kattaroq ishlar o‘tgan edi. Vera Pavlovna suyanishga ehtiyoj tug‘ilib qolsa uning qo‘li, boshi bilan birga, mening ixtiyorimda bo‘ladi, deb hamisha ko‘ngli to‘q yurardi. Albatta, boshi bilan birga. U Vera Pavlovnadan boshini ham ayamasdi, qo‘lini unga uzatishdan ham erinmasdi: ya’ni zarur bo‘lib qolganda, mushkul ahvol yuz berganda uning qo‘li ham

Kirsanov qo'li singari hamisha xizmatga tayyor edi va ishonchli qo'l edi – u olimlik orzularini Vera Pavlovna yo'lida qurbon qilib, och qolishdan ham qo'rqmay unga uylanib, buni o'sha vaqtdayoq juda yaxshi isbotlab bergan edi. Ha, ehtiyoj tug'ilganda qo'lini cho'zgandi. Lekin umuman bu qo'l Vera Pavlovnadan uzoqda edi. Vera Pavlovna o'z ishxonasini ochish bilan ovora edi; agar biror yordami kerak bo'lib qolsa, jon deb yordam berardi. Lekin u nima sababdan deyarli hech nima qilmadi? U xalaqit bermadi, ma'qullab, xursandlik izhor qilibdi xolos. Uning turmushi o'z yo'liga, Vera Pavlovnaning turmushi o'z yo'liga o'taverdi. Hozir unday emas, Kirsanov Vera Pavlovnaning ishlariga aralashish uchun uning talabini kutib o'tirmaydi: Vera Pavlovna o'z turmushiga qanchalik qiziqsa, Kirsanov ham shunchalik qiziqadi, Kirsanov hayotiga Vera Pavlovna ham qiziqib qaraydi. Hozirgi munosabati birinchi eri bilan turgan vaqtidagi munosabatlaridan tamomila boshqacha, shuning uchun ham Vera Pavlovna o'zi faoliyat ko'rsatish uchun yangi-yangi vositalar borligini his etdi, unda shunday fikrlar paydo bo'la boshladi va bular amaliy talab tusiga kirdiki, ilgarilari bunday fikrlar Vera Pavlovnaga faqat nazariy jihatdan ma'lum edi, aslida uning ma'naviy hayotiga taqilmas edi: mumkin bo'lmagan narsa to'g'risida jiddiy o'ylamaysan ham.

Vera Pavlovna hozir qattiq his etayotgan va uning faoliyat ko'rsatishiga sabab bo'lgan fikrlari ana shular edi.

X

«Bizning hamma fuqarolik hayot yo'llarimiz rasman bekitib qo'yilgan. Jamoat ishlari sohasidagi juda ko'p yo'llar, hatto rasmiy g'ovlar bilan to'silmagan yo'llarning ham bari aslida deyarli bek. Hayotdagi hamma sohalardan bizga faqat birgina soha – oila hayotida qisilib-qimtinib kun ko'rishga, oila a'zosi bo'lishga imkon qoldirilgan xolos. Biz uchun bundan boshqa yana qanday ishlarga yo'l ochiq? Faqat bittagina ishga yo'l ochiq, u ham bo'lsa, murabbiyalik qilish, bundan tashqari yana erkaklarning bizdan tortib olishiga arzimaydigan dars berish imkoniyatimiz bor. Bu birgina yo'l biz uchun juda torlik qiladi, biz bu yo'lda bir-birimizga xalaqit beramiz, chunki bu yo'lda juda tiqilishib qolganmiz, bu yo'l

mustaqilligimizga imkon berolmaydi, desa bo‘ladi, chunki oramizda shunday xizmatga kirmoqchi bo‘lganlarning son-sanog‘i yo‘q. Birontamizning hech kimga keragimiz yo‘q, buning ham sababi shuki, biz juda ko‘pchilikmiz. Murabbiyaning qadriga kim yetadi deysiz. Murabbiya olmoqchiman, degan so‘z og‘zingizdan chiqishi bilan o‘nlab-yuzlab murabbiyalar yugurib kelib joy talashamiz.

Yo‘q, xotin-qizlar o‘zlariga ko‘proq yo‘llar ochib olishga harakat qilmaguncha mustaqil bo‘lishlari qiyin. To‘g‘ri, yangi yo‘l ochish og‘ir ish. Lekin bu jihatdan mening ishim ancha tuzuk. Agar men bundan foydalanmasam uyat bo‘lardi. Biz tuzukroq ishlarga tayyor emasmiz. Bunday ishlarni uddalaydigan bo‘lishda rahbarga qanchalik muhtojligim bor – bilmayman, lekin shunisi menga ayonki, bu rahbarning menga har kuni qancha yordami kerak bo‘lsa, u hamisha yonimda hozir-u nozir. Bu unga og‘ir botmaydi, bundan men qancha rohatlansam, u ham shuncha huzur qiladi.

Mustaqil faoliyat yo‘llarimizga qonun g‘ov solmagan-u, lekin uni urf-odatimiz to‘sib qo‘ygan. Lekin urf-odatimizning birinchi qarshiligiga bardosh beraman, deb qaror qilsam, shu yo‘ldan xohlaganimcha qadam qo‘yishim mumkin. Bu yo‘llardan biri menga boshqalaridan ancha yaqin. Erim – shifokor, u bo‘sh vaqtining hammasini menga sarf qiladi. Shunday erim bo‘lgandan keyin, men ham shifokor bo‘la olarmikinman, deb urinib ko‘rishim ham oson bo‘ladi.

Agar, ayol shifokorlar yetishib chiqsa juda ajoyib ish bo‘lardi. Shunda ayollarga ularning juda ko‘p foydasi tegardi. Ayol kishining erkak bilan gaplashganidan ko‘ra ayol bilan gaplashgani ancha oson. Shunday bo‘lsa, qanchadan qancha azob-uqubatlar, o‘lim, qancha-yu qancha baxtsizliklarning oldi olinadi. Harakat qilib ko‘rish kerak».

XI

Vera Pavlovna eri bilan gapini tamomlab, shlapasini kiydi-da, asablarini – qondan qo‘rqish-qo‘rqmasligini, anatomiya bilan shug‘ullana olish-olmasligini sinab ko‘rish uchun eri bilan birga gospitalga ketdi. Kirsanov gospitalda tuzukkina vazifada ishlardi, shu tufayli Vera Pavlovna o‘zini bemalol sinab ko‘rishi mumkin edi.

Men hech bir tortinib-netib o‘tirmay, Vera Pavlovnaning kamolot va zakovatiga ancha putur yetkazdim; masalan, Vera Pavlovnaning har kun ovqat yeyishini, yeganda ham ishtaha bilan ovqatlanishini, yana har kuni ikki marta choy ichishini ham yashirmay aytdim. Lekin hozir men shu darajaga yetdimki, bu qadar beor bo‘lishimga qaramasdan, o‘zim ham qo‘rqib qoldim: «Buni sir saqlasam yaxshi emasmidi? Tibbiyot bilan shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan ayol to‘g‘risida nima deb o‘ylashlari mumkin? Bu xotinning asablari juda dag‘al, qahri qattiq bo‘lsa kerak. Bu ayol emas, qassob-ku!» – deyishmasmikin, deb o‘ylanib qoldim. Lekin, axir, men bu personajlarimni juda barkamol kishilar deb ko‘rsatganim yo‘q-ku, degan xayolga borib: «Vera Pavlovnaning dag‘alligi to‘g‘risida qanday hukm qilsalar qilaversinlar, nima ishim bor?» – deb yana o‘zimga o‘zim tasalli bera boshladim. Dag‘al bo‘lsa bordir.

Shu sababdan men sovuqqonlik ila masalaga bekorchixo‘ja qabilidan qarash bilan masala ustida ishlash o‘rtasida – o‘ziga ham, boshqalarga ham foyda keltirib ishlash o‘rtasida juda katta farq borligiga Vera Pavlovnaning aqli yetdi, deb qo‘ya qolaman.

Hozir es-es bilaman, o‘n ikki yashar bola chog‘imda, yong‘in nimaligini ko‘rmagan vaqtimda bir joyga o‘t tushib, shovqin-to‘polondan cho‘chib uyg‘onib ketib, juda qo‘rqqandim. Qarasam, osmonni alanga qoplagan, lov-lov yonmoqda; katta Provinsiya shahri qip-qizil laxcha cho‘g‘ga aylanib, atrofga charsillagan olov uchqunlari sachramoqda, butun shahar sarosimada, hammayoq to‘s-to‘polon, dod-dodga to‘lib ketgan. O‘zim xuddi bezgak tutgan odamday qalt-qalt titrayman. Uyimizdagilarning hammasi g‘ovur-g‘uvurda o‘zi bilan o‘zi ovoraligidan foydalanib, o‘t tushgan joyga yugurdim. Qarasam, anhor bo‘yidagi ko‘chaga o‘t tushgan ekan. Anhor labida o‘tin, po‘stloqdan yasalgan buyumlar uyulib yotibdi. O‘zim tengi bolalar haligi buyumlarni o‘t olgan uylardan nariroqlarga tashiyotgan ekan: men ham ularga qo‘shilib ketdim, – butun qo‘rquvim qayoqqadir g‘oyib bo‘ldi! «Bo‘ldi, endi xatarli joyi qolmadi», degunlarigacha tinmay ishladim. Dahshatli yong‘indan qo‘rqqaningda, yonayotgan joyga borib ishlasang, qo‘rqinchli bo‘lmasligini shunda bildim.

Ishlagan kishining qo‘rqishga ham, jirkanib yuragi betlamay turishga ham toqati bo‘lmas ekan.

Xullas, Vera Pavlovna tibbiyot bilan shug'ullana boshladi; bizdagi bu yangi ishda Vera Pavlovna men bilgan ayollarning birinchisi edi. Shundan keyin u o'zini chindan ham boshqa odamdek his qiladigan bo'ldi. Unda: «Yana bir necha yildan keyin qaddimni chinakamiga rostlab olaman», degan fikr paydo bo'ldi. Bu buyuk fikr edi. Tamomila mustaqillikka erishmasdan tamomila baxtli bo'lish mumkin emas. Bechora xotin-qizlar, bunday baxt ba'zilargagina nasib etgan xolos!

XII

Oradan bir yil o'tdi; Kirsanovga tekkanidan keyin oradan yana bir yil o'tadi, keyin yana bir yil o'tadi, Vera Pavlovnaning kunlari hozir qanday o'tayotgan bo'lsa, to'ydan bir yil keyin qanday o'tgan bo'lsa, to'ydan buyon qanday o'tayotgan bo'lsa, shunday o'tib boraveradi; agar biron hodisa yuz bermasa, oradan bir necha yil o'tsa ham kuni shu taxlitda o'tib boraveradi. Kim bilsin, kelgusida nimalar bo'larkin? Lekin men buni yozayotgan vaqtimgacha biron aytarlik hodisa yuz bergani yo'q, demak, Vera Pavlovnaning kunlari ham, Kirsanovga tekkanida, undan bir yil keyin, ikki yil keyin qanday o'tgan bo'lsa, shunday o'tyapti.

Vera Pavlovna tibbiyot bilan shug'ullanmoqni jazm qilib, bu ishga o'zida salohiyat topib, bu sohaning sir-asrorini o'rganib olgandan keyin, endi men boshqa ko'p masalalar haqida bemalol gapirishim mumkin: boshqa har qanday ish xaloyiq nazarida Vera Pavlovnaning obro'sini unchalik to'kmaydi. Xullas, shuni aytishim lozimki, ilgari Vasilyevskiyda bo'lganiday, hozir Sergiyevskayada Vera Pavlovna kunda uch mahal qiladigan ishini tark etgan emas: ertalab choy ichadi, tushda ovqat yeydi, kechqurun choy ichadi; Vera Pavlovna har kuni tushda ovqatlanish, ikki mahal choy ichish singari nazokatga xilof xislatini tark etmagan, umuman, o'zining jami nazokat-u nafosatga xilof yomon xislatlarini saqlab qoldi.

Ilgarigi tinch-osoyishta vaqtlardagi singari, yangi tinch-osoyishta kunlarda boshqa yana bir ko'p ishlar ham avvalgi holida qoldi. Xonalarning sheriklik xona va xolis xonalarga bo'linishi ham saqlanib qoldi, xolis xonalarga beijozat kirmaslik odatlari ham saqlanib qoldi, agar birinchi savolga «savol berma», deb javob berilsa, savolni takrorlamaslik rasmlari ham amalda qoldi: bunday

javobning berilgan savol haqida hech narsa o‘ylamaslikka majbur qilishi ham saqlanib qoldi, buning saqlanib qolishiga sabab shuki, agar javob berishga arziydigan bo‘lsa so‘rab o‘tirishning ham hojati bo‘lmasdi, hech qanday savol berilmasa ham kerak narsa darrov aytilardi, biror narsa tilga olinmas ekan, demak, so‘rashning ham qizig‘i yo‘q edi. Yangi tinch-osoyishta vaqtlarda bular hammasi ilgarigi tinch-osoyishta vaqtlardagiday saqlanib qoldi; lekin hozirgi tinch-osoyishta vaqtlarda bular hammasi biroz o‘zgardi yoki o‘zgarmadi, desa ham bo‘ladi, lekin shunga qaramasdan butunlay ilgaridagiday emas, demak, hayot ham aslo unday emas.

Masalan, sheriklik xonalar va xolis xonalar bir-biridan juda farq qiladi; lekin xolis xonalarga ham kunning ma’lum vaqtlarida kirish mumkin, deb qat’iy belgilab qo‘yilgan: sababi, kunning uch qismidan ikki qismida qilinadigan ishlar xolis xonalarga ko‘chirilgan, ertalab choyni Vera Pavlovnaning xonasida ichish, kechqurun Aleksandrning xonasida ichish odat tusiga kirgan; kechki choy uncha daxmaza bo‘lmaydi, o‘sha xizmatkorlari Stepan Aleksandrning xonasiga samovar bilan choynak-piyolalarni keltirib qo‘yadi – bo‘lgani shu. Lekin nonushta boshqacha bo‘ladi: Stepan samovar bilan choyga kerakli narsalarni Vera Pavlovnaning xonasiga yaqin xolis xonaga keltirib qo‘yadi-da, Aleksandr Matveichga, samovarni keltirdim, deydi, ya’ni Aleksandr Matveich o‘z kabinetida bo‘lsa, shunday deydi, kabinetda bo‘lmasa-chi? Bo‘lmasa, Stepan xabar qilmaydi, choy ichish vaqtini o‘zlari bilishlari kerak. Shu vajdan bir qoidani rasm qilib olishgan: ertalab Vera Pavlovna erining, kirsam bo‘ladimi, deb ijozat so‘ramasdan kirib boraverishini kutib o‘tiradi: endi Vera Pavlovnaning o‘rnidan turishiga kelsak, bunda erining unga asqatishini har kim ham fahmlab oladi.

Vera Pavlovna uyg‘onib issiq o‘rinda turishga erinib, xayol surib yotaveradi. Xayol sursa suradi, surmasa mudrab, uyqusirab yotaveradi, xayol surib o‘ylaganda ham shu kungi, yaqin o‘rtalardagi biror yumushini o‘ylaydi, uy-ro‘zg‘or ishlarini, ishxonasini, tanish-bilishlarini, kun bo‘yi qiladigan ishlarini o‘ylaydi, bu endi, mudrash emas; lekin boshqa yana ikki narsa ham bor, to‘ydan uch yilcha o‘tgandan keyin paydo bo‘lgan uchinchi narsa ham bor, bu narsa hozir uning qo‘lida, bu Mitya; bunga, albatta, do‘sti Dmitriy sharafiga «Mitya» deb ism qo‘yilgan; boshqa

ikki narsadan biri – ish haqidagi shirin orzulari, ishi hayotda o'zini tamomila mustaqil sezishiga imkon beradi, yana biri – Sasha, buni hatto alohida fikr deb aytish mumkin emas, nimani o'ylasa, shu fikr kelib qo'shilib turaveradi, chunki Sasha Vera Pavlovna bilan ertakech birga, bu alohida fikr emas, doimiy hozir-u nozir fikr, uning xayolida yolg'iz o'zi qolsa-chi, – bu fikr ko'p vaqtlar xayolida tanho qoladi, – u holda buni nima deyish lozim? Bu xayolmi yoki mudroqmi, Vera Pavlovna uyqudami yoki uxlamaganmi? Ko'zlari yarim ochiq, uyqudagi kabi yonoqlariga sal qizil yugurgan... ha, bu endi mudroq. O'zingiz ko'rib turibsiz, bu alfozda vaqti juda tez o'tsa kerakki, u hatto vannaga ham bemalol tusholmaydi (vanna qulay ishlangan, qurguncha daxmazasi ko'p bo'ldi: Vera Pavlovnaning xonasiga krandan va oshxonadagi qozondan kran olib kirishga to'g'ri keldi, bu hashamatga ancha-muncha o'tin ham ketadi, lekin hozir buni bozori ko'taradi). Ha, Vera Pavlovna ko'pincha Sasha kelgunga qadar vannaga tushib chiqib, yana yotib dam olardi, yana maza qilib cho'zilardi, ko'pincha, avvalgidan ham ko'proq mudrab, xayol surib ketardi, oxiri vannaga tushishga ulgurmasidan Sasha kirib kelardi.

Har kuni saharda vanna qabul qilishga nima yetsin; avval suv juda issiq seziladi, keyin issiq suv jo'mragi burab bekitiladi-da, sovuq suv jo'mragi ochiladi, keyin vannadagi suv sovib boraveradi, kishi biram rohat qiladiki! Yarim soat, ba'zan undan ham ko'p, ba'zida bir soat davomida vannadan chiqqing kelmaydi.

Hammasini oqsochsiz, o'zi qiladi, kiyimlarini o'zi kiyadi, – shunisi ma'qulroq. O'zi kiyinadi, ya'ni mudrab qolib fursatni qo'ldan bermasa o'zi kiyinadi, fursatni o'tkazib yuborsa-chi? Unda Sashaning oqsochlik qilishdan boshqa iloji qolmaydi – ilojini qidirishning ham nima keragi bor deysiz! Sasha o'zi juda alomat odam! Ehtimol, quloqqa shivirlovchi ashulachi mehmonning qo'li tekkanda ham xayolidagi kundalik daftariga: «Bu axir odamga alam qiladi-ku!» – degan so'zlarni yozib qo'yishga majbur qila olmas. Har holda, aziz do'sti nonushta vaqtida yakkash mezbonlik vazifasini o'z zimmasiga olgan.

Boshqa iloji ham yo'q edi, shunday bo'lishi kerak edi, deb Sasha juda to'g'ri aytadi, chunki ertalab choy ichish, ya'ni biroz quyuq choy qo'shib ilitib, nuqul qaymoqxo'rlik qilishdan, o'rinda yotib qaymoq yeyishdan lazzatli narsa bormi dunyoda? Sasha choy ichish

uchun idish-tovoq olib kelishga chiqib ketadi, – uning idish-tovoq keltirish uchun chiqishi ularni ko'tarib kirishidan ko'proq bo'ladi, kelib mezbonlik qiladi. Vera Pavlovna yayrab yotadi, choy ichib olgandan keyin yonboshlaydi, o'rniga emas, divanga, keng divanga yonboshlaydi, par yostiqqa o'xshagan yumshoq divanda soat 10 gacha, 11 gacha, Sashaning gospitalga yoki klinikaga, yo bo'lmasa akademiya auditoriyasiga ketish vaqtigacha yonboshlab erkalanib yotadi. Sasha oxirgi chashka choy bilan qo'liga sigarasini olganda, biri ikkinchisiga «qani, ishimizni boshlaylik», deb yo bo'lmasa, «bas, endi ish boshlash kerak», deb eslatadi – qanaqa ish? Qanaqa bo'lardi, Vera Pavlovnaning talabalik darsi yoki repetitsiyasi: Sasha tibbiyot mashg'ulotlaridan unga repetitorlik qiladi, gimnaziya kursining imtihon olinadigan darslarini tayyorlashda Sashaning yordami undan ham zarur; Vera Pavlovna yolg'iz o'zi dars tayyorlasa juda zerikadi, ayniqsa, matematika degani juda yomon bo'larkan, lotin tili undan beshbattar; lekin ilojing qancha, zeriksang ham darsga tayyorlanishing kerak, aytmoqchi, darslari ham juda ko'p emas: Tibbiyot akademiyasiga kirishda gimnaziya attestati o'rniga topshiriladigan imtihon uchun ozgina tayyorlanishga to'g'ri keladi; masalan, Vera Pavlovna lotin tilini bir kun kelib Korneliy Nepot asarlaridan aqalli ikki satrini tarjima qilish qo'lidan keladigan darajada mukammal bilib oladi, deb aytolmayman, lekin u hozirdayoq tibbiyot kitoblarida uchraydigan lotincha so'zlarning ma'nosini biladigan bo'lib qolgan, chunki unga shunday bilim kerak, buni bilib olish aytarlik qiyin emas. Lekin shu bilan bas qilsa ham bo'lar, deyman, Vera Pavlovnaning butun hamma sirlarini ochib qo'yishimga sal qoldi shekilli: ehtimol, – farosat...

XIII

KO'K PAYPOQLAR[1] TO'G'RISIDA ILOVA

– Ko'k paypoq! Ko'm-ko'k paypoq! Ko'k paypoqdan yomon ko'rgan narsam yo'q! Ham yalqov, ham xunob qiluvchi ko'k paypoq! – deydi farosatli kitobxon fig'on bo'lib, savlat-u viqor bilan.

[1] Usti yaltiroq, ichi qaltiroq olifta degan ma'noda.

Farosatli kitobxon bilan ikkimiz bir-birimizga juda bog‘lanib qolganmiz. U bir marta meni boplab so‘kdi, men bo‘lsam unga ikki marta musht tushirib haydadim, shunday bo‘lsa ham bir-birimizning shirin-shakar so‘zlarimizni qumsab turamiz: kishi bilmas dilkashlik qilib turamiz, boshqa ilojimiz bo‘lmagach nima ham qilamiz?

– Obbo, farosatli kitobxon-ey, – deyman men unga, – to‘g‘ri aytasan, ko‘k paypoq ham yalqov, ham xunob qiluvchi odam, kishini diqqat qilib yuboradi. Buni to‘g‘ri topding. Lekin ko‘k paypoqning kimligini topolmading. Hozir buni senga oynadek ravshan qilib ko‘rsatib beraman. Ko‘k paypoq kekkayib, bema’ni, maza-matrasiz fikrlar bilan adabiyot yoki ilmiy masalalar haqida gap sotadi, holbuki bu masalalarda alifni kaltak deyolmaydi: bular haqida u qiziqqanidan gap sotmaydi, bilimini (o‘zi aslida bilim ko‘chasiga kirmagan maxluq), tantanavor niyatlarini, bunday niyatlarini u og‘ziga siqqancha aytaveradi, bilimdonligini (to‘tida qancha bilim bo‘lsa, bunda ham shuncha bilim bor) ko‘z-ko‘z qilish niyatida gapdonlik qiladi. Oynada ko‘rinib turgan badburush aft-bashara yoki it yalab ketganday yaltiroq qiyofa kimning aksi deysan? Og‘ayni, bu sening surating-ku. Uzun soqol qo‘yib olsang yo uni silliq qilib qirdirib yursang ham baribir shu ko‘k paypoqning o‘zginasi bo‘lasan, shu sababdan ham men ikki marta musht tushirib haydab chiqargandim, nega desang ko‘k paypoqlarni ko‘rarga ko‘zim yo‘q, bunday ko‘k paypoqlar biz erkaklar orasida ayollar orasidagidan o‘n marta ko‘proq.

Yaxshi niyat bilan biror ish qiladigan kishi, u qanday ish bo‘lmasin, qanday libos kiymasin, erkakcha libosmi, xotinchami, baribir, u o‘z ishi bilan band odam bo‘ladi, vassalom.

XIV

Farosatli kitobxonga foydali bo‘lgan ko‘k paypoq haqidagi, ya’ni u to‘g‘ridagi suhbat Vera Pavlovnaning hayoti hozir qanday o‘tayotganligi haqidagi hikoyamning beliga tepdi. «Hozir», degani qachon degani bo‘ldi? Vera Pavlovna Sergiyevskaya ko‘chasiga ko‘chib borganidan to shu damgacha, xohlagan muddatingizni olaverasiz. Aytmoqchi, bu tasvirni davom ettirishning nima keragi bor, dersiz. Umuman shuni aytish mumkinki, Vera Pavlovna

Kirsanov bilan Vasilyevskiy ostrovda tanishligini davom ettirgan paytdan boshlab uning oqshomlari xususiyatida boshlangan o'zgarish hozir yanada kuchaydi, hozir Kirsanovlar oilasi o'zlari singari juda ko'p totuv va baxtiyor yosh-yosh oilalarning markazi bo'lib qoldi, bu oilalar tushuncha jihatdan ham Kirsanovlar singari ular har biri bo'sh oqshomlarini musiqa, qo'shiq, poeziya, operaga bag'ishlaydilar, vaqtlarini sayr-tomoshalar, vaqtixushlik bilan o'tkazadilar, shu sababdan har kun oqshom biron oilada yig'ilish bo'ladi yoki kim qanday xohlasa, shunga qarab boshqa biror ko'ngil xushi bo'lib turadi. Umuman, bu yig'ilishlar va boshqa vaqtixushliklarda jami ulfatlarning yarmi qatnashadi, boshqalar singari, Kirsanovlar ham, o'z oqshomlarining yarmini shu o'yin-kulgida o'tkazishadi. Buni ham gapirib o'tirishning hojati yo'q, ma'lum narsa. Lekin bir narsa borki, ko'plarning tushunib olishi uchun, afsuski, buning ipidan ignasigacha tushuntirib berish lozim bo'ladi. Qiz bilan yigitga oddiy bir oqshom bilan, boshqa, ya'ni yigit dilbari bilan yoki qiz sevgilisi bilan birga bo'ladigan oqshom o'rtasida, faqat eshitish uchun operaga borish bilan yigit sevgan qizining yoki qiz sevgili yigitining yonida o'tirib opera tinglash o'rtasida qanday farq borligini har bir kimsa, agar o'zi his qilmagan bo'lsa, kitoblardan o'qib bilib olgan. Juda katta farqi bor. Bu ma'lum narsa. Har bir sevgining yo'ldoshi bo'lgan go'zallik, aslini olganda, inson hayotida sira ham bir zumlik hodisa bo'lmasligi kerak, bu yorqin hayot nurlari faqat izlash, intilish davrini, chunonchi, ko'ngil ovlash yoki sovchi qo'yish davrinigina yoritib qo'ya qolmasdan, bu davr aslida faqat kelajak kun tongi totli, go'zal tong, tug'ilajak kun arafasi bo'lishi lozimki, bu kunda nur ham, mehr-muhabbat ham arafadagiday mo'l bo'lib, kun nuri va mehr-muhabbat uzoq vaqt, juda uzoq zamonlargacha tobora kuchayib, mehr-muhabbat uzoq zamonlargacha jo'sh urib, kun bo'yi qaynab-toshib tursin, – buni his qiluvchilar juda kamdan kam topiladi. Ilgarilari bunday emasdi: oshiq-ma'shuqlar qo'shildi deguncha butun sevgi latofati nom-u nishonsiz g'oyib bo'lib ketardi. Hozirgi zamon odamlari deb ataluvchi odamlarda endi aslo unday emas. Bularni sevgi bir-birlariga qovushtirgandan keyin, qancha birga hayot kechirsalar, to bola-chaqa tashvishi ularning butun fikr-zikrini band qilib qo'yadigan yarim kechaga qadar, sevgilari tobora ko'proq

nur sochib, o‘z bag‘rida ilitib turadi. Bu vaqtga yetganda huzur-halovatdan ham shirin g‘am-tashvishlar undan ham totli tuyulib, tobora kuchayib boraveradi. Ilgari zamonlardagi odamlarning bir zumlik, bir necha oylik huzur-halovatlar hozirgi zamon odamlarida ko‘p yillar davom etadi.

Sababi nima? Bu sir tutiladigan sabab; lekin sizga bu sirni ocha qolay. Sir bo‘lganda ham qanday deng, turgan-bitgani huzur; buning ajablanadigan yeri ham yo‘q, lekin buning uchun dili pok, yuragi sof bo‘lmoq, inson huquqiga oid hozirgi zamon tushunchalariga ega bo‘lmoq, birga turgan kishingni, uning erkinligini hurmat qilmoq kerak. Bo‘lgani shu, – boshqa hech qanday siri yo‘q. Xotiningni yosh kelinligida qanday ardoqlagan bo‘lsang, endilikda ham unga shu ko‘z bilan qara, uning har bir daqiqada: «Sendan xafaman, tur, yo‘qol ko‘zimdan», deb aytishga haqi borligini unutma; xotiningga yaxshi muomala qilsang, to‘yingdan to‘qqiz yil o‘tgandan keyin ham senga xuddi yosh kelinlik vaqtidagiday iltifot qiladi, yo‘q, undan ham yaxshiroq, undan ham shirinroq lutf qiladigan bo‘ladi. Sen do‘stlaringni menga do‘stlik qilish-qilmaslik ixtiyorlari o‘zlarida, deb qanday tan olsang, xotining erkinligini ham shunday ochiq-oydin va hech qanday pisandasiz, rasmona tan ol, shunda, kuyovlik vaqtingda unga qanday aziz bo‘lgan bo‘lsang, to‘yingdan keyin o‘n yil, yigirma yil o‘tganda ham shunday aziz, sevimli bo‘lib qolaverasan. Hozirgi zamon er-xotinlarining hayoti shunday. Odamning havasi keladi. Lekin shunisi ham borki, ular bir-birlariga vafodor, to‘ylaridan o‘n yil o‘tgandan keyin ham bir-birlarini to‘y kunidagidan ham ziyoda ko‘rishadi, ular o‘rtasidagi muhabbat yana ham barq urib gullagan, shu o‘n yil mobaynida na er, na xotin biror marta ayyorlik qilmagan. «Uning og‘zidan birorta ham yolg‘on gap chiqmagan», deyilgan edi allaqaysi kitobda bir odam xususida. «U ayyorlikni bilmadi», deyilgan edi allaqaysi kitobda bir odam haqida, ehtimol, yana o‘sha yuqoridagi kitobdadir. Bu kitobni o‘qiydilarda: «Uni muncha ajoyib, olijanob inson qilib ta’riflashibdi!» – deb o‘ylaydilar. Kitob yozganlar bo‘lsa: «Biz hammani hayratda qoldiradigan kishini ta’rif qilyapmiz», deb o‘ylaganlar. Kitobni kim yozganini bilmaydilar, kim o‘qishini tushunmaydilar, hozirgi odamlar bunaqa qalb egasi bo‘lmagan biron kishini o‘z oralariga kiritmasliklarini, tanish-bilishlari yetib-ortib yotganini, tanish-

bilishlarini to‘g‘ridan to‘g‘ri hozirgi yaxshi, lekin juda oddiy odamlardan ortiq deb bilmasliklarini tushunmaydilar.

Afsus: hozirgi zamonda har bir hozirgi zamon odamiga, agar ko‘p bo‘lmasa, kamida o‘ntadan qadimgi zamon odami to‘g‘ri keladi. Shunday bo‘lishi ham tabiiy, – qadimgi dunyo bo‘lgandan keyin odamlari ham qadimiy bo‘ladi-da.

XV

– Sen bilan birga hayot kechirayotganimizga uch yil bo‘ldi-yu (ilgari bir yil, keyin ikki yil deyiladi; keyin to‘rt yil deyiladi va hokazo), lekin hali ham onda-sonda, yashirin uchrashadigan oshiq-ma’shuqlarga o‘xshaymiz-a. Sasha, deyman, kishilarning bir-biriga batamom ko‘ngil qo‘yishiga hech narsa xalaqit berolmas ekan, xo‘sh, sevgi so‘nib boradi, degan gapni qayoqdan olishgan? Bu kishilar chin muhabbat nimaligini bilishmagan. Ularning bilgani shahvoniy izzat-nafs yoki shahvoniy xayol bo‘lgan xolos. Chin muhabbat ikki yosh birgalikda hayot qurgan kundan boshlanadi.

– Buni menga qarab turib aytayotgan bo‘lmagin?

– Senda bundan ham qiziqroq narsalarni sezyapman: yana biror uch yillardan keyin tibbiyotingni esdan chiqarasan, yana uch yil o‘tsa kitob o‘qishingni unutasan, shu bilan ma’naviy hayot borasidagi hamma qobiliyatlaringdan faqat bittasi – ko‘zing qoladi xolos, o‘shanda ham mendan boshqa biron narsani ko‘rmaysan.

Bunday suhbatlar uncha uzoq davom etmasa ham, binobarin, kamdan kam bo‘lib tursa ham shu zaylda bo‘lib turardi.

«To‘g‘ri aytadi, yildan yilga kuchayib boryapti».

«Qoradori yeydigan kishilar to‘g‘risidagi ertakni bilasanmi? Qoradori ularga yildan yilga battarroq xumor qiladi. Biron kishi qoradorining mazasini totib ko‘rdimi, xumori sira pasaymaydi, tobora kuchayib boraveradi».

«To‘g‘ri gap, hamma kuchli ehtiroslar ham shunday, tobora kuchanib, zo‘rayib boraveradi».

«Ko‘ngilga urish! Ehtiros sira ham ko‘ngilga urmaydi, ehtiros bir necha soatga xo‘p to‘yib oladi xolos».

«Yurak me’daga tegish degan gapni bilmaydi, bu faqat puch xayolga xos xislat, bu mavjud jonli odamga emas, xayolot dunyosida yuruvchi buzuq xayolparast»ga xos narsa.

«Men och qolmay, har kuni bamaylixotir, to‘yib ovqatlanib turishim tufayli ishtahamning mazasi ketarmish. Ichish-yeyishim yaxshi bo‘lsa, qaytaga, ishtaham tobora ochiladi-ku. Hayotdan mahrum bo‘lsam, ishtahamdan ajralaman, ishtaha bo‘lmasa hayot ham yo‘q» (bunisi endi o‘taketgan materializm, deb gap qistirib qo‘yaman farosatli kitobxon bilan birga).

«Zamon o‘tishi bilan kishining mehri kuchaymasdan so‘nib borishi, ajabo, inson tabiatiga xos xislatmi? Do‘stlik qachon mustahkam va aziz bo‘ladi: do‘stlik boshlangandan bir hafta keyinmi, yoki bir yil keyinmi, yoki yigirma yil keyinmi? Lekin shunisi borki, do‘stlar bir-biriga xil tushgan, haqiqatan bir-birlariga do‘stlik qilishga arziydigan bo‘lishlari kerak».

Bunday gap-so‘zlar doimo bo‘lib turadi, lekin unchalik tez-tez emas. Qisqa-qisqa-ku, lekin unchalik tez-tez emas. Shunday ekan, bu haqda ko‘p va hadeb gapiraverishning nima keragi bor?

Mana bunday suhbatlar tez-tez bo‘lib, uzoq davom etadi.

– Sasha, sevging ko‘p jihatlardan menga madad beryapti. Sevging tufayli mustaqil bo‘lyapman, senga, hatto senga har qanday qaramlikdan ham xalos bo‘lyapman. Xo‘sh, sevgimning senga nima nafi tegdi?

– Mengami? Senga tekkan nafidan kam emas. Asablarim doimo kuchga to‘lib, sog‘lomlikdan jo‘sh urib turadi, bu asab tizimini albatta rivojlantiradi (farosatli kitobxon bilan biz ikkimiz yana, qo‘pol materializm, deb qo‘yamiz); binobarin, aqliy va ma’naviy jihatlarim sevgim tufayli tobora zo‘rayadi.

– To‘g‘ri aytasan, Sasha, hamma shunday deydi, – bu masalada o‘z guvohligim yaramaydi, ko‘zlarimni esa sen jodu qilib qo‘ygansan, lekin hamma shunday deydi: ko‘zlaring chaqnab, ko‘z qarashlaring yana ham o‘tkirlashib, ziyraklashib boryapti.

– Verochka, senga maqtandim nima-yu, maqtanmadim nima? Ikkimiz bir odammiz; lekin bu aslida ko‘zdan ham ko‘rinib turishi kerak. Fikrim ancha o‘tkirlashdi. Kuzatishlarimdan xulosa chiqarganimda, faktlarga umumiy nazar tashlaganimda, ilgari bir necha soat o‘ylab o‘tirishim lozim bo‘lgan ishni hozir bir soatda bitiryapman. Binobarin, hozir ilgarigidan ancha ko‘p faktlar ustida fikr yuritishim mumkin, xulosalarim ham kengroq, to‘laroq bo‘lib

qoldi. Agar, Verochka, menda biror dohiylik nishonasi bo‘lganda edi, shu tuyg‘ularim bilan buyuk inson bo‘lib olardim. Agar tabiatimda fanda zig‘ircha bo‘lsa-da biron yangilik yaratishga qobil kuch bo‘lsa edi, shu tuyg‘um bilan fanni tamomila yangilaydigan kuchga ega bo‘lardim. Ammo mening peshonamga qora ishchilik, qoloq mehnatkashlik, arzimas mayda-chuyda masalalar bilan shug‘ullanish bitilgan. Sensiz ham shunday edim. Hozir, o‘zing bilasan, unday emasman: hozir mendan ko‘proq narsa kutishyapti, butun boshli bir fan sohasini, asab tizimining vazifalari haqidagi butun bir ta’limotni tamomila yangilaydi, deb o‘ylashyapti. Men ham o‘zimni ularning umidini ro‘yobga chiqaradigandek his qilyapman. Yigirma to‘rt yoshda kishining qarashlaridagi yangilik, yigirma to‘qqiz yoshdagiga qaraganda, kengroq quloch yoyadi, dadilroq bo‘ladi (keyin o‘ttiz yoshida deyiladi, o‘ttiz ikki yoshida va hokazo), lekin u vaqtlarda bular hozirgi me’yorda emasdi. O‘zimni ham tobora o‘sib-unayotganday his qilaman, holbuki sen bo‘lmasang, men allaqachon qotib qolardim. Biz birga yashay boshlagan vaqtimizdan ikki-uch yil ilgari ham o‘sishdan to‘xtab qolgandim. Sen menga ilk navqironligimni qaytarding, to‘xtab qolishim mumkin bo‘lgan joydan, sensiz to‘xtab qolishim muqarrar bo‘lgan joydan ancha nariga qadam tashlashimga kuch bag‘ishlading.

– Ish-g‘ayrati-chi, Verochka, bu arzimagan narsami? Butun hayoting shunday sozlanganda kuch shavq-zavqi mehnatga ham ta’sir qiladi. Qahva yoki bir stakan sharob aqliy mehnat g‘ayratiga qanday ta’sir qilishini bilasanmi; boshqalarga bir soatlik kuch berib, ketidan shu yuzaki va tez o‘tuvchi hayajon singari shalvaytirib qo‘ysa, menda doimo shunday g‘ayrat qaynab-toshib turadi, – asablarimning o‘zi shunday bir maromda, baquvvat, tetik sozlangan. (Yana o‘taketgan materializm deb ming‘illab qo‘yamiz va hokazo.)

Bunday gaplar tez-tez takrorlanib, uzoq davom etadi.

«Sevgi insondagi jami kuch-g‘ayratni hayajonga keltiradi, buni bilmagan kimsa chin sevgining nimaligini ham bilmaydi».

«Sevgi degani kamolotga ko‘maklashuving va o‘zing ham kamolotga yetishing deganidir».

«Kimdaki faoliyat vositalari yo‘q ekan, sevgi unga shunday vositalar baxsh etadi. Kimdaki bunday vositalar mavjud ekan, sevgi shu vositadan foydalanish uchun kuch beradi».

«Sevgan yorining mustaqillik darajasiga yetishiga yordam beruvchi kimsagina sevadi».

«Sevgidan fikri yorishib, kuchga to'luvchi kimsagina sevadi».

Mana bu xildagi gaplar tez-tez bo'lib turadi:

– Azizim, hozir men Bokkachchoni o'qiyapman (bu qanday axloqsizlik, deb fikr bildirgan bo'lamiz farosatli kitobxon bilan ikkimiz, xotin boshi bilan Bokkachchoni o'qirmish! Bu asarga faqat u bilan mening tishim o'tishi mumkin. Lekin bundan tashqari, mana bunday fikr ham bildiraman: xotin kishi bosh daqiqada farosatli kitobxondan butun Bokkachcho asaridagi gaplardan ko'proq beadab, boloxonador so'zlarni eshitadi, lekin uning og'zidan Bokkachcho asarida to'lib-toshib yotgan yorqin, yangi, sof fikrlardan birontasini ham eshitmaydi); azizim, juda iste'dodli yozuvchi, deb to'g'ri aytgan ekansan. Fikrimcha, uning ba'zi bir hikoyalarini psixologik tahlilning chuqurligi va nozikligi jihatidan Shekspirning eng yaxshi dramalari bilan bir qatorga qo'yish kerak.

– Betakalluflik bilan yozgan hajviy hikoyalari senga xush yoqadimi?

– Ba'zi birlari juda ajoyib, lekin umuman har qanday o'taketgan qo'pol hajv singari, bu hikoyalari ham kishini zeriktirib qo'yarkan.

– Lekin uni ma'zur tutish kerak, nega desang, u bizdan besh yuz yil ilgari o'tgan yozuvchi; bizga juda ham pardasiz, juda beadablikday ko'rinadigan narsalar u davrlarda odobsizlik hisoblanmasdi.

– Bizning ko'p urf-odatlarimiz ham, butun hayot tarzimiz ham besh yuz yilga yetmasdanoq dag'al va iflos ko'rinib qoladi. Lekin buning uncha qizig'i yo'q, men otashin, yuksak sevgini rasmona tasvirlab ko'rsatgan ajoyib hikoyalarini nazarda tutyapman. Uning buyuk iste'dodi shu hikoyalarda hammadan ham ravshan ko'rinib turadi. Lekin, Sasha, men senga boshqa narsani aytmoqchiman: u qiyomiga yetkazib tasvirlaydi, shunga qarab hukm qiladigan bo'lsak, aytish mumkinki, u vaqtlar sevgiga rosa qoniqilgan zamonlar edi, deb aytsalar ham hali sevgi huzur-halovatini hozirgiday bilishmagan ekan, u zamonlarda sevgi u qadar kuchli sezilmas ekan. Yo'q, ular sevgining yarim rohatini ham

ko‘rishmagan. His-tuyg‘ulari nihoyatda yuzaki, zavq-shavqlari juda zaif va bir zumlik ekan.

«Tuyg‘u kuchi vujudimizning qanday chuqur joyida paydo bo‘lishiga bog‘liq. U butunlay tashqi omil, tashqi sabab bilan qo‘zg‘alsa, bunday tuyg‘u bir zumda o‘tib ketadi va hayotdagi bir xususiy tomoninigina qamrab oladi. Qadah tutqizganlari uchungina ichadigan kimsa sharobning mazasini uncha bilmaydi, sharobdan u juda ozgina lazzat topadi. Lazzatning ildizi xayolda bo‘lsa, xayol rohatijonni va uning sababini qidirib qolsa, rohat ancha kuchli bo‘ladi. Bunda qon ancha kuchli jo‘sh uradi, qonda ta’siri rohatdan ham kuchliroq bo‘lganda biroz halovat ham seziladi. Rohat bilan qo‘shilgan munosabatlar ildizi ma’naviy hayotning eng chuqur yeridan joy olgan bo‘lsa, haligiday hayajon ham hech gap bo‘lmay qoladi. Bu taqdirda hayajon butun asablarga yoyilib, uzoq vaqt qattiq larzaga keltiradi. Bu holda butun qalbing bahra oladi: bu – faqat xayol tufayli yurak urishi emas, butun qalbing onadan tug‘ma bo‘lganday yengil tortadi; bamisoli kishining nafas olib turgan havosi o‘zgarganday, havo ancha musaffo bo‘lib, kislorod ko‘payganday, quyoshli kundagi haroratdan kishi qanday rohat qilsa, xuddi shunday tuyg‘u paydo bo‘lganday, quyoshda isinib o‘tirganda o‘zingni qanday his etsang, xuddi shunday bo‘ladi, lekin farqi aniq seziladi, asablaring ilib, yengil tortganday, o‘rtadagi vositachi elementlarning erkalatishi hech bo‘shashmay, buni asablarning o‘zi ham his qilganday bo‘ladi».

«Bu befoyda qilig‘imni o‘z vaqtida bas qilganimdan o‘zim juda xursandman. Rost: qon aylanishiga hech narsa to‘siq bo‘lmasligi lozim. Shunday ekan, badanim yana ham tiniqlashib, mayin tortdi, deb zavqlanishning nima keragi bor? Shunday bo‘lishi turgan gap. Yana nimadan bo‘ladi deng? Arzimagan narsadan, lekin oyoqni rasvo qiladi! Paypoq degan o‘zi bemalol turishi lozim; chiziq rostlandi, kesilgan joyi ko‘rinmay ketadi.

«Bu tezda yo‘qolmaydi. Bor-yo‘g‘i uch yil korset taqdim, shu keyingi turmush qurishimdan ancha burun taqmay qo‘yganman. Rost, korset taqmasak ham ko‘ylaklarimiz, baribir, belimizni siqib turadi. Oyog‘im to‘g‘rilanganday, buning ham o‘rniga tushishi rostmikin? Rostdir, sal o‘rniga tushyapti-ku – tuzalib ketadi:

bundan juda xursandman. Ko'ylagim bichimi muncha ko'rimsiz? Yunon ayollari aqli raso ekan, shuni hali ham tushunmaymiz-a, ko'ylak degani, yunon qizlarining ko'ylagi singari, yelkaning o'zidan keng-mo'l bo'lib tushib turishi kerak. Bizlarning bichig'imiz qaddi-qomatimizni buzadi. Lekin qaddim rostlanib kelyapti, juda xursandman!»

– Verochka, muncha dilbarsan?

– Sasha, qanchalar baxtli ekanimni bilsang edi!

XVI

VERA PAVLOVNANING TO'RTINCHI TUSHI

Vera Pavlovna tush ko'rganmish, tushida:

Uzoq-uzoqlardan unga tanish, hozir juda ham tanish bo'lib qolgan ovoz eshitilib, tobora yaqinlashib kelayotganmish, –

Wie herrlich leuchtet
Mir die Natur!
Wie glänzt die Sonne!
Wie lacht die Flur![1]

Vera Pavlovna tushida shularni, hadeb shularni ko'rganmish...

Ekinzorlar oltinday tovlanarmish; dalalar gullarga to'lganmish, tevarak-atrofni o'rab olgan butazorda yuzlab, minglab gullar qulf urib ochilib yotganmish; butazorlar ortidagi ko'm-ko'k o'rmon shivirlab turganday bo'larmish, butun o'rmon chaman-chaman gul bilan to'lganmish; ekinzorlardan, butazorlardan, gullar barq urib ochilib yotgan o'rmonlar xushbo'y hid ufurib turarmish; daraxtlardagi qushlarning chag'ir-chug'ur ovozi xushbo'y hidga aralashib ketarmish. Ekinzorlar, pichanzorlar, butazorlar va o'rmonlarning ortida yana xuddi shunday oltinday tovlanuvchi ekinzorlar, gullar mavj urgan pichanzorlar, gulga to'la butazorlar,

---

[1] Atrofimda tabiat
Bahrim ochadi.
Quyosh qizarib, o'tloq –
Xanda sochadi.
(Gyotening «May qo'shig'i» she'ridan)

o‘rmonlar cho‘zilib ketganmish. O‘rmonlar quyosh nuriga g‘arq bo‘lgan tog‘larning etaklarigacha cho‘zilib ketganmish, shu tog‘ tepalarida unda-munda oppoq, kumushrang, tillarang, qirmizi, tiniq bulutlar tovlanib, ufqning zangori osmoniga sal soya tashlab turganmish; quyosh chiqib, shodlanarmish, bundan tabiatning ham vaqti chog‘mish, olamga nur va iliqlik, muattar hid va kuy taralganmish, bular dilga muhabbat, rohat bag‘ishlarmish; shodlik va huzur-halovat qo‘shiqlari, mehr-muhabbat kuylari buloqday qaynab-toshib turarmish. «Oh, diyor! Oh, rohat-farog‘at! Oh, muhabbat, shu tog‘lar cho‘qqisidagi tong bulutlari singari go‘zal, oltin muhabbat!»

O Erd'! O Sonne!
O Glück! O Lust!
O Lieb', O Liebe,
So goldenschön.
Wie Morgenvolken
Auf jenen Höh'n[1].

– Endi kimligimni bilgandirsan? Go‘zalligimni ko‘rdingmi? Lekin butun chiroyimdan sening xabaring yo‘q, hech biringiz buni hali bilmaysiz. Nimalar bo‘lgani, nimalar bo‘layotgani va nimalar bo‘lajagiga nazar tashla. Quloq sol, qara:

Wohl perlet im Glase der purpurne Wein,
Wohl glänzen die Augen der Cäste...[2]

Tog‘ etagidagi o‘rmon chekkasida gullab turgan butazor xiyobonlar o‘rtasida bir saroy qad ko‘tarib turganmish.

– Yur, shu yoqqa.

Ular yuribmas, uchib borishayotganmish.

---

[1] E diyor, e quyosh,
E nur, e xandon!
Muhabbat, sevgi
Tog‘ cho‘qqisidagi
Tong buluti yanglig‘
E, zarbop nur.
(Gyotening «May qo'shig'i» she'ridan)

[2] Qadahlar limmo-lim qirmizi sharbat,
Ishrat ahlin chaqnar ko‘zlari.
(Shillerning «To'rt asr» she'ridan)

Bazmi jamshidmish. Qadahlarda sharob ko'pirib turganmish; bazm ahlining ko'zlari chaqnarmish. Shovqin-suron, shivir-shivirlar, qo'l olib ko'rishishlar eshitilib turar emish. «Qo'shiq bo'lsin, qo'shiq! Qo'shiq bo'lmasa ko'ngil to'lmaydi!» – deyisharmish. Bir shoir o'rnidan turibdi. Uning yuz-ko'zlari, fikr-xayolida ilhom jo'sh urib turganmish, uni tabiat, o'z sirlaridan ogoh etib, tarix o'z ma'nosidan bahramand etganmish, ming yillar hayoti uning she'rlarida qator manzaralar shaklida namoyon bo'larmish.

1

Shoirning she'ri yangrab, ajib manzaralar namoyon bo'larmish.

Nomadlar[1]ning chodirlari. Chodirlar atrofida qo'y-qo'zilar, ot va tuyalar o'tlab yurganmish. Uzoqda zaytun va anjirzorlar. Undan ham narida, shimoli-g'arb tomonda, yerning ufqqa tutashgan joyida ikki qator baland tog' cho'qqilari ko'zga tashlanarmish. Tog' cho'qqilari qor bilan, yonbag'irlari kedr daraxtlari bilan qoplangan. Cho'ponlarning qaddi-qomati kedr daraxtidan ham chiroyli, xotinlari xurmo daraxtidan ham chiroyli, sarvqomat emish, ular rohat-farog'atda yashab to'kis hayot kechirarmish: ularning qiladigan ishi bitta emish, u ham bo'lsa sevgi emish, ular bir umr sevgi rohatini totib, sevgi qo'shig'ini kuylab o'tarmish.

– Yo'q, – dermish oy qiz, – bular mening ta'rifim emas, u zamonlarda men yo'q edim. O'shanda bu ayol cho'ri edi. Tenglik yo'q jonda men ham yo'qman. U malikaning nomi Astarta[2] edi. U malika mana, – dermish.

Go'zal bir xonim emish. Qo'llariga va oyoqlariga zalvarli oltin bilaguzuklar taqib olgan; bo'ynida oltin gardishli marvarid-u marjonlar; sochlariga xushbo'y mirra purkalgan. Yuzlarida qullarga xushomad, ko'zlarida bema'nilik belgilari sezilib turganmish.

«Xojangga itoat qil; bosqinchilik safarlari payti dam olganida, unga rohat baxsh etib tur; sen uni sevishga majbursan, chunki u seni sotib olgan, uni sevmasang o'ldirib yuboradi», dermish u oyog'i ostida xokisor yotgan ayolga.

– Ko'rdingmi, bu men emas, – dermish oy qiz.

---

[1] Nomadlar – ko'chmanchilar.

[2] Astarta – qadimgi Suriyada sevgi va noz-ne'mat ma'budasi.

2

Yana shoirning ilhombaxsh so‘zlari yangrarmish. Yangi manzara hosil bo‘larmish.

Bir shaharmish. Shimolda va sharq tomonda uzoq-uzoqlardan tog‘lar ko‘rinib turarmish, sharq va janubda uzoq-uzoqlarda, g‘arbga yaqin yerda dengiz ko‘rinarmish. Ko‘rkam shaharmish. Bu shahar uylari uncha katta emas, ko‘rinishi ham u qadar chiroyli emasmish. Lekin ajoyib qasrlar shu qadar ko‘pmishki! Ayniqsa tepalikdagi saroylar juda muhtasham, u yerga ulkan-ulkan darvozalar qurilgan bo‘lib, zinapoyalardan chiqib borilarmish: bu tepalik nuqul qasr-saroylar va jamoat binolari bilan to‘lamish, hozirgi zamon poytaxtlaridan eng go‘zalini yana ham chiroyli qilib, dong‘ini chiqarish uchun bu qasrdan bittasi kifoya emish. Ana shu saroylarga va shaharning ko‘p yerlariga minglab haykallar o‘rnatilgan bo‘lib, bulardan bittasi biron muzeyga qo‘yilsa, uni dunyoda eng zo‘r muzeyga aylantirarmish. Shahar maydonlaridagi, ko‘chalardagi xaloyiqning ko‘rkamligini aytmaysizmi, har bir yigit, har bir xotin-qiz shunchalik go‘zalmishki, haykal uchun nusxa bo‘lishga arzirmish. O‘zlari serg‘ayrat, tetik, xushchaqchaq, hayoti porloq xalqmish. Bu uylar tashqaridan qaraganda uncha chiroyli, dabdabali bo‘lmasa ham ichki bezaklari nihoyatda boy bo‘lib, ko‘rgan odamning aqlini shoshirib qo‘yar darajadamish: uy jihozlari, idish-tovoqlariga odamning havasi kelarmish. Bu nozikta’b, go‘zallikni yaxshi tushunadigan kishilar sevgiga, nafosatga nihoyatda o‘ch emish. Badarg‘a qilingan bir zot uni hokimlikdan ag‘dargan shaharga yana hokimlikni da’vo qilib kelayotgan ekan – buni hamma bilar ekan. Xo‘sh, unga qarshi bironta qo‘l ko‘tarilmas ekanmi? Bu go‘zal xonimlardan ham go‘zalroq, so‘lim bir ayol taxtiravonda podshoh bilan yonma-yon ketar ekan, uni xalqqa ko‘rsatib, qabul etinglar, deb iltimos qilar emish. Xalq ham xonimning go‘zalligi oldida lol qolib, hokimiyatni uning sevgilisi Pizistratga[1] tortiq etar emish. Sud qilishga to‘plangan sudyalar – salobatli, xomush boquvchi keksalarmish, xalq o‘ynab-

---

[1] Pizistrat – qadimgi yunon davlat arbobi, Afinada hokimiyatni qo‘lga olgan (eramizdan oldingi VI asrda): ikki marta Afinadan surgun qilingan.

kulaveradi, lekin sudyalarning o'yin-kulgi bilan ishi yo'q. Areopag[1] berahm-beshafqatligi, yuz-xotirni bilmaydigan qahri qattiqligi bilan nom chiqargan: ma'bud va ma'budalar uning huzuriga kelib, tiz cho'kib, hukmni kutmoqdalar. Qattiq jinoyatlari uchun hamma gunohkor deb bilgan ayol areopag huzuriga kelishi lozim: Afinani halok qilgan bu ayol jonidan judo bo'lishi kerak, sudyalardan har biri ko'nglida shunday qarorga kelgan; gunohkor hisoblangan Aspaziya[2] sudyalar huzuriga kelibdi, sudyalar jami uning oldida tiz cho'kib: «Seni sud qilish mumkin emas, sen juda ham go'zalsan!» – debdilar. Bu go'zallik saltanati emasmi? Bu sevgi saltanati emasmi?

– Yo'q, – dermish go'zal qiz, – men u vaqtda yo'q edim. Ular ayolga sig'inishardi-yu, lekin uni o'zlariga teng ko'rishmasdi. Ular ayolga sig'inishardi-yu, lekin uni faqat lazzat manbayi deb bilishardi: ular ayolning insonlik qadri-qimmatini hali tan olishmagandi! Qayerdaki xotin kishini inson bilib uni hurmat qilmasalar, u yerda men bo'lmayman. O'sha malikaning nomi Afrodita edi. O'sha malika mana menman, – dermish.

Bu malikaning hech qanday yasan-tusani yo'qmish, – uning qaddi-qomati shu qadar chiroyli emishki, oshiqlari malikamiz libos kiymasin, libosi uning go'zal qaddi-qomatini bizning mahliyo ko'zlarimizdan yashirib qo'ymasin, deyishar ekan.

U o'zi kabi go'zal bir ayolga, unga jonfidolik qilgan ayolga nima dermish, deng?

«Erkak uchun lazzat manbayi bo'l. U sening xojang bo'ladi. Sen o'zing uchun emas, uning uchun hayot kechirasan».

Uning ko'zlarida faqat jismoniy lazzat namoyon bo'larmish. U boshini g'oz tutib yurar, nigohida g'urur barq urarmish-u, lekin kelishgan qaddi-qomatiga mag'rurmish xolos. U podsholik qilgan zamonlarda ayollar qismati qanday bo'lganikin? Erkak zoti ayollarni egallab olgandan keyin, chiroyidan o'zimdan boshqa hech kim lazzatlanmasin, deb xotinini ichkaridan chiqarmagan. Xotin zoti erksiz edi. Ularda boshqa xil ayollar ham bo'lgan, ular o'zlarini erkin hisoblashardi-yu, lekin o'z chiroyini lazzat o'rnida sotishardi.

---

[1] Areopag – qadimgi Afinada oliy sud.

[2] Aspaziya – aqli va chiroyi bilan dong chiqargan yunon ayoli, uni Afinaning halok bo'lishiga olib kelgan Pelopones urushlariga (miloddan oldingi V asrda) sabab bo'lgan gunohkor deb hisoblashardi.

o‘z erklarini sotishardi. Yo‘q, ularda ham erk yo‘q edi. Bu malika yarim cho‘ri edi. Erkinlik yo‘q joyda baxt yo‘q, u yerda men yo‘qman, dermish.

3

Yana shoirning ovozi yangrabdi. Yangi manzara hosil bo‘libdi.

Qasr oldidagi maydon. Tevarak-atrofi bashang kiyingan tomoshabinlar bilan liq to‘la amfiteatr. Maydonda ritsarlar, sahna tepasida, boloxonador qasr ayvonida bir qiz o‘tirganmish. Qo‘lida ro‘moli bormish. Kim g‘olib chiqsa, ro‘molini shunga hadya qilib, qo‘lidan o‘ptirarmish. Ritsarlar jon-jahdlari bilan olishayotganmish. Toggenburg g‘olib chiqibdi. «Ritsar, sizni egachimdek yaxshi ko‘raman. Mendan boshqa sevgi talab qilmang. Menga yaqin kelganingizda ham, uzoq ketganingizda ham yuragim urmaydi». – «Mening taqdirim hal», deb ritsar Falastinga jo‘nab ketganmish. Uning qahramonliklari butun nasroniylar o‘rtasida mashhur bo‘lganmish. Lekin u jon-dili bo‘lib qolgan malikasini ko‘rmay turolmas ekan. Qaytib kelibdi, janglarda ham ko‘ngli tasalli topmabdi. «Ritsar, eshik qoqmang, malikangiz uzlatda». Ritsar o‘ziga bir kulba yasab olibdi, kulba derazasi qizga ko‘rinmas ekan-u, qiz har kun ertalab hujra derazasini ochganda, ritsar derazasidan qarab qizni ko‘rib turarkan. Uning butun umri quyosh singari go‘zal bu qizning deraza oldida paydo bo‘lishini kutish bilan o‘tibdi: jon-dili bo‘lib qolgan malikasini ko‘rishdan boshqani hayot deb bilmabdi, umrining oxiriga qadar shundan boshqani bilmabdi; umri tugab, hayot uchquni so‘na boshlaganda ham deraza oldiga kelib, malikamni yana bir ko‘rsam, deb dunyodan o‘tibdi[1].

– Bu aslo men to‘g‘rimda emas, – dermish oy qiz. – Ritsar qiz bilan qovushguncha uni yaxshi ko‘rardi. Qiz unga qalliq bo‘lgandan keyin cho‘riga aylandi; avvallari qizni ko‘rganda shodligi ichiga sig‘may ketardi; endi bo‘lsa qizning ustidan qulf solib qo‘ydi, undan ko‘ngli qoldi. Ritsar ovga borar, jang-u jadallarga jo‘nab ketar, o‘rtoqlari bilan bazm qurar, aysh-ishrat qilardi, – xotinini tashlab, asir ustidan qulf soldi, undan hazar

---

[1] Bunda Shillerning «Ritsar Toggenburg» nomli balladasining syujeti bayon qilingan.

qildi. U zamonlarda bir erkak bilan yaqin bo'lgan ayolni boshqa erkak xotin qilmasdi. Yo'q, u zamonlarda men ham yo'q edim. U malikaning nomi «Ma'suma» edi. Mana o'sha malika.

Kamtar, muloyim, nozik, go'zal bir qiz emish, Astartadan ham chiroyli. Afroditaning o'zidan ham go'zal, lekin parishonxayol, g'amgin, vazmin emish. Hamma unga ta'zim bajo keltirib, guldasta tutarmish. U: «Qalbimda motam, yuragimga xanjar urilgan. Sizlar ham motam tuting. Sizlar baxti qoralarsiz. Bu dunyo – girya vodiysi», dermish.

– Yo'q, yo'q, men u zamonda yo'q edim, – dermish oy qiz.

4

Yo'q, u malikalar menga o'xshamasdi. Ular hammalari podsholik qilyapti, lekin barchasining hukmronligi barbod bo'lyapti. Har biri tug'ilganda oldingisining hukmronligi barbod bo'la boshladi. Men ulardan eng keyingisining hukmronligi barbod bo'la boshlagandagina tug'ilganman. Men tug'ilgandan buyon ularning hukmronligi tez, juda jadal inqirozga yuz tutdi, ularning butunlay barbod bo'lib ketishi muqarrar, – keyingisi ilgarilarining o'rnini bosolmadi, shu bilan ular uning yonida qoldi. Men hammasining o'rnini bosaman, ular yo'q bo'lib ketadi, butun dunyoga bir o'zim shohlik qilaman. Lekin ular mendan oldin hukmronlik qilishi lozim edi; ular hukmronlik qilmasa, menga navbat kelishi mumkin emasdi.

U paytlari kishilar hayvonsifat edi. Erkak zoti ayol husnini qadrlay boshlagandan keyin kishilar hayvonlikdan chiqdi. Lekin ayol kishi kuchda erkakdan zaifroq; erkak esa dag'al, qo'pol edi. U zamonlarda hamma narsani kuch hal etardi. Erkak zoti ayol kishini o'z mulkiga aylantirdi, husnining qadriga yetadigan bo'ldi. Xotin kishi erkakning mulkiga, uning buyumiga aylandi. Astarta podshohligi davrida shunday edi.

Erkak o'sib, kamolga yeta borgan sari, ayol kishining husnini ilgarigidan ko'proq qadrlaydigan, husniga sajda qiladigan bo'ldi. Lekin xotin zotining ongi hali o'smagandi. Erkak zoti ayolning husnini qadrlardi xolos. Ayol zotining o'ylaydigan narsalari erkakdan eshitgan narsalari edi xolos. Erkak bo'lsa, faqat men insonman, sen inson emassan, deb keldi, shu bilan xotin kishi o'zini erkakning chiroyli, qimmatbaho buyumi deb bilib keldi, – u hali

o‘zini inson deb hisoblamasdi. Bu – Afrodita hukmronlik qilgan davr edi.

Lekin shu o‘rtada xotin kishi, men ham insonman-ku, deb o‘ylab qoldi. U o‘zining insonlik qadr-qimmatini sal-pal anglay boshlagan zamoniyoq butun vujudini dard, alam qamradi! Chunki u hali inson qatoriga kiritilmagandi. Erkak zoti hali xotin kishini cho‘ri deb emas, do‘sti deb bilgisi yo‘q edi. Xotin kishi ham er zotiga, senga do‘st bo‘lgim yo‘q, dedi! Shundan keyin xotinga ehtiros erkakni yolvorishga va erkaklik g‘ururidan tushishga majbur qildi, shu bilan u ayol kishini inson o‘rnida ko‘rmasligini yodidan chiqardi, hech kim daxl qilmagan, ma’suma qizga mehr qo‘ydi. Qiz uning yolvorishlariga uchib, erkakka yaqinlashishi bilanoq boshiga balo orttirdi! Qiz erkakning qo‘liga tushdi, uning qo‘llari qizning qo‘llaridan kuchliroq, o‘zi o‘lguday qo‘pol edi, oqibati shu bo‘ldiki, qizni u o‘ziga cho‘ri qilib olib, unga past nazar bilan qaradi. Qizning sho‘ri quridi! Bu ma’suma qizning g‘am-alam ichida yashagan davri.

Lekin zamonlar o‘tdi; egachim, – sen uni bilasan, – mendan oldin ko‘zingga ko‘ringan opam bilib ishini qildi. U hamisha hozir-u nozir edi, u hammadan oldin hozir bo‘lgandi, odamzod paydo bo‘lganda u hozir edi, u hamisha tinmay ishladi. Juda og‘ir kunlarni boshidan kechirdi, maqsadiga yetishi juda qiyin bo‘ldi, lekin tinmay ishladi, qo‘lga kiritiladigan yutug‘i ortib boraverdi. Erkakka tobora aql kirdi, xotin kishi tobora qaddini rostlab, erkak bilan tengligini angladi, – vaqti-soati yetib, men dunyoga keldim.

Yaqinda shunday edi, ha, yaqinginalarda ahvol shunday edi. Mening dunyoga kelganimni birinchi bo‘lib sezib, boshqalarga darak bergan kimligini bilasanmi? Russo o‘zining «Yangi Eloiza»sida[1] darak berdi. Kishilar dastlab men to‘g‘rimda shu asardan, uning kalomidan eshitishgan.

O‘sha paytdan boshlab saltanatim kengaymoqda. Men hali ham ko‘plarni o‘z hukmim ostiga olganim yo‘q. Lekin saltanatim tez zo‘rayib boryapti, butun dunyoga hokimlik davrim qachon kelishini o‘zing ham oldindan aytib berishing mumkin. Ana o‘shanda mening

---

[1] Fransuz yozuvchisi Jan-Jak Russo (1712–1778) o‘zining «Yangi Eloiza» degan romanidagi qahramon ayol obrazida xotin zotida insonlik qadr-qimmatini his etish tuyg‘usi uyg‘onganligini ochib berdi.

qanchalik go‘zalligimni odamlar tamomila his etadilar. Endilikda hukmronligimni tan olganlar hali irodamga bo‘ysunishdan ojizdirlar. Ularni mening irodamga g‘araz bilan qarovchilar ommasi o‘rab olgan. Agar u odamlar mening irodamni bilib, to‘la-to‘kis rioya qilsalar, omma ularni qon qaqshatib, hayotini zahar-zaqqumga aylantirib yuborardi. Men esa baxt-saodat bo‘lsin deyman, hech kim hech bir azob-uqubat tortmasin, shu sababdan ularga: o‘zingizni qiynoqqa solishlariga sabab bo‘ladigan ish qilmang, o‘zingizga zarar keltirmay, irodamdan qanchasini bila olsangiz, shunchasini bilib tursangiz bas, deyman.

– Men-chi, men seni to‘la-to‘kis bilsam bo‘ladimi?

– Ha, sen bilsang bo‘ladi. Sen baxtiyorsan. Qo‘rqadigan yering yo‘q. Istagan ishni qila olasan. Agar sen irodamni to‘la-to‘kis bilsang, irodam senga biror zarar yetkazishni xohlamaydi; meni bilmaganlar seni qiynashiga sabab bo‘ladigan narsalarni orzu qilishlarining hojati yo‘q, buni orzu qilmaysan ham. Hozirgi kuningdan ham juda mamnunsan; boshqa hech kim haqida, boshqa hech nima haqida o‘ylayotganing yo‘q, o‘ylamaysan ham. Butun sirimdan seni xabardor qilishim mumkin.

– Kimligingni ayt, ilgarigi malikalarning nomini aytding-u, o‘zing kimligingni hali hech qachon aytganing yo‘q.

– Kimligimni bilmoqchimisan? Bo‘lmasa, menga qara, gapimga quloq sol.

5

– Menga qara, gapimga quloq sol. Ovozimni tanidingmi? Yuzimni ko‘rsang taniysanmi? Yuzimni o‘zi ko‘rganmisan?

Yo‘q, hali uni sira ko‘rgan emas. Nega uni ko‘rganday bo‘lib turgan ekan? U bilan hamsuhbat bo‘lganiga bir yil bo‘ldi, shundan buyon erkakning ayolga qarashlarini, ayolni, bu oy qiz uni tez-tez ko‘rib turishini, ayol erdan yuzini yashirmaganday, oy qiz ham bu ayoldan yuzini yashirmasligini, uning ko‘z o‘ngida barala namoyon bo‘lishini ko‘rib turadi.

– Yo‘q, sen bilan ko‘rishgan emasman, yuzingni ko‘rgan emasman; shunchaki ko‘z oldimda namoyon bo‘lib qolarding, shunda seni ko‘rardim, lekin nurga cho‘mib kelarding, ko‘rol-

masdim, go‘zallar go‘zali ekanligingni bilardim xolos. Ovozingni eshitardim, ovozing hammanikidan shirinligini bilardim xolos.

– Bo‘lmasa, qara, sen uchun hozir bir daqiqaga nur gardishimni siyraklashtiraman, hamisha jozibador qilib yurgan ovozimni hozir sen uchun bejoziba eshittiraman; sen uchun bir daqiqa malikaligimni ham tark etaman. Ko‘rdingmi, eshitdingmi? Bas, endi men malikaman, endi umrbod malikaman.

U yana boshdan oyoq nur yog‘dusiga cho‘mdi, ovozi yana shavq-zavqli mayin tus oldi. O‘zini tanitish uchun bir daqiqa malikaligini tark etganda esa, bunday qilishi mumkin edimi? Ajabo, Vera Pavlovna nahotki u siymoni ko‘rgan, bu ovozni eshitgan bo‘lsa?

– Ha, shunday, – dermish malika, – kimligimni bilmoqchi eding, bilib olding. Ismimni bilmoqchi eding, lekin namoyon bo‘layotgan o‘zimdan bo‘lak ismim yo‘q, mening ismim – uning ismi; kimligimni esa ko‘rding. Insondan ulug‘ hech narsa yo‘q, ayoldan a’lo hech narsa yo‘q. Men kim bo‘lsam o‘shaman, sevguvchiman, sevgiliman.

Vera Pavlovnaning ko‘rgani rost: o‘sha o‘zi, o‘sha o‘zi, lekin u ma’buda. Ma’buda siymosi uning jonli siymosi, uning siymosi kamolot darajasidan hali juda uzoqda, har kuni u qanchadan qancha bu siymodan ham go‘zal siymolarni ko‘rib turadi; bu ko‘rgani – uning siymosi, uning siymosida muhabbat nuri yog‘ilib turadi, qadimgi zamon haykaltaroshlari va buyuk rassomlik san’ati davrida ijod qilgan buyuk san’atkorlar tasvir-u tavsif etgan jami go‘zallar go‘zalidan ham go‘zal siymo, bu siymo uning o‘zi, lekin unda sevgi nuri porlab turadi, lekin ko‘rkka juda kambag‘al Peterburgda undan ham go‘zal yuzlab siymolar bor, shunday bo‘lsa ham u Afrodita Luvrskayadan ham go‘zal, dong‘i dunyoga ketgan hamma go‘zallar go‘zalidir.

– O‘zing qanday bo‘lsang, oynada o‘zingni shu taxlitda, mensiz ko‘rib turibsan. Sevgan yoring ko‘ziga sen qanday ko‘rinsang, oynada ham meni shu taxlitda ko‘rib turibsan. Uning nazarida men sen bilan birga qo‘shilib ketaman. Uning nazarida mendan go‘zali yo‘q; uning nazarida, jami kamolot cho‘qqisi ham sening oldingda ip esholmay qoladi. Shundaymi?

Shunday, oh, nimasini aytasan!

Endi kimligimni bilgandirsan; bilib qo'y, men...

Astartada mavjud tuyg'u lazzati menda bor: Astarta – uning o'rnini bosgan biz jami malikalarning ajdodi edi. Afroditadagi husn xayolotiga maftunlikni men meros olganman. «Ma'suma»ning poklikka ixlosmandligi menga ko'chgan.

Lekin bu fazilatlar hammasi menda ulardagiday emas, menda bu fazilatlar to'laroq, oliyroq, kuchliroqdir. «Ma'suma»ning fazilati menda Astarta fazilati bilan ham, Afrodita fazilati bilan ham birga qo'shilib jamlangan. Bu kuchlardan har biri menda boshqa kuchlar bilan qo'shilib, ittifoq tufayli yana ham qudratli, yana ham xayrli tus olgan. Lekin menda mavjud bo'lib, ilgarigi malikalardan birontasida ham bo'lmagan bu yangi fazilat shu kuchlardan har biriga ham ko'proq qudrat va ajoyib kuch bag'ishlaydi. Mendagi bu yangi – meni ulardan ajratib turadigan fazilat oshiq-ma'shuqlarning teng huquqli bo'lishi, bir-birlarini inson bilib teng ko'rishidir, shu bir yangi fazilat tufayli men ulardan ko'ra ko'proq, juda ham go'zal xislatlarga ega bo'ldim.

Erkakki xotin kishini huquqda o'zi bilan teng bilsa, xotin kishini o'z mulki deb qarash odatini tashlaydi. U vaqtda erkak ayol kishini sevish uchungina qanchalik yaxshi ko'rsa, ayol ham erkakni shunchalik yaxshi ko'radi, agar bordi-yu ayol zoti erkakni yoqtirmasa, erkakning xotin kishiga hech qanday haqi bo'lmaydi, xotinning ham erkakka haqi bo'lmaydi. Bu jihatdan menda erkinlik mujassamdir.

Huquqda tenglik va ozodlik tufayli ilgarigi malikalarda ham bo'lgan fazilatim yangi bir tusga kirib, oliy latofat kashf qildi, bu shunday latofat bo'ladiki, mengacha hech kimda bunday latofat bo'lgan emas, mengacha bo'lgan fazilatlarning hammasi bu latofat oldida hech narsa bo'lmay qoldi.

Menga qadar bir kamol tuyg'u lazzati nimaligini bilmas edilar, sababi, oshiq-ma'shuqning bir-biriga mayli erkin emas ekan, har birining lazzati ham hurmatga loyiq, pok bo'lmaydi. Menga qadar husnni tomosha qilib to'yish, degan narsani bilishmas edi, sababi, agar husn o'zini o'z mayli bilan namoyon etmasa, uni tomosha qilib topgan lazzating pok bo'lmaydi, erkin mayl va lazzat yo'q ekan,

shavq-zavq ham mendagi shavq-zavq oldida hech narsa bo‘lmay qoladi.

Mening pokligim faqat badan pokligidan bahs ochgan «ma’suma»dan ham pokroqdir; mening dilim pok. Men ozodman, chunki menda aldash yo‘q, ayyorlik yo‘q, his qilmagan narsamni gapirib ham o‘tirmayman.

Ammo mendagi yangilik – ilgarigi malikalarda bo‘lgan fazilatga oliy darajali go‘zallik bag‘ishlaydigan yangilikning o‘zi – hammadan a’lo, go‘zal fazilatdir. Xojasi xizmatkori yonida o‘zini erkin his qilmaydi, xizmatkori xojasi yonida qisilib-qimtinib o‘tiradi; inson o‘z tengi bilan o‘zini erkin his qiladi. Ko‘p jihatlardan o‘zingdan past odam bilan zerikib qolasan, teng tengi bilan bemalol shod-u xurram. Shu sababdan, mengacha barkamol sevgi baxti, saodati nimaligidan erkak kishi ham bexabar edi; menga qadar erkak kishilarda bo‘lgan his-tuyg‘ularni baxt deb aytishga arzimaydi, bu bir daqiqa sarxushlik edi xolos. Xotinlar-chi, menga qadar xotinlarning ahvoliga maymunlar yig‘lardi! U zamonlarda ayollar birovga qaram, cho‘ri edi; ayol zotining kuni qo‘rquvda o‘tardi, menga qadar xotin zoti sevgidan bexabar edi: qo‘rquv bor joyda sevgi bo‘lmaydi.

Shu sababdan, agar mening nimaligimni bir so‘z bilan ifoda qilmoqchi bo‘lsang, bu huquqda tenglik deganidir. Busiz husnga mahliyo bo‘lish bema’nilik, dilsiyohlik, ifloslikdir; busiz dil pok bo‘lmaydi, tan pokligini ko‘rib kishi aldanadi xolos. Shu tufayli, shu tenglik tufayli men ozodman, ozodlik yo‘q joyda men yo‘qman.

Senga hamma gaplarimni aytdim, hozir qandayligimni boshqalarga ham aytishing mumkin. Lekin hozircha saltanatim kichik, fuqarolarimni hali meni bilmaydiganlarning bo‘htonlaridan saqlashim kerak, bor irodamni hali hammaga izhor etishim mumkin emas. Saltanatim hamma kishilar ustidan hokimlik qilganda, hamma kishilar o‘zi go‘zal, dili pok bo‘lganda, o‘shanda butun irodamni izhor etaman, o‘shanda butun husni jamolimni hammaga namoyon qilaman. Lekin sen o‘zing, ayniqsa taqdiring baxtiyor; hozirgiday oz-moz kishilar emas, hamma meni o‘z malikasi deb tan olishga munosib bo‘lganda menda nima yuz berishini senga aytib, hozir seni xijolat qilmoqchi, ziyon yetkazmoqchi emasman. Kelajagim sirlarini yolg‘iz o‘zingga aytaman. Siringni ochmayman, deb qasamyod qilda, quloq sol.

7

.....

.....

8

– E sevgilim, butun irodangdan endi xabar topdim; shunday irodang borligiga ko‘zim yetadi; lekin qay tusda namoyon bo‘ladi? Unda kishilar qanday yashaydi?

– Buni bir o‘zim hikoya qilib berolmayman, bunda allaqachon huzuringga borgan opam menga yordam berishi kerak. U ham shohim, ham mulozimim. Meni nima qilsa, ixtiyori unda; lekin opam menga xizmat qilyapti. Opajonim, yordam ber, dermish.

Egachilar egachisi, kuyovlar qallig‘i hozir bo‘larmish.

– Salom, opajon, – dermish u malikaga, singilginam, sen ham shu yerdamiding? – dermish u Vera Pavlovnaga. – Tarbiyalab voyaga yetkazgan malikam hamma ustidan hukmron bo‘lganda, inson zoti qanday hayot kechirishini bilmoqchimisan? Mana, qara, – dermish.

Nihoyatda ulkan bir bino turganmish. Bunday binolar hozir eng katta poytaxtlardagina bor, lekin ko‘p emas, – yo‘g‘-e, hozir bironta ham yo‘q! Bino ko‘m-ko‘k ekinzorlar, pichanzorlar, bog‘-u bo‘stonlar o‘rtasida qad ko‘tarib turganmish. Ekinzorlar – o‘zimiz ekkan g‘allamiz ekan, lekin bizdagiday emas, juda qalin, serhosil emish. Bu nima, bug‘doymi? Bunday bug‘doy boshoqlarini ko‘rgan bormi? Bunday bug‘doy donini ko‘rgan bormi? Bunday bug‘doy boshoqlarini hozir faqat gulxonalarda yetishtirish mumkin. Bu dalalar – bizning dalalarimiz; lekin bu gullar hozir gulzorlarimizdagina bor. Bular – limon va apelsin, shaftoli va olxo‘ri daraxtlari, bular ochiq havoda qanday o‘sarkin? Ha-ya, tevarak-atrofi qator ustunlar, yozda ochib qo‘yishibdi, ha, yozda ochib qo‘yiladigan gulxonalar. Daraxtzorlar – bizning daraxtzorlarimiz: eman va arg‘uvon, zarang va qayrag‘och daraxtlari, bular bizdagi daraxtzorlarday; ularni o‘rnilatib parvarish qilarkan, bitta ham kasal tekkan daraxt yo‘g‘-a, lekin o‘sha o‘zimiz bilgan daraxtzorlar, – faqat shular hozirgi daraxtzorlar singari saqlanib qolgan. Mana bu bino – bu qanday imorat bo‘ldi,

arxitekturasi qaysi usulda ekan? Hozir bunday arxitektura yo‘q; hozir bunday me’morchilikdan nishona qolgan xolos, – u ham bo‘lsa Saydengam tepaligidagi saroy[1] nuqul cho‘yan va shishadan yasalgan. Yo‘q, nuqul cho‘yan va shishamas: binoning sirti, tashqi devorlari shunday, ichkarisida juda katta uy bor: bu cho‘yan va billur bino shu uyni go‘yo g‘ilofday qoplab turarkan; uyning tevarak-atrofida har bir qavatida keng oynaband ayvonlari bor. Ichkarigi uyning arxitekturasi qanday bejirim, derazalari orasidagi devorlari juda tor, – derazalari katta, keng, har qavatini yuqoridan pastgacha enlab turibdi! Uyning tosh devorlari xuddi bir qator pilyastraday[2], oynaband ayvonga qaragan katta derazalarning romi ekan. Poli va shiftlari-chi? Eshik va derazalarining romlari nimadan yasalgan? Kumushmi? Platinami? Anjomlari ham shunday, – ko‘ngil uchun, chiroyli bo‘lsin, deb nuqul yog‘och anjom qo‘yishibdi, qolgan anjomlar, uy shiftlari, pollari nimadan? «Mana bu kursini qo‘zg‘ab ko‘r-chi», deydi katta malika. Bu metall anjom yong‘oqdan yasalgan anjomlarimizdan yengil. Lekin bu qanday metall bo‘ldi? Ha, esimga tushdi, Sasha menga bir vaqt shunday bir taxtacha ko‘rsatgandi, oynaday yengil, hozir shunday zirak, to‘g‘nag‘ichlar ham bor; bir kun kelib yog‘och o‘rnini aluminiy oladi, tosh o‘rnini ham bossa ajabmas, degandi Sasha. Muncha ko‘rkam, salobatli! Hamma yoq aluminiydan yasalgan, qayoqqa qarasang aluminiy, derazalarning o‘rtasiga, devorlarga katta-katta ko‘zgu o‘rnatilgan. To‘shalgan gilamlarni aytmaysizmi! Bu zal polining yarmi ochiq qoldirilibdi, aluminiydan yasalganligi ko‘rinib turibdi. «Mana bu yer poli sal g‘adir-budur, sirg‘anchiq bo‘lmasin, deb shunday qilingan, – bolalarning, ular bilan kattalarning ham o‘yin qiladigan joyi; narigi zalda ham polga gilam yoyilmagan, bunisida raqs tushadilar». Hamma yoqda doimo yashil janub daraxtlari-yu gullar; butun binoni bamisoli kattakon qishki bog‘ deysan kishi.

Saroylardan ham hashamati zo‘r bu binoda kim istiqomat qiladi? «Bu istiqomat qiluvchilarning sanog‘i yo‘q, qani, ichkariroq kiraver-

---

[1] Saydengam – Londonning shimol qismida – 1831-yilda Butun dunyo ko‘rgazmasi munosabati bilan shisha va temirdan, «billur saroy» qurilgan edi. Bu saroyda qishki bog‘ va kamdan kam uchraydigan janub o‘simliklari o‘zib, yashnab turardi.

[2] Pilyastra – bu tomoni peshtoqni ko‘tarib turuvchi to‘rtburchak ustun.

chi, o‘zlarini ham ko‘ramiz». Ular oynaband ayvonning yuqori qavatidagi shiypon tomon qarab yurishdi. Vera Pavlovna buni ilgari nega ko‘rmagan ekan? Ekinzorlarda odamlar ish bilan band; hamma yoqda erkaklar, ayollar, keksa-yu yoshlar birga ishlayapti. Yoshlar ko‘proq, chollar kam, kampirlar undan ham oz, bolalar qariyalardan ko‘proq, lekin uncha ko‘p emas. Bolalarning yarmidan ko‘prog‘i uy-ro‘zg‘or ishlari bilan band bo‘lib qolgan; uy-ro‘zg‘or ishlarining hammasi deyarli bolalar zimmasida, ular dalada jon deb ishlashadi, bir necha kampir ham ular bilan uyda qolgan. Chol-kampirlarning ozligiga sabab, bu yerda kishilar ancha kech qariydi, odamlari sog‘lom, hayotlari ham tinch kechadi; shu sababdan ham ular hamisha bardam, tetik. Ekinzorlarda to‘p-to‘p bo‘lib ishlayotgan kishilarning og‘zidan qo‘shiq uzilmaydi; nima ish qilishyapti? Bildim, xirmon ko‘tarishyapti. Ishning ildam ketishiga qarang! Nega ildam ketmasin, nega qo‘shiq aytishmasin! Hamma ishni mashina bajaradi, desa bo‘ladi: o‘radi, bog‘laydi, tashib ham beradi; odamlar mashinalarni boshqarishadi xolos. Qulay yo‘lini topishganiga nima deysan: jazirama issiq, lekin ular pisand qilmaydi: odamlar ishlab turgan ekinzorning bir chetiga kattakon chodir tortilgan; bir joydagi ishni tamomlab, boshqa joyga ko‘chganlarida chodir ham birga ko‘chib yuradi, xullas, ishlaydigan joylarini salqin qilib olishgan! Shunday bo‘lgandan keyin, ishlari nega tez ketmasin, nega o‘ynab-kulishmasin! Nega qo‘shiq aytishmasin! Bular yonida men ham jon deb o‘roqchilik qilardim! Qo‘shiqning keti uzilmay bir-biriga ulanib ketadi, – yangi-yangi ohori to‘kilmagan qo‘shiqlar; bizning qo‘shig‘imiz ham eslariga tushib qoldi; bu qo‘shiqni men bilaman:

Ikkovimiz to‘kis yashaymiz;
Bu kishilar bizga do‘st-yor –
Nimaiki ko‘ngling tusasa,
Shular bilan topaman, dildor...[1]

Ish tugab, hamma boyagi binoga qarab yo‘l oldi. «Yana zalga qaytib, qanday ovqatlanishlarini ko‘ramiz», dermish opasi. Ular katta zallarning eng kattasiga kirishdi. Zalning yarmiga

[1] A.V. Kolsovning «Qochoqlar» she’ridan.

stollar qo‘yilgan, – stollar ustida to‘la ovqat, stollarning son-sanog‘i yo‘q! Bu yerda qancha kishi ovqatlanarkin? Chamasi, mingga yaqin kishi ovqatlansa kerak, yo ko‘proqmikin? «Hamma bu yerda ovqatlanmaydi; xohlaganlar o‘z uyida ovqatlanadi», ovqatni dalaga chiqmay, shu yerda qolgan chol-kampirlar, bolalar tayyorlagan. «Ovqat pishirish, uy-ro‘zg‘or ishlariga qarash, uy yig‘ishtirish – boshqalar uchun juda yengil ish, – deydi opasi, – bularni boshqa ish hali qo‘lidan kelmaydiganlar yoki boshqa biron ish qilolmay qolganlar bajarishi lozim». Idish-tovoqlarni ayting, hammasi aluminiy va billurdan; serbar stollarning o‘rtasiga vazalarda guldastalar qo‘yilgan; ovqat suzilib, stol ustida taxt qilib qo‘yilgan; ishdan qaytganlar ham, ovqat pishirganlar ham zalga kirib dasturxon atrofiga o‘tirishdi. «Kim mulozimlik qiladi? Qachon? Ovqat vaqtidami? Nima hojati bor? Hammasi bo‘lib besh-olti xil ovqat: issiq ovqat sovumasin deb, ko‘ryapsanmi, chuqurroq idishlarga, qaynoq suvli yashiklarga qo‘yilgan, – deydi opasi. – Sening ham turmushing yaxshimi, ko‘ngling mazali ovqatlarni tusaydimi, dasturxoningda tez-tez shunday ovqatlar bo‘lib turadimi?» – «Yilda bir necha marta». – «Bularning har kuni yeydigan ovqati shu; xohlagan kishi bilan ham yaxshiroq, ko‘ngli tortgan ovqatini yeyishi mumkin, u vaqtda alohida hisob-kitob qilinadi; hamma uchun tayyorlangan ovqatdan boshqa alohida ovqat talab qilmaydiganlar uchun hech qanday hisob-kitob yo‘q. Hamma narsa shunday: sherikchilik pul hisobidan yegan ovqatlari hammasi shu hisobdan ketaverdi: alohida yoki ko‘ngli tusagan narsasi uchun alohida hisob-kitob».

«Nahotki shu odamlar o‘zimiz bo‘lsak? Bular bizning yerimizmi? Qulog‘imga tanish qo‘shig‘imiz chalindi-ya, ular rus tilida gaplashyapti-ku». – «Ha, sen ko‘rib turgan ana-vi daryo – Oka; bular o‘z kishilarimiz, axir, sen bilan turgan men, rusman!» – «Bularning hammasini sen bunyod qilgan-misan?» – «Bular hammasi men uchun yaratilgan, bularga men ilhom berganman, bularni kamolotga men ilhomlantirib turaman, lekin bu ishlarni anavi opam bajo keltiradi, u mulozimlik qiladi, men faqat rohatini ko‘raman». – «Hamma ham shundan hayot kechiradigan bo‘ladimi?» – «Hamma, – deydi opasi. – Hamma uchun umrbod bahor va yoz bunyod etiladi, hamma mangu rohatda

yashaydi. Lekin biz senga kundalik ishimizning faqat birinchi yarmini va ikkinchi yarmining faqat boshlanishini ko'rsatdik; biz yana, ikki oydan keyin bularni kechki payt ham ko'zdan kechiramiz».

9

Gullar so'ldi; xazonrezgi payt keldi; tabiat manzaralaridan husn keta boshladi. «Buni ko'rib kishining yuragi eziladi, o'rnidan turgisi ham kelmay qoladi, – deydi singlisi, – buni men yoqtirmayman». – «Zallar bo'm-bo'sh, dalada ham, bog'larda ham hech kim yo'q, – deydi opasi, – singlim malikaning ko'ngliga qarab shunday qildim». – «Saroy rostdan ham bo'shab qoldimi?» – Ha, bu yer sovuq, havosi nam, bu yerda istiqomat qilib turishning nima hojati bor? Bu yerdagi ikki ming kishidan hozir o'n-yigirma chog'li alomat tabiatli odamlar qolgan, bular shu tinch joylarda yolg'iz o'zlari shimol kuzini tomosha qilishga havas bildirishibdi. Oradan biroz vaqt o'tib qish boshlanishi bilan bu yerga odamlar serqatnov bo'lib qoladi, qishki sayohat ishqibozlari to'p-to'p bo'lib kelib, haftalab dam olib ketadilar».

«Ular hozir qayerda?» – «Qayer issiq va yaxshi bo'lsa, shu yerda, – deydi opasi, – yozda, ish ko'payib, ko'ngilli bo'lganda, bu yerga har toifa mehmonlar kelib turadi; biz ko'rgan uydagilarning hammasi o'z odamlarimiz edi; mehmonlar uchun juda ko'p uylar qurilgan, har xil toifadagi mehmonlar bilan mezbonlar birga istiqomat qiladigan uylar ham bor, har kim ko'ngli tortgan ulfat bilan turadi. Yozda sizlar ham talay mehmon va xasharchilarni kutasizlar-u, o'zingiz ham har yili yetti-sakkiz yomon oylarni ko'nglingiz tortgan joyda o'tkazish uchun janubga jo'nab ketasiz. Janubda ko'pchiligingizning borib turadigan maxsus uy-joylaringiz ham bor, u joylar Yangi Rossiya deb ataladi». – «Bular Odessa va Xerson tomonlarmi?» – «Bular sening davringda edi: hozir bunga qara, Yangi Rossiya mana bu yoqda».

Hamma yog'i bog'-bo'ston tog'larmish; tog'lar oralig'ida vodiylar, keng vohalar. «Bu tog'lar ilgari qup-quruq toshlar edi, – deydi opasi. – Endi ular qalin tuproq bilan qoplangan, ulkan-ulkan daraxtlar bog'larni bir-biridan ajratib, ko'm-ko'k bo'lib turarmish; pastroqda, namroq yerlarda qahva daraxtzorlari

o‘sarmish, undan yuqoriroqda xurmo daraxtlari, anjirzorlar; shakarqamishzorlar bilan yonma-yon uzumzorlar; ekinzorlar orasiga bug‘doy ham ekilgan: ko‘proq sholi ekilganmish. «Bu qanday yer?» – «Biroz yuqori ko‘tarilsak, bu yer chegaralarini ko‘rasan». Uzoq shimoli-sharqda ikki daryo ko‘rinib turibdi-yu, bu daryolar Vera Pavlovna qarab turgan joydan sharqroqda bir-biri bilan qo‘shilishib ketgan; undan janubda, yana shu janubi-sharq tomonda keng va cho‘ziq ko‘rfaz bormish: janubdagi yerlar shu ko‘rfaz bilan uning g‘arbiy chegarasidagi cho‘ziq, tor ko‘rfaz o‘rtasiga borganda janub tomon tobora kengayib ketganmish. G‘arbdagi tor ko‘rfaz bilan shimoli-g‘arbda juda uzoqda ko‘rinib turgan dengiz o‘rtasida torgina yer bor emish. «Biz sahroning o‘rtasida turibmiz-ku», deydi hayron bo‘lib Vera Pavlovna. «Ha, ilgarigi sahro bo‘lgan joyning qoq o‘rtasida, hozir ko‘ryapsanmi, shimoldan – o‘sha shimoli-sharqdagi katta daryodan tortib to biz turgan joygacha cho‘zilib ketgan yer juda unumdor yerga aylantirilgan, bu yer bir zamonlar qanday unumdor bo‘lgan bo‘lsa, hozir yana o‘sha unumdorlik holiga qaytarilgan, eski zamonlarda «sut-u asal buloqlari qaynab turadi», deyilgan. Shimolda dengiz bo‘ylab ketgan shu yerlar hozir yana shunday hosildor yerlarga aylantirilgan. Ko‘ryapsanmi, biz ishga solingan yerlarning janubiy chegarasiga yaqin yerda turibmiz, bu yarimorolning tepalik qismi hali ham qumlik, unumsiz mo‘l holicha yotibdi, bir vaqtlar bu yarimorol butunlay quruq cho‘l edi, siz ruslar shu cho‘l-u biyobonlarni yil sayin janubga tomon surib boryapsiz. Boshqa mamlakatlarda ham shunday ishlashyapti: hamma uchun joy ham, ish ham topiladi, yerlari bepoyon, turmushlari farovon. Shimoli-sharqdagi katta daryodan janubga tomon yarimorolning qoq yarmigacha cho‘zilib borgan yerlar ko‘m-ko‘k bo‘lib, yashnab turibdi, bu yerlarning hammasida shimoldagiday, uch-to‘rt chaqirim joyda bittadan katta-katta imoratlar qad ko‘targan, go‘yo kattakon shaxmat taxtasiga behisob katta-katta shaxmat donalari terib qo‘yilganday». «Bu uylardan biriga kirib ko‘raylik-chi», deydi opasi.

Bu ham haligiday billurdan yasalgan juda katta saroy, uning ustunlari oppoq. «Bu ustunlarning aluminiydan yasalganiga sabab shuki, – deydi onasi, – bu yerda kun juda issiq bo‘ladi, oq narsa esa quyoshda kam qiziydi, cho‘yandan biroz qimmat tursa ham

bu yerlar uchun qulaymish. Ular yana bir narsa o‘ylab topishibdi: shu billur saroyning tevarak-atrofida uzoq-uzoqlarga cho‘zilgan qator-qator ingichka, lekin juda baland ustunlar bormish, bu ustunlar ustiga saroydan ham baland qilib, saroyning ustiga va uning yon-beriga yarim chaqirim keladigan joyga oq chodir tortilgan. «Bu chodirga hamma vaqt suv sepilib turadi, – deydi opasi, – ko‘ryapsanmi, har bir ustundan chodir yuqorisiga kichkina favvora otilib, atrof hamma vaqt salqin bo‘lib turadi; ko‘rdingmi, ular havo haroratini xohlaganlaricha o‘zgartiradilar». – «Jazirama issiq va quyoshli kunlarni yoqtiradiganlar-chi?» – «Ko‘ryapsanmi, huv uzoqda ayvon va chodirlar ko‘rinib turibdi. Har kim ko‘ngli xohlaganicha turishi mumkin; ko‘zlagan maqsadim shu, men faqat shu maqsad yo‘lida tinmay ishlayapman». – «Demak, shaharda turmoqchi bo‘lganlar uchun shaharlar ham qoldirilgan ekanda?» – «Bunday kishilar uncha ko‘pmas; shaharlar ilgarigidan kam qolgan, – aloqa bog‘lab turish va eng yaxshi gavanlardan mahsulot tashib keltirish uchungina qoldirilgan desa bo‘ladi, ba’zi joylarda aloqa markazi qilib qoldirilgan, lekin bu shaharlar ilgarigi shaharlardan katta va juda ko‘rkam; hamma bu shaharlarga ko‘ngil ochish uchun borib, bir necha kun turib keladi; shaharlarda aholining ko‘pchiligi hamisha o‘zgarib turadi, u yerga ish bilan borib turishadi, o‘shanda ham ozgina vaqtga borishadi». – «Doim shaharda turishni xohlaydiganlar-chi, ular nima qiladi?» – «Siz o‘z Peterburgingiz, Parijingiz, Londoningizda qanday yashasangiz, ular ham shunday turisha beradi, kimning kim bilan ishi bor? Birovlarning xohish-istaklariga kim ham qarshilik qilardi? Har kim xohlaganicha yashaydi, lekin juda ko‘pchilik – yuzdan to‘qson to‘qqizi, singlimiz bilan ikkimiz senga ko‘rsatayotganday kun ko‘radi, chunki bu yerda huzur qilib, rohatda yashashadi, foydasi ham bor. Endi, yur, saroyga boraylik: kun ham allamahal bo‘lib qoldi, ularni ko‘zdan kechirish payti».

«Yo‘q, men avval buni qanday qilib amalga oshirishganini bilmoqchiman». – «Nimani?» – «Unumsiz cho‘lni serhosil yerga aylantirishganini bilmoqchiman, axir yillik umrimizning uchdan ikki qismini shu yerda o‘tkazamiz-ku». – «Qanday amalga oshirishgan, deysanmi? Buning ajablanarli nimasi bor? Axir, bu bir yil yoki o‘n yilda bitgan ish emas, ishni sekin-asta yurgizib bordim. Shimoli-sharqdan – katta daryo bo‘ylaridan, shimoli-

g‘arbdan – katta dengiz sohillaridan tuproq tashidik, – ularning baquvvat mashinalari juda ko‘p, qumni ko‘chmaydigan qilib tuproq qilib shibbaladik, kanallar qazidik, suv chiqardik, yerlar ko‘kalamzorga aylangach, havoda ko‘proq nam paydo bo‘ldi; qadam-baqadam olg‘a qarab bordik, yilda bir necha chaqirimlab, ba’zan bir chaqirim olg‘a jildik, hozir janubga qarab borilayotgani singari, olg‘a qadam tashlab boraverdik, buning nimasi ajablanarli, deysan? Ularning did-farosati oshib bordi, ilgari hech foyda ko‘rmay yoki o‘zlariga zarar keltirib sarf qilgan ko‘p kuch va mablag‘larini endi o‘zlari uchun foydali ishga ishlatadigan bo‘lib olishdi. Men ham ishlab, ham ta’lim berayotganim bejiz emas. Kishilarning nimadan naf ko‘rishini fahmlab olishi qiyin bo‘ldi xolos, bu kishilar sening davringda hali juda yovvoyi, juda to‘pos, juda berahm, beaql, befarosat edi, men ularga tinmay ta’lim berib keldim; ularga aql kirib tushuna boshlaganlaridan keyin ishni bajarish ham oson bo‘ldi. Men qiyin narsani talab qilib oyoq tirab olmayman, buni o‘zing bilasan. Sen men uchun, men ko‘rsatganday ba’zi bir narsalar qilyapsan, – qani ayt-chi, shu yomonmi?» – «Yo‘q». – «Albatta, yomon emas, ishxonangni xotirla, mablag‘ingiz ko‘pmidi? Boshqalarnikidan ko‘proqmidi?» – «Yo‘q, qo‘limizda qanday mablag‘ bor edi deysiz?» – «Holbuki sening chevar qizlaring sizchalik mablag‘i bor boshqa korxonalardagi odamlardan o‘n marta qulayroq sharoitda hayot kechirishadi, hayotdan ko‘proq bahra olishyapti, qiyinchiligi bo‘lsa yuz karra kam.... Sening davringda ham odamlarning farovon, erkin kun kechirishi mumkinligini o‘zing isbot qilib berding-ku. Faqat aql-idrok bilan ish ko‘rsa, ishni yaxshi yo‘lga qo‘ya bilsa, mablag‘larni tejab-tergab sarf qilishni bilishsa bo‘lgani». – «Shundaylikka shundayku-ya; buni bilaman». – «Yana biroz u yoq-bu yoqlarga razm sol, sen allaqachon tushungan narsalarga kishilarning aqli yetadigan bo‘lgandan keyin biroz o‘tgach, ularning qanday hayot kechirishlarini ko‘rib qo‘y».

10

Bir uyga kirib borishibdi. Bu ham ulkan, ajoyib zal ekan. Oqshom tantanasi qizib o‘yin-kulgi avjiga mingan, kun botganga uch soatdan ko‘proq bo‘lgan payt ekan. Zal ichi yop-yorug‘, nima

bilan yoritilgan? Na qandil va na chilchiroq ko'rinadi; e, yorug' mana bu yoqdan tushib turgan ekan! Zalning gumbazsimon shiftiga o'rnatilgan katta taxta oynadan yorug' tushyapti, – albatta, shunday bo'lishi ham kerak; xuddi quyosh yog'dusi singari yorug' va mayin nur sochilib turibdi, – bu elektr-ku. Zalda mingga yaqin kishi bor, lekin bu zalga uch baravar ko'proq odam ham bemalol sig'ardi. «Mehmonlar kelganda, – deydi oy qiz, – zal bundan ham gavjum bo'ladi». – «Bu nima o'zi? Bal emasmi? Yo har kungi oddiy oqshom tantanasimi?» – «Albatta». – «Hozirgi kunlarda bunday ballar faqat podsholar saroyida bo'ladi, ayollarning kiyimi muncha shinam: ha, bu boshqa davrligi ayollar kiyimi bichimidan ham ko'rinib turibdi. Bizday kiyingan bir qancha xonimlar ham bor, ular farq qilib tursin, deb qiziqchilikka shunday kiyinishgandir; ha-ya, ular maynabozchilik qilib o'z kiyimlaridan o'zlari kulishyapti; boshqalar nihoyatda xilma-xil, bichimi sharqcha va janubcha yengil-boshlar kiyib olgan, hammalarining kiyimi biznikiga qaraganda juda serhasham; lekin ko'pchilik ayollar Afinada nazokat juda taraqqiy qilgan davrlarda yunon ayollarga rasm bo'lgan, mo'l qilib tikilgan kiyimda; erkaklarning kiyimlari ham keng, uzun qilib tikilgan mursak nusxa mantiya; bu xonaki rasmona kiyimlari bo'lsa kerak, ham odmi, ham chiroyli! Kishining qaddi-qomatiga yopishib, husn berib turadi, harakatlarini ulug'vor qilib ko'rsatadi. Sozandalarni aytmaysizmi, yuzdan ortiq erkak va ayol artist qatnasharkan, ayniqsa xorni aytsang-chi!» «Butun Yevropangizda o'nta ham bunday ovozi bor xonanda bo'lgan emas, bu zalning o'zida shunday xonandalardan yuztasini eshitib turibsan, boshqa zallarda ham shunchadan: hayot tarzi ilgarigiday emas, ular juda sog'lom va go'zal hayot kechiradi, ko'kraklari keng, ovozlari baland, tiniqligi shundan». Lekin sozandalar va xordagi kishilar doimo almashlab turadi: bir xillari ketib, o'rniga boshqalari keladi. Biri raqs tushgani ketsa, o'rniga boshqasi raqsdan keladi.

Oqshom tantanalarini, har kungi rasmona kechalarni, har kungi oqshomni shu taxlitda vaqtixushlik bilan o'tkazadilar, o'ynab-kuladilar, lekin odamzodning bunday zo'r ishtiyoq bilan yayrab vaqtixushlik qilganini biron vaqt ko'rganmidim? G'ayrati jo'sh urib turgandan keyin bular vaqtixushlik qilmay, kim qilsin? Bunday ishtiyoq bizga hali nasib bo'lmagan. Ertalab ular to'yib ishlab olishgan. Kishi to'yib ishlamasa, asablari ham rohatlanmaydi.

Endi oddiy kishilar xursandlikka imkon topganlarida rosa o‘ynab-kuladilar; ularning vaqtixushligi biznikidan yaxshiroq, jonliroq, odamning bahr-dili ochiladi; bizning oddiy kishilarimizda o‘yin-kulgi vositalari ularnikiga qaraganda kamroq: bularniki esa xohlagancha topiladi; ustiga-ustak bizning oddiy kishilarimiz ko‘ngil ochay, desa har xil musibat mahrumlik, azob-uqubatlari esiga tushib, ko‘ngli g‘ash tortib turaveradi, ertangi kun esiga tushadi, u kun ham shunday bo‘lishini o‘ylab xijolat bo‘ladi; bu o‘yin-kulgi muhtojlik va g‘am-g‘ussani bir lahza esdan chiqarishday gap bo‘ladi, – muhtojlik va g‘am-g‘ussani butunlay esdan chiqarib bo‘larkanmi? Ajabo, sahro qumi surilmaydimi? Ajabo, botqoqning sassiq qo‘lansa hidi cho‘l bilan botqoqlik o‘rtasidagi bir parcha havosi toza yerga o‘tib, uni ham buruqsatib yubormaydimi? Bundagilar esa na musibat, na muhtojlik va na g‘am-g‘ussani bilishadi: bu yerdagi odamlar xayolida mehr bilan qilinadigan erkin mehnat, noz-ne’mat, kayf-safogina bo‘ladi; bularning doimiy orzu-umidi shu taxlitda bo‘ladi. Bular ikkisini taqqoslash mumkinmi? Yana shunisi borki, bizning ishchilarimizning asablari juda chiniqqan, faqat shu vajdan ko‘p vaqtichog‘liklarga chidash berar, ularning asablari esa dag‘al, hech narsa kor qilmaydigan bo‘lib qolgan. Bundagilarning asablari ham bizning ishchilarimizning asabi singari pishiq, buning ustiga yana bizning ishchilarimizning asabi singari kamolotga yetgan va ta’sirchan bo‘lib qolgan; bular xushvaqtlik qilishdan oldin tayyorgarlik ko‘rishadi, sog‘lom, zo‘r ishtiyoq bilan ko‘ngil ochishadi, bizda bo‘lsa unday emas, kishi sog‘lom bo‘lsa va jismoniy mehnat qilib tursa, unda zo‘r ishtiyoq tug‘iladi, – bu kishilarning xislatlariga bizdagi benihoya nozik hissiyot ham qo‘shilgan; bizdagi ma’naviy kamolotga yetgan, baquvvat, zabardast ishchilarning jismoniy kamoloti ularda jam bo‘lgan; bas, shunday bo‘lgandan keyin, ularning xushvaqtligi, lazzat va rohati bizdagidan kuchli va shirin ekanligi turgan gap. Bular baxtli kishilar!

Yo‘q, chinakam xushvaqtlik nimaligini hali bular bilmaydi, chunki hozircha bunday xushvaqtlikka monand hayot yo‘q, unday kishilarning o‘zi yo‘q. Bunday xushvaqtlikning qadriga yetadigan kishilargina bemalol o‘ynab-kulishi, rohat lazzatini topishi mumkin! Sog‘-salomat, kuchga to‘lgan, qaddi-qomati kelishgan odamlar harakatlarida ulug‘vorlik, nigohida g‘ayrat va jasorat jo‘sh urib

turadi! Erkin mehnat qilib, erkin hayot kechiruvchi va rohatda yashovchi baxtiyor erkak-ayollar – baxti ochilgan, baxtiyor bo'lgan kishilardir!

«Bu katta zalda ularning yarmi vaqtixushlik qilyapti, yarmi qayoqda ekan?! – «Qolganlari qayoqda, deysanmi? – dermish malika, – ular har yerda; ko'plari teatrda, bir xillari aktyorlik qiladi, yana bir xillari sozanda, yana bir xillari – tomoshabin, har kim ko'ngli tusagan ishni qiladi; ko'plari auditoriyalarda, muzeylarda, kutubxonalarda, ba'zilari bog'larda sayr qilib yuribdi, dam olyapti, yo bo'lmasa bolalari bilan uylarida o'tiribdi, lekin ko'pi, hammadan ko'pi – bu mening sirim. Sen zaldagilarning yonoqlari qizarib, ko'zlari chaqnashini ko'rding; ularni men ergashtirib olib chiqdim, bu yerdagi har bir erkak, har bir ayolning uyi – mening dargohim, bu uylarda mening sirimni hech kim ochmaydi, eshik pardalari, chiroyli gilamlar ovoz o'tkazmaydigan qilib to'qilgan. Bu dargohda tinchlik va osoyishtalik hukm suradi, sir saqlanadi, biroz vaqtixushlik qilishsin, deb ularni men qaytarib olib keldim. Bunda men hukmronman. Bu yerning hukmroni menman. Bunda hamma narsa men uchun. Mehnat qilish – menga yangi his-tuyg'u berishdir, vaqtixushlik qilish – mening huzurimga kelish uchun tayyorgarlik ko'rishdir, mendan keyingi istirohatdir. Bunda men hayot murodiman, bunda – butun hayot menman.

11

«Singlim, malika, sen hayotdagi eng oliy baxt-saodatimsan, – dermish opasi, – lekin bunda har kim ko'ngli tusagan baxt-saodat mavjudligini o'zing ko'rib turibsan. Bunda kimning ko'ngli qanday yaxshi hayot tusasa, hamma shunday hayot kechiradi, bunda hammaga, har bir kimsaga to'la erk berilgan, erkinlik berilgan».

«Senga ko'rsatganlarimiz hali yaqin o'rtalarda sen ko'rganday to'la-to'kis kamol topmaydi. Sen hozir sezib turgan narsalaring to'la-to'kis ro'yobga chiqquncha bu dunyoga ko'p avlodlar kelib-ketadi. Yo'q, ko'p avlodlar emas: hozir ishim tezroq boryapti, yildan yilga tobora jadallashyapti, lekin shunday bo'lsa ham singlim to'la hukmronlik qiladigan olamga sen hali qadam qo'yolmaysan; har holda, uni ko'rib olding, kelajakni bilding. Kelajak porloq, juda go'zal. Sen hammaga, kelgusida bunday bo'ladi, kelajak porloq va

go‘zal, deb ayt. Kelajakni sevinglar, unga intilinglar, kelajak yo‘lida ishlanglar, uni yaqinlashtiringlar, kelajakdan qancha uddalasangiz, shunchasini hozirgi zamonga ko‘chiringlar: kelajakdan bugungi hayotingizga qanchasini ko‘chira olsangiz, hayotingiz shuncha porloq, shuncha quvnoq va shirin bo‘ladi. Kelajakka intiling, kelajak yo‘lida ishlang, uni yaqinlashtiring, undan hozirgi hayotga qo‘lingizdan kelgancha ko‘chiring».

XVII

Bir yildan keyin yangi ishxona bitib, taxt bo‘ldi. Ikkala ishxona bir-biri bilan juda aloqador bo‘lib, birini ishi boshidan oshib, ikkinchisining vaqti bo‘lganda birinchisi ikkinchisiga buyurtma berib turardi. O‘rtada hisob-kitoblari bor. Ular bir-birlari bilan yana ham yaqinlashishsa, Nevskiy prospektida do‘kon ochishga ham qurblari yetib qolgandi. Ishxonalarni shunday yo‘lga qo‘yib yuborguncha Vera Pavlovna bilan Mersalova ko‘p mehnat qildi. Hammalari bir-birlari bilan totuv bo‘lsalar ham, bir shirkat ahli ikkinchisini tez-tez chaqirib mehmon qilib tursa ham, shahar tashqarisiga birga chiqib sayr qilib turishsa ham, lekin ikkala ishxona hisob-kitoblarini hamjihatlik bilan olib borish fikri hali yangi fikr edi, buni hali uzoq tushuntirish lozim edi. Lekin Nevskiy prospektida o‘zlariga do‘kon ochishsa foydasi tegishi aniq ko‘rinib turardi. Shu bilan birga daromad hisob-kitoblarini qo‘shib yuborish uchun bir necha oy urinib ko‘rganlaridan keyin Vera Pavlovna bilan Mersalovaning jonkuyarligi bekor ketmadi. Nevskiyda: «Au bontravail. Magasin des Nouveautés» degan yangi bir viveska paydo bo‘ldi. Do‘kon ochilishi bilan ishlar ham yurishib ketdi, foyda ham ko‘proq undi. Mersalova bilan Vera Pavlovna bir-birlari bilan gaplashganda, yana ikki yildan keyin ikki ishxonamiz to‘rtta bo‘ladi, beshta bo‘ladi, yana bir qarasak tez orada o‘nta, yigirmata bo‘ladi, deb orzu qilardilar.

Do‘kon ochilgandan keyin oradan uch oy vaqt o‘tgach, Kirsanovning oldiga bir qarasa tanish, ko‘proq notanish, lekin har holda tibbiyot sohasida hamkasabasi bo‘lgan, bir odam kelib, tibbiyotga aloqador har xil voqealarni, ko‘proq ko‘z davolash usuli juda ajoyib natijalar berganini gapirib berdi. Davolash usuli quyidagicha ekan: muzni tolqon qilib ikkita uzun, ichakdek

xipcha xaltaga solarkan-da, har birini to‘rtta sochiqqa o‘rab, bemorning ko‘kragiga va qorniga qo‘yarkan. U odam gap oxirida, do‘stlarimdan biri siz bilan tanishmoqchi, dedi.

Kirsanov u bilan tanishdi; tanishib ko‘p xursand bo‘lishdi, ko‘p narsalar haqida, jumladan, do‘kon to‘g‘risida gaplashishdi. Do‘kon, aslida, savdo maqsadini ko‘zlab ochilgan, deb tushuntirdi; do‘kon lavhasi ustida uzoq maslahatlashishdi: unda travail deb yozilgani ma’qulmikin? Kirsanov travail degani mehnat degani, dedi. Au bon travail degani – buyurtmani o‘rinlatib bajaradigan do‘kon, degani; bunday lavha o‘rniga familiya yozib qo‘yilsa yaxshi bo‘lmasmikin, degan xayolga ham borishdi. Kirsanov agar men xotinimning ruscha familiyasini qo‘ysam, tijoratga zarari tegadi, dedi; nihoyat, quyidagi yo‘lni o‘ylab topdi: xotinimning oti «Vera» – fransuzcha vera – ishonch – foi degani, agar lavhaga «Au bon travail» o‘rniga «A la bonne foi» deb yozish mumkin bo‘lsa, shu kifoya qilmasmikin? Buning ma’nosi ham juda beozor – «halol ishlaydigan do‘kon», degani bo‘ladi, lavhada bekaning nomi ham ko‘rsatilgan bo‘ladi; o‘ylab-o‘ylab, shunday qilsa bo‘lar, degan qarorga kelishdi. Kirsanov ataylab gapni shunday masalalarga burish payidan bo‘ldi, ishi o‘ngidan keldi, uyiga xursand bo‘lib qaytdi.

Har holda, Mersalova bilan Vera Pavlovna o‘z orzu qushlarining qanotini ancha qirqib qo‘yish, ilgari jilish u yoqda tursin, ishqilib omon tursak bo‘lgani, deb tun-kun tashvishlari shu bo‘lib qoldi.

Shunday qilib, Vera Pavlovna bilan Mersalova hovuridan tushgandan keyin, tikuvchilik ishxonalari bilan do‘kon rivoj topmasa hamki, har nechuk ish to‘xtamadi, ular shunga ham xursand bo‘lib yurishdi. Kirsanov yangi tanishlari bilan uchrashib turishini davom ettirib, bundan o‘zi ko‘p mamnun bo‘ldi. Ikki yilmikin yoki undan ko‘proqmi, aytguday biror hodisa ro‘y bermay, shu taxlitda o‘tdi.

XVIII

KATERINA VASILYEVNA POLOZOVANING MAKTUBI

S.-Peterburg. 1860-yil 17-avgust

«Qadrdonim Polina, yaqinda men bir yangilikni bilib oldim va menga juda ma’qul bo‘ldi, hozir butun vujudim bilan shu ishga berildim, shuni senga tushuntirib bermoqchiman. Bu yangilik seni

ham juda qiziqtirishiga aminman. Balki o‘zing ham biron shunday ish bilan shug‘ullanishni lozim toparsan. Do‘stim, o‘zi ham juda ko‘ngildagidek ish-da.

Senga tikuvchilik ishxonasini ta’riflamoqchiman, aslini aytsam, ikki ishxona, ikkovini ham bir ayol bir xil prinsipda tashkil qilgan, bu ayol bilan tanishganimga atigi ikki hafta bo‘ldi, u bilan qalin do‘stmiz. Shu kunlarda men unga yordamlashyapman, keyinchalik shunday ishxona ochganimda menga ham qarasharsiz, deb shart qo‘ydim. Bu xonim Vera Pavlovna Kirsanova, o‘zi yosh, dilkash, xushchaqchaq, naq dilimdagi ayol o‘zi; Polina, Katyangdan ko‘ra yuvosh, ko‘proq senga o‘xshab ketadi; o‘ktam va tirishqoq ayol. Ishxonasi borligi tasodifan qulog‘imga chalinib (menga faqat bittasi haqida gapirishgan edi), hech kimdan tavsiya olmasdan, hech nimani bahona qilmasdan, to‘g‘ri kirib bordim-da, ishxonangizga havasim keldi, dedim. Bir ko‘rishgandayoq bir-birimizga yoqib qolibmiz, xonimning eri Kirsanov esa, esingdami, bundan besh yil burun bir muhim ishda menga foydasi tekkan doktor Kirsanov ekan.

Vera Pavlovna yarim soatcha gaplashib, shunday ishlarga chindan ham ko‘nglim borligiga ko‘zi yetganidan keyin, meni o‘zi boshqarib turgan ishxonasiga olib bordi (ikkinchisiga – ilgari ochilgan ishxonaga Vera Pavlovnaning yaqin tanishlaridan biri mutasaddilik qilar ekan, u ham ajoyib, yosh bir xonim); senga ishxona dastlab bo‘lganimda qanday taassurot qoldirganini hikoya qilib bermoqchiman; bu yangilik meni shu qadar hayratda qoldirdiki, hatto o‘shandagi taassurotlarimni allaqachon tashlab qo‘ygan xotira daftarimga yozib qo‘ydim, hozir uni yana, ba’zi bir sabablarga ko‘ra, qo‘limga olib, davom qildirmoqchi bo‘ldim, qanday sababligini ehtimol senga birmuncha vaqtdan so‘ng yozib yuborarman. O‘sha payti taassurotlarimni yozib qo‘yganimdan juda xursandman: bo‘lmasa, meni hayratga solgan ko‘p narsalarni hozir unutgan bo‘lardim, mana, oradan atigi ikki hafta o‘tgan bo‘lsa ham bu ish juda oddiy narsaday, boshqacha bo‘lishi ham mumkin emasday tuyulyapti. Ammo bu ish menga qanchalik oddiy tuyulsa, unga shunchalik ko‘proq bog‘lanib qolyapti, xotira daftarimdan ko‘chirib yozaman, keyin bilgan tafsilotlarimni qo‘shimcha qilib, uni to‘ldiraman.

Tikuvchilik ishxonasida nimalarni ko‘rdi, deb o‘ylaysan? Eshik oldida to‘xtadik, Vera Pavlovna meni shveysarlar ketma-ket

uchrab turadigan chiroyli zinalardan biri bilan olib bordi. Uchinchi qavatga chiqdik. Vera Pavlovna qo‘ng‘iroqni bosgandi, bir vaqt bir chekkaga royal qo‘yilgan, binoyidek anjomlar qator tizilgan katta bir zalga kirib bordik, senga aytsam, bu shunday zalki, bir yilda to‘rt yoki besh ming so‘mning boshiga suv quyadigan oila xonadoniga kirgandek bo‘ldim. «Ishxona shumi? Bu tikuvchi qizlarga qarashli uylardan birimi?» – «Ha, bu kechki yig‘inlarga atalgan qabulxona va zal, yuring, chevar qizlar istiqomat qiladigan uylarini ko‘rsataman, hozir ular ishxonalarida, hech kimga xalaqit bermaymiz». Uyma-uy kirib ko‘rganlarim, Vera Pavlovnaning menga tushuntirib berganlari mana bu:

Ishxona uch xonadonlik binoga joylashgan, uchala xonadonning derazalari bir maydonchaga qaragan, o‘rtadan eshik ochib, biridan ikkinchisiga o‘tadigan qilingan. Bu xonadonlardan biri ilgari yiliga 700 so‘mga, biri 550 so‘mga, yana biri 425 so‘mga, uchovi 1675 so‘mga ijaraga qo‘yilib kelarkan. Lekin xo‘jayin uchala xonadonni shartnoma bilan 5 yilga 1250 so‘mga ijaraga qo‘yishga rozi bo‘libdi. Ishxonada jami 21 xona bor, bulardan ikkisi katta-katta xonalar, har birining to‘rttadan derazasi bor, biri qabulxona, yana biri – yemakxona qilib qo‘yilgan; yana shunday katta ikki xonada ishlasharkan; qolgan xonalarda ishchilar yasharkan. Biz qizlar turadigan 6 yoki 7 xonani ko‘rib chiqdik (men hamon o‘sha birinchi ko‘rganimdagi taassurotimni so‘zlayapman); qizlar turadigan xonalardagi anjomlar ham binoyiday, hammasi qimmatbaho yog‘ochdan, yong‘oqdan yasalgan; ba’zi bir xonalarga katta-katta oynalar o‘rnatilgan, ba’zi birlariga tryumo qo‘yilgan; chiroyli ishlangan kreslo, divanlar ko‘p. Har bir xonada har xil anjom, anjomlarning hammasini fursati bilan, arzon-garovga sotib olishgan ekan. Qizlarning xonalari o‘rtamiyona xizmatchi, keksa bo‘lim boshlig‘i yoki yaqin o‘rtalarda bo‘lim boshlig‘i vazifasiga ko‘tariladigan yosh mahkama boshliqlarining oilalari istiqomat qiladigan uyga o‘xshaydi. Kattaroq xonalarda qizlar uchtadan, birida hatto to‘rt qiz, qolganlarida ikkitadan turisharkan.

Biz ish xonalarini kirib ko‘rdik, bu xonalarda ishlayotgan qizlar ham haligiday xizmatchilarning qizi, singlisi yoki yosh qalliqlari kiyinganday ba’zi birlarining ustidagi ko‘ylagi asil shohidan tikilgan, boshqalarniki yupqa jun gazmol va dokaparangdan.

Yuzlarida mayinlik va nazokat barq urib turibdi, to‘kin-sochin hayot nash’asidan bahra olayotgan qizlarday. Shularni ko‘rib qanchalar hayratda qolganimni tasavvur qilgin-a, qizlar ishlayotgan xonalarda ancha bo‘ldik. Men ba’zi birlari bilan tanishib ham oldim; Vera Pavlovna ularga nima maqsadda kelganimni aytdi; qizlarning bilim darajasi har xil; ba’zi birlari o‘qimishli jamiyat ahli tilida bemalol so‘zlashadi, bizning qizlarimiz singari, adabiyotdan ham xabardor, tarixni ham tuzukkina bilishadi, chet el va mamlakatlardan ham xabarlari bor, bizning muhitimizdagi qizlarning oddiy tushunchalari qanday bo‘lsa, bu qizlar ham hammasidan xabardor; qizlardan ikkitasi hatto ko‘p o‘qigan ko‘rinadi. Ishxonaga yaqinda kirganlarning ma’lumoti unchalik emas, lekin shunda ham har biri bilan suhbatlashganingda ma’lum darajada ma’lumoti borligini sezib turasan. Umuman, qizlarning bilim darajasi ishxonada qachondan beri istiqomat etishiga bog‘liq ekan.

Vera Pavlovna ish bilan ovora bo‘lsa ham, ba’zan yonimga kelardi, qizlar bilan o‘zim suhbatlashdim, shu bilan ovqat payti ham bo‘lib qoldi. Har kungi tushki ovqatlari uch xil. O‘sha kuni mastava, baliq va buzoq go‘shti ekan. Ovqatdan keyin choy bilan qahva keltirishdi. Taomlar shunchalik yaxshi ediki, ishtaha bilan yedim, tushki ovqatim shunday bo‘lsa, buni o‘zim uchun or bilmasdim.

O‘zing bilasan-ku, otamning hozir ham yaxshi oshpazi bor.

Dastlab borib ko‘rganimdagi umumiy taassurotim shunday edi. Menga, borganimizda chevar qizlar ham ishlaydigan, ham istiqomat qilib turadigan ishxonani ko‘rasiz, tikuvchi qizlar turadigan xonalarni ham ko‘rsatishadi, deyishgandi, o‘zim ham bilardim; chevar qizlarni ko‘rasiz, ular bilan birga o‘tirib ovqatlanasiz, deyishgandi; men bir xonaga tiqilib olgan kambag‘allarning xonadonini ko‘raman, deb o‘ylagandim, uning o‘rniga o‘rtamiyona xizmatchi yoki surilib qolgan pomeshchiklar doirasidan bo‘lgan qizlarni ko‘rdim, yegan ovqatim boylarning dasturxoniga o‘xshamasa ham, har holda, men uchun binoyiday edi; bu nima degan gap? Shunday ham bo‘larkanmi?

Biz Vera Pavlovnaning uyiga qaytib kelganimizda, eri ikkalasi, buning hech bir hayron qoladigan joyi yo‘q, deyishdi. Aytmoqchi, Kirsanov o‘shanda misol tariqasida bir parcha qog‘ozga hisob qilib ko‘rsatib bergan edi, shu yozuvlari xotira daftarim orasida saqlanib

qolgan ekan. Shu hisobni senga ko'chirib yuboraman; ungacha yana bir necha og'iz gapim bor.

Qashshoqlik o'rnida – to'qlik; irkitlik o'rnida – ozoda uylar, hatto ba'zi bir uylar hashamatli bezatilgan. Nodon, savodsizlar o'rnida – tuppa-tuzuk o'qimishli kishilar; bularning hammasiga ikki narsa sabab: bir tomondan, chevar qizlarning daromadi tobora ko'payib boradi, ikkinchi tomondan, sarf-xarajatda juda ko'p mablag' tejaladi.

Ular nega ko'p daromad olishadi, bilasanmi: ular o'z mablag'lari hisobiga ishlashadi, o'zlariga o'zlari xo'jayin; shu sababdan foydadan do'kon xo'jayini hamyoniga tushadigan hissa ham ularning o'z yonida qoladi. Bu hali hammasi emas: o'z foydalari uchun, o'z mablag'larini ishga solib, kerak materialni ham, ish vaqtini ham juda tejab sarf qilishadi; jadal ishlashadi, ish xarajati ham kam.

Albatta, tirikchiliklariga pulni tejab sarf qilishadi. Kerak narsalarni ulgurji qilib, naqd pulga olishadi, shuning uchun ham qarzga yoki chakanalab sotib olgandan ko'ra arzonga tushadi; narsalarni e'tibor bilan qarab, u yoq-bu yog'ini surishtirib, kambag'allar xarididan ham arzonga, ham yaxshisini olishadi.

Bundan tashqari, ko'p ishlarga chiqim yo juda kamaytiriladi, yoki bunday chiqimning o'zi kerak bo'lmay qoladi. O'zing bir o'ylab ko'r, masalan, agar har kuni 2–3 chaqirim yo'l bosib do'konga borib tursang, qancha oyoq kiyimi, qancha ust-bosh bekorga eskiradi? Arzimagan bir misol keltiraman, lekin bu jihatdan uni hamma narsaga ishlatsa arziydi. Soyabon tutmasang, kiyiming yomg'irda ivib rasvosi chiqadi. Endi Vera Pavlovnaning menga aytgan gapiga quloq sol. Oddiy matodan yasalgan soyabon 2 so'm turadi, deylik. Ishxonada 25 tikuvchi bor. Har biri soyabon olsa 50 so'm ketardi, soyaboni yo'q qizning zarari 2 so'mdan ham ko'p bo'lardi. Lekin ular birga yashashadi; har biri o'ziga qulay vaqtda uydan chiqadi; demak, havo buzuq bo'lganda ko'plari uydan chiqmaydi. Shuni o'ylab, ular hammamizga beshta soyabon kifoya, degan qarorga kelishgan. Soyabonlari shoyidan chiroyli; har biri 5 so'm turadi. Soyabon sotib olish uchun hammasi bo'lib 25 so'm sarf qilishibdi, ya'ni, har bir tikuvchi bir so'mdan. Ko'rdingmi, har biri yomon soyabon o'rniga chiroyli yaxshi soyabon tutib yuradi,

xarajatlari esa yarim baravar kam. Ko'p mayda-chuyda ishlarga ham xuddi shunday pul sarf qilisharkan, bu mayda-chuydalar yig'ilib, kattagina bo'ladi. Xonadon masalasida ham, ovqatlari masalasida ham shunday. Masalan, senga ta'riflab bergan ovqat 5 so'm 50 tiyinga tushibdi; non bilan hisoblanganda 5 so'm 75 tiyin (lekin choy bilan qahva bu hisobga kirmaydi). Dasturxon atrofidagilar 37 kishi (mehmon bo'lganim uchun men va Vera Pavlovna bu hisobga kirmagan), shu jumladan, bir necha bola ham bor. 37 kishiga 5 so'm 75 tiyin bo'lsa, har bir kishiga 16 tiyindan ham kam tushadi, bir oyga 5 so'mdan ham kam. Vera Pavlovna, agar kishi bir o'zi ovqat qilsa, bu pulga non va do'konlarda sotiladigan ba'zi bemaza narsalardan boshqa hech narsa kelmaydi, deydi. Vera Pavlovnaning gapiga qaraganda, oshxonada bunday ovqat (albatta, unda ozoda qilib tayyorlanmaydi) 40 tiyinmish, yomonrog'i – 30 tiyin. Shunday farq bo'lishi turgan gap; oshpaz 20 yoki undan kam odamga ovqat tayyorlasa, o'z ovqatini ham, xonadon haqini ham, xizmatkorlarning haqini ham shu ovqat ustiga qo'yishi kerak. Bu yerda bunday ortiqcha xarajatlar deyarli yo'q, desa bo'ladi, bo'lsa ham juda oz. Ikki chevar qizning qarindoshlariga – ikki kampirga oylik to'lanadi xolos, – qizlarning butun oshxona shtatiga bo'ladigan chiqimlari shu. Ishxonani dastlab borib ko'rganimda Kirsanovning menga ko'rsatgan hisobini tushunib olishing ham endi oson bo'ladi. Shu hisobni yozib ko'rsatganida u menga bunday degandi:

– Albatta, men sizga aniq raqamlarni aytishim mumkin emas, unday aniq raqamlarni topish ham qiyin, nega desangiz, har bir tijorat ishining, har bir do'konning, har bir ishxonaning turli daromad va buromad boblari o'rtasida o'z me'yorlari bo'ladi, har bir oila ham xarajatlarni taqsim qilishda tejash darajalari va ularning turli bandlari o'rtasida ham o'z me'yorlari bo'ladi. Men raqamlarni faqat misol tariqasida keltirdim; hisobim ishonchliroq bo'lsin, deb shunday raqamlarni keltirdimki, bu raqamlar har qanday tijorat ishining, har qanday mayda, kambag'al xo'jalikning asli chiqimlaridan, bizdagi tartib foydasidan kamroq.

Savdo korxonasining mol sotishdan oladigan daromadi, – deb davom etdi Kirsanov, – uch asosiy qismga bo'linadi: bir qismi ishchilarning oyligi uchun sarf qilinadi, yana bir qismi korxonaning

boshqa chiqimlariga: bino ijarasiga, chiroq chiqimlariga, ish uchun kerak materiallarga sarf bo'ladi, uchinchi qismi – foyda bo'lib, xo'jayinning yonida qoladi. Daromad shu qismlar o'rtasida quyidagicha taqsim bo'ldi, deb faraz qilaylik: daromadning yarmi – ishchilarning maoshiga, to'rtdan biri boshqa xarajatlarga ketadi, qolgan qismi – foyda, deb faraz qilaylik. Buning ma'nisi shuki, agar ishchilar 100 so'm olsa, boshqa xarajatlarga 50 so'm ketadi, xo'jayinning yoniga ham 50 so'm tushadi. Endi bizdagi tartibda ishchining qancha olishini ko'raylik, – Kirsanov raqam to'la yon daftarini o'qishga kirishdi:

Ishchilarning ish haqi ..... 100 so'm
O'zlari xo'jayin, bas, foydani ham o'zlari oladilar..... 50 so'm
Ishchilarning xonalari xonadonlari yonida, shu sababdan alohida ishxonadan arzonga tushadi; ular materialni tejab sarflashadi; tejash me'yori juda katta, meningcha, teng yarim bo'lsa kerak, lekin biz faqat uchdan bir deb hisoblaymiz; shu xarjlarga sarf bo'ladigan 50 so'mdan ular tejab, foydalari yoniga qo'shadilar..... 16 s.67 t.
166 s. 67 t.

– Ko'rdingizmi, – deb davom etdi Kirsanov, – hammasini yig'sak, bizning ishchilarimizga 166 so'm 67 tiyin tegarkan, holbuki boshqa tartib bo'lganda ular faqat 100 so'm olishardi. Lekin ishchilarning haqi bundan ham ko'proq bo'ladi, ular o'z foydalari uchun ko'proq g'ayrat qiladi, demak, jadal, serunum ishlashadi; g'ayrat qilmasdan, rasmona ishlaganda ular 5 dona buyum, bizning ishimizni misol qilsak, 5 ko'ylak tikishsa, bu yerda ular 6 ko'ylak tikishadi, – bu juda ham kichik tanosib, lekin, mayli, shunday bo'la qolsin; demak, boshqa korxona 5 so'm ishlab topsa, bizning korxonamiz 6 so'm topadi.

Jadal va g'ayrat bilan ishlaganda topishi va daromadi beshdan bir hissa ortadi: 166 so'm-u 07 tiyinning besh bir hissasi 33 so'm. 33 tiyinga bo'ladi, – demak yana ..... 33 s 31 t.
Ilgari ..... 166 s 67 t.
200 so'm

– Shu sababdan bizdagi ishchilarning daromadi boshqa korxonadagi ishchilarning daromadidan teng baravar oshiq, – deb so'zini davom ettirdi Kirsanov, – endi, bu daromad qanday

sarflanadi? Teng baravar oshiq mablag'lari bor ekan, uni ancha foydali sarflashadi. Bunda, bilsangiz, ikki tomonlama foyda chiqadi: birinchidan, hamma narsani ulgurji sotib olishdan; bundan uchdan bir hissa foyda chiqdi, deb faraz qilaylik; chakana va qarzga olgandagi 3 so'mlik narsa 2 so'mga tushadi. Aslida foyda yana ham ko'proq, xonadonni misol olaylik; agar shu uylarga karavot qo'yib, har birini bir kishiga ijaraga bersa, 2 derazalik 17 xonada 3 va 4 kishidan turishi mumkin, demak, jami taxminan 55 kishi turadi, 3 derazalik 2 xonada 9 kishidan va 1 derazalik 2 xonada 9 kishidan; 12 va 18, jami 30, haligi kichik xonalardagi 55 bilan birga, butun xonadonga 85 kishini joylash mumkin; har bir kishi oyiga 3 so'm 50 tiyindan, demak, bir yilda har biri 42 so'mdan, buni 85 ga ko'paytirsangiz, 3570 so'm bo'ladi. Bizning ishchilarimiz bu xonadonga 1250 so'm to'lashadi, uch hissadan ham arzon. Shu taxlitda ko'p narsalarda, deyarli hamma narsalarda ana shunday tejashadi. Agar jamg'armalarning yarmini hisobga kiritsam, shuni ham mavjud tanosibdan ancha kam ko'rsatgan bo'laman; lekin jamg'armalarni ham uchdan bir hissa qilib hisoblayman. Bu hali hammasi emas. Ularning hayot tarzi shunday ekan, ko'p chiqimga ehtiyoj sezishmaydi yoki ancha kam narsa kerak qilishadi, Verochka sizga oyoq kiyimi, ust-boshni misol keltirgan edi. Sotib oladigan shu kiyimlardan to'rtdan biri tejaladi deb, 4 juft oyoq kiyimi o'rniga 3 juft kifoya, 4 ko'ylak o'rniga 3 ko'ylak yirtishadi, deb faraz qilaylik, bu tanosib ham juda kichik. Lekin shu tanosibdan qanday natijalar chiqishiga qarang:

> Buyumlarni arzonga olishlari natijasida bahosi uchdan bir hissa arzonga tushadi, ya'ni uch buyumga 3 so'm o'rniga 2 so'm to'lashadi; lekin bizdagi tartibda shu 3 buyum bilan bajariladigan ish boshqa tartib vaqtida kamida 4 buyum bilan bajariladigan ish o'rnini bosadi: buning ma'nosi shuki, har bir tikuvchi qizimizning 200 so'mga oladigan narsasi boshqa tartib vaqtida kamida 300 so'mlik narsaga baravar keladi, bundan tashqari, bu narsalarning bizdagi tartibda ular turmushidagi qulayliklari boshqa tartib vaqtidagi kamida 400 so'mlik narsa qulayligidan kam bo'lmaydi.

– Endi bir yilda 1000 so'm xarj qiladigan oila hayotini 4000 so'm sarf qiladigan shunday oila hayoti bilan taqqoslasangiz,

oralarida juda katta farq borligini ko'rasiz, shunday emasmi? – deya so'zini davom ettirdi Kirsanov. – Bizdagi tartibda, agar kattaroq bo'lmasa, har holda xuddi shunday tanosib bor: bu tartibda teng baravar ko'p daromad olinadi, olingan daromad ham ikki baravar foydaliroq qilib sarflanadi. Siz tikuvchi qizlarimizning hayoti oddiy tartibdagi tikuvchi qizlar hayotiga hech bir o'xshamasligiga ishonch hosil qilgan bo'lsangiz, buning ajablanadigan nimasi bor?..

Do'stim Polina, shu mo'jizani o'z ko'zim bilan ko'rdim, sirini bilib olishdan oson gap yo'q. O'zim bunga shu qadar o'rganib qoldimki, men o'sha birinchi safar ko'rib hayron bo'lgan bu ishni aslida qanday bo'lsa, xuddi shunday ko'rarman, deb o'ylamaganim hozir juda qiziq tuyulib qoldi. Men hozir shunday tartibda ishlaydigan tikuvchilik ishxonasi yoki boshqa biror ishxona ochish niyatida tayyorlik ko'ryapman, senda ham bunga aralashishga imkon bo'larmikin, shuni yozib yubor. Polina, bilsang, shu qadar ko'ngilli ishki! Sening *K. Polozovang.*

P.S. Ikkinchi oshxona to'g'risida gapirish butunlay yodimdan ko'tarilibdi – u haqda yanagi safar yozib yuborarman. Hozir faqat shunisini aytayki, eski ishxonaning ishlari undan ham kengayib ketgan, shu sababdan, u ishxona men ta'rif qilgan ishxonadan har jihatdan yuqori turadi. Tuzilishi jihatidan bir-biridan ancha farqi bor, shuning uchun boshqa tomonlari ham shart-sharoitiga qarab bo'ladi».

BESHINCHI BOB

YANGI KISHILAR VA VOQEANING PIROVARDI

I

Polozova dugonasiga yozgan xatida Vera Pavlovnaning eridan juda minnatdorman, degan edi. Buni tushuntirish uchun Polozovaning otasi kimligini aytib o'tish lozim.

Polozov iste'fodagi rotmistr yoki shtab-rotmistr edi; eski urf-odatga ko'ra, u xizmat qilib turganida aysh-ishratga berilib, ota-onasidan meros qolgan kattagina mulkni sovurgandi. Boshi devorga taq etib tekkandan keyin, es-hushini yig'ib, qaytadan davlat orttirish niyatida iste'fo berib, xizmatdan bo'shagan edi. Qolgan-qutganlarini to'plab qarasa, – o'sha zamonlardagi assignatsiya bilan o'n ming so'mcha bo'ldi, – shu dastmoya bilan chakana g'alla savdosiga aralashdi, to'g'ri kelgan mayda-chuyda ishlarni pudratga olaverdi, dastmoyasi ko'tarsa, foyda chiqadigan bo'lsa, har qanday ishga ham qo'l ura berdi, oradan o'n yilcha o'tgandan keyin kattagina sarmoyali bo'lib oldi. O'zi basavlat, uddaburon, mansabdor, el-yurtda nomi chiqqan xonadon farzandi bo'lganidan, u savdo-sotiq qilib turgan ikki gubernadagi savdogarlarning qizlaridan ko'ngliga yoqqaniga uylanishi ham hech gap emasdi, shu vajdan tanlab-tanlab yarim millionlik (hammasi assignatsiya) qalini bor qizni topdi. O'sha vaqtlarda o'zi elliklarga borib qolgan edi, – biz uning Vera Pavlovnaga do'st tutingan qizi bilan uchrashganimizdan yigirma yilcha ilgarigi voqeani hikoya qilyapmiz. Polozov ilgarigi pullariga mo'may o'ljani qo'shgandan keyin ishlarini yana ham kengroq yo'lga qo'yib yubordi, oradan o'n yilcha chamasi vaqt o'tgach, o'sha zamonlardagi kumush pul hisobi bilan millioner bo'lib oldi. Xotini dunyodan o'tdi; u provinsiya hayotiga o'rganib qolganidan, erining Peterburgga ko'chib borishiga asti unamagandi;

endi Polozov Peterburgga ko'chib, ishlari yana ham yurishib ketdi, yana uch-to'rt yildan keyin uni uch-to'rt million borga chiqarishdi. Qizlar ham, tul xotinlar ham, yosh-u qari – hamma uning ko'nglini ovlash payidan bo'lib qoldi, lekin u ikkinchi marta uylanishga xohish bildirmadi, – sababi qisman shu ediki, xotinining xotirasiga bevafolik qilishga ko'ngli bormadi, sevikli qizi Katyani o'gay ona qo'liga topshirgisi kelmadi.

Polozovning ishlari yurishib o'ngidan kelaverdi, – agar u ijara ishlariga aralashsa-ku, uch-to'rt million emas, o'n millionlik ham bo'lardi-ya, lekin u ijara ishlarini yomon ko'rardi, pudrat ishlari va mol yetkazib berishnigina halol ish deb bilardi. Millioner o'rtoqlari uning haromni haloldan ajratadigan bo'lib qolganidan xo'p kulishgan edi, lekin nohaq kulishmagandi; nohaq bo'lsa ham aytganida turib oldi: «Tijorat ishlari bilan bandman, birovni talash bilan boyish niyatim yo'q», deb aytgani aytgan bo'ldi. Biroq uning qizi Vera Pavlovna bilan tanishgan vaqtdan bir yilmi, bir yarim yil ilgari, tijorat ishlari uning tushunchasida ijara ishlaridan juda ko'p farq qilsa ham, lekin aslida farqi juda ozligini ko'rsatadigan aniq va ravshan dalillar ham ko'rinib qoldi. U gazlamagami, oziq-ovqatgami yo poyabzal mollarigami, ishqilib, katta pudrat olgan ekan, – nimaligini yaxshi bilmayman, – yoshi bir yerga yetib, doimo qo'li baland kelaverganidan, izzat-hurmati ham tobora oshib, yildan yilga o'jarlashib, manmanlikka berilib, kerakli bir odam bilan janjallashib qolib, jahl ustida uni haqorat qilibdi; qarashsa oqibati yomon bo'ladigan. Bir haftadan keyin unga: «Uzr so'rab qo'ya qol», deyishgan ekan, «yo'q», deb turib olibdi, «xonavayron bo'lasan», deyishgan ekan, «mayli, bo'lsam bo'larman», debdi; bir oy o'tgandan keyin kelib, yana haligidaqa gaplarni aytishgan ekan, ilgari nima degan bo'lsa, o'sha javobini takrorlab qo'ya qolibdi: uzr so'rashga so'ramabdi-yu, lekin xonavayron bo'libdi. Mollari yaroqsizga chiqarilibdi; tag'in, qandaydir aybimi, firibgarligimi ochilib qolib, bugun shu uch-to'rt millioni sovurilib ketibdi, shu bilan Polozov 60 yoshida qashshoq bo'lib qolgan ekan. Yaqin o'rtalardagi mavqeyiga qiyosan albatta; lekin yaqin o'rtalardagi hayotiga qiyos qilmaganda turmushi yomon emas ekan: qandaydir stearin zavodidagi sheriklik hissasi omon qolgan, shu bilan Polozov kuymadi ham, pishmadi ham, shu zavodga boshqaruvchi bo'lib oldi, maoshi ham tuzukkina ekan. Bir sabab bilan omadi kelib, yana

yigirma-o‘ttiz ming chamasi puli ham omon qolgan ekan. Agar o‘n besh yil yoki aqalli o‘n yil burun uning shuncha puli bo‘lsa, bu pul qaddini yana ancha rostlab olishiga kifoya qilardi. Lekin oltmishga borganingdan keyin, qaddingni rostlashing ham mushkul, shu sababdan Polozov o‘ylab-o‘ylab, tavakkal qiladigan vaqtlarim o‘tib ketdi, kuchim yetmas, degan qarorga kelgan ekan. Uning fikr-zikri endi zavodni tezroq sotish, sababi, zavod aksiyalaridan daromad yo‘q darajada, zavod krediti va ishlarini epaqaga keltirishning iloji yo‘q: o‘zi aql ishlatib o‘ylab ko‘rdi, boshqa sheriklariga ham aksiyalarga band bo‘lib, harakatsiz qotib qolgan pullarimizni saqlab qolishning yagona yo‘li zavodni tezroq pullash, deb ularning qulog‘ini ham pishitib qo‘ydi. Qizini erga chiqarishni ham ko‘p o‘yladi. Lekin eng muhimi zavodni pullash, hamma pulga besh foizlik chiptalar olish kerak, – o‘sha kezlarda besh foizlik chiptalar rasm bo‘layotgandi, – shu bilan ilgarigi izzat-hurmatlarimni eslab umrimning oxirigacha tinchgina yasharman, deb o‘yladi; o‘zi davlatidan ajralganda ham hech sir boy bermay, tetikligini qo‘ldan bermagan, quvnoq va bardam odam edi.

II

Otasi Katyani yaxshi ko‘rardi, zodagonlar tabaqasiga taqlid etuvchi murabbiyalarning qizni aziyat chekdirib tarbiyalashiga yo‘l qo‘ymasdi; belni xipcha qilish, xulq-atvorni noziklashtirish va shu kabi har turli odatlarni «behuda ish», deyardi; Katya 15 yoshga to‘lganda, endi ingliz xonimiga ham, fransuz xonimiga ham ehtiyojim qolmadi, degandi, otasi qizining fikrini ma’qulladi. Shundan keyin Katya orom oldi, erkin nafas ola boshladi. U vaqtlarda uning yayrash degani – kitob o‘qib, xayol surishiga xalaqit bermasalar bo‘lgani, degani edi. Dugonalari ko‘pmas, ikki-uch dugonasi bor, lekin unga uylanmoqchi bo‘lib yurganlarning son-sanog‘i yo‘q: u axir Polozovning yolg‘iz qizi edi, to‘rt million hazilakam gap deysizmi?

Lekin Katyaning kunlari kitob o‘qish va xayol-orzularga berilish bilan o‘tdi, unga uylanmoqchi bo‘lib yurganlarning dardi ichida qola berdi. Katya 17 yoshga to‘ldi. Shunday bo‘lsa ham kitob o‘qib, xayol surishni tark etmadi, rangi siniqib, tobi qochib ko‘rpa-yostiq qilib yotib oldi.

III

Kirsanov amaliyot qilmasa ham konsiliumlarga qatnashdan bosh tortishga haqim yo‘q, deb hisoblardi. Shu kezlarda, – professorlik unvoniga ega bo‘lganidan bir yilcha keyin, Vera Pavlovnaga uylanishidan bir yil avval, – Peterburgning amaliyot sohasidagi zo‘r doktorlari uni konsiliumlarga juda ko‘p chaqiradigan bo‘lishdi. Buning ikki sababi bor edi. Birinchi sababi: darhaqiqat, dunyoda Klod Bernar degan odam bor ekan, o‘zi Parijda turar ekan. Haligi zo‘r doktorlardan biri, qandaydir bir ilmiy maqsad bilan Parijga borib kelgan ekan, u chinakam, tirik Klod Bernarning o‘zini o‘z ko‘zi bilan ko‘ribdi; u o‘z mansabi, unvoni, ordenlari va davolagan kazo-kazo betoblarining nomini atab, o‘zini tanishtiribdi. Klod Bernar yarim soatcha uning gaplariga quloq solib o‘tirganidan keyin: «O‘zlari tibbiyot sohasidagi yutuqlarni o‘rganish niyatida Parijga kelib chakki qilibdilar, buning uchun Peterburgdan bu yerga kelishning hojati yo‘q edi», depti; haligi zo‘r olim Klod Bernarning bu gaplarini eshitib, ilmimga rosa qoyil qolibdi-ku, deb xayol qilib, Peterburgga kelganidan keyin Klod Bernarning nomini bir kecha-kunduzda kamida o‘n martadan tilga oladigan bo‘libdi, uning yoniga kamida yana besh marta: «Mening olim do‘stim» yoki «Mening fan sohasidagi mashhur birodarim», deb qo‘shib ham qo‘yarkan. Shunday bo‘lgandan keyin Kirsanovni konsiliumlarga chaqirmaslikning iloji bormi? Chaqirmay bo‘larkanmi? Ikkinchi sababi yana ham muhimroq: Kirsanov birovning amaliyotini tortib olmasligini, birovning kasalini tortib olish u yoqda tursin, undan iltimos qilib, juda qistab qo‘ymaganlarida ham ko‘nmasligini hamma kazo-kazolar bilardi. Amaliyot bilan shug‘ullanadigan ko‘pgina zo‘r doktorlarning odati ma’lum: agar ularning fikricha, bemorning ajali yaqinlashgan-u, yovuz taqdir taqozosi bilan u sho‘rlikni suv bilan ham, chet ellarga oborib biror ilojini qilish bilan ham qutulish iloji bo‘lmasa, uni boshqa biror shifokorning qo‘liga topshirib yuborish zarurati tug‘ilib qolsa, haligi zo‘r doktor o‘z yonidan pul berishdan ham qaytmay, kasalni bir amallab boshqaga oshirib yuborardi. O‘zini chetga olmoqchi bo‘lgan zo‘r shifokorlar iltimos qilganda ham Kirsanov bemorni davolashga onda-sonda rozilik bildirardi, – odatda u amaliyot bilan shug‘ullanuvchi

o‘rtoqlarini tavsiya etib, ilmiy jihatiga qiziqib qolsa, o‘shanda ham kamdan kam hollardagina davolashni bo‘yniga olardi. Shunday ekan, Klod Bernar yaxshi biladigan, birovning amaliyotini tortib olmaydigan bunday hamkasabani konsiliumga chaqirmasdan bo‘larkanmi?

Millioner Polozovning shifokori zo‘rlarning zo‘ri edi, Katerina Vasilyevna og‘ir kasalga yo‘liqib qolganda, uzoq vaqt nuqul zo‘r doktorlar konsiliumi o‘tkazib turildi. Nihoyat, bemorning ahvoli juda og‘irlashib, zo‘r doktorlar, Kirsanovni taklif qilish kerak, degan qarorga kelishdi. Darhaqiqat, zo‘r doktorlar juda mushkul ishga duch kelishgan, bemorning hech qanday kasali bo‘lmasa ham tobora holdan ketayotgandi. Kasali nimaligini topish kerak edi, shundan keyin bemorga qarab turgan doktor: atrophia nervorum – «asablar oziqdan qolgan», degan gapni o‘ylab topdi: dunyoda o‘zi shunday kasal bormi-yo‘qmi, bilmayman, lekin bor bo‘lsa, bu tuzalmas kasal ekanini men bilaman. Lekin tuzalmas bo‘lsa ham uni baribir davolash kerak ekan, Kirsanov yoki uning tirmizak oshna-og‘aynilaridan birontasi davolay qolsin, deyishdi.

Shu bilan Kirsanov ishtirokida yangi konsilium chaqirishdi. Bemorni qarab ko‘rishdi, u-buni so‘rashdi; savollariga tortinmay, xotirjamlik bilan javob berdi; lekin Kirsanov bemorning dastlabki bir necha og‘iz so‘zini eshitgach, o‘zini chetga olib, zo‘r doktorlarning tekshirishlariga va savol-javoblariga quloq solib turdi; zo‘r doktorlar, bunday hollarda odob talabicha, o‘zlari ham charchab, bemor bechorani ham holdan toydirib qo‘yganlaridan keyin Kirsanovdan: «Aleksandr Matveich, sizning fikringiz qanday?» – deb so‘ragan edilar, u: «Bemorni tuzuk qarolganim yo‘q. Men shu yerda qolaman. Nazarimda juda qiziq hodisa. Agar yana konsilium chaqirish lozim topilsa, Karl Fyodorovichga aytarman», – ya’ni, bemorni boqib turgan doktorga aytarman, deb javob berdi, Karl Fyodorovich bo‘lsa, yengil tortib xursand bo‘ldi.

Doktorlar ketgach, Kirsanov bemorning karavoti yoniga borib o‘tirdi. Qiz miyig‘ida kulib qo‘ydi.

– Afsuski, biz tanish emasmiz, – deb gap boshladi Kirsanov, – shifokorga ishonch bildirish kerak; ehtimol, ishonchingizga sazovor bo‘larman. Haligilar dardingizni topisholmadi, bunda fahm-farosatni bir qadar ishga solish lozim. Ko‘kragingizga quloq solib, dori-

darmon berish behuda. Faqat bir narsa zarur: ahvolingizni tushunib, biron iloj qilish mumkin-mumkin emasligini birgalashib o‘ylab ko‘rish kerak. Shunda menga yordamlashasizmi?

Bemor indamadi.

– Men bilan gaplashgingiz yo‘qmi?

Bemor indamadi.

– Siz hatto, tezroq keta qolsaydi, deb turibsiz. Iltimos, o‘n daqiqagina vaqtingizni olsam. Agar o‘n daqiqadan keyin ham hozirgiday, bu yerda o‘tirishdan foyda yo‘q, deb bilsangiz, chiqib ketaman. O‘zingizni g‘am-qayg‘udan boshqa hech qanday kasalingiz yo‘qligini bilasizmi? Bu g‘am-qayg‘ungiz davom qilsa, ikki-uch haftadan keyin, ehtimol, unga ham yetmasdan sizni sog‘-salomat saqlab qolish iloji bo‘lmasligini bilasizmi? Ehtimol, umringiz ikki haftaga ham bormas? Hozir sizda sil kasali yo‘q-ku, lekin yaqin kunlarda paydo bo‘lishi turgan gap, sizning yoshingizda, bu ahvolda ruhiyatingizda sil juda tez zo‘rayadi, bir necha kunda adoyi tamom qilishi mumkin.

Bemor indamadi.

– Sizdan javob chiqmadi. Lekin hali ham parvo qilmayapsiz. Demak, so‘zlarim siz uchun yangilik emas ekan, sizning indamay turishingizni, menga «ha, shunday», deb javob berganingiz, deb bilaman. Mening o‘rnimda boshqa odam bo‘lsa nima qilishini bilasizmi? Otangiz bilan gaplashardi. Men u bilan gaplashsam, balki omon qolarsiz, lekin rozi bo‘lmasangiz, gaplashmayman ham. Sabab, demoqchimisiz? Odatim shunday: kishining ra’yi bo‘lmagandan keyin, unga qarshilik qilmaslik kerak; erkinlikdan a’lo narsa yo‘q, erkinlik hatto hayotdan ham afzal. Shuning uchun, og‘ir ahvolingizga sabab bo‘lgan omilni bilishimga ra’yingiz bo‘lmasa, mayli, bilmaganim bo‘lsin. Agar siz, niyatim o‘lish, deydigan bo‘lsangiz, iltimos qilaman, sababini aytsangiz; bu sabablar menga noo‘rinday ko‘ringan taqdirda ham sizga to‘sqinlik qilishga haqim yo‘q; bordi-yu o‘rinli bo‘lsa-chi, u vaqtda sizga yordam qilishim lozim, yordam qilaman ham. Kerak bo‘lsa, sizga zahar topib beraman. Mana shu shartimga ko‘nsangiz, iltimos, kasalingiz sababini ochsangiz.

Bemor indamadi.

– Javob berishni lozim topmadingiz. Savol berishni davom ettirishga haqim yo‘q. Lekin o‘z dardimni aytishga ruxsat

berishingizni iltimos qilsam maylimi, ehtimol bu narsaning bir-birimizga ko'proq ishonishimizga yordami tegar? Ruxsatmi? Tashakkur. Nima sababdandir siz g'am-qayg'uga botgansiz, shundaymi? Men ham qayg'uga botganman. Men bir ayolni juda yaxshi ko'raman, u esa mening sevgimni bilmaydi, hech qachon bilishi ham mumkinmas. Menga rahmingiz keladimi?

Bemor damini chiqarmadi-yu, lekin ma'yus iljayib qo'ydi.

– Indamadingiz, lekin bu so'zlarimga ilgarigi so'zlarimga qaraganda bir qadar ko'proq e'tibor berganingizni yashira olmadingiz. Shu ham kifoya: demak, ikkimizning dardimiz bir ekan. O'lgingiz keladimi? Ahvolingiz menga ayon. Lekin sil kasali bilan o'lish juda uzoq cho'zilib, kishini nihoyatda qiynab yuboradi. Agar sizga boshqa biron narsada yordamim tegmasa, o'limingizga yordamlashishdan – sizga zahar berishdan qochmayman, demoq-chiman, – hech qiynamay, bir zumda o'ldiradigan zahar topaman. Shu shart bilan, ahvolingiz haqiqatan siz o'ylaganday najotsiz ekanini bilishimga imkon berasizmi?

– Aldamaysizmi? – dedi tilga kirib bemor.

– Ko'zimga tikilib qarasangiz, aldamayotganligimni ko'rasiz.

Bemor birmuncha vaqt taraddudlandi.

– Yo'q, har holda, sizni juda oz bilaman.

– Mening o'rnimda boshqa odam bo'lsa, u allaqachonlaroq sizni azobga solgan tuyg'ungizdan yaxshisi yo'q, deyardi. Lekin men hali bunday demay turaman. Otangiz uning kimligini biladimi? Iltimos, shuni yodingizda tutingki, agar ijozat bermasangiz, men u bilan gaplashmayman ham.

– Yo'q, bilmaydi.

– Sizni sevadimi?

– Ha.

– Xo'sh, endi sizga nima deyman? Siz, otam meni yaxshi ko'radi, deysiz; eshitishimga qaraganda, o'zi ham bema'ni odam emas. Bas, nima sababdan, ko'nglimdagini unga aytishdan foyda yo'q ekan, u rozilik bermaydi, deb o'ylaysizmi? Agar illat sevgan kishingizning faqat kambag'alligida bo'lsaydi, otangizni ko'ndirish uchun harakat qilib ko'rishdan qaytmas edingiz, deb o'ylayman. Demak, siz, otam u haqda juda yomon fikrda, deb o'ylaysiz, otangizga aytmasligingizga boshqa sabab bo'lishi mumkin emas. Shunday emasmi?

Bemor indamadi.

– Xato qilmaganim ko‘rinib turibdi. «Endi nimani o‘ylayapsan?» – deng? Otangiz – katta hayotiy tajriba orttirgan odam, odamlarning farqiga boradigan kishi; siz esangiz hali hech narsa ko‘rgan emassiz; agar biron kishi uning ko‘ziga yomon ko‘rinib, sizga yaxshi ko‘rinarkan, – demak, u emas, siz xato qilayotganingiz turgan gap. Ko‘rdingizmi, men shunday deb o‘ylashga majburman. Sizga yoqmaydigan gaplarni gapirayotganimning sababini bilishni istaysizmi? Aytishim mumkin. Mening so‘zlarimga jahlingiz chiqishi mumkin, shu so‘zlarim uchun meni yomon ko‘rib qolishingiz ham mumkin, lekin har holda ichingizda: ayyorlik qilmay xayoliga kelgan gapni gapiryapti, meni aldash niyati yo‘q, deysiz. Yutug‘im shu bo‘ladiki, menga ishonadigan bo‘lasiz. Siz bilan halol gaplashayotganim to‘g‘rimi?

Bemor javob beraymi-bermaymi, deb taraddudlandi.

– Doktor, siz alomat odam ekansiz, – dedi nihoyat.

– Yo‘q, alomat emas, yolg‘onchiga o‘xshamaydigan odamman xolos. O‘ylagan narsamni to‘ppa-to‘g‘ri aytdim. Lekin bu faqat taxmin qilgan narsam. Ehtimol, yanglisharman. Buni bilib olishimga imkon bersangiz. Ko‘ngil qo‘ygan kishingiz kimligini menga aytingchi. Aytsangiz, – o‘shanda ham, ruxsat qilsangiz, – u to‘g‘rida otangiz bilan gaplashaman.

– Unga nima deysiz?

– Otangiz uni yaxshi taniydimi?

– Ha.

– Unday bo‘lsa, otangizga uning uylanishiga rozi bo‘ling, deyman, lekin yaxshilab o‘ylab ko‘rishingizga sizga fursat berish uchun, to‘yni hozir emas, ikki-uch oydan keyinga tayinlashni shart qilib qo‘yaman.

– Otam rozi bo‘lmaydi.

– Rozi bo‘lishga-ku, bo‘ladi. Agar rozi bo‘lmasa, u vaqtda aytganimday sizga yordam beraman.

Kirsanov shu taxlitda uzoq vaqt gapirib o‘tirdi. Nihoyat, bemorni ko‘ndirdi, u ko‘ngil qo‘ygan yigitning nomini aytdi va otasi bilan gaplashishga rozi bo‘ldi. Lekin otasini ko‘ndirish bemorni tilga kiritishdan ham qiyin bo‘ldi. Polozov, qizingizning holdan ketganiga sabab – muhabbat, degan gapni eshitib juda ajablandi;

yaxshi ko‘rib qolgan odamning nomini eshitganda hayron bo‘ldida, shartta: «Unga erga chiqqandan ko‘ra go‘rga kirgani yaxshiroq. O‘limi o‘zi uchun ham, men uchun ham kamroq musibat bo‘ladi», dedi. Ahvol juda mushkul edi, Kirsanov buning ustiga Polozovning vaj-korsonlarini eshitganidan keyin, aslida qiz emas, qizning otasi haq ekanini tushundi.

IV

Juda boy merosxo‘r bu qiz atrofida yuzlab yigitlar parvona edi; Polozov xonadonidagi tushliklarga-yu oqshom ziyofatlariga to‘planib turuvchilar o‘zi singari jami boy-boyonlarning, ya’ni o‘zi oliy tabaqadan bo‘lmasa hamki, tengqurlaridan balandroq darajaga chiqib olgan, aslida o‘zi bu xildagi oliy tabaqaga mansub bo‘lmagan va u tabaqadan urug‘-aymog‘i bo‘lmagan, shubhali maxluqlar jumlasiga kiradigan, nihoyatda shubhali boyvachchalarning mehmonxonalarini kanda qilmaydiganlar jumlasidan edi; ma’naviy jihatlari haqida gapirmaganda, tashqi ko‘rinishlari jihatidan ham juda beadab har xil muttahamlar, oliftalar bu ziyofatlarga juda mazaxo‘rak bo‘lib qolishgan edi. Shu tufayli Katerina Vasilyevna jazmanlari orasida haqiqiy oqsuyaklardan biri paydo bo‘lgandan ko‘ngli biroz ko‘tarilgan edi. Bu odam boshqa jazmanlariga qaraganda ancha olifta, boshqalardan aqlliroq, gapga usta edi. Qizining boshqalardan shu yigitni afzal ko‘rib qolganini otasi darrov payqadi; o‘zi bama’ni, cho‘rtkesar va gapida qattiq turadigan o‘jar odam bo‘lganidan, haligini payqagani zamon qizi bilan gaplashib: «Do‘stim, Katya, Solovsov ko‘nglingni ovlash payida yurgan ko‘rinadi; ehtiyot bo‘l, qizim: o‘zi juda yomon, noinsof odam; u bilan yashasang baxting qaro bo‘ladi, unga xotin bo‘lganingdan ko‘ra, o‘lib qo‘ya qolganing senga ham, menga ham yaxshi bo‘ladi», dedi. Katerina Vasilyevna otasini yaxshi ko‘rardi, uning fikrini qadrlashga odatlangan; otasi qizining ra’yiga hech qarshi chiqqanmas; otasi faqat yaxshi ko‘rganidan shunday deyotganini qizi ham biladi: qizning xulqi shunday ediki, injiqlikdan ko‘ra ko‘proq unga mehr qo‘yganlarning ko‘nglini ovlashni o‘ylardi, bu qiz ota-onalariga: «Nima desangiz, amringizni bajo keltiraman», deydigan qizlar toifasidan edi. Shu sababdan ham u otasiga:

«Solovsovni yoqtirib qoldim. Lekin agar siz, undan nariroq yur desangiz, xo‘p bo‘ladi, shunday qilganim bo‘lsin», deb javob berdi. Qiz Solovsovni yaxshi ko‘rib qolganida, albatta, bunday qilmasdi, yolg‘on gapirish odati yo‘qligi tufayli bunday deb aytmasdi ham; lekin u Solovsovga biroz ko‘ngil qo‘ygan, hali ko‘ngil qo‘ygani ham yo‘q, desa bo‘lardi: Solovsov uning nazarida boshqalardan ko‘ra maroqliroq ko‘rinardi xolos. Qizning Solovsovga muomalasi sovibroq qoldi; ehtimol hech gap bo‘lmasdi, lekin otasi jahli tezligidan qattiq tegadigan gap qildi; unchalik qattiq tegadigan gap aytgani ham yo‘q-ku, ammo tulki Solovsovga shu ham kifoya edi. U o‘zini jabrdiyda qilib ko‘rsatish payti kelganini sezdi-da, qaydan bahona topsam ekan, deb o‘ylanib qoldi. Bir kuni Polozov unga achchiqroq gapirib qo‘ygandi, Solovsov izzat-nafsini qo‘ldan bermay, xafa bo‘lgan odamday xayrlashib chiqib ketdi-da, kelib turishini bas qildi. Bir haftadan keyin Katerina Vasilyevna undan ehtiros va kamtarlik bilan yozilgan, men sizdan ko‘ngil qo‘yar, deb hech qachon umid qilmagandim, siz bilan gaplashmasam ham har zamon-har zamon ko‘rib tursam, shuni o‘zim uchun baxt deb bilardim, ko‘rib tursam kifoya edi, shu baxtimni ham menga ko‘p ko‘rishdi, mayli, shunda ham baxtliman, ham baxtsizman, degan mazmunda maktub oldi, unda na iltimos, na orzu bor edi. U hatto javob berishni ham iltimos qilmagandi. Shunday maktublar kela berib, nihoyat, ta’sir etmay qolmadi.

Lekin bu maktublar unchalik tez ta’sir qilgani yo‘q; Solovsov uzoqlashtirilgan dastlabki kezlarda Katerina Vasilyevna ma’yus tortgani ham yo‘q, xayolga berilgani ham yo‘q, bu voqeadan oldinroq qizning unga muomalasi sovuqroq edi, otasi, qizim, ehtiyot bo‘l, deb nasihat berganida, otasining nasihatiga xotirjam ko‘nib qo‘ya qolgan edi. Shu sababdan oradan ikki oycha vaqt o‘tgandan keyin, Katerina Vasilyevnaning yuzida ma’yuslik alomatlari ko‘rinar ekan, otasi allaqachon unut qilgan Solovsov tufaylimikin, deb uni xayoliga keltirishi mumkinmidi? «Qizim, Katya, ma’yus ko‘rinasan, deyman?» – «Yo‘q, otajon, hech narsa bo‘lgani yo‘q; o‘zim, shunday». Bir hafta, ikki haftadan keyin keksa otasi: «Katya, kasalmisan, deyman, bolam?» – deb so‘rab qoldi. «Yo‘q, hech narsa bo‘lgani yo‘q». Yana ikki hafta o‘tgach, otasi: «Katya, o‘zingni doktorga qaratsang-chi, qizim», dedi. Shu

bilan Katya o'zini qarata boshladi-yu, otasining ko'ngli o'rniga tushdi, chunki doktorning gapiga qaraganda, hech qanday xavfli yeri yo'q, shunchaki quvvatsizlikdan biroz tinkasi qurigan. Katerina Vasilyevnaning shu yil qishdagi hayoti – har kuni tungi soat ikki-uchgacha, ba'zan soat beshgacha vaqtini oqshom ziyofatlarida o'yin-kulgi bilan o'tkazgani toliqtirib qo'yibdi. Toliqqani o'tib ketar, deb o'yladilar, lekin qarasalar, tobora bo'shashib boryapti.

Nega Katerina Vasilyevna otasiga hech nima demadi? U, aytganim bilan foydasi yo'q, otam o'shanda shartta aytdi-qo'ydi, u bekorga gapirmaydi, deb ko'ngliga qattiq tugib yurardi. Otam biron kishi to'g'risida qat'iy fikrga kelmasa, u haqda gapirmaydi ham; u biron kishini yomon deb o'ylaganidan keyin, qizining unga erga chiqishiga sira ham rozi bo'lmaydi.

Shu bilan Katerina Vasilyevna, Solovsovning kamtarlik, noumidlik bilan yozgan maktublarini o'qib, xayol sura-sura, yarim yildan keyin bunday qarasa, sil bo'lishiga oz qolibdi. Otasi bo'lsa qizining kasaliga qisman o'zi sababchi ekanligini uning bironta gapidan ham payqamay yura beribdi: qizi otasiga ilgari qanday mehribon bo'lsa, hali ham shunday mehribon. «Qizim, biron narsadan norozimisan?» – «Yo'q, otajon». – «Biron narsadan xafamisan?» – «Yo'q, otajon». Xafa emasligi ko'rinib turibdi-ku; lekin ma'yus tortgan, bu madori yo'qligidan, kasalligidan bo'lsa kerak. Doktor ham, kasalligidan shunday, deydi. Kasali nima bo'ldiykin? Doktor, kasali hech gap emas, bu raqsning, korset taqishning oqibati, deb qo'ya qolgandi, kasalning xatarli ekanligini ko'rgandan keyin, «asablari oziqdan qolibdi, deyishga o'tdi.

V

Amaliyot bilan shug'ullanuvchi zo'r doktorlar m-lle Polozovaning kasali atrophia nervorum xayolchan, o'ychan tabiatli qizning toliqib, holdan toyganligi natijasida paydo bo'lgan, degan fikrni quvvatlaganlaridan keyin, qizning bunday toliqib, madori qurishining biron ruhiy sababi borligini bilish uchun Kirsanov bunchalik sinchiklab tekshirib o'tirishining hech keragi yo'q edi. Bemorni boqib turgan doktor konsilium oldidan bemorning uydagi turish-turmushlarini aytib bergan edi; oilasida hech

qanday dilsiyohlik yo‘q, ota bilan qiz bir-birlariga juda mehribon. Holbuki otasi qizining dardini bilmaydi, chunki qizni boqib turgan shifokorning o‘zi ham bilmaydi; bu nima kasal bo‘ldiykin? Uzoq vaqt ichidagi dardini yashirib ketgan bo‘lsa, agar shuncha vaqtdan buyon tilidan ilinmay otasiga betoblik sababini bildirmay kelgan bo‘lsa, demak, u matonatli qiz ekan; konsilium vaqtida bosiqlik bilan javob berishlaridan ham irodasi mustahkam qiz ekanligi ko‘rinib turdi. Biron-bir achchig‘lanish, g‘azablanish alomatlari ham ko‘rinmadi, taqdiriga tan berishga qattiq qaror bergan. Kirsanov esa shunday qizning taqdiri bilan shug‘ullansa arziydi, – yordam berish qo‘limdan kelmasmikin, deb ko‘nglidan o‘tkazib qo‘ydi. Aralashishni o‘zi uchun zarur deb bildi. Men aralashmasam ham bir kun borib masala oydinlashishi turgan gap, lekin unda fursat qo‘ldan ketmasmikin? Sil bo‘lishiga oz qolgan, keyin har qancha parvarishning ham foydasi tegmaydi.

Bemor bilan ikki soatcha dahanaki jang qilib, undagi ishonchsizlikni yengdi, gap nimadaligini bilgach, otasi bilan gaplashishga roziligini oldi. Chol Kirsanovdan, qizingizning kasaliga sabab Solovsovga ko‘ngil qo‘yganligi, degan gapni eshitib hayron bo‘ldi. Bu qanaqasi? Katyaga o‘shanda, undan uzoqroq yur, deb nasihat qilganida, u xafa bo‘lmagandi-ku. Solovsov kelmay qo‘yganida ham xotirjam yurgan edi-ku. Endi yaxshi ko‘rganidan o‘lim yostig‘iga bosh qo‘ygani nimasi? Nahot ishq-muhabbatdan ham odam o‘lsa! Umri ish bilan o‘tib, mulohaza bilan yetti o‘lchab, bir kesib kelgan odamga bunday talvasaning haqiqat bo‘lib ko‘rinishi mumkin emasdi. Chol Kirsanovni ancha ovora qildi, u yakkash: «Go‘daklik xayol parishonligi, xayol sura-sura qiynaladi-da, keyin esidan chiqarib yuboradi», deya berdi. Kirsanov undog‘ deb tushuntirib ko‘rdi, bundog‘ deb tushuntirib ko‘rdi, axiyri xuddi shu go‘dakligi uchun ham esidan chiqarib yuborolmay, o‘zini o‘zi nobud qiladi, deya bor gapni tushuntirdi. Polozov nihoyat so‘zga kirib, o‘kinishga tushdi, lekin ko‘nib, xo‘p deyish o‘rniga stolga musht urib, bag‘ritoshlik bilan: «O‘lsa, o‘la qolsin: baxti qaro bo‘lgandan ko‘ra o‘lgani yaxshiroq. Menga ham, o‘ziga ham oson», dedi. Yarim yil ilgari qiziga nima degan bo‘lsa, shu so‘zlarini qaytardi. Katerina Vasilyevna, otam bilan gaplashishning foydasi yo‘q, deb o‘ylaganida yanglishmagandi.

– Nega bunchalik qaysarlik qilasiz? Ehtimol, u yomon odamdir, bunga men ham ishonishim mumkin, lekin nahotki shunchalar ablah odamki, u bilan turgandan o'lim yaxshiroq bo'lsa?

– Ha, shunday odam. U toshbag'ir odam; qizim mehribon, odobli qiz, u bir iflos, buzuq. – Polozov shu taxlitda Solovsovning ta'rifiga kirishib ketdi, uni shunday tasvirlab berdiki, Kirsanov nima deyishini ham bilmay qoldi. Polozovning gaplariga qo'shilmaslikning iloji ham qolmadi. Solovsov degani Storeshnikovga sovchilik qilish oldida, operadan keyin Serj va Jyuli bilan kechki ovqat vaqtida birga bo'lgan Janning o'zi edi. Darhaqiqat, andishalar, ma'suma bir qizning bunday kishiga tekkanidan ko'ra, o'lgani ming marta yaxshi edi. Bunday odam ablahligi bilan ma'suma qizning sha'niga dog' tushiradi, qalbini muzlatadi, umrini xazon qiladi; bundan ko'ra qizning o'lgani ming marta afzal.

Kirsanov bir necha daqiqa o'ylanib qoldi.

– Yo'q, – deya gap boshladi u nihoyat, – nima bo'ldi o'zi, gapingizga ishonib o'tiribmanmi? Agar u shunchalik ablah bo'lsa, hech bir xavotirlanadigan yeri yo'q ekan. Qizingizning buni fahmlamasligi mumkinmas, lekin uni yaxshilab bilib olishiga fursat bering, – u tuzib qo'ygan rejasini hech bo'sh kelmay Polozovga tushuntira boshladi, – bu qiziga ham bir taxmindek gapirgandi, ehtimol men yanglisharman, deb pisanda ham qilgan edi, – agar u haqiqatan shunday yomon odam bo'lsa, qizingizning o'zi undan yuz o'girar, dedi. Natijasi shunday bo'lishiga endilikda umidi katta, chunki qizining yoqtirgan kishisi juda yaramas odam edi.

– Agar nikohga ortiqcha e'tibor berilmasa, unchalik dahshatli narsa emasligini men sizga gapirib ham o'tirmayman: xotin baxtsiz ekan, eri bilan ajralishib ketsa nima bo'pti? Siz buni sharmandalik deb bilasiz, qizingiz ham shunday tarbiya ko'rgan, siz ham, qizingiz ham buni haqiqatan ketmas dog' deb bilasizlar, qizingiz yangicha tarbiya olguncha sizdan beshbattar og'ir bo'lgan yaramas er bilan turib go'r yoqasiga borib qoladi. Lekin bu ishning boshqa jihatlarini ham o'ylab ko'rish kerak. Nima sababdan siz qizingizning aql-farosatiga ishonmaysiz? Qizingiz hali esini yeganicha yo'q-ku? Hamma vaqt aql-farosatga umid bog'lash kerak, lekin uni ham o'z erkiga qo'yib qo'yish kerak, shunday bo'lganda farosat haq

ishda hech mahal kishiga pand bermaydi. Qizingizning fahm-farosatini o‘zingiz bo‘g‘ib qo‘yibsiz, uni bo‘shating-a, haqiqat siz tomonda bo‘lsa, farosat qizingizni siz tomonga o‘tkazib qo‘yadi. Ehtiros to‘siqqa uchrasa, bilib qo‘ying, odamni ko‘r qilib qo‘yadi, to‘siqlarni bartaraf qilsangiz qizingiz ham binoyiday aql-hushini yig‘ib oladi. Yaxshi ko‘radimi, yaxshi ko‘rmaydimi, o‘ziga qo‘yib bering, shunda u odamning sevgiga arzish-arzimasligini o‘z ko‘zi bilan ko‘radi. Mayli, u unashib qo‘yilgan kuyovday yura bersin, ko‘rarsiz, birmuncha fursatdan keyin qizingizning o‘zi undan yuz o‘giradi.

Masalaga bu taxlit qarash Polozov uchun benihoya yangilik edi. U bunday behuda gaplarga ishonmayman, hayot degani nimaligini juda yaxshi bilaman, odamlarning ko‘p bema’niliklaridan xabarim bor, shu sababdan ularning aqliga, farosatiga umid bog‘lashim qiyin gap, shunday bo‘lgandan keyin, o‘n yetti yashar bu tirmizakning aql-farosati nimaga yetardi, deb oyog‘ini tirab turib oldi. Kirsanov uning so‘zlariga e’tiroz bildirib, kishi faqat ikki holda nodonlik qiladi: yo qizishib ketib, bir daqiqalik hayajon ustida, yoki o‘zini erkin his qilolmay, qarshilikka duch kelsa, g‘azabi qaynab, boshini qayoqqa urishini bilmay qoladi. Bunday tushunchalarni Polozov sira tushunib bo‘lmaydigan behuda narsalar deb bilardi. «Qizim esini yeb qo‘ygan: bir go‘dak taqdirini uning o‘z ixtiyoriga tashlab qo‘yish telbalik-ku, undan ko‘ra o‘lgani yaxshiroq». Polozovning miyasiga qattiq joylashib olgan bu fikrini yo‘qotishning sira iloji bo‘lmadi.

Albatta, yanglishgan kishi o‘z fikrida qanchalik qattiq turmasin, undan ko‘ra yetukroq, ko‘proq narsani biladigan, ko‘proq tushunadigan boshqa biron kishi haligi odamni shu xato yo‘lidan chiqarish payidan bo‘lib tursa, bora-bora xatoni bartaraf qilishi turgan gap. Bu aniq narsa; lekin xonasini topib qayirib olguncha oradan ozmuncha vaqt o‘tadi, deysizmi? Albatta, hozir bo‘lgan gaplar ham natijasiz ketmaydi; garchi bu gaplar Polozovga hozirchalik hech qanday ta’sir qilmaganday ko‘rinsa ham, har holda, Kirsanovning gaplari cholni o‘ylatib qo‘yishi aniq; agar u bilan shu taxlitda gaplashib turilsa, o‘ylab o‘rniga tushadi ham. Lekin u, men ko‘pni ko‘rganman, deb g‘ururlanib yuradi, o‘zini tamomila bexato odam deb biladi, u aytganida qattiq turib oladigan o‘jar odam, gapira-gapira uni axiyri ko‘ndirish mumkinligiga shubha yo‘q-ku,

lekin hali-beri ko'ndirish mahol-da. Lekin bu ishning sal cho'zilib ketishi ham xatarli; uzoq cho'zilib ketsa, qizining halok bo'lishi hech gapmas; cholning ko'ngliga qattiq tegmay xonasi kelishini kutib, qayirib olinsa ish juda cho'zilib ketishi aniq.

Keskin bir chora topish kerak. Buning albatta qaltis tomoni ham bor; lekin bunda tavakkal qilasan, yo'qsa halokat yuz berishi aniq. Hayot qonunlari haqidagi tushunchalari Kirsanov tushunchalariga qaraganda unchalik mustahkam bo'lmagan kishiga bu ish juda qaltis ko'rinishi mumkin, lekin aslida mutlaqo unday emasdi. Bu unchalik qaltis ish ham emas. Lekin jiddiy edi. Butun lotereyada faqat bitta yutuqli chiptasi bor. Ammo bu yutuqli chiptaning chiqish ehtimoli yo'q, bordi-yu chiqib qolsa-chi? Kishi tavakkal qilgandan keyin yutuq chiqqanda ham pinagini buzmasligi kerak. Kirsanov qizning vazminligini, irodasi mustahkamligini ko'rgach, bunday qilmasligiga butunlay ishondi. Lekin uni xavf ostida qoldirishga haqi bormi? Ha, haqi bor. Hozir bu ishda qiz o'z sog'lig'iga shikast yetkazmaslik ehtimoli yuzdan faqat bitta, sog'lig'ining tezda ishdan chiqib qolish ehtimollari ko'proq; bunda ming ehtimoldan bittasi unga qarshi chiqadi. Shu sababdan, sirtdan qaraganda dahshatliroq tuyuluvchi, tezroq amalga oshuvchi, lekin aslida xavfsizroq; lotereyada tavakkal qilib ko'ra qolsin.

– Yaxshi, – dedi Kirsanov, – siz uni qo'lingizdan keladigan vositalar bilan davolashni xohlamayapsiz; u holda, men o'z vositalarim bilan davolayman. Ertaga men yana konsilium chaqiraman.

Kirsanov bemorning yoniga kirib, otangiz juda ham o'jar odam ekan, bunchalik o'jar deb o'ylamagandim, achchiqni achchiq kesar qabilida ish ko'rish lozimga o'xshaydi, dedi.

– Ovora bo'lmang, hech narsa foyda bermaydi, – dedi bemor ma'yus bir ohangda.

– Ishonchingiz qat'iymi?

– Ha.

– Yo'qsa, o'limingizga rozimisiz?

– Ha.

– Tavakkal qilib, sizni o'limga chog'lasam-chi? Sizning ishonchingizni qozonish uchun, sizga lozim bo'lgan har qanday xizmatga tayyorligimni ko'rsatish uchun gapning bir uchini chiqarib

qo‘ygandim; hozir endi rostini aytyapman. Sizga zahar berish kerak bo‘lib qolsa nima deysiz?

– O‘limim yaqinligini allaqachon bilganman, bir necha kunlik umrim qolganini ham bilaman.

– Agar ertaga erta bilan bo‘lsa-chi?

– Yana ham yaxshi. – U mutlaqo xotirjam edi. Faqat bir iloji qolsa-yu, o‘limdan najot kutilsa, u deyarli hamisha qo‘llab yuboradi. «Aytganimga ko‘nsangiz ko‘ning, yo‘qsa o‘limimga roziman», desangiz, hamma vaqt aytganingizga rozi bo‘ladilar; lekin bilib qo‘ying, bunday buyuk prinsip bilan hazillashmaslik kerak; agar unamasalar, qadr-qiymatingizni ham yerga urmang, o‘limga rozilik bildirib qo‘ya qolish kerak. Kirsanov shu muhokamalarning o‘zidan ham aniq ko‘rinib turgan rejasini aytib berdi.

VI

Albatta, boshqa hollarda Kirsanov bunday qaltis ishning yoniga ham yaqinlashmasdi. Osonroq yo‘lini topardi: qizini uydan olib chiqib ketardi, qiz esa xohlagan kishisi bilan nikohdan o‘tardi. Lekin qizning tushunchalari va ko‘ngil qo‘ygan kishisining xislatlari o‘rtaga tushib, ishni chalkashtirib yuborishgandi. Qizning miyasiga, er bilan xotin bir-biridan ajralmasligi lozim, degan tushuncha o‘rnashib qolganidan, bu odam bilan qurgan hayoti turgan-bitgani azob-uqubat ekanligiga ko‘zi yetganda ham shu ablahdan ajralmasdan turaverardi. Qizni unga xotinlikka berish – o‘limdan ham beshbattar edi. Shu sababdan faqat bir iloji qolgan – o‘ldirish, yo bo‘lmasa es-hushini yig‘ib olishiga imkon berish lozim edi.

Ertasiga oliy tabaqa tibbiyot sohasida ishlayotgan eng mashhur zotlardan konsilium chaqirildi, martabasi ulug‘lardan besh kishi to‘plandi: Polozovni qanday qilib ko‘ndirish mumkin ekan? Shunday bo‘lsinki, chiqarilgan hukmga qarshi u churq etmasin. Kirsanov kasalning ahvolini gapirdi, ular kalondimog‘lik bilan quloq solib, ma’qullab o‘tirishdi, – boshqa iloji ham yo‘q, nega desangiz, yodingizda bo‘lsa, dunyoda Klod Bernar bor, o‘zi Parijda yashaydi, undan tashqari, Kirsanovning gaplarini tushunib olish ham oson emas – bu tirmizaklarning mahmadonaligini qo‘ya berasiz! Ma’qullamay ham ko‘ring-chi.

Kirsanov, bemorning kasalini yaxshilab tekshirib ko'rdim, Karl Fyodorovichning, bu kasalni tuzatib bo'lmaydi, degan fikriga tamomila qo'shilaman, dedi; bu kasal jon chiqar vaqtida bemorga juda azob berib, qiynab qo'yadi; umuman, bemorning har bir ortiqcha soat umri ortiqcha azob demakdir; shu sababdan men, konsiliumning vazifasi, insonparvarlik qilib, ko'zini yumgach, qaytib ochmasin, deb bemorga morfiy berish, uning azobiga chek qo'yish lozim degan xulosa chiqarishdir, deb hisoblayman. U shunday yo'l ko'rsatdi-da, bu fikrga rozi bo'lish yoki uni rad qilish uchun bemorni yana bir tekshirib ko'rishlarini konsiliumdan iltimos qildi. Konsilium a'zolari Kirsanovning sharillatib tashlayotgan allaqanday tushunib bo'lmas gaplariga quloq solib, ko'zlarini mo'ltiratgancha bemorni tekshirib chiqdi, oldin yig'ilishib o'tirgan xonaga, bemorning yotgan xonasidan uzoqdagi zalga qaytib, bemorga o'ldiradigan miqdorda morfiy berib, tortayotgan azobiga barham berilsin, degan hukm chiqardi.

Shu hukm qog'ozga bitilgandan keyin, Kirsanov xizmatkorga qo'ng'iroq chalib, Polozovni konsilium zaliga taklif qilsangiz, deb iltimos qildi. Polozov zalga kirib keldi. Donishmandlarning eng kattasi salobat, tantana-yu g'amgin tilda, dabdaba-yu ma'yus ovozla konsiliumning hukmini ma'lum qildi.

Polozovning boshiga tog' ag'darilganday bo'ldi. Ajali yaqin bo'lsa ham, lekin qachonligini bilmay kutib o'tirishing, o'limi yaqinmikin yoki balki o'lmas, deb kutib o'tirishing bir gap-u, yarim soatdan keyin qizing jon beradi, degan gapni eshitishing tamomila boshqa bir gap ekan. Kirsanov Polozovdan ko'zini uzmay tikilib turdi: bu hukmning ta'siri zo'r bo'lishiga u qattiq ishongan, lekin har holda bu hukm kishining asablarini qo'zg'atmasligi ham mumkin; chol gangib, ikki daqiqacha dami chiqmay qoldi: «Yo'q, kerak emas! O'limiga qaysarligim sabab bo'lyapti! Nima desanglar ham roziman! Qizimning sog'ayib ketishiga umid bormi?» – degan edi, Kirsanov: «Bo'lmasa-chi», deb javob berdi.

Agar mashhur zotlarning achchiqlanishga vaqtlari bo'lganda, ya'ni bir-birlariga qarab, bu tirmizakning qo'g'irchoq qilib o'ynatayotgani menga qanday ayon bo'lsa, o'rtoqlarimga ham shunday ayon ekan, deb juda darg'azab bo'lishardi, lekin Kirsanov hech kimning: «Boshqalar menga qanday nazar bilan qaradiykin?»,

deb u yoq-bu yoqqa ko'z tashlashiga qo'ymadi. Kirsanov xizmatkorga buyruq berib, bir lahzada cho'kib, munkillab qolgan Polozovni avaylab olib chiqing, dedi-da, shu ondayoq haligi zotlarga murojaat etib, «janoblar, niyatimizga tushunib, kasalning sababi dil dardi ekanligini darhol fahmladilar, xizmatlari uchun ming tashakkur, bu qaysar otani qo'rqitib qo'yish zarur edi, aks holda o'jarligi qizini halok qilardi», deb ularning ko'nglini ko'tardi. Mashhur zotlarning har biri, donolig-u zakovatimga hamma qoyil qoldi, deb o'zlaridan o'zlari xursand bo'lib jo'nab ketishdi.

Kirsanov ularning qo'llariga attestatsiyalarini shoshilinch tutqazdi-da, bemorning yoniga kirib, ishimiz o'ngidan keldi, dedi. Og'zidan shu gap chiqishi bilan qiz uning qo'lidan qattiq ushlab o'pmoqchi bo'lgandi, Kirsanov qo'lini arang tortib oldi. «Otangiz ham sizga shu gapni aytgani kirmoqchi bo'ladi, lekin uni hali-beri yoningizga yo'latmayman, – dedi u, – o'zini qanday tutishi haqida u avval mening leksiyamni eshitishi kerak. Kirsanov qizga, otangizning miyasiga quyib turaman, batamom ko'ndirmaguncha tinchimayman, dedi.

Polozov konsilium hukmidan dovdirab, ancha iztirob chekdi, u Kirsanovga endi boshqacha munosabatda bo'la boshladi, Marya Aleksevnaning tushiga Lopuxov savdogar bo'lib kirganda unga qanday mehribonchilik qilgan bo'lsa, Polozov ham Kirsanovga shunday nazar bilan qaradi. Kecha Polozovga hamma narsa tabiiyday ko'rinib turgandi: «Yoshim ham sendan katta, tajribam ham ko'proq, dunyoda mendan aqlli odam yo'q; o'z aql-idrokimni ishga solib ikki million so'm jamg'arganimdan keyin (haqiqatan anig'i to'rt million emas, ikki million edi), hali ona suti og'zidan ketmagan sen chuvrindining gapiga quloq solib o'tiraymi – sen avval shuncha pul top, keyin men bilan adi-badi aytishgin», degan gapni xayolidan o'tkazib yurardi, endi bo'lsa: «Voy, ayiqpolvon-ey, ishni boshqa yoqqa burib yuborganini qara-ya; burib yuborishga ham o'lguday usta ekan», deb qoldi, Kirsanov bilan gaplashgan sari boshqa bir manzara, gusarlik vaqtidagi esidan chiqib ketgan eski xotiralari ayiqpolvon degan tushunchasining yoniga kelib qo'shilaverdi: bereytor[1] Zaxarchenko «Gromoboy» (Tulpor)ni minib

[1] Otni minishga o'rgatuvchi.

turganmish (Jukovskiyning balladalarini o‘qish o‘sha zamonlarda yosh qizlar o‘rtasida rasm bo‘lgandi, ulardan qisman harbiy va statskiy yigitlar orasida ham yoyilgandi), Zaxarchenko minib olgan «Gromoboy» o‘ynoqlab turganmish, otining lunji qip-qizil qonga bo‘yalgan, dabdala emish. Polozov birinchi savoliga Kirsanovning javobini eshitar ekan, biroz dahshatga keldi:

– Nahotki siz rostdan ham uni o‘ldiradigan dori bermoqchi bo‘lgandingiz? – deb so‘ragan edi.

– Bo‘lmasa-chi! Berishim turgan gap edi, – pinagini ham buzmasdan javob berdi Kirsanov.

«Bu qanday kallakesar! Tovuq so‘ygan oshpazday gapiradi-ya.

– Shunday qilishga qo‘lingiz borarmidi?

– Shunga ham bormasa, bu qo‘lni nima qilaman, – yo meni bir lapashang deb bildingizmi?

– Siz odam emas, bir dahshat ekansiz! – deb takrorladi Polozov.

– Demak, siz hali dahshatli odamlarni ko‘rmagan ekansiz, – miyig‘ida kulib javob berdi Kirsanov, ichida: «Seni Raxmetov bilan ro‘baro‘ qilib qo‘yish kerak ekan», deb qo‘ydi.

– Bu shifokorlarning hammasini qanday qilib o‘z aytganingizga ko‘ndirdingiz?

– Bundaylarni ko‘ndirish qiyin ekanmi! – dedi Kirsanov sal aftini burishtirib.

Shu payt Polozovning shtab-rotmistr Volinovga: «Zoti oliylari, menga hali shu shalpangquloqni minib o‘rgat, deb olib keldilarmi? Bunga minishni o‘zimga or bilaman», deya arz qilib turgan Zaxarchenko tushib qoldi.

Kirsanov Polozovning bu kabi ust-ustiga berayotgan bir xil savollarini to‘xtatib, siz endi mana bunday qilasiz, deya nasihat boshladi:

– Esingizda bo‘lsin, odam deganga hech kim xalaqit bermasa, shundagina u biron narsa ustida fikr yuritishi mumkin, jahlini chiqarmasalar, shundagina u darg‘azab bo‘lmasligi mumkin; xayol surishdan mahrum etmasalar fikr-o‘ylari yaxshi-yomonligini o‘zi bamaylixotir o‘ylab, bir qarorga kelishiga imkon bersalar, shundagina bu narsaning qadriga yetmaslikni bas qiladi. Agar, Solovsov siz ta’rif qilganday yaramas bo‘lsa, – men ham uning

shunday yaramas odamligiga mutlaqo ishonaman, – uning yaramasligini qizingiz o‘zi ham bilib oladi; lekin siz qizingizga xalaqit bermang, qizingizda, otam Solovsovni ataylab yomonotliq qilmoqchi, oramizni buzmoqchi, degan fikr tug‘ilishiga bahona topib bermang. Uni yomonlab bir og‘iz gapirsangiz ham ishimizni ikki hafta keyinga surib yuborasiz, bir necha og‘iz gapirguday bo‘lsangiz, butun harakatlarimiz bekor ketadi. Siz o‘zingizni chetga olib turishingiz kerak. – Nasihatlariga mana bu xildagi vajlarni ham qo‘shib qo‘ydi: «Ra’yingiz bo‘lmasa, sizni biron ishga ko‘ndirish oson gap deysizmi? Men esa sizni ko‘ndirdim; demak, nima qilish kerakligini bilar ekanman; bas, shunday bo‘lgandan keyin, menga ishonavering, nima desam, shuni qiling. Nima gapirayotganimni o‘zim bilaman, siz quloq solsangiz bo‘lgani. O‘sha vaqtlarda Polozov singari kishilarning hiqildog‘idan tutib, bez bo‘lib gaplashmasang, boshqa iloji ham yo‘q edi. Polozov yuvosh, muloyim tortib qoldi, o‘zini aytganlariday tutib yurishga va’da berdi. Lekin Kirsanovning bama’ni odamligiga, uning gapiga quloq solish lozimligiga ko‘zi yetganidan keyin ham, bu o‘zi qanday odam ekan, deya hayron bo‘lib yurdi. O‘zi-ku men tomonda, lekin shu bilan birga qizimning ham yonini olyapti; meni qizimga bo‘ysunishga majbur qilmoqchi, qizimni ham o‘z fikridan qaytsin, demoqchi: bu yog‘i qandoq bo‘ldi?

– Bundan oson gap yo‘q, qizingizning bama’ni, fahm-farosatli bo‘lishiga xalaqit bermang, demoqchiman, vassalom.

Polozov Solovsovga xat yozdi, juda muhim bir ish chiqib qoldi, kelib ketsangiz, deb o‘tindi; Solovsov kechqurun kirib keldi-da, chol bilan muloyim, lekin qadr-qimmatini yerga urmay gaplashib, dardini izhor etdi, u unashtirilgan kuyov deb e’lon qilindi, to‘y esa uch oydan keyin bo‘ladigan bo‘ldi.

VII

Kirsanov o‘z ishlarini tashlab qo‘yishi mumkin emasdi: Katerina Vasilyevnaning bunday ko‘rlarcha dovdirab yurishlaridan tezroq qutulishiga yordamlashmasa yana bo‘lmaydi. Polozovga ko‘z-quloq bo‘lib turishi undan ham zarur, otasi aralashmasdan bir chekkada qarab turishga ko‘ngani bilan uning ham, eng to‘g‘ri yo‘l shu

ekan, degan ishonchini quvvatlab turish kerak. Lekin tanglik o'tib ketgandan keyin dastlabki kunlarda Kirsanov Polozovlarnikiga borib turishni o'ziga ep ko'rmadi: Katerina Vasilyevna, albatta, hali ham qattiq hayajonda; agar kuyovning bema'ni odam ekanligini Kirsanov ham o'z ko'zi bilan ko'rsa (shunday bo'lishi turgan gap edi), kuyovni yoqtirmaganini ochiq aytmasdan, indamay qo'ya qolganda ham unga ochiq-oydin baho berishgina emas, ishning beliga tepadi, qizning yarasini yangilab qo'yadi. Kirsanov oradan bir yarim hafta o'tkazib, o'shanda ham o'zi bevosita kuyov bilan uchrashmay, oldin Katerina Vasilyevna ijozatini so'rash niyatida ertalab kirib keldi. Katerina Vasilyevna ancha tuzalib, o'ziga kelibdi, hali juda ozg'in, rangi siniqqan ko'rinadi-yu, ilgarigi mashhur doktor har xil dori-darmon qilib jon kuydirib yurgani uchun bir qadar tuzuk bo'lib qolibdi; Kirsanov ketar chog'ida: «Endi shu doktoringizga qarata bering; hamma dorilarini ichsangiz ham endi hech bir zarari yo'q», dedi. Katerina Vasilyevna Kirsanovni ko'rib juda suyundi, lekin u nima ish bilan kelganini aytganida, unga hayron bo'lib tikilib qoldi.

– Meni o'limdan saqlab qolasiz-u, kelib turishga ijozat so'rab o'tirasizmi!

– U borida kelsam, beijozat mening ishimga aralashmoqchimi, deb o'ylab qolishingiz mumkin. Odatimni bilasiz, men birovning foydasini ko'zlab biron ishga tutinsam, shu kishidan beijozat hech narsa qilmayman.

Kirsanov ertasigami, indinigami kelganda razm solib qarasa, kuyov xuddi Polozov ta'riflab berganday odam ekan, buni darrov payqadi. Polozovning o'zi binoyiday, olgan darsi kor qilib, qiziga xalaqit bermay, uni o'z holiga qo'yib qo'yibdi. Kirsanov oqshomga qadar shu yerda bo'lib, kuyov to'g'risida o'ylaganlari haqida og'iz ham ochmasdan jo'nab ketdi, Katerina Vasilyevna bilan xayrlashganida ham, kuyovning yoqqan-yoqmaganligi to'g'risida ishora ham qilgani yo'q.

Katerina Vasilyevnaning ko'nglida gumon, shubha tug'ilishi uchun shu ham kifoya edi. Ertasiga Katerina Vasilyevnaning xayoliga: «Kirsanov u haqda menga bir og'iz ham gap aytmadi-ku. Kirsanovning ko'ngliga yoqqan bo'lsa, menga aytardi. Nahotki yoqtirmagan bo'lsa? Kirsanovga uning nimasi yoqmaganikin?» – degan fikr qayta-qayta kelaverdi. Kechqurun

kuyov kelganda, Katerina Vasilyevna uning muomalasiga razm soldi, so'zlarining ma'nosini chaqib ko'rdi. O'ziga o'zi savol berib nega bunday qilyapsan, deb so'radi; Kirsanov hech qanday nuqson topmasa kerak, topishi mumkin emas, deb o'ziga o'zi tasalli ham berdi. Ha, xuddi shunday qildi. Lekin suyukli kishing benuqson, deb o'zingga o'zing uqtirmoqchi bo'lasan, ko'p o'tmay nuqsoni ko'rinib ham qoladi.

Bir necha kundan keyin Kirsanov yana keldi, bu gal ham kuyovning yoqqan-yoqmaganligi haqida Katerina Vasilyevnaga bir og'iz ham gapirmadi. Bu gal Katerina Vasilyevnaning sabri chidamadi, oqshom ziyofati oxirlab qolganda:

– Fikringiz qanday? Nega hech nima demaysiz? – deb so'radi.

– Bilmadim, fikrimga quloq solarmikin, xolisona fikr deb bilasizmi-yo'qmi, bunisini bilmayman.

– Sizga yoqmadimi?

Kirsanov indamadi.

– Sizga yoqmadimi?

– Men bir narsa dedimmi?

– Demasangiz ham ko'rinib turibdi. Nega sizga yoqmadi?

– Nega yoqmagani ma'lum bo'lguncha sabr qilaman.

Ertasi kechqurun Katerina Vasilyevna Solovsovni yanada jiddiyroq ko'zdan kechirdi. «Hammasi binoyiday; Kirsanov noinsoflik qilyapti; unga nimasi yoqmaganligini nega men bilolmayapman?» Birovga razm solib ko'rishni bilmasligidan ranjidi: «Nima balo, shunchalik befahmmanmi?» – deb o'ylab qoldi. Xuddi shu narsa izzat-nafsiga tegdi, bu esa kuyovning sho'ri edi.

Kirsanov yana bir necha kunlardan keyin kelib qarasa, jiddiyroq harakat qilish payti kelibdi. Bunga qadar Kirsanov, bevaqt oraga suqilib, Katerina Vasilyevnani cho'chitib qo'ymay, degan xayolda Solovsov bilan gaplashishdan o'zini chetga olib yurgandi. Bu gal Kirsanov Katerina Vasilyevna bilan Solovsovning yonida o'tirgan bir to'p odamlar orasiga kirib oldi-da, Solovsovning fe'l-atvorini ochib, uni gapga aralashishga majbur qiladigan masalalardan gap boshladi. Gap boylik ustida edi. Katerina Vasilyevnaga Solovsovning butun fikr-zikri boylik orttirish to'g'risidagi gaplarga bandday ko'rinadi; gap ayollar xususida borganda, Solovsov juda

yengiltabiat odamday ko'rindi; suhbat oila hayotiga ko'chgandi. Katerina Vasilyevna, bunday er bilan turgan xotinning sho'ri quriydigan ko'rinadi, degan fikrni miyasidan chiqarib tashlashga shuncha urinib ko'rsa ham bo'lmadi.

Masala pishib yetildi. Katerina Vasilyevna uzoq vaqtgacha uxlayolmay, Solovsov to'g'risida shunday xayollarga borib, uni yerga urayotgani uchun o'zini o'zi koyib, ho'ng-ho'ng yig'ladi. «Bekor gap, bemehr emas; xotinlarga past nazar bilan qaramaydi: boyligimni emas, o'zimni yaxshi ko'radi». Agar bu e'tirozlar boshqa birovning so'ziga javob bo'lganda, o'jarlik qilib miyasidan chiqarib tashlolmagan bo'lardi. Lekin u o'ziga o'zi e'tiroz bildirdi; o'zini kashf etgan haqiqatga uzoq qarshilik bildirolmaysan – bu o'z haqiqating, jonajon haqiqating; bu haqiqatda biron ayyorlik bor, deb shubha qilishing mumkin emas. Kecha Solovsovni Kirsanov qanday sinagan bo'lsa, bugun oqshom uni sinovdan o'tkazdi. Katerina Vasilyevnaning o'zi sinovdan o'tkazdi. Katerina Vasilyevna, uni bekorga kamsitishayotganini o'z ko'zim bilan ko'rmoqchiman, deb o'ziga tasalli berdi, shunda o'zida Solovsovga ishonchsizlik tug'ilib qolganini o'zi ham sezib qoldi. Yana allamahalgacha uxlayolmay yotdi, lekin endi undan xafa bo'ldi: nega og'zidan shunday gaplar chiqdi, shubhalarimni tarqatib yuborish o'rniga, kuchaytirdi? O'zini ham koyidi; lekin bu gal: «Shunchalar ham ko'r bo'lamanmi?» – degan pushaymon aniq sezilib turardi.

Albatta, oradan bir kun, ikki kun o'tgandan keyin Katerina Vasilyevnani: «Agar u to'g'rida yanglishgan ekanman, hademay xatoyimni tuzatish ham mumkin bo'lmay qolar», degan xayol bilan butun vujudini vahima bosdi.

Kirsanov yanagi safar kelib qarasa, endi Katerina Vasilyevna bilan gaplashadigan xonasi kelibdi.

– Siz u haqdagi fikrimni bilmoqchi bo'lgan edingiz, – dedi Kirsanov, – mening fikrim esa sizning fikringizchalik ahamiyatli emas. Siz o'zingiz u haqda qanday fikrdasiz?

Endi Katerina Vasilyevna indamadi.

– Xiralik qilishga haddim sig'maydi, – dedi-da, Kirsanov gapni boshqa yoqqa burib yubordi, birozdan keyin uning yonidan ketdi.

Yarim soatdan keyin Katerina Vasilyevnaning o'zi uning yoniga bordi:

– Maslahatingizni ayamang: taraddudda qolganimni ko‘rib turibsiz-ku.

– Agar shu ahvolga tushib qolgan bo‘lsangiz, nima qilish kerakligini o‘zingiz bilganingizdan keyin, sizga birovning maslahatining nima keragi bor?

– Mubhamligim meni tark etguncha kutib turaymi?

– O‘zingiz bilasiz.

– To‘yni keyinga qoldiraman.

– Shuni ma’qul ko‘rsangiz, keyinga qoldirgan yaxshi.

– Lekin u bunga qanday qararkin?

– Qanday qarashini ko‘rganingizdan keyin, bundan ham yaxshiroq yo‘lini o‘ylab ko‘ring.

– Qaysi yuragim bilan unga aytaman?

– Sizga og‘ir kelsa, iltimos qiling, otangiz aytsin.

– Men birovga orqa qilishni xohlamayman. O‘zim aytaman.

– Agar o‘zingiz aytgudek holingiz bo‘lsa, bunga nima yetsin.

Boshqalarning, masalan, Vera Pavlovnaning ishini albatta bunday paysalga solib bo‘lmasdi. Har bir mijozning o‘ziga xos talabi bo‘ladi: agar g‘ayratli odamning sustkashlikdan jahli chiqsa, cho‘rtkesarlik yuvosh odamning g‘azabini keltiradi.

Katerina Vasilyevna unashib qo‘yilgan kuyovi bilan shunday gaplashdiki, hatto Kirsanov ham bunchalik bo‘lar, deb o‘ylamagandi; u, Solovsov tulkilik qilib, bosh egib, qizning hamma gaplariga ko‘nadi, yalinib-yolvoradi, deb o‘ylagandi. Solovsov juda og‘irtabiat odam bo‘lishiga qaramasdan, shuncha davlat qo‘lidan chiqib ketayotganini ko‘rgach, o‘zini ortiq bosib turolmadi, zig‘irtakkina imkoniyatni ham qo‘lidan boy berdi. U yakkash Polozovni yomonotliq qila berdi, otangiz sizni mendan aynityapti, deyaverdi; Katerina Vasilyevnaga siz butun ixtiyoringizni otangizga berib qo‘yibsiz, undan qo‘rqasiz, hozir bo‘lsa uning amri bilan ish qilyapsiz, dedi. Polozov bo‘lsa, qizining to‘yni keyinga surmoqchi bo‘lganidan hali xabari yo‘q; otasi o‘z ixtiyoriga tashlab erk berib qo‘yganini qizi doim sezib yurardi. Otasi sha’niga aytilgan haligi gaplar nohaq bo‘lganidan qiz juda xafa bo‘ldi, Solovsov qizni irodasiz bir laqma mavjudot deb bilganidan juda ori keldi.

– Qarab tursam, siz meni boshqalarga qo‘g‘irchoq bo‘lib qolibdi, deb o‘ylayapsiz shekilli?

– Ha, shunday, – dedi zarda bilan Solovsov.

– Men otamni o‘ylamay, o‘limimga rozi bo‘lgandim, siz shuni ham tushunmabsiz! Shu topdan boshlab oramiz ochiq, – dedi-yu, xonadan chiqdi-ketdi.

VIII

Shu voqeadan keyin Katerina Vasilyevna uzoq vaqt ma’yus bo‘lib yurdi, ma’yusligi shu voqeadan boshlangan bo‘lsa ham bu juz’iy hodisaga hech qanday aloqasi yo‘q edi. Shunday tabiatli kishilar ham borki, ayrim faktlar ular uchun qiziq tuyulishi o‘rniga ularga yana ham ko‘proq ta’sirini o‘tkazadigan umumiy fikr-xayol paydo etadi, xolos. Agar bunday kishilarning aqli o‘tkir bo‘lsa, ular umumiy g‘oyalarni o‘zgartiruvchi zot bo‘lib taniladi, qadimgi zamonlarda bunday kishilar buyuk faylasuf bo‘lib yetishardi: Kant, Fixte, Gegel biron-bir alohida masala bilan shug‘ullangan emaslar, buni o‘zlariga ep ko‘rmasdilar. Bu, albatta, erkaklar ustidagi gap: hozirgi vaqtda xotin-qizlarda o‘tkir aqlning o‘zi yo‘q, – ko‘rdingizmi, tabiat temirchilarga ko‘hlik aft-u angor, tikuvchilarga kelishgan qaddi-qomat, etikdo‘zga hid biladigan o‘tkir burun ato qilmagani singari, xotin-qizlarga ham o‘tkir aql nasib qilmabdi, – hamma illat tabiatda. Shu tufayli xotin-qizlar orasida buyuk aql egalari uchramaydi. Aqli zaif, tabiati haligiday odamlar o‘larday lanj bo‘ladi. Rasmona aql egalari xayolotga, tinch-osoyishta hayotga moyil, umuman, xayolparast bo‘ladi. Buning ma’nosi, ular xom xayol kishilar ekan, degan gap emas: ko‘plar xayol surishga ojiz bo‘ladi, bundaylar tuppa-tuzuk kishilar bo‘lsa ham shunchaki osoyishta xayol surib yotishni yaxshi ko‘rishadi.

Katerina Vasilyevna Solovsovni maktublari uchun yaxshi ko‘rib qolgandi; shu sevgi yo‘lida o‘limga ham rozi edi, sevgisi faqat xayoliy sevgi edi. Katerina Vasilyevnaning o‘sha vaqtlarda xayolparastlikka berilib ketgani shundanoq ko‘rinib turibdi. Polozovlar xonadonida yig‘ilishib turadigan razil ulfatlarning taralabedod turmushi kishini jo‘shqin hayotga sira chorlamasdi. Demak, Katerina Vasilyevnadagi bu xususiyat uning o‘z tabiatida bor edi. Notinch g‘ala-g‘ovur hayotdan u allaqachon bezgan; yaxshi ko‘rgan narsasi kitob o‘qib, xayol surish. Endi boylikning shu g‘ala-

g‘ovurigina emas, uning o‘zi ham joniga tegdi. Shu tuyg‘usi tufayli uni, ajoyib tabiatli qiz ekan, deb o‘tirmang: kamtar va muloyim tabiatli jami boyvuchchalarning ham qismati shu bo‘ladi. Katerina Vasilyevnada bu tuyg‘u odatdagidan ertaroq voyaga yetgan, chunki u g‘am-g‘ussaga bevaqt duchor bo‘lgan.

«Kimga ishonishim mumkin? Nimaga ishonishim mumkin?» – Solovsov voqeasidan keyin Katerina Vasilyevna o‘ziga o‘zi shunday savol berdi va hech kimga, hech nimaga ishonish mumkin emasligiga ko‘zi yetdi. Shahardagi jami tamagirlik, ayyorlik, aldamchilik otamning davlati tevaragida girdikapalak bo‘lib qolgan. Katerina Vasilyevnani tamagirlar, yolg‘onchilar, ochko‘zlar o‘rab olgan; Katerina Vasilyevna sha’niga aytilgan har bir og‘iz so‘z otasining millionlarini mo‘ljallab aytilardi.

Katerina Vasilyevnaning fikri tobora jiddiylashdi. Qiz o‘ziga xalaqit berib turgan boylik, boshqalarni azob-uqubatlarga duchor qilgan kambag‘allikka oid umumiy masalalar bilan qiziqib qoldi. Otasi to‘g‘nag‘ich olishga ancha-ancha pul berib turardi; qiz esa shafqatli, mehribon ayollar singari, kambag‘allarga yordam qilib turardi. Lekin u kitob o‘qirdi, ko‘p o‘ylardi, bora-bora bu yordamlaridan keragicha naf tegmasligini seza boshladi. Mug‘ambir, pastkash kambag‘allar uni ko‘pincha aldashardi; buni o‘zi ham bilardi; yordamga muhtoj kishilarga bu puldan tuzukkina naf yo‘qligiga ham aqli yetardi: ular birmuncha vaqt muhtojlikdan qutulganday bo‘lardilar-u, lekin yarim yil, bir yildan keyin yana avvalgi gadolik ahvoliga tushib qolaverardilar. Katerina Vasilyevna: «Pul kishilarni buzarkan, boylikning nima keragi bor! Nima sababdan qashshoqlik kambag‘allarga yopishib olgan? Boylar singari befarosat va yaramas kambag‘allar muncha ko‘p?» – deb xayol suradigan bo‘lib qoldi.

O‘zi xayolparast, lekin tabiati singari xayoli ham osoyishta, o‘zi kamtar, behasham, xayollarida ham dabdaba kam. Eng sevimli adibi Jorj-Zand; lekin o‘zini Leliya deb ham, Indiana deb ham, Kavalkante deb ham, hatto Konsuelo deb ham xayol qilmaydi, u o‘zini Janna deb, lekin ko‘proq Jenevyeva deb xayol qilardi. Jenevyeva uning sevimli qahramoni. Jenevyeva dalada gullar terib, kashtalarga shu gullardan nusxa olardi. Mana bir kun u Andreni uchratib qoldi, visol damlari ham shirin, ko‘ngilli! Bir-birlarini

yaxshi ko'rib qolishdi; bu uning xayollari edi, bular faqat xayolligini o'zi ham bilardi. Lekin Katerina og'ir, kamsuqum Neytingel xonimning taqdirini havas qilib, xayol surishni yaxshi ko'rardi, ammo butun Angliya bu xonimning shaydosi ekanligidan tashqari, hech kim u haqda hech nima bilmasdi, hech nima bilishining ham keragi yo'q edi: o'zi yoshmi? Boy-badavlat qizmi yoki kambag'almi? O'zi baxtini topgan qizmi yoki baxtsizmi? Bu haqda hech kim hech nima demaydi, bu haqda hech kim o'ylamaydi. Qrim va Skutaridagi ingliz gospitallarida bemorlarga tasalli berib turgan bu farishta qiz haqiga hamma duo qiladi xolos. U qiz urush tamom bo'lgandan keyin o'zi omon saqlab qolgan yuzlab kishilar bilan yurtiga qaytib, yana umri bemor boqish bilan o'tgan ekan... Bular Katerina Vasilyevnaning xayoli, qani endi shu xayollarim haqiqatga aylansa, deb orzu qilib yuradi u. Xayollari uni Jenevyevadan va Neytingel xonimdan nariga eltmasdi. U orzu-xayollar dunyosida kezardi, deb aytish mumkinmi? Unga xayolparast nomini berish mumkinmi?

Jenevyeva muttaham, yaramas oliftalar g'ovur-g'uvuri orasida, Neytingel xonim behuda zeb-ziynatlar ichida yuragi qisilmasligi, g'am-g'ussa chekmasligi mumkinmidi? Shu sababdan ham otasi xonavayron bo'lganda Katerina Vasilyevna hasrat-nadomatdan ko'ra ko'proq suyundi, hali tetik otasining qarib, bujmayib qolganini ko'rib, yuragi achishdi: boshqalarga yordam tariqasida ulashib turuvchi puli juda kamayganidan afsuslandi; otasi bilan uni ko'rganda to'rt bukilib ta'zim bajo keltirgan to'p-to'p odamlarning endi nazar-pisand qilmay qo'yganini ko'rish avval izzat-nafsiga qattiq tegdi. Lekin ablah, jonga teguvchi muttaham odamlardan, bu xira odamlar o'rtasida qisilib kun ko'rishlardan, riyokorligi va pastkashligini ko'rib g'azablanib yurishlardan qutulganiga juda quvondi; endi o'zini biram erkin his qildiki! Baxtiyorlikka ham umid bog'ladi: «Endi biron kishi menga ko'ngil qo'ysa, otamning millionlariga emas, o'zimga ko'ngil qo'yadi».

IX

Polozov stearin zavodini sotishga ahd qildi, bu zavodda payi bor, o'zi shu zavodni idora qilib turgandi. Yarim yilcha yoki ko'proq xo'p xaridor qidirib, axiri topdi ham. Xaridorning

tashrif qog'ozchasiga Charles Beaumont deb yozilgandi-yu, lekin bilmaganlar qabilida Sharl Bomon deb emas, Charlz Byumont deb o'qirdi, shunday talaffuz qilishi ham tabiiy, xaridor Londondagi Xodchson, Loter va sheriklarining moy va stearin xarid qiluvchi agenti edi. Zavod aksiyali jamiyatining moliya va ma'muriy ahvoli juda chatoqlashganidan, zavod ishlari yurishmay qolgandi; biron baquvvatroq firmaning qo'liga tushsa, zavoddan ko'p foyda undirish mumkin edi: firma zavodga 500–600 ming so'm sarflab, 100 000 so'm daromad mo'ljal qilsa ko'tarardi. Agent juda halol odam edi: firma zavodni sotib olishga maslahat berishdan avval zavodni yaxshilab ko'zdan kechirdi, hisob-kitoblarini puxta tekshirib qaradi; shundan keyingina zavodni sotish ustida firma bilan muzokara boshlandi va bizning aksiyador jamiyatimizning tabiatiga ko'ra, uzoq vaqt savdolashib yurdi; bu aksiyadorlar Troyani o'n yil qamal holatida tutishdan zerikmagan yunonlarning ham toqatini toq qiladigan jamiyatlar edi. Polozov esa, eski vaqtlardagi odatiga, ya'ni kerak kishilar bilan yaxshi muomalada bo'lish odatiga ko'ra, agentning ko'nglini ovlab yurdi, uni uyiga taklif etib, tez-tez mehmon qildi. Agent bunga uchmadi, ancha vaqtgacha Polozovnikiga mehmondorchilikka bormay qo'ydi; lekin bir kuni jamiyat idorasi bilan muzokarada juda uzoq vaqt o'tirib charchadi, qorni ham taom tilab qolgandi. Polozovnikida ovqatlanishga rozi bo'ldi, Polozov shu binoning o'zida turardi.

Har qanday Charlz, Jon, Jeyms, Vilyam singari, Charlz Byumont ham, sirini ochib, ichidagini to'kib soladiganlardan emas; lekin undan so'rab qolishsa, o'z sarguzashtini uch-to'rt og'iz so'z bilan bo'lsa-da aniq va ravshan gapirib berardi. O'zim kanadalikman, derdi; rost, Kanadadagi aholining salkam yarmi fransuz mustamlakachilarining avlodlari; uning oilasi ham shu mustamlakachilardan, fransuzcha familiyada yurishning sababi ham shu, aft-basharasi ham har holda inglizlar yoki yankilardan ko'ra ko'proq fransuzlarga o'xshab ketadi. Lekin, – deb so'zini davom ettirardi u, – buvam Kvebek atroflaridan Nyu-Yorkka ko'chib borgan ekan; shunday hollar ham bo'ladi. Buvam Nyu-Yorkka ko'chib borar paytida otam hali yosh bola ekan. Keyin, albatta, ulg'aygan, balog'atga yetgan; xuddi shu kezlarda qandaydir bir badavlat odam, qishloq xo'jaligidagi taraqqiyparvarlardan biri o'z

yurtida Qrimning janubiy qirg‘og‘idagi tokzorlarini buzib tashlab, o‘rniga paxta plantatsiyalari ochmoqchi bo‘lgan ekan, ana shu boy, Shimoliy Amerikadan bir ish boshqaruvchi topib bersangiz, deb allakimdan iltimos qilgan; o‘sha boyga Kanadada tug‘ilib, endilikda Nyu-Yorkda turuvchi Jeyms Byumontni topib berishgan; kitobxon, siz bilan biz Peterburgdan yoki Kurskdan turib Ararat tog‘ini ko‘rmaganimiz kabi, bu Jeyms Byumont ham paxta plantatsiyalarini umrida ko‘rgan emas; bundan taraqqiyparvarlar o‘zi hamma vaqt shunday. Rost, amerikalik ish boshqaruvchi paxta plantatsiyasining nimaligidan butunlay bexabar esa-da, ishga biron zarar yetgani yo‘q, nega desangiz, Peterburgda tok o‘stirish bilan Qrimda paxtachilik qilish ikkovi bir gap. Shu narsa ma’lum bo‘lgandan keyin, amerikalik ish boshqaruvchi paxtachilik idorasidan bo‘shatilib, Tambov gubernasidagi zavodga vinopaz qilib yuborilibdi, butun umrini o‘sha yerda o‘tkazibdi, Charlz degan o‘g‘il ko‘ribdi, oradan ko‘p o‘tmay xotini vafot etibdi. Byumont beshlarga borganda, qariganimda bir kunimga yaratarman, deb jamg‘arib qo‘ygan anchagina pulini beliga tugib, Amerikaga qaytgan ekan. O‘sha vaqtda Charlz yigirmalarda ekan. Otasi o‘lgandan keyin Charlz Rossiyaga qaytib kelmoqchi bo‘libdi, chunki Rossiyada tug‘ilib, yigirma yoshigacha Tambov gubernasidagi bir qishloqda yashab katta bo‘lgan o‘zini rus deb bilar ekan. Otasi bilan Nyu-Yorkda yashaganida bir savdo idorasida xizmatchilik qilar ekan. Otasi o‘lgandan keyin Londondagi Xodchson, Loterlar firmasining Nyu-York idorasiga ishga o‘tibdi, sababi, bu idoraning Peterburg bilan bordi-keldisidan xabardor ekan; bu idorada ishlab o‘zini tanitgandan keyin, Rossiyada biron ishga joylashishim mumkin edi, u yerlarni o‘z yurtimday bilaman, degan ekan. Rossiyada shunday xizmatchisi bor firma, albatta, undan naf ko‘rishi aniq ekan, shu vajdan uni sinab ko‘rish uchun London idorasiga ishga ko‘chirishibdi, sinovdan o‘tkazishibdi, shu tariqa Polozovlarnikida ovqatlanib o‘tirgan kundan yarim yil burun firmaning yog‘ va stearin xarid qiluvchi agenti bo‘lib Peterburgga kelgan ekan, oyiga besh yuz funt moyana olarkan. Ana shu sarguzashtiga tamomila muvofiq keladigan, Tambov gubernasida tug‘ilgan, yigirma yoshga kirguncha sahni ellik yoki yuz chaqirim keladigan shu gubernada yolg‘iz bir amerikalik yoki ingliz bilan, ya’ni butun kuni zavodda, otasining yonida

o‘tuvchi Byumont, shu sarguzashtiga muvofiq, ruscha gapirganda naq rusning o‘zi bo‘lib ketar, inglizchani ham bemalol, yaxshi talaffuz etar edi; lekin har holda balog‘atga yetgan yillarida ingliz tilida gaplashiladigan mamlakatda bir necha yil turgan kishi bu tilni qanchalik mukammal bilsa, u ham shunchalik bilar edi.

X

Byumont ovqat vaqtida qarasa, faqat uch kishi: keksa chol-u, uning do‘ndiqqina, biroz xayolchan oq-sariq sochli qizi o‘tiribdi.

– Men biron vaqt, – dedi ovqat vaqtida Polozov, – zavod aksiyalarining nafi tegib qolar, deb o‘ylagan emasdim! Qarigan chog‘ingda yegan zarbang juda qattiq tegarkan. Yaxshiyamki, Katyaning mulkini boy bersam ham parvo qilmadi, davr surib turgan chog‘imda bular menikidan ko‘ra ko‘proq uning mulki edi, sarmoyaning ko‘pi Katyaning onasiniki edi, mening pulim oz edi; albatta, men bir so‘mini yigirma qildim, demak, bu mulkka merosdan ko‘ra, mening mehnatim ko‘proq singgan; hazilakam mehnatim singmagan! E-ha, ishning ko‘zini bilmasang, omading kelmaydi, – chol anchagacha shu taxlitda o‘zini o‘zi maqtab o‘tirdi, – qora ter to‘kib, sirasini aytsam, aql yugurtirib to‘plangan davlat edi, – deb so‘zini tugatdi-da, yana zarbaga bardosh berishing qiyin bo‘larkan, agar endi buning ustiga Katya ham qayg‘uradigan bo‘lsa, jinni bo‘lishim ham hech gap emasdi, Katya o‘zi qayg‘urishi u yoqda tursin, yana men cholga dalda berib turdi, deb takrorlab qo‘ydi.

Byumont Amerikada biron kishining tez boyishi yoki xonavayron bo‘lishiga hech taajjublanmaslikni odat qilganidanmi yoki fe’l-atvori shundayligidanmi, uch-to‘rt million dunyo orttirgan bu odamning aqliga qoyil ham qolmoqchi emasdi, singanidan keyin ham tuppa-tuzuk oshpaz saqlashini qo‘ymagan bu shaxsning ahvoliga achinib o‘tirish niyati ham yo‘q edi; lekin shu qadarli uzundan uzoq arzi holning biron joyiga achingandan, biron narsa deyishi kerak edi; shu sababdan u:

– Bo‘lmasa-chi, oiladagilarning hamjihatlikda bu dard-alamga bardosh berishining o‘zi ko‘ngilni ko‘tarib, tasalli beradigan hol-ku, – dedi.

– Karl Yakovlich, siz biron narsadan shubha qilyapsizmi, deyman? Katyaning parishonligini ko‘rib, qo‘ldan ketgan dunyosiga

yuragi achib yuribdi, degan xayolga bordingiz shekilli? Yo‘q, Karl Yakovlich, unday emas, siz uni bekorga ranjityapsiz. Ikkalamizning boshimizga bir kulfat tushgan: odamlarga ishonchimiz qolmadi, – dedi Polozov ko‘pni ko‘rgan qariyalar bolalarning yaxshi, lekin tajribasizlik qilib bildirgan fikrlari haqida aytadiganday yarim hazil, yarim jiddiy ohangda.

Katerina Vasilyevna qizarib ketdi. Otasi uning his-tuyg‘ularidan gap ochganligi qattiq tegdi. Lekin otaning mehr-muhabbatidan tashqari, boshqa ma’lum bir jihati ham bor, bunda ota gunohkor emas: hech gap qolmasa, undagi yo mushuk, yo kuchukdan gap ochiladi; bordi-yu mushuk ham, kuchuk ham bo‘lmasa, bola bahona bo‘ladi. Hech gap qolmasa, noilojlikdan gap ob-havoga ko‘chadi.

– Otajon, mening parishonligimga bunday ulug‘vor bir narsani sabab qilib ko‘rsatishingiz joizmikin, men xursandchilikni uncha yoqtirmasligimni o‘zingiz bilasiz-ku!

– Xomush bo‘lib yurish har kimning o‘ziga bog‘liq, – dedi Byumont, – lekin fikrimcha, zerikib o‘tirishni ma’zur tutib bo‘lmaydi. Zerikishni bizning og‘aynilarimiz – inglizlarga chiqargan; biz amerikaliklar zerikish nimaligini bilmaymiz. Zerikishga vaqtimiz ham yo‘q: ishimiz boshimizdan oshib yotibdi. Menga qolsa, menimcha (deb o‘z amerikanizmini tuzatdi), rus xalqi ham xuddi shunday: fikrimcha, uning ham ishi boshidan oshib-toshib yotibdi. Lekin chindan ham men ruslarda buning tamomila aksini ko‘rib turibman: ularda g‘amginlikka moyillik zo‘r ko‘rinadi, chamamda. Bu jihatdan inglizlar ruslar oldida ip esholmaydi. Butun Yevropaga, shu jumladan, butun Rossiyaga dunyoda o‘taketgan diqqinafas xalq deb nom chiqargan ingliz jamiyati gapdonlik, tetiklik, xushchaqchaqlikda fransuzlardan qancha keyinda tursa, ruslardan shuncha oldinda. Sizning sayyohlaringiz ham ingliz jamiyatining diqqinafasligidan rivoyat qilishadi! Shunday ekan, bu odamlarning o‘z uylaridagi narsalarini ko‘rmasligiga hayronsan kishi!

– Ruslar ma’yus yurib to‘g‘ri qilishadi, – dedi Katerina Vasilyevna, – ruslarning qanday ham ishi bor deysiz? Ishlari bo‘lmagandan keyin qo‘llarini qovushtirib o‘tirishsa nima bo‘pti? Menga biron ish topib bersangiz, men ham zerikishimni tark qilsam kerak.

– Siz o‘zingizga ish topmoqchimisiz? Bundan osoni bor ekanmi? Tevarak-atrofingiz jaholatga botganini, kechirasiz,

mamlakatingizni shunday deb aytganim uchun uzr, – deb o‘z anglitsizmini tuzatdi, – lekin men o‘zim shu mamlakatda tug‘ilib, shunda o‘sganman, bu yerlarni o‘z yurtim deb hisoblayman, shuning uchun ham tortishib o‘tirmayman, – turklarga xos g‘aflat, yaponlar ojizligi hukm surib yotganini ko‘rib turibsiz-ku. Men shoiringizga taqlid qilib, vataningizni yomon ko‘raman, chunki uni o‘z vatanimday yaxshi ko‘raman, deyman. Lekin vataningizda ish to‘lib-toshib yotibdi.

– To‘g‘ri aytasiz; lekin bir kishining, ayniqsa, ayol kishining qo‘lidan nima ham kelardi?

– Katya, sen axir bekor o‘tirganing yo‘q, ishlayapsan-ku, – dedi Polozov, – Karl Yakovlich, men sizga hozir Katyaning sirini ochaman. Zerikkanidan qizlarga dars beryapti. Har kuni talabalari kelib turadi. Katya ertalab soat o‘ndan soat birgacha, ba’zan undan ham ko‘proq vaqt shular bilan band.

Byumont Katerina Vasilyevnaga hurmat nazari bilan qarab qo‘ydi:

– Bu ishingiz, bizning, biz amerikaliklarning ko‘nglidagiday, albatta, men amerikaliklar deganimda erkin, shimoliy shtatlarni nazarda tutaman; janubiy shtatlar har qanday Mexikodan ham yomon, Braziliya qanday yaramas joy bo‘lsa, xuddi shunday (Byumont girt abolitsionistlardan edi[1]), bu ishingiz bizning ayni muddaomiz; shunday ekan, zerikishning nima keragi bor?

– Shu ham ish bo‘ptimi, janob Byumont? Menimcha, bu – ermakdan boshqa narsa emas; balki men xato qilarman; ehtimol, siz meni materialist dersiz...

– Odamlar: butun fikr-zikri dollar bo‘lib qolgan, deydigan millatga mansub bo‘lgan bir kishidan shunday ta’na eshitaman, deb o‘ylaysizmi?

– Siz hazilga olyapsiz, men chindan ham o‘z fikrimni aytishdan juda qo‘rqaman, yuragim dov bermaydi; bu fikrim, obskurantlarning, ma’rifatdan foyda yo‘q, degan targ‘ibiga o‘xshagan bir narsaday ko‘rinishi mumkin.

«Shunaqami, – deya ko‘nglidan o‘tkazdi Byumont, – bu qizning aqli shularga ham yetibdi-ya? Bu qiziq hol».

---

[1] XVIII asrning oxiri va XIX asrning birinchi yarmida Shimoliy Amerikada qullikni bekor qilishga tarafdor bo‘lganlar shunday deb atalardi.

– Men o‘zim obskurantman, – dedi u, – o‘zim janubiy shtatlardagi savodsiz qora tanlilarning sivilizatsiyali xojalariga qarshi shu qoratanlar tarafida turaman, amerikacha nafratim qo‘zg‘ab ketgani uchun meni kechirasiz. Lekin sizning fikringizni jon qulog‘im bilan eshitaman.

– Bilsangiz, janob Byumont, bu shunchaki oddiy bir narsa, lekin meni bunga hayot undadi. Qilayotgan ishim menga juda ham bir tomonlama ishday bo‘lib ko‘rinadi, xalqqa manfaat keltirish niyatida yurgan kishilarning e’tiboriga, jonbozlik ko‘rsatishiga arziydigan birinchi tomoni bu emas, men bunday o‘ylayman: odamlarning qornini to‘yg‘azsangiz, o‘qishni o‘zlari ham o‘rganib olishaveradilar. Ishni nondan boshlamoq kerak, aks holda, sarf qilgan vaqtimiz behuda ketadi.

– Shuni bilarkansiz, nega shundan boshlamaysiz? – dedi Byumont bir qadar jonlanib. – Bu qilsa bo‘ladigan ish, bizda – Amerikada shunday qilishlarini bilaman, – deb qo‘shib ham qo‘ydi.

– Men sizga aytdim-ku: bir o‘zimning qo‘limdan nima ham kelardi? Nimadan boshlashni ham bilmayman; bilganimda ham qani menda imkoniyat? Qiz zotining erki o‘zidamas. Men o‘z uyimdagina o‘zimga o‘zim xo‘jayinman. Lekin uyimda o‘tirib nima ham qila olardim? Kitobni ochib o‘qishga o‘rgatishdan boshqa nima kelardi qo‘limdan? Bir o‘zim qayoqqa ham borardim? Yolg‘iz o‘zim kim bilan ko‘rishdim-u, kim bilan uchrashdim? Yolg‘iz boshim bilan nima ham qila olardim?

– Katya, meni zolim otaga chiqarib qo‘yding shekilli, – dedi dadasi. – Adabimni berib qo‘yganingdan buyon menda ayb yo‘q.

– Dadajon, o‘sha kunlarim esimga tushganda o‘zimdan uyalib ketaman, go‘dak ekanman. Yo‘q, otajon, sizni yomon demayman, siz ra’yimga qo‘yib qo‘ygansiz. Jamiyat meni iskanjaga olgan. Shunday emasmi, Byumont, Amerikada qizlar bunchalik erksiz bo‘lmasa kerak?

– Gapingiz rost, biz bu jihatdan faxrlansak arziydi; albatta, bizda ham juda aytarlik darajada emas; lekin siz yevropaliklar bilan aslo taqqoslab bo‘lmaydi. Bizdagi xotin-qizlar ozodligi to‘g‘risida sizga aytganlari hammasi rost gap.

– Dada, janob Byumont zavodni sotib olgandan keyin, Amerikaga ketsak-chi, – dedi kulib Katerina Vasilyevna, – u yerda biron-bir ish qilardim. Yayrab-yashnashimni o‘shanda ko‘rardingiz!

– Peterburgda ham ish topiladi, – dedi Byumont.

– Qani, ko'rsating bo'lmasa.

Byumont ikki-uch soniya taraddudlandi. «Bu yerga nega kelib yuribman? Kim orqali tuzukroq bilish mumkin?» – deb o'ylab qo'ydi.

– Eshitmaganmisiz? Keyingi vaqtlarda iqtisodiy fan sohasida ishlab chiqilgan tamoyillarni amalda tatbiq qilish jihatidan ba'zi bir tajribalar bor, xabaringiz yo'qmi?

– Ha, o'qiganim bor; bu juda qiziq va foydali bo'lsa ajabmas. Men ham qatnashsam bo'ladimi? Qayerdan topsa bo'ladi?

– Buni Kirsanova xonim ta'sis etgan.

– U kim ekan? Eri shifokor emasmi?

– Siz uni bilasizmi? Bilsangiz, bu ish haqida u hech nima demadimi?

– Bu voqeaga ancha bo'lgan, u vaqtda uylangan emasdi; men juda qattiq kasal edim, u bir necha bor kelib, dardimga darmon bo'lgan. O'zi ham ajoyib odam. Xotini ham o'ziga o'xsharmikin?

Kirsanova bilan qanday tanishsa bo'larkin? Katerina Vasilyevnani Kirsanova bilan Byumont tanishtiradimi? Yo'q, Kirsanovlar hatto uning familiyasini ham eshitgan emas; hech qanday tavsiyaning keragi yo'q: unga e'tiqodimni ko'rsa, Kirsanovaning o'zi ham suyunsa kerak. Manzilini Kirsanov ishlaydigan joydan olish kerak.

XI

Polozova Vera Pavlovna bilan shu taxlit tanishgan edi; Polozova ertasi kuni erta bilan Vera Pavlovnaning yoniga bordi; Byumont ham bu ishga qattiq qiziqqanidan Katerina Vasilyevnaga yangi tanishi va yangi ishi qanday yoqqanligini bilish uchun oqshom payti uyiga kirib keldi.

Katerina Vasilyevna juda xursand edi. G'amginligidan asar ham qolmagan; xayolchanligi yo'qolib, yuz-ko'zlarida quvonch barq urgan. Katerina Vasilyevna Byumontga zavq bilan gapirdi – bir marta otasiga gapirib bergandi, lekin ertalab ko'rgan-bilganlarini bir marta hikoya qilgan bilan ko'ngli to'larkanmi, u gapirib charchamasdi: mana endi ko'ngli tog'day ko'tarildi, o'ziga yoqadigan ish topib oldi! Byumont jon qulog'i bilan tingladi, odam degan ham shunday bo'larmi? Katerina Vasilyevna jahli chiqib:

– Janob Byumont, sizdan ixlosim qaytyapti: nahotki buning sizga daxli bo‘lmasa, bu ish siz uchun faqat qiziq narsa xolosmi? – dedi.

– Katerina Vasilyevna, men o‘zimizda, Amerikada bularning hammasini ko‘rib kelganimni yodingizdan chiqarmaysiz; meni ba’zi bir tafsilotlari qiziqtiradi xolos: bu menga juda tanish ish. Meni bu yangi ishni yo‘lga qo‘yishiga sababchi bo‘lgan ba’zi bir shaxslar qiziqtirishi mumkin. Masalan, siz Kirsanova xonim to‘g‘risida nimalar deyishingiz mumkin?

– Voy xudo-ye, bo‘lmasa-chi, Vera Pavlovna menga juda ham yoqib qoldi; gap-so‘zlari biram muloyim, biram shirinki.

– Buni bir marta aytgandingiz.

– Bundan ortiq sizga yana nima ham derdim? Yana sizga nimasini aytay? Ko‘z oldimda shunday ishlar bo‘lib turgandan keyin, men yana bu haqda o‘ylab ham o‘tirarmidim?

– Ha, to‘g‘ri aytasiz, – dedi Byumont, – ishga qiziqib ketganingda odamlarni ham unutasan; har holda siz menga Kirsanova xonim haqida nimalar aytishingiz mumkin?

Katerina Vasilyevna Vera Pavlovna haqidagi butun xotiralarini bir yerga jamlamoqchi bo‘lib ko‘rdi, lekin bu xotiralarning hammasida Vera Pavlovna ilk bor qoldirgan taassurotdan boshqa hech narsa yo‘q; Katerina Vasilyevna Vera Pavlovnaning tashqi qiyofasini, gapirish odatini, yangi bir kishini ko‘rganingda dastlab ko‘zingga tashlanadigan hamma alomatlarini aniq va ravshan tasvirlab berdi; shundan keyin uning taassurotlarida chindan ham Vera Pavlovnaga taalluqli hech narsa uchramadi, naryog‘i nuqul ishxona taassuroti, – yana Vera Pavlovnaning ishxonani ta’riflab aytgan gaplari, bu hamma gaplarini Katerina Vasilyevna tushundi, lekin undan keyin qancha birga bo‘lsalar, Vera Pavlovnaning o‘zini, u bilan ilk bor ko‘rishgandagi gaplarini aytmaganda o‘zini tushunishga ojizlik qildi.

– Demak, bu gal sizdan Kirsanova xonim haqida ko‘p narsa eshitaman, deb o‘ylab yanglishgan ekanman; lekin sizni tinch qo‘ymayman: bir necha kundan keyin sizdan u haqda yana so‘rayman.

– Agar Vera Pavlovna sizni shunchalik qiziqtirsa, nega o‘zingiz u bilan tanishib qo‘ya qolmaysiz?

– Shunday niyatim bor: vaqti kelib tanisharman ham. Lekin shunga qadar uni yaxshilab bilib olishim kerak. – Byumont bir

daqiqa jim qoldi. – Bir narsani sizdan so‘raymi, so‘ramaymi yoki yaxshisi, iltimos qilaymi, deb o‘ylagandim; siz ular bilan gaplashganingizda familiyamni tilga olsangiz, sizdan ular haqida surishtirganimni yoki fursat topib ular bilan tanishmoqchi bo‘lganimni aytsangiz.

– Janob Byumont, gaplaringiz g‘alati, ilmoqli gaplar-a, – dedi Katerina Vasilyevna jiddiy bir ohangda. – Chamamda, men orqali ularni bilib olib, o‘zingiz panada turmoqchisiz.

– To‘g‘ri aytasiz, Katerina Vasilyevna: nima deb tushuntirsam ekan? Ular bilan tanishishga yuragim yo‘q.

– Gapingiz juda qiziq-ku, janob Byumont.

– Haq gap. Ochig‘ini aytsam, ular buni yoqtirishmas, deb qo‘rqaman. Kirsanovlar familiyamni eshitgan emas. Men ularning yaqin tanish-bilishlarining birontasi bilan yoki ularning o‘zi bilan biron masalada to‘qnash kelishim mumkin. Xullasi kalom, men ular bilan tanishsam, bu ularga xush kelish-kelmasligini bilib qo‘yishim kerak.

– Janob Byumont, gaplaringiz juda qiziq.

– Katerina Vasilyevna, men halol kishiman; ko‘nglingiz to‘q bo‘lsin, yuzingizni yerga qaratish niyatim yo‘q; siz bilan faqat ikkinchi marta ko‘rishib turibmiz, lekin hoziroq sizga hurmatim benihoya zo‘r.

– Janob Byumont, tuzuk odamligingizni o‘zim ham ko‘rib turibman-u, lekin...

– Agar meni tuzuk odam deb bilsangiz, xonadoningizga kelib turishimga, menga batamom ishonadigan bo‘lganingizdan keyin, yana Kirsanovlar haqida so‘rab turishimga ruxsat bersangiz. Yo bo‘lmasa, bu iltimosimni bajo keltirishni mumkin deb topganingizda, yaxshisi, ular haqida siz o‘zingiz gap ochsangiz. Buni hoziroq iltimos qilib qo‘ya qolaman, keyinchalik takrorlamayman. Iltimosimga xo‘p deysizmi?

– Marhamat, janob Byumont, – dedi Katerina Vasilyevna sal yelka qisib. – Lekin o‘zingiz o‘ylab ko‘ring...

Katerina Vasilyevna yana so‘zini tugatgisi kelmadi.

– Hozir sizda bir qadar ishonchsizlik tug‘dirganimnimi? Gapingiz to‘g‘ri. Lekin bu shubha tarqalguncha sabr qilaman.

XII

Byumont Polozovlarnikiga tez-tez keladigan bo'lib qoldi. «Kelsa nima? – deb o'ylardi chol, – bir-biriga munosib. Albatta, ilgarigi zamonlar bo'lsa Katyaga boshqacharoq qalliq nasib bo'lardi-ya, lekin Katya ilgari ham orzu-havasli, izzattalab qiz emasdi. Hozir bundan yaxshi qalliqni havas qilishi ham mumkin emas».

Chindan ham, Byumont unga munosib. O'zi ham, umrbod Rossiyada qolmoqchiman, Rossiyani o'z vatanim deb bilaman, degan. Tuzuk odam ko'rinadi: hech narsasiz ish boshlab, hozir o'ttiz yoshida tuppa-tuzuk ishni eplab turibdi. O'zi rus-u, yana buning ustiga dvoryanlardan bo'lganda, Polozovning ayni muddaosi edi; lekin ajnabiylar, ayniqsa, fransuzlar uchun buning taalluqli yeri yo'q; amerikaliklar alalxusus: Amerikada kishi bugun etikdo'zga shogirdlik yoki yer haydab mardikorlik qilsa, ertaga qarasangiz general, indiniga prezidentlik lavozimiga ko'tarilib turibdi, keyin yana idorachi yoki advokat. Amerikaliklar ajoyib xalq, ularning rasmi kishining puliga va aqliga qarab salom-alik qilishadi. «Shunisi aslida to'g'ri ham, – deb o'yladi Polozov, – o'zim shundayman-ku. Savdo ishlariga aralashdim, savdogar qiziga uylandim. Eng keragi, pul, lekin aql ham ortiqchalik qilmaydi, chunki aqling bo'lmasa, pul qayoqda deysan. U boyiydigan xilidan: shunday yo'lda turibdi. Zavodni sotib olib o'zi boshqaruvchi bo'ladi; keyin firma uni o'ziga sherik qiladi. Ulardagi firmalar bizdaqangi emas. Bu ham million-million bilan ish ko'radigan bo'ladi...»

Marya Aleksevna birinchi kuyovi to'g'risida, kuyovim ijara ishlariga aralashib ketadi, degan orzusiga yetmagani singari, Polozov ham kuyovim savdo ishlariga aralashib millioner bo'ladi, degan orzusiga yetmasligi mumkin. Lekin nima bo'lganda ham Byumont Katerina Vasilyevnaga juda munosib.

Polozov Byumontni o'ziga kuyov qilmoqchi bo'lib yanglishmadimikin? Agar cholda bu haqda biron shubha tug'ilgan ekan, Byumontning ularnikiga kelib turgan vaqtidan ikki hafta chamasi o'tgandan keyin, ehtimol, zavod savdosi bir necha kun cho'zilsa kerak, deganida cholning shubhasidan asar ham qolmadi; nahotki shu tufayli ish keyinga surilib ketsa: ular janob Loterni kutmaganlarida ham bir haftadan ilgari savdo shartnomalari tuzib

olishlari mahol gap edi, janob Loter esa Peterburgga to‘rt kundan keyin kelarmish.

– Ilgari siz bilan shaxsan tanish bo‘lmaganimda, – dedi Byumont, – bu ishni o‘zim bir yoqlik qilmoqchi edim. Lekin endi noqulaylik tomoni bor, chunki endi sizlar bilan qalin tanishman. Keyinchalik hech qanday anglashilmovchilikka o‘rin qoldirmaslik niyatida, firmaga xat yozdim, ya’ni savdo bitimi ustida gaplashib yurgan vaqtimda zavod boshqaruvchisi bilan tanishdim, bu kishining hamma kapitali zavod aksiyalariga solingan ekan, deb yozib yubordim, bu ishni bitirish uchun firmadan boshqa biron kishini yuborishlarini talab qilgandim, mana endi janob Loter kelyapti, dedi.

Ham andisha, ham aql bilan ish tutilgan. Shu bilan birga Byumontning Katyaga uylanish niyati borligi ham ravshan ko‘rinib turibdi: shunchaki tanish bo‘lganida bunday andishaga bormasdi.

XIII

Byumont bundan keyin ikki-uch bor kelganda Katerina Vasilyevna uni sovuqroq kutib oldi. Kirsanovlar oilasi bilan bordi-keldi qilib turish niyati borligini bilib gumonsiratib qo‘ygan, o‘zi ham uncha yaxshi bo‘lmagan bu kishiga Katerina Vasilyevna darhaqiqat bir qadar shubha bilan qarardi; o‘zi ham qiziq-da, gapiga qaraganda, ular bilan tanish emas ekan-u, lekin tanishsam, bu oilani ko‘p xushnud qilaman, deb hadiksirab, tanishishdan qo‘rqarmish. Shu safar kelganida ham Katerina Vasilyevna uni unchalik ishonqiramay, sovuqqina kutib olsa ham, keyin ikkovlari gapga tushib ketishdi. Katerina Vasilyevna avvallari – Byumont hamda Kirsanovlar bilan tanishishdan ilgari, bunday kishilarga duch kelgan emasdi. Qiz qiziqib qaragan hamma narsani u ma’qullaydi, ko‘nglidagini aynan topib gapiradi; Katerina Vasilyevna o‘zining eng jonajon o‘rtoqlari bilan ham (aytgancha, uning faqat bitta Polina degan dugonasi bo‘lib, u ham moskvalik bir fabrikachiga erga chiqib, allaqachon Moskvaga ko‘chib ketgan edi), hatto shu Polina bilan ham u bunchalik bemalol gaplashmasdi.

U dastlab, chamasi, Katerina Vasilyevna dardida emas, u orqali Kirsanovadan xabardor bo‘lib turish niyatida kelib turgan; lekin yangi tanishgan vaqtlaridan, zerikish yoki zerikmaslik to‘g‘risida

suhbatlashgan paytlaridan boshlab Katerina Vasilyevnani hurmat qilishi, uni yoqtirib qolganligi sezilib turardi. Ikkinchi safar kelganida Katerina Vasilyevna o'ziga ish topib, juda quvonib qolganini ko'rib, qizga e'tiqodi yana ham oshdi. Endilikda har gal qayta ko'rishganlarida uning ko'proq ko'ngil qo'yayotgani Katerina Vasilyevnaga tobora ravshanlashib borardi. Tez orada o'rtalarida oddiy do'stona munosabat paydo bo'ldi, bir haftadan keyin Katerina Vasilyevna unga Kirsanovlar haqida hadiksiramay dadil gapiradigan bo'lib qoldi; bu odamda biron-bir yomon niyat yo'qligiga qizning ko'ngli to'q edi.

Shunisi ham borki, Katerina Vasilyevna Kirsanovlar haqida gap boshlaganida, Byumont uning so'zini bo'lib:

– Darrov ayta qolasizmi? Meni hali yaxshi bilmaysiz-ku, – der ekan:

– Yo'q, janob Byumont, sizni keragicha bilib oldim: menga qiziq tuyulgan istagingizni ochiq aytgingiz kelmagan ekan, demak, bunga haqingiz bo'lmasa kerak, dunyoda sir tutiladigan gap oz deysizmi? – deb javob qaytarardi.

Shundan keyin Byumont:

– Men ular to'g'risida bilmoqchi bo'lgan narsamni avvaldan sabrsizlik bilan kutardim, endilikda bu narsa meni unchalik qiziqtirmay qo'yganini o'zingiz ham ko'rib turibsiz, – dedi.

XIV

Katerina Vasilyevnaga jon kirib, bahr-dili ochildi, shavq-zavqi doimiy oddiy bir kayfiyat tusini oldi, tetik tortib, bardam bo'lib qoldi, ko'ngli yorishdi. Katerina Vasilyevnaning nazarida Byumontni unga hammadan ko'proq jalb etgan narsa uning xuddi shu bahr-dili ochilgani edi. Vaholanki u qiz to'g'risida ko'p o'ylardi – bu juda aniq ko'rinib turardi. Byumont Katerina Vasilyevnaning Kirsanovlar to'g'risidagi gaplarini ikki-uch bor eshitganidan keyin, to'rtinchi marta kelganda:

– Men kerakligini bilib oldim. Rahmat sizga, – dedi.

– Nimani bilib ola qoldingiz? Men sizga, bir-birlarini juda yaxshi ko'risharkan, bir-birlaridan juda mamnun, dedim xolos.

– Bundan boshqasining menga keragi ham yo'q. Aytmoqchi, buni o'zim ham bilib yurardim.

Shu bilan gap boshqa masalaga ko'chardi.

Albatta, Byumont Kirsanov haqida birinchi gal so'raganida Katerina Vasilyevnaning xayoliga dastlab, Vera Pavlovnani yaxshi ko'rib qolgan bo'lsa kerak, degan fikr kelgandi. Hozir unday emasligi aniq bo'lib qoldi. Katerina Vasilyevna uni shunchalik yaxshi bilib oldiki, u hatto Byumontda birovni yaxshi ko'rarlik yurak ham bo'lmasa kerak, degan fikrga boradigan bo'ldi. Sevib qolishi ham hech gapmas. Bordi-yu, birovni sevadigan bo'lsa ham o'sha odam men bo'laman, deb o'ylardi Katerina Vasilyevna.

XV

Aytmoqchi, ular bir-birini yaxshi ko'risharmidi? Gapni aqalli Katerina Vasilyevnadan boshlaylik. Kunlardan bir kuni bir voqea yuz berib, Katerina Vasilyevna Byumontga mehribonlik ko'rsatib qoldi, lekin voqeaning oxirini eshiting! Oxiri ham boshlanishiday bo'lishi kerak edi, lekin boshqacha tus oldi. Byumont har kuni Polozovlarnikiga kelib turar, ba'zan uzoq o'tirib qolar, ba'zan tezda qaytib ketardi, lekin har holda kelmay qolmasdi; shu vajdan Polozov ham, Katerina Vasilyevnaga uylanish niyati bor, degan xayolda ko'ngli to'q yurardi; shu umid bilan yurishiga bundan boshqa biron vaj ham yo'q edi. Bir kun oqshom ham o'tdi, lekin Byumontdan darak bo'lmadi.

– Dada, unga nima bo'ldiykin, xabaringiz yo'qmi?

– Hech narsa eshitganim yo'q; vaqti bo'lmagandir-da.

Bugun oqshom ham Byumontdan darak bo'lmadi. Katerina Vasilyevna uchinchi kun erta bilan qayoqqadir otlandi.

– Yo'l bo'lsin, qizim?

– Ba'zi bir ishlarim bor.

Katerina Vasilyevna to'ppa-to'g'ri Byumontnikiga yo'l oldi. Byumont yenglari keng paltoda kitob o'qib o'tirgan ekan; eshik ochilganda kitobdan ko'z uzib qaradi.

– Katerina Vasilyevna, sizmisiz? Xo'p yaxshi qilibsiz, rahmat sizga, – Katerina Vasilyevnaning otasini qanday kutib olsa, shu ohangda, yo'q, navozish bilan kutib oldi.

– Nima gap, janob Byumont, nega shuncha kundan buyon daragingiz yo'q? Meni ancha tashvishga qo'ydingiz, sizsiz ancha zerikib qoldim.

– Hech narsa bo‘lgani yo‘q, Katerina Vasilyevna, sog‘-salomatligimni ko‘rib turibsiz. Choyga tobingiz qalay? Choy ichib o‘tiruvdim.

– Ichsam icha qolay; shuncha kun bedarak ketdingiz?

– Pyotr, stakan keltiring. Ko‘rib turibsiz, sog‘man, salomatman; demak, aytishga arzimaydi. Janob Loter bilan zavodga borgandim, unga nimanidir tushuntirib turib, bexosdan qo‘limni vintga qo‘ygan ekanman, vint aylanib ketib, yengim aralash qo‘limni tirnab ketdi. O‘tgan kuni ham, kecha ham kiyinishga iloj topmadim.

– Qani, ko‘rsating-chi, ko‘rmasam, tirnalgan emas, shikast yegan, deb xavotirlanib yuraman.

– Shikast yeyish qayoqda deysiz (Pyotr Katerina Vasilyevna uchun stakan ko‘tarib kirdi), ikkala qo‘limni ham ishlatib turibman-ku. Ko‘rsatsam ko‘rsata qolay (yengini tirsagigacha shimardi). Pyotr, kuldonning kulini to‘king-da, sigara qutisini keltiring, kabinetda, stolda. Mana, hech gapmas: ingliz plastiridan boshqa hech narsa kerak ham bo‘lmadi.

– Har holda, shishib, qizarib ketibdi-ku.

– Kecha juda yomon edi, kechgacha tuzalib qoladi (Pyotr kuldonni tozalab, sigara qutisini keltirib berdi-da, chiqib ketdi). Huzuringizga yarador qahramon bo‘lib borgim kelmadi.

– Yozib yuborsangiz bo‘lmasmidi, bu nima degan gap?

– Men o‘sha kunning ertasiga, ya’ni o‘tgan kuni kiyim kiysam bo‘lar, deb o‘ylagandim; o‘tgan kuni endi kiyishim mumkin, deb o‘yladim, kecha-bugun bo‘lar, dedim. Sizni tashvishga solmay, degandim.

– Qaytaga ko‘proq tashvishga soldingiz. Yaxshi emas, Byumont, zavod savdosini qachon bitirasiz?

– Bugun-erta bitsa kerak, hozir gap men bilan janob Loterda emas, shirkat o‘zi ishni cho‘zib turibdi.

– Nima o‘qiyapsiz?

– Tekkereyning yangi romani. Shunday iste’dod egasi bo‘la turib, yozgan narsasini qarang! Xazinasi boy emas-da.

– Men ham o‘qib chiqdim; to‘g‘ri aytasiz, – va hokazo. Tekkerey iste’dodining pastlashib ketganiga afsuslanib, yana yarim soatcha boshqa narsalar ustida suhbatlashib o‘tirishdi.

– Vera Pavlovnanikiga boradigan vaqtim ham bo‘lib qoldi, siz ular bilan qachon tanishasiz endi? Juda yaxshi odamlar.

– Fursat topdim deguncha, sizdan iltimos qilaman. Kelib ko'rganingizga rahmat. Sizning otingizmi?

– Ha, meniki.

– Shuning uchun ham otangiz uni minmas ekan-da. Tuzuk ot ko'rinadi.

– Shunday deyishadi; men o'zim yaxshi-yomonligini ajrata olmayman.

– Yaxshi bo'lganda qanday deysiz, janob, uch yuz ellik so'mlik ot, – dedi izvoshchi.

– Yoshi nechada?

– Olti yashar, janob.

– Qani, ketdik bo'lmasa. Zaxar, men o'tirdim. Xayr, Byumont. Bugun borasizmi?

– Yo'q, borolmasam kerak; ertaga albatta boraman.

XVI

Rasmi shumi, sevishib qolgan qizlar shu tariqa diydor ko'rishadimi? Yaxshi tarbiya olgan qiz hech vaqt bu ko'chaga kirmaydi, bu tomonini gapirmaganda ham oxiri ishning pachavasi chiqadi. Agar Katerina Vasilyevnaning qilmishi odobga zid ekan, bu adabsizlik mazmuni yigitlar bilan qizlar o'rtasidagi munosabat masalasida rasm tusiga kirgan har qanday tushunchalardan ham yomon edi. Katerina Vasilyevna va Byumont inson emas, baliq yoki agar inson bo'lsalar ham baliq qonli inson ekanliklari ravshan emasmi? Byumont Katerina Vasilyevnaning huzurida bo'lganda, u bilan muomalalari ham shu xilda bo'lardi.

– Janob Byumont, charchadim, – derdi Katerina Vasilyevna Byumont uzoq o'tirib qolsa, – otam bilan gaplashib o'tirarsiz, men xonamga chiqay, – derdi-da, turib keta berardi.

U bo'lsa ba'zan:

– Katerina Vasilyevna, yana chorak soatcha gaplashib o'tiraylik, – derdi.

Bunday hollarda Katerina Vasilyevna:

– Xo'p bo'ladi, – deb javob berardi, lekin ko'p hollarda Byumont:

– Xo'p, xayr, Katerina Vasilyevna, – derdi.

Bular o‘zi qanday odamlar? Shunchaki bama’ni odamlarmasmi, shuni bilmoqchiman: ular istagan vaqtlarida bir-birlari bilan ko‘rishadilar, ularga hech kim xalaqit bermaydi, xohlagan vaqtlarida uylanib olishlari mumkin, shu sababdan ularning jini qo‘zib, oh-voh tortib yurishlariga o‘rin yo‘q. Lekin shunday bo‘lsa ham bir-biri bilan muomalasi sovuqligini ko‘rib xijolat tortaman, ular uchun uyalishdan ko‘ra, ko‘proq o‘zimdan uyalaman: nahotki men romanchining peshonasiga hamma ayol va erkak qahramonlarimni tarbiya ko‘rgan zotlar nazarida beobro‘ qilib ko‘rsatish yozilgan bo‘lsa? Bulardan ba’zi birlari yeyish-ichishdan boshqani bilmaydi; boshqalari bejiz oh-voh tortmaydi: juda alomat kishilar!

XVII

Bu yog‘ini so‘rasangiz, keksa Polozovning fikriga qaraganda, to‘y bo‘ladigan ko‘rinadi, – mo‘ljallangan kelin bilan chamalangan kuyov o‘rtasidagi muomala shu bo‘lganidan keyin, to‘y yaqin deyavering! Nahotki cholning qulog‘iga hech gap yetmagan? Qizi-ku, mo‘ljallangan kuyov bilan otasining ko‘zi oldida xira bo‘lib yurgani yo‘q; ular otasi bilan bir xonada o‘tirishdan ko‘ra, ko‘proq boshqa xona yo boshqa xonalarda o‘tirishdi yoki bo‘lishdi; lekin shunda ham ularning gap mazmuni o‘zgarmadi. Agar birovning dilidagini (aslida odamlarda bo‘lmaydigan dilidagi narsani) bilishga juda usta har qanday kimsa ham ularning gapini eshitsa Katerina Vasilyevna bilan Byumontning to‘yidan umidini uzib qo‘ya qolardi. Yo‘q, ular his-tuyg‘ulari haqida aslo gaplashgani yo‘q, dunyoda nimaiki bor, hammasini qanday tilga olishgan bo‘lsa, shu to‘g‘rilarda ham xuddi shunday gaplar bo‘ldi, lekin juda oz, ozligi mayliku-ya, nimalarni va qanday ohangda gaplashganlari hammadan qiziq bo‘ldi! Odamning g‘azabini keltiradigan osoyishta ohangda, kurakda turmaydigan mazmunda gaplashdilar. Masalan, Katerina Vasilyevna Byumontning «tashakkuri»ga arzirlik ish qilib, uyiga tashrif buyurib hol-ahvol so‘rab kelganidan bir hafta, ular tanishgandan keyin ikki oy chamasi o‘tgach yuz bergan hodisani qarang, zavodni pullab bo‘lganlaridan keyin, janob Loter bir-ikki kundan keyin jo‘nab ketmoqchi bo‘lgandi (jo‘nab ketdi; u biron falokatni boshlaydi, deb tashvishlanmang; u katta savdogar,

savdo operatsiyasini tamom qildi-yu, Byumontga, firma sizni zavod mutasaddisi qilib tayinladi, moyanangiz bir ming funt, dedi, shunday bo'lishi ham kerak edi, bo'lgan gap shu: savdo ishlaridan boshqa biron ishga aralashib ham nima qiladi, o'zingiz o'ylab ko'ring), aksiyachilar, shu jumladan, Polozov ham ertasiga tegishli pullarining yarmini naqd olishi lozim edi (olishdi ham, bunda ham ishning biron pachavasi chiqadi, deb o'tirmang: Xodchson, Loterlarning firmasi juda boy firma), qolgan yarmiga uch oylik muhlat bilan veksel olishlari lozim edi. Polozov ishidan xursand bo'lib, mehmonxonadagi stol yonida pul hujjatlarini ko'zdan kechirib o'tirar ekan, qizi bilan Byumont mehmonxona eshigi oldidan u yoq-bu yoqqa o'tganda ularning gapiga ham quloq solib qo'yardi: qizi bilan Byumont ko'chaga qaragan to'rt xona uyning u boshidan-bu boshiga borib, aylanib yurishardi.

– Agar biron ayol, biron qiz xurofot changaliga tushib qiyin ahvolda qolsa, – deyayotgan edi Byumont (hozirgi gapida hech qanday anglitsizmdan ham, amerikanizmdan ham asar yo'q) – uning jatidan erkak zoti ham, – men tuzuk, andishali odamlarni nazarda tutyapman, – yomon ahvolda qoladi. Qani ayting-chi, taklifga rozilik bildirish natijasida paydo bo'lgusi kundalik turmush munosabatlari sinovidan o'tmagan qizni kishi nima ham deb o'ylasin? Axir, qallig'i singari fe'l-atvorli biron kimsa bilan kun ko'rishini, ko'ngliga yoqish-yoqmasligini qiz qayoqdan ham bilsin?

– Lekin janob Byumont, qiz bu kishi taklif qilgandan avval ham u bilan shu taxlit munosabatda bo'lgan ekan, bu har holda bir-birlaridan ko'ngillari to'lishiga bir qadar dalolat emasmi?

– To'g'ri, bir qadar; lekin batamom va har taraflama sinovdan o'tishning yo'li boshqa, unga nima yetsin? Qiz har holda ikki o'rtada munosabatning qay tarzda o'tishini hali tajribada ko'rgan emas, shu sababdan ham to'y qiz uchun nihoyatda tavakkal bir ish. Qiz uchun shunday; shu sababdan, qiz erga chiqayotgan andishali kishi uchun ham inchunin. Erkak umuman ko'ngli to'lish-to'lmasligini biladi: uning har xil tabiatli ayollardan tanishlari bor, ko'proq qanday tabiatli ayol ko'ngliga yoqishini ham biladi. Qiz esa bilmaydi.

– Lekin qiz o'z xonadonida, tanish oilalarida hayotni o'rgangan; u ko'p xayol ko'chalariga kirib chiqqan.

– Bular hammasi juda yaxshi, lekin yetarli emas. Odam boshiga ish tushganda biladi.

– Siz faqat tul xotinlar erga chiqsin, demoqchisizmi, deyman? – deya kulib qo'ydi Katerina Vasilyevna.

– Gapingiz naq nishonga tegdi. Ha, faqat tul xotinlar. Qizlarning erga chiqishini man qilib qo'yish kerak.

– Bu gapingiz to'g'ri, – dedi jiddiy bir qiyofada Katerina Vasilyevna.

Polozov dastlab bunday gaplarni eshitganda yoki qulog'iga chalinganda, juda g'alati tuyulgandi. Endi bunday gap-so'zlarga o'rganib qolgan: «Hechqisi yo'q, men bunday bid'at gap-so'zlardan xoli odamman. Savdogar o'tganman, savdogarning qiziga uylanganman», deb o'ylab qo'yardi.

Ertasi kuni gapning shu qismi, – o'zi aslo haligi masala ustida emas, boshqa har turli masalalar ustida bo'lib turgan gap edi, – quyidagicha davom etdi:

– Siz Solovsovni yaxshi ko'rib qolganingizni hikoya qilgan edingiz. Nima bo'lgandi? Bu...

– Xo'p desangiz, o'tiraylik. Yuraverib charchadim.

– Yaxshi... shunchaki go'daklik tuyg'usi edi, ishonadigan gap emas. Bu har zamonda eslab kulib qo'yish, yoki istasangiz, qayg'urishga arziydigan xolos. Chunki juda pushaymon qiladigan jihati ham bor. Siz baxtingizdan bo'lib, kamdan kam uchraydigan tasodif tufayli, yo'lingizda Aleksandrday odam uchrab, omon qolibsiz.

– Kim dedingiz?

– Matveich Kirsanov, – deb qo'shib qo'ydi xuddi «Aleksandr» degan ismda to'xtamaganday, – Kirsanov bo'lmasa yo sil kasaldan, yoki shu ablah qo'lida halok bo'lib ketardingiz. Shuning o'zidanoq jamiyatda zararli mavqeda turganligingiz to'g'risida aniq va ravshan xulosa chiqarish mumkin. Siz shunday xulosa chiqaribsiz ham. Bu ishingiz juda yaxshi, bu bilan siz bir qadar mulohazali, bama'ni bo'lib olibsiz, xolos, lekin hali o'zingizga qanday tabiatli er munosibligini ajratib olarlik darajada tajriba orttirolganingiz yo'q. Sizga ablah emas, halol, vijdonli odam kerakligini bilib olibsiz xolos. Juda soz. Lekin tanlangan kishining fe'l-atvori qanday bo'lsa-da, har qanday bama'ni xotinning shu eridan ko'ngli to'laveradimi, ishqilib, eri vijdonli bo'lsa basmi? Er-xotin bir-birining xulq-atvori va munosabatini yana ham aniqroq bilishi, ya'ni tamomila boshqa

xil tajriba orttirishi lozim. Kecha biz, sizning iborangiz bilan aytsam, faqat tul xotinlar erga chiqsin, degan qarorga kelgan edik. Siz nega endi tul bo'larkansiz?

Byumontning bu gaplarida qandaydir noroziligi sezilib turar, keyingi so'zlaridan hatto pushaymon ekani anglashilardi.

– To'g'ri aytasiz, – dedi birmuncha ma'yus tortib Katerina Vasilyevna, – lekin har holda aldashim mumkin emasdi-da.

– Aldash qo'lingizdan kelmas edi ham, sababki, tajribang bo'lmagandan keyin tajribali odamga taqlid qilishing ham mumkin emas.

– Siz yakkash, qizlarning yaxshi odam tanlashiga aqli kaltalik qiladi, deysiz. Umuman, to'g'ri gap. Lekin shunday mustasno hollar bo'ladiki, odam tanlashni bilish uchun bunday tajribaning keragi ham bo'lmaydi. Qiz unchalik yosh emas ekan, nega endi o'z xulq-atvorini yaxshi bilmasin? Masalan, men o'z fe'l-atvorimni bilaman, o'zgarmasligiga ham ko'zim yetadi. Yoshim yigirma ikkiga kiribdi. Baxtli bo'lish uchun menga nima kerakligini bilaman: tinchgina yashasam, osoyishimni buzishmasa bo'lgani, boshqa hech narsa kerakmas.

– Gapingiz to'g'ri. Shunday ham ma'lum bo'lib turibdi.

– Biron kishining fe'l-atvorida bunga zarur xislatlari bor-yo'qligini bilish shunchalik mushkul ish ekanmi? Buni bir necha og'iz gapidanoq bilib olish mumkin...

– To'g'ri aytasiz. Lekin mustasno hollarda, shunday deb o'zingiz aytdingiz-ku. Odatda undaymas.

– Albatta, odatda undaymas. Lekin, janob Byumont, bizning turmush sharoitimizda tushunchalarimiz va xulqimiz hozirgiday bo'lganda, qizlar ham kundalik munosabatlarni biz aytganday biladigan bo'lsin, degan istak bildirish mumkin emas, busiz ko'pchilik hollarda qizlar er tanlaganda bachkanalik qilib qo'yishadi. Hozirgi sharoitda qizlarda bunday imkoniyat qayerda deysiz? Hozirgi sharoitda, qiz har qanday munosabatda ham, bundan hech vaqt tajriba orttirolmaydi, undan naf kutish qiyin, qaltis ish. Darhaqiqat, qizning tubanlashishi, aldashga o'rganib qolishi hech gap emas. Axir, qiz bechora ota-onalarini, jamiyatni aldashga, ulardan yashirinib yurishga majbur bo'ladi-ku; bu bilan qizni chindan ham xulq-atvoridan mahrum qiluvchi aldamchilikning

orasi uncha uzoq emas. Qiz hayotga yengiltaklik bilan qaraydigan bo‘lib qolishi ham mumkin. Qiz bu ahvolga tushmay bama’niligicha qolganda ham qalban shikastlanadi. Holbuki, qiz kundalik turmush tajribasidan har holda hech bir naf ko‘rmaydi, chunki uning xulq-atvori uchun xatarli bo‘lgan qalbini shikastlovchi bu munosabatlar oddiy munosabatlar emas, ular har holda kishida sezilarli taassurot qoldiradi, bahr-dilini ochadi. Ko‘rdingizmi, bizning sharoitimizda bunga maslahat berishning hech bir iloji yo‘q.

– Bo‘lmasa-chi, Katerina Vasilyevna; xuddi shu sababdan ham turmushimiz yaramas turmush.

– Albatta, bu fikrga biz ham qo‘shilamiz.

Bu nimasi endi? Umumiy tushunchalar nuqtayi nazaridan qaraganda, bular nima balolar ustida gaplashayotganini aytmaganda ham, buning shaxsiy munosabatlariga nima daxli bor? Erkak: «Menga yaxshi xotin bo‘lishingizga shubham bor», deydi. Qiz bo‘lsa javob qaytarib: «Yo‘q, xudo xayringizni bersin, meni qalliqlikka so‘rating», deydi. Surbetlik bo‘lganda ham qanaqasi deng! Yo, ehtimol, unday emasdir? Balki erkak: «Siz bilan baxtiyor bo‘lishim to‘g‘risida o‘ylamasam ham bo‘ladi; lekin menga ehtiyot bo‘lib turmushga chiqing. Meni tanlagan bo‘lsangiz ham, iltimos, yana bir yaxshilab o‘ylab ko‘ring. Bu juda muhim masala. Men sizni yaxshi ko‘rsam ham, meni yaxshilab, diqqat bilan tekshirib qaramasdan, hatto menga ham ishonmang», deyayotgandir? Balki qiz: «Aziz do‘stim, o‘zingizni emas, meni o‘ylayotganingizni ko‘rib turibman. Gapingiz to‘g‘ri. Biz ojiz bechoralarmiz, balki aldashadi, aldansin, deb ko‘zimizni bog‘lab olib yurishadi. Lekin mendan xavotir bo‘lmang: meni siz aldolmaysiz. Baxtimni topganim rost. Siz o‘zingizdan ko‘nglingiz to‘q bo‘lsa, men ham o‘zimdan ko‘nglim to‘q», deb javob berayotgandir?

– Men faqat bir narsaga hayronman, – deya so‘zini davom ettirdi Byumont ertasi kuni (ular bugun ham xonama-xona aylanishdi. Bu xonalardan birida Polozov o‘tirgandi), – shunday sharoitda ham baxtiyor er-xotinlar bo‘lishiga hayronman.

– Baxtiyor er-xotinlarning borligi alam qiladiganday gapirasiz-a, – dedi kulib Katerina Vasilyevna; u endi tez-tez shunday ohista, zavqlanib kulishga odatlangan edi.

– Darhaqiqat, baxtiyor er-xotinlarning borligi allaqanday mag‘rur fikrlarga olib borishi mumkin, masalan, agar qizlar o‘z

ehtiyojlari va erkaklarning xulqi to‘g‘risida o‘ylashga aqllari kaltalik qilsa ham, ular ko‘p hollarda tuzuk-tuzuk er tanlar ekanlar, demak, bu ayollarning aqli tiniq va rasoligidan dalolat beradi! Ayollarga tabiat vafodorlik, o‘tkir aql va zehn ato qilgan! Attang, shunday aql jamiyatga foydasi tegmay hayf ketyapti, jamiyat bu aqlni rad etyapti, bosib-yanchib, bo‘g‘ib tashlayapti, bu aql rad bo‘lmay, halok etilmay, amal qilib turganida edi, insoniyat o‘n karra tezroq taraqqiy etardi.

– Janob Byumont, ayollarni muncha maqtamasangiz; biron voqeani misol keltirib, soddaroq tushuntirsangiz-chi?

– Biror voqeani, deysizmi? Misol bo‘ladigan voqeadan ko‘pi yo‘q; bilasizmi, voqea ko‘p bo‘lsa, bir qismi tufayli yuz beradigan tasodifdan tashqari, boshqa qismining biron umumiy sababi ham bo‘lishi kerak. Bunda mening, to‘g‘ri odam tanlash aqlning o‘tkirligidan va farosatdan, degan gaplarimda boshqa biron umumiy sabab bor, deb gumon qilish nojoiz.

– Janob Byumont, siz ayollar masalasida naq Bicher-Stouning o‘zginasisiz-ku? Bicher-Stou, qora tanlilar hamma qabilalar o‘rtasida eng iste’dodli qabila, ular aql-u zakovatda oq irqdan afzal, deb isbot qilmoqchi bo‘ladi.

– Siz gapni hazilga buryapsiz, men aslo hazil qilayotganim yo‘q.

– Ayol kishiga qulluq qilmaganim uchun mendan achchig‘ingiz chiqdi shekilli? Ammo aqalli o‘zingga o‘zing qulluq qilishing mushkulligini ma’zur ko‘ring.

– Siz hazil qilyapsiz, men bo‘lsam astoydil xafa bo‘ldim.

– Lekin mendan xafa bo‘lmasangiz kerak? Xotin-qizlar siz aytgan ishlarni uddalolmasa, menda nima gunoh? Aytgancha, agar xo‘p desangiz, men ham sizga bir jiddiy fikrimni aytishim mumkin, lekin buning ayollar masalasiga daxli yo‘q, o‘zimga taalluqli ishda o‘zimni hakamlik qilishni xohlamayman, aytmoqchi bo‘lgan fikrim, Byumont, siz to‘g‘ringizda. Juda vazmin odam ekansiz-u, lekin bu to‘g‘rida gapirganda qoningiz qaynab ketarkan. Bundan qanday xulosa chiqarsa bo‘ladi? Xulosa shuki, bu masalaga shaxsan o‘zingizning biron daxlingiz bo‘lsa kerak. Ehtimol, siz aytmoqchi, tajribasiz qizning odam tanlashdagi biron xatosi jihatidan jabr ko‘rgan bo‘lishingiz mumkin.

– Ehtimol, mendurman, ehtimol, mening yaqin oshna-og‘aynilarimdan birontasi shunday bo‘lganlar. Lekin, Katerina

Vasilyevna, tanangizga bir o‘ylab ko‘ring. Buni men sizdan javob olganimda aytaman. Uch kundan keyin sizdan javobini kutaman.

– So‘ralmagan savolgami? Buni qarang-a, sizni bilmas ekanman-da, menga uch kun muhlat kerak bo‘lsa? – Katerina Vasilyevna jim bo‘ldi. Qo‘llarini Byumontning yelkasiga qo‘yib, uning boshini egdi-da, peshonasidan o‘pdi.

Qizki shunday qilib turgandan keyin, ko‘pni ko‘rgan Byumont uni bag‘riga bosib, labidan o‘pib olishi kerak edi, umuman odat shu, qizning izzat-hurmati ham shuni talab qiladi; biroq Byumont unday qilmadi, qiz uning boshidan ushlab turgan qo‘llarini tushirganda qo‘llarini qisib qo‘ydi xolos.

– To‘g‘ri gap, Katerina Vasilyevna, lekin har holda o‘ylab ko‘ring, – dedi.

Ular yana yurishda davom etdilar.

– Charli, meni bu haqda uch kundan ziyodroq o‘ylamagan, deb sizga kim aytdi? – deya javob berdi Katerina Vasilyevna uning qo‘lini qo‘yib yubormay.

– Albatta, shunday, buni o‘zim ham ko‘rdim; lekin, har holda, endi men sizga bir sirni aytay; qani, yuring, anavi xonaga kirib o‘tiramiz, gapimizni u eshitmagani ma’qul.

Ular cholning yonidan o‘tib borayotganlaridayoq boshlamoqchi bo‘lgan bu gaplarning natijasi ma’lum edi; chol ular qo‘l ushlashib borayotganini ko‘rdi, ilgarilari bunday qilishmasdi, cholning miyasiga: «Xotinlikka so‘ragan bo‘lsa, qizim ham rozi bo‘ldi shekilli. Ayni muddao», degan xayol keldi.

– Qani, siringizni ayting, Charli: bu yerdan gapimiz otamga eshitilmaydi.

– Sizga aytsam, Katerina Vasilyevna, sizdan nimagadir hadiksirashim o‘zimga ham juda qiziq ko‘rinyapti; albatta, qo‘rqadigan yerim yo‘q. Lekin men bir gulim ochilib so‘lganini aytsam, sizni hadeb ogohlantirib kelganim sababini anglaysiz. Albatta, hali ko‘rasiz, birga umr qurishimiz mumkin. Unga achinganimdan uylangandim. Ko‘p azob chekkan ekan, ko‘ngli xohlaganicha hayot kechirishni ko‘p yillardan buyon orzu qilib yurgan ekan. Odamning rahmi kelarkan. O‘z ko‘zim bilan ko‘rdim. Voqeaning qayerda yuz berganligi baribir emasmi: Nyu-Yorkdami, Bostondami, Filadelfiyadami – farqi yo‘q, siz, baribir bilasiz; o‘zi

juda bama'ni ayol edi, erini ham juda yaxshi odam deb bilardi. Er-u xotin bir-biriga mehribon, juda totuv yashardilar. Lekin xotini baribir ko'p azob chekdi. Eri xotinini salgina bo'lsa-da baxtiyor qilish uchun jonini ham ayamaydiganlardan edi. Baribir xotinining u bilan baxti ochilmas ekan. Orani ochdi qilganlari yaxshi bo'ldi. Lekin xotin uchun bu og'ir musibat bo'ldi. Sizning bundan xabaringiz yo'q, shu sababdan men sizdan hali javob olganimcha yo'q.

– Men bu voqeani biron boshqa odamdan eshitishim mumkinmi?

– Ehtimol.

– O'sha ayolning o'z og'zidan eshitgan bo'lsam-chi?

– Ehtimol.

– Men hali senga javob berganim yo'q-a?

– Yo'q.

– Beradigan javobimni o'zing ham bilasanmi?

– Bilaman, – dedi Byumont, shundan keyin kuyov bilan kelinning turmushi odatda nima bilan boshlansa, shunday quchishlar boshlanib ketdi.

XVIII

Ertasiga soat uchlarda Katerina Vasilyevna Vera Pavlovnaning huzuriga bordi.

– Vera Pavlovna, nikohimiz ertadan keyin bo'ladi, – dedi Katerina Vasilyevna eshikdan kirgan zamoni, – bugun kechqurun sizlarnikiga qallig'im bilan kelaman.

– Qallig'ingiz, albatta, o'sha hajrida shaydo bo'lib yurganingiz Byumontdir?

– Men shaydo bo'libmanmi? Hech kim bilgani ham yo'q, aqldan ozganim ham yo'q.

– U bilan kishibilmas ish bitirib, aqldan ozmagandursiz, bunga ishonsa bo'ladi; lekin men bilan gaplashganingizda-chi?

– Buni qarang-a? Juda qiziq bo'pti-ku. Lekin undan ham qilig'i bor: u sizni, ikkovingizni juda yaxshi ko'radi, sizni, Vera Pavlovna, Aleksandr Matveichdan ham ziyoda ko'radi.

– Buning nimasi qiziq bo'pti? Unga men to'g'rimda gapirganingizda, u haqida menga zavq-shavq bilan gapirgan gaplaringizning mingdan birini aytganingizda ham albatta...

– U sizni men orqali biladi, deb o‘ylaysizmi? Gap ham shundada, o‘zi sizni bilarkan, mendan ham yaxshi bilarkan.

– Bunisi endi yangilik! Qayoqdan bilarkan?

– Qayoqdan bilarkan, deysizmi? Hozir aytaman. U Peterburgga kelgan kunidan boshlab sizlar bilan ko‘rishishni juda orzu qilib yurgan ekan; lekin siznikiga bir o‘zi emas, qallig‘i yoki xotini bilan kelish vaqtigacha tanishmasdan turganim ma’qulroq, deb sabr qilib yuribdi. Bir o‘zimdan ko‘ra xotinim bilan birga ko‘rinsak, ularga ham xush kelsa kerak, deb o‘ylabdi. Ko‘rdingizmi, to‘yimizga siz bilan tanishish niyati sabab bo‘ldi.

– Men bilan tanishish niyatida sizga uylanyaptimi?

– Ha, menga uylanyapti! Sizni deb menga uylanyapti, deb kim aytdi? Yo‘g‘-e, sizni yaxshi ko‘rganimizdan turmush qurayotganimiz yo‘q. Axir, u Peterburgga yo‘lga chiqqanida biz bir-birimizni, dunyoda borligimizni qayoqdan bilardik? Agar u Peterburgga kelmasa, biz qayoqdan bir-birimiz bilan tanishardik? Peterburgga bo‘lsa u sizni deb kelgan. Shuni ham bilmasangiz juda alomat odam bo‘lasiz!

– U inglizchadan ko‘ra rus tilida yaxshiroq gaplashadi, deganmidingiz? – deya hayajon bilan so‘radi Vera Pavlovna.

– Ruschani menday biladi, ingliz tilini ham menchalik biladi.

– Do‘stim Katenka, juda ham xursandman! – dedi Vera Pavlovna mehmon dugonasini quchoqlab. – Sasha, bu yoqqa kel! Tezroq kelsang-chi, tezroq!

– Nima gap, Verochka? Salom, Katerina Va...

U so‘zini tamom qilmasdan mehmon yugurib kelib uni o‘pishga tushdi.

– Bugun pasxa, Sasha; Katenkaga, Iso chindan ham tirildi, degin.

– O‘zi nima gap?

– O‘tir, Katenka nima gapligini aytadi, o‘zim ham boshim gangib qoldi. Shuncha o‘pishganinglar ham bo‘lar, yana mening ko‘z oldimda-ya! Boshla hikoyangni, Katenka.

XIX

Kechki payt shovqin-suron yana ham avjiga mindi, albatta. Tinib-tinchiganlaridan keyin, Byumont yangi tanishlarining

talabi bilan o‘z sarguzashtini so‘zlashga kirishdi, gapni Qo‘shma Shtatlarga borgan kunidan boshladi. «Yetib borgan zamonim, – deya gap boshladi ‘u, – tezroq naturalizatsiya[1] bo‘lib olishga harakat qildim. Buning uchun kim bilandir tanishib olishing lozim, kim bilan tanishardim? Albatta, abolitsionistlar[2] bilan tanishdim. Rossiyaning butun ijtimoiy tuzilishiga krepostnoy huquqning ta’siri haqida «Tribune»ga bir necha maqola yozib topshirdim. Bu ishim abolitsionistlarga janubiy shtatlardagi qullikka qarshi yangi bir tuppa-tuzuk dalil o‘rniga o‘tdi, o‘zim Massachusets fuqarosi bo‘lib oldim. Oradan ko‘p o‘tmay, yana shular vositasi bilan Nyu-Yorkda ularning partiyasiga qarashli birmuncha katta savdo shirkatlaridan biriga ishga kirdim». Undan keyin biz o‘zimiz bilgan voqealarni hikoya qildi. Demak, Byumont tarjimayi holining aqalli shu qismi ustida shubha bo‘lishi mumkin emas ekan.

XX

O‘sha kuni oqshom paytida ikkala oila uchun yonma-yon xonadon qidirishga qaror qilishdi. Ko‘ngildagiday xonadon topib, joylashib olgunlaricha Byumontlar zavodda, firmaning buyrug‘i bilan zavod boshqaruvchisi uchun tayyorlab qo‘yilgan xonadonda turishdi. Shahardan chetga chiqib turishlarini, inglizlarning juda yaxshi odatiga muvofiq, yosh qalliqlarning sayohatga jo‘nab ketishi, deb hisoblasa bo‘lardi, inglizlarning bu odati shu kunlarda butun Yevropaga rasm bo‘layotgan edi.

Bir yarim oylardan keyin ko‘ngildagiday yonma-yon ikki xonadon topilib, biriga Byumontlar, yana biriga Kirsanovlar joylashgandan keyin, keksa Polozov zavoddagi xonadonda qolishni ma’qul ko‘rdi, negaki, bu xonadon uning ilgarigi badavlatlik vaqtini eslatib turadigan keng, muhtashamgina xonalar edi. Polozov bu xonadonni tark etmaganligining yana bir sababi shu ediki, u uch-to‘rt chaqirim keladigan tevarak-atrofda hurmatli zot hisoblanardi: atrofdagi gumashtalar, artelchilar, shahar chetida yashaydigan, jamiyatdagi o‘rni jihatidan zavod va fabrika gumashtalaridan yo pastroq, yo birmuncha yuqoriroq hisoblanuvchi yor-u birodarlari

---

[1] Biron mamlakatning fuqaroligiga o‘tish.

[2] Qullikni tugatish tarafdorlari.

unga hurmat bilan qarashardi; bu izzat-hurmatlarni ko'rib o'zi ham, meni eng mo'tabar odam o'rnida ko'radilar, deb xursand bo'lardi. Kuyov deyarli erta bilan zavodga kelar, qizi ham deyarli har kuni eri bilan birga borardi. Yozda butunlay zavodga ko'chib olishardi, chunki zavoddagi xonadonlarining chorbog'idan kam yeri yo'q. Boshqa vaqtlarda chol ertalab qizi bilan kuyovini kutib olishdan tashqari (kuyovidan so'rasangiz, shimoliy amerikalikligicha qoldi), ko'pincha, har haftada bir, ba'zan undan ham ko'proq Katerina Vasilyevna va uning eri bilan birga kelib turadigan mehmonlarni kutib olardi, ba'zan bir qancha yosh yigit-qizlar bilan birga Kirsanovlar mehmon bo'lib kelishardi, ba'zida juda ko'p mehmon bosardi: zavod Kirsanov va Byumontning oshna-og'aynilari tez-tez kelib, o'ynab-kulib, sayr qilib ketadigan joy bo'lib qolgandi. Har gal mehmon bosganda Polozovning suyunchi ichiga sig'masdi, bo'lmasa-chi! O'zi mezbonlik qilsa, yana izzat-hurmatini aytmaysizmi!

XXI

Ikkala oila ham ko'ngliga yoqqanini qilib, o'z bilganicha kun kechiradi. Bunday kunlarda bir tomonda ko'proq shovqin-suron bo'lsa, ikkinchi tomonda ko'proq tinchlik hukm suradi. Bir-birlari bilan xuddi aka-uka, opa-singilday ko'rishib turishadi, o'n martadan ko'rishadigan kunlari ham bo'ladi, lekin har gal bir-ikki daqiqagina birga bo'ladilar; ba'zida kun bo'yi bir oilada hech kim bo'lmaydi, bu oila a'zolari ikkinchi oilanikida o'tiradi. Bordi-keldi mavridga qarab bo'ladi. Mehmon bosganda ham inchunin; ba'zan xonadonlar o'rtasidagi eshiklar berk turadi, chunki bir xonadon zalidan boshqa xonadon mehmonxonasiga o'tiladi, eshiklar umuman yopiq turadi, Vera Pavlovna bilan Katerina Vasilyevna xonalari o'rtasida eshik uzzukun ochiq, mehmonxonalarni bir-biriga qo'shgan eshiklar ba'zida berk; mehmonlar oz bo'lganda shunday. Odam ko'payib ketsa, eshiklar ochib qo'yiladi, mehmonlar kimning uyida o'tirganlarini: Vera Pavlovnaning uyidami yoki Katerina Vasilyevnaning uyida o'tirganlarini bilmaydilar, bunday paytlari uy bekalarining o'zlari ham tuzuk ajrata olmay qolishadi. Faqat bir narsadan bilib olish

mumkin: yoshlar yozilib o'tirishgan bo'lsa, demak, ko'pincha Katerina Vasilyevnanikida o'tirishgan bo'ladi. Lekin yoshlarni mehmon qatoriga qo'shmasa ham bo'ladi, – ular o'z kishilari, shu sababdan ham Vera Pavlovna ularni Katerina Vasilyevnaning uyiga quvib chiqaradi. «Janoblar, jonimga tegdi: turinglar, Katenkaning yoniga chiqinglar, u sizlardan sira zerikmaydi. Nega unikida mo'min-qobil o'tirasizlar-u, hamma sho'xlikni menikida qilasizlar? Yoshim ham katta shekilli». – «Xotiringiz jam bo'lsin, uni sizdan yaxshiroq ko'ramiz». – «Katenka, sening nimangni mendan yaxshiroq ko'risharkin?» – «Men ularni senchalik ranjitmayman». – «To'g'ri, Katerina Vasilyevna bizga hurmat bilan muomala qiladi, biz ham unga kattalarday muomala qilamiz. Bultur qishda nuqul yoshlar, qalin yor-u birodarlar yolg'iz o'zlari tez-tez to'planishib ajoyib o'yinlar o'ylab topdi; har ikkala oiladagi royalni qo'shishdi; yoshlar chek tashlashib, ikki to'pga ajralishdida, homiylardan birini bir royalga, ikkinchisini ikkinchi royalga yuzma-yuz o'tirg'izib qo'yishdi; har bir to'p primadonnasi yoniga chizilib, ikkala tomon baravariga Vera Pavlovna o'z to'pi bilan «La donna ê mobile» qo'shig'ini, Katerina Vasilyevna o'z to'pi bilan «Allaqachon sen rad etganing» qo'shig'ini kuylashdi, yo bo'lmasa Vera Pavlovna o'z to'pi bilan Beranje Lizettasining biron qo'shig'ini, Katerina Vasilyevna bo'lsa o'z to'pi bilan «Yeryomushka» qo'shig'ini aytishdi[1]. Bu yil qishda boshqa bir narsani rasm qilishdi: ilgari primadonnalar birgalikda «Ikki yunon faylasufining nafosat to'g'risida bahslari»ni o'z xulq-atvorlariga moslab olishdi[2]; bu ermak mana bunday boshlanadi: Katerina Vasilyevna osmonga boqib, xumorlanib xo'rsinib: «Ilohiy Shiller, rohatijonim mening!» – Vera Pavlovna ham bo'sh kelmay: «Korolyov do'konida sotiladigan amirkon botinkalar ham juda bejirim», deb javob qaytaradi, oyog'ini cho'zib ko'z-ko'z qiladi. Bu qiziqchilikda yoshlardan birontasi kulib yuborsa, burchakka tik turg'izib qo'yiladi; o'yin oxiriga yetganda o'n-o'n ikki kishidan burchakka tik turg'izib qo'yilmagan ikki-uch kishi

---

[1] Bunda 60-yillardagi demokrat yoshlar orasida mashhur bo'lgan romans va ariyalarga Nekrasovning «Allaqachon sen rad etganing» (1854) va «Yeryomushka qo'shig'i» (1859) qarama-qarshi qo'yilgan.

[2] Kozma Prutkovning «Qadimgi yunon faylasuflarining nafosat to'g'risidagi bahslari»da «sof san'at» poeziyasi masxara qilingan.

qoladi. Byumontni aldab, bu o‘yinga tortib, burchakka turg‘izib qo‘yganlarida hamma rosa kuladi.

Yana nimalar qilishadi? Tikuvchilik ishxonalari inoqlashib turibdi; hozir ishxona uchta. Katerina Vasilyevna ham allaqachon o‘ziga ishxona ochgan, hozir u ko‘p vaqtlarda Vera Pavlovnaning ishxonasiga o‘rinbosarlik qiladi, yaqin kunlarda uning ishxonani tamomila o‘z qo‘liga olishi lozim, chunki bu yil Vera Pavlovna, – ma’zur tutsinlar-u, – chindan ham shifokorlikka imtihon beradi, keyin ishxonaga qarashga vaqti bo‘lmaydi. «Bu ishxonalarning rivojlanishiga imkon yo‘q, ilojini topsa shunday rivojlanib ketardiki», deb afsuslanib qo‘yardi ba’zi-ba’zida Vera Pavlovna. Katerina Vasilyevna bunga bir nima deb javob qaytarmasa ham ko‘zlaridan jahli chiqqani bilinib turadi. «Katya, juda ham tezsan-da, Katya; mendan ham yomonsan, – deydi Vera Pavlovna. – Yaxshiyamki otang quruq savlat emas, har holda uncha-muncha narsasi bor; bu juda katta davlat». – «To‘g‘ri aytasan, Verochka, har holda o‘g‘lim uchun ko‘nglim to‘q» (demak, o‘g‘il ko‘ribdi). – «Katya, sen meni o‘ylatib qo‘yding, nima deyishimni ham bilmay qoldim. Hayotimiz osoyishta o‘tadi».

Katerina Vasilyevna jim. «Shundaymi, Katya, mening uchun aqalli ha, degin...» Katerina Vasilyevna kuladi. «Bu mening «ha» yoki «yo‘q» deyishimga bog‘liq emas, shuning uchun ham ko‘ngling uchun, ha, osoyishta hayot kechiramiz», deyman».

Chindan ham, hammalari osoyishta yashamoqda. Bir-birlariga mehribon bo‘lib, shovqin-suronsiz, tinch, bama’ni hayot kechirishmoqda. Lekin bu hali, ular to‘g‘risidagi hikoyam tamom, deganim emas, yo‘q, unday emas. Ular to‘rtovi ham hali navqiron, serg‘ayrat kishilar; agar ular inoq, bama’ni hayot kechirayotgan bo‘lsa, shu bilan bu hayotning qizig‘i qolmadi, deb aytib bo‘lmaydi, aslo unday emas, hali ular to‘g‘risida ko‘p hikoya qilaman, ular haqidagi hikoyamning davomi hozirgacha hikoya qilganlarimdan ham ajoyibligiga ishona bering.

XXII

Ular inoq bo‘lib, quvonchga to‘la hayot kechiradilar, vaqtida dam olib, vaqtida ishlaydilar, hayot lazzatlaridan bahramand bo‘ladilar, kelajak haqida tashvishlari yo‘q bo‘lsa hamki, lekin

tobora yaxshi kunlar kelishidan umidvorlar. Uzoq yili va o'tgan yil ularning hayoti shu qabilda o'tdi, bu yil ham shunday, mana bu yilgi qish ham o'tib qoldi, qor ham eriy boshladi. Vera Pavlovna: «Biron qahraton sovuq kun bo'larmikin, yana bir qish sayr qilardik», deb so'rab qoldi, uning bu savoliga hech kim javob berolmadi, kunlar ketidan kunlar kelaverdi, qor ham eriyverdi, kun sayin qishki sayrga chiqish umidi kamayib boraverdi. Nihoyat, bir kun butunlay umid uzib qo'yishgandi, kutilmaganda g'irchillama quruq qor yog'di, yoqqanda ham erimadi, sovuq, durustgina yengil sovuq izillatib turdi; ayozli kun, demak, kechqurun sovuq turadi, sayrga chiqarkanmiz? Sayr! Vaqt ziq, boshqalarni taklif qilmasdan, o'zimiz jo'nay beramiz.

Kechqurun ikki chana bo'lib sayrga jo'nashdi. Bir chanadagilar shovqin-suron, xarala-tarala qilib dunyoni boshlariga ko'tarishdi, ikkinchi chanadagilarning dami chiqmadi; shahardan chiqishlari bilanoq ovozlarini barala qo'yib qo'shiq boshlashdi, yana qanaqa qo'shiq deng!

. . . . . .

Yap-yangi darvozadan
Chiqib keldi yosh jonon,
Darvoza panjarali,
Taxtalaridir klyon:
– Otam juda badjahl,
Menga qilmaydi shafqat:
Tunda bo'ydoq yigit-la
O'ynashga bermas ruxsat.
Otamning gaplarini
Nazar-pisand etmayman.
Yigit ko'nglin ovlayman[1].

Topgan qo'shiqlarini qarang! Qayoqdagi qo'shiqlar! Goh qarasangiz sekinlab olishadi, chorak chaqirim orqada qolib, birdaniga ot yugurtirib, qiyg'os qichqiriq bilan oldingilardan o'tib ketishadi, chana yonidan o'tib borishda havoning gashtini surib jimgina ketayotgan chanadagilarni qorbo'ron qilishdi.

---

[1] Keltirilgan misralar «Ах вы, сени, мои, сени...» nomli xalq qo'shig'idan.

Jimgina ketayotgan chanadagilar bir-ikki bor qorbo‘ronga uchrab alam qilgach, himoyaga o‘tishdi. To‘polonchilarni oldinga o‘tkazib yuborib, qor g‘amlab olishdi-da, raqiblar sezib qolmasin, deb ehtiyot qilishdi. To‘polonchilar otlarini sekinlatib orqada qolishgandi, jimgina borayotganlar mug‘ambirlik qilib raqiblari chanasi yonidan o‘tganlarida ham qor g‘amlab olishganini bildirishmadi; bir vaqt to‘polonchilar yana qiyqiriq, shovqin-suron ko‘tarib, otlariga qamchi bosib yelday uchib kela boshlashdi, ikkinchi chanadagilar qo‘qqisdan boplashmoqchi bo‘lib tayyorlanib turishgandi. Bir vaqt to‘polonchi chana ariqdan o‘tib o‘ng tomonga burilib, – u chanaga hech nimadan qaytmaydiganlar yig‘ilishib olgandi, – besh sarjin naridan vizillab o‘tib ketishdi: «Anavi ayol fahmlab qolgan ko‘rinadi, tik turib, tizginlarni qo‘liga olib, o‘zi haydab ketyapti, – deyishdi jimgina borayotgan chanadagilar. – Sabr qilinglar, quvib yetamiz! O‘ch olmay qo‘ymaymiz! Bir-birlaridan o‘zmoqchiday poyga boshlab yubordilar. Quvib yetisharmikin, yetisholmasmikin... «Yetamiz!» – deb quvonishardi. Jim borayotgan chanadagilar «bo‘lmadi», deb qo‘yadilar-da, yana: «Yetib olamiz», deb o‘zlarini xursand qilishadi. «Yetib olishadi!» – deydi qo‘rqib to‘polonchilar shunda, «Yetib bo‘lishibdi», deb yana xursand bo‘lib qo‘yishadi ular: yetib olishadimi yo yo‘qmi?

Jim borayotganlar Kirsanov va Byumontlar edi; to‘polonchi chanadagilar to‘rt yigit bilan yana bir ayol edi, hamma sho‘xlikni shu ayol qilayotgandi.

– Salom, mesdames va messieurs, ko‘rishganimizga juda, juda xursandmiz, – deydi haligi xonim zavod oldidagi maydonchaga yetganlarida, – janoblar, xonimlarni chanadan tushirib qo‘yinglar, – qo‘shib qo‘yadi u xonim to‘polonchilar chanasida o‘tirgan yigitlarga qarab.

– Tez bo‘linglar, uyga yuguringlar! Sovuqdan yuz-ko‘zingiz qizarib ketibdi.

– Salom, chol! Bu kishining nimasi chol bo‘pti! Katerina Vasilyevna, bu nima qilganingiz, bu yigitchani chollar qatoriga qo‘shganingiz nimasi? Hali bu chol ketimdan ko‘p sudralib yuradi.

– Aziz cholginam, ketimdan ergashasizmi? – deydi to‘polonchi chanadagi xonim.

– Ha, ergashganim bo‘lsin, – deydi oppoq soqolini silayotgan, xonimga allaqachon maftun bo‘lgan Polozov.

– Hoy, bolalar, otangiz ketimdan ergashib yursa maylimi?

– Mayli, ergashib yura bersin, – deydi yoshlardan biri.

– Yo‘q, yo‘q! – deydi boshqa uch kishi.

To‘polonchilar chanasidagi bu xonim nega qora kiygan? Motam tutganmi yoki injiqligimi?

– Toza charchabman, – deydi-da, u zalning bir tomonini boshdan oyoq egallagan turkcha divanga o‘zini tashlaydi. – Bolalar, ko‘proq yostiq keltiringlar! Bir menga emas! Boshqa xonimlar ham charchashgandir.

– Bo‘lmasa-chi, bizlarni ham rosa charchatdingiz, – deydi Katerina Vasilyevna.

– O‘nqir-cho‘nqir joylardan sizni quvib, toza onamni ko‘rdim! – deydi Vera Pavlovna.

– Yaxshiyamki zavodgacha bir chaqirim qolibdi! – deydi Katerina Vasilyevna.

Ikkalasi bir holatda o‘zlarini divanga, yostiqqa tashlashdi.

– O‘zlaringda fahm-farosatdan yo‘q ekan! Otni unchalik choptirganingiz ham yo‘q-ku! Menday tik turib olsangiz o‘nqir-cho‘nqirlar ham hech gap emasdi.

– Biz ham toza ezilibmiz, – deydi Kirsanov o‘zi va Byumont haqida. Ikkovlari kelib xotinlarining yoniga o‘tirishdi. Kirsanov Vera Pavlovnani quchoqlab oldi; Byumont Katerina Vasilyevnaning qo‘lidan tutdi. Ajib manzara, baxtiyor er-xotinlarni ko‘rganda bahr-diling ochiladi. Qora kiygan xonimning chehrasida bir zum qandaydir xayol sharpasi ko‘ringanday bo‘ldi-yu, lekin yosh hamrohlaridan boshqa hech kim payqamadi, yosh yigit o‘rnidan turib, oyna yoniga bordi, sovuqning oynada aks etgan jimjima gullarini tomosha qilib turdi.

– Mesdames, sizlarning qissangiz juda ajoyib, lekin men yaxshiroq eshitmaganman, shunisini bilamanki, tarixingiz ham qiziq, ham ta’sirli, oxiri ham baxayr tamom bo‘ladi, shunisi menga yoqadi. Chol qayoqqa yo‘qoldi?

– Mezbonlik vazifasini bajaryapti, gazak hozirlayapti; o‘zi shunday ishlarni yaxshi ko‘radi, – dedi Katerina Vasilyevna.

– Unday bo‘lsa, mayli, xudo xayrini bersin. Qani, hikoyangizni boshlang. Lekin qisqa bo‘lsin; qisqa-qisqa hikoyalarni xush ko‘raman.

– Juda qisqa hikoya qilaman, – dedi Vera Pavlovna, – hikoya o‘zimdan boshlanadi; navbat boshqalarga kelganda, ular davom ettirishsin. Lekin aytib qo‘yay, hikoyamning oxirida sir saqlanadigan joylari bor.

– Bo‘pti, u yerga yetganimizda bu janoblarni uydan haydab chiqaramiz: yo hozir chiqarib yubora qolaylikmi?

– Yo‘q, hozir eshitib o‘tira berishsin.

Vera Pavlovna o‘z qissasini boshladi.

. . . . . .

– Ha, ha, ha! Bu yoqimtoy Jyuli-ku! Uni shunday yaxshi ko‘ramanki! Kelib tizzangga o‘tirib olishdan ham toymaydi, og‘ziga kelganini qaytarmaydi, sharm-hayoni bilmaydi! Juda yoqimtoy!

. . . . . .

– Qandingni ur, Vera Pavlovna! «Derazadan o‘zimni tashlayman!» – deganini aytmaysizmi, qandini ursin, janoblar! – Qora kiygan xonim chapak chalib yubordi. Shu ishora bilan yoshlar hammalari birdaniga chapak chalib, «qandingni ur», «ura», deb qichqirishdi.

. . . . . .

– Nima gap? Sizga nima bo‘ldi? – dedi Katerina Vasilyevna ikki-uch daqiqa o‘tgandan keyin.

– Hech nima, o‘zim, shunday; suv bering, tashvishlanmang, Mosolov olib kelyapti. Rahmat, Mosolov, – boya o‘rnidan turib deraza yoniga borgan yosh hamrohining qo‘lidagi suvni olib, – ko‘rdingizmi o‘rgatib qo‘yganimni, aytmasam ham o‘zi bilib turadi. O‘zimga keldim, davom ettira bering: qulog‘im sizda.

– Yo‘q, charchabman, – dedi-da, xonim besh daqiqalardan keyin ohistagina divandan turdi. – Dam olmasam bo‘lmaydi, biron soat mizg‘ib olay. Ko‘rdingizmi, tortinib-netib o‘tirmay, o‘rnimdan turdim. Qani, Mosolov, yur-chi, cholni axtaraylik, biron joy topib berar.

– O‘zim ham joy topib beraman, – dedi Katerina Vasilyevna.

– Siz tashvishlanmasangiz bo‘lardi.

– Bizni tashlab ketmoqchimisiz? – dedi yoshlardan biri juda qayg‘urganday, – bilsak, xanjaringizni taqib kelardik. Endi ko‘ksimizga soladigan narsamiz yo‘q.

– Hozir gazak olib kelishadi, ko‘ksimizga sanchqi ura qolamiz! – deb ilojini topganday xursand bo‘lib gapirdi yana bir yosh yigit.

– Yo‘g‘-e, vatanning ishongan tog‘lari bevaqt halok bo‘lib ketsinmi, – dedi juda bir tantanavor ohangda qora kiygan xonim, – sabr qiling, bolalarim. Mosolov, kichikroq yostiqni stolga olib qo‘ying.

Mosolov yostiqni stolga olib qo‘ydi. Qora kiygan xonim kerilib stol yoniga keldi-da, qo‘lini ohista yostiqqa qo‘ydi.

Yoshlar ham qo‘llarini shu qo‘l ustiga qo‘yishdi.

Katerina Vasilyevna holdan ketgan mehmon xonimni o‘rniga yotqizib kelish uchun u bilan birga chiqdi.

Ular zaldan chiqib ketgandan keyin haligi jim kelgan chanadagilardan qolgan uch kishi baravariga:

– Sho‘ring qurg‘ur! – deb yubordi.

– Azamat ayol, – dedi uch yosh yigit baravariga.

– Bo‘lmasam-chi! – dedi Mosolov g‘ururlanib.

– Ko‘pdan tanishmisan bu xonim bilan?

– Uch yilcha bo‘ldi.

– Uni-chi, yaxshi bilasanmi?

– Yaxshi bilaman. Tashvishlanmang, – qo‘shib qo‘ydi jim kelgan chanadagilarga qarab, – charchaganidan shunday bo‘ldi.

Vera Pavlovna shubhalanib eri va Byumontga bir-bir qarab, boshini chayqab qo‘ydi.

– Hikoyangni davom ettir! Yo charchadingmi? – dedi Kirsanov.

– Gapimga ishoninglar. Charchagan xolos. Uxlasa, o‘ziga kelib qoladi, – deya xotirjam takrorladi Mosolov.

Besh daqiqalardan keyin Katerina Vasilyevna kirib keldi.

– Xo‘sh? – deya olti kishi baravariga savol berdi. Faqat Mosolov indamadi.

– Yotqizib chiqdim, ko‘zi uyquga ketay deb qolgandi, hozir uxlagan bo‘lsa kerak.

– Men sizga aytdim-ku, – dedi Mosolov. – Hech gapmas.

– Nima bo‘lsa ham sho‘rlikka qiyin ekan! – dedi Katerina Vasilyevna. – U uyqudan turib kelganda ayrim-ayrim o‘tiraylik. Verochka, men siz bilan, Charli Sasha bilan birga o‘tirsin.

– Undan tortinmasligimiz kerak, – dedi Mosolov, – bemalol qo'shiq aytib, o'yin-kulgi qila beramiz, baqirib-chaqiraveramiz: uyqusi juda qattiq.

Agar uxlagan bo'lsa, unga zarari bo'lmasa, haqiqatan ham qisilib-qimtinishning nima keragi bor? Qora kiygan xonim tufayli o'rtaga cho'kkan chorak soatlik ko'ngil g'ashligi tarqab, xayoldan ko'tarildi, – butunlay ko'tarilgani yo'g'-u, lekin har holda bir qadar ko'tarildi. U chiqib ketgandan keyin yig'ilish ham sekin-sekin o'z iziga tushib, ilgarigi kechalarga o'xshay boshladi, hech qanday kori hol yuz bermaganday, vaqtixushlik bilan o'tdi.

Vaqtixushlik bilan o'tsa-da, ko'ngildagidek bo'lmadi. Har holda xonimlar bir necha marta qandaydir tashvish bilan bir-birlariga qarab qo'yishdi. Bir-ikki marta Vera Pavlovna erining qulog'iga shivirlab: «Sasha, men shu ahvolga tushsam nima qilamiz?» – dedi. Kirsanov dastlab nima deyishini bilmadi; ikkinchi safar javob topib: «Yo'q, Verochka, sen bunday ahvolga tushishing mumkin emas», dedi. «Mumkin emas? Imoning komilmi?» – «Ha». Katerina Vasilyevna ham erining qulog'iga bir-ikki asta shivirlab: «Charli, men bu ahvolga tushmasman-a?» – degandi, Byumont avval faqat iljayib qo'ydi, uning na xursandlik bilan, na tasalli berib iljayganini ajratib olish qiyin edi; lekin ikkinchi safar yana shu gapni eshitganida javob topib: «Bunday ahvolda qolishing mumkin emas, hech bir mumkin emas», degan.

Lekin faqat bir zum shunday holat yuz berdi, o'shanda ham dastlabiga shunday bo'ldi. Umuman olganda oqshom bazmlari xarala-tarala bilan o'tdi, yarim soatdan keyin to'polon qilib uyni boshlariga ko'tarishdi. Og'izlari gapdan tinmadi, o'yin-kulgi qilishdi, qo'shiq aytishdi. Mosolov, xonim uxlab yotibdi, deb ularni tinchitib, o'zi o'yin-kulgini boshlab turdi. Uyqusi bezovta bo'lmaydi, uxlab yotgan xonasi zaldan juda narida, o'rtada bir xona, yo'lak, zina bor, keyin yana bir xona bor, xonadonning narigi chetida uxlab yotibdi.

Shunday qilib, oqshom bazmi o'z iziga tushdi.

Yoshlar har safargiday goh bir guruhga, goh boshqa guruhga qo'shilishar, goh yana hammalari to'planib olishar edi. Byumont bir-ikki marta yoshlar to'piga kelib qo'shildi; bir-ikki marta yoshlarning hammasini Vera Pavlovna Byumontdan va juda jiddiy gapdan mahrum etib, o'z yoniga tortib oldi.

Juda ko‘p gap sotishdi; ulfatlarning hammasi muhokamaga aralashib tursa ham uncha ko‘p muhokama bo‘lgani yo‘q.

Hammalari to‘planib o‘tirishdi.

– Xo‘sh, oqibati nima bo‘ldi: yaxshimi, yomonmi? – deb so‘radi ma’yus bir qiyofaga kirgan yoshlardan biri.

– Yaxshidan ko‘ra yomonroq, – dedi Vera Pavlovna.

– Nega endi yomonroq, Verochka? – dedi Katerina Vasilyevna.

– Har holda hayotda shunday bo‘lishi turgan gap, – dedi Byumont.

– Turgan gap, – deb tasdiqladi Kirsanov.

– Yaxshi-yu yomon, demak, yaxshi, – degan qarorga keldi savol bergan kishi.

Qolgan uch o‘rtog‘i bosh chayqab: «Qandingni ur, Nikitin», dedi.

Yoshlar bir chekkada o‘tirishgandi.

– Nikitin, men uni bilmas ekanman; sen bilarding shekilli? – so‘radi Mosolov.

– Men u vaqtlarda yosh bola edim. Ko‘rganman.

– Hozir nima deb o‘ylaysan, eslab ko‘r-chi, ularning gapi to‘g‘rimi? O‘rtoqlik qilib oshirib yuborishmadimi?

– Yo‘q.

– O‘shandan keyin ham uni ko‘rganlari yo‘qmi?

– Yo‘q, aytmoqchi, u vaqtda Byumont Amerikada edi-ku.

– To‘g‘ri! Karl Yakovlich, mumkin bo‘lsa, bir daqiqaga kelsangiz. Siz Amerikada bular aytayotgan rus bilan uchrashganmisiz?

– Yo‘q.

– Endi qaytib kelsa ham bo‘lardi.

– Ha, kelsa ham bo‘lardi.

– Miyamga bir fikr kelib qoldi, – dedi Nikitin, – xonim bilan ikkovlari qani endi juft bo‘lishsa.

– Janoblar, menga kim jo‘r bo‘ladi, – dedi Vera Pavlovna, – bir emas, ikki ishqibozmi? Yana ham yaxshi.

Mosolov bilan Nikitin qoldi.

– Nikitin, senga qiziq bir narsa ko‘rsataman, – dedi Mosolov. – Seningcha, qalay, xonim uxlab yotganmikin?

– Yo‘q.

– Lekin aytmagin. Yaxshiroq tanish bo‘lib olganingdan keyin aytsang bo‘ladi. Boshqa hech kimga aytma. Xonim yoqtirmaydi.

Xonadonning oynalari past edi.

– Mana bunisi, chiroq yonib turgan derazami? – Mosolov derazaga qaradi. – Shu deraza, ko‘rdingmi?

Qora kiygan xonim kresloni stolga yaqin surib, chap qo‘lini stolga qo‘yib, yonga qiyshaygan boshini bilagiga suyab o‘tirgandi, chakkasi va sochining bir qismini bilagi to‘sib turardi. O‘ng qo‘lini stolga qo‘yib, bir kuyni mashq qilayotganday barmoqlari bilan stol chertardi. Xonimning harakatsiz yuzi bir narsani o‘ylab o‘tirganday, g‘amgin, lekin uning qahri qattiq ayolligi barala sezilib turardi. Qoshlarini ba’zan sal chimirib qo‘yardi.

– Mosolov, u hamisha shundaymi?

– Ko‘ryapsan-ku, bas endi, shamollab qolamiz. Chorak soat turibmiz.

– O‘zing qanday bag‘ritosh odamsan! – deydi Nikitin, yo‘lakdagi chiroq yonidan o‘tib borayotganlarida, o‘rtog‘ining ko‘zlariga tikilib.

– Ko‘ngling buzilib ketdimi, deyman, og‘ayni. Bir ko‘rganing uchun shunday bo‘ldi.

Gazaklar keltirib qo‘yishdi.

– Bu araq juda zo‘r bo‘lishi kerak, – dedi Nikitin, – muncha o‘tkir? Nafasni bo‘g‘ib qo‘yaman, deydi-ya!

– Voy, qiz bola-yey! Ko‘zlari ham qizarib ketibdi! – dedi Mosolov.

Hammalari Nikitinni izza qilmoqchi bo‘lishdi. «Qalqib ketdim, men ham ichishni bilaman», deb aybini yashirish payidan bo‘ldi. Soat necha, deb vaqtni surishtirishdi. Endi o‘n bir, yana yarim soat laqillashib o‘tiramiz, ulguramiz.

Yarim soatdan keyin Katerina Vasilyevna qora kiygan xonimni uyg‘otgani chiqib ketdi. Xonim unga ostonada duch keldi, uyqudan turgan ekan.

– Yaxshi mizg‘ib oldingizmi?

– Maza qilib uxlab oldim.

– Endi qalaysiz?

– Juda joyida. Hech gapmas, deb aytdim-ku sizga: charchabman, o‘zimiz ham o‘lguday sho‘xlik qilgan ekanmiz. Endi og‘irroq bo‘lib yuraman.

Lekin o‘zini og‘ir tutishi qo‘lidan kelmadi. Besh daqiqa o‘tgach, u yana Polozovni o‘ziga maftun etib, yoshlarga buyruq berishga tushib ketdi, qo‘liga sanchqi olib, dastasi bilan marsh chalib, tiqirlatib o‘tirdi. Bir vaqt, ketamiz, deb qistadi, buning quvnoqligini ko‘rib yana sho‘xligi qo‘ziganlarning endi ketgisi kelmay qoldi.

Xonim ovqatlanib bo‘lgandan keyin o‘rnidan turib:

– Otlar tayyormi? – deb so‘radi.

– Yo‘q, otlarni qo‘shinglar, deb endi buyurdik.

– Ha, yuzi qoralar! Unday bo‘lsa, Vera Pavlovna, menga biron qo‘shiq aytib bering, ovozingiz yaxshi, deb eshitganman.

Vera Pavlovna qandaydir bir qo‘shiq aytdi.

– Qo‘shiq aytishingizni hali tez-tez iltimos qilaman, – dedi qora kiygan xonim.

– Endi sizdan bo‘lsin, o‘zingizdan! – hammalari xonimdan iltimos qilishdi.

U qistatib o‘tirmasdan royal yoniga borib o‘tirdi.

– Jonim bilan aytardim-u, lekin qo‘shiq aytishni bilmaymanda, bilmasam, ham aytaman, hech narsadan toymayman. Lekin mesdames va messieurs, siz uchun emas, faqat bolalar uchun qo‘shiq aytaman. Bolalarim, onangizdan kulmang! – dedi-da, royalni ovoziga sozlab, akkordlar chalib ko‘rdi. – Bolalarim, kulmang, nega desangiz, men dardmand qo‘shiq aytaman. – Notalarni mumkin qadar qattiqroq yangratib ashula boshladi:

Faryod chekar ko‘k...

Kutilmagan yerda bunday gapni eshitgan yoshlar piq-piq kulib yuborishdi, ularga qo‘shilib boshqalar ham kuldi, ashulachi ham o‘zini kulgidan to‘xtatolmadi, lekin bir zo‘r bilan kulgisini bosdi-da, yana ham chinqiroq ovoz bilan davom etdi:

...kaptarcha,
Faryod chekar tun-u kun:
Uning sevgilisi esa...[1]

[1] I.I. Dmitriyevning romansidan.

Shu so'zga kelganda ovozi rostdan ham qaltirab uzildi. «Chiqmayapti, – chiqmasa, juda yaxshi bo'pti, chiqmagani ma'qul, boshqa tuzukrog'i chiqib qolar, – bolalarim, onangizning nasihatiga quloq soling: oshiq bo'lmang, bilib qo'ying, uylanmang». Kuchli sof ovoz bilan ashula boshladi:

Ovulimizda ko'p go'zal dildorlar,
Qora ko'zlarida yulduzlar porlar;
Ularni sevishlik ko'p yaxshi ishdir!
Lekin, –

Mana shu «lekin»i bo'lmag'ur narsa, bolalarim, –

Lekin yoshlik erki undan ham xushdir[1]*, –*

e'tirozim bunda emas, – bunday e'tiroz bildirish ahmoqlik bo'ladi, lekin sababini o'zingiz bilasiz:

Yosh yigitcha, uylanma!
Nasihatimni tingla![2]

Bolalarim, bundan keyingilari bema'ni gaplar; bunisi ham bema'ni gap; mumkin, bolalarim, sevilish ham mumkin, uylanish ham mumkin, lekin ko'rib-bilib, aldanmasdan, aldamasdan uylanish kerak, qo'zichoqlarim. Men o'z sarguzashtimni, qanday erga chiqqanimni kuylayman, bu eski romans, lekin o'zim ham keksaman-ku. Dalton qasrimizda, balkonda o'tirgandim, asli shotlandiyalikman, o'zim oppoq, malla sochi – sumbulim; yonginamizda o'rmon, Bringal daryo sohili balkonga, albatta, yashirincha kelib turardi qallig'im; kambag'al-qashshoq, men esam boyvuchcha, baron arzandasi, lord qizi edim; uni juda yaxshi ko'rardim, men unga:

Bringalning tik sohili go'zal,
Atrof yashil, o'rmondir ko'rkam;
Kunduz ikkimizga boshpana, –

---

[1] M.Y. Lermontovning «Zamonamiz qahramoni»dagi Kazbich qo'shig'idan.
[2] M.Y. Lermontovning «Izmailbey» poemasidan.

deb qo'shiq aytardim, chunki u kunduzlari bekinib yurardi, har kuni joyini o'zgartirib bekinib yotardi, –

Aziz unib o'sgan uydan ham;

aytmoqchi, tug'ilib o'sgan uyimni chindan ham uncha yoqtirmasdim. Unga: sen bilan ketaman, deb qo'shiq aytardim. Qanday o'ylaysiz, u menga nima deb javob berardi?

Ey go'zalim, menga tegish-chun
Unvon, nasling unutmoqchisan.

Chunki men zodagonlardanman, –

Ammo lekin hammadan burun
Qismatimni bilishni o'rgan.

«Sen ovchimisan?» – derdim. – «Yo'q. – «Brakonyermisan?»[1] – «Topay deding», – derdi u, chunki siz bilan biz, bolalarim,

Biz jaholat farzandlari yig'ilishgan on, –

mesdames va messieurs, juda yomon odamlarmiz, –

Bizlardan lozimdir, so'zimga ishon,
Unutmaylik hozir kimmiz o'zimiz,
Unutmaylik kim edik bir zamon, –

deb qo'shiq aytardi. «Allaqachon topganman, – derdim men, – sen qaroqchisan»; to'g'rimi gapim, u qaroqchimi? Ha, qaroqchi. Janoblar, u nima deb javob berardi? «Ko'rib turibsan, men sen uchun yomon qalliqman», derdi.

O go'zal qiz, men yovuz do'stman,
Xilvat o'rmon manzil – makonim;

---

[1] Brakonyer – man qilingan joyda ov qiluvchi.

juda to‘g‘ri aytardi, xilvat o‘rmonda yashardi, shuning uchun men bilan yo‘ldosh bo‘lma, derdi.

Umrim to‘la xavf-xatar bilan,

chunki xilvat o‘rmonlarda yirtqich hayvonlar bor, –

Ayanch bo‘lar jon berar onim, –

bu gapi to‘g‘ri emas, bolalarim, oxiri voy bo‘lmaydi, lekin o‘sha vaqtda men ham, u ham shunday bo‘lar, deb o‘ylagan edik; lekin men o‘z bilganimni qo‘ymay javob berib derdim:

Bringalning tik sohili go‘zal,
Atrof yashil, o‘rmondir ko‘rkam;
Kunduz ikkimizga boshpana,
Aziz unib o‘sgan uydan ham[1].

– Rostdan ham shunday edi. Demak, afsuslanmasam ham bo‘ladi: qadam qo‘ymoqchi bo‘lgan yo‘limning qandayligini aytishgan edi. Ana shunday: o‘rtaga yolg‘onni suqmasdan uylanish, ko‘ngil qo‘yish mumkin, bolalarim; lekin odam tanlashni ham bilinglar.

Ohista, jimjit,
Oy bosh ko‘tarar.
Jangovar yigit
Jangga ketar.
U miltiq o‘qlar;
Unga der dilbar:
Yorim, dadilroq,
Taqdirga ishon –

Bundaylarga oshiq bo‘lsa, bundaylarga uylansa arziydi.

---

[1] Valter Skottning «Rokeby» poemasidan.

«Sasha, aytgan gaplarimni unut, bu xotinning gapiga quloq sol!» – bir ayol shivirlab birovning qo'lini siqib qo'ydi. «Nega men senga shunday demabman? Endi shunday deydigan bo'laman», deya boshqa bir ayol shivirlab qo'ydi.

– Bundaylarni sevishingizga ham ijozat beraman, ham omad tilayman, bolalarim:

Yorim, dadilroq
Taqdirga ishon![1]

Sizga qo'shilib juda ham yozilib ketdim, xushvaqtlik bor joyda mayxo'rlik qilish kerak.

Hoy, hoy, aziz kosagulim,
Quygin bol ham, sharob ham –

bol deyishimning sababi faqat shuki, she'rdan uni chiqarib tashlab bo'lmaydi, shampanskiy qoldimi? A? Juda soz, qani, ochinglar.

Hoy, hoy, aziz kosagulim,
Quygin bol ham, sharob ham, –
Ularni ichib olgach,
Qizishsin bu boshginam!

Kosaguli kim bo'ldi? Men erurman kosagul:

Qora ko'z kosagulning,
Poshnalari nag'alli.[2] –

Sapchib o'rnidan turib, qo'llari bilan qoshlarini siladi-da, poshnalari bilan yer tepib o'yinga tushib ketdi.

– Quydim, qadahlar tayyor! – mesdames va messieurs, qariyalar-u bolalar, qani marhamat, vaqtixushlik qilinglar!

– Kosagulning sog'lig'iga! Kosagulning sog'lig'iga!

---

[1] M.Y. Lermontovning «Izmailbey» poemasidan.

[2] Ukrain xalq qo'shig'idan.

– Rahmat! O‘z sog‘lig‘im uchun ichaman, – yana royal yoniga borib o‘tirdi-da, kuylay boshladi:

G‘am-g‘ussa kul-kul bo‘lsin!

kul-kul ham bo‘ldi, –

Yanglishmasam qalblar aro
Shodlik mangu bo‘lsin jo[1], –

shunday bo‘ladi ham, turgan gap:

Vahm, qo‘rquv soya singari
Kun nuridan ura qochadi;

Nur, issiq, atir islari
Tezda sovuq, zulmatni quvib
O‘ziga keng yo‘llar ochadi;
Mog‘or hidi zaiflanadi,
Gullar hidi gurkirab yana...[2]

[1] N.A. Nekrasovning «Yangi yil» she’ridan.
[2] Ingliz shoiri T. Gudning «Stanslar» nomli she’ridan.

OLTINCHI BOB

DEKORATSIYALARNING O‘ZGARISHI

– Passajga! – dedi qora kiygan xonim, lekin hozir u qora kiygan emas: egnida to‘q pushti ko‘ylak, boshida pushti shlapa, ko‘ylagi ustidan oq mantilya kiygan, qo‘lida bir dasta gul. Kolyaskada Mosolov ikkovi. Mosolov bilan Nikitin kolyaskaning oldingi o‘rindig‘ida o‘tirishibdi, izvoshchining yonida yana bir yosh yigit ham bor; xonimning yonida o‘ttizlarga kirgan bir kishi o‘tiribdi. Xonim necha yoshda? O‘zi aytganday, yigirma beshga kirganmi, yigirmada emasmikin? Agar yoshiga qo‘shib olgan bo‘lsa, buni vijdoniga havola qilamiz.

– Azizim, bu kunni ikki yil kutdim, undan ham ko‘proq: anavi bilan tanishgan vaqtimda (u ko‘zi bilan ishora qilib Nikitinni ko‘rsatdi), ko‘nglimga bir narsa kelganday bo‘ldi-yu, lekin kutdim, deb aytishim to‘g‘ri emas; u vaqtda faqat umidvor edim, birozdan keyin ishonch ham yetib keldi.

– Xo‘sh, nima gap o‘zi? – deydi kitobxon, – faqat farosatli kitobxon emas, har qanday kitobxon, esini yig‘ib olgach, hayron bo‘lib, – Nikitin bilan tanishganimdan keyin oradan ikki yildan ham ko‘proq vaqt o‘tdi, deydimi?

– Ha, shunday, – javob qaytaraman men.

– Axir, u qish oxirlarida bo‘lgan sayrda Kirsanovlar va Byumontlar bilan tanishganida, Nikitin bilan ham tanishgan edi-ku?

– Juda to‘g‘ri aytasiz, – javob beraman men.

– Bo‘lmasa, bu nimasi endi? Siz 1865-yil to‘g‘risida hikoya qilmoqchimisiz?

– Ha, shunday.

– Shunday ham bo‘larkanmi, afv etsinlar!

– O‘zim bilganimdan keyin, nega bo‘lmas ekan?

– Qo‘ying-e, gapingizga kim ham quloq solardi, deysiz!

– Siz-chi, siz quloq solmaysizmi?

– Siz meni kim deb o‘ylayapsiz? Albatta, quloq solmayman.

– Agar hozir quloq solishni xohlamasangiz, men, albatta, hikoyam davomini eshitishga fursat topadigan vaqtingizgacha aytmay turishim lozim bo‘ladi. Tez orada shunday fursat ham kelib qolar, deb umid qilaman.

1863-yil, 4-aprel.

MUNDARIJA

I. Ahmoq 3
II. Ahmoqona ish yuzasidan birinchi tergov 6
III. So'zboshi 10
Birinchi bob. Vera Pavlovnaning ota-ona qo'lida kechirgan hayoti 14
Ikkinchi bob. Birinchi muhabbat va nikoh 60
Uchinchi bob. Oilaviy hayot va ikkinchi muhabbat 159
To'rtinchi bob. Ikkinchi oilaviy hayot 332
Beshinchi bob. Yangi kishilar va voqeaning pirovardi 423
Oltinchi bob. Dekoratsiyalarning o'zgarishi 492

Adabiy-badiiy nashr

NIKOLAY GAVRILOVICH CHERNISHEVSKIY

NIMA QILMOQ KERAK?
Roman

Nashr uchun mas'ul *A. Boboniyozov*

To'plab, nashrga tayyorlovchi *T. Mirzayev*

Muharrir *T. Mirzayev*
Rassom-dizayner *B. Zufarov*
Texnik muharrir *L. Xijova*
Kichik muharrir *M. Salimova*
Musahhihlar: *A. Umirova, S. Saloxutdinova*
Kompyuterda tayyorlovchi *F. Botirova*

Nashriyot litsenziyasi AI № 158, 14.08.2009.
Bosishga 2021-yil 15-iyulda ruxsat etildi.
Bichimi 60×90 1/16. Ofset qog'ozi. «Times New Roman» garniturasida
ofset usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 31,0.
Nashr tabog'i 29,82. Adadi 10 000 nusxa. Buyurtma № 21-92.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20
Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.
e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz.
www.iptd-uzbekistan.uz

34836,95 C

74

N.G. Chernishevskiy

«O'ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-6584-9-3
9 789943 658493